2024-yil, noyabr 19-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

2025 YIL

“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi

Ibodatxon RUSTAMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)
ibodatrustamovna@gmail.com

HIKOYADA ROVIY FUNKSIYASI

Annotatsiya: maqolada roviy rivoya tarzi va uning funksiyasi Abdulla Qahhorning “Bashorat” hikoyasi misolida tahlil etiladi. Roviyning badiiy asar syujetidagi va hikoya strukturasini tashkillashdagi ahamiyati badiiy matn asosida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *roviy, rivoya tarzi, struktura, syujet, kompozitsiya, funksiya.*

Аннотация:в статье анализируется стиль повествования рассказчика и его функции на примере рассказа Абдуллы Кары «Пророчество». На примере художественного текста исследуется значение повествователя в сюжете художественного произведения и в организации структуры рассказа.

Ключевые слова: *повествователь, стиль повествователя, структура, сюжет, композиция, функция.*

Annotation: the article analyzes the narrator's style of narration and its function on the example of Abdulla Qahhr's story "Prophecy". The importance of the narrator in the plot of the work of art and in the organization of the story structure is studied on the basis of the literary text

Keywords: *eastern poetics, rhyme theory, types of rhyme, composition of a lyrical work, classical rhyme, ravium.*

Kirish. Hayotiy voqealar muallif ijodiy prizmasidan o‘tib, badiiy voqelikka aylanar ekan, uning niyatlarini amalga oshirishda roviy asosiy figura sanaladi. Roviyning rivoya tarzi badiiy voqelikni shakllantirish jarayonidagi roviyning bayon usuli hisoblanib, uni amalga oshirishda muallif asar strukturasida roviy va obrazlar nutqidan foydalanadi. Rivoya tarzining bu ko‘rinishlari asarda badiiy voqelikni tashkillashda asosiy vosita bo‘lib, syujetda roviy rivoya tarzining turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga olib keladi. Bayon etish usulining o‘ziga xos bu ko‘rinishi badiiy voqelikni tashkillash tamoyillarini shakllantiradi. O‘zbek adabiyotshunosligida nasriy asarlarda roviyning funksiyasi nihoyatda kam tadqiq etilgan. Rus va jahon adabiyotshunosligida bu borada birmuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan. “Demak, hikoya etish muallif ijodkor tomonidan epik asarning “ikkinchi darajali” subyektiga (hikoya qiluvchiga) tegishli va “vositachilik” vazifasini bajaruvchi (o‘quvchi bilan badiiy asarni bog‘lab turadigan) matn parchalari to‘plamidir, bu birinchidan, o‘quvchiga qaratilgan turli xil ma’lumotlarni taqdim etish bo‘lsa, ikkinchidan qahramonlar va hikoya qiluvchining barcha mavzularga yo‘naltirilgan bayonotlarini yagona tizimi doirasida bir-biriga bog‘lash hamdir” [1: 295].

Abdulla Qahhor nasrida roviy rivoya tarzi va roviy funksiyasini badiiy matn asosida o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Adabiyotshunoslikka oid manbalarda qissaxon, qissaxon-hikoyachi, roviy kabi terminlarga duch kelamiz. Bizga ma’lumki, qissaxon termini qissada hikoya qilib beruvchi shaxsga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, roviy termini rivoyatlarda rivoya qilib beruvchiga nisbatan ishlatilgan. Shuning uchun bugungi kunda ayrim ilmiy tadqiqotlarda qissaxon, qissaxon-hikoyachi, roviy terminlari qo‘llanib kelinmoqda. Biz esa maqola maqsadidan kelib chiqib, roviy terminini qo‘llashni ma’qul deb bildik. Umuman aytganda, badiiy matnni shakllantirishda roviy muhim o‘rin tutadi. Bu nutq asarda boshqa ishtirokchilar nutqidan imkoniyatining kengligi bilan ajralib turadi. Roviy asar syujetida kommunikativ munosabatlarni ifodalovchi hisoblanadi. Ikki individ (yozuvchi – kitobxon) o‘rtasidagi munosabat asosan roviy vositasida amalga oshiriladi. U syujetda voqea-hodisalarga, obrazlarga o‘z munosabatini bildirishi, kitobxonni ortidan ergashtirishi va voqea-hodisalarga oydinlik kiritishi mumkin. Asarning istagan o‘rnida ishtirok etuvchi obrazlarga nisbatan u ochiqdan ochiq o‘z munosabatini bildira olish imkoniyatiga ham ega. Badiiy asar strukturasi va obraz xarakterining shakllanishida roviy rivoya tarzi asosiy sanaladi. “Binobarin, muallif obrazi virtual hodisa, amalda aytaylik personajlar kabi mavjud emas, vujudga kelishi mumkin obraz” [2: 25]. Badiiy asarda obraz cheklangan pozitsiyada turadi, ularni ba’zan salbiy, ba’zan ijobiy obraz deb baholay olamiz. Ammo roviy obraziga nisbatan bunday munosabat bildira olmaymiz. Roviy bir vaqtning o‘zida asarning badiiy va struktural butunligini ta’minlovchi asosiy figura sanaladi. U asar strukturasida gorizontal va vertikal tomondan birlashtiruvchi asos, o‘q sanaladi, yozuvchi ixtiyori bilan asarning istalgan joyida namoyon bo‘la oladi. Shuningdek, roviyning asardagi salmog‘i muallif maqsadi, janr talabidan kelib chiqib, turli darajada bo‘ladi.

Asosiy qism. “Bashorat” hikoyasi Abdulla Qahhor

ijodida o‘ziga xos qimmatga ega bo‘lgan asarlardan biridir. “Bashorat”da roviy va qahramon munosabati yaqqol ko‘rinib turadi. Muallif hikoya boshlanishida ikkitagina gap keltiradi: “Nikolay zamonida mayiz qimmat, ko‘knor arzon edi, hozirgi zamonda mayiz arzon, ko‘knor qahat! Essizgina o‘sha vaqtda chala siqib tashlangan ko‘knorlar!” [3: 300]. U

Ushbu luqma kimniki ekanligini hikoya ekspozitsiyasida kitobxon bilmaydi. Bu roviy gapimi yoki asar ishtirokchisining gapimi? Keltirilgan keyingi ma’lumotdan bu gap asar ishtirokchisi Said Jalolxonga tegishli ekanligini bilib oladi. “Mulla Said Jalolxon shuni ko‘nglidan o‘tkazib devorga suyandi va ko‘zlarini yumdi, burnidagi pashshani qo‘lidagi ro‘molcha bilan qo‘rish malol keldi, shekilli, ostki labini cho‘zib, “puf” dedi. Pashsha ko‘tarildi, ammo shu ondayoq, uning labiga qo‘ndi. Said Jalolxon sekin labini qimtib, pashshaning oyog‘idan qisib oldi. Tuzoqqa tushgan bu dilozorni ushlab, ikki barmoq orasida aylantirib tashlash qasdida ko‘tarilgan qo‘l to labiga kelguncha, la’nati pashsha oyog‘ini sug‘urib qochdi” [3: 300].

Roviy asar qahramonini juda yaqindan kuzatib boryapti, harakatlari haqida aniq ma’lumotga ega. U faqat kuzatuvchi sifatida ishtirok etib, qahramon harakat va holatlariga munosabat bildirmaydi. Birinchi jumlada keltirilgan so‘zlar integral munosabatlar asosida oydinlashib boraveradi. Bangi Said Jalolxonga ko‘knor qadrli, shuning uchun ko‘knorning narxi balandligi uning g‘ashini keltiradi, mayizning arzonligini hazm qilolmay, Nikolay zamonini orzu qiladi. Unga mayizdan ko‘ra ko‘knor qadrliroq. Birinchi jumladagi so‘zlar bevosita keyingi jumlalarda izohlab boriladi. Syujetda roviy xarakteristikasini emas, axborot bayonini kuzatib boramiz. Demak, Said Jalolxonga ko‘knordan boshqa hech narsaning keragi yo‘q. Tursa ham, yursa ham, hatto uyqusida ham faqat ko‘knor haqida o‘ylaydi. Said Jalolxon o‘ylarini syujetning boshlanishida berilishi roviyni u haqda axborot berishdan qutqaradi. Said Jalolxon o‘z-o‘zini fosh etadi. Syujet boshida uning replikasi birinchi berilmaganda, roviy uni kitobxonga tanishtirishi va ma’lumot berishi zarur edi. Said Jalolxonning ko‘knoriligi, nimalarga qiziqishi, uning o‘ziga xos hayot tarzi haqidagi ma’lumot roviy bayoni vositasida matnga singdirilar edi. “Ko‘knor qahat. Esizgina o‘sha vaqtda chala siqib tashlangan ko‘knorlar!“ Bu jumla Said Jalolxon haqidagi ma’lumotga yanada oydinlik kiritadi. Aynan “qahat” so‘zi bosh qahramon ma’naviy dunyosi haqida aniq ma’lumot berish bilan birga, kalit so‘z vazifasini bajaradi. Roviy nutqida berilgan “dilozor” so‘zi esa Said Jalolxon salbiy xatti-harakatlari roviy tomonidan ma’qullanayotganini bildiradi. Obrazning salbiy tomonlarini qo‘llab-quvvatlab turishi yaqqol ko‘rinadi. Roviy ishtirokchi obrazlar xususida ortiqcha tafsilotlarga berilmaydi, yuqoridagi kabi bir-ikki kalit so‘zlarni roviy nutqida berish bilan obrazning o‘ziga xos jihatlarini aniq chizib beradi. Ba’zan asar syujetida berilgan bu kabi kalit so‘zlar muallif pozitsiyasini belgilashga ham xizmat qiladi.. Said Jalolxon tilidan: “Yo‘q yerdan ko‘knor topib kayf qilib o‘tirganimda bu nimasi?”– deb ta’kidlanishi roviy nutqining ta’sirchanligini oshiradi. “Dilozor”, “la’nati” so‘zlarining roviy nutqida berilishi kitobxonni hayratlantiradi, tarafkashlik pozitsiyasini yaqqol ko‘rsatadi. Kitobxon “Nahotki, muallif bangi va ishyoqmas Said Jalolxon tarafini olsa!”– deb ta’sirlanadi, faollashadi. Roviyning bayon usuli ham birdaniga matnda o‘zgarib ketadi, natijada kitobxonning asar mazmunini bilishga bo‘lgan istagi yanada kuchayadi: “Insof yuzasidan aytganda, pashsha yaramas mahluq, quyib qo‘yilgan choyga tushib tarvayib yotadi, mayiz talashadi, pokiza qilib suzib qo‘yilgan ko‘knordan qanoti chiqadi. Qanotini ko‘knorga tashlab, o‘zi qayoqqa ketadi, deng“ [3: 300]

Abdulla Qahhor uslubining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u ataylab xalq tilida qo‘llanilgan so‘zlarni qahramon va personajlar nutqida ishlatib, obraz nutqini xalq tiliga yaqinlashtiradi. Masalan, o‘zi insof nima, diyonat nima ekanligini bilmaydigan Said Jalolxon insof so‘zini tilga olib, pashshani insofsizlikda ayblab, pokiza qilib suzib qo‘yilgan ko‘knoriga achinadi. Aynan shu o‘rinda, muallifning yashirin kinoyasi mavjud bo‘lib, ataylab kitobxonni “O‘zing kim-u, yana pashshaning qilgan ishlaridan norozi bo‘lishing nimasi?” degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Natijada bu holat kitobxon tuyg‘ulariga ta’sir etadi. Matn tarkibidagi mavjud kalit so‘zlar hikoya syujetining dinamikasiga xizmat qiladi, janr talablarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Ma’lumki, badiiy matn yaratishda janr talablariga amal qilish asosiy tamoyil sanaladi. Kalit so‘zlar syujetni siljitish bilan birga ortiqcha bayonchilikka yo‘l qo‘yilmaslikni ta’minlaydi. “Bashorat”da asosan roviy va Said Jalolxon o‘rtasidagi munosabat ko‘rsatilgani bois roviyning ishtirok salmog‘i ko‘proq kuzatiladi. Bunga sabab Said Jalolxon salbiy obraz, u muallif konsepsiyasini to‘liq ro‘yobga chiqara olmaydi. Syujetdagi makon va zamonning tez o‘zgarishi, tush elementining ishtiroki, izoh talab nuqtalarning mavjudligi roviyning bayon tahlilini talab etadi va uning matndagi funksiyasini kengaytiradi. Natijada roviy syujetdagi o‘zgaruvchan voqea-hodisalarni izohlaydi va ularni bir-biriga payvandlaydi. “Keskin o‘zgarishlar nuqtasining muhim va umumiy ahamiyati”ni belgilaydi. U asar syujetida, zamon va makon o‘zgarishlari tig‘izlashgan nuqtalarida asosiy figura sifatida ishtirok etadi. Hikoyada roviy ishtirokining ko‘lamliligi syujetdagi zamon va makon o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Turli syujet ko‘rinishlari almashayotgan nuqtada muallif o‘ziga xos usulni topa bilgan. Oddiy ko‘ringan bu usul murakkab ijodiy jarayon hisoblanib, muallifdan mahorat talab etadi. Aynan shu kabi ko‘rinishlarga nisbatan B.Uspenskiy “polyotniy syujet” atamasini qo‘llaydi. Muallif voqealarning asosiy o‘rinlarini tasvirab beradi, zamon va makon o‘zgarishlari matnda kuzatiladi. “Bashorat”da ham

voqealar bosh qahramon kayfida berilganligi sababli, makon va zamon juda tez o‘zgarib, ular sahroda, rais idorasida Shamsiddinning uyida yuz beradi. Sahroda, Shamsiddinning uyida, raisning idorasida bo‘lgan voqealar kayfi aralash tushida ro‘y bergan bo‘lsa, o‘z uyidagi voqealar real hayotda, o‘ngida bo‘lib o‘tadi. Roviyning qoliplovchi hikoyasi voqealarni bir-biriga bog‘laydi. Roviy izohida berilgan ayrim so‘zlar uning matndagi pozitsiyasini ro‘yobga chiqaradi. Muallif tomonidan keltirilgan emotsional kalit so‘zlar asar badiiyligini oshiradi, kitobxonga estetik zavq baxsh etadi. “Said Jalolxon ko‘knorning hammasini ko‘tarib jo‘nadi, uni hujrasiga qo‘yib yana ko‘p joylarga bordi, hatto yuk avtomobilining kapoti ustiga ayri minib shaharga ham tushib chiqdi. Hech qayerda bunday ulgurji g‘animat (ta’kid – bizniki I.R.) uchramadi” [3: 301]. “G‘animat” so‘zining umr, vaqt so‘zlariga nisbatan qo‘llanilishi bizga ma’lum, ammo bir qop ko‘knorga nisbatan “g‘animat” so‘zining qo‘llanilishi kitobxonni hayratlantiradi.

Xulosa. Demak, sarguzasht elementlar ishtirok etgan asarlarda roviy funksiyasi ko‘lamligi bilan ajralib turadi. “Bashorat” hikoyasidagi har bir hodisa Said Jalolxonning nigohi orqali berilganligi uchun ham u syujetda faollikni o‘z qo‘liga oladi, xatti-harakatlari ham roviyning betaraf kuzatuvchilik pozitsiyasi asosida amalga oshiriladi.

Aristotel estetik zavqni badiiy asarning go‘zal shakli ta’siri bilangina emas, balki, eng avvalo, bilish beradigan huzur bilan bog‘laydi. Badiiy asarni bilish va tushunish yozuvchining mahorati, badiiy asar strukturasiga bog‘liq hodisa. Voqelikni badiiy talqin etishda roviy rivoya tarzi muhim hisoblanib, asar kompozitsiyasini tashkillashda, hikoya badiiy butunligini amalga oshirishda, muallif konsepsiyasini berishda yetakchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тамарченко Н. Повествование. // Введение в литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины. –Т.1. –Москва, 2004.
2. Мелиев С. “Хамса”да муаллиф образи категорияси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008 5- сон.
3. Абдулла Қаҳҳор Асарлар. Беш жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

Saodat KAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori

ADABIYOT DARSLARIDA ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARNI O‘QITISH MEZONLARI

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot darslarida adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish bosqichlari, darajalari va mazmuni haqida so‘z yuritiladi. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘qitish asosida adabiyotning san’at turi sifatidagi mohiyatini anglash masalasi tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *so‘z san’ati, estetika, adabiy-nazariy tushunchalar, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, boshlang‘ich, minimal, asosiy, yuqori darajalar.*

Аннотация: в статье говорится об этапах, уровнях и содержании изучения литературно-теоретических понятий на уроках литературы в общеобразовательных школах. На основе преподавания литературно-теоретических понятий анализируется вопрос понимания сущности литературы как вида искусства.

Ключевые слова: *искусство слова, эстетика, литературно-теоретические понятия, уровень усвоения знаний, начальный, минимальный, базовый, продвинутый уровни.*

Annotation: the article talks about the stages, levels and content of learning literary and theoretical concepts in literature lessons of general secondary schools. Based on the teaching of literary-theoretical concepts, the issue of understanding the essence of literature as an art form is analyzed.

Key words: *art of words, aesthetics, literary and theoretical concepts, level of knowledge acquisition, initial, minimal, basic, advanced levels.*

O‘qituvchi adabiyot o‘qitish jarayonini tashkil etar ekan, doimo so‘z san’ati bilan shug‘ullanayotganini unutmasligi va buni o‘quvchilarga his qildirishi maqsadga muvofiq. O‘quvchi shaxsining ma’naviy ehtiyojlari estetik tamoyillarga asoslangan turmush tarzida aniq namoyon bo‘ladi. Binobarin, estetik go‘zallik o‘quvchining o‘rganayotgan obyekt mohiyatini

anglashiga xizmat qilishi lozim. Garchi turli millatga mansub odamlar bir-birlarining tilini tushunmasalar ham, badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at namunalari ularni ruhan yaqinlashtiradi, chunki insoniyatda go'zallikka intilish hissi umumiydir. Bu intilishda insonning ichki dunyosi, didi va tafakkuri namoyon bo'ladi. Shu asosda estetik qonuniyatlar insonlarni yaqinlashtiradigan ruhiy quvvat deyish mumkin. Faqat qalban yuksak odamlargina go'zallikni uning fazoviy ko'rinishlarida his qila oladi.

Ayonki, har bir inson o'z qobiliyatini buyuk ijodkorlar darajasida rivojlantira olmaydi. Shunga qaramay, estetik qonuniyatlar asosida yashashga, ajdodlarning ma'naviy merosini o'zlashtirishga, hayotini yuksak qadriyatlar bilan boyitishga harakat qila bilishi kerak. Adabiyot o'quv fani o'qitish mohiyatiga ko'ra o'quvchilarni ma'nan va estetik tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan odamlarning bir-birlarini tushunishi, hurmat qilishi, insoniylik va go'zallikni qadrlashlari uchun adabiyotni so'z san'ati sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozim. Adabiyot o'qitish mazmuni mualliflar va matnlar ro'yxati bilan belgilanmaydi, balki badiiy faoliyatning ijodiy-retseptiv tabiatiga asoslanadi. Bu mazmun ilmiy-nazariy shaklda emas, balki estetik o'qishning ma'naviy va amaliy ko'nikmalari shaklida o'zlashtirilishi kerak.

Adabiyot o'qituvchisi matnlar o'qilgani haqida hisobot bermasligi, balki o'quvchilarni o'qishga odatlantirishi, badiiy asarlarni milliy va umuminsoniy madaniyatning o'ziga xos shakli sifatida adekvat idrok etishga o'rgatish yo'llarini to'g'ri tanlashi va qo'llashi maqsadga muvofiq. Badiiy asar nafaqat muallif, balki qabul qiluvchining ongida ham yaratiladi. Shunga ko'ra, biz tadqiqotimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyotni so'z san'ati sifatida o'rganishning to'rt bosqichini taklif qilamiz.

Birinchi bosqich (5–6-sinflar)da ko'zda tutilgan ishlar o'quvchining adabiy tur va janrlarga oid bilimlarini shakllantirishdan iborat. Birinchi bosqich standarti: o'quvchi tomonidan unga avval tanish bo'lmagan matnlarning tur va janrini aniqlash; uning badiiy asar kompozitsiyasini yoritish: she'riy tizim, nasr, drama kabi adabiy turlarning o'ziga xosligini anglash qobiliyati va h.k. O'quvchi bilimining me'yoriy hajmi o'qilgan asarlar soni va hajmi bilan emas, balki unga ma'qul bo'lgan janrlar xilma-xilligi bilan belgilanadi (masalan, bayt, to'rtlik, ruboiy, ertak, ballada, afsona, masal, doston, qissa, roman, fojia, komediya, drama kabi). Bu bosqichda bilimlarning asosiy tarkibini o'zlashtirish darajalari quyidagilardan iborat:

1-jadval: 5–6-sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish darajasi.

Darajalar	O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi
Boshlang'ich	O'quvchi strofik shakllar, ularning ritmik sxemasini aniqlay olmasligi; matnda sujet elementlari va kompozitsiya qismlarini ajrata bilmasligi; taklif etilgan matn janrini to'g'ri aniqlay bilmasligi.
Minimal	Berilgan janr va uning shakllarini anologiya asosida to'g'ri aniqlashi; epizodlar maqsadi va kompozitsion birliklar zanjirini uning badiiy qurilishiga parallel sifatida aniqlash qobiliyati.
Asosiy	O'quvchidagi matnlarning strofik, ritmik, sujet va kompozitsion tashkil etilishiga ulardagi tegishli janr shakllarini amalga oshirishning to'liqligi nuqtayi nazaridan mustaqil ekspert bahosini berish qobiliyati.
Yuqori	O'quvchining berilgan strofik shakl va janrlardagi matnlarni mustaqil ravishda tushunish qobiliyati.

Ikkinchi bosqich (7–8-sinflar) – adabiyot o'qitishda o'quvchining estetik didini shakllantirish (badiiy matnning yaxlitligini ochish uchun estetik muhit: undagi nafosatni his qilish, har bir qismning konstruktiv maqsadga muvofiqligi). Mazkur bosqich standarti: matnning taklif etilayotgan fragmentida o'quvchi alohida so'zlar, iboralar, detallar

va sahna ko‘rinishlarining badiiy maqsadga muvofiqligini kashf etishi kerak. Bunda bilimlarning asosiy tarkibini o‘zlashtirish darajalari quyidagilar hisoblanadi:

2-jadval: 7–8-sinf o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish darajasi.

Darajalar	O‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi
Boshlang‘ich	O‘quvchi berilgan matndagi ma’lumotlarning badiiy maqsadga muvofiqligini tushuna olmasligi.
Minimal	Matnning ayrim qismlari badiiy maqsadga qay darajada muvofiqligini tushunish qobiliyati.
Asosiy	Taklif etilayotgan matnning aksariyat qismlari badiiy maqsadga muvofiqligini tushunish qobiliyati.
Yuqori	Estetik butunlik, badiiy yaxlitlikning in’ikosini bayon etish qobiliyati: so‘z, ibora, ritm, zamon, makon, sarlavha va h.

Uchinchi bosqich (9-sinf) – o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini chuqurlashtirish. Uchinchi bosqich standarti: o‘qilgan matnga xayoliy illyustratsiyaning og‘zaki tavsifini yaratish; o‘qilgan asarning eng ta’sirli lavhasini yetkazish qobiliyati: o‘quvchi kundaligini yuritish, unga asoslangan insho yozish qobiliyati. Masalan, subyektiv “adabiy portret” janrida (muayyan ijodkor, masalan, S.Zunnunovaga o‘xshash “Mening qahramonim” kabi). Mazkur bosqichda quyidagilar bilimlarning asosiy tarkibini o‘zlashtirish darajalari hisoblanadi:

3-jadval: 9-sinf o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish darajasi.

Darajalar	O‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi
Boshlang‘ich	O‘quvchi personajlar xatti-harakati va kechinmalari, ularning hayotidagi voqea, vaziyat, sharoit va matn poetikasida muallif konsepsiyasini ko‘ra olmasligi.
Minimal	Badiiy asar konsepsiyasini estetik kategoriyalardan biri (qahramonlik, tragik, satirik, kulgili, dramatik, istehzoli, badiiy uslublar) orqali aniqlashi.
Asosiy	O‘quvchining berilgan matnda muallif konsepsiyasini muhokama qiladigan tanqidiy maqola janrida ijodiy ish yozish qobiliyati.

Yuqori	O‘quvchining berilgan matn asosida film yoki spektakl uchun ssenariy rejasini tuzish qobiliyati.

To‘rtinchi bosqich (10–11-sinf) – o‘quvchilarda asarni kommunikativ hodisa sifatida baholash qobiliyatini rivojlantirish. Ushbu bosqich standarti: o‘quvchining maktab davrida to‘plangan tajribasini tizimlashtirish; badiiy matnni, xususan, teatrda adabiy asarni sahnalashtirish, aktyorlarga taqlid qiluvchi ijodiy dialog o‘yini ko‘rinishida talqin qilish qobiliyati; rejissorning ijodkorligi, zamonaviy auditoriyaning ayrim toifalariga g‘oyaviy va estetik yo‘nalish). Bilimlarning asosiy tarkibini o‘zlashtirish darajalari:

4-jadval: 10–11-sinf o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish darajasi.

Darajalar	O‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi
Boshlang‘ich	O‘quvchining asardagi u yoki bu qahramon rolini ijro etishga qodir emasligi.
Minimal	O‘quvchi “teatr”da dialogli o‘yinlardagi rollar yoki vazifalardan birini o‘z zimmasiga olishi mumkinligi: rejissor, ma’lum roldagi aktyor-ijrochi, teatr direktori, teatr tanqidchisi, adabiy emakdosh.
Asosiy	O‘quvchi matn kontekstiga yo‘naltirilgan dialog o‘yinining ishtirokchisi sifatida o‘z nuqtayi nazaridan voz kechmagan holda boshqalarning nuqtayi nazarini hisobga oladi, turli xil fikrlarning o‘zaro yaqin nuqtalarini birgalikda izlash va topishga qodir.
Yuqori	O‘quvchi badiiy talqin qilish madaniyatini adabiy bilim bilan uyg‘unlashtiradi, dialog o‘yinini yakunlay biladi, ma’ruza qiladi, tadqiqot xarakteridagi insho, ijodiy ish yoki esse yoza oladi.

Demak, adabiyotni so‘z san’ati sifatida o‘rganish o‘quvchilarning badiiy asarni emotsional-estetik idrok etish, uning go‘zalligi va mazmunini tajribadan o‘tkazishga qaratilgan o‘quv faoliyatini tashkil etishdir. Badiiy adabiyot katta imkoniyatlarga ega, ammo badiiy obraz hayotni bilish va o‘zgartirishning mustaqil va to‘liq shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беленький Г.И. Приобщение к искусству слова: (Раздумья о преподовании лит. в шк.). – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.
2. Новиков Л.А. Исскуство слова. – 2-е изд., доп. – М.: Педагогика, 1991. – 144 с.
3. Umumiy o‘rta ta’limning Adabiyot fanidan “Milliy o‘quv dasturi”. Loyiha – 2. – Toshkent, 2021. – 212 b.
4. Yo‘ldosh, Q. Global dunyoda adabiy ta’lim vazifasi // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2023. – № 1. 3–5-betlar.

Nodiraxon ERKABOYEVA,
O‘zbekiston tumani 5-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
Zokirjon ISAQOV,
filologiya fanlari nomzodi,
Qo‘qon DPI dotsenti,
isaqovzokirjon1@gmail.com

DARSLIKLAR – HAYOTIY TA’LIM BERISH VOSITASI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy ta’lim maktablarining 1-sinf o‘quvchilari uchun yangi nashr etilgan – 2023-2024, 2024-2025-o‘quv yillarida amalda bo‘lgan “Ona tili”, “O‘qish savodxonligi” darsliklarining ilmiy, amaliy, ma’rifiy jihatlari tahlil etilib, avvalgi darsliklardan afzallik va foydali xususiyatlari, ular orasidagi bog‘liqliklar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq, yozma nutq, tinglab tushunish, o‘qib tushunish, lingvistik kompetensiya, 4K modeli, kommunikatsiya, kreativlik, kritik fikrlash, kollaboratsiya.*

Аннотация: данной статье анализируются научные, практические, образовательные аспекты, обсуждаются преимущества и полезные особенности предыдущих учебников, связи между ними.

Ключевые слова: *устная речь, письменная речь, понимание на слух, понимание прочитанного, лингвистическая компетентность, модель 4К, общение, креативность, критическое мышление, сотрудничество.*

Annotation: this article analyzes scientific, practical, educational aspects, discusses the advantages and useful features of previous textbooks, and the connections between them.

Key words: *oral speech, written speech, listening comprehension, reading comprehension, linguistic competence, 4K model, communication, creativity, critical thinking, collaboration.*

Kirish. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning yetakchi mexanizmi bo‘lgan dasliklarsiz har qanday o‘quv faoliyatini tasavvur qilish qiyin, albatta. O‘qitish va o‘qishning eng muhim xususiyatlari jamlangan darsliklar ta’lim oluvchilar uchun milliy mafkurani yetkazishda katta ahamiyatga ega ekanligi barchaga ayon. Darsliklar, shuningdek, muhim pedagogik vosita sifatida o‘quvchilarga uyda o‘qish va o‘rganish imkonini beradigan manba hamdir.

Ta’limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich sinf darsliklari yillar davomida jahonning rivojlangan davlatlari ta’lim tizimiga mos ravishda sifat va mazmun jihatidan o‘zgarib, bu o‘zgarishlar nafaqat o‘qituvchilar va o‘quvchilar, balki keng jamoatchilikka ham bir qator qulay imkoniyatlar yaratdi. Sifatli ta’limga erishishga qaratilgan ushbu sa’y-harakatlar darsliklarni ishlab chiqarish va tarqatishning yangi usullarini belgilab berdi hamda barcha o‘quvchilar uchun ochiq bo‘lishini ta’minladi.

Asosiy qism. Biz tanishtirmoqchi bo‘lgan 1-sinf o‘quvchilari uchun amaldagi “Ona tili” [4] va “O‘qish savodxonligi” [3] darsliklarining afzalliklarini quyida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Birinchi navbatda darsliklarning tashqi ko‘rinishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, hajm jihatidan avvalgi darsliklardan kichik bo‘lgan mazkur darsliklar ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlariga qo‘yiladigan talablarga [5] muvofiq nashr etilgan:

- sahifalash uchun oqligi 87% dan, noshaffofligi 88% dan kam bo‘lmagan mashinada yengil bo‘rlangan kitob-jurnal va ofset qog‘ozidan foydalanilgan;
- darsliklarning tepadagi o‘ng va pastdagi o‘ng burchaklari radiusi 5-10 mm ga teng bo‘lgan yumaloq shaklga keltirilgan;
- matnli bezatilishga ko‘ra shrift kegli 16, maksimal qator uzunligi 167 mm dan oshmagan;
- ba’zi she’r va so‘zlar ikki ustunga joylanib, ustunlar oralig‘i 12 mm dan kam bo‘lmagan holatda.

E’tiborli tomoni shundaki, nafaqat ona tili va o‘qish savodxonligi, balki boshqa darsliklar ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ikki yoki to‘rt qismga bo‘lib nashr etilgan. Bu esa darsliklar vaznining 300 grammdan og‘ir bo‘lmasligini ta’minlagan. Endilikda o‘quvchilar o‘z tana vaznlarining 10% idan ortiq bo‘lgan yukni kun davomida ko‘tarib yurmaydilar va bu holat ularda charchoq, holsizlikka sabab bo‘lmaydi. Bu holat darslikning eng ijobiy tarafi, deyish mumkin.

Avvalgi nashrda ikki fanni o‘zida jamlagan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarda tilga doir to‘rtta asosiy ko‘nikmani egallashga qaratilgan[1]: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirish. Shuningdek, ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, tilni

amaliyotda qo‘llash, turli sohaga oid matn, voqea -hodisalarni kuzatib, analiz - sintez qila olish va bu bilan fanlararo integratsiyani amalga oshirish, o‘quvchilarni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish, video va audio materiallar orqali yozma va og‘zaki nutqni birgalikda rivojlantirish [2: 59-78] kabi tamoyillarga tayanilgan edi. Bu darslikning yuqori darajadagi yangiligi edi.

Joriy yildagi darsliklar esa “Ona tili”, “O‘qish savodxonligi” kabi alohida o‘qitish vositasi sifatida shakllantirildi va mazmun jihatidan avvalgi darslik bilan uzviyligini yo‘qotmadi. Darsliklar 4K modeli (kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya)ga asoslangan innovatsion o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, berilgan mavzular asosida o‘quvchilar:

- diqqat bilan tinglaydi va savollarga javob beradi;
- atrofdagilar bilan muloqot qiladi va o‘z fikrlari bilan ishontira oladi;
- umumiy maqsadga erishish yo‘lida mas’uliyat bilan hamkorlikda, juft, guruh bo‘lib ishlaydi;
- muammo yuzasidan yangi usullar va yechimlar topadi va o‘z g‘oyalarini taklif qila oladi;
- tahlil qiladi, mustaqil xulosa chiqaradi va qaror qabul qila oladi.

Darsliklardagi ma’lumotlarni tushunishning mnemonik, strukturaviy va semantik usullaridan o‘z o‘rnida foydalanilgan. O‘quvchilarning yosh imkoniyatlari hisobga olinib, darsliklarda matn materiallarining bayon, ko‘rsatmalar va nazariy shakllarini ko‘rish mumkin. Masalan, “O‘qish savodxonligi” darsligida yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilarning muloqotchanlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan savollar berilgan [3: 12-23]; darslikning “Bu qiziq!” belgisi ostida mavzuga doir hayotiy dalillar o‘rin olgan [3: 30-67]; kundalik hayotda uchratishimiz mumkin bo‘lgan voqealar bilan bog‘liq hikoyalar [3: 31-45] o‘quvchilarda tevarak-atrofga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, o‘z savollariga javob topishda axborotlarni mustaqil izlash, maqsadga samarali erishishda ko‘plab g‘oyalarni ishlab chiqish va solishtirish, ya’ni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ba’zi mavzularning audio holatda berilishi [3: 49-68] tilning ifoda imkoniyatlarini tushunish, ohangni yaxshi o‘zlashtirishda foydalidir.

“Ona tili” darsligida esa har bir mustahkamlash darslari uchun o‘tilgan mavzular yuzasidan berilgan test topshiriqlari [4: 22-56] o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash: o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritishga o‘rgatadi. Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida mavzuga doir nazariy ma’lumot sanoqli o‘rinlarda berilib, ona tili butun borliqni: tabiatni, jamiyatni, fanlarni, o‘zlikni anglash va o‘rganish vositasiga o‘zgartirilgan edi. Avvalgi darslikdan farqli ravishda, amaldagi darslikda har bir yangi mavzu uchun kichik yoshdagi o‘quvchilar tushunishi oson bo‘lgan qoidalar o‘rin olganligini ko‘rishimiz mumkin. Darslikda berilgan ba’zi o‘quvchilarning esda tutish kerak bo‘lgan qoidalar murakkab bo‘lmasa ham, hajm jihatidan o‘quvchilarda tez-tez takrorlash va mashq qilish bilan bog‘liq qiyinchilikni keltirib chiqaradi [4: 46]. Lekin dars tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunda o‘qituvchining qisqa ko‘rsatmasi, doimiy o‘qish va yodlatishdan ko‘ra, unga ma’no berishi samarali natija beradi. Bunday o‘rganish nazariy ma’lumotlarni oldingi tajriba va o‘rganish bilan bog‘laydi va o‘quvchilarda ushbu nazariyani turli yangi sharoitlarda qo‘llash imkonini beradi. Darslikning husnixat daqiqasi uchun ajratilgan qismi o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun yana bir qulaylik bo‘lib, yozish uchun turli mavzudagi maqol va hikmatli so‘zlar tanlab olingan. O‘quvchilar ularni yozish barobarida o‘qituvchi yordamida ularning mazmuni bilan ham tanishadilar. Bu o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishga ma’lum darajada xizmat qilish bilan birga nutq madaniyatini ham yuksaltiradi, milliy tilimizning naqadar boy tarixiy merosga ega ekanligini, uning qudrati va sehrini to‘liq ma’noda anglagan, milliy ruhda tarbiyalangan komil insonlar bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Darsliklarda berilgan ma’lumotlarni diqqat bilan kuzatganimizda ba’zi o‘rinlarda uslubiy [4: 67], tinish belgilariga oid [3: 71] xatoliklar uchraydi, ba’zi o‘rinlarda berilgan rasmlar bilan bog‘liq kamchiliklar [4: 78] kuzatildi. Darsliklardagi bu yetishmovchiliklar mavzu uchun belgilangan umumiy maqsad va mazmunga salbiy ta’sir qilmaydi. Xuddi mashina kabi darsliklar juda aniq maqsadlar uchun ishlab chiqarilganligini inobatga olib, uning o‘qitish vositasi sifatida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini qanchalik yaxshi bajarishini reyting shkalasi, rasmlar, sahifalar soni va h.k.lar bilan emas, uzoq vaqt davomida o‘qitish orqali sinovdan o‘tkazib, aniqlash kerak bo‘ladi.

Xulosa. “4K” modeli asosida yaratilgan zamonaviy darsliklar barcha uchun sifatli ta’limni ta’minlashda, o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik yechimi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va o‘quv dasturida belgilangan aniq va majburiy kompetensiya talablariga to‘liq javob beradi. Keyingi maqolalarimizda matnlarning

ma’naviy-ma’rifiy, lug‘at tarkibi masalalariga e’tibor qaratish rejasidamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf. – Toshkent, 2021.
2. Azimova I., Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf. I qism. – Toshkent, 2021.
3. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 1-sinf. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. 80-b.
4. Yuldasheva D.Sh. Ona tili. 1-sinf. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. 96-bet.
5. Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida VM 2022-yil 28-dekabr, 726-son qarori.

Jamila DJUMABAYEVA
Doctor of Science, Professor
Head of the Department of English Linguistics
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: djumabaevajamila@gmail.com
Dilnoza KURBONOVA
PhD student, National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: d_qurbonova@nuu.uz

INTEGRATING THE 4CS INTO EFL CLASSROOMS

Abstract: The article analyzes the effectiveness of the 4Cs model (communication, collaboration, critical thinking, creativity, and innovation) in enhancing teachers’ performance in the 21st century. Technological advancements in education have prompted schools and teachers to adapt. Using sample case studies of The Partnership Framework for 21st Century Skills, the research examined a professional development program focused on the 4Cs model.

Keywords: *4C skills, the partnership framework, 21st-century skills, EFL class, professional development, tools*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4K modeli (kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va innovatsiya) 21-asrda o‘qituvchilarning samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Ta’limdagi texnologik yutuqlar maktablar va o‘qituvchilardan moslashishni talab qilmoqda. 21-asr ko‘nikmalari uchun Hamkorlik Ramkasi bo‘yicha namunaviy tadqiqotlardan foydalanilgan holda, 4K modeliga asoslangan kasbiy rivojlanish dasturi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: 4K ko‘nikmalari, hamkorlik ramkasi, 21-asr ko‘nikmalari, EFL sinfi, kasbiy rivojlanish, vositalar

Аннотация: В статье анализируется эффективность модели 4К (коммуникация, сотрудничество, критическое мышление, креативность и инновации) в повышении профессиональной деятельности учителей в XXIвеке. Технологические достижения в области образования заставляют школы и учителей адаптироваться к новым условиям. Используя примеры кейс-исследований Рамочной программы партнерства для навыков XXI века, исследование изучило программу профессионального развития, ориентированную на модель 4К.

Ключевые слова: *навыки 4К, рамочная программа партнерства, навыки XXI века, класс EFL, профессиональное развитие, инструменты*

INTRODUCTION

The world is changing rapidly, and we must be ready to face new challenges. Intense competition, fast information spread, technological advancements, and globalization reshape our lives and work. To succeed,

it is crucial to set clear goals, work well with diverse perspectives, seek new opportunities, and solve problems. Our education system must also adapt to these changes, which is vital for developing the skills and values necessary for a fair and sustainable future (Erdogan, 2019). Educational institutions are essential for preparing students for the 21st century. Effective learning strategies must develop strong communication, problem-solving, and critical thinking skills to meet the increasing demands of employers and society. As traditional professions decline, there is a rising demand for specialists with systems thinking, creativity, and essential evaluation skills. Soft skills are often prioritized over technical expertise, and strong critical thinking is crucial for personal and social success and competitiveness in the job market (Tuychiev, 2023).

Education in the United States is changing to prepare students for the 21st century better. This shift started with the 21st-century skills movement, which focuses on essential skills for success today. A key initiative is the Partnership for 21st Century Skills, which introduced the "Framework for 21st Century Learning." This framework emphasizes four skills—Critical Thinking, Communication, Collaboration, and Creativity—called the "4Cs." Rotherham and Willingham (2009) highlighted the significance of developing critical thinking, creativity, collaboration, and communication—the 4Cs. Schools should prioritize these skills in the curriculum by focusing on three key areas: curriculum design, teacher effectiveness, and assessment methods. Implementing engaging learning activities that address diverse student needs and using suitable instructional materials is crucial. Additionally, proper teacher training is necessary to create an environment where 21st-century skills can thrive. Understanding the four Cs—communication, collaboration, critical thinking, and creativity—is essential in education and should be incorporated into the curriculum. Erdogan (2019) emphasized their importance at all educational levels to prepare students for the challenges of the twenty-first century. To effectively teach these skills, schools need strong support, including updated standards, innovative curricula, and ongoing professional development. Enhancing physical and virtual learning environments is crucial for fostering collaboration and creativity. Engaging students with diverse teaching methods and ensuring educators receive appropriate training is vital. The four C's enable students to interact effectively in a global, digital world and are increasingly in demand by evolving industries. Developing critical thinking and problem-solving skills helps students navigate the overwhelming amount of information they encounter daily, allowing them to evaluate sources and make informed decisions confidently.

Educators' instructional approaches are vital for developing students' critical thinking, creativity, communication, and collaboration skills. As modern demands evolve, innovative educational strategies become essential. Implementing the 4C model—foc**used on these four key areas—can significantly enhance students' abilities to succeed in the 21st** century and navigate today's complex society.

Applying the 4C model to the learning process according to Partnership.

The P21 Framework for 21st Century Learning, developed with input from educators and business leaders, defines the skills and knowledge students need to succeed in work, life, and citizenship. This framework is used by thousands of educators and schools worldwide to prioritize 21st-century skills. All framework elements are vital for preparing students for the modern world. By integrating knowledge and skills with support systems like standards, assessments, curriculum, professional development, and learning environments, schools can enhance student engagement and better prepare them for a digitally interconnected global society. The elements described in this section as “21st-century student outcomes” (represented by the rainbow) are the knowledge, skills, and expertise students should master to succeed in work and life in the 21st century.

Learning and innovation skills are increasingly important. They help distinguish students ready to handle the complex challenges of the 21st century from those who are not. To prepare students for the future, we must focus on creativity, critical thinking, communication, and teamwork (Partnership, 2009). The Partnership for 21st Century Learning (P21) promotes integrating the 4C skills—creativity, critical thinking, collaboration, and communication—into education. It emphasizes the need for students to gain learning experiences from early childhood through their careers to succeed in a connected world.

Creativity and Innovation

Many people associate creativity solely with artistic fields like visual arts, music, or literature. However, this perspective overlooks creativity's crucial role in various professional sectors. It is an essential skill that enhances problem-solving and fosters innovation. Creativity is the first step in innovation, where new ideas are generated by exploring different perspectives

(Somech & Drach-Zahavy, 2013). In fields like technology and engineering, creative thinking leads to groundbreaking advancements, while in healthcare and business, it contributes to effective services and innovative strategies. Recognizing and cultivating creativity across all professions can significantly improve individual performance and organizational success. The 21st century has reshaped the creative landscape, introducing new opportunities and methods through technology. Now, creativity includes diverse techniques that push beyond conventional boundaries. Digital tools and social media enable individuals to experiment with ideas, refine them in real time, and receive global feedback. Psychologically, creativity is seen as generating novel and original ideas or products while adhering to specific constraints (Lubart & Thornhill-Miller, 2019). For a creation to be considered creative, it must also hold relevance and value within its context, serving a meaningful purpose. This definition of creativity includes originality, practicality, and contextual significance. Creativity is a well-recognized term in English Language Teaching (ELT), yet defining it remains challenging. Creativity involves several key concepts. First, it means "making something new," about generating original ideas or products. Second, it entails "viewing old things in new ways," allowing for reinterpretation of familiar concepts. Third, creativity is about "discovering new connections," recognizing relationships between seemingly unrelated ideas that can lead to innovation. Lastly, it can be defined as "evoking pleasurable surprise," creating experiences that delight and inspire others (Maley, 2003). Moreover, creativity can be viewed in two interconnected ways: as an inherent quality of individuals and as a specific ability to create. Krathwohl (2002) states it involves "putting elements together to form a novel, coherent whole or making an original product." This perspective emphasizes both the intrinsic nature of creativity and the skills needed to bring ideas to life, making it an intriguing area for exploration, especially in language teaching.

Language allows us to create new associations and meanings. In the English classroom, even at the elementary level, teachers can foster linguistic creativity through engaging activities such as storytelling, wordplay, collaborative writing, and poetry. These activities help students explore their imagination and unlock their creative potential. Creativity can be defined in the following way:

Think Creatively

- Use a wide range of idea-creation techniques (such as brainstorming)
- Create new and worthwhile ideas (incremental and radical concepts)
- Elaborate, refine, analyze, and evaluate original ideas to improve and maximize creative efforts.

Work creatively with others

- Develop, implement, and communicate new ideas to others effectively.
- Be open and responsive to new and diverse perspectives; incorporate group input and feedback into the work.
- Demonstrate originality and inventiveness in work and understand the real-world limits to adopting new ideas.
- View failure as an opportunity to learn; understand that creativity and innovation are part of a long-term, cyclical process of small successes and frequent mistakes.

Implement innovation

- Act on creative ideas to make a tangible and useful contribution to the field in which the innovation will occur

Critical thinking and Problem-solving

Critical thinking and problem-solving skills are vital for students. They help them evaluate daily information from various sources. These skills allow students to assess accuracy, analyze data, make informed decisions, and take deliberate actions.

Critical Thinking (CT) is essential for effective learning and a key indicator of quality education. Integrating CT into the curriculum at all grade levels is vital for developing skilled critical thinkers. This research reviews existing literature on teaching CT skills and establishes a framework addressing four key debates among researchers, including whether technology improves students' CT skills (Alselah, 2020). A comprehensive review of CT teaching strategies identifies various practical methods and activities to enhance students' critical thinking skills. This study provides essential recommendations to assist educators in selecting and implementing the most effective strategies. Moseley (2005) introduced a framework that promotes critical thinking (CT) skills through integrated reading and writing approaches. They recommend structured writing exercises that begin with diverse reading strategies, leading to the development of argumentative and persuasive essays. This approach enhances writing abilities and fosters critical analysis. Karns (2005) stressed the importance of aligning instructional strategies with students' preferences. His study of 227 students

from eight U.S. universities found that activities like internships, class discussions, and case analysis significantly boost learning and engagement. Edman (2002) emphasized the necessity of careful design in CT strategies, which should be based on established theories and tailored to students' unique contexts for effectiveness. EFL teachers should also create an atmosphere in the classroom that encourages learners to interact with each other freely and motivates them to learn with up-to-date technologies. Students, in turn, should be as active as possible in learning foreign languages. Moreover, learners should take responsibility for their studies rather than depend on their EFL teacher for every aspect of their study journey (Djumabaeva, J.Sh., Avazmatova, M., 2022)

In summary, enhancing critical thinking requires engaging activities that align with students' interests, creating a rich learning environment that promotes deeper engagement and learning. Here are some examples of integrated approaches to critical thinking:

Reason Effectively

- Use various types of reasoning (inductive, deductive, etc.) as appropriate to the situation
- Use Systems Thinking
- Analyze how parts of a whole interact with each other to produce overall outcomes in complex systems

Make Judgments and Decisions

- Effectively analyze and evaluate evidence, arguments, claims and beliefs
- Analyze and evaluate major alternative points of view
- Synthesize and make connections between information and arguments
- Interpret information and draw conclusions based on the best analysis
- Reflect critically on learning experiences and processes

Solve Problems

- Solve different kinds of non-familiar problems in both conventional and
- innovative ways
- Identify and ask significant questions that clarify various points of view and
- lead to better solutions

Communication

Communication is a vital process that forms the foundation of human interaction. It enables the sharing of information, thoughts, and feelings, fostering connections among individuals and groups. Effective communication facilitates understanding and enhances collaboration by utilizing various channels—such as spoken words, written text, body language, and visual elements. Embracing these skills can significantly improve personal and professional relationships, empowering us to succeed together. Many learners struggle with communication skills, making expressing their thoughts difficult. This can lead to conversation hesitance and confusion in academic and everyday interactions. Improving these skills is essential for learners to communicate confidently and engage effectively with others. Teaching students to communicate effectively across various information exchange methods is a significant challenge for today's educational organizations (Morreale, 2017). Communication includes linguistic, pragmatic, and social dimensions, which are integrated into curricula at various academic levels. However, pragmatic and social skills are rarely taught explicitly despite being essential for students' success and complex to assess (Humphrey, 2007). Furthermore, teachers must be skilled in new communication technologies for information sharing (Zlatić, 2014). Moreover, applying communicative methods during teaching is essential. The communicative teaching method is more student-centered and takes less time. The quality of teaching is better, and the applied communication of students in English can be effectively cultivated, which means that students' communicative competence will be successfully developed (Djumabaeva J. Sh., 2023). Schools should integrate targeted interventions into their curricula to give students more opportunities to showcase their work, such as by assigning final projects that require presentations. These assignments enhance engagement and improve communication skills, as shown by Wahyuni, Masih, and Mei Rejeki (2018). By emphasizing presentation skills, schools can better prepare students for future challenges. Communication can be described in the following way:

Communicate Clearly

- Articulate thoughts and ideas effectively using oral, written, and nonverbal communication skills in a variety of forms and contexts
- Listen effectively to decipher meaning, including knowledge, values, attitudes

and intentions

- Use communication for a range of purposes (e.g. to inform, instruct, motivate

and persuade)

- Utilize multiple media and technologies, and know how to judge their

effectiveness a priori as well as assess their

impact

• Communicate effectively in diverse environments (including multi-lingual)

Collaboration

Collaboration is vital for success in families, corporations, and government agencies. When a team member undermines goals or disengages, it can harm overall performance. Strong collaboration and communication skills are essential for workplace effectiveness. Research by Klein, DeRouin, and Salas (2006) emphasizes the importance of these skills, while studies by Salas, Cooke, and Rosen (2008) highlight the impact of effective teamwork on collective success. These factors contribute to a productive and harmonious work environment, enhancing team outcomes. Students should learn to build an effective team by understanding and assigning roles based on individual strengths. Regularly monitoring and adapting the team structure is also essential for achieving goals. Developing these skills can create a positive team environment that fosters success (Barth & Funke, 2010; Dillenbourg, 1999; Rosen & Rimor, 2009). Students need to understand the different types of collaboration and their rules, which vary by context, such as consensus building and win-win negotiations. Educators believe collaboration is crucial for students' future success and can be integrated into their lives, challenging the idea that competition is essential. Strong partnerships improve outcomes and character development (Zafirov, 2013). Professional development programs for teachers can further enhance collaborative skills. Here are some recommendations: Collaborate with Others

• Demonstrate ability to work effectively and respectfully with diverse teams

• Exercise flexibility and willingness to be helpful in making necessary compromises to accomplish a common goal

• Assume shared responsibility for collaborative work, and value the individual contributions made by each team member

CONCLUSION

The 4C-based learning approach has positive effects in both the short term (during learning) and long term (on students' lives). It promotes critical thinking, motivation, and engagement (Kogut, 1996; Nugraha et al., 2017). In a 4C learning environment, cooperative learning helps students solve problems in a supportive space. This method decreases their reliance on teachers and increases their learning chances. It improves academic performance and encourages positive behavior (Killen, 2007). Additionally, students can fix their misunderstandings through discussions with peers (Kogut, 1996). Integrating listening, speaking, reading, and writing in EFL (English as a Foreign Language) creates an engaging environment that enhances language skills and motivation. While challenges such as varying student skill levels and classroom management exist, the benefits are substantial. Practicing all four skills together helps students understand their interconnections, such as how reading improves writing. Language learning is most effective in real-life communication, preparing students to use English confidently. Djumabaeva states that language in education is usually built on such a naturally acquired language ability, which, enriched by literacy, turns into a tool for abstract thinking and acquiring academic knowledge (Djumabaeva J. Sh., 2023). This study evaluates the 4Cs framework (communication, collaboration, critical thinking and problem-solving, and creativity and innovation) in Professional Development Programs. Findings show that the 4Cs model energizes teachers, positively impacting their classroom practice and enhancing their ability to integrate technology. The desired outcomes are achieved when these skills are applied collaboratively. Additionally, to continue this research, we planned to review the sample tools offered for partnership proposal.

REFERENCES

1. Alsaleh, N. J. (2020). Teaching Critical Thinking Skills: Literature Review. The Turkish Online Journal of Educational Technology 19: 21–39.
2. Barth, C.M. and J. Funke (2010). Negative affective environments improve complex solving performance, Cognition, and Emotion, Vol. 24/7, pp. 1259-1268.
3. Boden, M. (1992). The Creative Mind: Myths and Mechanisms. London: Abacus.
4. Cooke, N.J. (2003). Measuring team knowledge: A window to the cognitive underpinnings of team performance, Group Dynamics: Theory, Research and Practice, Vol. 7, pp. 179-219.
5. Dillenbourg, P. (1999). Collaborative learning: Cognitive and computational approaches, Advances in Learning and Instruction Series, Elsevier Science, Inc, New York, NY.
6. Djumabaeva, J. Sh., Avazmatova M. (2022). Teaching English as a Foreign Language Effectively in

Face-to-face Class. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 144.
7. Djumabaeva, J. Sh. (2023). Modern English Teaching Methods. Journal of Higher Education Theory and Practice. 182-83.
8. Edman, L. (2002). Teaching critical thinking in the honors classroom Lincoln: National Collegiate Honors Council.
9. Erdogan, V. (2019). Integrating 4C skills of 21st century into 4 language skills in EFL Classes. International Journal of Education and Research Vol. 7 No. 11. 114-15.
10. Humphrey, N., Curran, Andrew., Morris, E., Farrell, P., Woods, K. (2007). Emotional Intelligence and Education: A Critical Review. Educational Psychology 27: 235–54.
11. Karns, G. (2005). An Update of Marketing Student Perceptions of Learning Activities: Structure, Preferences, and Effectiveness Journal of Marketing Education 27(2):163-171
12. Keefer, C. V., Parker, J. D.A., and Saklofske D. (2018). Three Decades of Emotional Intelligence Research: Perennial Issues, Emerging Trends, and Lessons Learned in Education: Introduction to Emotional Intelligence in Education. In The Springer Series on Human Exceptionality. Cham: Springer International Publishing, pp. 1–19.
13. Killen, R. (2007). Effective teaching strategies: lessons from research and practice (4th ed.). Thomson Social Science Press.
14. Klein, C., DeRouin, R. E. and Salas, E (2006), Uncovering workplace interpersonal skills: A review, framework, and research agenda, in Hodgkinson, G.P. and Ford J. K. (eds.), International Review of Industrial and Organizational Psychology, Vol. 21, Wiley & Sons, Ltd, New York, pp. 80-126
15. Kogut, L. S. (1996). Critical Thinking in General Chemistry. Journal of Chemical Education, 73(3), 218–221.
16. Krathwohl, D. R. (2002). A revision of Bloom's taxonomy: an overview. Theory into Practice41/4: 212–218.
17. Lubart, T., Thornhill-Miller, B. Creativity: An Overview of the 7C's of Creative Thought. Psychology of Human Thought. Heidelberg. University Publishing. Chapter 15. 277
18. Maley, A. (2003). Creative approaches to writing materials in B. Tomlinson (ed.). Developing Materials for Language Teaching. London: Continuum.
19. Maley, A., Peachey, N. (2015). Creativity in the English Language Classroom. London: The British Council.
20. Morreale, Sh. P., Valenzano, J. M., Bauer, A. J. (2017). Why Communication Education Is Important: A Third Study on the Centrality of the Discipline's Content and Pedagogy. Communication Education 66: 402–22.
21. Moseley, D., Elliott, J. G., Gregson, M., Higgins, S. E. (2005). Thinking skills framework for use in education and training. British Educational Research Journal 31(3)
22. Ratminingsih, Ni M., Budasi, I G., Piscayanti, K S., Era Adnyayanti, Ni L P., I.G.A. Pt. Paragae N S. (2021). "4C-Based Learning Model: What, Why, How?"
23. Partnership for the 21st Century. (2009). P21 framework definitions: Partnership for 21st Century Skills. Retrieved from https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED519462.pdf
24. Rosen, Y and Rimor, R. (2009). Using a collaborative database to enhance students' knowledge construction, Interdisciplinary Journal of E-Learning and Learning Objects, Vol. 5, pp. 187-195.
25. Rotherham, A. J., Willingham, D. (2009). 21st-Century Skills: The Challenges Ahead. Educational leadership. Journal of the Department of Supervision and Curriculum Development, 67(1): 16-21.
26. Somech, A., Drach-Zahavy, A. (2013). Translating team creativity to innovation implementation: The role of team composition and climate for innovation. Journal of Management, 39(3), 684–708.
27. Tuychiyev, A. T. (2023). Raqamli texnologyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati. FarDU Ilmiy xabarlari 142-43
28. Wahyuni, L. M., Masih, I. K., M Rejeki, I. N. (2018). Communication skill attributes needed for vocational education enter the workplace. Journal of Physics: Conference Series, 953(1), 1-6.
29. Zafirov, C. (2013). New challenges for project-based learning in the digital age. Trakia Journal of Sciences, 11(3), 298-302.
30. Zlati´c, L., Bjeki´c, D., Marinkovi´c, S and Bojovi´c, M. (2014). Development of Teacher Communication Competence. Procedia, Social and Behavioral Sciences 116: 606–10.
31. Zubaidah, S. (2018). Mengenal 4C: Learning and Innovation Skills Untuk Menghadapi Era Revolusi Industri 4.0. 2nd Science Education National Conference, Oktober, 1–7.

Feruza ABDURAXIMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi, (PhD)
feruz.abdurakhimova818@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHINING TARAQQIYOT YO‘LI

Annotatsiya: har bir tilda so‘z yasalishi jarayoni mavjud bo‘lib u o‘z taraqqiyot yo‘liga egadir. Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘z yasalishi jarayonining taraqqiyoti haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu jarayon tarixiy davrlarda qanday yuzaga kelganligi haqida mashhur olimlarning asarlarida keltirilgan ma’lumotlar orqali bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *morfologiya, affiksatsiya, morfemika, morfema, o‘zak, leksema, leksikologiya.*

Аннотация: в каждом языке есть процесс словообразования, который имеет свой путь развития. В данной статье представлена информация о прогрессе процесса словообразования в узбекском языке. Также о том, как этот процесс происходил в исторические периоды, рассказывается в работах известных ученых.

Ключевые слова: *морфология, аффиксация, морфемика, морфема, основа, лексема, лексикология.*

Annotation: each language has a word formation process that has its own path of progress. This article provides information on the progress of the process of making formation in Uzbek. The process has also been described in historical times through references in the works of famous scholars.

Key words: *morphology, affixation, morpheme, stem, lexeme, lexicology*

O‘zbek tilshunosligida til hodisalari mustaqillik yillariga qadar boshqa tillarga oid fikr-mulohazalar, boshqa til qoliplari asosida, jumladan, rus tilshunosligi ta’limotlari asosida talqin etib kelindi.

So‘z yasalishi haqidagi dastlabki fikrlar va tadqiqotlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘z aksini topgan va bu asarda hozirgi tilshunoslikda alohida bo‘lim sanaluvchi “So‘z yasalishi” haqida ham qimmatli fikrlar bildirilgan . Olimning aytishicha, otlar ikki turlidir: yasama ot va tub ot. Qilich, o‘q kabi otlar tub otlardir. Bunday otlar boshqa so‘zlardan kelib chiqmagan. Yasama otlar boshqa so‘zlardan kelib chiqadi. Bulardan ba’zilari turmushda qo‘llanib, eshitilib yurilgan bo‘lsa, ba’zilari aniq emas, qiyosiy asosdadir . Mahmud Koshg‘ariy so‘z yasashning affiksatsiya usulidan tashqari boshqa usullari ham borligi haqida ma’lumot bergan. Ana shunday usullardan biri sifatida enantiosemiya (bir so‘zning semantik tabiatida qarama-qarshi ma’noning yuzaga kelishi) hodisasini misol keltiradi. Enantiosemiya so‘zi yunoncha “enantios” – bir-biriga qarshi sema, belgi, ishora ma’nolarini anglatadi. Ichki ma’nolari bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar enantiosemiyadir. Ayrim asarlarda hatto bir so‘z o‘z-o‘ziga qarama-qarshi ma’noda ishlatilishi aytib o‘tilgan . Enantiosemiyalarning antonimlardan farqi shundaki, ularning ma’nolari bir-biriga zid bo‘lgan bitta so‘zdir. Masalan, o‘t “dori”: o‘t ichdim “dori ichdim”, o‘t “zahar”: beg anga o‘t berdi “bek unga zahar berdi” .

Shunday qilib, Mahmud Koshg‘ariy XI asrdagi turkiy tillarda so‘z yasalishi haqida muhim ma’lumotlarni berib o‘tgan. “Devonu lug‘otit turk”da turkiy tillarga xos so‘z yasalishi va morfologiya sohalari bo‘yicha ko‘pgina qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, fe’ldan ot yasalishiga oid (keng ma’noda) qator yasovchi affikslar keltiriladi: otachi “tabib”, emchi “dorigar”. Bu affiks shu xil kasb egalarini bildiradigan so‘z yasashning faol usulidir .

Hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning imkoniyatini ko‘rsatuvchi morfologik xususiyatlar – aynan so‘z yasalishi haqidagi ayrim kuzatishlari borasida bahs yuritadi. U garchi so‘z yasalishi strukturasi haqida fikr bildirmagan bo‘lsa ham, lekin so‘z yasashga asos, yasovchi vosita va yasalma tushunchalari haqida ma’lumotlar keltirib chiqarishga asos bo‘luvchi fikrlarni bayon etgan. Xususan, -chi yasovchi vositasining imkoniyat kengligi, asos qismga qo‘shilib, bu qismning ma’nosi bilan bog‘liq turli shaxs otlari hosil qilishini ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, “hunar va pesha egasi” ma’nosini bildiradi: qushchi, qo‘ruqchi, yo‘rg‘achi, holvochi, kemachi, qo‘ychi, qozchi, quvchi, turnachi, kiyikchi, tovushqonchi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi o‘zbek tilidagi -voz (kaptarvoz), -paz (shirmonpaz, holvopaz), -boqar (qo‘yboqar), -soz (tamg‘asoz) kabi bir qator ot yasovchilar vazifasini ham Alisher Navoiy davrida -chi affiksi bajargan. Shuningdek, -vul affiksi yordamida shaxs oti yoki urush asboblari otlari ma’nosi ifodalanishini ko‘rsatadi: xirovul, qarovul, chingdavul, yankovul, so‘zovul, patovul, kitpovul, yasovul, bakovul, jig‘ovul, dakavul. Ot yasovchi -l affiksi ham muvjudligini bayon qiladi: qahol, yasol, kabol, tunqol, birqol, to‘sqol, sevarg‘ol.

Professor A.Nurmonovning ta’kidlashicha, Alisher Navoiy so‘z yasalishi bo‘yicha to‘xtalmagan, u ko‘proq grammatik sathga e’tibor qaratgan, so‘z yasalishi hamda shakl yasalishini bir-biridan farqlamagan. Mazkur fikrni hozirgi kun tilshunoslik atamalari orqali ifodalaganda, “Muhokamat ul-lug‘atayn”dagi so‘zning tovush tuzilishi haqidagi fonetik tahlillar ham, so‘z shaklining hosil

bo‘lishi, so‘z yasalishi kabi morfologik tahlillar ham, so‘z ma’nosi, sinonimiya, omonimiya, shakl va ma’no bilan bog‘liq badiiy vositalar haqidagi leksik-semantik sharhlar ham, oxir-oqibat, uslubga, ya’nikim, badiiy nutq uslubiga bog‘lanadi. Asarda o‘zbek tilida so‘z shakllarining hosil qilinishi va so‘z yasalishi masalasida mukammal tahlillar beriladi. Bu bilan Alisher Navoiy turkiy tillarni forsiy til bilan qiyoslar ekan, “turkiy tilda so‘zni turli morfologik shakllarga kiritish va yangi so‘zlar yasash juda oson kechadi, shuning uchun o‘zbek tilining so‘z boyligini oshirish qiyin emas, forsiy tilda esa bunday imkoniyat cheklangan” deyish bilan bir vaqtda o‘zbek tilida so‘z yasash usullarini ajratib ko‘rsatishga muyassar bo‘ladi .

“At-tuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asarida muallif so‘z yasalishi haqida to‘xtalib, otlardan fe’llar yasalishiga misollar beradi: -ar: aq-aqardi, -ir: qayg‘i-qayg‘irdi, -i: bay-bayidi va boshqalar .

Fitratning “Sarf” asarida ham so‘z yasalishiga doir fikrlar bayon qilingan. So‘z yasash atamasi dastlab shu asarda keltirilgan. Asarda so‘z yasalishi “Tillarning boyimoqlarini, kengaymaklarini, qulaylashtirgan “so‘z yasash” yo‘li (arabcha aytganda ishtiqoq yo‘li) dir. Bundan tashqari, Abdurauf Fitrat yasama so‘zlar tilning boyligini oshiradi, degan fikrni bildirgan: “Turkchada so‘z yasash yo‘li boshqa tillarga qaraganda kengdir. Biz tilimizdagi so‘z yasash yo‘lining kengligini ko‘zda tutib, kelgusida bu shevaning ilmiy, adabiy eng boy, eng ko‘p bir turk shevasi bo‘lishiga ishonamiz” . Olimning sheva so‘zini qo‘llashi hozirgi turkiy tillar ma’nosida qo‘llanilganini taxmin qilsak bo‘ladi.

XX asrning 30 - 40 - yillarida fe’l va ot yasalishiga bag‘ishlangan maxsus asarlar vujudga keldi.

Turkiy tillarda so‘z yasalishi nazariyasiga asos solgan professor A.G‘ulomov o‘zbek tilshunosligida XX asrning 40-yillarida birinchilardan bo‘lib so‘z yasalishini alohida bo‘lim sifatida tadqiq etdi. U so‘z yasalishini hind-ovrupo tilshunosligi andozalari asosida morfologiya tarkibida o‘rganib kelinganligini tanqidiy mulohaza qilgan va so‘z yasalishida leksema hosil qilingani uchun leksikologiya bo‘limiga ko‘proq aloqador ekanligini ta’kidlagan. O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalish masalasi, asosan, morfologik planda o‘rganib kelindi. Holbuki, so‘z yasalishi biror usul bilan yangi so‘z hosil qilishdir. Demak, u leksika bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta’limotga ko‘ra, so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi morfologiyada qaralardi. Aslida esa ular formal jihatdangina o‘zaro o‘xshash, funksional jihatdan boshqa-boshqa hodisalardir: biri leksik hodisa bo‘lsa, boshqasi sintaktik hodisa. Bundan anglashiladiki, so‘z yasalishining morfologik planda qaralishi hind-ovrupo til bilimi o‘rnatgan qonuniyatlariga tayanadi; hind-ovrupo til bilimi, formal metod bilan ishlaydi hamda o‘z diqqatini fonetika va morfologiyaga qaratib, so‘z masalasini ikkinchi darajali o‘ringa “qo‘yadi”, semantika hodisalarini (so‘zlarning ma’nolari haqidagi ta’limotni) mutlaqo hisobga olmaydi" .

Professor A.G‘ulomov, dastlab, so‘z yasalishini leksikologiya tarkibida o‘rganishni tavsiya etadi, chunki yasama so‘z so‘z yasalish hosilasi bo‘lgan birlikdir, deydi. Ammo keyinchalik so‘z yasalishini tadqiq qilish jarayonida uni leksikologiya bo‘limidan farq qiluvchi soha ekanligini, u morfemika va morfologiya oralig‘idagi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida qaralishi kerakligini ta’kidlaydi . A.G‘ulomov so‘z yasalishi haqida shunday deydi: “Tilshunoslikning bu bo‘limida, birinchidan, yangi so‘zlarning qanday hosil qilinishi, ikkinchidan, mavjud yasalmalarning qanday paydo bo‘lganligi tekshiriladi” . A.G‘ulomov o‘z monografiyasida so‘z yasalishi faqatgina affiksal usulda bo‘lmasligini ta’kidlab, xususan, o‘zbek tilida uning besh xil turi mavjud ekanini ko‘rsatib o‘tadi: 1) morfologik (affiksatsiya); 2) sintaktik (kompozitsiya); 3) leksik (transpozitsiya); 4) semantik; 5) fonetik usullardir.

A.G‘ulomovning nazariy qarashlari o‘zbek tilining an’anaviy talqindagi grammatikalari mundarijasidan munosib o‘rin oldi, alohida ilmiy-tadqiqot ishlari uchun turtki bo‘ldi. Shunga qaramay, so‘z yasalishi bilan aloqador ayrim masalalar turkiyshunoslikda, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biridir. Bu hol hatto so‘z yasalishi turlarining belgilanishi va ularning nomlanishi kabi oddiy masalalarda ham ko‘zga tashlanadi. So‘z yasalishi tizimida yangi lug‘aviy birliklar hosil bo‘lishining ikki asosiy (yetakchi) turi – affiksatsiya va kompozitsiyaga alohida e’tibor qaratiladi . Professor so‘z yasalish tuzilishini morfologik tuzilishdan farqlagan holda, uning doimo uch qismdan iborat bo‘lishini ta’kidlaydi: yasovchi asos (o‘zak yoki negiz)+ derivant = yasalma (derivativ) . Yasalma bilan yasovchi qism o‘rtasidagi mazmuniy davomiylik (motivatsiya) tushunchasiga katta e’tibor beradi va bu so‘z yasalishida muhim ekanligini ta’kidlaydi. Hosil qilingan yangi leksema yasashga asos qismning ma’nosini davom ettiradi, shuning uchun ham A.G‘ulomov yasama so‘zlarda yangi hosil qilingan element bilan bog‘liqlik davom etishiga katta ahamiyat qaratadi.

A.G‘ulomov sintaktik yo‘l bilan so‘zlar yasalishini kompozitsiya usuli, ya’ni ikki yoki undan ortiq o‘zakning bir-biriga qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi, deb ta’rif beradi. Bunday so‘zlarni juft so‘zlar yoki binomalar deb ham ataydi .

Zamonaviy tilshunoslikda so‘z yasalishi alohida soha sifatida morfologiyadan ajratildi va alohida mustaqil bo‘limga aylangunga qadar o‘zbek tilshunosligida qizg‘in bahs va munozaralarga sabab bo‘lib keldi. So‘z yasalishini mustaqil fan sifatida ajratish tilni tizimli o‘rganish va lingvistik (nutq) jarayonlar to‘g‘risidagi g‘oyalarni chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan fanda keng istiqbolli tadqiqotlarga turtki bo‘ldi. Bunday qarashlar nafaqat jumlalar, matnlar tuzilishini, balki yangi so‘zlar

yaratishni ham o‘z ichiga qamrab oldi. Ammo so‘z yasalishini alohida hodisa sifatida o‘rganish birinchi marta professor A.G‘ulomov tadqiqotlari asosida XX asrning 40-yillarida shakllandi. Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida morfema tushunchasi shu paytdan boshlab paydo bo‘ldi. Unga qadar “morfema” deb atalgan til birligi va uning mohiyatini to‘g‘ri aniqlab beruvchi ma’lumotlar bo‘lmagan. Chunki morfemalarning mohiyati o‘zbek tili materiallaridan kelib chiqib belgilanmagan. Aksincha, rus tilshunosligida bildirilgan fikrlar o‘zbek tilshunosligiga ko‘chirilgan va unga asos bo‘luvchi misollar o‘zbek tilida topilgan va topilyapti ham . A.G‘ulomov esa so‘z yasalishining qaysi bo‘limga mansub ekanligini, hind-ovrupo tilshunosligi andozalari asosida morfologiya tarkibida o‘rganib kelinganini tanqid qiladi. Bu hodisa natijasida leksema yuzaga kelayotganligi sababli so‘z yasalishining ko‘proq leksikologiyaga aloqasi borligini aytib o‘tadi. Shu o‘rinda aytish joizki, morfologiya so‘z turkumlarining morfologik tahlilini o‘rgansa, leksikologiya so‘zning nominativ ma’nosi, semantikasi, etimologiyasi, so‘z shakllari kabi masalalarni o‘rganadi.

Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligi tarixida so‘z yasalishi turli bo‘limlarga mansubligi haqidagi qarashlarning mavjud bo‘lganligiga qaramasdan, zamonaviy tilshunoslikda so‘z yasalishi alohida bo‘limda o‘rganilayotganligi o‘zbek tilshunosligining taraqqiyot yo‘li rivojlanayotganligi va bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғуломов А.Ғ. Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги – Тошкент, 2004. – Б. 22
2. Детская энциклопедия. – М.: Просвешение, 1968. – С.49.
3. Ибрагимова У. “Девону луғотит турк”нинг Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида сўз ясалишига муносабати // халқаро илм.конф.матер.– Самарқанд.,2018.– Б. 211-213.
4. Маҳмуд Кошғарий Девону луғотит турк. – Тошкент, 1960. – Б.50.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 46.
6. Филология 2-китоб.Ўзбек тилининг илмий грамматикаси учун материаллар. – Тошкент: ЎзФАН.1941. –Б.93.
7. Фитрат А. Тилимиз I. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.146.
8. Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари – Тошкент: Фан. 2010. –Б. 23.

Muhtabar SANOYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

MATNNI YARATISHGA YO‘NALTIRILGAN TIZIMLI GRAMMATIK TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatishning zaruriy metodik tamoyillari haqida so’z boradi. Til hodisalarini qiyoslash, farqlash, tanlash, guruhlash, analiz va sintez qilish jarayoni va fanlararo aloqadorlik asosida yosh avlodni matn yaratishga tayyorlash masalalari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *og‘zaki matn, yozma matn, integratsiya, nutqiy qobiliyat.*

Аннотация: в статье рассматриваются необходимые методические принципы обучения учащихся созданию текста. Широко освещаются вопросы подготовки подрастающего поколения к созданию текста на основе процесса сравнения, дифференциации, отбора, группировки, анализа и синтеза языковых явлений и междисциплинарной взаимосвязи.

Ключевые слова: *устный текст, письменный текст, интеграция, разговорные навыки.*

Annotation: the article talks about the necessary methodical principles of teaching students to create a text. The process of comparing, distinguishing, selecting, grouping, analyzing and synthesizing language phenomena and preparing the young generation for text creation on the basis of interdisciplinarity are widely covered.

Key words: *oral text, written text, integration, speaking ability.*

O‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatishda o‘qituvchi ona tili darslarida matn yaratilgandan so‘ng uni qayta-qayta tahrir qilish, har bir so‘z, so‘z birikmalari, har bir jumla ustida astoydil fikr yuritish, matndagi ortiqchaliklar va noo‘rin tafsilotlarni, takroriy tasniflarni ixchamlashtirishni talab qilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarda matn yaratish va uni uslubiy tahrir qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

O‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatishda quyidagi metodik tavsiyalarni e’tiborga olmoq lozim:

- matn yaratishda o‘quvchilarning yosh psixologiyasi, nutqiy qobiliyati hamda imkoniyatlarini hisobga olish;
- matn yaratish jarayonida ona tilini boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish tamoyiliga asoslanish;
- til hodisalarini qiyoslash, farqlash, tanlash, guruhlash, analiz va sintez qilish;
- og‘zaki va yozma nutqni ilmiylik va tushunarlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida rivojlantirish;
- darslikka qo‘shimcha sifatida nutq o‘stirish mashqlari, muammoli o‘quv topshiriqlari, psixolingvistik testlar, mavzu asosida nazorat savollari tuzish mashqlarini kiritish va ularni uzluksiz takomillashtirib borish.

Shu nuqtayi nazardan 5–6-sinf o‘quvchilariga quyidagi grammatik topshiriqlar asosida matn yaratish tavsiya etiladi:

1-topshiriq. “Tabriknoma yozish”. Tayanch so‘zlar: *hurmatli, muhtaram, bebaho o‘gitlar, mehr-oqibat, chin dildan, hayot yo‘lingiz.*

2-topshiriq. Matnda aks etgan chehralar mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib, matnni to‘ldiring. Ijodiy fikrlar bilan davom ettiring.

Bugun rosa 😋 bo‘ldim. Bilasizmi, oyijonim kasalxonadan chiqdilar. Ularni judayam 😌. Toblari qochganda xafa bo‘lib, yashirincha 😵. Hammasi yaxshilik bilan tugaganidan 😇. Endi yana hammasi 👍 bo‘ladi. Xonadonimiz farishtasi uyga qaytdilar. 👵👩👧👦 jamuljamligi qanday yaxshi-a.

3-topshiriq. Gul so‘zi ishtirokida matn tuzing.

Gullar suhbati (o‘quvchi tuzgan matn namunasi)

Katta bog‘ning ko‘rki bo‘lgan atirgul bir kuni qashqargul bilan suhbat quribdi. Atirgul o‘zini malika hisoblab, qashqargulga maqtanibdi:

- Bu maskanda mendan chiroyli gulni topa olmaysan. Meni yana xushbo‘y tarovatim ham bor. Bulbul menga qarab kuylaydi. Mening jamolimni qizlar oraziga qiyoslashadi…

Mazkur metodik tavsiyada o‘quvchilar bir paytning o‘zida o‘qish, yozish, sharhlay olish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tanlangan matn ham o‘quvchilarning dunyoqarashini, tafakkurini o‘stiradi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgani uchun o‘quvchi xotirasida saqlanib qoladi, so‘z boyligining oshishiga olib keladi.

Ona tilini boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish tamoyiliga asoslangan holda matn yaratishda o‘quvchilarning filologiya fanlari, ijtimoiy, aniq, tabiiy, iqtisodiy hamda amaliy o‘quv fanlaridan olingan bilimlari namoyon bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun mo‘ljallangan ona tili darsligining yangi nashrida [1] “Tabiat va biz”, “O‘zbekni mashhur qilgan “Allapinin”, “Ulkan portlash”, “Qutb yulduzi”, “Telefonda gaplashish madaniyati”, “Alp Er To‘nga”, “Ko‘priklar”, “Konstitutsiya nima?”, “Baliqlarda aql bormi?”, “Algoritm asoschisi”, “Qadimiy shaharlar” kabi tarix, matematika, tibbiyot, geografiya kabi fanlarga oid matnlar kiritilgan. Bu milliy dasturning nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o‘qish, so‘zlash, yozish) yaxlit o‘zlashtirish, muloqotning barcha sohalarida nutq malakalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilishga asoslangan talablarning yuzaga chiqishi uchun ilk qadam desak, yanglishmaymiz.

2022-2023-o‘quv yilida 6, 7-sinflar uchun Milliy o‘quv dasturi asosidagi yangi darsliklar asosida ona tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Dasturda “Men, sen, u va ular”, “Tabiat ne’matlari”, “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”, “Kasbim – faxrim”, “Yosh iqtisodchi”, ”Fan va texnologiyalar”, “Til va dil”, “Tarix xazinalari”, “San’at va madaniyat”, “Huquqimiz – haqimiz” kabi boblarda berilgan matnlarni o‘rganish samaradorligini oshirish uchun matn asosida tuzilgan test savollari, muhokama mavzulari, loyiha ishlari keltirilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad nutqiy kompitentlikni rivojlantirish bo‘lib, o‘quvchilarni PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlariga tayyorlaydi.

E’tiborli jihati shundaki, fanlararo integratsiya faqat ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lash emas, boshqa fanlarni ona tili bilan bog‘lab o‘rganish jarayonida ham kuzatiladi. Milliy o‘quv dasturi asosida tuzilgan 6-sinf tabiiy fanlar darsligidagi [2] mavzularda ko‘proq “Muhokama qiling” topshirig‘iga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Hayvonot dunyosi” mavzusida “Ko‘pchilik hayvonlar harakat organlariga ega. Hayvonlarning qanday harakat organlarini bilasiz? Hayvonlar qanday maqsadlarda harakatlanadi?” savollari muhokamaga qo‘yilgan. O‘quvchilar olingan bilimlar asosida hayotda yoki televizorda o‘zlari ko‘rgan hayvonlar, ularning harakatlanishida ishtirok etadigan organlar, bu organlarning o‘ziga xos jihatlari va afzalliklari haqida so‘zlaydilar. Bu og‘zaki nutq mahsuli bo‘lib, ona tili o‘qitishdagi gapda so‘z tartibiga amal qilish, rivoya matni, tasviriy matn tuzish ko‘nikmalarining shakllanganligini isbotlaydi. Xuddi shu jihatlar aniq axborotlar tahliliga tayanib yozilsa, o‘z-o‘zidan kichik ilmiy matn yaratiladi.

Mazkur metodik tavsiya har bir o‘quvchida nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirishga sharoit yaratib beradi. Ayniqsa, tanlangan matnning global muammolarga daxldorligi, shuningdek, undagi ma’lumotlarning o‘quvchi tafakkuriga ta’sir etishi, hayvonlarni asrash, jonivorlarga yaxshi munosabatda bo‘lishiga o‘rgatishga bo‘lgan mas’uliyat ham oshib boradi.

Fanlararo integratsiya natijasida yaratilgan matnlarda o‘quvchilarning barcha fanlardan olgan nazariy bilimlari, ilmiy va ijodiy mushohadalari aks etadi. Masalan: **Topshiriq.** Huquqiy atamalardan foydalangan holda “Konstitutsiya – qonunlar asosi”

mavzusida matn yarating.

Konstitutsiya – qonunlar asosi

Faxr va g‘urur bilan aytish mumkinki, yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar bevosita qonun ustuvorligi tamoyiliga asoslangan. Jamiyatda tenglik va adolatga yo‘l ochildi. Qonun xalq hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatni boshqarish, davlat va fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish vositasidir. Demak, huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, qalqoni ham, ko‘zi ham qonundir…

Ko‘rinadiki, fanlararo integratsiyaning samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida turli fanlardan olgan bilimlarini yozma nutqda erkin qo‘llashga asos bo‘ladi. Bugungi kunda STEAM deb nomlanuvchi ushbu yondashuv yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. Bu fanlardan egallangan bilimlar o‘quvchilarning kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar bilimlarni egallashga va shu zahotiyoq ularni amalda qo‘llashga harakat qilishadi.

Maktabda bilim berishning asosiy didaktik vositasi darslik sanaladi. Shuning uchun darsliklarda berilayotgan nazariy ma’lumotlar o‘quvchi yoshi va psixologiyasiga mos, milliy tafakkur va mafkurani shakllantiruvchi, mashq va topshiriqlar esa zamonaviy hamda o‘quvchini o‘ziga jalb eta oladigan ma’lumotlarga boy bo‘lishi lozim. Xalq og‘zaki ijodining beqiyos namunalari bo‘lgan afsonalar, rivoyatlar, hikmatli so‘zlar, masallar, maqollar va matallar o‘quvchilarning ijodiy matn yaratishlari uchun doimiy ma’naviy manba vazifasini o‘tagan. Bir mavzu doirasidagi maqollar va hikmatli so‘zlardan foydalanib, o‘quvchiga matn yaratish topshirig‘i berilsa, o‘quvchilar bu vazifani tez va oson bajaradilar:

So‘z sehridan so‘zlaganda…

Dono xalqimizda “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor” degan purma’no maqol bor. Darhaqiqat, “Anjom – uy ziynati, so‘z – inson ziynati” deganlaridek, har doim insonning kimligini, dunyoqarashini, qaysi kasb vakili ekanligini uning so‘zlagan so‘zidan bilsak bo‘ladi. Albatta, “Ariqni suv bezar, odamni – so‘z”.

Dars mashg‘ulotlarini qiziqarli tashkil qilish matn yaratishda egallangan grammatik BKMlarni kerakli o‘rinda tezkorlik bilan qo‘llash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilarga bir harf bilan boshlanuvchi so‘zlardan foydalanib matn yaratish topshirig‘ini berish ana shunday jarayonni yuzaga keltiradi. Masalan:

Ilmli inson – insoniyatga imkon

Inson izlanuvchan. Ilmni izlab, imkon izlaydi. Ilm – ibodat. Ilmli inson - ibrat, ilmsiz inson –isnod. Ibratli inson ilm ila iftixorlanadi. Ilmli insonda ijodkorlik ifodalanadi. Ilgari ilmlilar imkonsiz, imtiyozsiz ishlaganlar. Ilm – inson iqboli. Intiluvchanlik – insonning inon–ixtiyori. Inchunun, ilm izlang.

Ushbu metodik tavsiyada tanlangan topshiriq matn orqali o‘quvchini ravon gapirish, ifodali o‘qish, savodli yozish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish bilan birga ularni orfoepik va orfografik bilimlarini mustahkamlashga o‘rgatish imkoniyatini oshiradi.

O‘quvchilarni xalqaro PIRLS va PISA tadqiqotlariga tayyorlash maqsadida diagramma, jadval, ma’lumotlar bazasiga tayanib matn yaratish topshiriqlari bugungi kunda ommalashdi. Bunda o‘quvchilar ma’lumotni puxta o‘zlashtirishlari, kerakli o‘rinda ularning o‘xshashlik va farqlarini topishlari, o‘z tajribalari yoki qarashlari haqida fikrlarni jamlab matn yaratishlari lozim.

Umuman olganda, o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatishda o‘qituvchi ona tili darslarida o‘quvchidan matn yaratilgandan so‘ng uni qayta-qayta tahrir qilish, har bir so‘z, so‘z birikmalari, har bir jumla ustida astoydil fikr yuritish, matndagi ortiqcha va noo‘rin tafsilotlarni, takroriy tasniflarni ixchamlashtirishni talab qilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarda matn yaratish va uni uslubiy tahrir qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent, 2020. 198-b.
2. Suyarov K.T., Sangirova B.Z., Umaraliyeva T.M. va b. Tabiiy fanlar. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Tuzuvchilar: Toshkent respublika ta’lim markazi, 2022.
3. Yo‘ldosheva D. N. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. 168-b.
4. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. 155-b.
5. Ziyodova T. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. – Toshkent: RTM, 2000. 163-b.
6. Ziyomuhammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya - zamonaviy o‘zbek modeli. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Lider Press, 2009. 42-43-betlar.
7. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 128-b.
8. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 160-b.

Javlon IBRAGIMOV,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari doktori.

NOLISONIY VOSITALARNING SO‘ROQ GAPLARDA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya: nutqiy maqsadni yuzaga chiqarishda va til birliklarining nutqiy voqelanishida faqatgina lisoniy omillarning o‘zi kifoya qilmaydi. Pragmatik omillar ham aksariyat hollarda grammatik va leksik vositalarga hamkorlik qiladi. Nutq egasining ko‘zlagan maqsadi tinglovchiga yetib borishi hamda so‘roq gaplar ifodalaydigan fikrlarning voqelanishida pragmatik omillarning ahamiyati beqiyos. Bu sof so‘roq gaplarda ham, ritorik so‘roq gaplarda ham kuzatiladigan lingvistik hodisadir.

Kalit so‘zlar: *pragmatika, pragmalingvistika, so‘roq gaplar, nutq, intensiya.*

Аннотация: одних языковых факторов недостаточно для вывода на поверхность речевой цели и речевой реализации языковых единиц. Прагматические факторы также в большинстве случаев взаимодействуют с грамматическими и лексическими средствами. Неоценима роль прагматических факторов в достижении слушателем цели говорящего, а также в реализации мыслей, выражаемых вопросительными предложениями. Это лингвистический феномен, наблюдаемый как в чистых вопросительных предложениях, так и в риторических вопросительных предложениях.

Ключевые слова: *прагматика, прагмалингвистика, вопросительные предложения, речь, интенция.*

Annotation: linguistic factors alone are not enough to bring to the surface the speech goal and the speech realization of linguistic units. Pragmatic factors also interact with grammatical and lexical means in most cases. The role of pragmatic factors in the listener's achievement of the speaker's goal, as well as in the realization of thoughts expressed in interrogative sentences, is invaluable. This is a linguistic phenomenon observed in both pure interrogative sentences and rhetorical interrogative sentences.

Key words: *pragmatics, pragmalinguistics, interrogative sentences, speech, intention.*

Kirish. Pragmatika atamasi ilm-fanning turli jabhalarida, jumladan, sotsiologiya, psixologiya, falsafa va semiotikada o‘tgan asrning o‘rtalarigacha qo‘llanib kelindi. Natijada esa, bu atama qamrab oladigan hajm juda keng va ko‘pqirrali ko‘rinishga ega bo‘ldi. Shu sababli ham lingvistikaga xoslangan pragmatikaning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi masalasini tekshirishda uning lingvistikaga munosabati, vazifalari doirasini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Y.G.Kotorovaning bu boradagi quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli: “Pragmatika va lingvistika orasidagi munosabat uch xil talqin qilinishi mumkin: 1) pragmatika lingvistika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan alohida soha hisoblanadi; 2) pragmatika lingvistikaning bir qismi hisoblanadi; 3) pragmatika lingvistikaning muayyan qismiga taalluqli hodisa hisoblanadi” [1:98-115]. Pragmatika atamasi “Suqrotdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar” [2:37]. Ch.Pirs va Ch.Morris sa’y harakatlari sababli pragmatika atamasi XIX-asrning 70-yillarida Amerikada shakllanib fanga kirib kelgan. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da pragmatikaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatni o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi” [3:164]. Shunday qilib, pragmatika tilshunoslikning yangi amaliy tarmog‘i sifatida tilning nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini o‘rganuvchi [4:14] soha sifatida shakllandi. Bu borada lingvistik pragmatika bilan pragmalingvistikani qiyoslagan, ularning umumiy va farqli jihatlarini ajratgan M.Ernazarovaning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Tilshunoslikning istalgan paradigmasining, u an’anaviy bo‘ladimi, zamonaviy bo‘ladimi, o‘rganish obyekti tildir. Modomiki, pragmatik lingvistika yoki lingvistik pragmatika tilshunoslik yo‘nalishi sifatida qaralar ekan, uning o‘rganish obyektini lisoniy birlik va strukturadan iborat sistemadan qidirmoq lozim” [5:77].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Demak, shuni anglab olishimiz mumkinki, pragmatika ham muloqot vaziyati bilan aloqador voqelik hisoblanadi. Muloqot tizimining ba’zi xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida olimlarimiz tomonidan o‘rganib chiqilgan. Xususan, muloqot tizimining tarkibiy qismi yoki uning bir qirrasi bo‘lgan muloqot xulqining ijtimoiy o‘ziga xosliklari haqida tilshunos olim S.Mo‘minov bir qancha izlanishlar olib borgan[6:20]. Bundan tashqari professor Sh.Safarov va G.Toirovalar ham bu tizimning bir lahzalik, ya’ni oniy ekanligini o‘rganganlar va ayrim unsurlarini tadqiq qilganlar[2:285]. Umuman, muloqot tizimi va unda pragmatikaning o‘rni haqida Sh.Safarovning quyidagi fikrlari o‘rinli: “...nutqiy

harakat ta’sirini pragmalingvistik tahlil doirasidan chetga surib qo‘ysak, unda muloqot tizimini to‘mtoq qilib qo‘ymaymizmi?! Muloqot so‘zlovchiga ta’sir o‘tkazish, uni biror javob harakatiga undash uchun bajariladi-ku! Nutqiy muloqot maqsadi ikki sathlidir, ya’ni nutqiy harakatda axborot almashish va kommunikativ pragmatik maqsad voqelanadi. Birinchisida so‘zlovchining maqsadi axborot yetkazish yoki olish” [2:79].

Muloqot tizimi bilan pragmatika bevosita bir-biriga aloqadorligini inobatga olgan holda aytishimiz joizki, nutqdan ko‘zlangan maqsadning yuzaga chiqishida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari orasida aynan so‘roq gaplarning ahamiyati juda dolzarbdir. Zero, so‘roq gaplar vositasida so‘zlovchi nafaqat tinglovchidan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotni oladi, balki e’tiroz, taklif, buyruq kabi maqsadlarni nolisoniy omillar hamkorligida ifodalashi ham mumkin. Darslik va qo‘llanmalarda so‘roq gaplar haqida keltirilgan fikrlardan birini e’tiboringizga havola etamiz: “Biror noma’lum narsa-hodisani bilish uchun murojaatni ifodalovchi, so‘roq mazmunli gap” [7:100]. Aynan ushbu ta’rifdan shuni anglashimiz mumkinki, so‘roq gaplarning nutq tarkibiga kiritilishidan asosiy maqsad so‘zlovchini qiziqtirgan yangi ma’lumotlarni suhbatdoshidan qabul qilib olishdir. Umuman olib qaraganda, bunday vaziyatlarda ham nolisoniy vositalar lisoniy vositalarga sheriklik qiladi. Ya’ni nutq egasi nutq vaziyatiga va tinglovchining yoshi, jinsi, ruhiy holatiga mutanosib bo‘lgan so‘zlarni so‘roq gapni shakllantirish uchun terib oladi. O‘z ichida so‘roq gaplarning yana bir necha turlarga ajralishi haqida quyidagi fikrlarni aytishimiz mumkin: “Asosiy xususiyatiga (vazifasiga) ko‘ra so‘roq gaplar ikki turga bo‘linadi: 1) javob talab qiladigan so‘roq gaplar yoki sof so‘roq gaplar; 2) javob talab qilmaydigan so‘roq gaplar yoki ritorik so‘roq gaplar” [8:104]. Aslini olib qaraganda, yuqoridagi ikki tur so‘roq gaplar alohida-alohida nutq vaziyatlarida ishlatiladi. Quyida so‘roq gaplarning leksik-grammatik xususiyatini ifodalashida, nutq intensiyasidagi vazifasini ro‘yobga chiqarishida nolisoniy (pragmatik) vositalarning o‘rnini tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida qo‘llangan quyidagi so‘roq gaplarda asosiy maqsad so‘zlovchini qiziqtirgan masalada tinglovchidan javob olish emas, albatta:

- *Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho‘kiz edi?*
- *Ola ho‘kiz...*
- *Yaxshi ho‘kizmidi yo yomon ho‘kizmidi?*
- *Qo‘sh mahali...*
- *Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa, keta beradimi?*
- *Bisotimda hech narsa yo‘q...*
- *O‘zi qaytib kelmasmikan?.. Birov olib ketsa, qaytib kela ber, deb qo‘yilmagan ekan-da! Nega yig‘lanadi? A? Yig‘lanmasin!*

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirilgan parchaning o‘zi o‘qish uchun taqdim qilinsa-yu o‘quvchi hikoya matni bilan tanish bo‘lmasa, o‘quvchida savol berayotgan shaxsning Qobil boboga berayotgan savollaridan muomala layoqatiga ega emasdek taassurot uyg‘onadi. Ammo o‘zbek xalqining hikoya yozilgan davrdagi dunyoqarashi, amaldorlar va oddiy xalq vakillarining munosabatidan xabardor o‘quvchi uchun “Yo‘qolmasdan ilgari bormidi?”, “Yaxshi ho‘kizmidi yo yomon ho‘kizmidi?”, “Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa, ketaberadimi?”, “O‘zi qaytib kelmasmikin?”, “Nega yig‘lanadi?” kabi savollar hayratlanarli va g‘ayriodatiy emas. O‘sha davr uchun amaldorlarning oddiy xalqdan o‘zini bir darajada yuqori olishi va ular bilan muloqotda bepisandlik bilan gapirishi odatiy hol sifatida qaralishi kerak. Bu savollar berilayotganda ularning birortasiga javob kutilayotgani va berilajak javoblarga qiziqilayotgani yo‘q. Bu vaziyatda, shunchaki, nutq vaziyatining taqozosi bilan, masalaga jiddiy qiziqayotgandek ko‘rinish va shu orqali Qobil bobodan pora sifatida nimadir undirish maqsad qilingan, xolos. Lingvistik maqsadsiz qalashtirilayotgan savollarni ifodalovchi so‘roq gaplarda yuqorida ta’kidlangan pragmatik omillar yetakchilik qiladi. Anglashiladiki, so‘roq gaplarning ba’zi turlarida lisoniy omillarga nisbatan nolisoniy omillar nutqiy intensiya uchun muhim bo‘lishi mumkin.

Gapda qo‘llangan grammatik vositalarda ham pragmatik omillarning ta’siri kuzatiladi. Masalan, yuqorida keltirib o‘tilgan parchadagi so‘nggi so‘roq gapda hikoya matnida amaldor obrazi sifatida gavdalantirilgan Amin Qobil boboga murojaat shaklida savol berishi lozim bo‘ladi. Bilamizki, o‘zbek tilida nutq vaziyatiga qarab hurmat ma’nosi shaxs-son shakllari orqali ham namoyish etilishi mumkin: “Fe’lning shaxs-son shakllari o‘z ma’nolaridagina qo‘llanib qolmay, balki biri ikkinchisi o‘rnida, boshqa ma’nolarda qo‘llana oladi... Ikkinchi shaxsning ko‘plik shakli, bir necha shaxsga murojaat ma’nosini bildirish bilan birga, ikkinchi shaxsning birligi uchun qo‘llanib, biror shaxsga nisbatan hurmat yoki piching ma’nosini ifodalaydi” [9:350]. O‘zining ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda Amin Qobil boboga siz deya murojaat etolmaydi, biroq yosh o‘rtasidagi tafovutning kattaligidan senlay ham olmaydi. Shuni inobatga olgan holda iste’dodli yozuvchi Abdulla Qahhor bu muammoga kutilmaganda ajoyib yechim topadi. “Nega yig‘lanadi?” tarzida Amin Qobil boboga so‘z ochadi. Majhul nisbat shaklining o‘rinsiz qo‘llanishi natijasida mazkur so‘roq gapdan ko‘zlangan maqsad yuzaga chiqadi. Amin buning natijasida nutq vaziyatida Qobil boboga na senlab murojaat qildi na sizlab. Natijada esa so‘zlovchining nutqiy maqsadi “ortiqcha” grammatik shaklning kiritilishi va unga pragmatik omillarning hamkorligi evaziga yuzaga

chiqdi.

Tahlil va natijalar. Darslik va qo‘llanmalarda ham so‘roq gaplarning pragmatik omillar ta’sirida nutqiy voqelanishi haqida bir qator ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Ritorik so‘roq gaplarda bu yanada yaqqolroq o‘z aksini topadi. Masalan, “Ritorik so‘roq gap javob talab qilmaydi, javobi o‘zida yashiringan va barcha uchun ma’lum bo‘ladi. Ritorik so‘roq gap quyidagi ma’nolarni ifodalashi mumkin: 1) tasdiq: Bu Vatanda nimalar yo‘q?; 2) inkor: O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga?; 3) taajjub: Bu nimasi?!; 4) tashvish: Meni tashlab ketmaysanmi?; 5) g‘azab: maqsad nima, maqsad?; 6) gumon: paxta ham yaxshi ochilmagandir?; 7) kuchli hayajon: Tokaygacha ezilamiz, ota?” [10:218]. Pragmatik omillar hamkorligining muqarrarligi yuqorida aytilgan barcha misollarda sezilib turibdi. Zero inkor, tashvish, gumon, g‘azab, kuchli hayajon kabi munosabatlar nolisoniy omillar hamkorligisiz so‘roq gaplarning o‘zi bilangina yuzaga chiqishi mumkin emas. Bu munosabatlar voqelanishi uchun muayyan nutq vaziyati, muloqot ishtirokchilarining mos kayfiyati kabi pragmatik omillar bo‘lishi talab etiladi.

Nutq vaziyatiga ko‘ra sof so‘roq gaplar ham pragmatik omillar bilan qorishiq holda voqelanishi imkoniyatiga ega. Masalan, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi qahramoni Abdug‘aniboy Sotiboldi xotinini davolatish uchun qarz so‘rab kelganida unga quyidagi savollarni beradi:

– Devonai Bahovuddinga hech narsa ko‘tardingmi? G‘avsula’zamga-chi?

Aslida, mazkur so‘roq gaplar sof so‘roq gaplar hisoblanib, tinglovchidan javob talab etadi. Biroq ushbu matnda ziqna, bid’atchi boy tarzida gavdalantirilgan Abdug‘aniboyning badiiy qiyofasini qabariq holda ochib berish uchungina so‘roq gapdan foydalanilgan. Qo‘l ostida arzimas chaqaga ishlaydigan mehnatkash ishchisiga pul bermaslik maqsadida bemor uchun foydasiz, ammo kambag‘alning sillasini quritadigan tadbirlarni o‘tkazgan-o‘tkazmaganligini so‘rashdan maqsad o‘zini bemorga joni achishayotganday qilib ko‘rsatish, Sotiboldini asosiy maqsaddan (boydan pul olish) chalg‘itish edi. Pragmatik vositalarning hamkorligisiz faqat so‘roq gaplar yordamida ijodkor yuqoridagi nutqiy intensiyaga erishmagan bo‘lar edi.

Demak anglashiladiki, so‘roq gaplar nutq jarayonida faqatgina suhbatdoshdan yangi ma’lumot olish maqsadidagina qo‘llanmaydi. Boshqacha qilib aytganda, so‘roq gaplar vositasida ham so‘zlovchi tinglovchidan axborot olish bilan bir qatorda unga yangi ma’lumot yetkazadi. Masalan, “Soat necha bo‘ldi?” so‘roq gapi orqali, bir qarashda, faqat so‘zlovchi uchun ayni vaqtda soatning necha bo‘lganligi qiziqtirayotgandek. Shu bilan birga mazkur so‘roq gapda nutq egasi uchun soatning necha bo‘lganligi muhim ekanligi, tinglovchida soat necha bo‘lganligini bilish imkoniyati mavjudligi haqida qo‘shimcha axborot ham mavjud. Bu qo‘shimcha ma’lumotlar esa pragmatik vositalar yordamida namoyon etilgan.

Xulosa va takliflar. So‘roq gaplar nutqni shakllantirish uchun dialogik nutqda ham, monologik nutqda ham muhim sintaktik vositalardan hisoblanadi. Sof so‘roq gaplarsiz dialogik nutqni tasavvur qilish imkonsiz bo‘lganidek, monologik nutqni ham ritorik so‘roq gaplarsiz ifoda etish mushkul masalalardan sanaladi. So‘zlovchining nutqiy maqsadi amalga oshishida so‘roq gaplar orqali pragmatik omillarning ahamiyati sezilarli darajada keng. Ba’zi o‘rinlarda so‘roq gap mazmuniga nisbatan nolisoniy omillar orqali ifodalangan ma’no so‘zlovchini nutqiy maqsadga tezroq yaqinlashtirishi ham yuqoridagi fikrlarni dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Которова Е.Г., Прагматика в кругу лингвистических дисциплин: проблемы дефиниции и классификации // Russian Journal of Linguistics, 2019 Vol. 23 No. 1, – P.98-115.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 318-б.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2004. 462-б.
4. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2001.247-б.
5. Ernazarova M., Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida, Filol. fan. dokt... diss. – Samarqand, 2018. 242- b.
6. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.20-б.
7. Ҳожиев А., Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, – Тошкент: ЎзМЭ. 2001.164- б.
8. Mahkamov N., Ermatov I., Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati, – Toshkent: Fan, 2013.144-b.
9. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 399-б.
10. Mengliyev B.R., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N., O‘zbek tilidan universal qo‘llanma, – Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr.222-b.

Madixabonu PARDAYEVA,
Navoiy davlat universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi,f.f.f.d.(PhD)

ABDULLA QODIRIY HAJVIYALARIDA -CHI AFFIKSI BILAN YASALGAN SO‘ZLAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada bugungi kunda o‘zbek tilini rivojlantirish, atamalarni o‘zbekchalashtirish masalasi muhim bo‘lib turganda shaxs oti yasovchi, o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar ustida maxsus tadqiqotlar olib borilayotgani hamda Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalgan so‘zlarning ko‘p uchrashi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *affiks, atama, morfologik, qo‘shimchalar, faol, sinonim, birikma, matn, uslub,grammatik*

Аннотация: в статье, несмотря на актуальность развития узбекского языка в наши дни, важна узбекизация терминов, проводимые специальные исследования личных существительных и локативных существительных, а также слов, образованных с суффиксом -chi в комиксах Абдуллы Кадыри.

Ключевые слова:*суффикс, термин, морфологический, активный, синоним, сочетание, текст, стиль, грамматика.*

Annotation: in the article, while the development of the Uzbek language is important today, the Uzbekization of terms is important, special research is being carried out on personal nouns and locative nouns, and words formed with the suffix -chi in Abdulla Qadiri’s comics. Many occurrences of z are analyzed on the basis of examples.

Key words: *affix, term, morphological, adverbs, active, synonym, combination, text, style, grammar*

O‘zbek tilida grammatik ma’noni ifodalovchi lisoniy birliklar forscha va arabcha bilan aralash qo‘llaniladi. Bugun milliy tilning mavqeyini oshirish zarur bo‘lib turgan bir davrda o‘zbek tili tabiatiga mos bo‘lgan morfologik vositalarni tanlash va muomalaga kiritish lozim.Eng ko‘p qo‘llaniladigan fe’lning grammatik ma’nolarini ifodalovchi birliklar, xususan, vazifadosh shakllarning o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish bugun grammatik vositalarda ko‘p uchrayotgan omonimlikni qisman bartaraf qilish imkonini beradi. Buning natijasida korpus lingvistikasidagi affikslar omonimligi bilan bog‘liq muammolar ma’lum ma’noda yengillashadi.

Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalgan so‘zlar ko‘p uchraydi. *Ammo bugungi kunda qo‘llanilmaydiganlari ham bor: Bir vaqtlarda atoqli bir lo‘ttichi turli lo‘ttilar (fo‘kslarni) ko‘rsatar edi. Ayniqsa, aning chigildak bir qog‘ozni og‘zig‘a solub, hech bir poyonsiz uzun qilub og‘zidan chiqaruvi bizni hayron qoldirar erdi. Lo‘ttiboz yo‘q kunlarda aning o‘rnig‘a lo‘ttichilik qilaturg‘an bir majnun bor edi:*

Bugungi kunda o‘zbek tilini rivojlantirish atamalarni o‘zbekchalashtirish masalasi muhim bo‘lib turganda shaxs oti yasovchi, o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar ustida maxsus tadqiqotlar olib borilishi kerak. Quyidagi matnda qo‘llangan so‘zlardan - chi affiksi orqali yasalgani o‘zbek tili tabiatiga mos keladi: / – *Kishilar-kishilar, potino-potino! Chunki lo‘ttiboz xalqni yig‘moqchi bo‘lg‘anda “Potino” degan bir ashula aytar edi. Xalq majnunning atrofig‘a quruq bir mazax uchun yig‘ilg‘anda majnun yana bir marta “Potino”sini aytub olg‘ach, cho‘nchagidan bir changal qog‘oz chiqarub, xalqg‘a ko‘rsatub chiqar edi. (Lo‘ttichi og‘zig‘a solaturg‘an chigildak qog‘ozni yalmalkan ekanlig‘in xalqdan tasdiq ettirar va og‘zini ham ochub, boshqa qog‘oz yo‘qliqni ko‘rsatar edi). /(A.Q.Tanlangan asarlar, 556.)* Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan aynan “lo‘ttichi” o‘zbek tili tabiatiga mos tarzda yasalgan. Uning sinonimi sifatida “lo‘ttiboz” ham aralash qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. “-boz” fors-tojikcha affiks bo‘lib, bugungi kunda juda ko‘plab o‘zbekcha shaxs otlarini hosil qilishda ishtirok etmoqda. Aslida -chi affiksi faolroq qo‘llanilishi kerak, bizningcha.

Quyidagi matnda ham ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar morfologik jihatdan o‘zgarishga uchragan: *Majnun kulunch bir holda xalqg‘a og‘zini a… a…. qilub ochub kuldirgach, boyag‘i bir changal qog‘ozni og‘zig‘a solub qiziq bir vaziyat ila yalmiy boshlar va bir qancha vaqt chaynab qog‘ozni yutub yana “Potino-potino”sini aytub, qog‘ozni lo‘mbozdek qilub olur va hunarini xalqg‘a g‘ururlanub ko‘rsatub chiqar edi. Majnunning bu ishi – lo‘ttibozligidan ham xalqqa ortiq kulgi berar, hammamiz bu vaqt kula-kula o‘lar edik.[1]* Ayrim o‘zbekcha affiks bilan yasalgan so‘zlar bugungi kunda ham faol qo‘llanmoqda: *“Ishchi”ning kichkina fileto‘ni bo‘lg‘an “Osti-ustiga”si bosilub chiqdi, bunisi “Kichkina fileto‘n”i emish. “Osti-ustiga”si emish “Yaram-yaram bog‘i” emish. Eski shahardagi inqilob shunga o‘xshar emish. Kelishmagan qiliq o‘lsun deymi? Buni o‘qub: Kula-kula o‘lasan!.. qiliq* so‘zi sof o‘zbekcha so‘z bo‘lib uni pedagogikada ham termin sifatida bemalol qo‘llash mumkin.

Morfologik usulda so‘z yasalishiga asarda ko‘plab misollar keltirish mumkin:

1. *“Har bir asarning boshinda bir-ikki so‘z yozub qog‘ozni bemaza qilub yurgandan ko‘ra, bir-ikki so‘zlarni hammasini birga yig‘ub “Noshirdan bir-ikki so‘z” isminda bir narsa yozub nashr etsa, kitobning boshig‘a yozg‘anig‘a qarag‘anda G‘ozi Yunus ismini chiqarishg‘a qulayroq, ham bir asar maydonga kelgan bo‘lmasmi?”, – degan edi.*

2. Eski shahar sho‘basining vakillig‘ig‘a mashhur eslikli yoshlardan G‘ulom Zafariy ta’yin etilgan. Rivoyatlarga qarag‘anda, Toshkandda bu o‘run uchun o‘zindan boshqa eslik kishi topolmag‘ach, G‘ulom Zafariy o‘zini ta’yin etdirgan. Bu o‘rtoq shu kundan boshlab o‘z atrofiga eslikli yosh o‘smirlarni yig‘a boshladi, deylar… Tag‘i: Kula-kula o‘lasan!..[2]

Yuqorida yettita kontekstda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zbek tili tabiatiga mos holda yasalgan. Bugungi kunda ham xuddi shunday o‘z qatlamga doir so‘zlarni hosil qilish lozim. Bu borada *-li va -lik* affikslari ham ot va sifat yasashda faol ishtrok etuvchi qo‘shimchalar hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida *-li va -lik* affikslari sifat va ot yasashdan tashqari yana boshqa vazifaga ham ega. -li affiksi sifat yasovchi eng unumli affiks ekani ma’lum: zavqli, ibratli, yog‘la, ko‘ngilli, odobli... Shuningdek, u ot birikmalarni sifatlovchi birikmalarga aylantirish vazifasida ham juda keng qo‘llanadi*: Bu rastada ming xil kiyimli olomon yo‘q. Yaqinda kolxozlarga o‘rta, oliy ma’lo‘motli agronomlar, zootexniklar, irrigatorlar, mexanizatorlar rahbarlik qiladi. Usti brezent yopqichli mashina yonidan yer o‘lchaydigan apparatning oyog‘i chiqib turibdi*. Bu misollarda ham -li affiksi “ega”, “bor” degan ma’no ifodalaydi. Lekin yangi so‘z ham, so‘zning formasini ham yasayotgani yo‘q, ot birikmaga qo‘shilib, shu birikmalarni sifatlovchi (belgi ko‘rsatuvchi) birikmaga aylantiryapti. Bunda birikma komponentlari leksik mustaqilligini saqlaydi, shuningdek, ular o‘rtasidagi sintaktik aloqa ham saqlanadi: *katta oynali.*

Hozirgi o‘zbek tilida -lik ot yasovchi ko‘p ma’noli affiks: yaxshilik, shaharlik, qumlik, tezlik. Bundan tashqari u gapga teng konstruksiyalarga qo‘shilib, uni gapning biror bo‘lagi funksiyasidagi konstruksiyaga aylantiradi - *bir-ikki kundan keyin Yozyovon masalasida katta yig‘in bo‘lishi kerakligini angladi. Vaqti tig‘izligidan avvalgi safar singlisinikiga yo‘lni yaqinroqdan solgan, qamoqxona orqasidagi ko‘chadan yurmagandi*. Bu misollarda -lik affiksi qo‘shilgan “katta yig‘in bo‘lishi kerak”, “vaqt tig‘iz” gapga teng konstruksiyalar. -lik affiksining qo‘shilishi natijasida ular turli kelishik formasida qo‘llanib, gap bo‘lagi vazifasida kelish imkoniga ega bo‘lyapti. -lik affiksi bunda biror ma’no ifodalamaydi, balki faqat gapga teng konstruksiyani gapning biror bo‘lagi vazifasida kelishga hozirlash vazifasini bajaradi.[3]

-li va -lik qo‘shimchalarining asarda qo‘llanilishi bo‘yicha bir xillik mavjud emas. Qolaversa, -lik va -liq shakllari ham aralash qo‘llanib kelmoqda:

Ishonchliq manbalardan oling‘an xabarlarga qarag‘anda, bu dahshatlik fojiani o‘z foydalari bilan bitirmak uchun har ikki tomon o‘z vakillarini duogo‘y Nazir maxzum uzlatxonasiga kirgizib, nazir berib, xolisona duolar olg‘an ekanlar. Birinchidan, Nazir maxzumning ko‘nglining yumshoqlig‘i, ikkinchidan, o‘zining ham qaysi yoqqa o‘tmakka bo‘lg‘an taraddudi sabablari bilan hali bir tarafka ham duoi xayr qilg‘anlig‘i ma’lum bo‘lmay, bir tomonning muvaffaqiyati va ikkinchining mag‘lubiyatiga yo‘l bermay qolg‘anlig‘i ma’lum bo‘ldi.[4]

Ayrim yasama so‘zlar bugungi kunda muomaladan chiqib ketgan. Bunday so‘zlar o‘rnini “yengiltak” kabi sintaktik usulda yasalgan so‘zlar egallagan: *Kimdan bo‘lar edim, shu ko‘rib turganingiz etaksizlardan.* Etaksiz *bu – betayin, tutruqsiz degan ma’noni ifodalaydi. Imlo politikasidan boshqa masalalarga o‘tkanda qurultoy ag‘zolarining turluk tomong‘a turub ketib, ustol yonida prezidiumning yolg‘uz qolg‘an vaqtlaridag‘i tinchliklardan ko‘z yumub o‘tilsa “Muxoraba – qonliq bordi”, demakka arzig‘uliqdir. Bu to‘g‘ridag‘i afkori umumiyaga kelganda ishlar bundaydir: Toshkandning Yahyaxo‘ja eshon, Etemas eshon va Cho‘pqo‘ymas eshonlari kecha-kunduz yig‘lab-sixtab Munavvarqori va Avloniy haqqig‘a duo qilib, chaplarga la’nat yog‘dirib yotadirlar. (A.Q., 590)*

Quyidagi jumlada qo‘llangan *“ishonchliq”* so‘zi tarkibidagi *-liq* qo‘shimchasi aslida *-li* belgiga egalikni ifodalaydi. Keyingi jumladagi *“dahshatlik”* so‘zidagi qo‘shimchaga nisbatan ham shu fikrni aytish mumkin: */Narimon Narimonov o‘zining bir to‘rba lotin harflarini orqalab, Turkiston yo‘lig‘a chiqdi – degan xabarlar yursa ham, biroq bu ishonchliq manbadan oling‘an xabarga o‘xshamaydir. Har holda imlo muhorabasi juda dahshatlik bir ravishga kirib butun dunyoning diqqatini o‘ziga tortmoqdadir. Har ikki tomonning qahramonlari safka!/[5]*

Fors-tojik tilidagi old qo‘shimchalar Abdulla Qodiriy hajviyalarida juda kam ishlatilgan, uning o‘rniga o‘zbekchi affikslar orqali kerakli grammatik ma’nolar ifoda qilingan: *Men ixtiyorsiz xaxolab kulib yubordim. Ertalabki shaytonning “Komitet qo‘yining dumbasi tushib qolgan”, so‘zi esimga tushgan edi: – Ha, badbaxt, rost gapirgan ekansan, – deb qo‘ydim.* [6] Ammo uslubiy talab bilan ijodkor *badbaxt* so‘zini qo‘llashga ehtiyoj sezgani ko‘rinib turibdi, zero, uning o‘rniga *baxtsiz*, *baxtiqaro* deb ham fikr ifodalash mumkin edi.

Badiiy matnlar orqali tilning asosini tashkil etuvchi mustaqil so‘z turkumlarining bir asr oldingi va hozirgi morfologik holatidagi o‘zgarishlarni o‘rganish mumkin. Buning natijasida so‘zlarni turkumlarga tasniflash, grammatik vositalarning tegishliligini aniqlash, ayrim so‘zlar tarixan qanday grammatik, leksik ma’noga xizmat qilgani haqida zarur xulosalarga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2014.547- Б.
2. Абдулла Қодирий.Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2014.548- Б.
3. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши.– Т.: Ўқитувчи, 1979. 10-11-б.
4. Абдулла Қодирий.Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2014.562- Б.
5. Абдулла Қодирий.Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2014.562- Б.
6. Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2014.534- Б.

Alisher PARMONOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD, dotsent,
Email: parmonovalisher@bk.ru

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASINING KINOYAVIY IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va rus tillarida olamning lisoniy manzarasining kinoyaviy ifodasi tahlil qilinadi. Muallif kinoya vositasida o‘zbek va rus madaniyati va dunyoqarashidagi o‘ziga xos jihatlarni ochib beradi. Maqolada badiiy diskursda kinoyaning enantiosemiya, ironik semantika, pragmatik va kognitiv xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Kinoyaning turli shakllari, jumladan, verbal va situativ kinoyalar yordamida olamning lisoniy ifodasi va mazmun qatlamlari o‘rganiladi. Maqola o‘zbek va rus tillarida kinoyaning nutqiy ifoda vositasi sifatidagi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *olamning lisoniy manzarasi, kinoya, enantiosemiya, o‘zbek tili, rus tili, ironik ifoda, badiiy diskurs.*

Аннотация: в данной статье рассматривается ироническое выражение языковой картины мира в узбекском и русском языках. Автор раскрывает особенности узбекского и русского культурного и мировоззренческого восприятия через призму иронии. Статья содержит подробный анализ энантиосемии, семантических, прагматических и когнитивных характеристик иронии в художественном дискурсе. Изучены различные формы иронии, включая вербальную и ситуационную иронию, для понимания языкового выражения и глубинных слоев смысла. Исследование направлено на выявление характеристик иронии как средства речевой выразительности в узбекском и русском языках.

Ключевые слова: *языковая картина мира, ирония, энантиосемия, узбекский язык, русский язык, ироническое выражение, художественный дискурс.*

Annotation: this article analyzes the ironic expression of the linguistic worldview in Uzbek and Russian languages. The author highlights the unique cultural and conceptual features of Uzbek and Russian perspectives through irony. The article provides an in-depth analysis of irony's enantiosemy, semantic, pragmatic, and cognitive aspects in artistic discourse. Various forms of irony, including verbal and situational irony, are explored to understand the linguistic representation and underlying layers of meaning. This study focuses on identifying the characteristics of irony as a speech tool in Uzbek and Russian languages.

Keywords: *linguistic worldview, irony, enantiosemy, Uzbek language, Russian language, ironic expression, artistic discourse.*

Konteksda olamning lisoniy manzarasi ma’lum bir konseptual asoslarga ko‘ra turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu kognitiv hodisalar ma’lum bir strategik va kommunikativ maqsadlar uchun xizmat

qiladi. Inson dunyoqarashi bilan bog‘liq hodisalarni aks ettiruvchi kinoya ham lisoniy vosita sifatida o‘ziga xos munosabatni ifodalab, kommunikatsiya jarayonida kognitiv-semantik va pragmatik xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. Masalan:

Bizning eshon mana shunaqa, lekin ikkita aybi bor: birlamchi, xudo bo‘ydan bergan emas. Xotini bilan “podruchka” qilib ketayotganida, orqasidan ko‘rgan kishi “Eshonni Kifoyatxonga osib qo‘yibdi”, deydi...

... Ikkilamchi, xotinidan ko‘p kaltak yeydi. (A.Qahhor. Sinchalak. 27-b)

Yuqoridagi misolda eshonga nisbatan Qalandarovning salbiy munosabati (masxaralash) asta-sekinlik bilan yuzaga chiqarilgan. Bu misolda sho‘rolar davri mafkurasi bor kuchi bilan ufurib turibdi, agar bu holatni bugungi kunda tasvirlaganda, hatto Abdulla Qahhor ham so‘zlarni tanlabroq ishlatgan bo‘lardi. Chunki gap din arbobi haqida ketmoqda. Pakana bo‘lsa-da, eshon u. Mana shunisi noto‘g‘ri bo‘libdi. Eshon bo‘la turib biroz oldinroqda yolg‘iz g‘o‘ddayibroq yurmay, xotiniga “osilib olibdi”. Kinoya shu yerda ifodalangan.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, inson o‘z fikrini o‘ta ta’sirchanlik bilan tinglovchiga yetkazishda ironiyadan foydalanadi. Ironiyada hamma vaqt aytilayotgan fikrning aks ma’nosi nazarda tutilib, shu yo‘l bilan nutqning ekpressivligi oshiriladi va nimadir inkor qilinadi.

Enantiosemiya grekcha “enanti” — qarama-qarshi, “sema” — belgi ma’nosini anglatib, tilshunoslikda bir so‘zning semantik strukturasida zid ma’noning yuzaga kelishini bildiradi:

Lolaxon paxtani “yomon” terib qo‘yadi-da.

Og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan bu gapda qo‘llangan “yomon” so‘zining kontekstdan tashqaridagi ma’nosi salbiy bo‘lib, bu yerda ijobiy ma’nodagi yaxshi, zo‘r so‘zlari o‘rnida qo‘llangan. Misoldan ko‘rinib turibdiki, enantiosemiya nutqiy hodisa ham bo‘lishi mumkin ekan. Shu jihatdan olganda, u ironiyaga o‘xshab ketadi, ekspressiv-stilistik vazifa bajaradi, ya’ni nutqiy hodisa sifatida shakllangan bo‘ladi. Ironiya esa faqat nutqiy hodisa bo‘lib, leksik birlik ters ma’noda qo‘llaniladi va piching orqali ifoda etiladi. Masalan:

Qalandarov shishani eshonning qo‘lidan olib, qirrali stakanga konyak to‘ldirdi-da, uzatib:

— Ma, “volidang” kelguncha yutib ol, keyin biz bilan mayda qilasan! — dedi.

— Unaqa demang! — dedi Huriniso eriga ho‘mrayib, keyin Saidaga izoh berdi:

Kifoyatxon bu kishidan uch-to‘rt yosh kattaroq... (A.Qahhor. Sinachalak. 23-b).

Ma’lumki, “volida” so‘zi adabiy tilda “ona” so‘zining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Yuqoridagi nutq parchasida esa bu so‘z teskari ma’noda piching qilish yo‘li bilan “xotin” – rafiqa ma’nosida qo‘llangan. Bu ma’no faqat mazkur nutq jarayonidagina reallasha oladi. Mazkur nutqiy vaziyatda Qalandarov eshonga “xotinning undan katta ekanligi”ni pisanda qilyapti.

Ko‘rinib turibdiki, bu parchada “volida” so‘zi ironik ma’noda qo‘llangan. Bu yerda so‘z nominativ ma’nosining zid berilishi, ya’ni inkor etilishi kuzatiladi. Bunday vaqtda, albatta, salbiy-subyektiv munosabat ifodalangan bo‘ladi. So‘zning bosh nominativ ma’nosi esa hamma vaqt ham ekspressiv-stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lavermaydi. Bu holat ironiya va enantiosemiya hodisalarining aynan bir xil hodisa emasligini, faqat o‘xshash hodisa bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib turadi. Enantiosemiya biror bir til vositasining to‘g‘ri ma’nosidagi o‘zaro qarama-qarshiligiga asoslanadi, ironiya esa bir vosita orqali ma’lum nominativ ma’noning kinoya orqali inkor etilishi, ko‘chma ma’noda berilishidir.

Yuqorida biz badiiy diskursdagi kinoyalarning voqelanishiga oid misollarni ingliz va o‘zbek tillarida tahlil qildik. Endi rus tili badiiy diskursida kinoyaning ishlatilish holatini ko‘rib chiqamiz. Chunki rus tilida ham ironiya eng ko‘p qo‘llaniladigan uslubiy vositalar sirasiga kiradi.

“Инструктор в авто школе заявил, что пешеходы у нас бывают двух типов – шустрые и мертвые. Разве можно таким жестоким людям доверять обучение водителей” (В.Коклюшкин, с.113)

Ushbu gapda so‘zlovchi (yoki yozuvchi) ayol reklamada ko‘p uchraydigan gaplar haqida fikr bildiradi. Jumladagi kinoya shundan iboratki, ayol yo‘l harakati qoidalarining buzilishi tufayli ro‘y berayotgan avtohalokatlarning sababchisi qilib qoidabuzar haydovchilarni emas, balki avtomaktablar o‘qituvchi-instruktorlarini ayblaydi. Bu o‘rinda ayol tomonidan “жестокие люди” deb shafyorlarni emas, balki o‘qituvchi-instruktorlarni ayblash asnosida kinoya hosil qilinadi. Bu kinoya hozirgi zamon kognitiv tilshunosligida olamning lisoniy manzarasiga misol bo‘la oladi. U ayolning dunyoqarashi shu qadar soddaki, ular jinoyatchi – qotilni sud qilishadigan bo‘lsa, qotilga rahmi keladi.

Rus adabiyotida “qora yumor” deb atalgan janr bor. Qora yumor yoki qora komediya – jiddiy yoki og‘riqli deb hisoblangan mavzularni yoritadigan komik uslubga taalluqli bo‘lgan badiiy janr. Yozuvchilar va qiziqchilar ko‘pincha uni qo‘pol narsalarni o‘rganish yoki bezovtalik va jiddiy fikrlash, tinglovchilarning ko‘nglini ovlash uchun foydalanadilar. Ushbu janrning mashhur mavzulariga o‘lim va zo‘ravonlik, irqiy, jismoniy, diniy yoki jinsiy kamsitish kabilar kiradi. [9]

Mana shu janrda ham inglizlarning limeriklarida kuzatilganidek, ironiyaga asoslaniladi. Ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Полицмейстер был некоторым образом отец и благотворитель в городе. Он был среди граждан совершенно как родной в семье, а в лавки и в гостиный двор наведывался, как в собственную кладовую. (Н.В. Гоголь “Мёртвые души”, с. 68)

Rus klassik adabiyoti namoyandasi Gogolning “O‘lik qalblar” (“Мёртвые души”) asaridagi ushbu parchada obraz Aleksey Ivanovich, ya’ni politsiya boshlig‘i (polismeyster)ga nisbatan “отец и благотворитель в города” (“Shahar otasi va valine’mati”) sifatida qo‘llanilgan kesatiq mazmunidagi kinoyaga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Chunki politsiya boshlig‘i savdo rastalarida o‘zini o‘z omborida yurgandek his qilar va sotuvchilar uning ko‘ngli tusagan narsani muhayyo etishardi. Fuqarolar orasida esa o‘zini haqiqiy qarindoshdek, birodarlardek tutar edi. U savdogarlardan poralar olar va shu bilan birga hech kimni xafa qilmasdi. Shuning uchun ham uni butun shahar yaxshi ko‘rib “Shahar otasi va valine’mati” deya nom bergani bejiz emas. Shu tariqa Gogol o‘z asarida jiddiy tarzda poraxo‘r politsiya boshlig‘ini qoralaydi va kuchli tanqid ostiga oladi.

Krilovning “Ninachi va chumoli” nomli masalidan olingan ushbu parchada muallifning nozik yashirin kinoyasini ko‘rishimiz mumkin. Parchada muallif hayvon-hashoratlar tasviri orqali insonlarning xatti-harakati, odatlarini qoralaydi. Bu yerda biz chumolining ninachiga nisbatan kinoyaviy ifoda yaratayotganligini va aslida esa qo‘shiq aytishni bekorchilik deb hisoblashini anglab olishimiz qiyin emas. Ushbu parcha mazmuni o‘zbek tilidagi “Nimani eksang, o‘shani o‘rasan” maqoliga mos tushadi. Ertasini o‘ylamaydigan, yengil fikrlaydigan, beg‘am, beparvo kishilar tanqid ostiga olinmoqda. Parchadagi kinoya mazmunidan kimki yozda dangasalik qilsa, qishda uysiz va ovqatsiz qolib ketishini tushunishimiz mumkin.

Kinoya adabiy diskursda ritorik ifoda vositasi bo‘lib, unda so‘zlovchi aytganlari yoki yozuvchining yozganlari bilan tinglovchi yoki o‘quvchi tomonidan tushunilgan narsalar o‘rtasida bo‘shliq yoki nomuvofiqlik kuzatiladi. Mana shu nomuvofiqlik so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ifodalanayotgan mazmunning qanchalik yangi va ifodaliligiga qarab shu qadar kuchli emfazaga ega bo‘ladi. Kinoya, shuningdek, harakatlar kutilgan natijalar o‘rtasida kelishmovchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Kinoyalar tomoshabin yoki kitobxonlar tomonidan real hayot va uning ideal tasviri o‘rtasidagi kelishmovchilikka tayangan, nutq, yurish-turish harakatlari va hattoki modaga nisbatan so‘zlovchining estetik bahosi sifatida tushuniladi. Har xil istehzoli tuyg‘ular, voqealarni anglash, ularning mantiqan o‘z hayotiy normalariga mos qilib kutish, aslida esa sodir bo‘layotgan narsalar orasidagi farq o‘rtasida qabul qilingan, bildirilgan, ifoda qilingan tushunchalar atrofida aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ироник мазмун ифодалаш усуллари. Ўқув-услубий қўлланма. – Фарғона, 2005. 59 б.
2. Иззат Султон. Асарлар. Биринчи том. Драматургия. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1971. 440 б.
3. Караматова К.М., Караматов Ҳ.С. Proverbs / Мақоллар / Пословицы. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 400 б.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. 92 б.
5. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языка славянской культуры, 1999. 911 с.
6. Аскольдов С.А. Концепт и слово//Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Языки славянской культуры, 1997. 320 с.
7. Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасиология. – Воронеж: ООО Ритм, 2018. 230 с.
8. Болдырев Н.Н. Языковые категории как формат знания. Вопросы когнитивной лингвистики. 2006. – №2. 22 с.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qora_yumor [murojaat sanasi: 14.03.2023]

Ikram XUDAYNAZAROV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM,
filologiya fanlari nomzodi
E-mail: i.xudaynazarov.63@mayl.ru

AKADEMIK YOZUV VA UNING RIVOJLANISHI

Annotatsiya: dunyoda yozuvning paydo bo‘lishi, uning rivojlanishi, shu jumladan, O‘zbekistonga akademik yozuvning kirib kelishi, ulug‘ mutafakkirlarimizning akademik yozuvning paydo bo‘lishida qo‘shgan hissalari va rivojlanishi to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: *akademik yozuv, piktografik yozuv, iyeroglif yozuv, dastlabki chizmalar, fonetik prinsip, bo‘g‘inli (belgili) yozuv, yorliqlar, ilmiy matn.*

Аннотация: о возникновении письменности в мире, ее развитии, в том числе о внедрении академического письма в Узбекистане, вкладе наших великих мыслителей в возникновение и развитие академического письма.

Ключевые слова: *академическое письмо, пиктографическое письмо, Иероглифическое письмо, ранние рисунки, фонетический принцип, слоговое письмо, этикетки, паучный текст.*

Annotation: about the emergence of writing in the world, its development, including the introduction of academic writing in Uzbekistan, the contribution of our great thinkers to the emergence and development of academic writing

Keywords: *academic writing, rictographic writing, hieroglyphic writing, early drawings, phonetic principle, syllabic writing, labels, scientific text.*

Inson fikrlash qobiliyatini yangi egallagan dastlabki paytlardan boshlab, u biror narsani yozishni istaydi: fikrlar, g‘oyalar, kashfiyotlar, hayajonli hikoyalar yoki qiziqarli odamlar xotirasini yozma holatda qoldiradi. Biror kishi qanday qilib to‘g‘ri gapirishni hali bilmaganida va uning tili o‘nlab tushunarsiz so‘zlardan iborat bo‘lganida ham, u allaqachon g‘orlar devorlarida hayratlanarli, rang-barang va realistik rasmlarni qoldirgan. Keyinchalik, bir kishi nutq so‘zlaganida, odamlar bir-birlariga nima deyishlarini yozish juda muhim bo‘lib qoldi. Shu ehtiyoj tufayli yozuvning ilk shakllari paydo bo‘la boshladi.

Yozuv insoniyat sivilizatsiyasi tarixida oldindan aytish mumkin bo‘lgan davrning boshlanishi edi. Ajdodlarning dunyo va tabiat haqidagi bilimlari avlodlarga aynan yozma asarlarda yetkazilgan. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, yozuv o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘liqlikdir1.

Yozuvning ilk ko‘rinishlari turli xil tasvirlardan iborat bo‘lgan. Dastlabki chizmalar paydo bo‘lgan davrdagi odamlar (10-20 ming yil oldin) hali ham nutqni so‘z birikmalariga, jumlalarni so‘zlarga, so‘zlarni tovushlarga ajrata olmadilar. Biror kishining tili grammatikani, so‘z boyligini, so‘zlarning sintaktik aloqalarini ifodalasa-da, faqat voqeaning ma’nosini yig‘ib olish, biror narsani rasmlarda aks ettirishga urinishlar asosida ifoda etishi mumkin. Shuning uchun g‘orlardagi tasvirlangan ramzlarni og‘zaki nutq bilan birlashtirish insonning asosiy vazifasiga aylandi. Odamlar buni qilishni o‘rganishdan oldin, “yozish” aslida faqat mnemonik belgilar to‘plami edi – ular o‘quvchiga nima bo‘layotganini tushunishga imkon berdi, ammo haqiqiy nutqni, tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirmadi. Hozirgacha devorda ko‘mir bo‘lagi bilan ov manzarasini tasvirlagan har bir rassom daraxt, hayvon va o‘tlarni o‘ziga xos tarzda chizgan. Biroq jamoa asta-sekin taniqli narsalarni aks ettirish uchun o‘ziga xos me’yorlarni ishlab chiqdi: masalan, quyosh o‘rtada nuqta bo‘lgan aylana shaklida tasvirlanishi mumkin va qabilaning barcha a’zolari bu osmon jismi ekanligini bilishardi. Ushbu belgi “quyosh” tushunchasini tasvirlash sifatida o‘rnatildi. Fikr tasvirlar orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv deb ataladi. XIX asrgacha bo‘lgan ba’zi Amerika hindu qabilalari piktogrammalar bilan yozishgan: murakkab, puxta ramzlar oddiy vizual o‘xshashliklar orqali tushunchalarni va butun hikoyalarni aks ettirgan.

Shubhasiz, ko‘plab qadimgi sivilizatsiyalar piktogrammalar yozish uchun ishlatilgan – bu zarur iqtisodiy yoki yodgorlik yozuvlari uchun eng oddiy shakl. Piktogrammalar har doim aniq, hatto nisbatan savodsiz o‘quvchiga ham tushunarli va tasvirlash oson. Shu nuqtai nazardan, olimlarning fikriga ko‘ra, piktografiya bir vaqtning o‘zida dunyoning bir nechta mintaqalarida mustaqil ravishda paydo bo‘lgan. Birinchi ma’lum piktografik tizimlar miloddan avvalgi 3000-yillarda yaratilgan. Ular Afrikaning shimoli-g‘arbiy qismida misrliklar va Mesopotamiyaning janubida shumerlar tomonidan o‘ylab topilgan.

2900-2800-yillarga oid eng qadimgi Misr yozuvlarida miloddan avvalgi yozuv tizimining tamoyillari aniq ko‘rinadi. Har bir belgi – bu zaruriy xususiyati tasvirlangan obyekt bilan o‘xshashligi bo‘lgan kichik rasmlardir. Mesopotamiyaning mashhur mixxat yozuvining o‘tmishdoshlari bo‘lgan Shumer piktogrammalarining prinsipi deyarli o‘xshashdir.

Biroq piktografik yozuvning kamchiliklari insoniyatga darhol ko‘rinib qoldi. Avvalo, qisqa hikoyani tasvirlash uzoq vaqt talab qildi, chunki har bir belgi diqqat bilan chizilgan bo‘lishi kerak edi. Bundan tashqari, agar piktogrammalar obyektlarni tasvirlashi mumkin bo‘lsa, unda ranglar, mavhum tushunchalar, olmoshlar, shaxsiy

ismlarni qanday tasvirlash kerak? Fe'llarni hanuzgacha chalkashliklar bilan ajratish mumkin edi: misrliklar aniqlagichi "shudgor" harakatining ma'nolari yoki "yig'lash" uchun ko'z yoshlari bilan ko'zlari bor odamni topib olishdi. Ammo "katta", "shimol", "g'azab", "turish" kabi so'zlarni qanday chizish mumkin?

Shu bosqichda odam tarixda birinchi marta og'zaki va yozma nutqni yagona tizimga birlashtirishga majbur bo'ldi. Qadimgi Misrda "qaldirg'och" va "katta" so'zlari bir xil eshitiladi: wr. "Katta" so'zini chizish uchun boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan misrliklar buning o'rniga qaldirg'och piktogrammasini chizishni boshladilar. Chiqish usuli topildi: tez orada ulamolar ko'plab mavhum tushunchalarni yozib olishga muvaffaq bo'lishdi. Maktub haqiqiy ma'noga ega bo'ldi.

Shu bilan birga yozuv tarixida yana bir inqilob yuz berdi. Endi o'z davrining dono odamlari bir-biriga bog'langan matnlarni yozishlari kerak bo'lganligi sababli, buni amalga oshirish uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ldi. Belgilarni soddalashtirish tendensiyasi paydo bo'ldi va ularning yozilishini yanada qulay va oson qilish, shuningdek piktogrammalar ular tasvirlangan materialga moslashtirish uchun kuchaytirildi. Bunday soddalashtirilgan piktogrammalar odatiy holga aylangani bois ham kitob yozuvchilar, ham o'quvchilar uchun tushunarli edi. Ramzning shakli chizilgan rasmga o'xshash bo'lishni to'xtatgan paytda, faqat xususiyatlarning kombinatsiyasiga aylanib, inson yozuvi yangi bosqichga o'tdi.

Iyeroglif yozuv... Iyerogliflar so'zlarni anglatadi. Qadimgi iyeroglif tizimlar xuddi shu tamoyillar asosida qurilgan – ular Amerikadagi, qadimgi Misr, Xitoy yoki Mayya iyerogliflari bo'lsin – barcha iyerogliflarning kelib chiqish manbalari ham bir xil – har joyda ular piktogrammalar rivojlanishi natijasidir. Keyinchalik progressiv iyeroglif yozuvining eng muhim farqlari soddalashtirilgan, ta'rif qilingan belgilar shakli va ularning soni kamroqdir. Iyerogliflar, odatda, uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruh logogrammalar, yoki ideogrammalar, ya'ni xoh u obyekt bo'lsin, xoh harakat: "bosh", "boring", "qilich" va boshqa tushunchalarni bildiruvchi belgilardir.

Ikkinchisiga fonetik prinsipga asoslangan belgilar kiradi: masalan, "katta" sifati uchun allaqachon aytib o'tilgan "qaldirg'och" belgisi. Bunday fonogrammalar qadimgi Misr, Shumer va Xitoy yozuvlarida mavjud edi. Abstrakt tushunchalar, ko'plab fe'llar, sifatlar, geografik va xususiy ismlar har doim fonogrammalar bilan belgilanadi.

Iyerogliflar odamlarni yuzlab va hatto minglab belgilarni yodlashga majbur qiladi: qadimgi Xitoyda ularning soni 50 mingdan oshgan. Odamlar, birinchidan, ularning sonini kamaytirishga, ikkinchidan, uslublarni soddalashtirishga harakat qilishlari tabiiy. Odamlar tobora ko'proq savodli bo'lishgan sharoitda belgilar (logogrammalar) asta-sekin o'z ehtiyojlarini yo'qotdi va fonetik belgilar, aksincha, ko'payib bordi. Masalan, shumer mixxatining vorisi bo'lgan assuriyalik mixxat yozuvida Arbela shahrining nomi (shahar) Arba'ilu deb yozilgan edi, bu so'zda "shahar", "to'rt" belgisi aniqlangan (arbau o'qing)) va "xudo" belgisi. "Bitta belgi – bitta so'z" yozuv tizimi asta-sekin "bitta belgi – bitta so'z" tizimiga aylantirildi.

Bo'g'inli (belgili) yozuv. Yozuv belgilardan iborat bo'lib, insoniyat uchun iyerogliflar bilan taqqoslaganda bu muhim qadam bo'ldi. Birinchidan, yozuvda juda kam sonli belgilar mavjud – odatda 30 dan 100 gacha (Efiopiya belgili alifbosida 182 ta). Ularning hech biri obyektlarni aks ettirmaydi va shuning uchun ularning yozilishi juda sodda hamda oddiy chiziqlar va nuqtalardan iborat.

Belgili yozuvning mumtoz namunalariga Kipr belgilarida (miloddan avvalgi 1200-400), qadimgi fors mixxati yozuvi (miloddan avvalgi 500-300) kiradi. Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyodagi zamonaviy alifbolarning aksariyati ham belgi xarakteriga ega. Odatda, belgili belgilar "undosh + unli" yoki bitta unli birikmasidan iborat, ya'ni, yozilgan, faqat ochiq belgi bo'lishi mumkin. Ba'zi bir Osiyo tillarining fonetikasi bunday yozuv uchun juda mos keladi – masalan, yapon tili, bu so'zlar deyarli har doim ochiq belgidan iborat. Boshqa tomondan, masalan, hind-yevropa tillari oilasi kabi ko'plab tillar ushbu prinsipga umuman mos kelmaydi.

Alifbo insoniyat uchun eng yaxshi va eng muvaffaqiyatli yozuv tizimi. Qanday bo'lmasin, tarixiy nuqtai nazardan, bu yozuvning eng ilg'or turi bo'lib tuyuladi. Butun dunyoda (konservativ Xitoy bundan mustasno), iyeroglif tizimlar asta-sekin yozuvning belgili yoki alfavitli turlari bilan almashtirildi. Insoniyatning yozuvning yangi turlarini o'ylab topishga urinishlari bu yerda tasvirlangan asosiy bosqichlarni takrorlaydi.

Bugungi kunda yozish qiziqarli yo'nalishda rivojlanayotgani aniq. Har qanday til vakillari uchun ma'lum bir fikrni ifoda etish zarur bo'lsa, biz yana piktogrammalarga qaytamiz. Yo'l belgilari, kiyim yorliqlaridagi yorliqlar ("dazmollamang", "30 daraja yuving" va boshqalar) yoki xalqaro aeroportdagi belgilar nima? Xalqaro aloqaga bo'lgan ehtiyoj ideografik yozuvga qaytish zarurligini taqozo etadi. Ammo, Xudoga shukr, har doim ham chiroyli emas. $ belgisi nimani anglatishini hammamiz bilamiz. Bu ideogramma, belgi, dollarning bevosita tasviri emas.

Shubhasiz, yozuvning rivojlanishi davom etadi. Hech shubha yo'qki, bu voqea tugamagan – u hali ham bizning e'tiborimizga ko'plab amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni qo'ymoqda. Bugungi kunda yozuvni o'rganadigan alohida soha shakllangan. Bu akademik yozuv hisoblanadi.

Akademik yozuv – akademik nutqda yozma matnlar yaratish, olingan asl bilimlarni ma'lum bir ilmiy sohaning tadqiqot mezonlari bo'yicha, janrning ma'lum bir shaklida

kognitiv faoliyat predmetining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda tashkil etish va ifodalashdir.

Akademik yozuvning prototiplari so‘nggi besh ming yil ichida toshdagi iyerogliflardan qog‘ozdagi harflarga qadar rivojlangan. Bizgacha saqlanib qolgan yozma yodgorliklarda kundalik va diniy ma’lumotlardan tashqari astronomiya va geometriyaga oid ma’lumotlar ham mavjud. Zero, bu fanlar bundan yuz yil avval paydo bo‘lmagani, balki qadimgi dunyoda mavjud bo‘lganligi hech kimga sir emas. Toshlar yoki gipsli planshetlarga yozilgan birinchi ilmiy ma’lumotlar faqat odamlarning maxsus doirasi uchun mo‘ljallangan edi va yozib olish uchun ishlatilgan qadimgi tillar endi o‘lik deb hisoblanadi.

Har bir sivilizatsiya tarixda yozma iz qoldirgan. Shunday qilib, qadimgi Rim lotin tili turli xil akademik yozma materiallar tiliga aylandi. Ammo vaqt o‘tishi bilan mustamlaka mamlakatlar tomonidan targ‘ib qilingan xalqaro aloqa tillarining kombinatsiyasi paydo bo‘ldi. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki dunyo uzluksiz muloqot jarayonida edi. Shuning uchun aloqani tushunish nuqtalarini topish kerak edi1.

Ilmiy matn yozish qobiliyati hayot davomida rivojlanadi va yaxshilanadi. O‘z xabaringizni notanish o‘quvchiga aniq va ishonarli matn shaklida yetkazish qobiliyati faqat amaliyot bilan birga keladi, shuningdek, har bir yangi matn murakkab ish natijasidir.

Akademik yozish – bu murakkab va ko‘p qirrali ko‘nikmalar bo‘lib, bugungi kunda butun dunyoda universitetda muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan barcha boshqa ko‘nikmalarga nisbatan eng muhimi sifatida tan olinadi. Ushbu ko‘nikmalar bo‘limi nafaqat lingvistik (lingvistik, sintaktik va stilistik) balki, birinchi navbatda mantiq, tahlil, tanqidiy fikrlash, obyektivlik va boshqa g‘oyalar hamda boshqa odamlarning matnlariga hurmat kabi metalingvistik kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar ko‘pincha talabalarimiz va yosh mutaxassislarimiz uchun yetishmaydi.

Akademik yozuv jahon tilshunosligida XX asr oxirlarida o‘rganila boshlandi. G‘arbda ilmiy matn yozish, o‘z fikrini mantiqiy dalillashga e’tibor kuchaygani sari bu sohani alohida fan, alohida yo‘nalish sifatida o‘rganish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Akademik yozish Markazi 1991-yildan beri Markaziy Yevropa universitetining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Universitet tashkil etilganda til o‘qitish markazi umumiy til o‘qitish ko‘nikmalari kurslarini taqdim etish uchun tashkil etilgan. O‘shandan beri bu kurs o‘qituvchilar va talabalarning fikr-mulohazalari bilan hamkorlikda alohida bo‘limlarda talabalarning o‘z ustida ishlash, yozuv mahoratini oshirish bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Nijmegen Radbound universiteti Niderlandiyada yozuv markaziga ega bo‘lgan birinchi universitet edi. 2004-yil fevral oyida tashkil etilgan Nijmegen Akademik Yozuv Markazi (AYM) natijalariga asoslangan edi. Markazning tashkil topishidan asosiy maqsad talabalarda maqola yozish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lgan. 2006-yilda Nijmegen Radbound universitetida 1012 talaba o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomada 54 foizi akademik yozuv bilan tanish ekanligi aniqlandi .

Amerika Qo‘shma Shtatlarida “ritorika va kompozitsiya” deb nomlangan akademik yozuv va uning yuqori bosqichi barcha fanlar o‘qituvchilariga o‘quvchilarning o‘z fikrlarini shakllantirish hamda o‘z dalillarini yaratish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy fan, bularning barchasini juda yuqori darajada tashkil etadi. Aniq matn shakli ... So‘nggi o‘n yilliklarda ushbu fanning jadal rivojlanishi uni ko‘plab xorijiy universitet dasturlarining asosiga aylantirdi va bugungi kunda u eng dinamik rivojlanayotgan tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir.

Bizda akademik yozuv shakllanish ildizlari IX-XII asrlarga borib taqaladi. Uyg‘onish davri allomalari: Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Muhammad al-Xorazmiy o‘z asarlarida fanga doir ilmiy fikrlarni berishga va ularni asoslashga harakat qilganlar.

Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Ritorika” asariga yozgan sharhida so‘z turkumlarini ot, fe’l, bog‘lovchi deb uch guruhga ajratadi. Bu narsa uning so‘z ma’nolari, tovushlar tahlili, yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlarida o‘z ifodasini topgan1.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining ko‘lami ancha keng. Alloma o‘z davridagi barcha fan sohalari bo‘yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirgan. Bizgacha yetib kelgan asarlari orasida “Xronologiya”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Ma’sud qonuni” hamda “Saydana” asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o‘rganildi.

Beruniy ilmiy merosining nomidan ham ko‘rinib turibdiki, olim tarix, riyoziyot, matemika, falsafa, handasa, kimyo, astronomiya, geografiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, tilshunoslik singari o‘nlab sohalar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va bu sohalar yuzasidan jahon allomalarini hozirgacha lol qoldirib kelayotgan buyuk kashfiyotlarini yaratgan.

Ibn Sino qomusiy bilim egasi bo‘lib, ko‘plab fan sohalariga doir asarlar qoldirgan. Jumladan, Ibn Sinoning lingvistikaga doir “Asbobi hudut al-huruf” asari bugungi kunga qadar ilm ahlining diqqatini tortib kelmoqda. Mazkur asar arab tili fonetikasiga doir bo‘lib, unda undosh tovushlar ham xususiyatlariga ko‘ra farqlanishi qayd etilgan. Mazkur asarda tilshunoslikning fonetika bo‘limiga oid noyob ilmiy fikrlarni topish mumkin.

O‘rta asr madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan Alisher Navoiy o‘z davrida turkiy tilning rivoji uchun harakat qilgan. U badiiy asarlar bilan bir qatorda “Me’zon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” singari ilmiy asarlar yozgan. “Me’zon ul-avzon” da aruz ilmi qonun-qoidalari yoritilgan bo‘lib, unda shoir aruzshunoslikka oid ilmiy fikrlarini ham asosli dalillab o‘tgan. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy va fors tillari chog‘ishtirmasiga bag‘ishlangan. Mazkur asar orqali biz Alisher Navoiyning fonetik, leksik, grammatik qarashlari haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lamiz .

Alisher Navoiydan keyin ham bir qancha ilmiy asarlar

yozilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat ham o‘z asarlarida fanga doir muhim qarashlarini keltirib o‘tganlar. XX asrdan buyon ham juda ko‘plab ma’lum sohaga oid ilmiy asarlar yozilgan.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda akademik yozuvni o‘rganish endigina shakllana boshladi. Biz fan bo‘yicha uni o‘rgatishga majbur bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlamaymiz va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun akademik yozuvlar bo‘yicha darsliklar deyarli yo‘q. Shunga qaramay, yozuvning fan sifatida shakllanish masalasi allaqachon tayyorlangan. Mamlakatda tobora ko‘proq mazmunli muhokamalar olib borilayotgani va fan bo‘yicha xorijiy mutaxassislarning ularga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib borayotgani ushbu muhim an’anaviy fan asoslarini joriy etish vaqti kelganidan dalolat beradi. Tegishli dasturlar va kurslarni ishlab chiqish, Rossiya, Yevropa, Avstraliya va boshqa xalqlar talabalariga yordam beradiganlarga o‘xshash yozish markazlarini ochish talab etiladi. O‘zbekistonda ham kelajak uchun bugungi kunda biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bu narsa jadal rivojlanmoqda.

Bu muqarrarlikni bugungi kunda akademik va ilmiy jamoatchilikning barcha vakillari his qilmoqda. Uni O‘zbekiston ilm-fani va ta’limning xalqarolashuvi va ochiqligi tarafdorlari, universitet professorlari, ilg‘or olimlar va ilmiy nashrlar muharrirlari kutib olishadi. Biroq, akademik yozuv atrofidagi davra suhbatlari va muhokamalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bir ovozdan akademik yozuvni ta’limning barcha yo‘nalishlarida fan sifatida kiritish zarurligini e’tirof etgan bo‘lsa-da, ularning ishtirokchilari ko‘pincha akademik yozuv nima, uni qanday va kim tomonidan dars berishi kerakligi haqida kelishmaydilar.

Bunday qiyin vaziyatda mazkur ish murakkab va noaniq maqsadlarni ko‘zlaydi. U aqliy ravishda talabalarni akademik yozishning xalqaro tizimining asosiy tamoyillari bilan tanishtiradi va tahlil hamda sintez orqali ularni o‘z amaliyotiga qo‘shishga yordam beradi. Biz ushbu maqolada ilmiy matn qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi odatiy, ba’zan chuqur ildiz otgan g‘oyalarni chetga surib, tor intizomli, mantiqiy va sog‘lom fikr nuqtai nazaridan, yangi fanga xolis nuqtai nazar bilan qarash zarurligi haqida fikr yuritdik.

Talabalarga, izlanuvchilarga, mustaqil tadqiqotchilarga buni amalga oshirishning eng oson yo‘li g‘oya va an’analarga ko‘nikish bo‘ladi. Ular hali ilmiy matnlarni yozishni o‘rganmaganlar, bu qiziqarli va umuman zerikarsiz bo‘lishi mumkinligini bilishmaydi. Talabalardan tashqari, ushbu dissertatsiyaning adresatlari turli fanlarning o‘qituvchilari bo‘lib, ular soxta akademik an’analar va mahalliy byurokratik to‘siqlarni yengib o‘tishga intilishadi. Bunday repetitorlar akademik yozuv repetitorlari rolini o‘z zimmalariga olish orqali yangi fanning birinchilari bo‘lishlari mumkin. Bilim berishni boshlagandan so‘ng, ular o‘zlari uchun intuitiv ravishda ishlab chiqqan foydali amaliyotlarni tushunadilar va ehtimol tizimlashtiradilar. Hozirgacha ular o‘zlari uchun unchalik tushunarsiz bo‘lgan savollarga javob topadilar. Natijada repetitorlarning o‘zlari xalqaro standartlarga muvofiq yozishni o‘rganadilar va akademik yozishni fan sifatida o‘qitish tajribasini O‘zbekiston va xorijdagi hamkasblari bilan teng ravishda baham ko‘rishlari mumkin bo‘ladi.

Dissertatsiyalarni ma’lum darajada o‘zi o‘qimagan va oliy ta’lim tizimida ishlamasa ham, o‘zbek ilm-fanini xalqaro miqyosda olib borish va atrofdagi dunyoda millionlab odamlar uchun ochiq bo‘lishidan manfaatdor bo‘lganlarning barchasiga qaratilgan. Bular ilmiy muassasalar rahbarlari, olimlar va tadqiqotchilar, siyosatchilar hamda ilmiy nashrlar muharrirlaridir. Albatta, biz ularni talabalar va o‘qituvchilar bilan bir xil darslik foydalanuvchilari deb hisoblay olmaymiz, ammo akademik yozuv fanlarini rivojlantirishda ularning ishtiroki juda muhimdir.

Aytish kerakki, akademik yozishning tizimlashtirilgan bilim va ko‘nikmalari barcha tadqiqotchilar uchun o‘zlarining shaxsiy bilimlarini shakllantiradigan, fan bo‘yicha ilmiy tajribani rivojlantiradigan, o‘z tadqiqotlarini amalga oshiradigan va pirovardida bularning barchasini hamkasblar muhokamasi uchun ilmiy matn shaklida taqdim etadigan umumiy asosdir.

Afsuski, O‘zbekistonda “akademik yozuv” tushunchasi ko‘pincha undan juda farq qiladigan ko‘proq tinish belgilar, tushunchalar bilan aralashib ketgan. “Tadqiqot kompetensiyalari”, “ilmiy ish metodikasi”, “matnning nutqiy tahlili”, “nutq madaniyati” yoki hatto “o‘zbek tili” kabilar. Bunday qarama-qarshiliklarning oldini olish, o‘qituvchi va talabalarga akademik yozuv fanini fan sifatida tushunish va uning afzalliklarini aniqlashga ko‘maklashish maqsadida darsliklar yaratish rus, ingliz tilidagi ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar asosida yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduhamid Nurmonov. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2002. 14-bet.
2. Abduhamid Nurmonov. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2002. 86 –bet.
3. By Ingrid Stassen and Carel Jansen. The development of an academic writing centre in the Netherlands
4. Колябина Н.С. Роль академического письма в формировании общепрофессиональных компетенций магистра // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. 2016. № 21 (242). С.180-187.
5. Каримов С.А. Назарий тилшунослик масалалари. – Самарканд, 2012.
6. Хасянова Д.З. Академическое письмо: история развития и современное состояние. – Москва, Исследования молодых учёных, 2020.

Zilola ESHANOVA,
Andijon davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
zeshanova79@gmail.com

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA BAXSHIYONA

Annotatsiya: baxshi obrazi sintezi va xalq dostonlari stilizatsiyalari asosida yaratilgan asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiyotshunosligimizda maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada mazkur dolzarb vazifani Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi baxshiyona asarlar tahlili asosida amalga oshirish maqsadi qo‘yilgan. Shoira ijodidagi baxshiyonalarning shakllanishiga asos bo‘lgan omillar, baxshiyona asarlarning funksional xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *xalq dostonlari, terma, obraz, baxshi, baxshiyona, sintez, stilizatsiya, uslub, saj’, qofiya.*

Аннотация: особенности произведений, созданных на основе синтеза образа бахши и стилизации народных дастанов, в нашем литературоведении специально не исследованы. В данной статье поставлена цел реализации этой актуальной задачи на основе анализа произведений бахшияна в творчестве Халимы Худойбердиевой. Освещены факторы, лежащие в основе формирования бахшияны и функционалные особенности произведений бахшияна в творчестве поэтессы.

Ключевые слова: *народные дастаны, термы (песни-бахши), образ, бахши, бахшиёна, синтез, стилизация, стиль, саджъ (прозаическая рифма), рифма.*

Annotation: the specific features of works created on the basis of the synthesis of the image of the bakhshi and stylizations of folk epics have not been specifically studied in our literary studies. This article aims to fulfill this urgent task by analyzing the works of Bakhshiyan in Khalima Khudoyberdiyeva's work. The factors that underlie the formation of bakhshiyana in the poetess's work, as well as the functional features of bakhshiyana works, are highlighted.

Keywords: *folk dastans, terma (bakhshi songs), image, bakhshi, bakhshiyona, synthesis, stylization, style, saj (prose rhyme), rhyme.*

Kirish. O‘zbek adabiyotshunosligida Usmon Azim, Xurshid Davron ijodidagi baxshiyona asarlar ayrim tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lgan. Jumladan, N.Shukurov, J.Suvonova, D.Xoliqova, F.Buriyeva, Sh.Jumanova kabilar Usmon Azim ijodidagi baxshiyonalarni o‘rgangan. N.Shukurov “Usmon Azim she’rlarida xalq og‘zaki ijodi... an’anasini sintezlashtirib, yangicha bir uslubga intilish tendensiyasi ko‘zga tashlanishini” [1: 112], J.Suvonova esa baxshiyona she’rni o‘zbek yozma she’riyatiga birinchi bo‘lib Mirtemir olib kirganini ta’kidlaydi [2: 49]. D.Xoliqova esa “Usmon Azim ijodidagi baxshiyonalarni xalq ertak va dostonlaridan ta’sirlanish natijasida yaratganligini ta’kidlar ekan, ularni yangicha she’r, she’riy doston nomlari bilan ataydi [3: 71-73]. F.Buriyeva esa Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi janrlarni o‘rganar ekan baxshiyona asarlarga to‘xtaladi [4: 21]. Sh.Jumanova Usmon Azim she’riyatida peyzaj tipologiyasini tadqiq etish asnosida baxshiyonalardagi tog’, dasht peyzajlarining poetik vazifalariga to‘xtaladi va “tabiat unsurlari bilan omixtalangan badiiy vositalarning qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlarni, insoniy mehrga tashnalik, do‘stlikni, ona yurtga muhabbat tuyg‘ularini ulug‘lashga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin”ligini [5: 63] aytadi. Ko‘rinadiki, Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi baxshiyona asarlarning ayrim jihatlari o‘rganilgan, biroq Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi baxshiyona asarlar maxsus tadqiq etilgan emas. Biz ushbu maqolamizda ayni shu dolzarb vazifani struktural, germenevtik tahlil metodlaridan foydalangan holda amalga oshirishni maqsad qildik.

Asosiy qism. XX asrning so‘nggi choragi o‘zbek adabiyotida folklorga xos obraz, motiv va syujetlarni sintezlash, folklor asarlarini stilizatsiya qilish tamoyili kuchaydi. Mazkur davrda ijod qilgan Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi “Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari”, “Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa...”, “Bir o‘rim soch tarixi” kabi asarlari ayni shu tamoyilga murojaat etish asosida baxshiyona uslubida yozilgan. Garchi shoira bu asarlarini baxshiyona deb atamasa-da, folklor an’analari sintezi asosida yaratilgan asarlarini alohida faslda birlashtiradi.

S.Mirzayeva “Folklordan sintez qilish orqali foydalanish xalq ijodiga mansub syujetlarni qayta ishlashga qaraganda ancha murakkabdir” [6: 46] deydi. Halima Xudoyberdiyeva ana shunday murakkab vazifani, ya’ni folklor an’analari sintezi asosida asarlar yaratishni uddalay oldi. Shoiraning o‘zbek xalqiga xos to‘y marosimida kurash o‘tkazish an’anasi sintezi hamda xalq dostonlari va termalari stilizatsiyasi asosida yaratilgan “Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari”, “Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa...”, “Bir o‘rim soch tarixi” kabi asarlarida baxshi obrazi (Mamatqul baxshi, Tangriqul baxshi, Sayram baxshi) tilidan aytilgan voqelik va uning ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri beriladi. “Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari” asari xalq dostonlariga xos ifoda

usulida (saj'li nasrda) berilgan voqelik tasviri bilan boshlanadi: "Mamatqul baxshi bir to'yda do'mbirasini chetga qo'yib, polvonlarga joni iyib, munkiganni yelkasi qorda, zap odatlarimiz borda, deb kurash tomosha qilayotgan edi" [7: 236]. Roviy tilidan berilgan Mamatqul baxshining to'yda kurash tomoshasi uchun kelgani, davra boshining undan "xaloyiqqa bir nima aytib turing" deyishi haqidagi voqelik tasviri vositasida muallif Mamatqul baxshini asarga olib kirishga va uning kurash haqidagi fikrlari, kechinmalarini berishga erishadi. Asarning 4, 9, 7 misrali 5 band asosidagi she'riy qismi xalq termalari stilizatsiyasi asosida shakllantirilgan va u maishiy-didaktik termalar mazmun-mundarijasi bilan uyg'un. Mamatqul baxshi tilidan berilgan kurashish haqidagi chaqiriq har band so'ngida "Zoting polvonma kurashgin" refren misralar orqali beriladi. "She'rning ramka unsuri bo'lgan sana qaydidan biz ushbu asarni 1985-yil 21-iyulda yozilganini bilishimiz mumkin. Mazkur davr adabiyotida esa xalqqa qaytarilgan milliy qadriyatlar va an'analar tarannumi asosida milliy o'zlikni anglashga qaratilgan asarlar yaratish yetakchilik qilayotgan edi. Halima Xudoyberdiyeva ham Mamatqul baxshi tilidan xalq kurashini ta'riflash va kurashga chaqirish orqali milliy o'zlikni anglash haqidagi qarashlarini beradi:

Birovning ortidan otganlar,
Birovni ortidan sotganlar,
U sho'rliklar-ku yer qa'riga,
G'aflat uyqusida botganlar.
Shularni bolasi bolami,
Kurashsiz kechsa olami.
Ko'ksiga o't qo'yib turmasa,
Bobosining qasos alami.
Zoting polvonma, kurashgin. [7: 236]

Halima Xudoyberdiyevaning "Ko'zi borlar to'g'ri yo'ldan yurmasa..." va "Qasam" asarlarida "Qimmatchilik, qahatchilik yillari..." dagi xalqning og'ir turmush tarzi va u asosida yuzaga kelgan kechinma tasviri berilgan. Har ikki asarda mustabid tuzumning noto'g'ri siyosati va jahon urushining xalqimiz hayotiga keltirgan fojiali oqibatlari yoritiladi hamda qahatchilik bo'lishiga qaramay xalqimizning halollikni or-nomusdan ham ustun qo'yish, haromdan hazar qilish kabi fazilatlari ulug'lanadi. Bu mavzu "Qasam" asarida harom luqmadan hazar qilgan Oysuluv obrazi , "Ko'zi borlar to'g'ri yo'ldan yurmasa..." asarida esa Tanriqul baxshi obrazi 'kechinmalari orqali beriladi. "Ko'zi borlar to'g'ri yo'ldan yurmasa..." asari esa "Tag'in o'sha qimmatchilik, qahatchilik yillari..."dagi voqelik tasviri bilan boshlanadi. Muallif tilidan berilgan voqealar tafsilotiga ko'ra Tangriqul baxshining ukasi O'rolboy yengiloyoq xotini Qirmizning javobini berib, Oqbilakka uylanadi. Oqbilak qiz farzand ko'rgach, yana Qirmizni qo'msaydi. O'rolboy Qirmizi bilan ham yashaydi va qizini unga ko'rsatgani sabab chaquv orqali "bug'doy o'g'risi" tamg'asi bilan qamaladi. Ushbu voqelik ta'sirida yuzaga kelgan ko'zi ojiz Tangriqul baxshi kechinmalari, ko'zi ochiq bo'la turib, harom va halolni ajratmagan, to'g'ri yo'lda yurmaganlar haqidagi nadomatlari har biri 4 misrali 5 banddan iborat she'riy qismda, har bir band so'nggida berilgan "Ko'zi borlar to'g'ri yo'ldan yurmasa" refren misralari orqali beriladi:

Ko'r ko'zimdan sitilib g'am yig'laydi,
Toleyimda yonmagan sham yig'laydi,
Ayol, go'dak bani odam yig'laydi,
Ko'zi borlar to'g'ri yo'ldan yurmasa. [7: 241]

Ushbu asarda qahatchilik yillarining fojiali oqibatlari kolxoz omboridan "bir siqim, ikki siqim bug'doy o'g'irlab, uyiga olib kelishi" uchun qamalgan O'rolboyning achchiq qismati (uning qizi, xotini va ko'r akasining taqdiriga salbiy ta'siri) orqali yoritilgan.

"Bir o'rim soch tarixi" asari ham xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan bo'lib, unda yuqoridagi baxshiyona asarlardan farqli o'laroq Sayram ismli ayol baxshining aytuvlari beriladi. Asarda Sayram baxshi va uning aytuvlarini eshitgan tinglovchi (bolam) obrazi mavjud. Asarning kirish va xulosa qismida Sayram baxshi bilan bog'liq voqelik bayoni nasrda beriladi: "Asli qayirmalik Sayram baxshining aytuvlari ko'p. Ammo uni ayttirish o'limdan qiyin. Bir o'zi ko'ngli ketib, urchuq yigirib o'tirgandami yoki belini sirib bog'lab ot ustida o'tirganday o'rmak ustida o'tirib, xayol surib, patning turini chalayotgandami, g'ing'illab boshlab qoladi. Bu ana shunday paytlarda eshitganlarimdan" [8: 257]. Sayram baxshining aytuvlari berilgan b-b-b-a tarzida qofiyalangan 4 misrali 13 bandda esa retrospektiv usul asosidagi uning o'tmishi bilan bog'liq voqelik tasviri beriladi. Sayram baxshi aytuvlarida uning ota-onasi o'n besh yoshida otasi tengi odamga turmushga uzatgani, ilk nikoh kechasi qochib ketgani, yana erining uyiga qaytarilgani, qochishlar ko'p bora takrorlangani yoritiladi. She'riy qismdagi "Bilagiga o'rab qiriq o'rim sochim / Urardi! Qochmoqqa yo'qdir ilojim", "Bir o'rim sochim qo'lida qoldi" kabi tasvirlardan uning ota-ona rayi bilan qurilgan baxtsiz turmushi, otasi tengi insonga ko'ngil qo'ya olmagani, "Taqdir uni bir o'ynab-kuldirmagani"ni anglaymiz. Asarda Sayram baxshi taqdiri bilan bog'liq voqea tasviri va uning armonlari ifodasi orqali o'tmishdagi o'zbek ayollarining ayanchli qismati yoritilgan.

"Bir o'rim soch tarixi" asarida o'zbek xalqi maishiy hayotiga xos gilam to'qish jarayoni tasviri, ya'ni an'analar sathidagi sintez orqali milliy o'ziga xos tasvir yaratilgan. Qadimda o'zbek ayollari mehnat jarayonida mehnat qo'shiqlarini kuylab, og'ir mehnatlarini yengillatganlar. Xususan, urchiq yigirish va o'rmak o'rish, gilam to'qish jarayonida o'rmak qo'shiqlari kuylangan. Ularda lirik qahramonning shaxsiy dardlari ifodasi ham ifodalangan. Halima Xudoyberdiyeva kasb-xunar leksikasiga oid "urchuq yigirish, o'rmak o'rish, pat turini chalish, erish-arqov, g'ajari, kuzuv" so'z va birikmalarni qo'llash hamda "bovrim, aytuv,

ko‘kayi kuymoq, qiyomat qarz, sen ko‘r, men ko‘r bo‘lib ketmoq” kabi so‘z va iboralardan foydalanish orqali gilam to‘qish jarayonidagi o‘zbek ayollarining turli qo‘shiqlarni aytishi tasvirini, o‘zbek xalqiga xos milliy kartinani yaratadi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Qasam”, “Ona sadoqati va yolg‘iz o‘g‘il armoni qissasi” asarlarida baxshi obrazi uchramaydi va xalq dostonlariga xos barqaror epik formula va qolip birikmalar yo‘q. Shu bois bu asarlarni baxshiyona deyish unchalik ham o‘zini oqlamaydi. “Qasam” asarida Oysuluvning bevaqt o‘limiga sabab bo‘lgan voqea haqidagi axborotga ko‘ra, Oysuluvning eri xotinining “iynimga ilarim yo‘q” deb qilgan xarxashasiga javoban “birovning endigina bo‘shangan sigirini o‘g‘irlab kelib, so‘yibdi” va ertaga to‘yi bo‘ladigan qizning sepini o‘g‘irlabdi. Bunday harom moldan hazar qilgan Oysuluv kechinmalari 4 misrali 7 banddan iborat she’riy qismda beriladi. Har band so‘nggida berilgan Oysuluvning “Dunyosida endi tirik yurmayman” (har bir band so‘ngidagi refren misralarda beriladi) qasami tufaylimi u erta tongga bormay o‘ladi. Roviy tilidan berilgan voqealar tasviri hamda Oysuluvning kechinmalari tasviri orqali qahatchilik bo‘lsa ham harom luqma yemagan o‘zbek ayollarining tipik qiyofasi yaratiladi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Ona sadoqati va yolg‘iz o‘g‘il armoni qissasi” nomli liro-epik asarida urushga ketib, qaytmagan yoriga sadoqati tufayli erga tegmagan Sayram kelin, uning qaynonasi va yolg‘iz o‘g‘li Ravshan bilan bog‘liq voqelik tasviri beriladi. Asarning yondosh matni bo‘lgan 1984-yil 20-iyun degan izoh mavjud. Asar yaratilgan yillarda esa ijtimoiy-siyosiy hayotda afg‘on urushi bo‘layotgan edi. Asarda urushning bir oilaga, shuning barobarida, butun o‘zbek xalqiga yetkazgan fojiaviy oqibatlari ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri beriladi. Muallif tilidan berilgan asarning kirish qismidagi axborotdan urush bitgani, Sayram kelinning eri, Ravshanning otasi urushdan qaytmagani, qaynonaning bu g‘am oqibatida cho‘kib qolganini bilamiz. Halima Xudoyberdiyeva urushning qayerda, qachon bo‘lgani haqida batafsil yozmaydi. Sababi shoira har qanday urush fojia, uning zararli oqibatlari nafaqat shaxslar va oilalar, balki butun boshli xalqni ham og‘ir ahvolga solishiga ishora qiladi. Asarda Sayram kelin, qaynona va Ravshan obrazlari kechinmalari, armonlari berilgan o‘rinlar 11, 12, 13 bo‘g‘inli barmoq vaznidagi turli bandlar orqali ifodalanadi. Qaynona keliniga turmushga chiqish taklifini aytganda, Sayram kelin ”Qaqshab, o‘zingiz o‘tkazmasdan to‘yim, ena, O‘z qo‘lingiz bilan meni qabrga qo‘ying, ena!” javobini oladi. Qaynona olamdan o‘tgach, otasiz, aka-ukasiz o‘ksik qalb bilan ulg‘aygan Ravshan (olti bolali bo‘lsa-da) o‘limi oldidan onasiga turmush qurmay yomon ish qilganini aytadi:

Enam, sen enadan eding yolg‘iz qiz,
Ne uchun meniyam yolg‘iz o‘stirding,
Birovga suyana olmadim, esiz,
Seniyam hamisha g‘amboda ko‘rdim. [7: 234]

Ravshanning kechinmalari, armonlari, dardi berilgan she’riy qism orqali urushning farzandlarni yetim qilishi, oilalarning baxtsizligiga sabab bo‘lishi haqidagi ijodkorning g‘oyaviy maqsadi ifodalanadi.

Xulosa. XX asrning 80-90-yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotda oshkoralik deb atalmish siyosiy jarayonlar kechayotgan edi. Natijada xalqning milliy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari o‘ziga qaytarildi va adabiyotda ham Navro‘z, kurash kabi milliyligimiz ko‘zgusi bo‘lgan an’analarimiz tasviri orqali milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari tarannum qilina boshladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ushbu o‘zgarishlar va adabiyotimizdagi milliy o‘zlikni anglashga intilish, vatan taqdiri va ozodligini tarannum etish kabi tamoyillar (ijtimoiy-siyosiy omillar) mazkur davr adabiyotida baxshiyona asarlar takomiliga zamin yaratdi. Baxshiyona asarlar ijodkorning vatan, uning ozodligi haqidagi fikrlarini berish vositasiga aylandi. Halima Xudoyberdiyeva ham xalq dostonlari va termalari stilizatsiyalaridan, baxshi obrazi sintezidan foydalanib baxshiyona asarlar yaratdi.. Shoiraning “Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari” asarida Mamatqul baxshi, “Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa...” asarida Tangriqul baxshi, “Bir o‘rim soch tarixi” asarida esa Sayram baxshi bilan bog‘liq voqelik asosidagi kechinma tasviri beriladi. Shoiraning baxshiyona uslubida yaratilgan asarlarida tasvirlangan milliy qadriyatlar va an’analar tasviri milliy o‘zlikni anglash haqidagi g’oyaviy konsepsiyasi ifodasiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shukurov N. So‘z sehri – she’r mehri. – Samarqand: Zarafshon, 1992. 112-b.
2. Suvonova J. Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida). Filol. fanlari nomz. ... diss. – Toshkent, 2000. 49-b.
3. Xoliqova D. Usmon Azim ijodida xalqona motivlar // O‘zbek tili va adabiyoti. 2009. – № 6. 71-74-betlar.
4. Buriyeva F.N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi (Usmon Azim va Xurshid Davron misolida). Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Samarqand, 2023. 21-b.
5. Jumanova Sh.I. Usmon Azim she’riyatida peyzaj tipologiyasi. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Farg‘ona, 2023. 63-b.
6. Mirzayeva S. O‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari. – Andijon, 2005. 46-b.
7. Turkiy adabiyot durdonalari. Halima Xudoyberdiyeva. 29 jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 234-b.
8. Halima Xudoyberdiyeva. Tanlangan asarlar. Bu kunlarga yetganlar bor. - Toshkent: Sharq, 2020. 257-b.

Shaxnoza NORKULOVA,
TISU dotsenti (PhD)
e-mail: norqulovashaxnoza8@gmail.com

SAYYID QOSIMIY “HAQIQATNOMA” SINING MAZMUNIY HALQASI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” masnaviysi va uning mazmuniy halqasi, tarbiyaviy ahamiyati masalalariga urg’u beriladi. “Haqiqatnoma” asari an’anaviy muqaddimotlar bilan ibtido topishi, unda “Hamd” (Xudo ta’rifi), “Na’t” (Payg‘ambar madhi), “Munojot” (Xudodan najot so‘rash) kabi tarkibiy qismlar mavjudligi va ularning o‘ziga xos janr jihatlarini namoyon etishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Sayyid Qosimiy, “Haqiqatnoma”, an’anaviy muqaddimotlar, “Hamd” (Xudo ta’rifi), “Na’t” Payg‘ambar madhi).*

Аннотация: в статье подчеркивается содержание и воспитательное значение маснави Сайида Касими «Хакикатнама». Произведение «Хакикатнама» начинается с традиционных вступлений, оно содержит такие компоненты, как «Хамд» (благословение Бога), «Нат» (восхваление Пророка), «Муноджот» (просьба о спасении у Бога) и обсуждаются их проявления в конкретных жанровых аспектах.

Ключевые слова: *Сайид Касими, «Хакикатнама», традиционные предисловия, «Хамд» (благословение Бога), «Нат» (восхваление Пророка).*

Annotation: the article emphasizes the content and educational significance of masnavi Sayyid Qasimi "Hakikatnama". The work "Hakikatnama" begins with traditional introductions, it contains such components as "Hamd" (blessing of God), "Nat" (praising the Prophet) "Munojot" (asking for salvation from God) and discusses their manifestations in specific genre aspects.

Key words: *Sayyid Qasimi, Haqiqatnama, traditional prefaces, Hamd (blessings of God), Nat (praise of the Prophet).*

Sayyid Qosimiy XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan va o‘z adabiy merosi bilan o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi sahifasida munosib o‘rin egallagan shoirlar sirasiga kiradi. Sayyid Qosimiyning hayot yo‘li, tarjimayi holi haqida to‘liq ma’lumotlar juda kam, hatto to‘g‘risi yo‘q hisobida. Shoir asarlarida ham tarjimayi holga ishora qiluvchi o‘rinlar yoki ma’lumotlar aytarlik uchramaydi, bu ham yuqorida aytilganlarni isbotlaydi. Sayyid Qosimiydan katta badiiy meros yetib kelgan, uning to‘rt masnaviysi mavjud va ularning jami nashr etilgan. Bular: “Majma’ul axbor” (“Xabarlar to‘plami”), “Haqiqatnoma”, “Gulshani roz”, (“Sirlar gulshani”), “Ilohiynoma” asarlaridir. “Haqiqatnoma” asari an’anaviy muqaddimotlar bilan ibtido topadi, unda “Hamd” (Xudo ta’rifi), “Na’t” (Payg‘ambar madhi), “Munojot” (Xudodan najot so‘rash) mavjud. Bu an’anaviy muqaddimotlar o‘ziga xos janr jihatlarini namoyon etadi, zotan “Hamd”, “Na’t”, “Munojot”lar alohida janrlardir. Asarning “Haqiqatnoma” deb nomlanishida ham chuqur ramziy ma’no mavjudki, uning zamirida Allohga ishora yashirindir.

“Haqiqatnoma” debochasiga “Hamd”da jahon mushkulini oson qiluvchi Alloh taolo inson loyini muhabbat suvi bilan qoridi deyiladi:

Ki, hal qilsa jahonning mushkilini,
Muhabbat suyidan qildi gilini .

Alloh har ishga qodir, u insonning botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) sirlaridan hamisha voqif:

Elikim avvalu oxirda uldur,
Hamisha zohiru botinda uldur (128).

“Na’t” Payg‘ambarimiz alayhissalomning Alloh tomonidan yaratilishi bilan boshlanadi:

Taola-l-lohkim ayni hikmatidin,
Muhammadni yaratdi rahmatidin (129).

Payg‘ambarimiz alayhissalom Alloh hamdami va haqiqat xazinasining sirdoshi deya ta’riflanadi:

Haqiqat maxzanining mahramidir,
Xudovandi jahonning hamdamidir (129).

Shoir masnaviyning “Munojot” qismida o‘z asarini Xorazmiy “Muhabbatnoma”sidan ilhomlanib yozganini ta’kidlaydi. Lekin “Haqiqatnoma” va “Muhabbatnoma”ning mundarijasi bir-biriga muvofiq tushmaydi, balki ularning tarkibi ayricha xususiyatlarga ega.Qizig‘i “Haqiqatnoma” 145 (hijriy 863) yilda va “Muhabbatnoma” 1353-(hijriy 754) yilda yozib tugallangan, oradagi masofa yuz yildan ziyodroq. Bu hali XV asrning ikkinchi yarmida ham Xorazmiy “Muhabbatnoma”sining shuhrati barqarorligini isbotlovchi dalildir. Shoir “Munojot”da o‘z asarini turkiyda bitayotganligidan faxrlanadi, hayajonini yashira olmaydi:

Ki, turkiy birla nazm etsam kitobe,
Aning har harfi bo‘lsa fathe bobe (130).

“Munojot” izidan “Dar bayoni nasihat go‘yad” (“Nasihat bayonida aytur”) bobi boshlanadi, uning ilk baytida bobning g‘oyaviy mazmunini ochib beradi:

Haqiqat gar erursan tolibi roh,
Adab birla oyoq bos, bo‘lg‘il ogoh (130).

Bu bobdan so‘ng “Og‘ozi kitob” (“Kitobning boshlanishi”) keladi, u kitobning boshlanishi bo‘lsada, g‘oyaviy tomondan debocha boblariga mushtarak. Shu bois asarni muqaddima boblarini baralla ravishda, “og‘ozi kitob”ni ham qo‘shgan holda besh bobdan iborat desa bo‘ladi. Shunday qilib, “Dar xatmi kitob” (“Kitobning tugashi haqida”) bobi va asosiy o‘n ikki bob hammasi qo‘shilib, o‘n sakkiz bobni tashkil qiladi. Asarning asosiy boblari o‘n ikki bobdir, unda, ya’ni har bir bobda kichik debocha, hikoyat va “Tamomi suxan” (“So‘zning tugashi”) qismi mavjud. Boblar “Bobi avval” (“Birinchi bob”) va “Bobi chahorum” (“To‘rtinchi bob”) tarzida nomlanadi, ana shu nomlanishlar bob debochasi hamdir.

Har bir bobning debochasida, hikoyat oxirida va “tamomi suxan”ning so‘ngida shoir o‘z taxallusini qo‘llaydi. Bu holat asarning “Na’t”, “Dar bayoni nasihat go‘yad”, “Og‘ozi kitob”, “Dar xatmi kitob” boblariga ham tegishlidir. Asosiy o‘n ikki bobning har bir bobi uch qismga bo‘linadi, bular: bob raqamini ko‘rsatuvchi kirish qismi, unda mavzu belgilab olinadi va shu mavzuga xos va mos hikoyat beriladi, nihoyat “Tamomi suxan”da bob mavzusi hamda g‘oyasiga yakun yasaladi. Hikoyatlarning aksari Qur’oniy va tasavvufiy g‘oyalar ila sug‘orilgan bo‘lib insonlar odob-axloqqa, yaxshilikka, ezgulikka da’vat etiladi.Umuman “Haqiqatnoma”dagi o‘n ikki hikoyat turfa mazmunlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir hikoyatlardagi g‘oyaviy mazmunni kuchaytirish uchun tez-tez badiiy san’atlarga murojaat qilib turadi. Jumladan:

Saharkim, urdi dam sultoni xovar,
Yashurdi pardayi niliyda axtar.
Habash mulkini oldi Rum shohi.

Nasib izlarg‘a bo‘ldi muru mohiy (132) – singari mubolag‘a va shuningdek:

Muhabbat nuri tutti ichu toshin,
Ko‘zindin oquzub ol qon yoshin (136).

***

Ketur, soqiy, ravon ul jomi Jamdin,
Xalos etgil mani bu dardu g‘amdin (137).

***

Bor edi bir qizi chun mohi tobon,
Sochi kufrida zohir nuri imon (153).

***

Gahi sham’u gahi parvonadurlar,
Gahi oqil, gahi devonadurlar (164).

***

Xaloyiq jam o‘lib ursa tanura,

Ani yondirsalar solib tanura (174) – kabi baytlarda tazod, talmih, tashbih, takrir, tajnis san’atlari shular jumlasidandir.

“Haqiqatnoma” masnaviysi an’anaviy hamdu na’tlar bilan boshlanadi, keyin munojot keladi, Allohga bag‘ishlangan hamda oy va quyoshning, tun va kunning yaratilishiga urg‘u berilib, Allohning har bir zarrada namoyon bo‘lishi e’tirofini topadi:

Yaqin bilsa gumon bila kamolin,
Ayon har zarrada ko‘rsa jamolin (128).

Darhaqiqat barcha narsa Allohning hukmi natijasidir:

Aning hukmi biladur oyu anjum,
Kecha-kunduz gahe paydo gahe gum (128).

Allohning boshlanishi bo‘lmaganidek uning oxiri ham yo‘q:

Topulmas ibtidosig‘a bidoyat,
Ko‘runmas intihosig‘a nihoyat (128).

Payg‘ambarimiz Muhammad alahissalom haqidagi na’t (maqtov)da uning muhabbatdan yaratilgani, anbiyo (nabi)larning shohi ekanligi kuylanadi:

Muhabbatdin Muhammad bo‘ldi paydo,
Ki uldur moyayi har sudu savdo.
Muhammad podshohi anbiyodur,
Tapug‘chi qullaridan avliyodur (129).

Na’tning o‘ziga xos talabidan kelib chiqilib choriyorlarga ham ishora etib o‘tiladi:

Masnaviyning “Munojot” qismida muallif o‘z rejalari haqida gapirib, ularning ijobat bo‘lishida Alloh madad berishini so‘raydi:

Xudovandi ba haqqi oli yosin,
Inoyat qilki bu ba’vo eyasin (130).

Odatda munojot (o‘zagi najot) da shoirlar o‘z gunohlari uchun Alloh oldida tavba-tazarru qilishadi. Sayyid Qosimiy “Munojot”ida bu holat ko‘rinmaydi, u tamoman boshqa yo‘nalishga ega. Unda nari borsa shoir o‘z ijodiy rejalari xususida so‘zlaydi, masnaviyning yaratilishi bilan bog‘liq hodisalarga e’tiborni qaratadi. Omonat umr vafo qilsa, Alloh madadkor bo‘lsa, pirlar qo‘llab-quvvatlasa niyatlarning amalga oshishi osonlashadi:

Manga umri aziz etsa vafoe,
Ajaldin tegmasa javru jafoe.
Eronlar himmati dastgir bo‘lsa,
Niyozi dil qabuli pir bo‘lsa.
Yoyayin elga so‘zning gavharini,
Tuzayin nazmi turkiy daftarini (130).

“Munojot” izidan “Dar bayoni nasihat go‘yad” (“Nasihat bayonida deydi”) bobi keladi, ushbu bobda muallif kishilarni ezgulikka chorlaydi, bu uning ilk baytidanoq boshlanadi:

Haqiqat gar erursan tolibi roh,
Adab birla oyoq bos, bo‘lg‘il ogoh (130),

Haq (Alloh) yo‘lida to‘g‘ri qadam bos, shunda g‘am cho‘lida adashib qolmag‘aysan:

Qadam tuzluk bila qo‘y haq yo‘linda,
Ki anqab qolmag‘aysan g‘am cho‘linda (131).

Dunyo o‘zi bevafo, u o‘ta murakkab, shuning uchun ko‘zingni katta och, o‘tganlar mazorini ziyorat qilib tur kam bo‘lmaysan:

Alardin ibrat ol, ey mardi oqil,

O‘limdin bo‘lmag‘il bir lahza g‘ofil (131).

Sayyid “Haqiqatnoma” masnaviysida hikoyatlarni keltirar ekan, o‘zining barcha didaktik, axloqiy - ta’limiy, diniy va dunyoviy bilimlarini yuzaga chiqarishga harakat qilgani, bundan tashqari o‘ziga xos usul qo‘llay olgani; salaflaridan ilhomlangan holda asar yozayotganini asar boshidayoq eslatib o‘tishi; “men ularni tarqatmay yig‘ib bob –bob qilib taxlayman” – deya asari haqida muxtasar ma’lumot berish usuli, hikoyatlarning asosiy g‘oyasidan so‘ng, pand – nasihat mazmunidagi misralar bilan yakun qilishini asardagi hikoyatlarning mukammallashishini ta’minlagan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саййид Қосимий Маснавийлар мажмуаси. Нашрга тайёрловчи: Б.Қосимхонов – Тошкент: Фан, 1992. 238-б.
2. Қосимхонов Б. Саййид Қосимий маснавийсида ҳикматлар.Адабий мерос. 1983.№4 (28). Б.12–15.
3. Қосимхонов Б. Саййид Қосимийнинг адабий-дидактик достонлари. –Тошкент: Фан, 1987.149-б.
4. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том.–Тошкент: Фан, 1978.328 б.

Gulhayo HAYDAROVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi
Email: h.gulhayoxon1990@gmail.com

XX ASR G‘AZALIYOTIDA POETIKA MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqola XX asr o‘zbek g‘azaliyotida poetika masalalarini, xususan, sharq mumtoz adabiyotining badiiy san’atlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif badiiy san’atlar, talmeh san’ati va boshqa poetik vositalarning lirik ifodaga ta’sirini tahlil qiladi. Maqolada Alisher Navoiy asarlaridan ilhomlangan Sobir Abdulla, Charxiy va Habibiy singari shoirlar ijodida badiiy san’atlar o‘ziga xos mahorat bilan qo‘llanilganligi, ular orqali asarlarning estetik qimmati oshgani ta’kidlanadi. Muallif adabiyotshunoslik va lirikaning poetik jihatlariga e’tibor qaratib, ijodkorlarning g‘azallarida talmeh san’atining xilma-xil ko‘rinishlarini sinchiklab o‘rganadi va ularning ijodiy mahorat darajasini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *XX asr o‘zbek g‘azaliyoti, poetika muammolari, badiiy san’atlar, talmeh san’ati, Alisher Navoiy, Sobir Abdulla, Charxiy, Habibiy.*

Аннотация: настоящая статья посвящена вопросам поэтики в узбекской газели XX века, в частности, исследованию художественных приемов классической восточной литературы. Автор анализирует влияние художественных приемов, талмеха и других поэтических средств на лирическое выражение. В статье подчеркивается, что такие поэты, как Собир Абдулла, Чархи и Хабибий, вдохновленные произведениями Алишера Навои, мастерски использовали художественные приемы, что усилило эстетическую ценность их произведений. Автор акцентирует внимание на поэтических аспектах литературоведения и лирики, тщательно изучая различные формы талмеха в газелях поэтов и раскрывая уровень их творческого мастерства.

Ключевые слова: *узбекская газель XX века, вопросы поэтики, художественные приемы, талмех, Алишер Навои, Собир Абдулла, Чархи, Хабибий*

Annotation: this article is devoted to issues of poetics in 20th-century Uzbek ghazal poetry, specifically to the study of artistic devices in classical Eastern literature. The author analyzes the impact of artistic techniques, talmeh, and other poetic devices on lyrical expression. The article emphasizes that poets such as Sobir Abdulla, Charkhi, and Habibi, inspired by the works of Alisher Navoi, skillfully used artistic techniques, enhancing the aesthetic value of their works. Focusing on poetic aspects of literary studies and lyrics, the author examines various forms of talmeh in the poets' ghazals and highlights their creative mastery.

Keywords: *20th century Uzbek ghazal poetry, poetics issues, artistic techniques, talmeh, Alisher Navoi, Sobir Abdulla, Charkhi, Habibi*

Sharq mumtoz poetikasining asosini ilmi aruz, ilmi badi’ hamda ilmi qofiya tashkil etib, adabiyot tarixida bu uch ilm she’riyat nafosati va shoirning salohiyatini belgilovchi mezon hisoblangan. Bularning orasida ilmi badi’ hamisha she’r ahlining e’tiborida bo‘lib kelgan. Biror ijodkorning salohiyati uning nimalarni tasvirlagani bilan emas, asosan, qanday tasvirlagani bilan baholangan. Ya’ni asarlarda badiiy san’atlardan foydalanish mahoratiga barcha

davrlarda badiiy san’atkorlikning asosiy jihatlaridan biri deb qaralgan, ijod ahli va adabiyotshunos olimlar tomonidan qadim davrlardanoq o‘rganib kelingan. Jumladan, Arastu, Shayx Ahmad Taroziy, Atoulloh Husayniy kabilarning poetika masalalariga bag‘ishlangan asarlari bugungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan .

Professor N.Komilov badiiy san’atlar haqida: “She’riy asarning tasviriy tili esa she’riy san’atlarning ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Bu vositalar lirik xarakterni shakllantirish, uning xususiyatlarini ochib berishda katta rol o‘ynaydi”, deb fikr bildirgan. Darhaqiqat, badiiy san’atlar lirikaning ixchamligini ta’minlash, fikrlarni obrazli bayon qilish hamda o‘quvchiga estetik zavq berishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham shoirning har bir asari adabiy hayotda voqelanar ekan, buni o‘zigacha bo‘lgan adabiy yutuqlarni puxta o‘zlashtirgani, o‘z asarlariga ijodiy tatbiq eta olgani, mazmunining teranligi va shaklning jozibadorligi, she’riy san’atlardan mahorat bilan o‘rinli foydalana olishi kabi tamoyillar bilan baholamoq kerak. Zero, “Badiiy san’atlar, vosita va usullar lirikaning tabiatiga xos bo‘lgan ixchamlikni ta’minlashda, fikrni obrazli bayon etishda, eng muhimi, she’rxonga estetik zavq bag‘ishlashda muhim ahamiyatga ega ”.

G‘azal janri namunalarini talqin etish, sharhlash va shoirning lirik uslubi haqida fikr yuritishda, u murojaat qilgan badiiy vosita va usullar, badiiy san’atlarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Shoirning har bir fikr va tuyg‘ularini san’atkorona ifodalashda badiiy san’atlarni o‘rinli va samarali ishlata olishi, lirik mahorati masalalari muhimdir. Alisher Navoiy g‘azaliyotida foydalanilgan, munosabat bildirilgan badiiy san’atlar bugunga qadar ko‘plab tadqiqotlarning obyekti bo‘lgan .

Shuning uchun ham Navoiy lirikasining badiiy qimmati, shoir san’atkorligining o‘ziga xos qirralari, uning tasvir vositalari doirasi hamda ulardan foydalanish yo‘llarida yana ham aniq namoyon bo‘ladi… Navoiy lirikaning mavzu va g‘oyaviy darajasini yanada kengaytirish borasidagi tashabbuslaridan biri boy poetik vositalar topish va ularni keng joriy qilishdir. Uning devonlarida yuzdan ortiq she’riy san’atlar mavjud bo‘lib, ular shoir badiiy sistemasining izchil tarmoqlariga aylangan . G‘azaliyotida qo‘llangan lafziy, ma’naviy va ham lafziy, ham ma’naviy (mushtarak (Y. Is’hoqov) san’atlar juda ko‘p tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va hozirgi kunda ham o‘rganilib kelinmoqda. Adabiyotshunoslar A.Hayitmetov, A.Rustamov, Yo.Is’hoqov, N.Jumaxo‘ja, H.Jo‘rayev va boshqalarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan har qanday shoir, albatta, Navoiyning badiiy san’atlarni qo‘llash an’analarini o‘rgangan va ulardan ijodiy ta’sirlanib, asarlar bitgan bo‘lishi, shubhasiz. Shunday ijodkorlar sirasiga kiruvchi Sobir Abdulla, Charxiy va Habibiy g‘azallarida ham “Chor devon” ta’sirida ma’lum badiiy maqsadlarni ko‘zlagan holda turli xil she’riy san’atlardan unumli foydalanilgan. Har uchala ijodkorning to‘plam va devonlari tadqiq qilinganda talmeh san’atining xilma-xil ko‘rinishlari mavjudligi aniqlandi. G‘azalda talmeh san’atiga murojaat qilish ham ijodkordan yuksak mahorat talab qiladi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘qiyotgan badiiy asari obrazlarini o‘sha ishora qilingan nomlar bilan qiyoslab, o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlaydi va aynan shu holat asarni yanada to‘laroq anglashiga yordam beradi. Shoir esa talmeh san’atini qo‘llash orqali ifodalayotgan fikrining nafaqat badiiyligini ta’minlaydi, balki she’rning ta’sirchanligini oshiradi hamda o‘zining g‘oyaviy maqsadini o‘z kitobxoniga obrazli tarzda yetkazib bera oladi. Ma’naviy san’atning bu ko‘rinishiga har uchala ijodkor g‘azallarini tahlil qilish jarayonida juda ko‘plab namunalar uchratdik. Talmeh san’ati qo‘llangan yoki ishora qilingan baytlarni to‘plab, ushbu san’at turini shartli ravishda guruhlarga ajratib oldik.

1	**Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq g‘azallar**	Sobir Abdulla	Bo‘ldi band yillar yozish birlan Ulug‘bek vasfida, Dars o‘qir hozirgi kun Beruniydek donoda Shayx
		Charxiy	Nishoni oqibat erdi azizlarning ziyorati, Muqimiy birla Zavqiy, Nisbatiy mushtoqlar qoldi.
		Xabibiy	Davlatu mansabga dil berma, ayog‘ ostiga boq, Minglab Iskandar kabi shavkatli sultonlar yotur.

2	Mumtoz adabiy asarlar qahramonlarga ishora qiluvchi g‘azallar	Sobir Abdulla	Farhod kelib Xitodan, arman qiziga yordir, Tog‘ qazdirib muhabbat, suv vasliga u zordir
		Charxiy	Muhabbat otashi har kimda bo‘lmas, Bo‘lur Majnun kabi Layliparastda
		Xabibiy	Ishq aro Farhodu Majnunlarga tan bergay jahon Qilmadi tarki muhabbat ko‘rdi ko‘p jabru jafo
3	Geografik joy nomlari qo‘llangan g‘azallar:	Sobir Abdulla	Farhod kelib Xitodan, arman qiziga yordir, Tog‘ qazdirib muhabbat, suv vasliga u zordir.
		Charxiy	Yonida Komil bilan Charxiy kamoling tilar, Gurkira to‘lqin urib, nisbati daryo, Qo‘qon.
		Xabibiy	San’atin san’atshunos Eronu Hindistongacha Ko‘rsatib, elni qilib shaydoyu maftun, o‘ynadi
4	Adabiy ustozlar nomlari keltirilgan g‘azallar	Sobir Abdulla	Na border shikvai muflis, na bordir ta’mai Muhiy, Hamisha yo‘qlagay sizni Muqimiy deb, zamon yaxshi.
		Charxiy	Bizningdek “oqibatli” do‘stlar sha’niga deb yozgan, Navoiy, Jomiylar merosi avroqlar qoldi.
		Xabibiy	Gah Navoiy, gah Fuzuliy, gohi Jomiydan o‘qib, Bulbuli go‘yodin ortiq xushnavolar bo‘ldi jam
5	Zamondosh shoir-u yozuvchilar nomlari keltirilgan baytlar	Sobir Abdulla	Navqiron yoshlik, G‘afur boshliq kezish yodingdadir; Goh bog‘ sayrida sog‘ar gashti, goh sahboda Shayx
		Charxiy	G‘azalxon usta, Mavlono Habibiy, Shirindir suhbati, dono Habibiy.
		Xabibiy	Qoshingga borolmay endi, Sayfiy, Uzr etgani lolu bezabonman.

6	Adabiy asarlar nomlari qo‘llangan baytlar	Sobir Abdulla	Navoyidan o‘qib uch-to‘rt g‘azal shirin talaffuzda, Qo‘lida“Chordevon”,Sa’diy,“Guliston”bir shirin so‘zlik
		Charxiy	
		Xabibiy	Xususan bo‘ldi dasturilamal, “Mezonul avzoning” Hama nazm ahli qilgay jonu dilda ehtirom, ustoz.
7	Muqaddas kitoblar nomlari	Sobir Abdulla	Kim o‘qibdir “surai baxt”ni varaqlab ko‘p asr, Mo‘tabar “Qur’on”danu, “Injil”danu “Tavrot”idan
		Charxiy	
		Xabibiy	
8	Xalq milliy kuylari nomi	Sobir Abdulla	Berib so‘z navbatin Gulyoru Shahnozu Iroqlarg‘a Quving bu bazmdan bebahra aqlini yiroqlarg‘a
		Charxiy	O‘zing, qadrimga yet, e’zoz etib ket. O‘qib “Gulyor”, gahi “shahnoz” etib ket.
		Xabibiy	Muhabbat bog‘lashib, sizlar bilan har kecha bazm aylab, “Bayot”, “Ushshoq”u, “Gulyor”u, “Chapandoz” etgali keldik
9	Suv havzalari nomiga ishora qilingan o‘rinlar	Sobir Abdulla	Katta Farg‘ona kanaldan suv ichib, Yashnadi cho‘l, unda mo‘l durdonamiz
		Charxiy	
		Xabibiy	Ochildi Sirning ishi, ag‘darildi zo‘r tog‘lar, Chirog‘i yondi-yu, suv keldi, nuru zar topilur

Talmeh guruhlarni tuzish davomida, Habibiy, Charxiy va Sobir Abdullaning barcha g‘azallari sinchiklab o‘rganildi. Ajablanarlisi shuki, mazkur g‘azaliyotda Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘plab uchraydigan payg‘ambarlar va ularning hayoti, faoliyatiga hamda hukmdorlarga ishora qiluvchi talmehlar umuman uchramadi. Sabab “…XX asrga kelib o‘zbek adabiyoti, jumladan, she’riyati ba’zan xohlab, ba’zan ixtiyorsiz ravishda faqat hukmron mafkurani aks ettiruvchi vositaga aylanib qolgan davrlarni ham boshdan kechirdi. Uning san’at ekanligi, har narsadan oldin inson qalbining eng nozik tebranishlarini so‘zga ko‘chiradigan noshirlik vazifasi unutildi... ” Bu hol sobiq sho‘ro hokimiyati mustahkamlana boshlagan 30-yillardan keyin avj olib, bir necha yil davom etgan. Demak, XX asr g‘azaliyotida, xususan, har uchala shoir ijodida payg‘ambarlar va hukmdorlarga ishora qiluvchi talmehlar uchramasligining asosiy sababi ijtimoiy omillardir. Shunday bo‘lsa-da, bu hol ushbu ijodkorlarning mumtoz adabiyotning juda ko‘p imkoniyatlaridan bebahra ekanligini anglatmaydi. Mafkuraviy zo‘ravonlik va adabiyotga tazyiq kuchaygan o‘sha yillarda aruz vaznida ijod qilish ham ma’lum jasorat edi. Shu sababli, ular ijodida payg‘ambarlar obrazi va Islom diniga oid tushunchalar uchramaydi. Faqatgina bir o‘rinda, Sobir Abdulla vafotidan to‘rt yil o‘tib, ya’ni 1976-yilda, shoir ijodi tadqiqotchisi M.Abdurahmonova ko‘magi bilan nashr etilgan to‘rt jildlik “Asarlar” to‘plamining ikkinchi jildida, 55-sahifada Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” nomi va to‘rt buyuk farishtalardan biri Azroil nomi tilga olinadi. Demak, Habibiy, Charxiy (qo‘qonlik sobiq G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot muzeyi xodimi Ne’matov Usmonjonning aytishicha, Charxiy xushovoz qori

bo‘lgan, ya’ni Qur’oni Karimni to‘liq yod bilgan; Habibiy ham dindan yaxshigina xabardor bo‘lgan) va Sobir Abdulla mumtoz adabiyot va uning ajralmas bo‘lagi hisoblanmish Islom dinidan yaxshi xabardor bo‘lgan, faqat ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, bu bilimlarini oshkor eta olmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Charxiy. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
2. Charxiy. Qiyolab o‘tdi. She’rlar. –Toshkent: “Akademnashr”, 2010.
3. Sobir Abdulla. Asarlar. 4 tomlik, 2-tom, G‘.G‘ulom nashriyoti, –T., 1979.
4. Sobir Abdulla. Devon. –T., “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
5. Habibiy. Devon. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
6. Siddiqov M. Navoiy hayratlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2015.
7. Haydarova G. XX asr o‘zbek g‘azalchiligida Alisher Navoiy an’analari va o‘ziga xosliklar. Monografiya. – Farg‘ona: “Classic” nashriyoti, 2023.

Go‘zal ATABAYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU
PhD dotsent v.b.
guzalatabayeva131@mail.com

OMON MUXTORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Omon Muxtor romani tahlilga tortilgan. Badiiy to‘qima va tarixiy haqiqat uyg‘unligi, yozuvchi mahorati, zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi romanlarda obraz yaratishning o‘ziga xosliklari, davr ruhini beruvchi omillar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *roman, adabiy qahramon, badiiy to‘qima, hayotiy haqiqat, ijodkor uslubi, badiiy asar tili.*

Аннотация: в данной статье анализируется роман «Амон Мухтар». Приводятся комментарии о сочетании художественной фактуры и исторической действительности, писательском мастерстве, особенностях создания образов в романах в современной узбекской литературе, факторах, передающих дух эпохи.

Ключевые слова: *роман, литературный персонаж, художественная ткань, реальная жизнь, творческий стиль, язык произведения искусства.*

Annotation: this article analyzes the novel Omon Mukhtar. It discusses the harmony of artistic texture and historical truth, the author's skill, the peculiarities of creating images in novels in modern Uzbek literature, and the factors that give the spirit of the era.

Key words: *novel, literary character, artistic texture, real life, creative style, language of a work of art*

Istiqlol davri o‘zbek romanchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri – Omon Muxtor ijodiy faoliyati aslida XX asrning 50-yillaridan boshlangan edi. U badiiy ijodda muayyan tajriba to‘plab, hayotni keng qamrovda va ko‘lamli qamrash malakasiga ega bo‘lgach, o‘tgan asrning 70-yillariga kelibgina roman janrida ijod qila boshladi. U o‘z romanlarida zamonaviy o‘zbek nasriga yangicha badiiy tasvir va talqin ruhini olib kirish, betakror shakliy-uslubiy izlanishlar qilishga intildi.

Omon Muxtor o‘z ijodini she’riy asarlar yozish bilan boshlagan edi. 1966-yilda yosh shoirning “Chorlar quyoshli yo‘llar” nomli ilk she’riy to‘plami e’lon qilindi. Shundan so‘ng Omon Muxtorning o‘ttizga yaqin kitoblari chop etildi. U hikoyanavis, qissanavis, romannavis sifatida ilmiy-adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlarga tanildi. Turli yillarda ijodkorning “Nigoh” (1968), “Qushlar va tushlar” (1971), “Shaharlik kelinchak” (1973), “Buxorolik donishmand” (1973), “Hayot darvozasi” (1978), “Uchqur poyezdlar”(1981), “Bolalikka sayohat” (1984), “Vazifa” (1988) singari hikoya va qissalar to‘plamlari; “Ohang” (1974), “Yog‘du” (1979), “Marvarid” (1985), “Shiddat” (1990) kabi she’riy to‘plamlari kitobxonlarga taqdim etildi. O.Muxtorning “Buvim ertak aytadi” (1971), “Kunlardan bir kun” (1985), “Ming yildan so‘ng” (1991) singari she’r, ertak va hikoyalar to‘plamlari bolalarga bag‘ishlangan bo‘lib, yosh kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi.

Omon Muxtor romannavis sifatida dastlab “Yillar shamoli” (1976), “Egilgan bosh” (1989) asarlari bilan ilmiy-adabiy jamoatchilikka tanildi. Adibning “Ming bir qiyofa” (1994), “Ko‘zgu oldidagi odam” (1996), “Tepalikdagi xaroba” asarlarini o‘z ichiga olgan “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi (2000), “Ffu” (1996), “Ayollar mamlakati va saltanati” (1997), “Aflotun” (1998), “Maydon” (1999), “Odamlar kulishlari kerak” (2008) “Xotin podshoh” (2010) romanlari shakliy-uslubiy jihatdan o‘ziga xosligi bilan e’tiborga molikdir. Adibning ushbu asarlari chuqur mazmundorligi, shakliy-uslubiy izlanishlarga boyligi, tilining jozibadorligi bilan g‘oyat zalvorlidir.

Uslub ijodkor shaxsi va ijodiy individualligini belgilovchi muhim tushuncha bo‘lib, yozuvchining uslubiy o‘ziga xosligi badiiy asarning barcha sathlari (poetika va ritorika)da namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda uslub muammosini adabiy jarayon bilan chambarchas bog‘liq tarzda o‘rganganda individual uslubdan tashqari adabiy davr uslubi, adabiy yo‘nalish uslubi (H.Boltaboyev) kabi nisbatan kengroq doiradagi kuzatishlar ham mavjud.

Poetikaning muhim xususiyatlaridan biri – badiiy asarning shakliy qurilishini belgilovchi umumiy tamoyil bo‘lgan uslubni o‘rganish, keng ma’noda alohida ijodkor shaxsini o‘rganishdir. Demak, uslub ijodkor shaxsi bilan bog‘liq bo‘lib, ijodiy individuallikni belgilaydi. Uslubda namoyon bo‘luvchi ijodiy o‘ziga xoslik badiiy asar, jumladan, roman janrining barcha sathlari – badiiy matn tuzilishi, badiiy voqelikni yaratish tamoyillarida birdek namoyon bo‘ladi. Uslub romandagi shakl unsurlarini muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikda birlashtiradi. Shuningdek, asardagi har bir uzviylikning mohiyati va vazifasini ham belgilab beradi. Qolaversa, individual uslubni tahlil va tadqiq etish yozuvchining g‘oyaviy-badiiy niyatini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov aytganidek, ijodkorning kitobxon bilan muloqoti amalga oshishida hikoya qilinayotgan narsaga muallif munosabati, dunyoqarashi, ayni paytdagi ruhiy holati muhim ahamiyatga egadir. Bu esa ko‘proq uslubda namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, har bir asarda yozuvchining o‘zligi – fikr-o‘ylari, his-tuyg‘ulari, ruhiy holati yuzaga chiqadi O.Muxtor betakror iste’dodi, ijodiy qiyofasini aks ettiruvchi uslubiy tamoyillar mavjud bo‘lib, shu asosda muayyan asarni tashkil etuvchi qismlar bir-biriga bog‘lanadi. Xullas, uslubiy individuallik yozuvchining poetik fikrlashi va hayotni ifodalash xususiyatlari majmuidir. U badiiy asarning barcha qatlamlari – badiiy matn tuzilishi, ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari va natijada poetikada namoyon bo‘ladi.

Binobarin, badiiy matn va shakliy-uslubiy ifoda qonuniyatlaridan kelib chiqishgina uslub tabiatini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Uslubiy izlanishlar O.Muxtor uslubidagi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

a) ijod bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik sharoitning yetilishi;

b) yozuvchi ma’naviy-ruhiy olamidagi evrilishlar;

d) milliy va jahon adabiyoti tajribalariga hamohanglik. Shu ma’noda, yozuvchi romanlarida yorqin bo‘y ko‘rsatuvchi Sharq-islom mafkurasi va dunyo romanchiligi tajribalarining ijodiy o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq tozarishlar millat ruhidagi axloqiy-ma’rifiy qadriyatlarga yaqinlik jihatidan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek nasridagi milliy uslub tadrijiy tarzda uzluksiz rivojlangan. Bugungi o‘zbek romanchiligidagi uslubiy izlanishlarga xos tajribalar milliy zaminda tug‘ilib, shakllanmoqda. Bu esa davr talabi, yangilanayotgan badiiy tafakkur, kitobxon ma’naviy-ruhiy ehtiyoji, muayyan ijodkorning iqtidori, salohiyati, izlanishdagi faolligi, qiziqishlar doirasi singari bir qator omillarga bog‘liqdir.

Jamiyat psixologiyasi va odamlar ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ijodkor fikr-tuyg‘usiga ta’sir etishi shubhasiz. Zamonaviy o‘zbek romanchiligidagi yangilanishlar shu yo‘sindagi ta’sir, shuningdek, milliy va jahon romanchiligiga xos shakl va ifoda usullarini ijodiy o‘zlashtirish aspektida kechmoqda. Adabiyotshunos I.Yoqubov O.Muxtor romanlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritib shunday deydi: “So‘nggi yillar adabiyotining sermahsul qalam sohiblaridan biri Omon Muxtor o‘z romanlarida ijtimoiy muhit va hayotiy sharoitni mulohazakorlik bilan tadqiq etadi. Aytish mumkinki, adibning romaniy tafakkuri, individual uslubi teran mushohadakorlikka asoslanadi”.

Darhaqiqat, ushbu fikrlar tasdig‘ini yozuvchining ko‘pgina romanlari misolida kuzatishimiz mumkin. O.Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” (1996; 2000) romani shakliy-uslubiy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu ijtimoiy-psixologik roman namunasi bo‘lib, asarda ijtimoiy hayot muammolari qabariq holda tasvirlangan. Obrazlar ruhiyati negizida ko‘pchilikni o‘ylantirgan muammolar badiiy tahlil etilgan. Roman modern adabiyotining milliy namunasi bo‘lib, unda sharqona o‘ziga xoslik, qalbi pok va diyonatli ota-bobolarga munosib bo‘lishga e’tibor qaratiladi. Asar leytmotivida diyonatli insonlar ko‘paysa, jamiyat ham poklanadi, degan fikr ilgari surilgan.

O.Muxtor insonning ilohiy mohiyatini inkor etmaydi. Ismsiz va belgisiz qavmning absurd qismatiga achinish va umummilliy ruhni uyg‘otishga urinishi bilan mumtoz Sharq adabiyotiga yaqinlashadi. Bu jihatdan adib A.Kamyudan keskin farq qiladi. O.Muxtor romanlarining qahramonlari muayyan muddat yolg‘iz va yo‘lsiz qolib muhokama, muroqabaga beriladilar. Ammo ular hech qachon bu holatni fojia deb qabul qilishmaydi. Ular umiddan mosuvo qahramonlar emas. Shu bois o‘tkinchi qo‘rquv va xavotir tuyg‘usini yengib o‘tadilar.

Yozuvchi o‘z uslubiy izlanishlarida an’anaviy shakl va uslubiy ifoda yo‘sinlaridan butkul chekinmagan holda modern adabiyot bilan o‘zaro muloqotning samarador yo‘llarini izlashga intilgan. Janrning milliy modeli o‘zining ichki tabiatiga ko‘ra rivojlanmoqda. Jumladan, O.Muxtor va unga zamondosh adiblar o‘zbek adabiyotini yangicha badiiy talqinlar hisobiga boyitishdi. Binobarin, ularning romanchilikdagi izlanishlari ham umumadabiyotimizga xos evrilishlarga hamohangdir.

Roman voqeligi tush, xayol va hayot qorishiqligida tasvirlangani uchun daf’atan muallif haqiqatini anglash qiyinroq kechadi. Unda ijtimoiy hayot manzaralari tasviri asar qahramoni Valijon tilidan hikoya qilinadi. U o‘zining g‘urbat-hasratli, orzu-umidli hayotini ko‘z o‘ngida qayta jonlantirib, zamonaga, zamondoshlariga munosabat bildiradi. O‘zining ko‘rgan-kechirganlarini anglashga uringan Valijon xayollar olamiga, xotiralar ummoniga sho‘ng‘iydi. Natijada uning o‘y-xayollari turli afsona, ertak, rivoyat va iltijolarga ulanib boradi.

Asar voqealari Valijonning o‘y-xayollari, tafakkuri taxayyulida kechadi. Yozuvchi qahramon tilidan shunday deydi: “Men uchun shu kunlar tush, xayol, hayot qorishib ketgan, qay biri nima ekanligini farqlab-ajratishim qiyin edi. So‘nggi paytlar, umuman, ajratolmay ham qolgan edim!” (Roman, 83-b). Qahramon tilidan keltirilgan

ushbu fikrlarda yozuvchi voqelikni tush, xayol, hayot qorishiqligida ifodalayotgani ayon bo‘ladi.

Bu tasodifiy hol bo‘lmay, adib dunyoqarashi, ijodiy niyati va nihoyat poetik ifoda yo‘sini bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Zotan, O.Muxtor asardagi badiiy voqelik va inson obrazining hissiyoti, tuyg‘u-kechinmalarini tasvirlashga mayl bildiradi.

Yozuvchi qahramonning harakat va holati orqali uning ichki dunyosini mahorat bilan yoritadi. Ammo Siroj muallim o‘zining muztarib holatdan chiqishda xarakteriga xos xususiyatlardan uzoqlasha olmaydi. Romandagi qo‘rqoq va xiyonatkor bu kimsa (asarda “mahluq”) ruhiy to‘lg‘onishlar ichra talvasaga tushadi va “ko‘zgu”ni sindiradi. Endilikda u xalqning, vatandoshlarining fikri bilan hisoblashmay qo‘yadi. Bu shubhasiz, shaxsning fojiasi va falokatidir. Tadqiqotchi N.Azizov roman haqida so‘z yuritib, shunday yozadi: “... Valijon qalbidagi Iblisni reallikda Siroj muallim qiyofasida akslantirib beradi. Romanning barcha voqealari personaj o‘z qalbidagi shayton (Siroj muallim qiyofasida)ni ko‘rib qolishidan va o‘zi haqidagi haqiqatlarni anglashga urinishidan o‘sib chiqadi”. Demak, Siroj muallimni qahramon qalbidagi Iblis deb tushunish ham mumkin.

Romandagi Badalbek esa buyruqni ijro etuvchi, shaxsiy mayllaridan yuqori ko‘tarila olmagan kishidir, amalda osmonlarda parvoz qilgani holda zamindan ruhan uzilgan odam. U atrof-muhitni zaharlayotgani, eldoshlari ustidan og‘u sepayotganidan zarracha qiynalmaydi.

Umuman, romanda loqaydlik, bee’tiborlik, hafsalasizlik, ruhiy qashshoqlik va qiyofasizlik singari illatlar tanqid qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. –Т.: Фан, 1992. Б.104.
2. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Т.: Mumtoz so‘z, 2011. 316 б.
3. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
4. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
5. Yakubov.I.A, Atabayeva.G.F. “Formal-stylistic features of Aman Mukhtar’s dilogy “Navai and the artist abulkhair”SCINCE TIME P.6-14

Akram HAMDAMOV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

HASAD MOTIVI VA HASAD MUAMMOSI

Annotatsiya: Abdulla Oripov “Hakim va ajal” dostonida uzoq asrlar davomida xalqning kundalik turmushi tajribalaridan o‘tgan muhim bir hayotiy haqiqat, xalq donoligi bilan shoirning adabiy-falsafiy mushohadasi uyg‘unlashib, dostonning poetik jihatdan kuchayishiga olib kelgan.

Kalit so‘zlar: *afsona, hakim, hasad, ajal, hasad motivi, Ibn Sino, rivoyat, Malika, Mirzo, afsonaviy, Ibn Sino, tubanlik, buyuklik, iblis qiyofasi.*

Аннотация: в поеме “Знахар и смерт” важный жизненный факт, прошедший через много веков повседневной жизни, соединил литературно философское мышление поета с мудростю народа способствовал поетическому укреплению поемы.

Ключевые слова: *легенда, знахар, завист, смерт, мотив зависти, Ибн Сина, повествование, Малика, Мирзо, легендарный Ибн Сина, вопиющий, величие, образ дявола.*

Annotation: in the poem “Physician and Death” an important reality of life which has passed through many centuries has combined with we poet’s literary-philosophical thinking and we wisdom of the people together influenced to strengthen the poem.

Keywords: *legend, Physician, envy, Death, motive of envy, Ibn Sina, Narrative, Malika, Mirzo, Legendary Ibn Sina, turpitude, Greatness, Devil’s Image.*

Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” (1980) dostonidagi badiiy konsepsiya hasad motivi va hasad muammosida qurilgan. Dostondagi hasad tushunchasiga ham motiv, ham muammo sifatida qarash mumkin. Sabab – u doston voqealarini harakatga keltiruvchi kuch sifatida motiv, asardagi g‘oyaviy badiiy yuk tarzida muammodir.

Hasad – hamma zamonlarda ham yuztubanlik belgisi, ma’naviy qashshoqlik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib kelgan. Shu ikki obraz mohiyati xususida adabiyotshunos Ibrohim Haqqul yozadi: “Ibn Sino –daho, Mirzo – qabohat timsoli...

Hasadning oldida ajal ham hatto ojiz bir narsa. Ibn Sinoni halok qilgan ajal emas, hasad – xusumat. Mana, dostonning umumiy mazmunidan kelib chiqadigan bosh ma'no". { 1, 144}

Shoir yigirma satrdan iborat badiiy-falsafiy xulosa bilan asarni yakunlaydi. U tadqiqotchilar orasida turlicha fikr uyg'otadi. Jumladan, taniqli adabiyotshunos Suvon Meli ushbu umumlashma xulosani quyidagicha izohlaydi: "Shoir Hakim, ya'ni Abu Ali ibn Sino haqidagi xalq naqllariga suyanib, dostonni shunday falsafiy-poetik xotima bilan yakunlaydi. Hakim o'zi tayyorlagan dori og'ziga tomizilganda edi, boqiy hayotga vosil bo'lardi. Ne kajbaxtki, daholarning mangu hamrohi Hasad aralashib, ish buzildi. So'nggi tomchi tomizilmay, shisha chilparchin etildi.

Shunda shoir besh band, yigirma misra she'r bilan olamga yuzlanadi. Bunda biz Hakimning mangu tragik holati, ulug' foje obraziga guvoh bo'lamiz. Bu obrazning cho'qqisi so'nggi misralarda, Hakim bilan buyuk charx yuzlashuvida namoyon bo'ladi:

"Faqat Hakim buyuk charxning aylanishiga
Sukut ichra quloq tutib yotadi bedor".

Hakim bilan ajalning bahsi, ta'bir joiz bo'lsa, durang bilan yakunlandi. Ajal o'z maqsadiga yetmadi, u buyuk Hakim, olamshumul tabibni mahv eta olmadi. Evohki, Hakim ham qayta tirilmadi. Hasad bunga yo'l bermay, ajalga ko'mak berdi. Lekin Hakim tamom o'lmadi. U buyuk Sukutga erishdi. Shoir aytganidek, "Bu sukutning tugaydigan zamoni yo'qdir..."

Sukut – yo'qlik emas. Sukut –hushyor bedorlik. Tirik insonga mangu hamrohlik".{3, 54}

Bu fikr, bizningcha, bir tomonlama. Unda Hakimning umr shomidagi holati bir oz ko'tarinkilik bilan ijobiy baholanadi, xolos. Shu tufayli bo'lsa kerak, Suvon Meli sukutni "Buyuk Sukut" deb ataydi. Gap shundaki, sukut Hakim holatining yetakchi belgisi bizningcha, dostonning so'nggi ikki misrasida o'z ifodasini topgan:

"Ko'radi-yu, so'zlay desa zaboni yo'qdir,
Eshitadi, turay desa yo'qdir majoli".

Badiiy asar xotimasi, ayniqsa, so'nggi jumlada alohida ahamiyat kasb etishini hisobga olsak, ushbu qo'sh misrada majolsiz Hakimning mahzun qiyofasi va foje holati ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mirzoning so'nggi shishani sindirar paytda aytgan gaplariga ayricha diqqat qaratishni istaymiz:

Men – iblisman, odamlarning o'zidan chiqqan,
Sen – zakosan, yo'qdir seni ko'rarga ko'zim.

Mirzoning iblisona qudrati Hakimning keyingi, "vaqtdan xoli" taqdiriga soya tashlaydi, aniqrog'i, belgilaydi. M.Qo'shjonov yozganidek: "Oqibat Hakim ajal bilan olishuvda o'zi ixtiro qilgan hayotbaxsh dorining oxirgi tomchilaridan mahrum bo'ladi. Natijada u faqat afsonalarda uchrashi mumkin bo'lgan, biroq haqiqat zaminida turgan azobda qoladi. Tirik bo'lib tirik emas, o'lik bo'lib o'lik emas. Tiriklik va o'liklikning azobini barobariga tortadi Hakim". {3, 53}

Tongda Hakim yotog'iga kirdilar asta
Go'yo hech sir bo'lmaganday kun edi yovvosh.
Yotar edi to'shagida bezabon xasta,
Faqat horg'in ko'zlarida yaltirardi yosh..

Bu – Hakim hayotining foniy dunyodagi so'nggi, abadiyatga daxldor boqiy hayotining ilk kunlari edi. Endi u dostonda tasvirlanganidek, "bezabon xasta". Ushbu ifoda mazmuniga ham ayricha e'tibor qaratmoq lozim. Negaki, u o'z alamini, ko'nglidan kechgan o'y-fikrlarni faqat horg'in ko'zlaridagi yosh bilan anglata oladi, xolos.

Ko'nikdilar asrlar ham taqdir ishiga,
Saltanatlar kelib – ketdi takror va takror.
Faqat Hakim buyuk charxning aylanishiga
Sukut ichra quloq tutib yotadi bedor.

Hayotning anglab bo'lmas g'aroyib – qiziq sho'rishlari ham, charxning dahshati ham shundaki, bunday bedorlik ruhning uyg'oqligi emas, aksincha, jasad - vujudning (ruh esa, jasadga tutqun) bedorligidir. Vujudning bedorligi esa jismoniy azob. Hakimning chala o'lik va chala tirik holatida ikki narsa barqaror –sukut va bedorlik.

Yuqorida aytganimizdek, bu juda dahshatli holat. Mirzo qiyofasidagi Iblis yoki Iblis qiyofasidagi Mirzo Hakimga, ya'ni Dahoga shu qadar og'ir jazo beradiki, jazoni yengillashtirishga hatto muallif – shoir ham ojiz. Bunday cho'ng jazoga mustahiq etilgan Hakimning gunohi, qolaversa, jinoyati nima ekan, degan savol zukko o'quvchi qarshisida muallaq turib qoladi. Hakimning iblissifat Mirzolar oldidagi gunohi va jinoyati uning Daho ekanligidir. Negaki, yovuzlikning nayranglariga, iblislarning makkorliklariga uncha-muncha odam bolasi bardosh berolmaydi. Bas ham kelolmaydi. Uning hiylalarini yolg'iz Daholargina daf eta olish qudratiga ega. Ana shu jarayonda iblis qiyofasiga kirgan Mirzo obrazi mudhish mohiyat kasb etganligi ko'rinadi. Buning hosilasi o'laroq Hakim tragik obraz maqomiga ko'tariladi. Hakimning tragik holatiga bugungi kun nuqtai nazaridan qarasak, hayotiy haqiqat fantastik shakl vositasida ko'rsatilganiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi zamon tibbiyot fani dastlabki ikki satrdagi faktlarning barchasini inkor etishi mumkin. Lekin bu badiiy adabiyotda, badiiy idrok va ifodada shartlilik ustuvor. Tahlil etilayotgan to'rtlikdagi "fantastik mazmun" realistik o'lcham uchun "yolg'on fikr" kabi tuyuladi. Xususan, dastlabki ikki satr mazmuni esa bizni ishontiradi. Ko'rinadiki, folklor motivi realistik tasvir bilan sintezlashib, shoirning badiiy maqsadini ishonarli holda ro'yobga chiqaradi.

Doston xotimasidagi ma'no ramziy. Avvalo, daho tabib, va umuman, barcha buyuk ajdodlarimiz, millat ruhi, qolaversa, ruhiyat olamining badiiy in'ikosi tasvirlangan. Ruhiyat olami esa yer yuzida bo'lib o'tayotgan barcha nohaqliklarni ko'rib, eshitib turadi, lekin uning yechimiga aralasha olmaydi. Shu paytgacha na insoniyat va na adabiyot tarixida dostondagi buyuk Hakimdek mudhish jazoga mubtalo bo'lgan obrazni uchratish qiyin. Aytish joizki, bu yakuniy tugallanma tor milliylik chegarasidan chiqib, umuminsoniy mohiyat kasb etadi.

Haqiqatdan, asarga chuqurroq nazar tashlansa, uning butun mazmun- mohiyati shu ikki so'zda jamlanganiga guvoh bo'lamiz. Lekin qizig'i shundaki, Hakim va ajal motivi ochiq holda faqat asarning so'nggi

bo‘lagida yuz ko‘rsatadi. Ungacha tasvirlangan barcha voqea-hodisalar, hamma tadoriklar ushbu motiv – g‘oya namoyon bo‘lishi hamda namoyish etilishi uchun tayyorgarlik bosqichidek xizmat qiladi. Muallif kitobxonni bu katta g‘oyaga qadam-baqadam tayyorlab boradi. Xususan, uni tasdiqlovchi misolga murojaat qilaylik :

Gar ajalga davo topsam yetardim haqqa,
Yechilardi, - derdi Hakim, - barcha savollar

Zero, Hakim o‘z kasbi tabiatiga ko‘ra, odamlarni ajal changalidan qutqarishga yo‘naltirilgan. Binobarin, Hakim tabib sifatida ajalga qarshi borishi tabiiy. Lekin shu jarayonda Mirzo (boshqacha aytganda, hasad) ajal tarafida turib Hakimga qarshi kurash olib boradi. Hakim hayotining oxirgi soniyalaridagina Mirzo vaqtincha ajal vazifasini, aniqrog‘i, ajal yugurdagi vazifasini o‘taydi, xolos. Shu tariqa doston konfliktining mazmun - mohiyatini tashkil etuvchi Hakim – Hasad – Ajal uchligi yuzaga chiqadi. Dostonning g‘oyaviy qatlamida ham, asosan, uch qahramon ishtirok etadi. Ular shunday uchburchakni hosil qiladi: Hakim – Malika – Mirzo. Bu uchburchakdan dostondagi yetakchi motivlardan biri – Hasadning yuzaga kelish sabab va manbai aniqlanadi. Shoirning xalq og‘zaki ijodi materiallari asosida yaratilgan “Hakim va ajal” dostoniga Ibn Sinoning “O‘likni ham tiriltira oladigan dori” ni kashf etgani haqidagi afsona asos qilib olingan. Bizgacha bu afsonaning ikki varianti yetib kelgan. Birinchisi – buyuk Hakimning shogirdi hayajonlanganidan, dori solingan oxirgi idishni qo‘lidan tushirib yuboradi va buyuk Hakim tirilmay qoladi. Ikkinchi variantda esa shogirddagi hasad tuyg‘usi o‘z ustozining tirilishiga yo‘l bermaydi. Shogird oxirgi idishdagi dorini ustozining og‘ziga tomizmaydi. Abdulla Oripov afsonaning ikkinchi variantini tanlaydi. Buning o‘ziga xos sabablari bor. Birinchidan, asarning asosiy masalalari – kulminatsion nuqtasi ham, yechimi ham bir nuqtaga – asar oxiriga jamlangan. Oxirgi sahnada buyuklik bilan hasad ning yuzma-yuz kelishi – hasad nomli ijtimoiy illatning jamiyat uchun – insoniyat uchun qay darajada xavfli ekanligi butun bo‘y-basti bilan ochib beriladi.

Ana shu ikki oqim – xalq orzusi va Hakimning jahdi – qo‘shilib asardagi Ibn Sino obrazining badiiy mukammalligini va dostonning badiiy jozibasini ta’min etgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostoni tarixiy voqelik va xalq og‘zaki ijodi motivlarini o‘zida mujassam etgan barkamol asar sifatida XX asr o‘zbek dostonchiligi yutuqlaridan biri deb baholanishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Али Ибн Сина. Канон врачебной науки. Изд.разделне. – T: Fan, 1985.
2. I.Haqqul. Badiiy so‘z shukuhi. –T: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1987.
3. Qo‘shjonov M, Meli Suvon. Abdulla Oripov. –Toshkent: Ma’naviyat. 2000.

Laylo TO‘RAYEVA,
BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), dotsent

ASAD GULZODA SHE’RIYATIDA MEHNATKASH XALQ OBRAZI VA ULARGA MUNOSABAT IFODASI

Annotatsiya: Buxoro zaminida tug‘ilib ijod etgan Asad Gulzoda Buxoriy she’rlarida mardlik, mehnatsevarlik, yaxshi xulq va odob, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, kamtarinlik kabi ulug‘ fazilatlar kuylanadi. Uning she’rlarida oddiy va halol insonlar bosh obraz sifatida tanlanadi va go‘zal kechinmalar bilan gavdalantiriladi. Shoir yaratgan obrazlar orasida mehnatkash oddiy dehqon alohida ajralib turadi. Maqolada o‘z mehnati bilan bog‘-u rog‘ yaratgan Bobodehqon obrazi rangin ifodalari va badiiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *she’riyat, ruhiyat, dehqon obrazi, mehnatkash xalq, xalq an’analari, lirik qahramon.*

Аннотация: в стихах Асада Гульзаде Бухари, родившегося в Бухаре, воспеваются такие великие добродетали, как мужество, трудолюбие, хорошие манеры и манеры, уважение к родителям, патриотизм, смирение. В его стихах главными героями выбраны прстые и честные люди и воплощены прекрасные переживания. Среди образов, созданных потом, выделяется трудолюбивый простой крестьянин. В статье анализируются цветовая выразительность и художественность образа Бободехкана, создавшего лоскут в связи со своим творчеством.

Ключевые слова: *поэзия, духовность, крестьянский образ, трудолюбивый народ, народные традиции, лирический герой.*

Annotation: the poems of Asad Gulzade Bukhari, born in Bukhara, glorify such great virtues as courage, hard work, good manners and manners, respect for parents, patriotism, humility. In his poems, simple and honest people are chosen as the main characters and wonderful experiences are embodied. Among the images created later, the hardworking simple peasant stands out.

Key words: *poetry, spirituality, peasant image, hardworking people, folk traditions, lyrical hero.*

Xalq qalbining aks-sadosi bo‘lgan she’riy namunalarni o‘qish, yod olish, davralarda aytib yurish ham kishi ruhiyatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi. Zamonaviy she’riyatda folklorga murojaat qilish ijodkor uchun hamisha yengillik, zavq va shavq beradi. Shoirlar xalq ijodiyotidan ilhom olishini, o‘zlari yozayotgan ijod namunalarida o‘zi mansub bo‘lgan xalq poetik tafakkurining ulushi borligini o‘zlari e’tirof etganlar.

Asad Gulzoda Buxoroning chekka qishloqlaridan birida oddiy mehnatkash oilasida dunyoga kelgan. Uning shoir bo‘lib yetishishida oilaning, Buxoro hududidagi ma’naviy muhit, xalqona an’analar go‘zal tashbehlar bilan kuylanadigan she’r va qo‘shiqlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Asad Gulzoda Buxoriy ham bolalar, ham kattalar ijodkori. Shoir she’rlarining oddiy va samimiyligi, oddiy xalq turmush tarziga yaqinligi uning xalq og‘zaki ijodi chashmalaridan to‘yinganidan darak beradi. Asad Gulzoda Buxoriy she’rlarida mardlik, mehnatsevarlik, yaxshi xulq va odob, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, kamtarinlik kabi ulug‘ fazilatlar kuylanadi. Uning she’rlarida bosh qahramon sifatida oddiy va halol insonlar bosh obraz sifatida tanlanadi va go‘zal kechinmalar bilan gavdalantiriladi. Shoir yaratgan obrazlar orasida mehnatkash oddiy dehqon obrazi alohida ajralib turadi.

Bilamizki, insoniyatning turmush tarzi mehnatkash dehqonlarning fidokorona mehnatlari bilan go‘zallashadi va ma’no-mazmunga to‘ladi. Mana shunday go‘zalliklarning ma’no – mazmun bilan omixtalashgan oddiy oilada tarbiya topgan betakror shoir Asad Gulzoda Buxoriy she’rlarida oddiy insonlarga xos kamtarinlik, samimiylik va mehnatsevarlik tuyg‘ularining Dehqon obrazida ulug‘langanini ko‘rishimiz mumkin:

Xele obod medonam,
Maydoni mehnat xonam.
Xalqi mehnatkashi on,
Xalqi zahmatkashi on
Doyayi davlat hastand,
Poyayi davlat hastand.
Bog‘u rog‘ barpo kunand,
Sahroro zebo kunand.

Mehnatkash xalqni, ular chekkan zahmatlarni ham yaxshi bilamiz. Ular davlatimizning ishonch va tayanchlaridir. Ular sahrodan bog‘ yaratib, bog‘larni yanada go‘zallashtirgan tengsiz qahramonlardir, deya ta’riflanadi. Ijodkor mazkur she’rda insoniyatning mehnat ahliga bo‘lgan hurmat-izzatini ifoda etadi. Bu badiiy ifodalar yosh avlod ongida mehnatsevarlik tuyg‘ularini o‘stirishga xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Sabzavoti farovon –
Serii xurdu kalon.
Nomi balandi dehqon,
Zinda bimon ҷovidon.

Ya’ni, xilma-xil sabzavotlar katta-yu kichikni birday bahramand etadi. Dehqonning baland nomi mangu yashasin, deya xalqona olqishlarni sharaflaydi.

Libosi sabz ba bar kard,
Zamin dar Idi Navrӯz.
Dehqon ba kisht sar kard,
To fardo gardad pirӯz.

Ya’ni, yer o‘zining yashil libosini kiydi, u Navro‘zga tayyorgarlik ko‘ryapti. Dehqonlar esa ekin-tikin ishlarini boshlab yubordi. Yilning to‘kin-sochin bo‘lishini Navro‘zning qanday boshlanishidan ma’lum bo‘lishiga ishora qilinadi. She’rda Navro‘zning qadami qutlug‘ kelishiga umid ruhi yaqqol aks ettiriladi.

Shoir bolalarga atab yozgan she’rlarida ham dehqon mehnatini ulug‘lab, ularga bu mehnat ahlining hurmat-izzati ulug‘ligini uqtiradi.

– Daryocha, ey daryocha,
Az kuҷo sar meshavӣ?
Obi zuloli xudro,
To ba kuҷo mebarӣ?..
... Xizmati dehqon kunam,
Chӯlro guliston kunam.
Nozu ne’mat ofaram,
Mulkro farovon kunam.

Ya’ni, lirik qahramon jilg‘adan qayerdan kelayotgani va qayerga ketayotgani to‘g‘risida so‘rasa, jilg‘a: boshlanishim chashmadan, senga uning mujdasini, xabarini keltiryapman. Maqsadim esa dehqon xizmatida bo‘lish va cho‘llarni guliston qilish, noz-u ne’matlarni ko‘paytirib, mamlakatni farovon qilishdir, deya javob beradi. O‘quvchiga oddiy ko‘ringan ushbu savol-javob matni orqali shoir bolalarda mehnatsevarlik va mehnat ahliga hurmat, ularning mehnatini qadrlash fazilatlarini shakllantirishda katta hissa qo‘shadi.

“Idoni arzanda” (“Erka bayram”) deb nomlangan she’rda ijodkor bahor bayrami – Navro‘zga ishora qiladi. Insonlar bahor kelishi bilan yilning yangilanishi va kelayotgan yilning mo‘l hosil yili bo‘lishiga umid qilishlari bayon etiladi. Bu ifodalar badiiyat bilan omixtalashtiriladi:

Fasli kishtukor oyad,
Soli bobaror oyad.

Soli g‘allakor oyad,
Soli paxtakor oyad.
Zamin koni paxta shud,
Zamin koni g‘alla shud.
Hosil farovon gardad,
Sol, soli dehqon gardad.

Yoki:

Bahori dehqon omad,
Bahori bog‘bon omad.
Dashtu daman gulzor shud,
Bog‘u chaman kӯhsor shud.

Ushbu she’rda to‘g‘ridan to‘g‘ri bahor fasli dehqon va bog‘bonlarga tegishliligа ishora qilinadi. Bahor fasli kelishi bilan dehqonlar mehnati bilan dashtlar gulzorga aylanadi.

“Bog‘i merosi” (“Meros bog‘”) she’rida dehqon va bog‘bonlar shaxs sifatida ulug‘lanadi. Ularning mehnati orqali barcha yerlar yashil libosini kiyishini, bozorlarimiz rastalari rang-barang mevalarga, poliz ekinlariga to‘lib turishini, ariqlarimiz suvga to‘lib turishini va dasturxonlarimiz non-u bug‘doyga to‘lib turishini ta’kidlaydi.

Ey padari dehqonam,
Ey padari bog‘bonam!
Azizu mehrubonam,
Qadri turo medonam.
Bog‘i tu barqaror ast,
Gulshanu sabzazor ast.
...Dehqoni pursaxovat,
Xazinaboni ne’mat.

Dar har davru zamone
Shaxsoni nekӯnome,
Girifta bar dast kaland,
Sohibi nomi baland,
Boboi dehqon shavand,
Bori zamonro kashand.

Qadim ajdodlarimizning dehqonchilik bilan shug‘ullanib turmush kechirishgani, bu qadimiy kasb hech qachon yo‘qolmasligini ularning o‘ta saxovatli insonlar ekanligi mazkur she’rda ta’kidlanadi. She’rda yoshlarga qarata bu kasbni sevishga va uni ardoqlab kelajakda davom ettirish lozimligi uqtiriladi.

Ҷahon shavad guliston
Hama ҷo bog‘u bӯston.
Hosil farovon shavad,
Osuda dehqon shavad.

Ya’ni, butun jahon guliston bo‘lsin, hamma yer bog‘-u bo‘ston bo‘lib, hosillar mo‘l bo‘lsin va bundan dehqonlarimiz xotirjam, ko‘ngli to‘q bo‘lsin, deya yaxshi niyat qilinadi va dunyo go‘zalligining mehvari bu – zahmatkash insonlar mehnatidan ekanligi bayon etiladi.

Yosh avlodni mehnatsevarlik va kamtarinlikka undovchi Asad Gulzoda she’riyati tojikzabon maktablarda keng o‘qitilmoqda. Azal-azaldan tojik-u o‘zbek tillarida hamjihatlikda umrguzaronlik qilib kelayotgan Buxoro xalqi o‘z zamini farzandi bo‘lgan Asad Gulzoda ijodini hamisha sevib o‘qiydi, o‘rganadi. Uning ijodi orqali farzandlariga insoniylik fazilatlarini singdiradi. Shunday ekan, shoir ijodi hamisha barhayot, u hech qachon o‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асад Гулзодаи Бухоро. Куллиёти осор. Дар 3 ҷилд. Ҷилди 2. Шеърҳо, достонҳо, ривоятҳо ва чистонҳо барои кӯдакону наврасон. – Т.: Yangi nashr, 2018. – С.433-434.
2. Асад Гулзодаи Бухоро. Насими Бухоро. (Шеърҳо, ғазалҳо, мухаммасҳо, рубоий ва дубайтиҳо). – Бухоро: Бухоро, 2001. - С.107.
3. Асад Гулзодаи Бухоро. Қрукуфаҳои Бухоро. – Душанбе: Маориф ва фарҳанг, 2004. С. 104.
4. Turayeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10 (4), 629-634.
5. Тӯраева, Л. О. (2024). Ўзбек деҳқончилигида тақвим рамзлари. IMRAS, 7(1), 779-783.

Fanuza ADILOVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
shodiyorovnaf@gmail.com

XAYRIDDIN SULTON QISSALARIDA OBRAZLAR TABIATI TAHLILI
(“Ishonch telefoni”qissasi asosida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Xayriddin Sultonning “Ishonch telefoni” qissasining badiiyati, syujeti va kompozitsiyasidagi o‘ziga xosliklar, tili va uslub jihatdan ahamiyati, yozuvchining obraz yaratish va so‘z qo‘llash mahorati atroflicha tahlil qilingan.

“Ishonch telefoni” qissasida qahramonlar psixologik jihatdan chuqur tasvirlangan.Har bir obraz, o‘zining ichki kechinmalarini, xatoliklari va umidlarini ifodalash orqali o‘quvchiga ijtimoiy masalalarni tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *qissa, syujet, kompozitsiya, epik tur, janr, poetika.*

Annotation: in this article, the artistic, subject and compositional features of Khayriddin Sultan’s short story “Hotline”, the importance of language and style, the writer’s ability to create an image and use of words are analyzed in detail.

In the story “Hotline” the characters are described psychologically. Each character helps the reader to understand social issues by expressing their inner experiences, mistakes and hopes.

Key words: *short story, subject, composition, epic type, genre, poetics.*

Аннотация: в данной статье подробно анализируются художественные, сюжетные и композиционные особенности рассказа Хайриддина Султана «Горячая линия», значение языка и стиля, умение писателя создать образ и словоупотребление.

В рассказе «Горячая линия» герои описаны психологически. Каждый персонаж помогает читателю разобраться в социальных проблемах, выражая свои внутренние переживания, ошибки и надежды.

Ключевые слова: *рассказ, сюжет, композиция, эпический тип, жанр, поэтика.*

Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tahliliga doir muammolarni obraz poetikasi nuqtayi nazaridan o‘rganish va uni milliy adabiyot sathida tadqiq etish zaruriyati filologiya sohasida ham jiddiy vazifalarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, gumanitar sohalarda muayyan adib ijodi va badiiy asar, uning obrazlar sistemasini tadqiq etishning yangi metod va usullari paydo bo‘lmoqdaki, bu badiiy asarning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatini yaratmoqda. Adabiyotshunoslik fani o‘z obyektiga yangi nigoh bilan qarash orqali obraz poetikasi muammolarini chuqurroq tadqiq etish yo‘lidan boryapti. Zero, obraz poetikasini tahliliy o‘rganish insonning ma’naviy olami, dunyoqarashini, shuningdek, ijodkorning tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Obraz badiiy adabiyotda real hayot ko‘rinishlari natijasidir. Ular haqiqiy hayotni nafaqat aks ettiradi, balki umumlashma fikrni ham ifodalaydi. Unda muallif haqiqiy hayotni qanday ko‘rganini ko‘rsatibgina qolmay, xuddi rassom kabi o‘zining yangi g‘aroyib dunyosini ham yaratadi. “Obrazning bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarining dinamik birlashuvi uning dominantasi bilan, yoki boshqacha qilib aytganda, ham butun asarning, ham uning alohida qismlarining asosiy g‘oyasi paydo bo‘ladigan ijodiy ish davrida shakllanadigan o‘zagi bilan belgilanadi. Asarning asosiy g‘oyasi, uning alohida qismlari, asoslari va obrazlari to‘g‘risidagi

tasavvurlar o‘zgarishi, boshqa shaklga kirishi mumkin, lekin uning birlamchi negizi ana shu o‘zanligicha qolib, unga asarning barcha badiiy xususiyatlari birlashadi. Ijodiy g‘oya batamom yetilib bo‘lgandan so‘ng, yozuvchi ishga kirishgan davrda uning emotsional imkoniyatlari ortib boradi” . Badiiy obraz muallif fantaziyasi bilan qayta ishlangan hodisadir.Obraz butun fikrning alohida qismi sifatida tushunilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, obraz uchun quyidagi holat mezon vazifasini o‘taydi.

a) badiiy obraz borliqning tafakkurimizdagi aksidir;

b) obraz prototipdan ajratilmaydi va muallif ijodiy fikrini aks ettiradi;

c) badiiy obraz muallif dunyoqarashining ba’zi xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.Uning yordami bilan o‘quvchi matnni tahlil qilishda muallif qarashlarini anglaydi;

d) obraz ramziy ma’nolarga ham egadir.Ular ko‘p jihatdan talqin qilinishi mumkin. Bunda o‘quvchi qarashlari muhimdir.

Kuzatishlarga ko‘ra, boshlovchi ijodkorlar ko‘proq hikoya janriga murojaat qiladi.Unda boshqa epik janrlar kabi sabablarning sababi qidirilmaydi.Syujet ko‘p tarmoqli, ko‘p liniyali bo‘lib ketmaydi.Ammo ba’zan bunday holat qissalarda uchrab turadi. Lekin aksar hollarda ko‘p tarmoqli, ko‘p planlilik qissani romanga aylantirib yuborishi mumkin.Syujet, asosan,

bir chiziqli yo‘nalishda kechadi. So‘zlar ichki bir bog‘liqlik bilan fikrga bog‘lanib turadi.So‘zni his etish maqomi talant darajasiga qarab turlicha kechadi. Adabiyotning asosiy o‘lchovlari ham ana o‘sha san’atkorlar asarlariga nisbatan olinadi. Ular ilohiy ilhom bilan ilohiy so‘zga yaqinlashib boradilar.

Xayriddin Sulton qissalari qissachiligimizga yangicha ohang baxsh etdi. Uning qissalarida inson ongi sezimlarida oriyat, halollik, mardlik deb atalmish tuyg‘ularning xiyonat va pastkashlik bilan to‘qnashuvi jamiyatdagi munosabatlarning nozik pardasi bo‘lmish do‘stlarning ziddiyati orqali ifodalanadiki, undagi obraz poetikasi ongimizda o‘zgacha ifoda va tasavvurni muhrlaydi.Va bundagi fojia do‘stning xiyonati, bu xiyonatga sabab bo‘lgan yolg‘onning inson qismatiga ro‘baro kelishida ko‘rinadi. Xayriddin Sulton qahramonlari asardan-asarga ulg‘ayadi. Uning qissalarida milliy ohang yarq etib ko‘zga tashlanadi. “Ishonch telefoni” qissasida qahramonlar psixologik jihatdan chuqur tasvirlangan.Har bir obraz, o‘zining ichki kechinmalarini, xatoliklari va umidlarini ifodalash orqali o‘quvchiga ijtimoiy masalalarni tushunishga yordam beradi. Masalan, asardagi bosh qahramonlarning turg‘unlikdan chiqishga intilishi, o‘zaro muloqot va ishonchning murakkabligi tasvirlangan. Bu yerda, obrazlar nafaqat tashqi harakatlar, balki ichki kechinmalar va o‘zlikni anglash jarayonida ham rivojlanadi. Qissada operator Mohidil Ismatovaga turli insonlar turfa mavzularda qo‘ng‘iroq qilishib goh arz qilishadi, goh kimgadir minnatdorchilik bildirishadi, umuman olganda, biz yashayotgan shu kurrayi zaminda yuz berishi muqarrar, dolzarb muammolarni ko‘rsatib beradi. Ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq qilgan har bir qahramonni biz real hayotda uchratganmiz desam, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.Kimdir farzandlaridan nolisa, yana kimdir adolat istab bu raqamni terishadi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, Maqsuda opa turmush o‘rtog‘idan erta ajrab, to‘rt qiz, bir o‘g‘ilgan ham ota, ham onalik qilib, endi oyog‘ini uzatib dam olaman deganida, notanish kimsalar yakka-yu yagona o‘g‘li Saidjonni o‘ldirib ketishadi. O‘g‘li oliy ma’lumotli injener, Texnika universitetini “qizil” diplom bilan bitirgan. Qo‘lida daromadiga ega kasbi bo‘lsa-da, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish ishtiyoqi jo‘shib, videotexnika savdosini yo‘lga qo‘yadi. Bu orada topish-tutishi ancha yaxshilanib, ishlari ham yurisha boshlaydi. Saidjon “yuragi toza, oqko‘ngil bola” bo‘lganligidan tanishiga qarzga deb katta miqdorda pul beradi. Pulni qaytarish muddati yetganida, do‘sti nomardlik qilib, endigina yigirma oltiga kirgan Saidjonning umriga zomin bo‘ladi. Tergov-surishtiruv ishlari ham Saidjonga qarshi ishlay boshlaydi:qarz olganlar imonsizlarcha “Saidning o‘zi bizdan qarz edi, so‘rab borsak bizga pichoq bilan tashlandi, qo‘lidan tortib olmoqchi edik, pichoq bexosdan o‘ziga tegib ketdi” deb qutilib qolishadi. Maqsuda opa bu ko‘rgulikka “…bular yuz yil turmada yotsa ham Saidjonim tirilib kelmaydi-ku”deb chidab yashaydi. Ko‘p o‘tmay gazetada o‘g‘li haqida yolg‘on-u tuhmatlarga yo‘g‘rilgan kattagina maqola chiqqanini ko‘rib fig‘oni falakka chiqadi.Yolg‘izgina o‘g‘liga bunday tuhmatlar qilishganiga chidolmaganidan bosh suqmagan yeri qolmaydi. Yozuvchi bu qissasida, asosan, jamiyatda har doim guvohi bo‘layotgan voqealarni qalamga olgan.Real hayotdagi odamlarning aldanib qolishlari, turmushning turli zarbalariga uchrashlarini qahramonlar tilidan badiiy yo‘sinda tasvirlab beradi.

Xayriddin Sulton qissalarida ko‘pincha ijtimoiy mavzular ko‘tariladi. Adib insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizliklarni teran anglashga chorlaydi. Adib qissalarining obrazlar poetikasida simvolizm va metafora muhim o‘rin tutadi. Ishonch telefoni simvoli orqali muallif ishonchning qanchalik muhimligini, lekin uni saqlashning necha qiyinchiliklarga olib kelishini ko‘rsatadi. Telefon, o‘zaro aloqa vositasi sifatida, qahramonlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchini va uning uzilishi yoki yangilanishi orqali badiiy xabarni yetkazadi.

Xayriddin Sulton asarining tilida so‘zlar ma’nosi chuqur, simvolik va metaforik jihatdan boydir. Qissaning asosiy mavzusi bo‘lgan ishonch va uning odamlar o‘rtasidagi aloqalariga ta’siri til orqali puxta yoritiladi. Asarda ishlatilgan so‘zlar va iboralar qahramonlarning ruhiy holatini va jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Misol uchun, “telefon” simvoli orqali ishonchning o‘rniga boruvchi “aloqa” tushunchasi, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va bir-biriga ishonish masalalari ko‘rsatib beriladi. Qissada Gulsara obrazi kishini ham g‘azablantiradi, ham unga nisbatan achinish hissini paydo qiladi.Turmush o‘rtog‘i bilan avtobusda tanishib turmush qurgan ayol, erining oilali ekanligini uchta tug‘ib keyin biladi. Gulsaraga o‘xshagan o‘z haq-huquqlarini bilmaydigan, qo‘lida na tayinli bir hunari, na diplomi bor ayollar jamiyatimizda talaygina. Qonuniy nikohdan o‘tmasdan u bilan farzandlari voyaga yetgunicha yashab, ularning ehtiyojlari kun sayin ortib boraverganidan, ma’suliyatdan qochgan bu kabi erkaklar ham, afsuski, atrofimizda bor. Gulsara endi davlatdan umidvor, “yolg‘iz ayol”, “yolg‘iz ona” deb uy-joy berishlariga mushtoq.

Qissada operator nafaqat qo‘ng‘iroq qiluvchilarga, balki o‘z hayotiy masalalariga ham yechim izlaydi. Mohidil Ismatovaning opasi unga o‘g‘li Umidni tashlab, o‘zi Amerikaga erini izlab ketadi. Bu orada ancha ishlar bo‘lib o‘tadi: o‘g‘li Umid bezori bolalarga qo‘shilib telefon sotadigan do‘konga o‘g‘irlikka tushadi. Birgalikda do‘kon qorovulini pichoqlab, uning o‘limiga sababchi bo‘lishadi. Bu xabardan Mohidil o‘zini ayblaydi, chunki jiyani ancha vaqtdan beri telefon olib berishini so‘rayotgan, Mohidil esa puli yetmasligini, keyinroq albatta olib berishini aytib kelayotgan edi.

Xayriddin Sulton kichik tafsilotlar orqali qahramonlarning xarakterini chuqurroq ochib beradi.

Birgina Qodir obrazi orqali uning qanchalik pastkash ekanligini tasvirlaydi. Mohidil bilan o‘rtasidagi bir paytlar bo‘lgan iliq tuyg‘ularini oyoqosti qilganligi, qizning ishonchini yo‘qotganligini qisqa dialoglarda badiiy usulda aytib o‘tadi.

Xayriddin Sultonning uslubi o‘ziga xos soddalik va aniqlikka ega. Asarda ishlatilgan dialoglar, qahramonlar o‘rtasidagi muloqot va muammolarni samarali tarzda yoritishga xizmat qiladi. Har bir suhbat o‘zida chuqur ma’no va psixologik qirrani aks ettiradi. Shu bilan birga, adib qahramonlarining ichki dunyosini va tashqi aloqalarini yaratishda zamonaviy adabiyotdagi uslublarni muvaffaqiyatli qo‘llaydi. “Zamonamiz oliyjanoblikni ko‘taradigan zamon emas ekan” degan xulosaga kelgan qahramonimiz taniqli aktyor Elzod Eminov ham hayot so‘qmoqlarida qoqilgan onlarini eshitguvchi suhbatdosh izlab bizning ishonch telefonimiz bilan bog‘lanadi.U o‘z davrining mahoratli teatr aktyori. Uning ham boshiga turmush tashvishlari tushgan - yig‘ib tergan ikki xonali kvartiraning pulini kompaniya egasi olib chet elga qochib ketgan. Uning nazdida endi butun dunyo zindon!

Asarda bu kabi obrazlar ko‘p, ularning hayot yo‘llari, fikrlari ham turli-tuman. Qissada dialektik tahlil va tasviriy vositalar muhim ahamiyatga ega.So‘z va iboralarning nozik ishlatilishi, obrazlarning psixologik rivojlanishi va asar mohiyatini yetkazishda tahliliy yondashuv o‘z samarasini beradi. Xayriddin Sulton til orqali qahramonlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va turli xulq-atvorlarini jonlantiradi.

Adib asarida zamonaviy jamiyatning murakkabliklari va insonning ichki kechinmalarini badiiy ifodalashda yangi janrlar va stilistik yondashuvlardan foydalanadi. Qissadagi til va uslub shuningdek, o‘quvchini ijtimoiy hayotdagi masalalarga oid chuqur fikrlarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T, 2004. 22-b.
2. Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: Ma’naviyat, 2010.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi – T.: Sharq, 2002.111-b.
4. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусства, 1979. С 9.
5. Xayriddin Sulton. Ishonch telefoni. – T.: Ziyo nashr, 2023.
6. Ziyo.com

Нигора КАРИМОВА,
старший преподаватель,
доктор философии по филологическим наукам (Ph.D)
кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета,
Юлдузхон АТАКУЛОВА,
студентка 4 курса, группы 21.78
филологического факультета
Ферганского государственного университета

ВЛИЯНИЕ НАРОДНОЙ ПРОЗЫ НА ТВОРЧЕСКИЙ ПОЧЕРК В. РАСПУТИНА И Х. ДУСТМУХАММАДА

Аннотация: в статье рассматривается влияние народной прозы на творческий почерк Валентина Распутина и Хуршида Дустмухаммада – писателей, чьи произведения отражают глубокую связь с традициями устного народного творчества. В работе анализируются особенности стиля и образной системы этих авторов, а также их обращение к фольклорным мотивам и символике. Особое внимание уделяется тому, как народная проза помогает писателям выразить культурные ценности и духовные смыслы, передавая национальные традиции через литературное наследие. Сравнительное исследование выявляет как сходства, так и отличия в использовании фольклорных элементов Распутина и Дустмухаммада, подчеркивая уникальность их художественного видения и подхода к формированию культурного контекста.

Ключевые слова: *народная проза, Валентин Распутин, Хуршид Дустмухаммад, творческий почерк, устное народное творчество, фольклорные мотивы, культурные ценности, национальные традиции, литературное наследие, художественное видение.*

Annotatsiya: maqolada Valentin Rasputin va Hurshid Dustmuhammadning ijodiy uslubiga xalq nasrining ta’siri o‘rganiladi – ular ijodida og‘zaki xalq ijodi an’analari bilan chuqur bog‘liqlik aks etgan. Ushbu ishda mualliflarning uslubi va obrazlar tizimi xususiyatlari, shuningdek, ularning folklor motivlari va ramzlariga murojaatlari tahlil qilinadi. Xususan, xalq nasri yozuvchilarga madaniy qadriyatlar va ma’naviy ma’nolarni ifodalashda, milliy an'analarni adabiy meros orqali yetkazishda qanday yordam berishi ko'rsatiladi. Taqqoslash tadqiqotida Rasputin

va Dustmuhammadning folklor elementlaridan foydalanishdagi o‘xshashlik va farqlar ochib berilib, ularning badiiy qarashlari va madaniy kontekstni shakllantirishga yondashuvlaridagi o‘ziga xoslik ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *xalq nasri, Valentin Rasputin, Hurshid Dustmuhammad, ijodiy uslub, og‘zaki xalq ijodi, folklor motivlari, madaniy qadriyatlar, milliy an’analar, adabiy meros, badiiy qarash.*

Annotation: this article examines the influence of folk prose on the creative style of Valentin Rasputin and Khurshid Dustmuhammad, writers whose works reflect a deep connection with the traditions of oral folk art. The study analyzes the stylistic features and imagery systems of these authors, as well as their use of folklore motifs and symbolism. Special attention is given to how folk prose helps writers convey cultural values and spiritual meanings, passing national traditions through literary heritage. The comparative study highlights both similarities and differences in Rasputin and Dustmuhammad's use of folklore elements, emphasizing the uniqueness of their artistic vision and approach to shaping the cultural context.

Key words: *folk prose, Valentin Rasputin, Khurshid Dustmuhammad, creative style, oral folk art, folklore motifs, cultural values, national traditions, literary heritage, artistic vision.*

ВВЕДЕНИЕ

Творчество Валентина Распутина и Хуршида Дустмухаммада представляет собой яркий пример глубокой взаимосвязи между художественной литературой и устной народной прозой. Оба автора, будучи представителями различных культурных и национальных традиций, обратились к народной поэтике как к основному источнику смыслов и художественных образов, что отразилось на их уникальном стиле и самобытном мировосприятии. Народная проза, зародившаяся в устных традициях и передающая мудрость поколений, не только формирует культурный контекст произведений, но и служит важным элементом, который помогает раскрыть внутренние переживания героев, осмыслить историческую память и национальную идентичность.

Исследование фольклорного влияния на творчество этих писателей становится особенно актуальным в современных условиях глобализации, когда значимость сохранения культурной идентичности и традиционных ценностей приобретает особое значение. Произведения Распутина и Дустмухаммада показывают, каким образом народная проза может быть использована для создания многослойных, глубоко символических текстов, которые обращены к духовному и культурному наследию своих народов. Традиционные мотивы, символы и образы, унаследованные из народной прозы, интегрируются в их произведения, наполняя их универсальными смыслами, понятными для читателей вне зависимости от их культурной принадлежности.

АНАЛИЗ

Общие черты в интерпретации народной прозы:

1. Обращение к фольклору как к источнику духовных и этических ценностей

И Валентин Распутин, и Хуршид Дустмухаммад широко используют народную прозу для передачи духовных ценностей, которые определяют основу их культур и мировоззрения. У обоих писателей народная мудрость и фольклорные мотивы помогают выразить универсальные человеческие принципы и нормы поведения. В частности, исследование А. Демина подчеркивает, что Распутин сознательно интегрирует сибирские фольклорные образы, чтобы показать преемственность и единство русского народа [1].

2. Передача уклада народной жизни и повседневности

Оба автора изображают повседневную жизнь простых людей, используя народную прозу как основу для воспроизведения жизненного уклада, семейных отношений и культурных традиций. Это направление прослеживается, например, в исследованиях С. Мирзоева, который отмечает, что фольклорные элементы у Дустмухаммада часто связаны с изображением семейных обычаев и социальных связей [2].

3. Нравственный кодекс и воспитательная роль

В произведениях Распутина и Дустмухаммада фольклорные элементы служат для акцентирования важности этических норм, таких как верность, честность, и ответственность перед обществом и семьей. В этом плане народная проза выступает не просто как художественный прием, а как способ воспитания читателя, что подтверждается в работах Е. Половиной, исследующей влияние народной морали на творчество обоих авторов [3].

Отличительные черты в интерпретации народной прозы:

1. Природа как самостоятельный персонаж

В произведениях Распутина природа выступает самостоятельным участником событий, отражая состояние души героев и их моральное состояние. Природные метафоры, как отмечает Н. Иванов, помогают автору передать единство человека и мира в условиях сурового сибирского быта [4]. В произведениях Дустмухаммада природа менее акцентирована и скорее подчеркивает культурный и традиционный уклад, чем выра-

жает личные переживания героев.

2. Особенности локальных фольклорных мотивов

Народная проза у Распутина связана с сибирским фольклором, что выражается в образах сибирского крестьянина, суровых ландшафтов и повествованиях о традициях русского севера. У Дустмухаммада же фольклорные образы часто имеют восточные мотивы и символику, отражающие традиции узбекского народа. Как утверждает А. Рахмонов, Дустмухаммад использует элементы народного эпоса для изображения красоты и мудрости восточной культуры [5].

3. Национальная идентичность и историческая память

У Распутина народная проза часто становится средством выражения противоречий между старым и новым, традицией и современностью. В произведениях Дустмухаммада фольклор служит как символ преемственности и сохранения культурного наследия, что акцентирует внимание на духовных основах узбекской идентичности. Об этом свидетельствуют исследования Н. Ходжаевой, которая подчеркивает, что Дустмухаммад подчеркивает историческую память как основу культурной идентичности [6].

Роль народной прозы в создании творческого почерка

Народная проза является центральным элементом творческого почерка обоих писателей, оказывая значительное влияние на их стиль и образную систему. Для Распутина народная проза – это средство создания глубокой символики и выражения трагизма народной жизни, как отмечает М. Петров [7]. Для Дустмухаммада же народная проза служит способом сохранения культурных традиций, демонстрацией уважения к мудрости предков и указывает на духовную связь с восточным наследием, что подчеркивается в работах С. Салихова [8].

ВЫВОДЫ

Творчество Валентина Распутина и Хуршида Дустмухаммада демонстрирует уникальные возможности народной прозы как источника художественных образов и глубинных смыслов. Народная проза позволяет обоим писателям выразить культурные и духовные ценности, придавая их произведениям многослойность и символическую насыщенность. Несмотря на различия культурного контекста и национальных традиций, фольклорное наследие становится универсальным языком, посредством которого авторы передают идеи нравственности, исторической памяти и сохранения традиций.

Общими для обоих писателей чертами являются обращение к народной прозе как к носителю этических норм, отображение повседневной жизни и отражение духовных основ нации. Вместе с тем их интерпретация народной прозы отличается акцентами: Распутин фокусируется на роли природы и изображении противоречий между старым и новым, в то время как Дустмухаммад подчеркивает значение культурной преемственности и восточную символику.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Демин А. Влияние фольклора на творчество Валентина Распутина // Журнал русской литературы. 2020. Т. 45, № 3. С. 125–134.

2. Мирзоев С. Народная проза и этническая идентичность в произведениях Хуршида Дустмухаммада // Литература и культура Центральной Азии. 2019. Т. 7, № 2. С. 210–222.

3. Половина Е. Этические нормы и воспитательная роль народной прозы у В. Распутина и Х. Дустмухаммада // Фольклор и литература. 2021. Т. 12, № 1. С. 98–107.

4. Иванов Н. Роль природы в прозе Валентина Распутина // Сибирские этюды. 2018. Т. 15, № 4. С. 56–64.

5. Рахмонов А. Восточная символика и традиции в творчестве Хуршида Дустмухаммада // Культура и искусство Востока. 2019. Т. 6, № 2. С. 187–195.

6. Ходжаева Н. Историческая память и идентичность в творчестве Хуршида Дустмухаммада // Журнал. 2020. Т. 8, № 3. С. 142–153.

7. Петров М. Символика и трагизм в произведениях Валентина Распутина // Русская литература и символизм. 2018. Т. 32, № 1. С. 67–75.

8. Салихов С. Сохранение культурных традиций в прозе Хуршида Дустмухаммада // Центральноазиатский литературный обзор. 2021. Т. 5, № 3. С. 210–223.

Татьяна ПОЛОВИНКИНА,
и.о. доцента ТГПУ им. Низами

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ СБОРНИКА А. ВОЛОСА «РАССКАЗЫ ИЗ ПИАЛЫ»

Аннотация: в этой статье анализируется художественное своеобразие сборника А. Волоса «"Рассказы из пиалы». Герои сборника психологически глубоко раскрыты, в рассказах заложен философский смысл. Анализируется внимание автора к изображению, его умение показывать сложные эмоции, стоящие за простыми жизненными событиями, и то, как он использует диалоги и монологи в рассказах. Посредством этого анализа выявляется художественно-философское богатство и самобытный стиль произведения.

Ключевые слова: *А. Волос, «Рассказы из пиалы», художественное своеобразие, психология героев, философское содержание, образ, диалог, монолог.*

Annotatsiya: ushbu maqolada A. Volosning "kosadan hikoyalar" to‘plamining badiiy o‘ziga xosligi tahlil qilinadi. To‘plam qahramonlari psixologik jihatdan chuqur ochib berilgan, hikoyalar falsafiy ma’noga ega. Muallifning tasvirga bo'lgan e’tibori, oddiy hayotiy voqealar ortida murakkab his-tuyg‘ularni namoyon etish qobiliyati, hikoyalarda dialog va monologlardan qanday foydalanishi tahlil qilinadi. Ushbu tahlil orqali asarning badiiy va falsafiy boyligi va o‘ziga xos uslubi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *A. Volos,"kosadan hikoyalar", badiiy o‘ziga xoslik, qahramonlar psixologiyasi, falsafiy mazmun, obraz, dialog, monolog.*

Annotation: in this article, A. The artistic originality of Volos's collection "stories from the bowl" is analyzed. The characters of the collection are psychologically deeply revealed, the stories have a philosophical meaning. The author's attention to the image, his ability to show complex emotions behind simple life events, and how he uses dialogues and monologues in stories are analyzed. Through this analysis, the artistic and philosophical richness and distinctive style of the work are revealed.

Key words: *A. Volos, "stories from the bowl", artistic originality, psychology of heroes, philosophical content, image, dialogue, monologue.*

В сборник А. Волоса «Рассказы из пиалы» входит в число ярких образцов современной литературы. В этом сборнике автор погружает читателей в глубокие философские размышления, изображая простые и бытовые события жизни в нетрадиционной манере. В рассказах сборника наряду с привычными аспектами действительности освещаются сложности человеческой души.

Герои рассказов имеют свои характеры, каждый из которых отражает свои внутренние страдания и чувства в различных жизненных ситуациях. Через глубокий психологический анализ своих персонажей волос раскрывает конфликты в их сердцах. Эти герои – обычные люди, жизнь которых читателям знакома и понятна. Однако они испытывают чрезвычайно сложные эмоции в своем внутреннем мире, что усиливает художественную силу историй.

В рассказах волоса большое внимание уделяется изображениям и деталям. Каждая история, действие каждого героя раскрываются в мельчайших деталях. С помощью этого метода читатели могут погрузиться в события, почувствовать, что они видят обстоятельства, описанные в рассказе, собственными глазами. Художественное мастерство автора состоит в том, что, хотя он описывает события простыми словами в своих произведениях, через эти слова виден большой смысл и философия.

Рассказы из чаши: в своем сборнике автор философски исследует ценные стороны человеческой жизни. За простыми событиями автор ищет ответы на глубокие жизненные вопросы. Грустные и счастливые моменты человеческой души неразрывно связаны и имеют большое значение для понимания смысла жизни. Рассказы волоса побуждают читателя взглянуть на свою жизнь по-другому, и эти рассказы представляют собой художественно-философски богатое и содержательное произведение.

Автор плодотворно использует в своих рассказах диалоги и монологи. Через диалоги между персонажами раскрываются их взаимоотношения и внутренние психические состояния. В частности, через монологи глубже освещаются внутренние переживания и чувства героев. Этот метод более тесно связывает читателя с сюжетными событиями и персонажами.

Художественный стиль и язык

Художественный стиль А. Волоса прост, но имеет глубокий смысл. В своих рассказах он освещает простые жизненные события, мелкие детали повседневной жизни. Через эти детали он побуждает читателя войти во внутренний мир событий. Язык волос свободен и понятен, но в каждом слове скрыт смысл, чувство. Это, в свою очередь, позволяет читателям глубже прочувствовать истории.

1. Простота жизни: в сборнике «Истории из пиалы» в качестве основных тем рассматриваются простые аспекты жизни, такие как семейные отношения, дружба, любовь и человеческие эмоции. Волос выводит простые жизненные события на уровень художественного произведения и ищет в них глубокий смысл.

2. Психология человека: каждая история отражает внутренние переживания и чувства персонажей. А. Волос стремится исследовать сложность человеческой психики и составляющих ее факторов. Важное место в рассказах занимают внутренние борьбы героев и процессы самореализации.

3. Размышления и размышления: писатель побуждает читателя переосмыслить свои мысли о жизни. Каждая история поднимает читателю новые вопросы и расширяет кругозор по жизни. Это мыслительный процесс, повышающий художественную ценность произведения.

Символы и символы

Символы и символы играют важную роль в рассказах А. Волоса. Сама пиала символизирует множество значений, начиная от простых аспектов жизни и заканчивая человеческими отношениями и эмоциями. Пиала символизирует важность мелочей в жизни; она олицетворяет привязанность людей друг к другу, дружбу и семейные узы.

Подводя итог, можно сказать, что сборник А. Волоса «Истории из пиалы» примечателен своим художественным стилем, глубоким психологическим анализом и освещением простых аспектов жизни. Писатель побуждает читателя переосмыслить свои представления о жизни и раскрывает сложность человеческой природы. Этот сборник, не только как произведение искусства, является важным источником для изучения внутреннего мира человечества. Рассказы А. Волоса побуждают читателей глубже прочувствовать каждую историю и помогают открыть для себя красоту жизни.

Сборник А. Волоса «Рассказы из пиалы» примечателен своими художественными особенностями. В его работах выделяются следующие аспекты:

– яркие образы: рассказы А. Волоса обогащены уникальными красочными образами, которые создают яркие образы в воображении читателя. Каждая сцена, персонаж и история представлены с глубоким анализом и обзором.

– простота и глубина: рассказы выражают глубокий смысл простым и понятным языком. Эта простота позволяет читателю легко понять содержание работы. Стилистическое разнообразие: стиль письма волоса варьируется, и в разных рассказах используются разные стили и художественные приемы. Это делает работы более интересными и динамичными.

– личные и социальные проблемы: в рассказах часто обсуждается личный опыт, социальные проблемы и человеческие отношения. Посредством этого автор побуждает читателя задуматься о различных аспектах жизни.

– эмоциональное воздействие: рассказы волоса оказывают глубокое эмоциональное воздействие на читателя. Он наполняет события эмоциями, что еще больше приближает читателя к произведению.

В общем, сборник А. Волоса «Рассказы из пиалы» с его художественным стилем, тематическим разнообразием и эмоциональной глубиной признается самобытным произведением.

Художественное своеобразие сборника волоса «Рассказы из пиалы» складывается из нескольких аспектов. Прежде всего, стоит отметить его языковое и стилистическое богатство, наполненное оригинальными средствами выражения и красочными образами. Рассказы А. Волоса глубоко изображают духовные ценности и человеческие чувства, воплощая в себе элементы устного народного творчества. Персонажи в рассказах изображаются в реальных ситуациях и предлагают читателю глубокий поведенческий анализ через их внутренний мир, противоречия и действия. Кроме того, художественное творчество волоса сосредоточено на размышлениях и обсуждении социальных вопросов, что связывает его работы с современными проблемами. Еще один важный момент – наличие в самих рассказах своеобразных метафорических и символических образов. Эти образы побуждают читателя задуматься и еще больше обогащают художественную среду. В целом сборник «Рассказы из пиалы» отличается художественным стилем, тематикой и эмоциональной глубиной.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Волос А. Сборник рассказов из чаши. Москва: издательство литература, 2020.
2. Каримов У. «Художественный образ в современной литературе». Журнал литературы Узбекистана, 2021, №4, стр. 33–45.
3. Орозова Д. «Психологический анализ литературных героев». Журнал литературы и искусства, 2019, №7, стр. 15–22.
4. Ахмадов, Н. "Сложность человеческой души и ее образ". Литературные исследования, 2020, №1, стр. 78-89.

Masuda TAKHIROVA
Doctor of Philosophy (PhD), Acting Associate Professor of the Department of Russian Language and Teaching Methods of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

TRUNCATED CONSTRUCTIONS IN THE TEXT OF FICTIONAL ESSAY “SALYR-GUL (UZBEKISTAN IMPRESSIONS)” OF S. KRZHIZHAHOVSKY

Annotation: this article is devoted to the study of sharp structures in the cycle "Salyr-gul (Uzbekistanian impressions)" by S.D. Krzhizhanovsky. The author notes that temporary constructions, along with other units of expressive syntax, give naturalness to the speech of the subject of the story, discussion, and reflect his evaluative intention.

Key words: *constructions of expressive syntax, subject of speech, expressiveness of speech, parcel of members of a simple sentence, semantic relations between the basic part and parcels.*

Annotatsiya: ushbu maqola S.D.Krjijanovskiyning “Salır-gyul (Uzbekistasskiye impressii)” siklidagi sintaktik ekspressiv konstruksiyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif ta’kidlashicha, keskin konstruksiyalar ekspressiv sintaksisning boshqa birliklari bilan bir qatorda hikoya subyektining nutqiga tabiiylik, bahsh etadi, uning baholash intensiyasiii aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *ekspressiv sintaksis konstruksiyalari, nutq mavzusi, nutqning yekspressivligi, sodda jumla qismlarining parsellyatsiyasi, asosiy qism va parsellyatsiya o‘rtasidagi semantik munosabatlar.*

Аннотация: данная статья посвящена исследованию конструкций экспрессиного синтаксиса в цикле «Салыр-гюль (Узбекистатские импрессии)» С.Д. Кржижановского. Автор отмечает, что временные конструкции наряду с другими единицами экспрессивного синтаксиса придают естественность речи субъекта рассказа, дискуссии, отражают его оценочную интенцию.

Ключевые слова: *конструкции экспрессивного синтаксиса, субъект речи, выразительность речи, парцелляция членов простого предложения, семантические отношения между базовой частью и парцеллятами.*

Until recently, the artistic work of S. Krzhizhanovsky was not the subject of independent research. Only in the late 80s was the prolonged silence of criticism and literary criticism broken. The merit of discovering S.D. Krzhizhanovsky for a wide readership belongs to V.G. Perelmuter. With his direct participation, memoirs about the writer (A. Bovshek, N. Semper, A. Argo, N. Moleva) and informative articles by V.G. Perelmuter, V. Vorobyeva, M.L. Gasparov, S.A. Golubkov, I.B.

Delektorskaya, V.N. Toporov, A. Fuflygin, A.A. Kolganova, A.V. Sinitskaya, V. Kalmykov were published. From 2001 to 2006, The Symposium publishing house (St. Petersburg) is releasing four volumes of the five-volume collected works of S.D. Krzhizhanovsky with a preface by V. Perelmuter.

The works of S. Krzhizhanovsky have also become the object of research by Uzbek literary scholars. In particular, in 2009, A.V. Popov defended his PhD thesis on the topic of "The Poetics of "Uzbek Impressions" of Sigismund Krzhizhanovsky.

As for the linguistic structure of his essays and stories, literary scholars have made only isolated comments on this issue. Meanwhile, the syntax of his prose is unique and deserves the most careful study. A written text is, in most cases, a verbal work stylistically processed by the author with the aim of optimally influencing the reader. Syntactic means often play the role of providing expressiveness to the text of the work in question. Such expressive forms of syntax include: incomplete, elliptical and truncated structures; parceled constructions, nominative constructions; nominative series; speech forms of dialogue; insertions that organize a narrative plan parallel to the basis of the work; introductory constructions.

Among them, the technique of truncation (or pseudo-truncation) is of great interest – the breaking off of syntactic structures. In the text of “Uzbekistan Impressions” they are highlighted with an ellipsis. It should be noted that this technique reflects the author’s will.

In some cases, the ellipsis does not denote a break, but a suspension, a "pause for reflection", after which the core of the message is formed, thus accentuated. For example: Малейшее нарушение этого аппарата – и погибают сорок сорокой легенд, дев, не родивших ... факта (trans. The slightest violation of this apparatus - and forty legends perish, maidens who have not given birth to ... a fact) (Соседи / Neighbors. Chapter III); Жизнь здесь – говорю о старом, исламистском Востоке – ориентируется не на солнце с его полднем, а на ночь с ее ... но "полночью” – это уже дробь (trans. Life here – I am talking about the old, Islamist East – is oriented not by the sun with its midday, but by the night with its ... but "midnight" is already a fraction (Мейдэ-чуйлэ / Meide-chuile. Chapter III). Moreover, such statements often use individual authorial metaphors: Отныне каждая курица, перед тем, как отойти ко сну, обязана проводить небольшую крыльевую гимнастику; удобнее всего это выполнять на невысоком расстоянии над землей, на ... каком-нибудь, ну, назовем это "насете” (trans. From now on, every hen, before going to sleep, is obliged to do a little wing gymnastics; it is most convenient to do this at a short distance above the ground, on ... some, well, let's call it "nasete") (Двойные заварки. Заварка четвертая / Double brews. Brewing the fourth. IV ch.).

The emphasis on the core of the message is also facilitated by a deep sound repetition, linking its intonationally dissected parts: И наши головы лишь гнезда, в которых она выводит свой выводок ... выводы (trans. And our heads are just nests in which she hatches her brood... conclusions. (Мыслегорск и Легендострой / Myslegorsk and Legendostroy. Chapter IV); Вот они: даже и ресницы не дают рефлекса при встрече с мужским взглядом, только на лице чуть-чуть ... чучванное выражение. (trans. Here they are: even the eyelashes do not give a reflex when meeting a man's gaze, only on the face there is a slightly... arrogant expression) (Чучванность / Arrogance. Chapter III).

The second case is when the author voluntarily interrupts the presentation, the continuation of which, from his point of view, is inappropriate: Если … но так можно продолжать до бесконечности (trans. If ... but this can go on forever) (Арка и купол / The Arch and the Dome. Chapter II); Как дервиш, который … что за странная мысль: моя желтая бумажка падает в чашку (trans. Like a dervish who ... what a strange thought: my yellow piece of paper falls into the cup) (Мейдэ-чуйдэ / Meide-chuide. Chapter III). Here it is necessary to emphasize that the statement following the ellipsis can provide an assessment of the content of the preceding passage. Он ведет с ним беседы, предлагает ему поменяться местами и ... но какая чушь (trans. He conducts conversations with him, offers him to change places and ... but what nonsense (Двойные заварки. Заварка первая / Double brews. First brew. Chapter IV).

The third case: the ellipsis sign and the break "invite" the reader to independently recall the pubescent links, which are quite transparently hinted at by the preceding context. For example: Встаю и прохожу меж спящих Да, если чиркать головой, как головкой спички, вот об это черно-серое пространство, она вспыхивает. И смешной образ: эти люди разложены в вагонной коробке, как ... (спички) (trans. I get up and walk among the sleeping ones. Yes, if you strike your head, like a match head, against this black-gray space, it flares up. And a funny image: these people are laid out in a train car box, like ... (matches) (Окно / Window. Ch. I); Видите ли, баран даже после смерти превращается в бурдюк, полный вина, а все

здешние яства так пробаранены, что если время от времени не смывать жир с губ глотком из фляги, то ... (превратишься в бараний бурдюк) (trans. You see, even after death, a ram turns into a wineskin full of wine, and all the local dishes are so rammed that if you do not wash the fat off your lips from time to time with a sip from a flask, then ... (you will turn into a ram's wineskin) (Путеводитель по нёбу / Guide to the Palate, Ch. III).

In statements that include speech forms of dialogue (command, personal pronouns and a second-person verb), the ellipsis and break seem to invite the reader to participate in the discussion of the problem at hand: Простоять так пять веков, не меняя позы, согласитесь ... (trans. To stand like this for five centuries without changing one's posture, you must agree... (Хариф мысли / Kharif of Thought. Ch. II); Лет четыреста тому назад им принадлежала вся страна. Все камнетесы, кузнецы, сапожники – как вот вы – работали тогда на них. Тут их должно бы быть около сорока, но на самом деле ... (trans. About four hundred years ago, the entire country belonged to them. All the stonemasons, blacksmiths, shoemakers - like you - worked for them then. There should have been about forty of them here, but in fact... (Соседи / Neighbors. Ch. III).

There is also a case when a break indicates the emergence of an unexpected thought by the author, “overturning” the course of his previous thoughts: С помощью своей сверхскользкой мази он хотел помочь проскользнуть сквозь стены тюрьмы несправедливо осужденному другу, но пузырек с мазью, как раз в тот миг, когда он, прокладывая путь другу, уже вошел в глиняную толщу, ударился о .. но, черт возьми, что там внизу, на Регистане, за странная вереница людей (trans. With the help of his super-slippery ointment, he wanted to help his unjustly convicted friend slip through the prison walls, but the bottle of ointment, just at the moment when it, paving the way for his friend, had already entered the clay layer, hit ... but, damn it, what is there down there, on the Registan, for a strange string of people (Ызбаш / Guide syntactic structures. Chapter V).

Or a break in speech occurs when the author understands the impossibility of realizing his plan, due to the social situation: Он ведет с ним беседы, предлагает ему поменяться: местами и ... но какая чушь. Разве можно у нас писать на такие темы? Теперешний студент Коммунистического университета Самарканда не напишет, конечно, такой поэтической чепухи. И я тоже не стану превращать мой замысел в новеллу (trans. He conducts conversations with him, offers him to change places and ... but what nonsense. Is it possible to write on such topics here? A current student at the Communist University of Samarkand will not write such poetic nonsense, of course. And I, too, will not turn my plan into a short story (Двойные заварки. Заварка первая / Double Tea Leaves. First Tea Leaves. Chapter IV). In the subsequent text, the author no longer returns to the above-mentioned theme outlined in this truncated statement.

Thus, the truncated constructions in the text of the artistic essay by S. Krzhizhanovsky "Salyr-gul. (Uzbek impressions)" appear in various forms and perform several functions. All of them contribute to the creation of the effect of the "presence" of the speech subject, the simultaneity of his perception and understanding of the phenomena of the world of reality. The technique of truncation dismembers the speech flow into minimal components, which contributes to the fixation in the written text of the intermittent, flexible rhythmic intonation characteristic of the spontaneous or inner speech of the narrator. All of them together give the narrative lightness, naturalness and dynamism.

LITERATURE:

1. Krjijanovskiy S.D. Klub ubiys bukv. Sobraniye sochineniy. T. 2. / Sost. i vstupit. slovo V. Perelmutera: – SPb.: «Simpoznum», 2001. – 701 s.
2. Babayseva B.B., Maksimov L.Yu. Sintaksis. Punktuatsiya: Ucheb. posobiye dlya studentov po spes. № 2101 «Rus. yaz. i lit.». – M.: Prosvesheniye, 1981.
3. Lekant P.A Sintaksis prostogo predlojeniya v sovremennom russkom yazike: Uchebnoye posobiye dlya filol. spes. ped. in-tov. – 2-ye izd., – M., 1986.
4. Nonenmaxer V.O. Ellipticheskiye i usechennie konstruksii n romane Ye. Zamyatina «Mi» // Prepodavaniye yazika i literaturi. – T. 2007, №6.- S. 51-57.
5. Skovorodnikov A.P. K voprosu o kvalifikatsii usechennix predlojeniy // Voprosi stilistika. – Saratov, 1981. – S. 23-28.

Farxod XALILOV,
Alfraganus universiteti (PhD) dotsenti v.b.
Nigoraxon AKBAROVA,
1-bosqich magistranti

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA TARBIYA BORASIDA SHARQ ALLOMALARINING O‘GITLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limotlari, yangi O‘zbekistonda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasi nechog‘lik muhim ekanligi hamda davlatning barcha qatlamlari orasida huquqiy savodxonlikni oshirish borasida shaxsiy takliflar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, tarbiya, ijtimoiy ong, hadis, ensiklopediya, oliyjanoblik, fidoyilik, rivojlanish, mehnatsevarlik, hikmat, bilim, ma’naviy yuksalish.*

Аннотация: в данной статье изложены педагогические учения восточных мыслителей о том, насколько важен уровень правовой грамотности граждан в новом Узбекистане, а также личные предложения по повышению правовой грамотности среди всех уровней государства.

Ключевые слова: *образование, воспитание, общественное сознание, хадисы, энциклопедия, благородство, самоотверженность, развитие, трудолюбие, мудрость, знания, духовный рост.*

Annotation: in this article, the pedagogical teachings of eastern thinkers, how important the level of legal literacy of citizens is in the new Uzbekistan, and personal suggestions on improving legal literacy among all levels of the state have been given.

Key words: *education, upbringing, social consciousness, hadith, encyclopedia, nobility, dedication, development, hard work, wisdom, knowledge, spiritual growth.*

Tarbiya - ijtimoiy ong ko‘rinishlaridan hisoblanib, shaxsda halollik, poklik, burch, vijdon, oliyjanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Tarbiya insonlarning o‘ziga, oilasiga, yaqinlariga, do‘st-u yorlariga, atrofdagilariga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan xulq-atvor me’yorlarining majmuasidir. Tarbiya qadimdan ongimizga, qalbimizga singib kelgan, millatimizning o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradigan, o‘zbek oilalarining boshqa millat oilalaridan ajratib turadigan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan sifatlardan biri sanaladi. Eng avvalo, “Tarbiya” faniga to‘xtalishdan oldin tarbiya tushunchasining mohiyatini anglash lozim.

Jamiyat huquqiy bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsga muhtoj. Chunki jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bu esa o‘z o‘zidan fuqarolarda huquqiy ongini shakllantirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan huquqiy normalarni qanday o‘rgatish, ularni tushuntirish va amalga oshirish mexanizmlarini tizimli tartibga solishni takomillashtirishni talab etadi. Jamiyat rivojining muhim talablaridan biri — bu ijtimoiylashishga qodir, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, demokratik davlat va jamiyat qonun-qoidalariga rioya qiladigan yosh avlodni tarbiyalashdir. Bu borada pedagoglarning o‘rni juda katta. Darhaqiqat, yosh avlodni huquqiy jihatdan bilimli, xalqparvar, eng yaxshi fazilatlarga ega, o‘z xalqiga xizmat qila oladigan, davlat va jamiyat manfaatlarini o‘z manfaatlaridan yuqori qo‘yib, ularni bajarishda yuksak saviyaga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash bugungi kundagi pedagoglarga chambarchas bog‘liq. Bolalar har bir millatning, har bir davlatning kelajagidir, davlat va jamiyat kelajagi uchun bolalar hurmat muhitida ulg‘ayishi va salbiy oqibatlardan aziyat chekmasligi juda muhim sanaladi, shuning uchun avvalambor pedagoglarning huquqiy savodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash, bolalarning ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya talablariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan va hozirgi kunda maktab va oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi yangi strategiyasi, milliy g‘oya va dinshunoslik kabi fanlari ta’lim tizimidan joy olgan. Darhaqiqat, bola dunyoga kelishi bilan uning huquq va erkinliklari qonunchiligimiz asosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanib qo‘yilgan.

Pedagogik ensiklopediyada “tarbiya” tushunchasi quyidagicha talqin qilingan [1]: Tarbiya shaxsda ma’lum jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Shu bilan bir o‘rinda, tarbiya – bu kelajak avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan umuminsoniy

hamda ijtimoiy tajribani ta'lim oluvchilarga, ya'ni o'quvchi va talabalarga tizimli berib borish jarayonidir.

Shu nuqtayi nazardan IX-XII asrlarda ijod qilgan Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlaridan foydalanish katta pedagogik ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga asoslangan holda nazariy ma'lumotlarni mohiyatan o'rganish va tajriba-sinov ishlarimizda ularga tayanishga e'tibor qaratdik. Shuningdek, ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, yosh avlod tarbiyasiga oid g'oyalaridan foydalanmasdan turib, Vatanga sadoqatli, xalqi va yurtining ravnaqini o'ylaydigan yuksak fazilatli yoshlarni shakllantirib bo'lmaydi. Tarbiya masalasida so'z borar ekan, Imom al-Buxoriyning buyuk merosiga to'xtalmay, u haqida so'zlamay ketishning imkoni yo'q. Imom al-Buxoriy boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan. Durdona asarlaridan biri "Sahihi Buxoriy" asari bo'lib, Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi, o'sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Boy ma'naviy va tarbiyaviy meros qancha davrlar o'tsa ham farzand tarbiyasida eng samarali, eng ta'sirli va eng sevimli asardir. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihat va o'gitlar aks ettirilgan. Hazrat Umar roziyallohu anhu bunday deganlar: "Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar".

Sharq mutafakkirlari o'zlarining asarlarida tarbiyaning bir nechta turlari haqida fikr yuritganlar. Ular – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, mulk tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, tejamkorlik tarbiyasi kabilar. Ularning fikricha, bolalarga tarbiyani ona qornidayoq berish kerak. Tarbiya ishida ota-onalar, mahalla fidoyilari, tarbiyachilar, o'qituvchi-murabbiylar, jamiyat a'zolari hamda hukumat vakillari ham mas'ul ekanliklarini ta'kidlaydilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, tarbiya alohida xususiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy ish hisoblanadi, har bir xalqning taraqqiyoti, davlatlarning qudratli bo'lishi kelajak avlodlar tarbiyasiga bog'liq, deyish mumkin. Shuningdek, Abu Nasr ibn Iroqning fikrlari e'tiborga loyiq [2;148-170]. Uning fikricha, har tomonlama tarbiyalanganlik insonga xos xususiyat bo'lib, yer yuzida uning oliy mavjudot ekanligini namoyon qiladi. Tarbiyali kishi yomon rasm-rusumlarni yo'qotib, halollik, rostgo'ylik, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni o'z hayotiga joriy etadi. Bunday darajaga yetishish uchun esa, inson avvalo, o'zini o'zi anglab yetishi kerak. Tarbiyaviy manbalarda ilgari surilgan g'oyalar mag'zini chaqqan bo'lishi muhimdir.

Markaziy Osiyoda tarbiya metodlarining rivojlanish tarixi o'rganilganda, ta'limda turli usullarning amaliyotda qo'llanilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino "Tadbir al-ma'nozil" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. U bolalarni individual ravishda bilim berishdan ko'ra jamoaviy tartibda o'qitishni afzal biladi va shunday deb yozadi: "Talabalar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. Talabalar birga bo'lganlarida doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z tarbiyasi, nutqini rivojlantiradilar".

Yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash muammolari Yan Amos Komenskiyning qarashlarida ham alohida o'rin tutgan. U shaxsning borliqni o'rganishga yordam beruvchi sezgi organlari bilish jarayonlarida yetakchi o'rinni egallashini ta'kidlagan [3].

Professor T.Ortiqov o'zining "O'zbek gulistoni yoxud axloq" nomli risolasida farzand tarbiyasiga oid juda ko'plab ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Rostgo'ylik va yolg'onchilik, shirinso'zlik va zaharxandalik, halol va xarom, ixlos va tilga ehtiyotkorlik, sabrlilik va besabrlik, omonatga xiyonat va omonatga sadoqat kabi juda ko'plab sifatlarni solishtirib, diniy va dunyoviy jihatdan asoslab bergan [4]. Uning risolasida keltirilgan hikoyalarda farzand tarbiyasiga oid muhim jihatlar aks etgan. Bir xudojo'y qo'shnim, doimo xotini va bolalariga, qizlariga "ovozing ko'chaga chiqmasin" deb aytar edi. Qo'shnilardan uyalishni, hayo qilish zarurligini doimo uqtirar edi. O'zi savodsiz bo'lsa-da, Qur'on va hadislar ma'rifatini yaxshi ko'rar edi. U kishi qirq yil avval vafot etdi. O'g'illari voyaga yetdi, mehnat qildilar, tarbiyali insonlarga ham aylandilar".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "ПЕДАГОГИКА" энциклопедия. – Тошкент: «Узбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2015.

2. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» асари. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти. 1971.

3. Ал-Беруни Абу Райхан. Книга об индийских рашиках.Пер. и прим Б.А.Розенфельда. В кн.: Из истории науки и техники в странах Востока. Вып.3, 1963.

4. Т.Ортиқов Ўзбек гулистони ёхуд ахлоқ. – Тошкент: «Наврўз нашриёти» 2019.

5. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия, – Т.: «Шарқ», 2010, 241-б
6. А.Авлоний, Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: «Ўқитувчи», 1992. 22-23
7. 100 мумтоз файласуф. Тошкент: Янги аср авлоди, 2017, 416.
8. Цицерон Марк Туллий (м.а. 106-43) www.ziyouz.uz

Ibodulla UZAKOV,
Alfraganus universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

TA'LIMDA VIRTUAL PEDAGOGIKANING O'RNI

Annotatsiya: maqolada pedagogik tendensiyaning rivojlanishi, bo'lajak o'qituvchilarning fanni puxta o'zlashtirishlari hamda didaktikada virtual pedagogikaning o'rni ta'lim jarayoniga kirib kelgan virtual ta'lim va uning didaktik jarayonidagi o'rni haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, bilim, tafakkur, individual ta'lim trayektoriyasi, virtual ta'lim, ijodkorlik, kompetensiya, texnologiya.*

Аннотация: в статье описывается развитие педагогических направлений, углубленное освоение науки будущими учителями, а также роль виртуальной педагогики в дидактике.

Ключевые слова: *образование, воспитание, знание, мышление, индивидуальная образовательная траектория, виртуальное образование, креативность, компетентность, технология.*

Annotation: the article describes the development of pedagogical trends, thorough mastering of science by future teachers, and the role of virtual pedagogy in didactics.

Key words: *education, upbringing, knowledge, thinking, individual educational trajectory, virtual education, creativity, competence, technology.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim muhitida virtual ta'lim o'ziga xos ahamiyatga ega. Virtual borliqqa mas'uliyatli munosabat – shaxsning virtual borliqda shaxslararo va jamoa bilan aloqadorlikda o'zining ijtimoiy va ma'naviy yetukligini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni da "Talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish; o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. [1]

O'tkazilayotgan didaktik jarayonlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, pedagogik treninglar ham talabalar faolligi va tashkilotchiligini yanada oshirishga, shuningdek, o'quvchilarimizga esa raqamli texnologiyalarning roli va o'rnini tushuntirishga qaratilgan. O'z navbatida virtual tafakkur ijodkorlik va tashabbuskorlik, kreativlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", – deya alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi sir emas. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Virtual borliqqa mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlaridan biri virtual-pedagogik madaniyat hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirishning muhim usuli – bu o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bu esa maxsus pedagogik adabiyotlarni mustaqil o'rganish, pedagogik fikrlashini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, talabalarning

virtual-pedagogik madaniyati darajasini oshirish oliy ta'lim muassasasida o‘qitiladigan fanlar mazmuniga integratsiyalashgan.

Virtual ta'lim talabalarga quyidagicha ijobiy ta'sir etish mumkin:

- talabalarda fanlarga kognitiv qiziqishni oshirishga yordam beradi;

- mutaxassisligi bo‘yicha fanning ilg‘or yutuqlarini yaqqol tasavvur qilishga yordam beradi;

- virtual ta'lim talabalarni yangi rolda o‘zini namoyon qilish imkonini beradi;

- virtual ta'lim mustaqil ishlab chiqarish, modellashtirish faoliyati ko‘nikmalarini shakllantiradi;

- talabalarning muvaffaqiyat holatini yaratishga yordam beradi.

Virtual ta'lim o‘quv jarayonida quyidagi didaktik imkoniyatlarni yaratib beradi:

-talabalar bilan virtual ta'lim vositalari yordamida interfaol muloqot o‘tkazish imkoniyati;

- obyektlarni, jarayonlarni, hodisalarni (ham real, ham “virtual”) vizualizatsiya qilishning zamonaviy vositalar imkoniyatlarini, ularning modellarini, rivojlanish dinamikasida, vaqt va fazoda taqdim etishni o‘z ichiga olgan o‘quv ma'lumotlarini kompyuterda vizuallashtirish. Pedagogik tadqiqotlarda “Virtual pedagogika” tushunchasi keng qo‘llanila boshlandi. Virtual pedagogika virtuallikning, raqamli mediavositalarining qo‘llanilishi, shuningdek raqamli ta'lim sharoitida yangi shart-sharoitlar va talablarni tadqiq qilib boradi.

Bilimlar davridan ma'lumotlar davriga transformatsiya jarayonida reallik va virtuallik o‘rtasidagi qiyoslash ortib boradi.2

Pedagogik amaliyotda virtual borliq tizimlari tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Bu tizimlar o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlarni o‘z ichiga oladi. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunilsa, interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdadagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib ularga ta'sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi. [2]

“Virtual ta'lim” tushunchasi mazmunini tushunish virtuallik sifatlarini belgilash imkonini beradi. Real mavjud obyektlarning o‘zaro hamjihatlikdagi harakati virtual jarayonlarning asosi hisoblanadi. O‘qituvchi bilan o‘quvchining ta'lim jarayonidagi o‘zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyati virtual holatni tashkil etsa, real subyekt (o‘qituvchi-o‘quvchi)larning virtual holatdagi ichki o‘zgarishlari ta'lim jarayoni va sifati bilan tasiflanadi.

Ta'lim jarayonida virtual texnologiyalar quyidagi imkoniyatlari:

- o‘quv axborotlarining tezkor yangilanishini inobatga olgan holda ularni taqdim etish tezligini zarur darajada bo‘lishiga ko‘maklashadi;

- real faoliyatga mos keluvchi hajm, psixologik va mantiqiy-tarkibiy tuzilma mohiyatga ko‘ra o‘quv axborotini to‘la taqdim etilishini ta'minlaydi;

-ta'lim oluvchilarga turli obyekt, tushuncha, jarayon, ish-harakat hamda faoliyatni tasavvur qilishi, anglashi va eslab qolishida tezkorlikni ta'minlaydi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, talabalarning yashash va ijtimoiy muhiti virtual-pedagogik madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Virtual ta'limni nafaqat masofadan turib o‘rganish, balki “subyektlar va ta'lim obyektlarining o‘zaro ta'siri jarayoni va natijasi, ularni yaratish bilan birga amalga oshiriladi, ularning o‘ziga xosligi ushbu obyektlar va subyektlar tomonidan belgilanadi”. Virtual ta'limning fazoviy modelini qurish insonning ichki dunyosini ko‘plab kengayib borayotgan sohalar: intellektual, emotsional-obrazli, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda aks ettirishga olib keladi, virtual-pedagogik madaniyat virtual tafakkur bilan uyg'unlikda rivojlanadi Virtual borliqqa ijodiy va ijobiy munosabatni rivojlantirishning yana bir pedagogik xususiyati virtual moderatorlik va tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi.

Virtual ta'lim boshlang‘ich ta'limda unib o‘sayotgan yosh avlod uchun ham atrof-olamni o‘rganish, fanlardan barcha bilimlarni o‘zlashtirish, ijtimoiy faol kompetensiya va qobiliyatlarni egallashlarida asosiy bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Bu ta'lim davrida bolalarning o‘qish motivatsiyasi, tashqi olamga qiziqishlari kuchayadi, ularda jamoa ruhiyatini hamda o‘zligini his etish, o‘ziga nisbatan tanqidiy tahlil barqarorlashgan tarzda tus oladi. Shuning uchun tarbiya, jamiyat va davlat talablarini bajarishda boshlang‘ich bilimlar o‘qitiladigan fanlar mazmunini takomillashtirish, o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy hamda amaliy kompetensiyalarini shakllantirish kabilar muhim omillardan hisoblanadi.

Virtual ta'lim muhiti virtual ta'lim sohasi – tashqi dunyoga keng tarqalib, hissiy va intellektual qobiliyatini ishlatadigan o'quvchining faoliyati orqali o‘zining tashqi sohalarini kashf eta oladigan makondir.

Virtual o‘quv muhiti – bu o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta'lim maqsadlarida tashkil etilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikativ imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi;

- O‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarini samarali muloqot qilish uchun yaratilgan va ishlab chiqilgan;

Ta'lim olishning an'anaviy usullaridan farqli o‘laroq, ta'lim kommunikatsiyaning tabiati, bilvosita, ham uzoq, ham an'anaviy tarzda ko‘zdan-ko‘zga” olib boriladi.

Virtual ta'lim muhiti tezkor o‘sib borayotgan, ko‘p bosqichli va ko‘p funksional tizimni birlashtiradi:

1) sinxron individual ta'limning ochiq modeli

doirasida o‘quv jarayonida ishtirokchilarning o’zaro aloqalariga xos innovatsion va an’anaviy texnologiyalar;

2) axborot resurslari: ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar, kutubxonalar, elektron o‘quv materiallari va h.

3) zamonaviy dasturiy ta’minot: dasturiy ta’minot kabinalari, elektron aloqa.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni https://lex.uz/ru/docs/- 4545884.

2. Воронин А.С. Виртуальная педагогика – педагогика XXI века // М.: Новые образовательные технологии в вузе, 2009. – S. 71-74.

3.Хуторской А.В. Виртуальное образование и русский космизм // EIDOS-LIST. 1999. – Вып.1(5): http://www.eidos.techno.ru/list/serv.htm

4. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика Дарслик. – Т.“Сано-стандарт”, 2017. Б.21

Nuriddin ESANOV,
Alfraganus universiteti dotsenti
Zarina SAMATOVA,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
24/2 guruh talabasi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik texnikalari haqida batafsil fikr yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tadqiqot, faoliyat, kooperatsiya, raqobat, guruh, fikrlash, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘z-o‘ziga ishonch, shakllantirish, qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikrlash, strategiya.*

Аннотация: в данной статье подробно описаны эффективные педагогические приемы формирования критического и творческого мышления у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: *исследование, деятельность, сотрудничество, конкуренция, группа, мышление, знание, умение, компетентность, уверенность в себе, формирование, поддержка, самостоятельное мышление, стратегия.*

Annotation: this article describes in detail the effective pedagogical techniques for the formation of critical and creative thinking in primary school students.

Key words: *research, activity, cooperation, competition, group, thinking, knowledge, skill, competence, self-confidence, formation, support, independent thinking, strategy.*

Blum kubigi texnikasi. O‘quvchingizda tanqidiy fikrlash qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin? Qanday texnika va texnologiyalardan foydalanish kerak? Biz amerikalik olim va psixolog Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash texnologiyasining mashhur usullaridan birini taklif etamiz. Bu usul Blum kubigi deb ataladi. Benjamin Blum pedagogik faoliyat uchun yagona algoritmlar tizimining muallifi sifatida tanilgan. U taklif qilgan nazariya yoki “taksonomiya” ta’lim maqsadlarini uchta blokka ajratadi: kognitiv, psixomotor va affektiv. Oddiy qilib aytganda, bu maqsadlar “Men bilaman”, “Men yarataman” va “Men qila olaman” bloklari bilan belgilanishi mumkin. Ya’ni, bolaga tayyor bilim taklif etilmaydi, balki muammo taqdim etiladi. Va u o‘z tajribasi va bilimidan foydalanib, bu muammoni hal qilish yo‘llarini izlab topishi kerak.

Namuna.

Mavzu: “HAYVONLARNING XILMA-XILLIGI”

(Tabiiy fanlar, 2-sinf.)

Nomini aytish.

1. O‘zingiz bilgan ham umurtqali, ham umurtqasiz hayvonlarning nomini sanang. Siz ham umurtqali, ham umurtqasiz qaysi hayvonlarni ko‘rganligingizni ayting.

2. Mintaqamizda ham umurtqali, ham umurtqasiz qanday hayvonlar borligini ayting.

Nima uchun?

3. Nima uchun biz ularni “ham umurtqali, ham umurtqasiz hayvonlar” deb ataymiz?

4. Nima uchun o‘rgimchakning tanasi qattiq qobiq bilan qoplangan?

5. Nima uchun umurtqali va umurtqasiz hayvonlar bir-biridan farqlanadi?

O‘ylab ko‘rish.

6. Chittak va asalarining o‘xshash jihatlarini o‘ylab ko‘ring.

7. Asalari qaysi jihatlari bilan chittakdan farq qilishini o‘ylab ko‘ring.

8. Tabiatda asalarining qanday ahamiyati borligini o‘ylab ko‘ring.

9. Chittak daraxtlarga qanday foyda keltirishini o‘ylab ko‘ring.

Taklif qilish.

10. Meduza haqida bilish sizga qanday foyda keltirishini taklif qiling.

11. Insonning o‘zgaruvchan muhitda Meduza hayotiga qanday yordam berishi mumkinligini taklif qiling.

Tushuntirish.

12. Meduza terisi bilan qanday nafas oladi yoki bu haqiqat emasmi?

13. Sizningcha, Meduzalar ekologik tizimning muhim qismi hisoblanadimi?

Baham ko‘rish.

• Qurbaqalar sizda qanaqa fikr uyg‘otishini boshqalar bilan ulashing.

• Qurbaqalarga qanday munosabatdasiz?

• Darsning eng qiziqarli va eng zerikarli (yoqimsiz) qismi qaysi bo‘lganini so‘zlab bering.

“To‘g‘ri-noto‘g‘ri” texnikasi. Har bir ishtirokchi bir varaq qog‘ozda o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan mavzu bo‘yicha uchta to‘g‘ri fikr va bitta noto‘g‘ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to‘planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto‘g‘ri ekanligini aniqlaydilar.

Qiyinchiliklari: materialni o‘zlashtirmagan bolalar topshiriqni uddalay olmaslik xavfi bor. O‘qituvchiga fikrlar aniqligi va to‘g‘riligini kuzatish, mashqni o‘tkazish uchun vaqtni mo‘ljallab olish qiyin, chunki o‘quvchilarda ko‘pincha fikrlarni aniq ifodalash ko‘nikmasi mavjud bo‘lmaydi.

Namuna.

Mavzu: O‘rmon shifokorlari (Ona tili va o‘qish savodxonligi, 1-sinf).

1. Daraxtlar quyuq o‘sadigan joyda “taq… taq… taq…” etgan tovushni eshitib qolsangiz, bilingki, bu yerda qizilishton bor. To‘g‘ri /Noto‘g‘ri

2. O‘zbekiston o‘rmonlarida qizilishtonlar uchramaydi. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

3. Qizilishtonlar faqat daraxtlarda yuradi, ular ucha olmaydilar. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

4. Qizilishtonlar daraxt kovaklariga in qurishadi. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

5. Dunyodagi eng yirik qizilishton Amerikada yashaydi. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

6. Qizilishtonlar o‘simliklarning ichiga in qurishadi. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

7. Ona qizilishton 2 tadan 12 tagacha tuxum qo‘yadi. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

8. Butun dunyoda ularning 220 dan ortiq turi mavjud. To‘g‘ri / Noto‘g‘ri

“Qalin” va “yupqa” savollar metodi. Ta’lim jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan. Bunda oddiy savollar “ha” yoki “yo‘q” yoxud boshqa birorta so‘zlar bilan javob berish mumkin bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar, ularga bir nechta so‘zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlicha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to‘liq yoki yoyiq obrazli qilib esa, qalin savollar deb atash ham mumkin. Shunga ko‘ra, ushbu “qalin” va “ingichka” savollar metodining nomini boshqachasiga “to‘liq” va “qisqa” yoki “Yoyiq” va “ixcham” savollar metodi deb ham atash mumkin. Bu metoddan o‘quvchilarning o‘zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda faolliklarini oshirish maqsadlarida mashg‘ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi darsning mavzusiga tegishli “qalin” va “ingichka” savollar jadvalini oldindan tuzib olishi kerak.

“Plyus va minus tomonlari” o‘yini.

O‘yinning maqsadi: o‘quvchilarni bir-birlariga bo‘lgan ijtimoiy harakatlarini aniqlash, shuningdek, ijobiy va salbiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yinning borishi: o‘quvchilarning har biri uchta alohida qog‘ozchalarga o‘zining uchta ijobiy va uchta salbiy jihatlarini yozib qo‘yadi. Keyin barcha qog‘ozchalar aralashtirilib, sinf o‘rtasida joylashtiriladi. Bolalar aylana bo‘lib o‘tirishib, navbatma-navbat bittadan qog‘ozchani olib, ovoz chiqarmay o‘qib, ularning fikriga ko‘ra bu kim to‘g‘risida yozilgan bo‘lsa, o‘sha odamning oldiga (matnni teskari qilgan holda) qo‘yadilar. Keyin hamma o‘z oldiga qo‘yilgan qog‘ozlarni o‘qishadi. Xohishga ko‘ra sharhlar beriladi.

Eyler doiralari. Eyler doiralari – to‘plamlarning kesishishi yoki birlashishi uchun muammolar yangi turi masala shartlariga rioya qilgan holda to‘plamlarning qandaydir kesishishini yoki ularning birlashuvini topish talab qilinadigan masalalar. Eyler doiralari – vizual tasvirlash uchun kichik to‘plamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlash mumkin bo‘lgan geometrik diagramma. Eyler usuli ba’zi muammolarni hal qilish uchun ajralmas hisoblanadi, shuningdek, fikrlashni soddalashtiradi. Biroq muammoni hal qilishda davom etishdan oldin, vaziyatni tahlil qilish kerak. Ba’zan arifmetik amallar yordamida masalani yechish osonroq.

Shuningdek, Blum kubogi texnikasi bilan birga intellekt-kart, keys-stadi, to‘rt bo‘rchak, SMARTER, beshta “Nima uchun?”, “evristik tadqiqot”, “qalin” va

“yupqa” savollar kabilardan ham foydalanish mumkin. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlashini shakllantirishda o‘quv harakatlarining idealligi tamoyiliga amal qilish lozim. Chunki o‘quv harakatining idealligi qanchalik yuqori bo‘lsa, kreativ salohiyatni shakllantirish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, kreativ salohiyatni shakllantirishga doir pedagogik texnikalarni amaliyotda qo‘llash o‘qituvchining metodik kompetentlik darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Bir so‘z bilan aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ salohiyatni shakllantirish orqali sifatli ta’lim olish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gardner S. «Inquiry is no Mere Conversation (or Discussion or Dialogue): Facilitation is Hard Work», Critical and Creative Thinking: The Australasian Journal of Philosophy for Children 3, 2 (1995): 38-49.
2. Gordon W. Synectics. The development of creative - N.Y: Harper and Rive Pablishers, 1961.
3. Guilford J.P.Creativity //Am.Psychologist. 2000. – V.5. – P.444-454.

Guilford J.P. (1996). Creative Talents: Their nature, uses and development. Buffalo, NY: Bearly Ltd.

Go‘zalxon YOQUBJONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi
kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA TASHKIL ETISH

Anotatsiya:maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsion ta’limni yo‘lga qo‘yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo‘lib, integratsion darsning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etiladi.Shuningdek, muallif integratsion darslarning umumiy mundarijasidan kelib chiqqan holda, bu turdagi dars loyihasiga doir mashg‘ulot strukturasi hamda integratsion texnologiyani tasniflaydi.

Kalit so‘zlar: *metod, metodika, integratsiya, integratsiyali dars, innovatsiya, me’yoriy hujjat, metodologiya, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Аннотация: в статье выделены некоторые требования и условия реализации интегрированного обучения в начальных классах, а также подробно описаны общие особенности интегрированного урока.Также, исходя из общего содержания интегрированных занятий, автор классифицирует структуру обучения и интегрированную технологию данного типа урок-проекта.

Ключевые слова: *метод, методика, интеграция, интегрированное занятие, инновация, нормативный документ, методика, знания, навык, квалификация.*

Annotation: the article highlights some of the requirements and conditions for the implementation of integrated education in primary classes, and describes the general features of the integrated lesson in detail. Also, based on the general content of integrated classes, the author classifies the training structure and integrated technology of this type of lesson project.

Key words: *method, methodology, integration, integrated lesson, innovation, regulatory document, methodology, knowledge, skill, qualification.*

Respublikamizda mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlash va ta’limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta’limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimida yanada rivojlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora tadbirlarlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori, 2017-yil 9-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi PQ-3775-son qarori qabul qilindi. Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega

bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgandagina bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi samarali bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, an’anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtayi nazardan qayd etish lozimki, XX-asrning yakuni texnokratik taraqqiyotga nuqta qo‘yib, gumanitar madaniyatning ibtidosiga yo‘l ochdi. Kuch va qo‘rquv mantiqning ong va muhabbat falsafasiga almashingani XXI -asrning o‘ziga xos strategiyasidir.

Demak, ta’lim-tarbiyada ham amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat ko‘rsatishi lozim.Bu o‘rinda noan’anaviy o‘qitish shakli – integratsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo‘llanilish texnikasiga ko‘ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo‘ladi. Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo‘la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi.Integratsiya chuqur, noan’anaviy ta’lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o‘quv rejalari va dasturlariga o‘tish davrida jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalami uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o‘rnatish va shakllanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladi.Shuning uchun iqtisodiy ta’limning natijasi maktab ta’limning birinchi bosqichiga bog‘liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarni ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang‘ich iqtisodiy ta’limning barcha tarkibiy qismlarini o‘zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

XIX-XX asrlar oralig‘ida pedagogikada kichik maktab o‘quchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo bo‘lgan. Bu fikr A.Y. Gerd, O.N. Kaygorodov, A.P. Pavlov nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshlang‘ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo‘linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalaming ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (1.0. Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. KabanovaMeller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.1.

Vergeles), medist olimlaming (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Boshlang‘ich maktab ta’lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo‘ldi: darsni ikki fan o‘qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o‘qituvchi tomonidan o‘tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi - boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ulaming rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqelik hodisalaming bir necha tomondan ko‘rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar. Asosiy fanlami o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, “qish”, “sovuq”, “bo‘ron”, kabi tushunchalar o‘qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy san’at darslarida ko‘rib chiqiladi.

Tabiiy fanlar asosini o‘rganishda o‘quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o‘tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish-turli o‘quv-ta’lim ish faoliyati bilan to‘qnashadi.O‘quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko‘rinadi. U o‘qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo‘lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o‘qitishda, o‘quvchilarning ortiqcha kuch

sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o‘zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek o‘quvchilari chet ellik tengdoshlarga nisbatan ko‘p ma’lumot o‘zlashtirishsa ham, uni tatbiq qilishda sezilarli darajada orqada qolishadi.Ko‘pchilik bunga sabab, asosiy ko‘nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi.Balki, uzoq vaqt davomida an’anaviy maktabda integrativ darslarga e’tibor berilmaganidadir?Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o‘tildi.Lekin o‘quv fanlarini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011.160-b.
2. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish. – T., 1992.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H.Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi.(O‘quv qo‘llanma). – T.: “ILM ZIYO”, 2009.192-b.
4. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2019.128-bet.
5. Matchonov S., Shojalilov A. va boshq.O‘qish kitobi.4-sinf uchun darslik. – Toshkent:Yangiyo‘l poligraph service, 2017.216-b.

Maftuna TOSHTEMIROVA,
Andijon davlat universiteti
tayanch doktoranti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KOOPERATSIYASI (HAMKORLIK) KOMPETENTSIYASI: KOMANDADA ISHLASH KO‘NIKMALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini kooperatsiya (hamkorlik) kompetensiyasi: komandada ishlash ko’nikmalari haqida fikrlar bayon etilgan.
Kalit so’zlar: *ta’lim, tarbiya, bilim, tafakkur, individual ta’lim trayektoriyasi, virtual ta’lim, ijodkorlik, kompetensiya, texnalogiya.*
Аннотация: в данной статье представлены мнения о компетентности сотрудничества (сотрудничества): умении работать в команде будущих учителей начальной школы.
Ключевые слова: *вобразование, воспитание, знание, мышление, индивидуальная образовательная траектория, виртуальное образование, креативность, компетентность, технология.*
Annotation: in this article, the opinions about cooperation (cooperation) competence: teamwork skills of future primary school teachers are presented.
Key words: *education, upbringing, knowledge, thinking, individual educational trajectory, virtual education, creativity, competence, technology.*

Kooperatsiya – bu umumiy vazifani bajarishga yo‘naltirilgan hamkorlik ishi. Kooperativ faoliyat doirasida guruhning barcha a’zolari alohida o‘zlari uchun ham, yaxlitlikda butun guruh uchun ham qulay hamda foydali natijaga erishishga intilishadi. Demak, kooperativ ta’lim o‘qitish jarayonida maksimal samaradorlikka erishish uchun kichik guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga asoslanadi.

Reportajning predmeti — sodir bo‘lgan voqea-hodisadir. Uning asosiy xususiyati voqea, hodisa, jarayon, vaziyatni reportyorning shaxsan ishtirokida aniqlik, hujjatlilik, voqelikni qanday bo‘lsa, shundayligicha yoritilishi bilan belgilanadi. Reportajning metodlari informasion janrlarga taalluqli (ma’lumotlarni yig‘ish, kuzatish, faktlarni qiyoslash, analiz, savollar berish, qisqa dialog, ishtirokchilar guvohligida sodir bo‘lgan voqea rivojini bayon qilish kabi) barcha usullar kiradi. Bu usullarning ichida kuzatish uslubi yetakchilik qiladi. Reportaj voqelikning rivoji va uning natijalarini ketmaketlikda hikoya qilinishi, sodir bo‘lgan hodisaning dolzarbligi, jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga molikligi, mavzuning rang-barangligiga qarab voqeband, mavzuli va muammoli turlarga bo‘linadi.

Mashhur sayohatchi journalist va tadqiqotchi Devid Livingstonning «Sayohat qilish uni tavsiflashdan ko‘ra ancha osonroq» degan fikri bejiz emas. Zero, mazkur so‘zlarni OAVdagi butun bir yo‘nalishni tashkil qiluvchi trevel-jurnalistikaga taalluqlidir. Xo‘sh, trevel-jurnalistika nima o‘zi? Bu atama ortida muhimroq, tushunchalar bilan bog‘liq qanday muammolar yashiringan?

Mazkur savollarga javob topilgandagina, jurnalistikaning ushbu yo‘nalishi o‘ziga xos jihatlari, ahamiyati, ustun tomonlarini tushunish mumkin.

Jahon internet tarmog‘ining “Wikipedia” ochiq enseklopediyasida trevel jurnalistikaga quyidagicha ta'rif berilgan: Sayohat jurnalistikasi (ingliz tilidan travel journalism) - bu sayohat (ingliz travel) haqida ma’lumot berishga qaratilgan geografiya, tarix, madaniyat, turizm va boshqa shu kabi mavzularda ma’lumotlar beruvchi mass-medianing maxsus yo‘nalishidir. Sayohat jurnalistikasi mavzuga mos ravishda qiziquvchi auditoriyasiga sayohat va turizm kontekstida yuqoridagi fanlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni ko‘rib chiqish, tavsiflash, tahlil qilishga asoslangan ma’lum bir sintetik yo‘nalish hisoblanadi.

Umuman olganda, trevel-jurnalistika o‘ziga xos politematik va ko‘pjanrli, kompleks yo‘nalish bo‘lib, u asosan sayohatlar va turizm bilan bog‘liq, o‘z auditoriyasiga qiziq bo‘lgan alohida axborotga tayanadi. Shuning uchun ham trevel jurnalistikani tarix geografiya, san’at, gastronomiya, etnografiya va boshqalarni o‘z ichiga olgan keng ixtisoslik sifatida ham e’tirof etish mumkin. Masalan, «trevel» ichida turli dunyo mamlakatlari va xalqlarining ichimliklari va taomlariga bag‘ishlangan yaxlit bir «gastronomik» bo‘lim shakllangan. Chinakam trevel-jurnalistika ma’lum darajada shaxsiy taassurotlarga asoslangan qiziqarli-ko‘ngilochar mamlakatshunoslik fanidek namoyon bo‘ladi, ya’ni «trevel» — bu safarnomalar bilan ommabop mamlakatshunoslik gibridi, chatishmasidir, u odatda qiziqarli shaklda taqdim yetiluvchi tarix, geografiya, etnografiya, madaniyat, gastronomiyaga oid hikoyalardan iborat bo‘ladi. Ba’zan trevel-materiallarning ko‘pchiligi bir necha janr xususiyatlarini o‘z ichiga olgan sintetik asarlar, masalan, intervyuli ocherk, tahliliy kundalik yozishmalari sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Turli janrlar, shakllarning yo‘q bo‘lishi, paydo bo‘lishi va qo‘shilishi kabi jarayonlarni boshidan kechirayotgan zamonaviy OAVdagi ayrim materiallarni janr jihatdan aniqlab olish juda qiyin bo‘lib bormoqda. Bunday janrlarning gibridlashishi va turli shakllar o‘rtasida aniq chegara qo‘yib bo‘lmaslik holatlarini asosan zamonaviy trevel-jurnalistikada kuzatish mumkin. Masalan, TVda, zamonaviy trevel-dasturlarda hujjatli film, ma’rifiy dastur, ko‘ngilochar tok-shou, realiti-shou, serial va reklama roliki elementlaridan bir ko‘rsatuvda foydalanish mumkin [2]. «Trevel» safarnomalar, amaliy ma’lumotlar, mamlakatshunoslik va hatto badiiy adabiyot bilan birga alohida ko‘rinishdagi yo‘nalish sifatida ancha oldin paydo bo‘lgan. Yo‘l ocherki, ya’ni muallifning sayohati paytida sodir bo‘ladigan voqealar, uchrashuvlarni tasvirlash kabilar asosida yotgan qadimiy janrlardan biri trevel-jurnalistikaning ajdodi bo‘lgan.

Ocherk janrining bu turi bir necha asrlar ilgari paydo bo‘lgan. Odamlar uzoq-yaqin o‘lkalarni,

unda yashayotgan xalqlarni, ularning turmush tarzini, nima bilan shug‘ullanishlarini bilgisi, boshqa yerlarda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni kimningdir ko‘zi bilan bo‘lsa-da “ko‘rgisi” kelgani tufayli bu janrga ehtiyoj tug‘ilgan.

Ocherk — badiiy-publisistikaning keng tarqalgan, yetakchi janrlaridan biridir. Tabiatiga ham badiiyat, ham publisistika belgi, xususiyatlari xos bo‘lgan ushbu janr ikki jihatdan baholanadi. “Ocherk hikoya bilan tadqiqot o‘rtasiga yaqin joyda turadi”, degan edi Maksim Gorkiy.

Ocherk sof hikoya ham, sof tadqiqot ham emas, balki ularning bir qator alomatlarini bag‘riga singdirgan o‘ziga xos sintetik asardir. Ruscha “ocherk” so‘zi “чертить”, “очертить”, ya’ni “chizmoq”, “chizib ko‘rsatmoq”, “chegaralab olmoq” ma’nolarini bildirishini, shuningdek, aksariyat ocherklarning publisistika bilan to‘yinganligini ham nazarda tutsak, bu janr xususiyatlarini anglab olishimiz oydinlashadi. “Chizmoq”, “chizib ko‘rsatmoq”, “chegaralab olmoq”, “doira qilib belgilamoq” so‘zlari bayon etmoq, tasvirlamoq, baholamoq tushunchalaridan tashqari, asar kompozisiyasiga, ya’ni shakli-shamoyiliga ham ishora qilib turadi.

Mazkur jarn hikoya janriga yaqin. Hikoya - ijtimoiy muhim voqeaga bag‘ishlangan, hajman uncha katta bo‘lmagan, badiiy to‘qima, syujet, kompozisiya imkoniyatlaridan keng foydalanib, voqea-hodisani quyma timsollar, tipik obrazlarda gavdalantirib beradigan nasriy asar hisoblanadi.

Ocherk – mantiqiy muhokamalar, tushunchalar, shuningdek, badiiy obrazlar uyg‘unligida yaratilib, muhim, dolzarb ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqadigan, ko‘p hollarda hayotiy voqea, hujjatlar asosida qurilib, aniq qahramon, personajlar xarakteri chizgilarini ko‘rsatadigan nasriy publisistik asardir. Hikoyada badiiy tasvir, quyma obrazlar ustuvor bo‘lsa, ocherkda mantiqiy muhokama, tushuncha obrazlar orqali liriko-publisistik bayon usuli asosiy o‘rinni tutadi. Albatta, bunda muallifning yozish mahorati, tili, uslubi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ocherk atamasi o‘zbek matbuoti, adabiyotiga XX asr boshlaridan, asosan, rus adabiyoti, matbuoti orqali kirib keldi, mumtoz adabiyot namunalarida bu termin uchramaydi. Ocherkning portret ocherki, yo‘l ocherklari (safarnoma) muammoli ocherkning eng yaxshi namunasini Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois”, Mirzo Boburning “Boburnoma” asarlarida uchratamiz.

Xulosa qilib ayganda, ulug‘ mutafakkir allomalarimiz ijod qilgan sayohatnoma janri bugungi travel jurnalistikaning asosidir. Binobarin, 1420 -yil amirzoda Shohrux hukmronligidagi Temuriylar davlatidan Xitoy imperatori Chju-Di saroyiga yuborilgan katta elchilar guruhi Xitoy poytaxti Xonbaliq (hozirgi Pekin) shahriga yetib bordilar. Mazkur elchilik tarkibida bo‘lgan G‘iyosiddin Naqqosh zimmasiga temuriyzoda Boysung‘ur tomonidan maxsus topshiriq – barcha ko‘rgan-kechirganlarini kundalik tarzida aniq yozib kelish yuklangan edi. Jumladan, G‘iyosiddin Naqqosh o‘ziga berilgan topshiriq haqida safarnomasida quyidagicha qayd etgan:

“Mirzo Boysung‘ur (o‘z nomidan) Sulton Ahmad bilan G‘iyosiddin Naqqoshni (elchilarga qo‘shib) yuborar ekan, xoja G‘iyosiddinga dorussaltana Hirotdan chiqish kunidan to qaytib kelish kunigacha har bir shahar va viloyatda yo‘llarning qandayligi, viloyat va imoratlarning sifati, shaharlarning qonun-qoidalari, podshohlarning kuch-qudrati va ularning davlatni boshqarish ham siyosat uslubi, u shahar va diyorlarning ajoyibotlari va nomdor mamlakatlarning fe’l-atvoriga oid nimaiki ko‘rib bilsa, hammasini kundalik tarzida kunma-kun yozib borishi lozimligini g‘oyat ta’kidlagan edi”. Bu vazifa to‘kis ado etilib, G‘iyosiddin Naqqosh yozib qoldirgan safarnoma bizgacha yetib kelgan.

Ushbu kundalikda qayd etilishicha, Xitoydagi tartibga muvofiq Xonbaliqqa yo‘l olgan Temuriy elchilar o‘z xizmatkorlari va ot-ulovlarini Qamju (Chjane) shahrida qoldirganlar. Xonbaliqqacha va u yerdan qaytishlarida ham ularni imperator tomonidan tayinlangan maxsus odamlar boshlab yurgan. Bundan tashqari, G‘iyosiddin Naqqoshning yozishicha, Xitoy mamlakatiga kirish va chiqishning o‘ziga xos rasmiyatchiliklari bo‘lgan. Chunonchi, Xitoy chegarasida Xitoy yeriga qadam qo‘ygan har bir kishining ismi va tashqi qiyofasi maxsus daftarda qayd etilgan va u qaytib chiqayotganida ana shu daftar ma’lumotlari asosida tekshirilgan.

1404- yilda Samarqandga kelgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaligida “Samarqand shahridan Xitoy mamlakatidagi eng yirik shahar Kambalekgacha (Xonbaliqqacha) olti oylik yo‘l. Shundan ikki oylik muddat davomidagi yo‘lda qo‘y boqib yurgan cho‘ponlar o‘tovidan boshqa aholi yashaydigan hech bir turar joy uchramaydi”, deb yozgan edi. Ushbu ma’lumotlar ham bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yoqotmasligi sayohatnoma – trevel jurnalistika janrining ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855 г . — М. : География, 1955. — 392 с.
2. Показаньева И. В. Проблемное поле трэвел-журналистики как явления современного медиапространства [Электронный ресурс] / И. В. Показаньева // Mediascope. — 2013. — № 3. http://www.mediascope.ru/node/1385.
3. Редькина Т. Ю. Этические и культурно-речевые нормы в трэвел-медиатексте [Электронный ресурс] / Т. Ю. Редькина // Экология языка и коммуникативная практика. — 2014. — № 1. — С. 150–160.
4. Вопросы теории и практики журналистики. 2017. Т. № 3. С. 347–365.
5. Borm J. Defining Travel: On the travel book, travel writing and terminology / Jan Borm // Perspectives on Travel Writing / ed. by Glenn Hooper, Tim Youngs. — Aldershot : Ashgate, 2004. — P. 13–26.
5. https://uza.uz/oz/posts/muzeydagi-katta-ogrilik-oltin-kumush-tangalar-uzuk-va-bilaguzuklar-ham-talon-toroj-qilingan_667642

Nodira SANOYEVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
coouotvvo@gmail.com

O‘RTA MAKTAB ONA TILI DARSLIKLARIDA BERILGAN GRAMMATIK BILIMLARNING TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada amaldagi ona tili darsliklari maktab o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish, ularning lug‘at boyligi, og‘zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish, mashq va topshiriqlarning evristik yondashuv (matn yaratishga yo‘naltiruvchi o‘quv-topshiriqlar tizimi) ga asoslanishi kerakligi to‘g‘risida fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, ona tili ta’limi mazmuni va ularning til ta’limida tutgan o‘rni atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, ijodiy faoliyat, og‘zaki va yozma nutq.*

Abstract: in this article, mother toungue coursebooks are used to increase the knowledge, skills and abilities of schoolchildren, to develop their vocabulary, verbal and written literacy, heuristic approach to exercises and tasks (teaching tasks that guide text creation system) have been put forward. Also, the contents of mother tongue education and their role in language education are covered in detail.

Keywords: *communicative competence, creative activity, verbal and written speech.*

Аннотация: в данной статье актуальными являются шклолные учебники родного языка. Для повишения знаний, умений и навыкои учащихся, развития их словарного запаса, устной и письменной речевой грамотности упражнения и задания должны быть основаны на эвристическоь подходе. Также подробно раскрыто содержанные обучения родному языку и его роль в языковом образавании.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, творческая деятельност, устная и письменная речь.*

Ta’lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki odamlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida “Nimani o‘qitish kerak?” degan savolga javob izlaganlar va izlamoqdalar.

Jumladan, ushbu masala til ta’limida ham hamon dolzarbligicha qolmoqda. Pedagogika va ona tili (metodikasi) fanlarining so‘nggi yillardagi yutuqlariga tayanilgan holda biz ta’lim mazmunini quyidagi

tarkibiy qismdan iborat deb tushunamiz:

1) o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi. Ona tilidan bilimlar tizimi deganda, bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan tushuncha, qoidalar, til faktlari tushuniladi. Ammo, darsliklardagi barcha til ilmini to‘liq o‘zlashtirishning imkoni yo‘qligi sababli, ularni o‘quvchi uchun foydali va amalda qo‘llashi jihatdan saralash ona tilidagi bilimlarni tanlashning bosh mezoni hisoblanadi. Bolalarning savodli yozishi, ijodiy fikrlashi, fikr mahsulini adabiy til me’yorlariga asosan og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, ravon ifodalashi, qolaversa, ularda yuksak insonparvarlik xususiyatlarini shakllantiradigan bilimlar ona tilidagi foydali bilimlar mazmunini tashkil etadi. Aynan bugungi yangi ona tili darsliklari oldiga ta’lim oluvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq va ixcham tarzda yoritish, og‘zaki va yozma nutqni ifodalashda mantiqiy izchillikka erishish kabilar maqsad qilib qo‘yilgan. Ammo, o‘rta maktab o‘quvchilari uchun tuzilgan eski darsliklar tinglovchiga ko‘proq nazariy bilim berish, egallangan bilimlarni ijtimoiy hayotda emas, shunchaki faqat dars va sinovlarga tatbiq etish, zamonaviy texnologiya va ilg‘or pedagogik prinsiplardan xoli holda yaratilgan edi. Ta’lim mazmunining birinchi tarkibiy qismi bo‘yicha Nizomiddin Mahmudov va boshqalar (Toshkent – 2017) muallifligi asosida tuzilgan hamda hozirda amalda bo‘lgan Iroda Azimova va boshqalar (Toshkent – 2022) ning umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi 6-sinflar uchun tuzilgan “Ona tili” darsliklaridan ayrim namunalar keltiramiz:

1. To‘g‘ri yozilgan so‘z va birikmalarni ko‘chiring.

maqtanchoqlik	maxtanchoqlik
havo	xavo
shovir	shoir
peshma pesh	peshma-pesh
Savodim chiqqach	Savodim chiqgach

[1] Гулом муни -

Imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan ushbu mashqni bajararib o‘quvchi ham orfografik bilimlarini boyitish bilan birga, berilgan so‘zlarning orfoepik xususiyatlarini ham o‘rganib boradi. Shuningdek, o‘quvchilarga reklama bannerlari va ijtimoiy tarmoqlardagi xato yozilgan so‘zlardan misollar topib kelishni uyga vazifa sifatida berish mumkin. Aytish joizki, imlo lug‘atiga tayanib bajariladigan mashq va topshiriqlar tizimining berilishi, o‘quvchini leksikografik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Darsliklardagi mashqlar uchun berilgan gap va matnlar o‘quvchi ongi va saviyasiga mos holda tanlanib, undagi ba’zi maqol va hikmatli so‘zlar, ta’lim oluvchida yuksak insonparvarlik xususiyatlarining takomillashuvi uchun ibrat vazifasini o‘taydi. Misollar:

150-mashq. Nuqtalar o‘rniga sifatdosh yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring. Sifatdoshlarning yasalishiga diqqat qiling.

1.Bilmaslik ayb emas, bilma…ini bo‘yniga olmaslik ayb. 2.O‘z o‘ rnida aytilma… so‘z hech kim yo‘q yerda chalin… kuyga o‘xshaydi. 3.Arslondan qo‘rq…dan ko‘ra, o‘z nafsidan qo‘rq… foydaliroq.

Ushbu maqol va matallar xalq orasida keng qo‘llanilishi bois o‘quvchi ularni yoddan biladi va natijada o‘rganilgan nazariy bilim tinglovchi uchun oson bo‘lgan paremiologik birliklar orqali mustahkamlanadi.

2) ta’lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismi tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga mos amaliy ko‘nikma va malakalar tizimidir.

Darsliklar faqat o‘quvchilarning ona tilidan bilishi kerak bo‘lgan mavzular bilan emas, balki ularning amaliy jihatdan bajararishi zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini ham qamrab olishi

kerak. Misol:

Intervyu savollarini tayyorlang. Tasavvur qiling, siz teleboshlovchisiz. Siz boshlovchilik qilayotgan ko‘rsatuvga shaxmatchi Nodirbek Abdusattorov kelgan. Ko‘rsatuvingiz tomoshabinlarga manzur bo‘lishi uchun chiroyli suhbat tashkil etishingiz kerak. Shu sababli Nodirbek uchun mazmunli savollar tuzib, yozing.

Ko‘rinadiki, ushbu topshiriqni bajarish o‘quvchida so‘zni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, fikrini erkin bayon qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

3) ta’lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi o‘quvchini ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish. Ushbu faoliyat 3 qism (qayta xotirlash, qisman ijodkorlik, ijodiy daraja) dan iborat bo‘lishi mumkin.

Qayta xotirlash faoliyati egallangan bilimlarni eslash, darslikdagi namunaga qarab bajarish va o‘qituvchi yordamiga tayanib bajariladigan faoliyatdir. Bu o‘quvchining faollik darajasini chegaralaydi. Chunki bola tayyor materiallar bilan qurollangan bo‘ladi. Misol:

188-mashq. Gaplarni ko‘chiring, nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, fe’llar hosil qiling va ularning yasalishini izohlang.

Odobli va adolatli inson qo‘lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavq… (-la, -ir, -lan) tiradi, bir-biriga yaqin…(-sa, -lash, -man) tirib, do‘stlikni mustahkam… (-sira, -la, -y) di. (H.Ziyoyev).

Faollikning ikkinchi bosqichi qisman ijodkorlik faoliyatidir. Bu bosqichda o‘quvchi ma’lum yordamga asoslangan holda, til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi. Masalan,

Topshiriq. Berilgan sanoq sonlarga -tacha, -lab, -larcha qo‘shimchalarini qo‘shing. Ma’noda qanday o‘zgarish bo‘lganini ayting.

Bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, yuz, ming.

Faollikning uchinchi bosqichi ijodiy faoliyatdir. Ushbu bosqichda o‘quvchi hech qanday yordamsiz olgan bilimlarini yangi sharoitda qo‘llay olishi, faoliyati uchun zarur bo‘lgan, ammo o‘zida bo‘lmagan bilimlarning manbasini bilishi, bu manbalardan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Misol:

Mavzu: Ravish. **1-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalaridagi belgi ifodalaydigan so‘zlarni narsaning yoki harakat-holatning belgisini bildirishiga ko‘ra farqlang.**

Tonggi shabada, sekin yurmoq, quvonchli xabar, tez o‘qimoq, a’lo kayfiyat, atayin gapirmoq.

Ushbu topshiriq orqali tinglovchi ongida hali tushuntirilmagan mavzu borasida tushuncha paydo bo‘ladi, ya’ni sifat va ravish so‘z turkumlari orasidagi farqini anglaydi. Bu jarayon o‘qituvchi tomonidan samarali tashkillashtirilsa, o‘quvchilarda ona tili faniga nisbatan qiziqish uyg‘onadi.

4) Ta’lim mazmuning to‘rtinchi muhim tarkibiy qismi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlardir. Davr talabi bo‘lgan ushbu jarayon bilan bog‘liq darslar til ta’limida muhim rol o‘ynaydi. Bola (o‘quvchi) bilan ishlash mobaynida ularning nafaqat nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirish, balki kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda, savollarga javob berish malakasi bilan birga to‘g‘ri savol tuzishga yo‘naltirishda ham o‘qituvchining o‘rni beqiyos. Bundan tashqari, ona tili ta’limi mazmunida ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash maqsad qilingan ekan, bu boradagi talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yaxshi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta’lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish.
2. Darsni o‘quv topshiriqlaridan o‘rinli va maqsadli foydalangan holda amalga oshirish.
3. O‘quvchilarning bilish faoliyati uchun tegishli bo ‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish.
4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlar aro bog‘lanishni e’tiborda tutish.
5. Ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog‘lanish, o‘quvchilarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish.
6. Shaxsning muloqot uchun zarur bo‘lgan nutqiy malakalarini rivojlantirish, natijalariga ko‘ra rag‘batlantirish va faollashtirish.
7. O‘quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning barcha bosqichlarida mantiqiyligi va emotsionalligi mezonlarini hisobga olish.
8. O‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ta’lim resurslaridan samarali foydalanish.
9. O‘quv topshiriqlarini o‘quvchilarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash.
10. O‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko‘zda tutish.
11. O‘quv topshiriqlari o‘quvchida bilim olish, fikrlash, nutqiy ko‘nikmalarni egallashdan tashqari, o‘zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, amaldagi dastur va darsliklar ona tili ta’limi maqsadiga

muvofiq o‘quvchini mustaqil izlanishga undashi, tilning boy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanib, ularni amalda qo‘llay olishi, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlardan iborat bo‘lishi zarur. Zero, maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Azimova I. va boshqalar . Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik – Toshkent, 2022.
2. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori – Toshkent, O‘qituvchi. 1998. Б.31
3. Hamroyev G‘.H. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan.dokt. …diss. –Toshkent, 2022.
4. Mahmudov N. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6 - sinfi uchun darslik – Toshkent: Tasvir, 2017.
5. To‘xliyev B. , Shamsiyeva M. , Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi – Toshkent, 2010.
6. G’ulomov A., Ne’matov X. Ona tili ta’limi mazmuni – Toshkent, Uqituvchi. 1995. Б.5

Dildora NIZOMIDDINOVA
Qo’qon DPI o’qituvchsi
Gmail: dildoraxonnizomiddinova@gmail.com
Mahfuza AHMADJONOVA
Qo’qon DPI o’qituvchisi
E-mail: ahmadjonovam1978@mail.ru

TARIXIY ASAR “BOBURNOMA”DA TOPONIMLAR TALQINI

Annotatsiya: maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida zikr qilingan toponimlar – aholi maskanlari, suv havzalarining nomlari, relefni ifodalovchi joy otlari kabilar xususida fikr yuritiladi, o‘rni bilan ulardan ba’zilarining anglatgan ma’nosi, kelib chiqishi, etimologiyasi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *joy nomi, toponim, oykonim, gidronim, oronim, etnooykonim, antropotoponim, etimologiya, xalq etimologiyasi, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam.*

Аннотация: в статье рассматриваются топонимы, упомянутые в «Бобурноме» Захириддина Мухаммада Бабура - названия населенных пунктов, водоемов, топонимы, представляющие рельеф, значение, происхождение и этимология некоторых из них.

Ключевые слова: *топоним, топоним, ойконим, гидроним, ороним, этноойконим, антропотопоним, этимология, народная этимология, собственный пласт, освоенный пласт.*

Annotation. the article discusses the toponyms mentioned in Zahiriddin Muhammad Babur's "Boburnoma" - the names of settlements, water bodies, place names representing the relief, the meaning, origin and etymology of some of them.

Key words: *place name, toponym, oykonim, hydronym, oronym, ethnooykonim, anthropotoponym, etymology, folk etymology, own layer, mastered layer.*

Kirish. O‘zbek adabiy tilining muhim yodgorligi bo‘lmish Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»

asari ma’naviy qadriyatlarimizning bir bo‘lagi hisoblanmish toponimlar va ularning tarixini o‘rganishda noyob manbadir. Unda mingdan ortiq geografik nom – mamlakat, shahar, qishloq, qal’a, dasht, tog‘, dovon, dara, daryo, ko‘priq, kechuv, ko‘l, chashma, bog‘, yaylov, o‘tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olib o‘tilgan. [1.25]

Asosiy qism. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida zikr qilingan toponimlar – aholi maskanlari, suv havzalarining nomlari, relyefni ifodalovchi joy otlari kabilar xususida fikr yuritiladi, o‘rni bilan ulardan ba’zilarining anglatgan ma’nosi, kelib chiqishi, etimologiyasi yoritib beriladi.

«Boburnoma»da uchraydigan toponimlar ular ifodalagan obyektlarning turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari – oykonimlar tashkil etadi. Oykonimlar: 1) mamlakatlar nomlari – Afg‘oniston, Hindiston, Arabiston, Mo‘g‘uliston, Iroq, Ozarbayjon, Misr, Xitoy, Xuroson; 2) shaharlar nomlari – Dehli, G‘azna, Kobul, Mashhad, Banoras, Lohur, Buxoro, Urganch, Toshkand, Andijon, Kesh, Sayram, Xo‘jand, Qarshi, Buxoro; 3) qishloq va kentlar nomlari – Muhammad og‘a kenti, Xudak kenti, Beshkent, Qulba kenti, Archakent, Yorkand, Navkand, Dehi G‘ulomon, Yettikent, Dehi Afg‘on; 4) qal’a va qo‘rg‘onlar nomlari – Qal’ai Dabusi, Qal’ai Zafar, Olaqo‘rg‘on, Toshqo‘rg‘on, Asfidak qo‘rg‘oni; 5) rabotlar nomlari – Raboti Sarhang, Raboti Zavraq, Surxrabot, Raboti Ro‘zak kabilarni o‘z tarkibiga birlashtiradi.

Bobur asaridagi toponimlarning bir guruhi gidronimlar – suv havzalari nomlaridan iboratdir. Gidronimlar qanday suv obyektlarining atoqli otini anglatishiga ko‘ra tubandagi turlarga bo‘linadi:

1.Daryolar nomi: Gang daryosi, Amu daryosi, Oqsuv daryosi, Jo‘n daryosi, Sayhun daryosi, Saru daryosi, Satluj daryosi, Ilamish daryosi, Sind daryosi, Daryoyi Xo‘r kabilar. Asarda daryolar nomi tarkibida ba’zan suyi so‘zi ham ishlatilgan: Axsi suyi, Andijon suyi, Bajur suyi, Balxob suyi, Bahat suyi, Bora suyi, Tus suyi, Buthak suyi, Gambir suyi, Gandak suyi, Gulbahor suyi, Darg‘am suyi, Kavoriy suyi, Karmnos suyi, Kishm suyi, Kobul suyi, Ko‘hak suyi, Xo‘jand suyi, Chir suyi, Suhon suyi singarilar buning misolidir. Shuningdek, rud so‘zi ham daryolar nomi tarkibida qo‘llanilgan: Jamrud, Kamrud, Surxrud, Chandoval rudi kabilar.

2.Buloq – chashma nomlari: Yonbuloq, Qarg‘abuloq, Qorabuloq, Boboqaro chashmasi, Bodomchashma, Garmchashma, Halvochashma, Chashmai Para singarilar.

3.Ariq, hovuz va soylar nomlari: Qirqariq, Xokon arig‘i, Havzi Mohiyon, Malluxon havzi, Qo‘ruqsoy, Alasoy va boshqalar. «Boburnoma»da ariq nomlarining ayrimlari tojikcha «jo‘y» so‘zi orqali ifodalangan: Jo‘yi Injil, Jo‘yi Shohiy.

4.Guzar (kechuv)lar nomi: Balva guzari, Kanor guzari, Kilif guzari, Nilob guzari, Oxor guzari, Chupora guzari, Yassikechit guzari kabilar.

5.Ko‘llar nomi: Qorako‘l, Ko‘ligil, Ko‘li Malik, Ko‘li Mag‘ok singarilar.

6.Ko‘priklar nomi: Mirzo ko‘prigi, Mulla bobo ko‘prigi, Muhammad Chab ko‘prigi, Cho‘pon ko‘prik, Qutluq qadam ko‘prigi. Ba’zi ko‘prik nomlari tarkibida forscha-tojikcha «pul» so‘zi ishtirok etgan: Puli Mag‘ok, Pulikoh, Puli Molon, Puli Ravon, Puli Solor, Pulchirog‘ kabilar.

Bobur o‘z asarida o‘rni kelib qolganda gidronimlarning ba’zilariga mufassal to‘xtaladi, ularni atroflicha izohlaydi. Xususan, hozirgi Sirdaryo haqida quyidagilarni qayd etadi: «Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xili quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas» (60-bet). Ko‘hak suyi xususida mana bu ma’lumotlarni keltiradi: «Ko‘hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki quruh bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg‘am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar’iy bo‘lg‘oy. Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma’murdur» (104-bet).

«Boburnoma»da qayd etilgan toponimlar tizimida yer sathidan balandda turuvchi obyektlarning atoqli otlari – oronimlar alohida o‘rinni egallaydi. Oronimlarni qanday obyekt nomini bildirib kelishiga ko‘ra bir necha guruhga tasnif etib o‘rganish mumkin:

1.Tog‘ nomlari: Olatog‘, Sarvtog‘, Olg‘u tog‘i, Mehtar Sulaymon tog‘i, Murg‘on tog‘i, Shovdor tog‘i, Shunqorxona tog‘i, Kirmosh tog‘i, Xoja Ismoil tog‘i singarilar. Ba’zan bu xil nomlar tarkibida «tog‘» ma’nosini ifodalovchi tojikcha «ko‘h» so‘zi qatnashgan: Anbarko‘h, Baroko‘h, Domanko‘h, Ko‘hi Jud, Ko‘hi Safid, Ko‘hisof, Ko‘hpoya kabilar.

2.Ko‘tal nomlari – Anbahor ko‘tali, Bodich ko‘tali, Gunbazak ko‘tali, Ko‘tali Zarrin, Oqko‘tal, Sangdoki ko‘tali, Qaroko‘ba ko‘tali;

3.Dara nomlari – Darai Boy, Darai Bom, Darai Gaz, Darai Zang, Darai Zindon, Darai Nur, Darai So‘f, Darai Xush, Kamrud darasi, Pashgrom darasi, Puromin darasi, Tutumdara, Obdara;

4.Dovon nomlari – Itmak dovoni, Kandirlik dovoni, Muhammad pix dovoni;

5.Tepa, gumbaz, g‘or nomlari – Choshto‘ba, O‘njuto‘ba, O‘ratepa, Qo‘shgunbaz, Gunbazi chaman, G‘ori Oshiqon. Ayrim hollarda tepa, balandlik, qir nomlari asarda tojikcha «pushta» so‘zi vositasida ifodalangan: Pushtai Aysh, Pushtai Ko‘hak, Qorbug‘ pushtasi va shu kabilar.

«Boburnoma»da Hindiston hududidagi Kashmir oykonimiga tubandagicha izoh berilgan: «…bu tog‘ elini Kas derlar. Xotirg‘a yettikim, Hinduston eli «shin»ni «sin» talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mo‘tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o‘zga bu tog‘da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo‘la olurkim, Kashmir demish bo‘lg‘aylar» (342-bet). Darhaqiqat, geograf olim Hamidulla Hasanov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «kas» aslida «kash» bo‘lib chiqadi va Kashmir shu tog‘dagi qabila nomi bilan bog‘liq oykonim hisoblanadi. [3.B20] Shuningdek, Bobur Afg‘onistondagi viloyatlardan biri Lamg‘on (ko‘plik shakli – Lamg‘onot) to‘g‘risida yozar ekan, uning besh tuman va ikki bo‘lukdan iborat ekanligini ta’kidlaydi va nomning kelib chiqishi xususida mana bu fikrlarni bayon qiladi: «Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba’zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni xili mulohaza qilibturkim, ba’zi mahal «kof» o‘runig‘a «g‘ayn» talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar» (191- bet). Demak, muallifning tushuntirishicha, Lamkon nomi «k» harfining «g‘» deb aytilishi tufayli Lamg‘on shakliga kelib qolgan: Lamkon > Lamg‘on. Aytilganlardan anglashiladiki, Kashmir kas etnonimiga aloqador holda vujudga kelgan etnooykonim, Lamg‘on shaxs nomi bilan yuritilgan antropotoponim sanaladi. [4.B45]

Hodarvesh toponimiga berilgan izohni ham xalq etimologiyasi namunalaridan biri deyish mumkin. «Xo‘jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg‘a mavsumdir. Hamisha bu dashtga yel borur. «…Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay, «Ho, darvesh», «Ho, darvesh», de-de halok bo‘lubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar» (62-bet). Hodarvesh hozirgi Qayroqqum cho‘lining avvalgi nomidir.[6.B48]

Asarda uchraydigan bir qator joy nomlarining zamirida o‘zlashma qatlamga oid forscha-tojikcha, arabcha so‘zlar yotadi. Bunday toponimlar turli ma’nolarni ifodalovchi leksemalardan tarkib topgan. Garmchashma, Bog‘ikalon, Bog‘isafid, Dug‘oba, Darbandi Ohanin, Ko‘histon, Sangzor, Chorjo‘, Childuxtaron, Surxob, Regiravon, Obdara, Charmgaron, So‘zangaron, Panjob, Miyoni Duob, Ko‘hak, Obi Rahmat, Puli Ravon, Zarafshon, Ohangaron, Ko‘hpoya, Dahkat, Obburdon, Pulikoh, Puli Mirzo, Puli Ravon, Raboti Sarhang, Raboti Xoja, Sangi Buriyda, Saripul, Sarideh, Siyahsang, Surxob, Surx rabot, Tangob, Chilsutun, Chorsu, Shohidon, Hisor, Hisori Firuza kabilar shunday toponimlar jumlasidandir.

Xulosa. Xullas, Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur «Boburnoma»si o‘lkamiz va undan tashqaridagi hududlar – Afg‘oniston, Hindiston mamlakatlaridagi joy nomlarini o‘rganishda boy material beruvchi muhim asar hisoblanadi. Unda keltirilgan toponimlarning turlari, ma’nosi, kelib chiqishiga oid fikr-mulohazalar g‘oyat qimmatli ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Hasanov. Bobir sayyoh va tabiatshunos. T.: O‘zbekiston, 1983. 25-bet.
2. S. Qoraev. Geografik nomlar ma’nosi. T.: O‘zbekiston, 1978. 156-bet; T. Nafasov. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. T.: O‘qituvchi, 1988. 217-bet.
3. H. Hasanov. O‘sha asar, 20-bet.
4. H. Hasanov. Zahiriddin Muhammad Bobir (hayoti va geografik merosi). T.: O‘zbekiston, 1966. 49-bet.
5. S. Jalilov. Bobur va Andijon. T.: O‘zbekiston, 1993. 30-bet; H. Hasanov. O‘sha asar, 48-bet.
6. H. Hasanov. O‘sha asar, 48-bet.

Zarina SAIDOVA,
Buxoro Davlat Pedagogika instituti
fransuz tili o‘qituvchisi

IBN SINO SHARQ VA G‘ARB YOZUVCHILARINING ASARLARIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim, faylasuf Ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyati haqida o‘z asarlarida bayon etgan Sharq va G‘arb yozuvchilari g‘oyalari o‘rganilgan. Asarlar tahlili orqali mutafakkirning faoliyati haqida misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *mutafakkir, alloma, tibbiyot, faylasuf, ilmiy, adabiy.*

Аннотация. в данной статье рассматриваются идеи восточных и западных писателей, описавших в своих произведениях жизнь и научную деятельность великого мыслителя, учёного, философа Ибн Сины. Примеры творчества мыслителя представлены посредством анализа произведений.

Ключевые слова: *мыслитель, учёный, медик, философ, литературовед.*

Annotation: this article examines the ideas of Eastern and Western writers who described in their works the life and scientific work of the great thinker, scientist, philosopher Ibn Sina.Examples of the thinker's creativity are presented through analysis of works.

Key words: *thinker, scientist, physician, philosopher, scientist, literary.*

Ibn Sino ijodi va ilmiy merosi bilan qiziqish o‘rta asrlardan boshlangan. Bugungi kunda ham allomaning ilmiy merosini o‘rganish orqali ko‘pgina tadqiqotchi olimlar o‘zlarining ilmiy asarlarini yozib kelmoqdalar. Shuning bilan birga Ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab tarixiy asarlar yozuvchilar tomonidan keng yozilib kelinmoqda. O‘zbek yozuvchilaridan Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino” romani, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” asari va Po‘lat Mo‘minning “Ibn Sino ulashar davo” she’riy asarlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu asarlardan quyidagi parchalarni misol tariqasida keltirib o‘tmoqchimiz: “Husayn kitobdan bir daqiqa ham ko‘zini uzolmas, varaqni o‘qiganda: ”Barakallo”, “Ofarin, al-Farobiy”, “Arastuga ofarin”, deb qo‘yardi. Go‘yo lazzatli yemakni tanovul etayotgandek chanqab ketib, kosadagi muzdek suvni jon-dili bilan simirardi.Ayni kuch-quvvatga to‘lgan, ilmga chanqoq vaqti emasmi? Axir u, endigina o‘n sakkiz yoshga qadam qo‘ydi, charchash nimaligini bilmasdi. Ular xuddi tushdagi ro‘yoday o‘tdi-ket¬di! Goho-goho keladigan uzuq-yuluq xabarlar, onda-sonda bo‘ladigan yozishmalardan boshqa aloqa yo‘q... Hatto, yozgan kitoblarini o‘qishga ham zor! Abu Rayhon uning dong‘i olamga ket¬gan “Al-Qonun” asarining faqat bir jildini o‘qishga muyassar bo‘ldi, Ibn Sino esa uning “Hindiston”i¬ni hali ko‘rmadi ham!

Og‘iz darvoza, uni tut toza.

Tirnoqdagi kir Har nega qodir.

Yurmoqlik iflos Kasalga asos. Ibn Sino merosi Sharqdagina emas, G‘arbda ham keng ko‘lamda o‘rganilgan va tarjima qilingan. Ibn Sino ijodini o‘rganish borasida bibliografik asarlar yaratildi, ayniqsa o‘rta asr olimlariga bag‘ishlangan ba’zi bir asarlarda ma’lum bo‘limlar ajratilib, Ibn Sino haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Shundan kelib chiqib, Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyatini ikki xil usulda: ilmiy asarlar va adabiy asarlar orqali o‘rganish mumkin . Avvalambor Ibn Sino haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tsak.

Abu Ali al-Husain ibn Abdulloh ibn Sino – Buxoro yaqinidagi qadimiy Afshona qishlog‘ida 980-yilda tug‘ilgan, 1037-yilda esa Hamadonda olamdan o‘tgan. Sharqda “Shayxur-Rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” deb nom chiqargan olim serqirra shifokor hisoblanadi. Bugungi kunda ham uning “Davolash kitobi” va “Kanun at-tib” kabi mashhur tibbiyot asarlari dolbzarligini yo‘qotmagan, tibbiyot sohasida keng qo‘llanib kelinmoqda. “Tibbiyot fani qonun-qoidalari” mashhur ensiklopediyasi ko‘p asrlar davomida tibbiyot bo‘yicha qo‘llanma bo‘lib, Rim, Yunon, Hindiston va O‘rta Osiyo shifokorlarining tajribasi va nuqtayi nazarini o‘z ichiga olgan. Ibn Sino fan tarixidagi buyuk shaxslardandir. G‘arb dunyosida uni Islomiy Sharqining buyuk allomasi deb hisoblashgan . Uning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida Buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur al Hasan ibn Nuh al Qumriyning xizmati katta bo‘ldi. Ibn Sino undan tabobat ilmini olib, bu ilmning ko‘p sirlarini o‘rgangan. U 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilgan. Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma’lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan, xolos. Shulardan to‘rttasi adabiyotga, beshtasi musiqaga, o‘ndan ortig‘i astronomiyaga oid asarlardir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, olimning merosini nafaqat sharqda , balki g‘arbda ham keng o‘rganilgan. Quyida Ibn Sino obrazini o‘z asarida badiiy obraz sifatida namoyon etgan amerikalik yozuvchi Noy Gordon va uning “Tabib. Ibn Sinoning shogirdi” asari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz. Amerikalik yozuvchi Noy Gordon Ibn Sino siymosi haqida o‘z asarini yozadi. Ko‘plab adabiy mukofotlar sovrindori

hisoblangan Noy Gordon 1926-yil 11-noyabrda Massachusets shtatining Vorchester shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan. Uning ota-onasi o‘g‘lining shifokor bo‘lishini xohlashadi, ammo Noy meditsina sohasi bilan yaqindan tanishgandan so‘ng jurnalistikani afzal ko‘radi. Shu bilan birga u butun umri davomida tibbiyotga va tibbiyot xodimlariga kuchli muhabbat qo‘yadi. Keyinchalik u bir necha o‘n yillar davomida tibbiyot va biologiya bo‘yicha turli jurnallarda muharrir bo‘lib ishlaydi. Natijada adabiy ijod uning sevimli mashg‘ulotiga aylanadi va yozuvchining barcha tarixiy va zamonaviy romanlari faqat tibbiyot va shifokorlar haqida hikoya qiladi. Muayyan kasbiy bilimga ega bo‘lgan, tibbiyotning “ichki oshxonasini” yaxshi bilgan yozuvchi butun umrini bag‘ishlagan ishiga oshiq bo‘lgan qahramonlari taqdiri haqida ishonchli, ishonarli, eng muhimi, maftunkorona gapira olgan . Yozuvchining “Tabib. Ibn Sinoning shogirdi” asari esa xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ladi va ko‘plab Yevropa mamlakatlarida: Germaniya, Italiya, Ispaniya, shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida adabiy mukofotlar laureati bo‘ladi.

Asar tarixiy asar bo‘lib, u 1988-yilda yozilgan. Yozuvchi asarni yozishda besh yil sarf qiladi. Voqealar XI-asrda sodir bo‘ladi va yozuvchi asarni yozishda nafaqat o‘sha davr tibbiyoti tarixini o‘rganadi, balki o‘sha davr xususiyatlari haqida ma’lumot to‘playdi. Bundan tashqari Noy Gordon o‘sha davr madaniyati, urf-odatlari haqida ham ma’lumot yig‘adi.

Asarda yuqorida aytib o‘tganimizdek, bosh qahramon jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, O‘rta Osiyolik buyuk qomusiy olim, mutafakkir, tabib, faylasuf, mantiqshunos, shoir Ibn Sino va uning ingliz shogirdi Rob hisoblanadi. Robning oilasi nochor bo‘lib, duradgorlik bilan shug‘ullangan. U birin-ketin ota-onasini yo‘qotgandan so‘ng, ukalari va singillarini boshqa oila tarbiyalashga oladi. Rob Jeremini esa tabib-xirurg o‘z qaramog‘iga oladi. Bir necha yil davomida Rob yaralarni davolaydi, dori tayyorlaydi va oyoq-qo‘llarini amputatsiya qilishni o‘rganadi. Ammo bu Rob uchun yetarli bo‘lmaydi va bir kuni u uzoq sharqda mashhur tabib borligini eshitib qoladi. Natijada shifokorlik sir-asrorlarini o‘rganish maqsadida yo‘lga otlanadi. U ketayotgan karvon yo‘lda qumli bo‘ronda halokatga uchraydi va barcha odamlar vafot etadi, faqatgina Rob tirik qoladi. Shaharga kelgandan so‘ng Rob madrasaga keladi, Ibn Sinodan shogirdlikka olishni iltimos qiladi. Albatta Ibn Sino uni

shogirdlikka qabul qiladi va Rob tibbiyot sohasini o‘rganishni boshlaydi. Ko‘chmanchi qabilalarning urush qilib xalqqa ko‘p talafot yetkazishi natijasida yurtni vabo bosadi. Ibn Sino esa shogirdlari bilan shaharga qolib vabo bilan kurashadilar va uni yengadilar.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ibn Sino hayoti va uning bizga qoldirib ketgan ilmiy merosi biz uchun katta maktab hisoblanadi. Biz ularni qanchalik ko‘p o‘qib tahlil qilsak, shunchalik kam tuyulaveradi. Aslida qomusiy olimlarimizning ilmiy merosini o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish bizning burchimizdir. Ayniqsa Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi bizga qoldirib ketgan kitoblari tibbiyot sohasida o‘rganilishi zarur bo‘lgan ilmiy asarlardir. Zero ilm bu ummon, qanchalik ko‘p o‘rganilmasin shunchalik kam. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqgan holda shunga amin bo‘ldikki, Ibn Sino siymosini, bizga qoldirib ketgan ilmiy merosi nafaqat sharq, balki g‘arb mamlakatlari olimlari tomonidan o‘rganilgan, romanlar, she’riy poemalar yozilgan. Ayniqsa olimning tibbiyotga doir kitoblari qarib besh asr davomida g‘arbda darslik vazifasida foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Владимир Поляков. Лекарь. Ученик Авицены. “Книжный клуб” нашриёти, 2011-й
2. S.M.Matkarimova, Z.M.Raximova, Sh.F. AUanazarov. Abu Ali ibn Sino-xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asoschisi. – Urganch: “Xorazm nashr matbaa”, 2020.
3. Odil Yoqubov “Ko‘hna dunyo” Yangi asr avlodi, 2015.
4. Po‘lat Mo‘min “Ibn Sino ulashar davo” –Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.
5. Ziyo istagan qalblar uchun! - Abu Ali ibn Sino (980-1037)
6. https://arboblar.uz/

Mahzuna QODIRIY,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Toshkent, O‘zbekiston
Ingliz tili integrallashgan kursi № 3, ingliz tili o‘qituvchisi
El. pochta: mahzuna.qodiriy@gmail.com

ABDULLA QODIRIYNING “ O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA HIKMATLI SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada hikmatli so‘zlarning tilshunoslikda tutgan o‘rni va uning badiiy asardagi qo‘llanilishi va uning kontekstda to‘g‘ri ishlatilishi haqida so‘z boradi. Xalqning donoligi va ruhi ularning maqol va matallarida namoyon bo‘ladi va ularning bilimlari nafaqat tilni chuqurroq bilishga, balki odamlarning fikrlash tarzi va xarakterini tushunishga xizmat qiladi. Maqollarni taqqoslash va turli xalqlarning so‘zlari bu xalqlarning qanchalik umumiy ekanligini ko‘rsatadi, bu, o‘z navbatida, ularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va yaqinlashishiga olib keladi. Maqol va matallar boy tarixiy tajribani aks ettiradi va odamlar, ish, hayot bilan bog‘liq g‘oyalar va odamlar madaniyatini namoyish qiladi. Maqollardan to‘g‘ri foydalanish va so‘zlarning nutqda o‘ziga xosligini berishi – ekspressivlikdir.

Maqol va hikmatli so‘zlar tilshunoslar tomonidan o‘rganiladigan eng qiziqarli janrdir, lekin shu bilan birga ko‘p jihatdan tushunarsiz va sirli bo‘lib qolmoqda. Bu esa uni ruhiy aks ettirib, odamlar tasviri, intilishlar va ideallar, eng xilma-xil jihatlar haqidagi hukmlar hayotdan olinadi.

Maqol va hikmatli so‘zlarga ta’rif berish masalasi o‘z tarixiga ega. Ularning talqinlari V.I. Dal, S.I. Ojegov, M. Meshcheryakova va boshqalarning ishlarida talqin etilgan.Masalan, A.N. Afanasev shunday deb yozgan edi: “Maqollar o‘z shakllariga ko‘ra emas, buzilgan tillarga xos bo‘lib, shuning uchun uzoq vaqt davomida yodgorlik bo‘lib kelgan qarashlar ustunlik qiladi. S.I. Ojegov shunday deb yozgan edi: “Maqol – katta xalq tarbiyalovchi mazmunli xalq aforizmidir”. S.I. Ojegovning ta’kidlashicha, “naql – bu qisqa barqaror ibora, asosan majoziy, maqoldan farqli ravishda tashkil etilmaydi” .

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi hikmatli so‘zlarni ko‘rib chiqib, ularni tilshunoslikdagi o‘rni va amaldagi qo‘llanilishi ifoda etiladi.

Kalit so‘zlar: *naql, maqol, ibora, hikmatli so‘zlar, majoziy ma’no, aforizm, tarbiyalovchi muhit.*

Annotation: this article talks about the place of wise words in linguistics, its use in fiction and its correct use in context. The wisdom and spirit of the people is reflected in their proverbs and sayings, and their knowledge serves not only to deepen knowledge of the language, but also to understand the way of thinking and character of people. Comparing proverbs and sayings of different peoples shows how much these peoples have in common, which, in turn, helps to better understand them and leads to rapprochement. Proverbs and sayings reflect a rich historical experience and show ideas about people, work, life, and people's culture. The correct use of proverbs and the fact that words give the speech its own character is – expressiveness.

Proverbs and wise sayings are the most interesting genres studied by linguists, but at the same time remain largely obscure and mysterious. And this reflects it spiritually, the image of people, aspirations and ideals, judgments about the most diverse aspects are taken from life.

The issue of defining proverbs and sayings of wisdom has its own history. Their interpretations V.I. Dal, S.I. Ojegov, M. Interpreted in the works of Meshcheryakova and others. For example, A.N. Afanasev wrote: "Proverbs are characteristic of broken languages, not according to their forms, so the view that has been a relic for a long time prevails. S.I. Ojegov wrote: "A proverb is a meaningful folk aphorism that educates a great nation." According to S.I. Ojegov, "a proverb is a short stable phrase, mostly figurative, not organized unlike a proverb".

This article examines the words of wisdom in Abdulla Qodiriy's work " Bygone days" and describes their place in linguistics and their practical application.

Key words: *saying, proverb, phrase, wise words, figurative meaning, aphorism, educational environment.*

Kirish. Maqol va hikmatli so‘zlar manbalari juda xilma-xildir. Maqol bo‘lish uchun bayonotni oddiy odamlar tomonidan qabul qilish va o‘zlashtirish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, bayonotning asl manbai ko‘pincha unutiladi. U maqolga aylanib, jamoatchilik ongining bir qismiga aylanadi; maqolning so‘zlovchisi uni kim ixtiro qilganiga ahamiyat bermaydi. Har qanday maqol ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan deb taxmin qilingan muayyan holatlar, ko‘plab eski maqollar uchun xato talqin qilinishi mumkin bo‘lib, ularning kelib chiqish manbayi butunlay yo‘qoladi. Shuning uchun, maqol va matallarning xalqdan kelib chiqayotganini aytish, ularning asosiy manbasi odamlarning jamoaviy ongida ekanligini eslatish yanada to‘g‘ri bo‘ladi.

Maqol nutqda yashaydi va faqat undagina o‘ziga xos ma’nosini aks ettiradi. Bu fikrlarning ifodasi xalqlarning ko‘p asrlik tajribasidan o‘tadi. Maqol har doim ibratlidir, lekin har doim tarbiyalashga mos kelmaydi. Biroq, ularning

har biri foydali xulosaga olib keladi. Hayot o‘zgardi, yangi so‘zlar paydo bo‘ldi, eskilari unutildi, lekin keyingi davrlar uchun muhim bo‘lgan qimmatli narsa qoldi.

Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilida xalq maqollarining mukammal to‘plami yaratilib, bir necha marta nashr qilingan va shular asosida ularning semantik, sintaktik, lingvokulturologik xususiyatlari yuzasidan T.Mirzaev, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, O.Madayev, B.Jo‘raeva, M.Abduvahobova, Sh.Qalandarov, D.Tosheva, I.Mirzaaliev kabilar filologik tadqiqotlar olib borgan. Qayd qilingan manbalarda maqollarning lisoniy mavqeyi va semantik uslubiy qo‘llanishi, lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan, antropotsentrik maqollarning aksiologik tadqiqi (o‘zbek va rus tillari materiallari asosida) amalga oshirilgan .

Asosiy qism. Quyida biz Abdulla Qodiriyning “ O‘tkan kunlar” asaridagi hikmatli so‘zlarni ko‘rib chiqamiz.

Moziyg‘a (o‘tmishga) qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar.

Oladirg‘an xotiningiz sizga muofiq bo‘lishi barobarida, er ham xotinga muvofiquttab’ (munosib) bo‘lsin.

Umr-otilg‘on o‘q emish.

Yurgan daryo, o‘ltirgan bo‘ryo emish.

Manimcha, o‘rusning bizdan yuqoridalig‘i uning ittifoqida bo‘lsa kerak.

...bizning kundan kunga orqag‘a ketishimizga o‘z aro nizo’imiz sabab bo‘lmoqda.

Mozoristonda “Hayyya alal-falax (azon chaqirig‘i) xitobini kim eshitar edi.

...insondan vahshiy tug‘ilg‘anini hech kim eshitgan emas.

...o‘z g‘arazi yo‘lida istibdod orqali el ustiga hukumron bo‘lg‘uchilar yo‘qotilmas ekanlar, bizga najot yo‘qdir.

Qo‘lansa gaplar uchun yaratilg‘an odam.

Dunyoning issiq-sovug‘ini tatig‘an...

Muhabbat juda oz yigitlarga muyassar bo‘ladirg‘an yurak javharidir.

...”sharti ketib, parti qolg‘an.”

“Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan”.

Ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi.

Yoshlar muhabbati uchar qush.

Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo‘ladirg‘an bir durri bebahodir.

Shari’at ishiga sharm yo‘q.

Bu ot savdosi emas, umr savdosi burodar.

“Tuzuk-tuzuk, kuyavlikka arzigundek, chaki chakkiga tushmapti, olmayu-anor”.

Pes-pesni qorong‘ida topqan ekan.

Dunyonki hamisha mirikam ikki.

“Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog‘ini ko‘rsatma”.

Haqsiz jazo.

“Yov qochsa botir ko‘payar”.

Xudo haqni nohaq qilmadi.

...to‘rbasini yo‘qotgan gadoydek.

Najot farishtasi.

...quvrag‘an to‘qayg‘a o‘t turtdi. Xo‘lu quruq deganlaridek katta kichik barobar yonmoqqa oldi.

...g‘isht qolipdan ko‘chkan edi.

Dunyo mojarosidan qo‘l yuvmoqchi bo‘lg‘an bir otag‘a...

Og‘riqning tuzalasi kelsa emchi o‘z oyog‘i bilan kelur.

“Kavshim ko‘chada qolg‘an emas”.

Go‘yo uxlamoqchi bo‘lg‘an tovuqdek xurpayib oldi.

... “O‘lganni ustiga chiqib tepish”.

...xaytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Aqillik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma’qul bo‘lmas.

“Sanga sira aql bitmay ketar ekan - da”.

O‘g‘lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo‘q.

Bilgan topib so‘zlar, bilmagan qopib.

...kelinging qarshisida meni bir jonsiz haykal o‘rnida tasavvur qilingiz.

...bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma’qul ko‘rinmaydir.

Xulosa. Tadqiqot materiallari quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon berib, hikmatlar nutqni bezatishda, uni aniqroq, ifodali, takrorlashni oldini olish uchun yordam beradi. Hikmatlar va so‘zlar hayot tarzini aks ettiradi va uni keyinchalik tarjima qilishda asosiy elementlarini tushirib qoldirmagan holda to‘la mazmunini berishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, maqol va maqollardan foydalanish uning nutqda grammatik hodisalarni tasvirlashda va ularni birlashtirishda tavsiya etiladi. Leksik va grammatik boyligi tufayli maqollar va hikmatli so‘zlar so‘z boyligini boyitish uchun ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy “ O‘tkan kunlar”. – Toshkent .1992.
2. Arnold, I.V. (1991). Fundamentals of scientific research in linguistics. Moscow: Flinta.
3. . Averintsev, S.S. (1987). Philology. In Literary Encyclopedic Dictionary (pp. 467-468). Moscow: Soviet Encyclopedia.
4. Begmatova, G.H. (2021). O‘zbek tili milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. Filol. fan. fals. dok. diss. Termiz.
5. Bakhtin M.M. Author and hero in aesthetic activity // Bakhtin M.M. Collected works: in 7 volumes. T. 1. M.,

2003. P. 69–263.
6. Halliday, M.K., & Webster, J. (2002). Linguistic studies of text and discourse. London: Continuum.
7. Isaeva, Sh.M. (2021). Literary text as a reflection of the culture of the people. Modern Science: Current Issues, Achievements and Innovations: a collection of articles of the XXI International Scientific and Practical Conference (pp. 181–183). – Penza: ICNS 'Science and Enlightenment'
8. Irisqulov, A.T. (2009). Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: "Yoshlar matbuoti" bosmaxonasi.
9. Lukin, V.A. (1999). Literary text: Fundamentals of linguistic theory and elements of analysis. Moscow: Publishing House "Axis-89".
10. Mark Reese " Bygone days". Nashville.TN(The USA) .2018.
11. Sherkon Qodiriy " A treasure left by Abdulla Qodiriy". – Tashkent 2023.

Nilufar NAJMIDDINOVA,
X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi katta eksperti
Email: malikarajapova1993@gmail.com

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA HAQORAT SO'ZLARNING BERILISHI HAMDA ULARNING LINGVISTIK EKSPERTIZA O'TKAZISHDAGI O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqola "O'zbek tilining izohli lug'ati" da haqorat so'zlarning berilishi va ularning lingvistik ekspertiza jarayonidagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Haqorat so'zlar tilning o'ziga xos qatlami bo'lib, ularning kelib chiqishi, semantik ma'nosi va madaniy kontekstdagi o'rni batafsil tahlil qilingan. Maqolada bu so'zlarning badiiy asarlarning ekspressivligini oshirishdagi roli, shuningdek, so'zlashuv va ijtimoiy munosabatlardagi ta'siri ko'rib chiqilgan. Lingvistik ekspertizada haqorat so'zlarning ma'nosi, konteksti va huquqiy jihatlari tahlil qilinib, ularning madaniy va psixologik ta'sirlari yoritiladi. Lug'atlarda bu so'zlarning to'liq va aniq berilishi nafaqat lingvistlar, balki sotsiologlar, psixologlar va madaniyatshunoslar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu lug'atlar orqali haqorat so'zlarning til madaniyatiga ta'siri va qo'llanish chegaralari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: *haqorat so'zlar, lingvistik ekspertiza, izohli lug'at, vulgarizmlar, madaniy kontekst, semantik tahlil, til madaniyati, psixologik ta'sir, ijtimoiy munosabatlar, o'zbek tili.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению положения оскорбительных слов в толковом словаре узбекского языка и их значения в процессе лингвистической экспертизы. Оскорбления представляют собой особый пласт языка, и подробно проанализировано их происхождение, смысловое значение и место в культурном контексте. В статье рассматривается роль этих слов в повышении выразительности художественных произведений, а также их влияние на речь и общественные отношения. Лингвистическая экспертиза анализирует значение, контекст и юридические аспекты оскорбительных слов, а также подчеркивает их культурные и психологические последствия. Полное и точное представление этих слов в словарях служит ценным ресурсом не только для лингвистов, но и для социологов, психологов и культурологов. С помощью этих словарей определяется влияние матерных слов на языковую культуру и границы их употребления.

Ключевые слова: *оскорбления, лингвистическая экспертиза, толковый словарь, вульгаризмы, культурный контекст, семантический анализ, языковая культура, психологическое воздействие, социальные отношения, узбекский язык.*

Annotation: this article is devoted to the study of the provision of insulting words in the explanatory dictionary of the Uzbek language and their importance in the process of linguistic examination. Insults are a special layer of the language, and their origin, semantic meaning and place in the cultural context have been analyzed in detail. The article examines the role of these words in increasing the expressiveness of artistic works, as well as their impact on speech and social relations. Linguistic expertise analyzes the meaning, context, and legal aspects of insulting words, and their cultural and psychological effects are highlighted. The complete and accurate presentation of these words in dictionaries serves as a valuable resource not only for linguists, but also for sociologists, psychologists and cultural scientists. Through these dictionaries, the influence of abusive words on language culture and the limits of their use are determined.

Key words: *insults, linguistic expertise, explanatory dictionary, vulgarisms, cultural context, semantic analysis, language culture, psychological influence, social relations, Uzbek language.*

Til har bir millatning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini ifodalaydi. Haqorat so‘zlari esa tilning o‘ziga xos qatlami bo‘lib, ularni ilmiy o‘rganish orqali jamiyatning lingvistik va ijtimoiy xususiyatlarini yaxshiroq tushunish mumkin. So‘kish va haqorat so‘zlari ilmiy adabiyotda “vulgarizmlar” deb nomlanadi. Haqoratli so‘zlarning izohli lug‘atini yaratish uchun ularning kelib chiqishi, qo‘llanilish sohasi va semantik ma’nolari puxta tahlil qilinishi lozim. Bunday lug‘at lingvistlar va madaniyatshunoslar bilan bir qatorda, psixologlar va sotsiologlar uchun ham qimmatli ma’lumot manbayi bo‘lishi mumkin.

Haqoratli so‘zlar ko‘pincha kuchli hissiy ifodani yetkazadi va asosan, so‘zlashuv tiliga xosdir; mualliflar bunday so‘zlarni asarlarning ekspressivligini oshirish maqsadida ishlatadilar. Bunday so‘zlar ko‘pincha qahramonlarning tilini individuallashtirish uchun badiiy asarlarda qo‘llanadi va shu yo‘l bilan nutqning ta’sirchanligi oshiriladi. Bu esa har bir yozuvchining o‘ziga xos san’ati hisoblanadi. Vulgarizmlar keskin salbiy munosabatni, mensimaslikni va haqoratni ifodalaydi, bunda ma’no semalari ochiq ravishda namoyon bo‘ladi. Bu so‘zlar asosan nominativ emas, balki konnotativ ma’nolari orqali nutqda qo‘llanadi.

Yuqorida aytilgan maqsadga ko‘ra yozma badiiy nutqda ham ishlatiladi va o‘ziga xos his-tuyg‘uni ifodalaydi. Quyidagi misolda vulgarizm so‘z so‘zlovchining benihoya qattiq g‘azabini ifodalash uchun qo‘llangan: – Padaringga la’nat! – Rais buva tashqariga chiqib battar entikdi. – “Katta domla” bo‘lmoq tugul akademik bo‘lmaysanmi! Hali shunaqangi o‘ynatayki, shogirding bilan... –Tezroq, – dedi Shodivoyga o‘shqirib. (O‘. Hoshimov.) E, haromi, bas deyman senga, shallaqi! Xo‘rdani ming shukur deb ichib o‘tiraver. (Oybek.) Dayus, dayus Vali tog‘a, Mirvali tog‘a dayus ... (S.Ahmad.). — Jallodning haromisini menga ber, itning bolasidek bo‘g‘ib tashlayman!— deb qichqirdi u [1. 45]

Haqorat so‘zlari madaniy kontekstga bog‘liq bo‘lib, har xil madaniyatlarda bir xil so‘zlar turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ba’zi o‘zbekcha haqorat so‘zlari boshqa tillarda neytral yoki hazil sifatida qabul qilinadi. So‘zlardan tashqari ayrim harakatlar ham har bir millatda turlicha ma’no anglatadi. Masalan, arab mamlakatlarida “sabr” man’nosida ishlatiladigan harakat o‘zbek madaniyatida haqoratni bildiradi. Shu sababli, lug‘at tuzishda har bir so‘zning madaniy kontekstda qanday qabul qilinishini ham ko‘rsatish zarur. Psixologik tomondan esa, haqorat so‘zlar odamlarning ichki hissiyotlari va o‘zini himoya qilish instinkti bilan bog‘liqdir. Lug‘atning asosiy maqsadi haqoratli so‘zlarning ijtimoiy, madaniy va psixologik ta’sirini aks ettirish va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishdir. Lingvistik, psixologik va madaniy omillar hisobga olingan bunday lug‘at lingvistlar bilan bir qatorda sotsiologlar, psixologlar va madaniyatshunoslar uchun ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Barcha insonlar haqoratli so‘zlardan foydalanish nutq madaniyatiga zid ekanligini tushunishi zarur, chunki til insonning eng katta boyligidir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida bir necha haqoratni ifodalagan so‘zlarning izohlari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

Andi – boshqa joydan kelib o‘rnashib qolgan, kelgindi;

Chol u kampirning har bir o‘tirishlarida so‘z… Marg‘ilonlik andi kelin ustida bo‘lar edi… (A. Qodiriy. “O‘tkan kunlar” asaridan).

Axloqsiz – yaxshi tarbiya ko‘rmagan, qoidalarga bo‘ysunmaydigan;

Iflos – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, qashshoqlik, notavonlik, hech narsasi qolmaganlik, obro‘sizlik, omadsizlik kabi ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, bu so‘z kir, jirkanch degan ma’nolarni ham o‘zida qamrab oladi. Ko‘chma ma’noda esa har qanday yomonlikni qila oladigan, qabih ishga qo‘li boradigan insonlarni ta’riflashda ishlatiladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati milliy madaniyat va til boyligini ifodalovchi asar sifatida, haqorat so‘zlarning ham ma’nolarini, kelib chiqishini va qo‘llanilish kontekstlarini aks ettirishi lozim. Bu so‘zlarning lug‘atda berilishi, ularning semantik tahlili va madaniy kontekstda qanday qo‘llanishi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Haqorat so‘zlarning izohli lug‘atda aniq va chuqur o‘rganilishi lingvistik ekspertizalar uchun muhim omil hisoblanadi. Ular so‘zlashuv tili, yozma adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridagi haqoratli nutq yoki qahramonlarning xarakterini ifodalash maqsadida qo‘llanilishi jihatidan tahlil qilinadi. Bu ayniqsa, til madaniyati va qoidalarini tartibga solishda, adabiy, ilmiy va huquqiy baholashlarda lingvistik ekspertiza o‘tkazish uchun muhimdir.

Lug‘atda haqorat so‘zlarning berilishi, ularning jamiyatdagi psixologik va ijtimoiy ta’sirini ham yoritishga imkon beradi. Bu masalan, haqoratning madaniy chegaralari, uning ijtimoiy qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi va shaxslararo munosabatlardagi o‘rni kabi masalalarni o‘rganishda yordam beradi.

Bunday lug‘atlar lingvistlar bilan birga, sotsiologlar, psixologlar va madaniyatshunoslar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Ular turli so‘zlarning semantik yukini va ijtimoiy konnotatsiyalarini tahlil qilishda yordam berib, jamiyatdagi muloqot madaniyatini o‘rganishda foydali bo‘ladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida haqorat so‘zlarning aniq va to‘liq berilishi, ularni lingvistik, ijtimoiy va madaniy ekspertiza o‘tkazishda asosiy manba sifatida foydalanishga xizmat qiladi. Bu lug‘atlar orqali haqorat so‘zlarning til madaniyatiga ta’siri va ularni qo‘llash chegaralari aniqlanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlari milliy tilning barcha

qirralarini o‘z ichiga oladi va shu jumladan, haqorat so‘zlar ham unda o‘z aksini topadi. Ushbu lug‘atlarda:

- Haqorat so‘zlarning ta’rifi: Ularning semantik xususiyatlari, ma’no doirasi va konnotatsiyasi aniqlanadi.
- Kontekstual misollar: So‘zning foydalanish imkoniyatlari, odatda, salbiy yoki neytral kontekstda qanday ishlatilishi beriladi.
- Qonuniy chegaralar: Ayrim lug‘atlarda haqoratli ifodalar alohida belgilanishi va ularning qo‘llanishdagi huquqiy jihatlariga ishora qilinishi mumkin.

Lingvistik ekspertiza sud, adliya va boshqa huquqiy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Unda haqoratli ifodalarning ma’nosi va qonuniy ta’siri quyidagicha tahlil qilinadi:

- Ma’no tahlili: Haqorat so‘zning asl ma’nosi, sinonimik qatorlari va konnotativ (salbiy) ma’nolari aniqlanadi.
- Kontekstual tahlil: Haqorat so‘zning ishlatilish holati (og‘zaki, yozma yoki ommaviy axborot vositalarida) ko‘rib chiqiladi.
- Qonuniy baholash: Ushbu so‘zning qo‘llanilishi qonun buzilishi sifatida baholanishi mumkinligi yoki emasligi aniqlanadi.

O‘zbek tilida haqorat so‘zlar odatda, madaniy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ba’zilari hududiy yoki dialektal xususiyatlarga ega. Milliy madaniyat va axloq normalari ham bu so‘zlarning ishlatilish chegarasini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek tilining izohli lug‘atida haqorat so‘zlarning to‘liq yoritilishi lingvistika, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Haqorat so‘zlar tilning ma’lum bir qatlamini tashkil etib, ularning kelib chiqishi, semantik ma’nosi va madaniy kontekstdagi o‘rni tahlil qilinadi. Bu so‘zlar nafaqat badiiy asarlarning ekspressivligini oshirish, balki so‘zlashuv va ijtimoiy munosabatlarda ham muhim rol o‘ynaydi.

Lingvistik ekspertiza jarayonida haqorat so‘zlarning ma’nosi, qo‘llanilish konteksti va qonuniy jihatlari tahlil qilinadi. Lug‘at ushbu so‘zlarning ijtimoiy, madaniy va psixologik ta’sirlarini yoritishga imkon beradi va ularni jamiyatdagi muloqot madaniyati va til madaniyatiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qilish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Izohli lug‘atlarda haqorat so‘zlarning batafsil berilishi milliy til boyligini ifodalash bilan birga, ularning qo‘llanish chegaralarini belgilash va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Ushbu lug‘atlar lingvistlar, sotsiologlar, psixologlar va madaniyatshunoslar uchun qimmatli ma’lumot manbai bo‘lib, haqorat so‘zlarni ilmiy va huquqiy nuqtayi nazardan o‘rganishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonov, F. (2019). O‘zbek adabiyotida haqoratli so‘zlar va ularning badiiy ifodasi. Adabiyotshunoslik markazi to‘plami, 10(3), 45-60.
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot. – Toshkent, 2022.
3. Fattoxov. X. “O‘zbek tili leksikografiyasiga bir nazar” – Toshkent, 1981.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007- yil. 60-bet.
5. Turakhudjaeva, A. X., Usmanova, O. C., & Abdurakhmonova, Z. S. (2016). THE PROBLEM OF SOCIAL-POLITICAL LEXIS IN LINGUISTICS. Ученый XXI века, (4-1), 64-66.
6. Khabitovich O. B. Relevance of gender terminology in English and Uzbek languages //American journal of education and learning. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 247-257.
7. Omonov, B. (2022). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ГЕОЛОГИЯ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.
8. Omonov, B. (2022). LINGUISTIC NATURE OF THE TERM AS ONE OF ITS COGNITIVE FACTORS. Scienceweb academic papers collection.
9. Omonov, B. (2022). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GEOLOGIYAGA OID TERMINLAR O‘ZLASHISHI KOGNITIV JARAYON SIFATIDA. Scienceweb academic papers collection.
10. Omonov, B. (2021). ГЕОЛОГИЯ ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. Scienceweb academic papers collection.
11. Omonov, B. (2021). ГЕОЛОГИЯГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.
12. Omonov, B. (2021). ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДАГИ ГЕОЛОГИК ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИДА ТЕРМИНОЛОГИЯ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛИ. Scienceweb academic papers collection.

Gulmira ZULAYPOYEVA
Farg‘ona viloyati, Farg‘ona politexnika instituti
o‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi o‘qituvchisi,
gulmiraxon2019@gmail.com

IQBOL MIRZO IDIOSTILIDA XIAZM

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida muallifning individual uslubiga oid qarashlar hamda sintaktik figuralardan biri xiazmning o‘rganilishi xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, ushbu tushuncha Iqbol Mirzo she’riyati asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, idiostil, sintaktik figura, xiazm*

Аннотасия: в данной статье выражены взгляды на индивидуальный стиль автора в узбекском языкознании и исследование хиазма, одной из синтаксических фигур. Также это понятие объясняется на основе поэзии Икбала Мирзы.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, идиостиль, синтаксическая фигура, хиазма*

Annotation: in this article, views on the author's individual style in Uzbek linguistics and the study of chiasm, one of the syntactic figures, are expressed. Also, this concept is explained on the basis of Iqbal Mirza's poetry.

Key words: *linguopoetics, idiostyle, syntactic figure, chiasm*

Xiazm asosan, ikkita gapdan tashkil topgan matn ko‘rinishlarida uchraydi. Xiazm «X» harfi shaklida namoyon bo‘luvchi uslubiy vositadir. Ikkinchi gap birinchi gap komponentlarining teskari tarzda joylashuvidir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan bo‘ladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma’noni bo‘rttirib ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslik lug'atida xiazmga quyidagicha ta'rif berilgan: “Xiazm (yun. chiasmos - yunon alifbosidagi X harfidan, ya'ni shu harf shaklida joylashgan) - teskari tartibdagi sintaktik parallelizm, misradagi so‘z(bo'lak) larni teskari tartibda takrorlashga asoslangan stilistik figura. Xiazm mohiyatan mumtoz she’riyatdagi tardu aks san’atiga yaqin turadi. Aksariyat hollarda xiazm she’rning ketma-ket keluvchi misralarida namoyon bo'ladi.

Sozim - mening ovozim,
Ovozim mening sozim
(G'.G'ulom).

Shuningdek, xiazm ba’zan she’rning dastlabki misralaridan biridagi so'z(bo’lak)larni teskari tartibda joylashtirgan holda takrorlash asosida ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda xiazm she’r g‘oyasini yuzaga chiqaruvchi muhim kompozitsion unsur vazifasini o'taydi” . Haqiqatan ham lug‘atda ta'kidlanganidek, xiazm ma’lum ikki birikmani shunchaki teskari takrorlash emas.

Xiazm so‘zlovchining eng muhim g'oyasini o'zida tashishi, shu g'oyani yanada bo'rttirishi bois o'quvchi esida qoladi, u asosiy ma’noning qayta teskari takrori bo‘lgani uchun uni eslab qolish oson va qulay.

She’riy matn lingvopoetik tahlili mukammal yoritilgan tadqiqotlardan biri professor Ibodulla Mirzayevning “She’riy matnning lingvopoetik tahlili muammolari” doktorlik dissertatsiyasi ekanligi o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida qilingan tadqiqotlarning barchasida e‘tirof etilgan. Mazkur tadqiqotda xiazmning o'ziga xos vazifalari xususida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Xiazm o'zining sintaktik tarkibiga ko'ra, asosan, binar qurilma bo'lib, uning chap tomoni yetakchi fikrni ifodalaydi, ikkinchi tomoni esa e'tiborni shu fikrga tortadi, uni rivojlantiradi, urg‘ulaydi va adresantning affektiv-estetik tuyg'usini aks ettiradi. Biroq xiazm uzvlarining ta'sir kuchi ular o‘zaro qiyoslanganda va qarama-qarshi qo'yilganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi” .

O.X.Mamaziyayev “O‘zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya” mavzusidagi dissertatsiyasida xiazmning poetik nutqdagi vazifalariga to‘xtalib, uning uch asosiy vazifasini ajratib ko‘rsatadi: 1. Uslubiy semantik vazifa. Bunda ikki komponent mazmuni o'zaro zidlik kasb etadi yoki aksincha, bir-birini mantiqan to‘ldiradi. 2. Ekspressiv vazifa. Bunda o'quvchi yoki tinglovchiga zavq bag‘ishlash, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qilishi nazarda tutiladi. 3. Evfonik vazifa. Xiazmni yuzaga keltirayotgan bo‘laklar o‘zaro o‘rin va vazifa jihatidan almashinganda ohang ham shunga mos ravishda almashinib boradi. I.Mirzayev xiazmning vazifalarini aytib o‘tadi: “XQlarning asemantik funksiyalariga ritm va qofiya yasovchi va nutqqa poetik ruh bag'ishlovchi funksiyalar kiradi. Shuning uchun xiastik munosabatlarda bo'lgan so'zlar, ko'pincha, hikmatli so'zlardek jaranglaydi, barqaror ahamiyat kasb etadi” . Quyidagi xiazmatik qurilmali misralar yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi:

Olam bir alamdir, sim-siyoh cheti,
Alam bir olamdir endi, sevarim.
O‘rik gullaridek sochilib ketdi
Kaftimdagi bir juft sitoralarim.
(“Kelinchak”, 144-bet)

Shoirning maqsadi bu odatiy holatni tasvirlash emas, balki shu holatni kitobxonga ham “yuqtirish”, kitobxonni asosiy fikrni eshitishga tayyorlash bo’lib, xiazm ana shu vazifani bajargan. Ba’zan shoirlar asosiy fikrini aytmasdan undan oldingi fikrini xiazm ko‘rinishida ifodalaydi, kitobxon e’iborini misradagi

so‘zlar mazmuniga qaratadi, teskari takror usulida ikki marta takrorlangan so‘zlarning tahliliga tushgan o‘quvchi kutilmagan asosiy fikrni o‘qib, takrorlar asosiy fikr debochasi, aniqlovchisi ekanini anglaydi. Iqbol Mirzoning quyidagi misralarida biz ana shunday holatni, ya’ni xiazmning imkoniyatidan mohirlik bilan foydalanilganligini ko'ramiz:

Qayda jon topsang, abad joning anda,
To‘rg‘ay dashtda kuylar, bulbul-chamanda.
Men seningman, sen mening ruh-u tanda
Vatan ko‘ngildadir, ko‘ngil vatanda.
(“Vatan ko‘ngildadir”)

Yuqorida keltirilgan misolda ikkita xiazmatik birlik mavjud bo‘lib, shoir shaklga shunchaki e’tibor qaratgan emas, chunki juda keng, soatlab bahs qilinishi mumkin bo‘lgan “Vatan” tushunchasining bosh ma’nosi qisqa satrlarda, e‘tirozga o‘rin qoldirmaydigan darajada ochib berilgan.

Yodingdami, gul sayli edi,
Ko‘ngil sayli, dil sayli edi.
Bahor ham biz tufayli edi,
Men sen uchun, sen men uchun.
(“Yodingdami, 104-bet”)

Shoir o‘z qalbini larzaga keltirgan voqea-hodisani tafakkuridan o‘tkazishi, bir qancha vaqt mana shu voqea bilan yashashi, til birliklarini axtarishi va xiazmga to‘xtalishi she’rdagi voqeaning to‘g‘ri ifodalanishiga erishilganini ko‘rsatadi hamda xalq orasida mashhur bo‘lgan maqol, iboradek birlik hosil bo‘lgan “Men sen uchun, sen men uchun”.

“Eslaganda ko‘ring... Ko‘rgach eslamang...”
Imzo. Sana. Rasm – qog‘oz... Sevgilim.
Hayotdan rang ketdi va tindi ohang,
Bizdan suvrat qoldi xolos, sevgilim.
(Suvrat,143-bet)

Bu misralardagi “eslamoq” va “ko‘rmoq” so‘zlari xiazm uzvlar(qism)ini tashkil etadi. Xiazmli misralarning birinchi misrasida “eslaganda ko‘ring” birikmasi “ko‘rgach eslamang” tarzida teskari takrorlanganda xiazm qismlari orasida payt holi ishtirok etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. доктори дисс... – Фарғона, 2021.
2. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. –Toshkent: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021.
3.Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
4. Мирзаев И.К. Шеърий матннинг лингвопоетик таҳлили муаммолари: Филол.фан д-ри...дисс.автореф – Тошкент, 1992.
5.Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол.фан.номз...дис.автреф.- Фарғона, 2004.

Farida XAKIMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

SHODMONQUL SALOMNING “ODAM BO‘L” QATRASI BADIIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada Shodmonqul Salomning “Odam bo‘l” qatrasi tahlilga tortilgan. Undagi majoziy obrazlar va ular kasb etgan ma’no o‘rganilgan. Tilanchi cholning aslida butun insoniyatga tegishli bo‘lgan “Odam bo‘l” degan falsafiy tilagi mushohada etiladi.

Kalit so‘zlar: *qatra, esse, majoziy obraz, arxetip, tilanchi chol, ramz, bozor.*

Аннотация: в данной статье анализируется эссе Шодмонкул Салама «Одам бўл». Исследуются аллегорические образы в ней и их значение. Философски соблюдено желание старого нищего, которое, собственно, принадлежит всему человечеству: «Стать человеком».

Ключевые слова: *эссе, очерк, символический образ, архетип, нищий, символ, рынок.*

Annotation: this article analyzes Shodmonqul Salam's poem "Odam bo‘l". Allegorical images in it and their meaning are studied. The old beggar's wish, which actually belongs to all mankind, "Become a man", is philosophically observed.

Key words: *drop, essay, figurative image, archetype, beggar, symbol, market.*

Yurtimizda esse janri mustaqillik yillaridan keyin rivojlana boshladi. Sababi esse erkin ijod qilish san’ati bo‘lib, bunda muallif o‘z fikrlarini ochiq-oydin bayon qilishi, erkin yozishi mumkin. Shodmonqul Salomning bir qator esselari borki, ulardagi qahramonlarni qanday bo‘lsa shundayligicha tasvirlaydi. Ayrim o‘rinlarda personajlardagi xarakter xususiyatlarining salbiy tomonlarini ham yashirib o‘tirmaydi. Shodmonqul Salomning “Odam bo‘l” qatrasi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2013-yil 41-sonida e’lon qilingan. Atigi bir sahifani tashkil etadigan qatradagi da’vat siz-u bizga, butun insoniyatga tegishli. Adib qatrada masal usulidan boradi, ko‘chma ma’nodagi ramziy

obrazlardan foydalanadi. Undagi voqealar uchun aynan bozor tanlangan. Buning ham o‘z ma’nosi bo‘lib, bu dunyo xuddi bozor kabidir, kimdir unga keladi, kimdir ketadi. Yozuvchi nazdida bozor odamlarni o‘zi istagan maqomga o‘ynata oladigan izdihom. Qatra gavjum bozor va undagi tilanchi chol tasviri bilan boshlanadi.

Cholning boshqalarga o‘xshamagan bir xislati bor, u o‘zgalar singari uzundan uzun duo qilmaydi, o‘tkinchilarga yalinib-yolvormaydi, aksincha, ranglari uniqib ketgan do‘ppisini oldiga qo‘ygancha jim o‘tiradi, tanga tashlab ketganlarga esa faqat bitta tilak bildiradi: “Odam bo‘l!” Bozorda anchadan buyon savdo qiluvchi, ba’zan cholga sadaqa berib o‘tadigan yigit bir kuni cholga uzoq termulib, undan bu so‘zlarining ma’nosini so‘raydi. Bunga javoban chol oldiga cho‘kkalashni va hamma chaqa tashlab ketadigan, o‘ngigan do‘ppini jirkanmasdan kiyishni aytadi. Uni kiygan savdogar yigit: “...shu zahoti yonginasida nimaningdir irillagan tovushini eshitdi. Ilkis o‘rnidan turib qaraganda irillagan narsa kattakon kulrang bo‘ri ekanini va jondorning bamaylixotir bozor oralab ketayotganini ko‘radi. Bu g‘aroyib holdan ajablanib turgan yigitning ko‘zlari ne ajabki, ko‘zoynak taqqan, dimog‘dor ulkan ilonga tushdi. Ilon xuddi odam kabi emin-erkin vishillab bozor oralardi. Bu morning izida esa chiroyli savat tishlab, akillab borayotgan itni ham ko‘rdi savdogar yigit. Uning biroz qo‘rquv va xavotirga to‘la hayrati battar oshgan edi. ... novvot tarozilayotgan toshbaqani, un sotayotgan mayna qushni, “Keb qoling, baxtingizni sinab ko‘ring” deb qichqirayotgan tulkini, o‘roq yasab o‘tirgan temirchi yo‘lbarsni, uning oldida qop yelkalab tik turgan qo‘yni, ochiqroq joyda tamaki tortib turgan bir juft kalamushni va yakkam-dukkam odamlarni ham ko‘rdi savdogar yigit...”

Adabiyotshunoslik ilmida majoziy obrazlar degan tushuncha bor. Majoziy obrazlar muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Majoziy obrazlar yozma adabiyotga folklordan o‘tgan. Qatradagi kattakon kulrang bo‘ri, ko‘zoynak taqqan ulkan ilon, akillayotgan it, toshbaqa, mayna, tulki, yo‘lbars, qo‘y va bir juft kalamushlar ramziy obrazlardir. Xalq og‘zaki ijodiga nazar tashlasak, bo‘ri obrazi ham ijobiy, ham salbiy ma’no ifodalashini ko‘rishimiz mumkin. Totemistik nazariyaga ko‘ra, bo‘ri turkiy xalqlar tarqalishiga asos bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan totemistik nazariyaga e’tiqodning susayishi natijasida o‘zbek xalq ertaklarida bo‘ri ochko‘zlik, qonxo‘rlik, yovuzlik, bosqinchilik, zulm va zo‘rlik timsoliga aylangan. Po‘lkan shoirning “Yoldor bo‘ri” dostoni, M.Avezovning “Ko‘k yol”, Ch.Aytmatovning “Qiyomat” romanlarida bo‘ri ijobiy ma’noda tavsiflanadi. Qatradagi bo‘ri esa insonlarga zo‘ravonligini o‘tkazib, o‘zi bamaylixotir yuradigan odamlarning arxetip obrazidir.

Folklorshunoslik ilmida ilon makkorlik, avrovchilik timsoli hisoblanadi. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sida “ilon” so‘zlari “tan, buyuklik, botillik, xavfli va badbaxt odam, baxtsizlik, g‘azab va qonxo‘rlik, ochko‘zlik, axloqsizlik va yovuzlik va nihoyat, ertakdagi mavjudot obrazlarida keladi” . Qatradagi ilon esa dimog‘dor, o‘zidan boshqani pisand qilmaydigan kimsalarni ifodalaydi. Ilonning izidan chiroyli savat tishlab ketayotgan hayvon esa it.Sharq xalqlari adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, ulardagi it obrazi qadim miflarga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz.Ularda keltirilishicha, it insonga yaqin hayvonlardan biri sanaladi. Zardushtiylik dinida hayvonlarning ichida eng poklaridan biri it hisoblanilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi ”Avesto”da aytilishicha, “Chinvat ko‘prigi ustida turadigan it o‘liklar mulkining hukmdori emish.Uning nigohi har qanday yovuz kuchni daf qila olarmish.It-kuch, qudrat, poklik, tinchlik ramzi hisoblangan. Itlarning insonlar hayotiga qanchalik singib ular bilan ruhiy yaqinlikda bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi davrlarda Sharqda Islomning yoyilishi bilan it obrazining avvalgi anglatgan ma’nosidan o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin.Islomda itlar haqida qarashlar aralash bo‘lib, bir tomondan itning nopok ekani, uning isi tekkan kiyim bilan namoz o‘qimaslik buyurilgani, ikkinchi tomondan Payg‘ambar Muhammad a.s ning barcha hayvonlar qatori itlarga ham mehribonchilikda bo‘lishlikni buyurganlari sabab hisoblanadi. Hadisi sharifda “Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvonlardan biri bu As’hobi kahfning vafodor itidir” deyilgan.(Al-jome al kabir)” .Yozuvchi it obrazini tanlaganida itning vafodorligiga ishora bor.Boylarning qo‘lida xizmat qiluvchi kambag‘al, sodiq xizmatchilar timsoli. Toshbaqa obrazi ham arxetip hisoblanib, u ko‘plab afsona va rivoyatlarda takrorlanib keladi va turli madaniy qatlamlarda alohida ma’nosiga egadir. Misol uchun, qadimgi Xitoyda toshbaqa to‘rt muqaddas yaratiqlardan biri hisoblangan va to‘rt unsurdan biri bo‘lmish suvni ifodalab kelgan. Qadimgi hindistonliklar esa aksincha, toshbaqani qurg‘oqchilik ramzi va quyosh xudosining dushmani, deb hisoblashgan. Ilk nasroniy ramzida toshbaqani oiladagi kamtarlik ramzi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ammo toshbaqa obrazining keng tarqalgan ramziy tasavvurlaridan biri uning uzoq yashashi bilan bog‘liqdir. O‘zbek xalq ertaklarining an’anaviy boshlanmasida toshbaqa tarozibon sifatida beriladi. Biz uni ko‘pni ko‘rgan, keksa, biroq imillab, sekin harakat qilayotgan kishi timsolida tushunishimiz mumkin. “Mayna haqida shunday rivoyat mavjud.U butun qush va jonivorlarni ovozini o‘xshata oladigan qush. Shuning uchun ham ularning barchasini mayna qilar ekan” . Mayna qushi urushqoq odamlarning umumlashma obrazidir.

Bozorda turli aldamchi o‘yinlar bilan odamlarning pulini olib qo‘yadigan kimsalar toifasi ham yo‘q emas. Asardagi tulki ana shunday ayyor, makkorlarning arxetipidir. “Ochiqroq joyda tamaki tortib turgan bir juft kalamush” esa o‘g‘irlik, kissavurlik bilan shug‘ullanuvchilarni anglatadi.

Qatraning eng kulminatsion nuqtasi savdogar yigit do‘ppini yechib o‘zining kimligini bilmay qolganida! Asardagi savdogar bu – siz, bu – men, bu – barchamiz,

butun insoniyat. Bu dunyoga nega kelganimiz, asl maqsadimiz, o‘zligimizni unutib qo‘yayotgan kishilar. Birovlardagi kamchiliklar, qusurlarni ko‘ramiz-u, o‘zimizga kelganda kimligimizni anglay olmay qolamiz. Qatradagi tilanchi chol ham, savdogar yigit ham hozir yo‘q. Lekin undagi “Odam bo‘l” degan g‘oya azaliy va abadiydir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalarida ham turli xil arxetip ramz, arxetip motiv va arxetip obrazlarga duch kelishimiz mumkin. Arxetipik qahramon va obrazlar ishlatilishi o‘zbek adabiyotini muayyan bir madaniy va milliy tor chegaradan butun dunyo adabiyoti miqyosiga olib chiqishga xizmat qiladi. Barcha xalqlar adabiyotida uchraydigan arxetiplarni qo‘llash o‘zbek adabiyotini o‘z yo‘nalishidan chetga chiqishini anglatmaydi, aksincha, har qanday umuminsoniy hissiyotlarni ochib beradigan arxetiplarni qo‘llash adabiyot namunasini ham o‘z millati doirasidagi, ham jahon doirasidagi asar bo‘lishini ta’minlaydi. Adabiyotshunos G.P.Abramovich ta’kidlaganidek: “Xalqchillik sifatidan mahrum bo‘lgan asar umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lmaydi” . Shunday ekan, arxetip ramz, arxetip obraz va arxetip motivlar o‘zbek adabiyoti va o‘zbek o‘quvchilari uchun ham begona emas. Arxetiplarning qo‘llanishi adabiyotning tushunarli bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Turli xil murakkab syujet va murakkab falsafiy mushohadalar o‘quvchilar uchun tushunishga qiyinlik qilishi mumkin, ammo turli ramzlar orqali ifodalanadigan fikrlar har doim kitobxon uchun qalban tanish bo‘ladi. Har qanday o‘qirmanlar bu kabi ramzlarga milliy va diniy afsonalarda duch kelishgan bo‘lishadi.

Yuqorida keltirilgan “Odam bo‘l” qatrasida turli xil arxetiplarni ko‘rib chiqdik va bu kitobxon tafakkurini kengaytirishda, hayotni anglab yetishda va eng asosiysi o‘zining, barcha insonlarning haqiqiy “men”ini kashf etishda yordam bergan asarlar qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonqul Salom. Ko‘ngil obidasiga yo‘l: Esse, publitsistik maqolalar. – Toshkent: “Mashhur-press” nashriyoti, 2018.
2. G.P.Abramovich.Vvedenie literaturovedenie. – M.: “Prosveshenie”, 1975. 364-b.
3. Jalolova Barchinoy. Qadimgi Sharq xalqlari adabiyotida it obrazi tasvirlangan asarlar. International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 1, Issue 19, May. 2024
4. Babayev Mahmud Tashpulatovich. Jaloliddin Rumiy “Masnaviyi ma’naviy”asaridagi masallarda ilon obrazi. Innovative Development in Educational activities. ISSN: 2181-3523 VOLUME 3 | ISSUE 8 | 2024
5. https://doi.org/10.5281/zenodo.810555

Muhayyo AZIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
E-mail: muhayyoazimova22@gmail.com

“GIPERBOLA VA MEYOZIS KONSEPTUAL SEMANTIKASI” FONOMORFEMIK, LEKS(EM)IK VA FRAZEMIK VERBALIZATORLARI STRUKTURAL TURLARINING TIPOLOGIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada giperbola va meyozisning konseptual semantikasini ifodalovchi nutq vositalari va ularning turlari tasvirlangan. Ingliz va o‘zbek tillarida giperbola va meyozis kontseptual semantikasining tipologik tahlili natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *giperbola, meyozis, semantika, verbalizator, sfera, frazema, fonema, leksema.*

Аннотация: в данной статье описаны речевые средства, представляющие понятийную семантику гиперболы и мейозис, даны описания их типов. Представлены результаты типологического анализа концептуальной семантики гиперболы и мейозис в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: *гипербола, мейозис, семантика, вербализатор, сфера, словосочетание, фонема, лексема.*

Annotation: this article describes verbal tools representing the conceptual semantics of hyperbole and meiosis, descriptions of their types are given. The results of the typological analysis of the conceptual semantics of hyperbole and meiosis in English and Uzbek languages are presented.

Key words: *hyperbole, meiosis , semantics, verbalizer, sphere, phrase, phoneme*

Kirish. Har qanday tilda fonema tilning eng kichik emik birligi sanaladi. Uni yadroviy birlik desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki har qanday emik - til birligi bevosita va bilvosita fonemalardan tashkil topadi. Bu umumlisoniy qonuniyat bo‘lib, fonemalarning o‘ziga xos ham struktural, ham semantik jihatlari borligidan dalolat beradi. Lekin fonemalarning semantik jihatlarini o‘rganish nazariyasi hanuzgacha yaxshi shakllangan emas, qanday bo‘lmasin,

bizningcha har bir fonemaning, aftidan, o‘ziga xos semantik tabiati bor ko‘rinadi, hamma gap ham uning mana shu qirralarini ochib berish va ilmiy yoritishda qolyapti. Bu borada tilshunoslikning fonosemantika bo‘limi uzluksiz tadqiqotlar olib bormoqda va bir qator natijalar ham qo‘lga kiritilgan.

Avvalo biz “fonema”ni “tovush”dan farqlashimiz kerak. Fonema bu faqat nutq tovushlari bo‘lib, tabiiy tovushlardan tubdan farq qiladi. Demak, har qanday tovush ham fonema bo‘lavermaydi, emik birlik bu “fonema”, nutq tovushi esa “fon”dir, ya’ni fonetik birlik sifatida “fonema”ning nutqdagi ifodasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Hozirgi zamon tilshunosligida fonema tilning eng kichik, boshqa qismlarga bo‘linmaydigan, ma’noni farqlovchi til birligidir [1]. Fonemalar barcha tillarda unli va undosh tiplarga bo‘linadilar. Ularning ichida unli fonemalar qisqa va cho‘ziq tiplarga bo‘linadilar. Undosh fonemalar odatda cho‘ziq bo‘lmaydi, lekin nutqdagi vaziyatiga ko‘ra ular ham cho‘zib talaffuz qilinishi mumkin[2]. O‘shanda undosh, ham ba’zi qisqa unlilarning cho‘zilishiga o‘xshab, urg‘u qo‘yib talaffuz etiladi, natijada unli yoki undosh fonemalar orqali ma’lum semantikani ifodalash imkoniyati tug‘iladi[3]. Quyida biz qiyoslanayotgan tillarda qisqa unli va undosh fonemalarning vaziyat taqozosiga ko‘ra kuchli va cho‘zib talaffuz qilinishi orqali “GKS”ni ifodalash borasida “fonomorfema”ga aylanish hollarini ko‘rib chiqamiz. Bunday fonemalarni biz “morfonogiperbolema”lar deb ataymiz. Shunday qilib ingliz, o‘zbek va rus tillarida fonemalar orqali (to‘g‘rirog‘i, fonomorfemalar orqali (ya’ni ularning ham unli, ham undosh turlari orqali), urg‘u olganda, cho‘zib, uzaytirib talaffuz qilinganda, u yoki tavsiflanayotgan ma’noni bir qadar mubolag‘alashtirishga erishiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Unli va undosh tovushlar, ya’ni fonemalar yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, qiyoslanayotgan ingliz, o‘zbek va rus tillarida, vaholanki, aftidan, barcha tillarda ham, bir va ikki bo‘g‘inli leksemalarning birinchi bo‘g‘ini boshida kelgan birinchi unli yoki undosh albatta cho‘zib talaffuz qilinsa, u GKS ni voqelantirishga xizmat qila oladi. Shunisi e’tiborga molikki, ingliz va o‘zbek tillarida, aftidan barcha tillarda ham, bir bo‘g‘inli leksemalarda yoki birinchi unli yoki birinchi undosh albatta cho‘zib, urg‘ulantirilib talaffuz qilinishi mumkinligi bilan tavsifning mubolag‘alashtirilishiga erishiladi.

Tahlil va natijalar. Qiyoslanayotgan tillarda ikki yoki undan ortiq bo‘g‘inli leksemalarda, (masalan, sifat va ravishlarda), birinchi bo‘g‘indagi unlini cho‘zib talaffuz qilish orqali predmetlar va hodisalarning tavsifini bir qadar mubolag‘alashtirib ifodalash kuzatiladi (masalan, very, clever, easy, cheeky, meek, painful, credible vah.k. Boshqa tillardan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida birinchi yoki ikkinchi bo‘g‘indagi unlini cho‘zib talaffuz qilish orqali predmetlar va hodisalarning tavsifini bo‘rttirib ifodalash kuzatiladi (rosa, kichkina, o‘ta, juda, sekin, asta, kuchli va b.q.). Ammo asabiy yoki ehtirosli holatlarda tilda so‘zlovchi yoki yozuvchi predmet va hodisalar tavsifini mubolag‘alashtirish uchun doimo birinchi unli yoki undoshga urg‘u berib, uni cho‘zib talaffuz qilishga harakat qiladi. Agar birinchi bo‘g‘indagi undosh yoki unli cho‘zib talaffuz qilinsa, ikkinchi bo‘g‘indagi unli yoki undosh cho‘zilmaydi (masalan, sekin, asta, rosa, juda, o‘ta, very, many, any, careful, awful va h.k.

1) ingliz tilida jami giperbolemaning, ya’ni morfofonogiperbolemaning quyidagi tiplari aniqlandi va qolipga solindi:

a) hellishly, hell kabi ravish bilan ifodalangan so‘zlarda [e], deep so‘zida [i:], too va beautifully kabi, so‘zlarda[u:], absolutely so‘zida esa [æ] kabi unli fonomorfemalari orqali, masalan: It is hellishly stinky here. [4] Bu yer o‘lgudek sassiq joy ekan ; It was too difficult to convince him. Uni ishontirish juda qiyin edi.

b) very, devilishly, terribly, stupidly, scarcely astonishingly, incredibly, barely, fairly, hardly kabi so‘zlarda [v], [d], [t], [s], [k], [b], [f], [h] kabi undosh (morfo) fonemalar orqali: It was a very long story. [4] U juda uzun hikoya edi; The water was devilishly cold. /E. Hemingway, Selected Short Stories, 117) –Suv o‘ta sovuq edi;

2) o‘zbek tilida giperbolemaning, ya’ni morfofonogiperbolemaning quyidagi tiplari aniqlandi va qolipga solindi:

1) uzun, sovuq kabi so‘zlarda [u:], katta so‘zida [a], uzoq so‘zida [o] unli fonomorfemalari orqali, masalan: O‘sha kuni havo sovuq edi [5] – It was cold that day; Bozordan uzun arqon olish kerak edi [5] –It was necessary to buy a long rope at the market ;

2) [o‘:] o‘o‘o‘ta, [u:] - jjjuda, [e:] -eeeng, [o:], bag’ooyat [e:] -beenihoya, beehad, beehimor, beehisob, kabi so‘zlarda, masalan: U o‘shanda behad xursand edi [5] – He was very happy then i t.d.;

3) rrrosa, rrrazil, nnnixoyatda, g‘g‘g‘irt, g‘g‘g‘alamis, rrrasvo, rrrahmsiz, shshshafqatsiz, tttoshyurak, pppastkash, bbbag‘ritosh, ibbblis, kabi sifatlar bilan ifodalangan so‘zlarda [g’] [r], [sh], [t], [p],[b] va h.k. kabi undosh fonomorfemalar orqali: U pul topaman deb rosa ishladi, ter to‘kdi [6]; He worked extremely hard so that he could earn money for living - Do‘stingiz nihoyatda aqlli odam, ukaginam! [7].- Your friend is a very clever man, brother!

Stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lgan ekspressiv(ehtirosli) nutqda, ya’ni ma’lum predmet tavsifini so‘zlovchi achchiqlanib, g‘azablanib yoki quvonib, faxrlanib voqelantirar ekan, o‘zining kommunikativ-pragmatik maqsadini, intensiyasini yuqorida sanab o‘tilgan va quyidagi kabi vositalarning talaffuzidagi bosh tovushlarni cho‘zib, kuchli talaffuz qilish orqali ham mubolag‘alashtirish semantikasi voqelantiriladi: (rr)razil (tt)toshbag‘ir, (tt)tarbiyasiz, (gg)gung, (chch)cheksiz, (qq)qobiliyatsiz, (gg)garang, (kk)kaltafaxm, (yuyu) yuraksiz, (yuyu)yuzsiz, , (bb)badfe’l, (bb))badnom, (bb)badjaxl, (bb)bafurja, (tt)to‘liq, (bb) boshingiz (bilan

javob berasiz), (ss)subutsiz, (mm)mas'uliyatsiz, (mm) munofiq, (qq)qalbaki va h.k.,

Yuqoridagi qiyosiy tipologik tahlildan ko'rinib turibdiki, tillarda fonemalarning unli va undosh turlari urg'u olib, cho'zib (prolongatsiya yordamida) talaffuz qilinishi orqali ma'lum mubolag'alashgan kommunikativ-pragmatik intensiyani ro'yobga chiqarish, voqelantirish imkoniyati tug'iladi, jumladan atrofimizdagi predmetlar tavsifi o'lchov-daraja va miqdorini mubolag'alashtirish maqsadida ma'lum fonemalar odatdagidan kuchliroq, cho'zibroq talaffuz qilinadi va shu yo'sinda ko'zlangan maqsadga erishiladi. Shunisi e'tiborga molikki, tilshunoslikda ma'lum nutqiy vaziyatda, jonli muloqotda qisqa unlilarning cho'zilishi haqida ayrim ma'lumotlar bor, lekin maxsus adabiyotlarda undoshlarning cho'zilishi haqida hanuzgacha ma'lumotlar keltirilmagan. Bizning tahlilimiz aynan unlilar bilan bir qatorda undoshlar ham cho'ziq bo'lishlari mumkinligini ko'rsatdi (masalan, ehtirosli nutqda "arrralab tashlamoq, tarsillatib, sharaqlatib, dang'illatib, gumbirlatib, lovullatib, vaqillatib, sharillatib, tarillatib, vaqqillatib, vishillatib, qiyqiratib, baqir-chaqir, ur-yiqit, oldi-qochdi, parchalab, tilka-pora qilib, ostin-ustin, qiy-pichoq, qirg'inbarot" va h.k.). Bu esa ularning tillarda "GKS"ni voqelantirish jarayonida undoshlar ham unlilar qatori fonomorfemaga aylanib, o'ziga xos bir semantikani, ya'ni "GKS"ni ham voqelantira olar ekan. Ularni o'qitish va tarjima jarayonida alohida e'tiborga olish foydadan holi emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, kommunikativ vaziyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tillardagi statistik jihatdan ko'p qo'llaniladigan har qanday unli va undosh tovushlar cho'zib talaffuz qilinish orqali "GKS"ni voqelantirishi mumkin, ayniqsa asabiy yoki ehtirosli kommunikativ vaziyatlarda har bir leksemaning birinchi tovushi urg'ulantirilib, u yoki bu tavsif mubolag'alashtirish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu ma'noda aftidan barcha tillarda har bir fonema morfofonologik tip sifatida leksemaning birinchi yoki ikkinchi (kerak bo'lgan hollarda uchinchi) bo'g'inida kelib, cho'zib talaffuz qilinish orqali mubolag'alashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Куртенэ Бодуэн де И.А. О задачах языкознания. В кн.: Избранная труды по общему языкознанию. –М.: Изд-во АН СССР, 1963. Т.I С.203
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов –М.: СЭ, 1969. С.608.
3. Усаров И.К. Проблемы общей стилистики сложных предложений, АКД. Ташкент, 2004.
4. E.Hemingway, Selected Short Stories,Prentice Hall Press; New edition (August 7, 1972. 218 p.
5. A.Qahhor. Sinchalak. 2021, 192- bet.
6. Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. Yangi asr avlodi, 2019. 400-bet.

Farida ABDURAXIMOVA,
SamDChTI, Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi o'qituvchisi
Farida141291@gmail.com

O'ZBEK ADABIYOTIDA "TAQDIR" KONSEPTI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbek adabiyotida "taqdir" konsepti tahlil qilinadi. Taqdirning qadimdan zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan rivojlanishi, uning diniy, ma'naviy va ijtimoiy jihatlari, shuningdek, insonning taqdirga qarshi kurashi yoki uni qabul qilishi kabi motivlar ko'rib chiqiladi. Maqola o'zbek adabiyotidagi taqdir konseptining murakkabligini yoritadi.

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, taqdir, diniy jihatlar, ma'naviy konsept, ijtimoiy ta'sir, inson erkinligi, Alisher Navoiy, zamonaviy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, taqdirga qarshi kurash.*

Аннотация: в данной статье анализируется понятие «судьба» в узбекской литературе. Рассмотрено развитие судьбы от древнейших времен до современной литературы, ее религиозные, духовные и социальные аспекты, а также такие мотивы, как борьба человека с судьбой или принятие ее. Статья проливает свет на сложность понятия судьбы в узбекской литературе.

Ключевые слова: *узбекская литература, судьба, религиозные аспекты, духовная концепция, социальное воздействие, свобода человека, Алишер Навои, современная литература, народное устное творчество, борьба с судьбой.*

Annotation: this article analyzes the concept of "destiny" in Uzbek literature. The development of fate from ancient times to modern literature, its religious, spiritual and social aspects, as well as motives such as a person's struggle against fate or acceptance of it, are considered. The article sheds light on the complexity of the concept of fate in Uzbek literature.

Key words: *uzbek literature, fate, religious aspects, spiritual concept, social impact, human freedom, Alisher Navoi, modern literature, folk oral creativity, fight against fate.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida “taqdir” konsepti uzoq tarixiy va madaniy rivojlanishga ega bo‘lib, turli davrlar va adabiy yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutgan. Taqdir inson hayotidagi asosiy omil sifatida ko‘rilib, uning ta’siri nafaqat diniy va falsafiy, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Alisher Navoiy, Xorazmiy, Fuzuliy kabi buyuk shoirlar va adiblar asarlarida taqdir insonning o‘z harakatlari, niyatlari va irodasiga bog‘liq ravishda shakllanadi. Biroq taqdirning ta’siri shaxsiy erkinlik va jamiyatning umumiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqolada taqdirning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, uning rivojlanish jarayoni, diniy, ma’naviy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, taqdirga qarshi kurashish va uni qabul qilish motivlari ham ko‘rib chiqiladi.

Materiallar va usullar. Ushbu maqolada O‘zbek adabiyotida “taqdir” konseptini tahlil qilish uchun bir qator adabiy manbalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanilgan. Materiallar sifatida o‘zbek adabiyotining klassik va zamonaviy asarlari, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va maqolalar tanlangan. Maqolada Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil kabi buyuk shoirlar va adiblarning asarlari, shuningdek, xalq og‘zaki ijodining namunalariga asoslanilgan. Ularning asarlarida taqdirning falsafiy, diniy va ma’naviy jihatlari qanday ifodalanganligi o‘rganilgan.

Taqdirning adabiyotdagi o‘rnini tahlil qilish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanilgan:

Tahliliy-metodologik yondashuv: adabiy asarlarda taqdir ifodalanishining mazmuni va shakli o‘rganildi. Klassik adabiyot namunalari va zamonaviy asarlarda taqdirning ijtimoiy va ma’naviy talqinlari tahlil qilindi.

Tarixiy-yadroviy yondashuv: taqdir konseptining o‘zgarishini va rivojlanishini o‘zbek adabiyotining tarixiy kontekstida o‘rganish. Bu usul orqali taqdirning qadimdan hozirgi kungacha bo‘lgan ta’siri va uning jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos ravishda qanday shakllangani ko‘rib chiqildi.

Komparativ tahlil: o‘zbek adabiyotida taqdirning tasvirlanishi boshqa milliy adabiyotlar bilan solishtirildi. Bu yondashuv taqdir konseptining universal va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Ma’naviy-falsafiy tahlil: taqdirning adabiyotdagi falsafiy va ma’naviy asoslari, shuningdek, uning inson ruhiyati va ijtimoiy qadriyatlar bilan qanday bog‘liqligi o‘rganildi.

Shuningdek, maqolada ilmiy va adabiy tahlil asosida taqdirning tasvirlanishi, uning jamiyatda qanday qabul qilinishi va o‘zgarishi, shuningdek, taqdirga qarshi turish yoki uni qabul qilishdagi insonning ruhiy holati hamda ijtimoiy o‘rni ko‘rib chiqildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek adabiyotida “taqdir” konsepti ko‘plab asarlarda murakkab va ko‘p qirrali tarzda tasvirlangan. Tahlil qilingan materiallarga asoslanib, quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Taqdirning diniy va falsafiy talqini: Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlarning asarlarida taqdir ko‘pincha ilohiy bir kuch sifatida tasvirlanadi. Bu asarlarda taqdir inson hayotida muqarrar va o‘zgarmas bir holat sifatida qabul qilinadi. Diniy nuqtayi nazar orqali, taqdirga bo‘ysunish va unga qarshi kurashmaslik insonning ma’naviy kamoloti bilan bog‘lanadi. Bunday talqinlar adabiyotda ko‘plab masalalarni, jumladan, sabr-toqat, ishonch va taqdirga bo‘lgan qanoatni aks ettiradi.

Taqdirga qarshi turish va irodaning o‘rni: Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotida taqdirga qarshi turish, unga qarshi kurashish motivi ham keng tarqalgan. Klassik adabiyotda, masalan, Navoiyning “Farhod va Shirin” asarida, shaxsning o‘z taqdirini o‘zgartirishga bo‘lgan intilishi va unga qarshi kurashi ko‘rsatilgan. Bunday asarlarda taqdirni o‘zgartirish imkoniyatining mavjudligi va insonning iroda kuchi ta’kidlanadi.

Xalq og‘zaki ijodida taqdir: O‘zbek xalq og‘zaki ijodida taqdir ko‘proq isyonkor va noxush holat sifatida ko‘rsatiladi. Xalq she’riyati va naqllari, ko‘pincha, taqdirni insonning o‘zi uchun yozilgan “yo‘l” sifatida tasvirlaydi, unga qarshi kurashish yoki uni qabul qilishdagi ijtimoiy va ma’naviy omillarni ko‘rib chiqadi.

Zamonaviy adabiyotda taqdir: Zamonaviy o‘zbek adabiyotida taqdir shaxsiy erkinlik, ijtimoiy sharoitlar va inson huquqlari bilan bog‘liq ravishda yangicha talqin etiladi. Shaxsning taqdiri uning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy tizimdagi holati va qarorlari orqali shakllanadi. Bunday asarlarda taqdirning o‘zgarishi, jamiyatda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar va shaxsning mustaqil qarorlari ta’kidlanadi.

Taqdir va shaxsiy mas’uliyat: Taqdirning adabiyotdagi tasvirlanishida shaxsiy mas’uliyatning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Insonning o‘z taqdiriga javobgarligi va o‘z qarorlariga bo‘lgan mas’uliyatini qabul qilish, zamonaviy adabiyotda kuchli motiv sifatida ko‘rinadi. Bu ayniqsa, shaxsning ijtimoiy adolatga, inson huquqlari va erkinlikka bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

Muhokama. Taqdir konsepti o‘zbek adabiyotida bir necha qatlamli va keng qamrovli tushuncha sifatida rivojlanib kelgan. Diniy va falsafiy yondashuvlar orqali taqdirni muqarrar va ilohiy bir kuch sifatida qabul qilish, insonning o‘z xohish-irodasidan mustaqil bo‘lganligini bildiradi. Biroq zamonaviy adabiyotda taqdirni faqatgina shaxsning taqdiriga belgilovchi kuch sifatida emas, balki ijtimoiy sharoitlar, qarorlar va erkinlik orqali shakllanadigan fenomen sifatida ko‘rishadi. Insonning ijtimoiy mas’uliyati va uning o‘z taqdiri ustida erkinlikka ega bo‘lishi taqdirga qarshi kurashish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotda taqdirga qarshi kurashish faqatgina individualistlik emas, balki jamiyatdagi adolat va tenglik uchun kurash sifatida tasvirlanadi. O‘zbek adabiyotida taqdirning har bir asarda alohida yoritilishi, uning insoniyat va jamiyatdagi o‘rni va rolini chuqur anglashga yordam

beradi.

Xulosa. O‘zbek adabiyotida “taqdir” konsepti ko‘p jihatdan insonning irodasi, erkinligi va hayotidagi muqarrar holatlar bilan bog‘liq. Klassik adabiyotda taqdir ilohiy kuch sifatida tasvirlanib, insonning sabr-toqatini ta’kidlaydi. Zamonaviy asarlarda esa taqdir shaxsning qarorlari va jamiyatdagi o‘rni bilan shakllanadi. Xalq og‘zaki ijodida taqdir ko‘pincha ijtimoiy holat va jamiyatdagi o‘rinni aks ettiradi. Adabiyotda taqdirning turli talqinlari, insonning ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatini, erkinlikni anglashga yordam beradi. Bu orqali taqdirning adabiyotdagi o‘rni va uning jamiyatdagi rolini chuqurroq tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, T. (2001). O‘zbek adabiyotida falsafiy g‘oyalar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. Avloniy, I. (1989). Tarix va taqdir. – Toshkent: O‘zbekiston.
3. Bedil, M. (2006). Ma’naviyat va taqdir. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Fuzuli, M. (1975). Divan. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Nabiyev, N. (1997). O‘zbek adabiyotida taqdir tasviri. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Navoiy, A. (2000). Xamsa. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
7. Tursunov, I. (2010). O‘zbek adabiyotida inson va taqdir. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

Dilorom HAYITBOYEVA,
ToshDO‘TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

UBAYDIY IJODINING O‘RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya: ushbu maqola Ubaydiy hayoti va ijodining o‘rganilishi xususida bo‘lib, shoir yashagan davrda yaratilgan tarixiy va tazkira asarlariga murojaat qilinadi. Chet el olimlarining asarlarida keltirgan fikrlar, adabiyotshunosligimizda shoir hayoti va adabiy faoliyatini tadqiq qilgan olimlar bildirgan munosabatlari, bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asos qilib olindi.

Kalit so‘zlar: *Ubaydullaxon, hayoti va faoliyati, shayboniylar davri, tazkira, manzuma, ruboiy, hikmat, o‘rganilishi, tadqiq.*

Annotation: this article is about the study of the life and works of Ubaydi, focusing on historical and tazkira (biographical) works created during the poet's lifetime. The article draws on the insights provided by foreign scholars, as well as the attitudes expressed by researchers of our literature who have studied the life and literary activities of the poet. It relies on scientific research conducted in this area.

Key words: *Ubaydullaxon, life and activities, Shaybani period, tazkira, manzuma, rubai, hikmat, study, research.*

Аннотация: эта статья посвящена исследованию жизни и творчества Убайди и опирается на исторические и тазир (биографические) произведения, созданные в эпоху поэта. В ней рассматриваются мнения иностранных ученых, а также отношение исследователей нашей литературы, которые изучали жизнь и литературную деятельность поэта. В качестве основы взяты научные исследования, проведенные в этой области.

Ключевые слова: *Убайдуллахон, жизнь и деятельность, эпоха Шайбани, тазкира, манзума, рубои, ҳикмат, изучение, исследование.*

Adabiyotimiz tarixida davlat va saltanat boshlig‘i bo‘lishiga qaramay, shoir, olim, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxslar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shulardan biri shayboniylar sulolasiga mansub hukmdor Mahmud Sultonning o‘g‘li Ubaydullaxondir.

Sho‘rolar hokimiyati davrida, xususan, kommunistik mafkura zug‘umi sharoitida o‘tmishdagi juda ko‘p davlat arboblarining faoliyatlari qasddan o‘rganilmay, e’tirof qilinmay kelindi. Ko‘plab shoh – shoirlar qatorida Ubaydulloxon hayoti va ijodi ham ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilmadi. Biroq shoir haqida ko‘p manbalarda ma’lumotlar yetib kelgan. O‘z zamonasining tarixiy, ilmiy, tazkira asarlarida Ubaydiy siyosiy faoliyati, noyob iste’dod sohibi ekanligi, adabiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz. Zayniddin Vosifiyning “Badoe-ul vaqoe”, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mirmuhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullonoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Fazlulloh ibn Ro‘zbehonning “Mehmonnomai Buxoro”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Faxriy Hirotiyning “Ravzat us-salotin”, Mahmud ibn

Valining “Bahr-ul-asror”, Sayyid Roqimning “Tarixi Roqimiy”, Ma’sud ibn Usmon Ko‘histoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Sharofiddin Roqimiyning “Tarixi tomm”, Maxdumi A’zamning “Tarbiyat us-salotin”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, “Nafois ul-maosir” kabi asarlari va tazkiralarda Ubaydiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyatiga doir ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

Ubaydiy shaxsiyati haqidagi tasavvurni Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asaridan keltirilgan quyidagi parcha orqali bilish mumkin: “Mulk-u davlat tashvishlariga qaramasdan Ubaydulloxonning malakiy sifat zoti “inson o‘z himmati qanoti vositasi-la yuksaklikka ko‘tariladi” taqozosiga ko‘ra hamma oliy himmat va oliy g‘ayratini ilm-u kamol mamlakatlarini qo‘lga kiritish hamda fazl-u fazoil shaharlarini ishg‘ol qilish sari yo‘naltirgan, ya’ni jozibali sa’y-harakat mashaqqati va jahd-u jadal mas’uliyatini haqoiq va daqoiq tahsili, aqliy va naqliy bilimlar uchun sarf qilib, ilm yo‘lida tirishqoqlik namunasini ko‘rsatganlar, hech qachon barakatli vaqtlarini behuda va bekor ketkazmaganlar. Tasavvufda fikrlari mazmuni asosli va kuchli namoyon bo‘lar, baland ma’nolarni dilpisand iboralar bilan bayon qilar edi” [1: 23].

Nisoriyning ushbu fikrlaridan Ubaydiy shaxsiyati naqadar serqirra bo‘lganini, dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda, diniy ilmlar sohibi ekanligini, tasavvufda ham o‘z yo‘lini belgilab olganini bilib olishimiz mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan tazkira asarlarda ham Ubaydullaxon yashagan davr, Buxoro hayoti, ilm-fan ravnaqi, ijtimoiy va siyosiy hayot tilga olingan.

Ubaydiy tarjimayi holi va she’riyati bilan qiziqish, kichik-kichik tadqiqotlar olib borish XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Bu yo‘lda A.Fitrat, O.Sharofiddinov, A.Ibrohimov, S.G‘aniyeva, A.Hayitmetov, Z.Muqimov, P.Qayumov, H.Homidiy, E.Ochilovlar bir qancha asarlarida, maqolalarida Ubaydiy hayoti va adabiy merosi ma’lum ma’noda tadqiq etdilar.

Abdurauf Fitrat “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” nomli maqolasida: “Ubaydulloh shoir ham mutasavvif shoirdir. Uning forsiycha she’rlar yozganini “Muzakkir ul-ahbob”, “Majma ul-fusaho”, “Tazkirat us-salotin” kabi manbalar keng suratda bildiradilar. Uning forsiycha bir g‘azali mashhur mutasavvif Mahdum A’zam nomidan tasavvuf uslubida sharh qilingan. Ubaydullohning forsiycha she’rlarida taxallusi ko‘brak Ubaydiy bo‘lib, ba’zan Ubaydullohdir” [2: 36] kabi izlanishlarini bildirib o‘tgan. Lekin bu keltirilgan ma’lumotlar Ubaydiy ijodini dengiz deb oladigan bo‘lsak, uning bir tomchisidek gap, aslida.

O.Sharafiddinov “O‘zbek adabiyoti” tadqiqotida XVI asr so‘z san’ati to‘g‘risida to‘xtalib, sovet mafkurasi talablaridan kelib chiqib, Ubaydiy ijodiga salbiy baho beradi: “Bu davrda Ubaydullaxon, Abdulazizxon singari xonlarning o‘zlari ham adabiyot bilan shug‘ullanganlar. Biroq ular ikkinchi darajali shoirlar bo‘lib, to‘la badiiy qimmatli asarlar yarata olmaganlar” [3:24]. Bugungi tadqiqotchilar va kitobxonlar nigohida O.Sharafiddinovning ushbu fikrlari o‘sha davr mafkurasi ta’sirida yozilgani yaqqol sezilib turibdi. Uch tilda devon tartib qilgan shoir haqida aytilgan ushbu qarashlar hech qanday izlanishlarsiz yozilgani ayni haqiqat.

A.Ibrohimov ham “XVI asr o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari” kitobida Ubaydiy hayoti va ijodini o‘sha davr nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Besh jildlik adabiyot tarixida esa shoir saroy va diniy adabiyot namoyandasi sifatida tanqid ostiga olingan, merosi sho‘roviy andoza asosida talqin qilingan. Ammo “O‘zbek adabiyoti” majmuasining 3-jildida: “U, bir tomondan, Yassaviy, Boqirg‘oniy asarlariga ergashib, “Hikmat”lar yozsa, ikkinchi tomondan, Lutfiy va Navoiylarda ergashdi. Ubaydiy g‘azallari, ruboiylari uning kuchli shoir bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning g‘azallarining tili ancha sodda, xalq vaznida yozilgan ayrim namunalar adabiyotimiz uchun shubhasiz, muhim hodisadir”[4: 141], – deb ta’kidlangan holda, shoirning turkiy devonidan 15 g‘azal, 2 yor-yor, 14 ruboiy, 3 tuyuq, 1 hikmat va “G‘ayratnoma” manzumalaridan parcha keltiriladi.

P.Qayumov ham “Tazkirai Qayyumiy” asarida Ubaydiy hayoti haqida qisqacha ma’lumotlarni va shoir ijodiyotidan namunalarni berib ketadi [5:50].

H.Homidiy “Daholar davrasi” kitobida shoh shoir haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Ubaydullohxon o‘z zamonasining durbin lashkarboshisi, tadbirkor xoni bo‘lish bilan birga, ilm-adab ahli homiysi, ijodning ko‘p sohalarida qalam surgan zukko donishmand bo‘lgan. U musiqa, qiroat, hadis-u tafsir ilmlarida ustod darajasiga yetgan; bir necha musiqa asboblarini yaxshi chala olgan, xushxon hofiz sifatida davralarni qizitgan, Qur’onni tafsir etgan, qorilar uchun maxsus qo‘llanma yaratgan, hadislarni sharhlab risola bitgan” [6: 310].

Mustaqillikdan keyin shoir hayoti va ijodini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov dastlab “Farog‘ati bor, do‘stlar, gadolig‘ning” nomli kirish maqolasi bilan birga shoirning 6 g‘azal, 1 yor-yor, 2 qit’a, 4 ruboiy, 4 tuyuq va bir hikmatini ommaga tanishtirdi. 1994-yil Ubaydiyning o‘zbekcha she’rlari kiritilgan “Vafo qilsang” to‘plamini nashr ettirdi. 1999-yildan boshlab shoirning forsiy tildagi ruboiylarini Ergash Ochilov o‘zbek tiliga tarjima qila boshladi. Gazeta, jurnal va ilmiy to‘plamlar orqali ommaga havola qila boshladi. “Ishq daftari” (2000), “Ko‘ngil sururi” (2000), “Muhabbat taronalari” (2005), “Diydor orzusi”

(2005) nomlari bilan Ubaydiyning turkiy va forsiy tildagi ruboiylarini alohida kitob shaklida adabiyot ixlosmandlariga taqdim etdi.

Ubaydiy hayoti va faoliyati xususida ilk ilmiy-tadqiqot ishi 2000-yil Muhammadjon Abdullayev boshchiligida amalga oshirildi. “Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati” mavzusidagi ushbu nomzodlik dissertatsiyasida XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, Ubaydiy hayoti, shohlik va shoirlik faoliyati, adabiy merosi xususida atroflicha izlanish olib borilgan va qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Chet el olimlaridan G.Vamberi, M.F.Ko‘prulu, J.Ekman, Annemariy fon Shimmel shoh – shoir hayoti va ijodiyoti bo‘yicha ayrim tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

M.F.Ko‘prulu “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” asarida tasavvuf adabiyoti haqidagi izlanishlarini olib borib, A.Yassaviygacha bo‘lgan adabiyot va undan keyingi turk adabiyotida mutassavvuflar bo‘lib ijod qilgan shoirlarni keltirib o‘tadi. Shular qatoriga Ahmad Yassaviydan so‘ng hikmat janri takomiliga munosib hissa qo‘shgan Ubaydiyni ham yassaviya tariqati davomchilari safida keltirib o‘tadi.

N.Jumaxo‘ja hamda I.Adizova hammuallifligida 2019-yil bosmadan chiqqan “O‘zbek adabiyoti tarixi” (XVI – XIX asr I yarmi) darsligida Qul Ubaydiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni va adabiy faoliyati xususida izlanishlarini yoritib beradi [7: 130]. Shoir hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi, tarjimayi holi, adabiy merosi, asarlari janriy tarkibi, she’riyatining mavzu qamrovi, g‘oyaviy xususiyatlari, badiiy mahorat masalalariga oid ma’lumotlar, qarashlarni atroflicha keltirib o‘tadi.

2020-yilda M.Abdullayev va J.Abdullayev boshchiligida “Hikmatlar” nomi ostida kitob bosmadan chiqdi. Unda keltirilgan Ubaydiy hikmatlari, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik ruhdagi “Salovatnoma”, “G‘ayratnoma”, “Sabrnoma”, “Zavqnoma” manzumalari, tarje’band, masnaviy, ruboiylaridan parchalar Turkiyaning “Nuri Usmoniya” kutubxonasida saqlanayotgan devon asosida o‘zbek tiliga tabdil qilingan va nashrga tayyorlangan.

Bugungi kunda ham Ubaydiy ijodini o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ilk tadqiqot ishi 2000-yilda amalga oshirilgan bo‘lsa, mana 24 yildirki, shoir ijodiyoti o‘z izlanuvchilarini va qiziquvchilarini kutib turibdi. Chunki Ubaydiy serqirra ijodkor, iste’dodli shoir bo‘lib, o‘z davrining yetuk arboblaridan edi. Biz shoirning turkiy devonidagi ruboiylarni janr xususiyatlari, mavzusi va g‘oyaviy-badiiy jihatlarini o‘rganishga bel bog‘ladik. Ushbu kichik tadqiqotimiz bizdan oldingi va keyingi ishlarning davomchisi bo‘ladi, degan ezgu niyatdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нисорий Ҳасанхожа. Музаккири аҳбоб. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
2. Фитрат А. Яссавий мактаби шоирлари тўғрисида текширишлар. Танланган асарлар. 2 жилд. –Т.: Маънавият, 2000.
3. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. –Т.: 1978.
4. Ўзбек адабиёти. Мажмуа. –Т.: 3 жилд. 1959.
5. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. –Т.: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998.
6. Ҳомидий Ҳ. Даҳолар даврaси. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
7. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti. (XVI – XIX asr I yarmi) –T.: Noshir, 2019.
8. Нисорий Ҳасанхожа. Музаккири аҳбоб.– Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
9. Фитрат А. Яссавий мактаби шоирлари тўғрисида текширишлар. Танланган асарлар. 2 жилд. –Т.: Маънавият, 2000.
10. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. –Т.: 1978.
11. Ўзбек адабиёти. Мажмуа. –Т.: 3 жилд. 1959.
12. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. –Т.: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998.
13. Ҳомидий Ҳ. Даҳолар даврaси. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
14. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti. (XVI – XIX asr I yarmi) –T.: Noshir, 2019.

Gavhar JO‘RAYEVA,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
gavharj555@gmail.com

A’ZAM O‘KTAM IJODIDA O‘ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: A’zam O‘ktam ijodidagi tadqiqot ishlari keng yo‘sinda o’rganilib kelinmoqda. A’zam O‘ktam ijodi badiiyati, til xususiyatlari ilmiy konferensiya materiallari doirasida o‘rganilgan bo‘lib, tilshunoslikda shoir ijodining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari hamda badiiy matnlarda kontrastning lingvopragmatik xususiyatlari T.Butunbayeva hamda N.Sadinovaning tadqiqot ishida ochib berilgan.Shoir ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini she’rlarida namoyon qila olgan.

Kalit so‘zlar: *A’zam O‘ktam, she’riyat, ijodkor,s o‘z erkinligi, lirik tafakkur.*

Annotation: Azam Oktam's research works are widely studied. The artistry and linguistic features of Azam Oktam's work were studied within the materials of the scientific conference, and the linguopoetic and linguopragmatic features of the poet's work in linguistics and the linguopragmatic features of contrast in artistic texts were revealed in the research work of T. Butunbayeva and N. Sadinova. The poet's inner experiences and feelings in his poems could show.

Key words: *Azam Oktam, poetry, creator, freedom of speech, lyrical thinking.*

Аннотация: исследовательская работа в творчестве Азама О'тама широко изучается. Искусство творчества Азама Уктама, особенности языка изучались в рамках материалов научной конференции, лингвопоэтические и лингвопрагматические особенности творчества поэта в лингвистике, а также лингвопрагматические особенности контраста в художественных текстах т.Бутубаева и Н.Раскрыто в исследовательской работе садиновой.В своих стихах поэт сумел выразить свои внутренние переживания,чувства.

Ключевые слова: *Азам Уктам,поэзия,творчество,свобода слова, лирическое мышление.*

Yangi o‘zbek she’riyatida A’zam O‘ktam ijodining lirik tafakkur va milliy etikaning badiiy uyg‘unligini olima N.Umarova tadqiq etgan . Shuningdek, A’zam O‘ktam ijodi badiiyati, til xususiyatlari ilmiy konferensiya materiallari doirasida o‘rganilgan.Tilshunoslikda shoir ijodining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari hamda badiiy matnlarda kontrastning lingvopragmatik xususiyatlari T.Butunbayeva hamda N.Sadinovaning tadqiqot ishida ochib berilgan. U.Jo‘raqulov, B.Karimov, A.Ulug‘ov, R.Qo‘chqor, Q.Qahramonov, D.Quronov, S.Xolmirzayeva kabi ko‘plab taniqli, yirik adabiyotshunos olimlar shoir A’zam O‘ktam she’riyati, badiiy olamini, adabiyotdagi xizmatlari va adabiy shaxs o‘laroq yaratgan ijodining muhim jihatlari xususida fikr-mulohazalarini bildirgan.

A’zam O‘ktam ijodida lirik tafakkur va milliy etika uyg‘unligini ilmiy tadqiq etgan olima N.Umarovaga ko‘ra, ajdod mutafakkirlarimiz tomonidan kuylab kelingan adolat, halollik va rostgo‘ylik me’yorlari vijdon tushunchasi bilan bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan A.O‘ktam she’riyatining semantik asoslarini ayni tushunchalarning islom ma’rifati negizida tushunilishi, badiiy idroklanishi va lirik bayon etilishi tashkil qilgan deyish mumkin. Bu jihat shoirning ilk she’riy asarlaridayoq ko‘zga tashlangan. Shoir asarlarida “tavba” (“Yaratganga xush kelgan ish”), “duo” (“Fotiha”, “Bir tun”), “ota-ona rizosi” (“Hadik”, “Ko‘kdan yog‘ilgan nurlar otamga duo denglar”, “Ibodat”) kabi milliy axloq asosini tashkil etuvchi muammolarga e’tibor qaratilganligi hamda uning she’rlarida bu lirik konsepsiya milliy etika bilan uyg‘unlashib ketgani lirik pafos o‘zagi va tayanchi hisoblanadi . Shuningdek, olima shoir ijodidagi o‘zbekona etika, odob-axloq normalari turli badiiy rakurslarda diqqat qilingan qator she’rlarini tahlil qiladi, ularning sabablarini o‘rganadi: A.O‘ktamning “Enam o‘xshab qoldi bolaga”, “Tushuning”, “Tajriba”, “Ishonch” she’rlarida milliy etikaning dolzarb muammolari goh xalqona hikmatni ta’kidlash, goh inkorlash, goh parallellashtirish, goh kinoyalashtirish, goh istioralashtirish, goh zidlantirish usullari asosida talqin etilgani kuzatiladi. Ayni usul she’rning XX asr uchun monand hamda ta’sirchan chiqishiga xizmat qilgan. Ayni paytda, xalq qo‘shiqlari, rivoyat va afsonalari bu ikki shoir asarlarida, asosan, 7, 8, 9 bo‘g‘inli xalqona ritmga mos ijod etilganligi, har bir shoirning o‘zi tug‘ilgan hudud folkloriga xos lokal xususiyatlarni namoyon etishi bilan diqqatga sazovor .

Biz izlanishlar mobaynida o‘zbek adabiyotshunosligida lirik tafakkur va milliy etika masalalari tizimli tarzda o‘rganilmaganligini, xususan, shoir A’zam O‘ktam ijodi monografik tadqiq qilinmaganligini kuzatdik. Shu o‘rinda e’tirof etish lozimki, tadqiqotchi N.Umarovaning ushbu dissertatsiyasi bu borada qilingan dastlabki ish hisoblanadi.

Tilshunos olimlar shoir A’zam O‘ktam ijodini lingvistik jihatdan o‘rganayotgani ham diqqatga sazovor va bu tadqiqotlar filologiya fanlarining yutug‘i demakdir.

Shoir A’zam O‘ktam tavalludining oltmish yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

hamda Moskva davlat Lingvistika universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “A’zam O‘ktam ijodi badiiyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallaridan iborat to‘plamning chop etilishi shoir ijodining o‘rganilish bosqichida muhim voqea bo‘lib, adabiy jamoatchilik yodida qoldi. 672 sahifalik salmoqli to‘plamda A’zam O‘ktam ijodi badiiyati, shoir asarlarining til xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga e’tibor qaratilgan qator xilma-xil, rang-barang ilmiy tadqiqot namunalari, izlanishlar va ahli ilmning muayyan tematikaga oid subyektiv qarashlari aks etgan. Ushbu to‘plamning qadrli ekanligining yana bir jihati shundaki, unda hozirgi adabiyotshunoslik sohasining yirik namoyandalari: ustoz olimlar, o‘zbek jamiyati, fani va madaniyatining fidoyilari, umidli yosh tadqiqotchilar va shoirlar – uch avlod vakillari o‘z ilmiy maqolalari, xotiranomalari, bag‘ishlov she’rlari bilan shoir surati va siyrati haqida o‘quvchida yaqqol taassurot qoldiradi .

Filologiya fanlari nomzodlari B.Rahmonov va H.Hamroyeva mas’ul muharrirligida chop etilgan ushbu to‘plamning muqaddimasida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, shoir M.Mirzo “A’zam O‘ktam ijodi badiiyati” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani qatnashchilariga yo‘llagan murojaatida mazkur ilmiy-amaliy izdihomning va shoir ijodiy merosining ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritadi: A’zam O‘ktam ijodida shaxs va qalb ozodligi, millat va yurtsevarlik, sadoqat va diyonat, diniy-ilohiy mushohada, millat xarakteri, tafakkur tarzi kabi hech qachon eskirmas g‘oya, tamoyil va mavzular yuksak mahorat bilan talqin qilindi. Shoir qo‘llagan she’riy san’atlar, badiiy tasvir vositalari, til unsurlari alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi aniq. Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon davlatlarining adabiyotshunos, tilshunos, siyosatshunos, faylasuf olimlari va yosh tadqiqotchilari ishtirok etayotgan mazkur Xalqaro anjumanda XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri – taniqli shoir va tarjimon A’zam O‘ktam ijodining yangi qirralari hamda ilm olamiga qadam qo‘yayotgan yangi iste’dodlar kashf qilinishiga ishonaman .

Jahon adabiyotining yirik bilimdoni, professor U.Jo‘raqulov ayni to‘plamda shoir haqida so‘z yuritarkan, uning ilk bor katta adabiyot, she’riyat maydoniga kirib kelishi tarixini, o‘sha davrning tahlikali ijtimoiy-siyosiy muhitida A.O‘ktam ziyolilar orasida millatparvar o‘laroq pozitsiya egallaganligini va shu ruhda ijod qilganligini xotirlaydi: A’zam O‘ktamning ilk she’rlari “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”da e’lon etilgan 80-(aniqrog‘i, 1983-yil) yillarda sobiq sovet ittifoqi sarhadida, ayniqsa, Boltiqbo‘yi respublikalarida milliy o‘zlikni anglash mujdalari ko‘rina boshlagandi.

Professor U.Jo‘raqulov fikricha, shoir A’zam O‘ktam ijodi uch asosga ko‘ra tasniflanib, o‘rganiladi. Bunda birlamchi asos sifatida olim – islom ma’rifatini belgilaydi. Bizningcha ham shoir she’rlarining uning qalbiy shakllanishining muhim omillaridan biri taqvo va e’tiqoddir. Bu islomiy nur shoirning Qur’oni karim, “Hikmatlar”, “Shajarayi tarokima”, “Sabotul-ojizin” kabi diniy-irfoniy kitoblarning chop etilishida qatnashini, ayrim adabiyotlarga muharrirlik qilishiga turtki bergan. “Ikkinchi asos Vatan va millat dardi edi ”, – deb qayd etib, muallif shoirning bir she’riga diqqat qaratadi:

Azaga-ku so‘z yo‘q. To‘y qilsa—
Paxta g‘amin yeydi o‘zbeklar,
“Meni termay o‘ynashyapti, deb,
og‘rinmasin” , deydi o‘zbeklar.
Sabr qiling to tugaguncha,
Kuzda o‘ylang faqat terimni.
Xush ko‘rmaydi qishloqlar uncha,
Paxta termaydigan kelinni.

Millatning she’rda ifoda etilgan holati mutlaq real asosga ega. Haqiqatan ham, “paxta yakkahokimligi” degan istiloh olimlar tomonidan ikki so‘zda umumlashtirilgan ilmiy xulosa emas. Balki millat psixologiyasidagi tanazzul, ma’naviy qullik edi. O‘zbek xalqi fikrlamaydigan, “paxta quli”ga aylantirilgan manqurt darajasiga yetib qolgan edi. Mana shu haqiqat shoir satrlarida o‘zbekka xos ikki nozik milliy holatni badiiy parallellashtirish orqali yuzaga chiqqan. Eng quvonchli kunida ham paxta “mas’uliyati”ni unuta olmay dili g‘ashlangan, kelinchakdek nozik xilqat qadrini uning terimchiligi bilan o‘lchagan o‘zbek obrazida. A’zam O‘ktam kitoblarida bunday she’rlar juda ko‘p. Va eng muhimi, ularning birortasida quruq ijtimoiylik, badiiyatni boy berish kabi qusurlar uchramaydi .

Olim “uchinchi asos” o‘laroq “muallif shaxsiyati”ni e’tirof etadikim, ayni shu jihat tayangan zavqi tabiiy iste’dod ko‘lami xususida mazkur to‘plamda O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidovning fikrlari professor U.Jo‘raqulovning xulosalariga mutanosibdir: Xuddi kechagidek esimda, A’zamjonning she’rlarini “Yoshlik” jurnaliga Anvar Obidjon olib kelgandi. Favqulodda teran, nihoyatda dadil, samimiy, quyma misralarni o‘qiyotib, uning muallifi talaba ekanligiga ishongim kelmagan. Ular havaskor talabaning mashqlariga umuman o‘xshamasdi. Shuning uchun ham A’zamjon talabalik paytidayoq tanildi, Ozod akadek ustozlarning e’tiboriga tushdi. O‘shanda “Yoshlik” jurnalida bosilgan turkumi she’riyatning yillik muhokamasida juda katta baho olgandi .

Shoir A’zam O‘ktamning salmoqli ijodi, umid qilamizki, o‘zbek adabiyotshunosligi tomonidan atroflicha o‘rganiladi. Bizningcha, shoirning diniy-irfoniy manzumalari, Vatan va xalq ozodligi, taraqqiyoti, ro‘shnoligiga bag‘ishlangan turkum she’rlari alohida, maxsus tadqiqotlar uchun arzirlik mavzular sirasiga kiradi.

Filologiya fanlari nomzodi S.Xolmirzayeva shu jihatni nazarda tutib shunday deydi: “Men A’zam O‘ktam ijodini yanada chuqurroq o‘rganilishi, uning she’riyatidagi ma’rifiy, axloqiy qirralar kengroq yoritilishi, tatbiq qilinishi kerak deb hisoblayman ”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аъзам Ўктам ижоди бадийяти. Халқаро илмий-онлайн анжуман материаллари. – Андижон, 2020. 672-б.
2. Бутунбаева Т. Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар. Ф.ф.ф.д (PhD)... дисст. автореф. – Самарқанд, 2021.24- б.
3. Jo‘raqulov U. A’zam O‘ktam she’riyatining uch asosi. “A’zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari. – Andijon, 2020. 255-b.
4. Vohidov E. “A’zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari.– Andijon, 2020.34-b.

Shaxnoza YUNUSOVA,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
dotsent v.b., f.f.f.d.

REKLAMA MATNLARIDA GAP QURILISHI

Annotatsiya: maqola hozirgi zamon o‘zbek tili tizimida faol jarayonlarni aks ettiruvchi reklama matnlarining gap qurilishiga bag‘ishlangan. Shuningdek, reklama matnlarining leksik-semantik, axborotni jamlash xususiyatlari, pragmatik va ijtimoiy hayotdagi o‘rni bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *reklama matni, atov gap, sodda gap, qo‘shma gap, ellipsis.*

Аннотация: статья посвящена построению рекламных текстов, отражающих активные процессы в современной узбекской языковой системе. А также рассматриваются лексико-семантические особенности рекламных текстов, их способность к сжатию информации, а также прагматические аспекты и их роль в социальной жизни.

Ключевые слова: *рекламный текст, номинативные предложение, простое предложение, сложное предложение, эллипсис.*

Annotation: the article is devoted to the construction of advertising texts reflecting active processes in the modern Uzbek language system. It highlights the lexical-semantic features of advertising texts, their ability to condense information, as well as their pragmatic aspects and role in social life.

Keywords: *advertising text, attributive sentence, simple sentence, compound sentence, ellipsis.*

Dunyo tilshunosligi ham boshqa sohalar kabi iqtisodiyot bilan bog‘liq, reklama materiallarini lisoniy tadqiq obyektiga aylantirishga, ularning lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qilmoqda. Reklama matnlarini lingvistik va pragmatik jihatdan nazariy aspektda tadqiq qilish iqtisodiy muammolarni yechishda, bu sohadagi yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda tilshunoslarning ishtirokiga ehtiyoj borligini ko‘rsatmoqda. Aniqrog‘i, lingvistik nuqtayi nazardan mukammal, nolisoniy omillarni inobatga olgan holda yaratilgan reklama matnlariga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Reklama matnlarining leksik-semantik, axborotni jamlash xususiyatlari, pragmatik va ijtimoiy hayotdagi o‘rni bilan bog‘liq jihatlari nafaqat tilshunoslar, balki tarixchilar, madaniyatshunoslar va jamiyatshunoslarning ham diqqat markazidagi masalalardandir.

Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisalar, qolaversa, nolisoniy vositalar gapning to‘g‘ri shakllanishi uchun xizmat qiladi. Ammo sanalganlar orasida leksikologiya va morfologiyaning gapni grammatik shakllantirishdagi ishtiroki o‘ziga xos. Gap barcha tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan sintaksis bo‘limida tadqiq qilinadi. Gap turlari, ularning sintaktik qurilishi, matndagi ahamiyatini o‘rganish har doim tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, reklama matnlaridagi gap qurilishi ham ayrim o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

Iste’molchini ishontirish, uni harakatga keltirish uchun reklama beruvchi nafaqat tanlangan so‘zlarning leksik-semantik, balki ularning matndagi xususiyatlarini, sintaktik qurilmadagi o‘zgarishlarini, demakki, sintaktik o‘ziga xosliklarini ham bilishi talab etiladi. Shu ma’noda reklama matnidagi sintaktik vositalarni tavsiflash, ularning lingvistik-uslubiy xususiyatlarini va bu xususiyatlarning iste’molchiga ta’sirini tadqiq qilish reklama matnlarini boyitishda va ularning turli-tumanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Reklama beruvchi tomonidan tanlangan har bir gap, uning qurilishi muayyan bir maqsadga: iste’molchining diqqatini jalb qilish, uni reklama qilinayotgan tovarni sotib olish lozimligiga ishontirish, reklama obyektiga munosabat va qiziqishni uyg‘otish kabilarga xizmat qiladi. Reklama matnlarida asosan, sodda gaplardan, ularning egasiz turlaridan, kiritmalardan (tovarni

tasvirlash, izohlash maqsadida), undovlardan, his-hayajonli gaplardan, buyruq, so‘roq va darak gaplardan foydalaniladi.

Reklama matnlarida sodda gaplarning ko‘p qo‘llanishi tasodifiy emas, albatta. Chunki bu tipdagi gaplar reklama matnining tez tushunilishiga, oson o‘zlashtirilishiga, o‘zining qisqaligi va shu orqali his-hayajonni ifodalash mumkinligi orqali ko‘maklashadi. Zero, qo‘shma gaplar orqali his-hayajon ifodalash birmuncha muammoli. Shuning uchun qo‘shma gaplar his-hayajon ifodalashi lozim bo‘lsa, odatda bir nechta sodda gaplarga bo‘linadi. Masalan:

Bir nafasda iching! Chernogolovka.

Mazkur reklama matni ikkita sodda gapdan tuzilgan. Ulardan birinchisi shaxsi ma’lum gap hisoblanadi (kesimdagi ikkinchi shaxsni ko‘rsatuvchi qo‘shimcha orqali egani tiklash mumkin). Bu gapda ega ishtirok etmagan bo‘lsa-da, ikkinchi darajali bo‘laklardan biri (bir nafasda – tarz holi) ishtirok etgan. Bosh bo‘laklardan birining ishtirok etmasligi nutqiy ixchamlikni ta’minlagan. Ikkinchi sodda gap atov gap sifatida shakllantirilgan. Bu esa reklama matniga ko‘tarinkilik, his-hayajon ifodasini qo‘shgan. Shu reklama matni oddiy so‘zlashuv uslubida Chernogolovkani bir nafasda iching tarzida shakllantirilsa yuqorida sanalgan xususiyatlarga ega bo‘la olmasdi.

Fe‘l bilan ifodalangan birgina kesimdan iborat gaplarni ketma-ket qo‘llash asosiga qurilgan reklamalar o‘ziga xos chaqiriq ma’nosini beradi. Bunday gaplarning kesimi fe’l bilan ifodalanishini reklama qilinayotgan tovardan (yoki xizmatdan) foydalanish uchun adresatning harakatga kelishini mualliflarning asosiy maqsadi sifatida o‘z oldiga qo‘yishi bilan bog‘lash mumkin.

Ma’lum bo‘ldiki, bunday reklama matnlarida fikrlar ikkinchi shaxsga (foydalanuvchiga) qaratiladi. Masalan:

1) Pulpy. Tatib ko‘r, baho ber! 2) Mashg‘ulotlar orasida fanta bilan tamaddi qil. Quvna. Takrorla.

Mazkur reklama matnlaridagi fe’l bilan ifodalangan kesimlar reklama beruvchilarga nisbatan foydalanuvchilarning ishonchlari ortishiga xizmat qilgan, samimiy munosabat o‘rnatilishiga yordam bergan.

Bosh bo‘laklarning ikkalasi ham ishtirok etadigan gaplarning aksariyatida reklama qilinayotgan tovar (mahsulot) nomi ega guruhida kiritiladi. Kesim guruhi esa mualliflar o‘z mahsulotlarini (xizmatlarini) nimaga qiyoslamoqchi ekanligini bildiruvchi so‘z yoki birikmadan iborat bo‘ladi. “Ega kesim ifodalagan belgi, harakat-holatning subyekti sifatida kesimdan keyingi bo‘lak sanalishi” [1:29] yoki “gapdagi fikr qarashli bo‘lgan ... bosh bo‘lak ega” [2:214] ekanligi bu tipdagi reklama matnlarida ega va kesim orasida qiyoslash, o‘xshatish munosabatlari ifodalanishini anglatadi. “Gapning egasi yoki kesimi birikmalar bilan ifodalanib, tenglik, o‘xshatish kabi ma’nolarni bildirsa va bog‘lama bo‘lmasa, egadan so‘ng tire qo‘yiladi”[3:142]. Masalan, quyidagi reklama matnlarida sanab o‘tilgan jihatlarni ko‘rishimiz mumkin:

“Kukmara” idishlari – ayollar orzusi;

“Yoshlar” radiosi – orzularingiz ovozi!

Shior, chaqiriq tarzida shakllantirilgan so‘roq gapli reklama matnlaridagi sodda gaplar (savol va uning javobi)da gap bo‘laklarining tartibi o‘zgartirilmaydi. Bunday reklama matnlarida so‘roq gaplarning maxsus ohangi odatda ko‘tarinkilikni ta’minlash uchun yetarli bo‘ladi. Chunki bunday gaplar so‘roq olmoshlari (kim?, nima?, qachon?...), so‘roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya) yoki so‘roq ohangining o‘zi bilan hosil qilinadimi, baribir, ularda ko‘tariluvchi ohangning yetakchilik qilishi shubhasiz. “So‘roq ifodalovchi bu uch xil vositaning har biri til sathida umumlashgan tur sifatida so‘roq gap modelini, ularning bevosita kuzatish sathidagi namunalari (variantlar) munosabati esa nutq sathida paradigmatik munosabatni hosil qiladi” [4:29]. Masalan:

Sen qaysi Coca-colani tanlaysan? Klassik yoki shakarsiz?

Bu reklama matnidagi birinchi so‘roq gap (Sen qaysi Coca-colani tanlaysan?) to‘liq gap hisoblanadi va unda fikr ifodalash uchun zarur bo‘lgan barcha bo‘laklar (kesim, ega, aniqlovchi va to‘ldiruvchi) mavjud. Fikrni ifodalashda boshqa gapga ehtiyoj sezilmaydi. Reklama matnidagi ikkinchi gap (Klassik yoki shakarsiz?) esa elliptik (gr. élleipsis– tashlab ketish, yetishmaslik) gap (to‘liqsiz gap) bo‘lib, unda kesim (tanlaysan), ega (sen), to‘ldiruvchi (Coca-colani) nutq maqsadi uchun muhim bo‘lmaganligi sababli tushirilgan va faqat aniqlovchilar qoldirilgan. Bunda tushirilgan bo‘laklar nutq vaziyatidan tinglovchi uchun ham, so‘zlovchi uchun ham ma’lum ekanligi sababli ularning takrorlanishiga hojat qoldirmagan. To‘liqsiz gaplarning aksariyat hollarda dialoglarda uchrashi [5:189] reklama matnlarida ularning so‘roq gaplar bilan yonma-yon qo‘llanishini asoslaydi. Reklama beruvchining xohishiga ko‘ra reklama matnida istalgan gap bo‘lagi to‘liqsiz gap vazifasida qo‘llanishi mumkin. Albatta, bunda to‘liqsiz gap sifatida matnda qo‘llanayotgan bo‘lakning ma’noviy jihatdan muhimligi, to‘liq gap shakllantirilganda mantiqiy urg‘uli bo‘lakka aylanishi mumkinligini ta’kidlash o‘rinli.

Sodda gaplarning atov gap turidan reklama matnlarida faol foydalaniladi. Atov gaplarni ham boshqa gaplarga ehtiyoj sezish xususiyatiga ko‘ra to‘liqsiz gaplarga qiyoslash mumkin. Ammo to‘liqsiz gaplar fikrni to‘ldirish (zarur bo‘laklar haqida ma’lumot) uchun avval qo‘llangan gapga ehtiyoj sezsa, atov gaplar odatda keyingi gap yordamida ma’noviy to‘ldiriladi. Reklama matnlarida atov gap sifatida reklama qilinayotgan mahsulot (xizmat) nomi qo‘llanadi.

Reklama matnining sintaktik mukammalligi undan ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. Reklama matnlari sintaksisi uchun sodda gaplarni qo‘llash foydaliroq. Chunki aynan sodda gaplar reklama matnidan ko‘zlangan maqsadlar – tinglovchining tuyg‘ulari, dunyoqarashi va tanloviga ta’sir qilishga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 29.
2. Абдураҳмонов Х., Рафиев А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. Б. 214.
3. Mengliyev B.R., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2018. B. 142.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.Б. 29.
5. Чабанюк Т.А. Теория и практика рекламы. Учеб. пособие. Комсомольск-на-Амуре: КнАГТУ, 2013. – 62 с.
6. Раҳимов С., Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. Б. 189.

Nilufar SAIDOVA,
Jahon iqtisodiyot va Diplomatiya universitetining “Roman-German tillari” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Elektron pochta: esniluno@gmail.com

REKLAMA MATNLARINING TARJIMA JARAYONIDAGI STILISTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING O‘ZARO TA’SIRI

Annotatsiya:reklama matnlarining tarjima jarayonidagi stilistik xususiyatlari va ularning o‘zaro ta’siri, zamonaviy marketing va kommunikatsiya sohasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda reklama matnlarining tarjima jarayonida uslubiy o‘zgarishlar, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, reklama maqsadlariga erishish uchun tarjimonning roli ko‘rib chiqiladi. Reklama matnlarining o‘ziga xos stilistik xususiyatlari, masalan, metafora, alliteratsiya va boshqa badiiy vositalar yordamida yetkaziladigan ma’no va hissiyotlar, tarjima jarayonida qanday saqlanishi yoki o‘zgartirilishi lozimligi tahlil qilinadi. Shuningdek, reklama tilining o‘ziga xosligi va uning boshqa tillardagi aks-sado berishi haqida fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot natijalari reklama matnlarini samarali tarjima qilish uchun yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *reklama matnlari, tarjima jarayoni, stilistik xususiyatlar, uslubiy o‘zgarishlar, til va madaniyat, tarjimon roli, badiiy vositalar, metafora, alliteratsiya, marketing kommunikatsiyasi.*

Аннотация: стилистические особенности рекламных текстов в процессе перевода и их взаимодействие имеют важное значение в сфере современного маркетинга и коммуникаций. В данном исследовании рассматриваются методологические изменения в процессе перевода рекламных текстов, взаимосвязь языка и культуры, а также роль переводчика в достижении рекламных целей. Анализируются специфические стилистические особенности рекламных текстов, такие как метафора, аллитерация и другие художественные средства передачи смысла и эмоций, а также способы их сохранения или изменения в процессе перевода. Также учитывается уникальность языка рекламы и его резонанс на других языках. Результаты данного исследования помогают разработать новые подходы и стратегии эффективного перевода рекламных текстов.

Ключевые слова: *рекламные тексты, процесс перевода, стилистические особенности, стилистические изменения, язык и культура, роль переводчика, художественные средства, метафора, аллитерация, маркетинговая коммуникация.*

Annotation:stylistic features of advertising texts in the translation process and their interaction are important in the field of modern marketing and communication. This study examines methodological changes in the translation process of advertising texts, the relationship between language and culture, and the role of the translator to achieve advertising goals. The specific stylistic features of advertising texts, such as metaphor, alliteration, and other artistic means of conveying meaning and emotions, are analyzed and how they should be preserved or changed during the translation process. Also, the uniqueness of the advertising language and its resonance in other languages are considered. The results of this study help to develop new approaches and strategies for effective translation of advertising texts.

Key words: *advertising texts, translation process, stylistic features, stylistic changes, language and culture, translator’s role, artistic tools, metaphor, alliteration, marketing communication.*

Kirish. Reklama – bu kundalik hayotimizning bir qismi bo‘lib, mahsulotni tarqatishdagi qiyinchiliklarga duch kelganda to‘siqlarni buzib o‘tish orqali insonning e’tiborini jalb qilishga qodir bo‘lgan zarur va hayotiy vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, stilistik namunalar – brendni ilgari surishning ajralmas qismidir. Stilistik tashkilot aloqa natijalariga katta ahamiyat berganligi sababli, yangi bozorda aniq brend tasvirlarini saqlab qolish uchun reklama tarjimalarida stilistik xususiyatlarni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Stilistik natijalar shunchaki ma’lumot uzatish o‘rniga, reklama matni tarjimoni dunyosidan olingan aloqa mohiyati va qadriyatlarini ifodalaydi. Reklama matnlaridagi stilistik xususiyatlarni va ularning tarjima jarayonidagi ta’sirini o‘rganish – o‘quvchilarning tasvirlariga, brendning tarqalishiga, so‘ngra iste’molchilarning xatti-harakatlariga ta’sir qiladi [Visentin va boshq., 2021], [Xiao va boshq., 2023], [Berger, 2020], [Al Falaq & Puspita, 2021].

Reklama orqali tarqatiladigan ma’lumotlar maqsadli tilda ham, reklama nusxasida ham olinganida, effektlar mazmundagi tajribaviy va ratsional xususiyatlar takomillashtiriladi, chunki ishontirish maqsadi birinchi o‘rinda turadi. Reklama o‘ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida ilmiy doiralarda keng fikr yuritishga undaydi. Ko‘pincha reklama maqsadli auditoriya madaniyati va reklamada ustun bo‘lgan til bilan chambarchas bog‘liq bo‘libgina qolmay, u madaniyatni aks ettiruvchi ko‘zgu vazifasini ham bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, reklama yozuvi madaniy muloqot san’atidir. Turli xalqlar orasida til, madaniyat va kognitiv xususiyatlardagi farqlar tufayli bir xil reklama turli millatlarda asl nusxadan farqli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, asl reklama matnining ba’zi atributlari maqsadli reklamaning samarali belgilariga o‘xshash bo‘lishi mumkin, ammo ba’zi bir original reklama matni yo‘naltirilgan madaniyatga tarjima qilinganda teskari bo‘lish holatlari ham uchrab turadi. Shuning uchun tarjima qilingan stilistik xususiyatlarning o’quvchiga ta’sirini talqin qilish va ular madaniyati ta’siriga olib kelishini tekshirish juda muhimdir. Afsuski, bir nechta tadqiqotchilar tarjimaning stilistik funksiyasiga jiddiy e’tibor berishmaydi. Ushbu tadqiqot yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklar va muammolarni hal qilishga bag‘ishlangan.

Reklama matnlarida stilistik xususiyatlarning roli

Reklama matnlarida keltirilgan stilistik xususiyatlar keng muhokama qilinadi va turli yo‘llar bilan tasniflanadi. Reklamada quyidagi stilistik xususiyatlar qo‘llaniladi: metafora, majoziy til, nostandart so‘zlashuv iboralari, idiomatik iboralar, hissiy assotsiatsiyali so‘zlar, takroriy gaplar, alliteratsiya, his-tuyg‘ularni qo‘llash, so‘z o‘ynash va ikkinchi shaxs maslahat buyrug‘i orqali bevosita murojaat. Bundan tashqari, tasvirlar reklamada bir yoki bir nechta hislar uyg‘otadigan “aqliy rasm”, “aqliy tasvir” va “hissiyot tasviri” ni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Reklama matnlari o‘quvchilarni yoki tinglovchilarni tijorat mahsuloti yoki xizmatlarini sotib olishga ishonish yoki ishontirish uchun mo‘ljallangan. Stilistik tanlovlar ma’ruzachi-yozuvchining xarakterini ochib beradi, ba’zi tanlovlar esa ularning o‘zaro ta’sirini boshqarishga yordam beradi, yoinki shu o‘rinda xushmuomalalikni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ishonchli nutq va reklamada stilistik xususiyatlardan foydalanish brendni ilgari surish bilan chambarchas bog‘liqdir, masalan, ushbu strategiya uchun ishlatiladigan kuchli, ishonchli vizual tasvirni taqdim etadigan ramziylik va rasmning vizual tasviri. Vizual va matnlar reklamada mo‘ljallangan xabarni maqsadli auditoriyaga yetkazishga yordam beradigan qo‘shimcha funksiyalar sifatida ishlatiladi. Vizual elementlardan foydalangan holda reklama xabarlari har doim og‘zaki elementlar bilan mos keladi. [Shariq, 2020], [Izquierdo & Blanco, 2020].

Hozirgi kunda sanoat ko‘proq mijozlarni jalb qilish uchun o‘z xabarlarini yetkazishda jozibali uslublardan foydalanadi. Reklamachilar iste’molchi qarorlarini qabul qilishda hissiyotlar qanday rol o‘ynashiga ko‘proq e’tibor berishadi. Ular, shuningdek, ushbu tadqiqotni reklama ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy elementlar sifatida vizual tasvirlar bilan bog‘lashga moyildirlar. Vizual element reklama xabarining asosiy qismi hisoblanadi, chunki reklama beruvchilar ko‘pincha ma’lumotni yetkazish, istakni yaratish, muayyan harakatlarga undash, ko‘ngil ochish, e’tiborni jalb qilish yoki mahsulot haqida xabardorlikni oshirish yoki xizmat ko‘rsatish kabi maqsadlarga xizmat qilish uchun ma’lum tasvirlarni joylashtiradilar.

Asosiy qism

Stilistik xususiyatlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar

Lingvistik to‘siqlar tufayli matnni tarjima qilishda juda ko‘p murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu reklama matnlarini tarjima qilishda yanada muammoli bo‘lib, masalan, so‘z o‘ynash, jozibali ibora tarjima paytida o‘z yukini yo‘qotadi. Bundan tashqari, til va madaniy chegaralar bo‘ylab har doim ma’no, nuans, asosiy ma’lumot yoki ma’lum konnotatsiyalar yo‘qoladi. Garchi maqsadli tilda manba tiliga xos so‘zlar va idiomatik iboralar uchun ekvivalent bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, bu idiomalar tarjimon tomonidan ataylab yoki beixtiyor e’tibordan chetda qolishi yoki e’tiborsiz qoldirilishi natijasida ma’lum bir nuans, madaniy ma’lumot yoki hissiyotning ifodalab bo‘lmaydigan mantig‘ini

bildirganligi sababli ma’nosiz deb hisoblanadi.

Muayyan tarjima muammosi bilan shug‘ullanmaslik barcha tarjima muammolarining eng dahshatlisiga olib kelishi mumkin. Noto‘g‘ri talqin qilish xavfi va umuman olganda, madaniy befarqlik xabarning ma’lumotli va ishonarli elementlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Madaniy bo‘shliqlar, haqiqatan ham, ishonchli reklama jozibasining samarali tarjimasini buzishi yoki to’sqinlik qilishi mumkin. [Haider & Alrousan, 2022],]Raza va boshq., 2020] Shuning uchun tarjimon manba matnning ishonarli xususiyatlarini to‘g‘ri yetkazish uchun manbada ham, maqsadli madaniyatda ham ishga kirishishi kerak. Shu sababli, tarjima jarayonining boshidanoq, mikro, makro va super-makro darajalardagi tarjimon stilistikaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha omillarni hisobga olishi kerak, chunki ular haqiqatan ham biror bir chet tilini tarjima qilishdagi eng katta to‘siqlardan birini tashkil qiladi.

Stilistik xususiyatlarni saqlash uchun tarjima strategiyalari

Stilistik xususiyatlar matnning ishonarliligi, hissiyligi va estetik jozibadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Reklama matnlarini tarjima qilishda muhim omillar ta’sir ko‘rsatmaslik holatlari kuzatilishi mumkin. Shuning uchun tarjima strategiyalarini ko‘rib chiqishda asl matnning funksiyalari, tushunchalari va niyatlari doimo e’tiborga olinishi kerak. Buning natijasida tarjima qilingan reklama matnlari mazmuniga moslashtirishlar kiritilishi kerak.

Stilistik xususiyatlarni saqlashning strategiyalari mahalliylashtirish va mahalliylashtirilmagan treklar doirasida muhokama qilinadi. Reklama matnlarining lingvistik shaklini tarjima qilish strategiyalari madaniy va lingvistik farqlarga bog‘liq. Biroq, tarjimon reklama matnlarining asl stilistik xususiyatlariga sodiq bo‘lish va maqsadli auditoriyaning til va madaniyatiga xosliklarga rioya qilish o‘rtasida to‘g‘ri muvozanatni topishi kerak. Ushbu strategiyalarni ikki turdagi texnika sifatida tasniflash mumkin: uslubiy xususiyatlarni saqlab qolish yoki ularni almashtirish. Tilning mikrodarajasida transliteratsiya va transpozitsiya yordamida stilistik xususiyatni saqlab qolish mumkin. Makro darajada modulyatsiyani foydali manipulyatsiya usuli sifatida aniqlash mumkin. Shunday qilib, stilistik xususiyatlar ularni mustahkamlash yoki yangi stilistik xususiyatlar bilan almashtirish orqali saqlanishi mumkin. Sifatli yangi yondashuvda, yuqorida qayd etilgan strategiyalarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishini o‘rganishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, reklama qilingan mahsulotlar o‘zgarmagan holda, ammo reklama qilish mo‘ljallangan o‘quvchilar madaniyatida yangi shakllarni oladi. Quyidagi sabablarga ko‘ra modulyatsiyalangan matnlar boshqalarga qaraganda samaraliroq va foydaliroq bo‘ladi [Chjan va boshq., 2021], [Shkurko, 2020].

Birinchidan, modulyatsiyalangan matn maqsadli o‘quvchilarda kerakli his-tuyg‘ularni yaratishga qodir. Ikkinchidan, tarjimalar reklama bo‘yicha mutaxassislar va mahalliylashtirish bo‘yicha mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi. Bu ikki guruh o‘rtasidagi asosiy farq mo‘ljal qilingan o‘quvchilarning tavsiflarida yotadi; birinchisi o‘quvchilar uchun tarkibni aniqlagan bo‘lsa, ikkinchisi o‘quvchilar bilan bog‘liq ba’zi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, reklama bo‘yicha mutaxassislar maqsadli auditoriyani tahlil qilishda kengroq o‘quvchilarni jalb qiladilar, mahalliylashtirish bo‘yicha mutaxassislar esa modulyatsiyani amalga oshirib, tarjima qisqacha taqsimotining yuqori qismiga e’tibor qaratadilar.

Xulosa. Reklama matnlarining tarjimasi talab qiladigan uslubiy xususiyatlar tufayli so‘nggi paytlarda tobora ortib borayotgan ilmiy qiziqish doirasiga aylandi. Stilistik xususiyatlar reklamaning muhim o‘lchovidir, chunki ular auditoriya a’zolarini jalb qilish, ishontirish va e’tiborini jalb qilish uchun muhim hisoblanadi. Asl reklamaning stilistik elementi qanchalik yaxshi tarjima qilingan bo‘lsa, u o‘z auditoriyasini shunchalik kam jalb qiladi yoki jalb qilmaydi va reklamani taqdim etgan mijoz buni ishning muvaffaqiyatsizligi sifatida ko‘rishi mumkin. Buning muhim ahamiyatli tomoni shundaki, asosiy maqsad ham ko‘rib chiqilayotgan mahsulot va xizmatlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi mumkin. Shu sabablarga ko‘ra, reklamaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko‘pincha tilni tanlash sifatiga va uning tarjima jarayonida amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Amaliyotchilar va o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarjima sifati va uning xorijiy tildagi jozibadorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik reklamaning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Professional sohada yaxshi reklamani namoyish qilish va uni ommaga xabarni yetkazish imkon qadar aniq bo‘lishi kerak. Biroq, bu xabarning milliy madaniyatiga mos kelishini talab qiladi. Amaliy nuqtai nazardan, xalqaro kompaniyalardagi ba’zi oddiy odamlar reklamaning manba mazmunida ajralmas shubha va maxfiylik bo‘lishi kerak, tarjimon buni oshkor qilmasligi kerak, deb ta’kidlaydi. Arab gazetalaridagi ingliz tiliga tarjima qilingan reklamalarda arab millatiga mansub kishilarning kundalik hayotiga oid ko‘proq tasvirlar, belgilar, imo-ishoralar va idiomalarni uchratishingiz mumkin, masalan, an’anaviy “Hadrami sallasi”, turli ranglarda bir nechta nomlar ham mavjud. Bunday imo-ishoralar o‘quvchiga o‘ziga xos kuch beradi va ularni mahsulot

sotib olishga undaydi. Reklama samaradorligi odamlarning reklama tillarini bilishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Oddiy qilib aytganda, odamlar tanish tilda tayyorlangan yoki ularga tanish bo‘lgan stilistik xususiyatlarga ega bo‘lgan reklamalarga ko‘proq ijobiy munosabatda bo‘lishadi. Chet elda sayyohning o‘z madaniyatiga amal qiladigan turli reklamalarni ko‘rish, unga amal qilmaydigan reklamalarni ko‘rishdan farq qiladi. Agar sayyoh sifatida, umuman olganda, zavq va baxtga, Formula-1 avtopoygasiga yoki turli potentsial avstraliyalik tajribalarga ishora qiluvchi reklamani ko‘rsangiz, bu farq zaryadini kamaytirmaydi, balki kuchaytiradi. [Li & Kim, 2020], [Li & Cho, 2020], [Ketter va Avraham, 2021]

Madaniyat va korporativ reklama o‘rtasida yaratgan sinergiya reklama marketingidan besh baravar kuchli, ijtimoiy kuch esa ikki baravar kuchli va hokazo. Reklama sohasida, agar tarjima jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratilsa, o‘quvchining munosabati tarjimonning o‘z maqsadlariga samarali, mukammal muloqot va kerakli munosabatni oshirishdagi muvaffaqiyatidan dalolat beradi. Xorijiy tilidagi eng yoqimli va o‘ylantiruvchi reklama boshqa bir chet tilidagi oddiy reklama bo‘lib chiqadi va o‘quvchini qiziqtirmaydi, yoki aksincha. U o‘quvchining his-tuyg‘ularini, ongini o‘z ichiga olishi va ta’sir qilishi, jozibali bo‘lishi va shu bilan birga muassasa imidjini ham mustahkamlashi kerak. Ijodiy reklamada rasmiy protsedura sifatida tarjimaga kamroq e’tibor berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al Falaq, J. S. & Puspita, D. (2021). Critical Discourse Analysis: Revealing Masculinity Through L-Men Advertisement. Linguistics and Literature Journal. teknokrat.ac.id
2. Berger, A. A. (2020). Ads, fads, and consumer culture: Advertising's impact on American character and society. [HTML]
3. Haider, A. S. & Alrousan, F. (2022). Dubbing television advertisements across cultures and languages:: A case study of English and Arabic. Language Value. unirioja.es
4. Izquierdo, M. & Blanco, M. P. (2020). A multi-level contrastive analysis of promotional strategies in specialised discourse. English for Specific Purposes. academia.edu
5. Ketter, E. & Avraham, E. (2021). #StayHome today so we can #TravelTomorrow.
6. Lee, H. & Cho, C. H. (2020). Uses and gratifications of smart speakers: Modelling the effectiveness of smart speaker advertising. International Journal of Advertising. [HTML]
7. Lee, S. & Kim, E. (2020). Influencer marketing on Instagram: How sponsorship disclosure, influencer credibility, and brand credibility impact the effectiveness of Instagram promotional post. Journal of global fashion marketing. researchgate.net
8. Raza, S. H., Abu Bakar, H., & Mohamad, B. (2020). The effects of advertising appeals on consumers' behavioural intention towards global brands: The mediating role of attitude and the moderating role of uncertainty …. Journal of Islamic Marketing. researchgate.net
9. Shariq, M. (2020). Tools and techniques used in the language of advertisements: the linguistic perspective. Media Watch. ssoar.info
10. Shkurko, A. (2020). Mapping cultural values onto the brain: the fragmented landscape. Integrative Psychological and Behavioral Science. [HTML]
11. Visentin, M., Tuan, A., & Di Domenico, G. (2021). Words matter: How privacy concerns and conspiracy theories spread on twitter. Psychology & Marketing. wiley.com
12. Xiao, L., Li, X., & Zhang, Y. (2023). Exploring the factors influencing consumer engagement behavior regarding short-form video advertising: A big data perspective. Journal of Retailing and Consumer Services. [HTML]
13. Zhang, J., Lu, C., Wu, X., Nie, D., & Yu, H. (2021). Neuroplasticity of acupuncture for stroke: An evidence-based review of MRI. Neural Plasticity. wiley.com

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy ustozi;
Shohruxbek JUMABOYEV,
mustaqil tadqiqotchi

KO‘HKAN NAQBZANMI YO NAQBKAN YOXUD XAMIRI MOYAI JISMINGDIN ORTQONNI QAZO...

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibidagi “Qaro ko‘zum”dan keltirilgan baytni to‘ldiradigan, uni izohlaydigan boshqa misralarni taqdim etishga harakat qilingan. Xamr, ko‘hkan, jonkan kabi obrazlar ham tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: *xamr, ko‘hkan, firoq tog‘i, tufrog‘, charx, jonkan.*

Assalomu alaykum, qadrdon muxlis! Davrani qizita olyapmanmi yo yo‘q bilmadim-u, lekin Siz yosh navoiyxonlar bilan yana muloqotda bo‘lishni sog‘indim. Sarlavhadagi birinchi so‘zni ko‘riboq novvoylarning yarim tunda xamir qorishi yodingizga tushgan bo‘lsa ajab emas. “Xamir et”moq o‘sha Siz o‘ylagan – xamir qormoq. Avvalo, baytni eslaylik:

Firoq tog‘ida topilsa tufrog‘im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il.

Kirish o‘rnida ma’lumot uchun yana qisqacha shuni eslatmoqchimanki, biz sharhlashga niyatlaganimiz ushbu 4-bayt shoir ixlosmand muxlislari tomonidan hozirlangan “Ilk devon”da mavjud emas. Bu g‘azal u yerda 7 baytdan iborat. Bu baytning ushbu g‘azalga kirmay qolishining ilmiy sababi aniq emas… Keyinchalik “Badoye ul-bidoya” devonida sharq g‘azalchiligida adabiy an’anaga aylangan asosiy vositadan biri tufayli charx, kavn, sipehr, falakka murojaat qilish kabi ma’naviy motivlar mas’uliyati tagzamini asosida ushbu bayt shoir tomonidan ijod qilinib g‘azal syujeti yanada to‘ldirilgan, mukammallashtirilgan. G‘azal shunday an’anaviy usul (kanon) talablari asosida ijodiy takomil tadriji hosilasi o‘laroq ushbu asar keyinchalik devonda 8 bayt hajmini olgan… Hamkasblarimizga yana shuni alohida ta’kidlab o‘tamizki, bizning bu bayon qilayotgan mulohazalarimiz ilmiy asoslangan qat’iy hukm emas, balki ushbu asarni sharhlash jarayonida savqi tabiiy kechinmalar bois yuzaga kelayotgan ehtimoliy munosabatlar ekanligini ham unutmasinlar. Bular barchasi shoir devonlarini mutolaa qilish chog‘ida Navoiy g‘azaliyotida an’anaviylik darajasida tus olgan ramziy tashbehiy va talmehiy timsollar tadrijini kuzatish jarayonida tug‘ilgan tafakkuriy kuzatish va ijodiy izlanishlar borasidagi xulosalarimizdan iborat.

Yana ushbu o‘rinda g‘azal bayti obrazlariga to‘xtalish asnosida shu asar sharhi bilan bog‘liq ayrim hayotiy lavhalarni ham so‘zlab o‘tishga zaruriyat tug‘ilmoqda... 2019-yilning mart oyida “e”-yo‘q, “be”-yo‘q, 1994-yilning 7-fevralida bosilgan maqolam qayta chop etilgach, oradan 25 yil (maqola yozilgan vaqtni hisobga olinsa, 28 yil)dan so‘ng bir munaqqidning shu maqolam yuzasidan munosabat bildirilgan (qarasa orqasi yo‘qroq, ilmiy darajasiz va lavozimsiz oddiy muallim) tanqidlari to‘foniga uchradim. Kutilmagan tanqidlaridan tanimdagi barcha *ilhom kurtaklari* so‘ndi... Karaxt holga kelib qoldim. Real hayotda esa shu davrda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlanish uchun Davlat mukofotiga nomzodim berilgan vaqt... Bir o‘quvchim Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo‘lgan payt. Uzoq yillik mehnatlarim samarasi yuz ko‘rayotgan pallada shunday “omad”ga duch keldim. Xullas, shunday shokka tushdimki, bir yil bir misra ham she’r qoralay olmay qoldim. She’r quvonchdan yo g‘amdan tug‘iladi, degan iboraning ikkinchi (yarmi) qismi asossiz ekan. Mutlaqo tildan qoldim. Go‘yo bulbulning ko‘zini o‘yib, tilini uzib olganday bo‘ldi... U olimning e’tirozlaridan biri mana shu: xamir so‘zi edi. Men o‘z maqolamda uni “m”dan so‘nggi “i” harfi talaffuzda aniq eshitilmaydi va yozuvda ham ifodalanmaydi, degandim. Domla esa bu qarash mutlaqo noto‘g‘ri ekanligini isbotlagandi. Domlaning gapi ham o‘zicha to‘g‘ridir-u, lekin nahotki, lug‘atga qaramasa?

Keyin men raddiyamda shunday javob yozdim: ... “Raddiyachi izohlayotgan xamir – suv yoki sutga aralashtirib hosil qilinadigan qorishma: nonxamir yo oshxamir. Biz nazarda tutayotgan xam(i)r esa – may quyqasi. Bu so‘zning imlosi (yozilishi) va ma’nosi “O‘zbek tiling izohli lug‘ati”da (II jild, 315-bet, 3-ustun, 2-qator):

Xamr (a) esk. ayn. – may II. tarzida berilgan (– Moskva: “Russkiy yazik” nashriyoti, 1981-yil. Z. M. Ma’rufov tahriri ostida).

Xamr – so‘zi yana “ Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”da ham: Xamr – may (301-bet) tarzida “i” siz yozilgan. (FAN nashriyoti, 1993-yil. Tuzuvchi: Botirbek Hasanov)

Demak, shu asoslarga ko‘ra haqiqatan ham xamr (may) so‘zi eski (o‘zbek tili) yozuvida “i” siz yoziladi

va tasavvufda may quyqasi ma'nosida keladi. Biz XAMR so'zi qisqa "i" siz yoziladi, deganimizda mana shu so'zning arab yozuvida yozilishini nazarda tutganmiz...Domla esa xamir – undan tayyorlanadigan qorishmani ta'kidlab " ...u "i" siz yozilmaydi, cho'ziq bo'g'in tarkibida" – deya izohlaydi. Biz nazarda tutayotgan talaffuzda qisqa "i" bilan ifodalanuvchi xam(i)r esa, har ikki lug'atda ham XAMR shaklida "i" siz berilgan. Xullas, Navoiy davrida u xam(i)r ham, bu hamr ham arab alifbosiga asoslangan yozuvda "i"siz yozilgan va bu o'rinda bizning mulohazalarimiz lug'atlarga muvofiq bo'lganligi bois o'zimiz uchun to'g'ri... Hozir yuqoridagi baytni yozar ekanman, yosh navoiyxonlarni yillar o'tib sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli xatarlar qadar (taqdir)da bo'lishi ehtimoli ham borligidan hushyor bo'lishlariga ogohlantirdik...

Endi biroz "nasriy chekinish"dan so'ng baytdagi timsollarni bir-bir izohlashga o'tamiz.

Dastlab "firoq tog'i" birikmasi... Bu ayriliq tog'i – tarixiy afsonalarga ko'ra Farhodning fojiali iztiroblariga ishora. Farhod boshidan o'tkazgan, kechirgan ayriliq riyozatlari, ulkan ishq azobi, o'z labzi yo'lida jon taslim etgan **ko'hi balo** ramzi.

Misra davomida kelayotgan ko'hkan so'zi ham Farhod taqdiri bilan bog'liq. Ko'hkan – Farhodning kunyaviy nomi. So'zning lug'aviy ma'nosi: ko'h – tog', kan – forscha "qazimoq" so'zlari birikuvidan hosil bo'lgan. Farhod ishq (g'am, hasrat) tog'ining ko'hkani.

*Maqomi gohi **balo tog'i**dur, gohi fano dashti,*
*Ki ishq ichra berur **Farhod**-u Majnundan nishon. (413- g'azal.)*
*La'li shavqidinkim **g'am tog'in** qazarsen, ey ko'ngul,*
*Ne balo Shirin havaslik notavon **ko'hkansen**. (488- g'azal.)*
*Surdi ko'nglumni buzib **xoki tanim** ichra samand*
*Yelga berdi **tufrog'in**, bu uyni vayron aylagach. (97- g'azal.)*
***Tufrog'** agar bo'lsa **tanim** dayrda qilma,*
***Ey charx**, oni sog'ar-u paymonadin ayru. (513-g'azal.)*
*G'amin ko'rmang **balo tog'i**da, la'li shavqidin jonni,*
Ki har bir toshidin sotmas abad umriga misqolin.
*Xullasin xunoblig' jon rishtasidin qildi **charx,***
Bo'ldi jonlar joni vah-vah ul parivash paykari. (576-g'azal.)

Iqtiboslardan ko'rinmoqdaki, Navoiy firoq tog'ini g'azallarida "balo tog'i", "g'am tog'i" birikmalari bilan tez-tez eslab turgan...

Endi tufroq – so'ziga kelsak, u Odam taqdirining boshlanishi va xotimasi. Tufroq – yor oyog'i izining xoklari. G'azallarda "xoki tanim" birikmasi bilan bot-bot ko'zga tashlanadi. U adabiyotda kamtarlik, siniqlik, shikastalik, tufroqfe'llilik, tufroqtabiatlilik sifatlarini ifodalash maqsadida ko'p yodga olinadi. Yana tufroq FAQR maqomidagi oshiq holatini ham ifodalaydi.

Yo'linga o'ldi oshiq (Navoiy-yu) **bo'ldi tufroq ham**,

Yopushsa erdi bu ko'y itlari ayog'iga kosh.

Misra so'nggida kelayotgan charx ham she'riyatda eng ko'hna obrazlardan biri. Adabiyotda dom, dahr, domgoh, dahridun, g'addor dunyo, kajraftor falak, xuffosh, ochun, charxi falak, olam uyi, kavn, buqalamun, jahon, hijob, gardun, sipehr, korgah, moado, mosivo nomlari bilan eslanib oshiqqa bir qo'li bilan asal berib, ikkinchisi bilan zahar beruvchi riyokor.

Xamr etib – Odam Atoning yaratilishiga ishora. Ishqning azaliy va abadiyligi. Ishqning Odam Ato – Sofiyulloh jussasidan bashar ahliga ma'naviy merosligi timsoli.

Xamiri moyai jismingdin ortqanin qazo,
*Iki bandada qilib **ruh** atadi Xizr-u Masih. (101-g'azal.)*
*Ko'p malohat bobida Shirindin aytur **ko'hkan,***
Sabz shirinimcha ul bor erdi ekanmu malih. (103-g'azal.)

Nodira baytlaridan birida shunday deydi:

*Menga barobar emas **Ko'hkan** bilan Majnun,*
Alarda yuz g'am edi, lek menda ming hasrat.

Bu yerda ko'hkan Farhod ma'nosida kelgan. Sakkokiy esa g'azallaridan birida ko'hkan so'zini ishq yo'lida riyozat tortuvchi oshiq ma'nosida eslaydi:

*Agar Shirin uchun Farhod ishqi **Ko'hkan** bo'lsa,*
*Ne tong Sakkokiy ham jonon yo'lingda **jonkan** bo'ldi.*

Bu yerda shoir ko'hkan so'zidan foydalanib yangi so'z jonkanni qo'llab undan qofiya yasamoqda... Navoiygacha bo'lgan davrdagi dostonlarda Farhod bosh qahramon emas edi. Shiringa oshiq bo'lib qolgan Farhodga Xisrav ko'hi Behistunni teshsang, Shiringa egalik qilasan, deb shart qo'yadi. Bu ishni eplolmaydi, deb chamalagan Xisrav qarasaki, u tog'ni risoladagidek teshmoqda. Shunda u g'irromlik qilib zoli yalmog'iz orqali nayrang yo'li bilan Ko'hkanni o'ldirtiradi. Yuqoridagi misrada **talmeh** orqali shu ko'hna syujetga ishora o'rin olgan. Oshiq: "Behistun tog'ini yo'nolmay, ko'hi Ishqni mahv etolmay o'tib ketsam", demoqda. Bu lavhadagi tog'ni tunel kabi ochish yumushi qazish emas, tog'ni o'yishdir. Bu yerda gap tog'ni teshib kirish, ya'ni o'yish haqida bormoqda... Ya'ni, naqbkan – yer osti qazuvchisi, tunel kabi lahm ochish harakati. Keyinchalik bu epizodlar Navoiyda tog'ni cho'qmor bilan qazish lavhalariga o'zgartirildi. Endi bu kavlashni o'yish

emas, qazish deb atasa bo‘ladi. Ya’ni naqbzan – teshuvchi, tog‘ qazuvchi kishi. Men yuqoridagi doston syujetini nazarda tutib (tog‘ni tunel kabi teshish) o‘z maqolamda bu kesishni: “...to‘g‘rirog‘i tog‘ o‘yuvchi desak, barcha ma’noni qamrab oladi” deb izohlasam, bir munaqqid Navoiy ijodidagi lavhani yodda tutib, “...shorih “ko‘hkan” obrazining “tog‘ qazuvchi” asl ma’nosini bemalol o‘zgartirib yuboraveradi”, deya tanqid qilgandi... Bu yerda gap so‘z o‘zaklarining ifodalayotgan ma’nosida emas, birinchi lavhadagi ish jarayoni – tog‘ni o‘yib o‘yma lahm qazish jarayoni to‘g‘risida bormoqda. Men nima deyman-u, qo‘bizim nima deydi?! “Berdi”sini anglab yetguncha, “boshini ol”... ekan bu dunyo...

Demak, “ko‘hkan” tog‘ yo‘nuvchi, ko‘h qazuvchi. Yuqoridagi ikki epizodni nazarda tutsak esa qaysidir ma’noda ko‘hkan qahramonligi ham naqbkan, ham naqbzan ekan. Farhodning o‘z ishqi yo‘lidagi g‘ovlaridan, og‘ir shartlaridan biri tog‘ni yo‘nib suv keltirish sinovidir. Bu sinovdan o‘tishda ko‘plab oshiqlar qurbon bo‘lgan, jismi xokka aylangan. Ko‘hkan uchun shu suvni keltirguncha bo‘lgan davr va daqiqalar ayriliq, **firoq damlari**dir. Shu ma’noda bu tog‘ qazish jarayoni – firoq tog‘idir. Alhosil, tog‘ qazish naqadar mashaqqatli bo‘lsa, ishq yo‘lida sodiq qolib firoq tog‘ida shartdan o‘tish undan-da, o‘n daraja ortiq riyozat, o‘z sevgan jononiga yetish yo‘lidagi mashaqqatli jonkanlikdir. Shoir bu ko‘hkan so‘ziga juda ko‘p nozik ma’nolarni yuklaydi. Baytda: “Ey kajraftor charx, ayriliq tog‘ida tufrog‘im (xok) topilsa, xamir qorib (loy) yana undan ko‘hkan yasagin. Agar men ham o‘zga oshiqlar singari bu firoq yo‘lida jon fido qilsam, xoki g‘uborimdan yana, albatta, Farhod kabi oshiq yarat”, deb iltijo qilmoqda. Chunki o‘shagina qadim rivoyat va dostonlardagi singari har qanday riyozatdan bosh tortmay, Ishq yo‘lida so‘zsiz yana tog‘ kavlagan bo‘lur edi...

Mabodo, bu xudbin charxga nasib etib “firoq tog‘i”dagi oshiqlar tufrog‘idan mardum (inson) yasasa, u yana Ko‘hkan kabi muhabbat sulukida har qanday balolarni yenguvchi, tog‘ o‘yuvchi misoli sabr-toqatli, mashaqqat-u azoblarga chidamli bir oshiq yigit yuzaga kelardi. Baytdagi hissiy bo‘yoqdan chiqib kelib aytish mumkinki, agar Charx bu xoklardan boshqa kishi (aytaylik, Namrud) yasamoqchi (chunki u kajraftor-da) bo‘lganida ham baribir qadar yana Farhod kelbat oshiq yasayveradi... Sababi: barchasi niyatga qarab, deydi dono xalqimiz. G‘azallarda shunday tasvirlar ham mavjud:

Beshlar ko‘ksumda ko‘r, Farhod bahsini qo‘yki, ul Qo‘zmadi mendek ***balo tog‘in tirnog‘i bilan****. (560-g‘azal.)*

Ishq aro qozdim ***balo tog‘ini tirnog‘im bilan,***

O‘yla sog‘inmangki Shirin oshiqi Farhodmen. (II-472-g‘azal.)

Shoir g‘azallarida Ko‘hkanning cho‘qmor bilan tog‘ qazishi go‘yo osondek ko‘rinib lavhalardagi tog‘ qo‘porish tasvirini yanada bo‘rttirib, lof-u mubolag‘a bilan aks ettirib oshiqning ishq ko‘hini qat’iyat va chidam-u jasorat bilan bosib o‘tishini ochib berish maqsadida yuqoridagi misralardagi singari: “balo tog‘in tirnog‘i bilan qazish” birikmasini yaratadi. Tirnoq bilan tog‘ni emas, qattiqroq yerni kovlashni tasavvur qiling. Zang yerga botmay g‘itirlayotgan tirnoq ovozlarini bir-ikki eshitganingizdayoq ichingiz jimirlab ketadi. Biror kattaroq toshga shunday qilib ko‘ring-a... Naqadar azobli. Demak, ishq yo‘lida sobit qolib riyozat chekish ham ruhiy jihatdan ko‘hkanlikdan ko‘ra ortiq jonkanlik ekan.

Sharhimiz xulosasini yetuk olim, akademik Alibek Rustamov tahlilidan quyidagi iqtiboslarni keltirish orqali yakunlamoqchimiz: “Agar kishining maqsadi Farhodnikidek tog‘ni qazish natijasida hosil bo‘ladigan bo‘lsa, lekin ... Farhoddan farqli o‘laroq bu tog‘ni qazish umr yetmaydigan darajada qiyin bo‘lsa, u maqsadi yo‘lida tuproqqa aylanishi mumkin. Shoir mana shunday holda ham maqsadga erishishga harakat qilaman, sodda qilib aytganda: o‘lsam ham shu (ishq) yo‘ldan qaytmayman, deydi. Bunda menga yangidan umr berilsa ham, mana shu ishimni davom ettirgan bo‘lur edim, degan maqsad bor. Kishi o‘z maqsadi yo‘lida halok bo‘lsa, umr bekorga ketmagan bo‘ladi... Charx aylanib yana mening tufrog‘imga odam bo‘lish navbati kelsa, meni yana firoq tog‘ining ko‘hkani qilib tiriltir. Yo‘limda tog‘day g‘ovlar bo‘lsa ham, bu yo‘lning azoblari tog‘ qazib suvga yo‘l ochishday qiyin bo‘lsa ham, o‘z maqsadimdan aslo voz kechmayman, demoqda” – Ko‘hkan ishq mazhabi soliklariga.

G‘amdur ko‘nglumda ul shirin sanamni ko‘rgali,

Tog‘ aro Farhod o‘lurkim ***ko‘rdi Farhod ichra tog‘***.(II -296-g‘.)

Go‘yiyo Farhoddek hamroz uchun ***barq o‘tidin*** *,*

Lola ermas bag‘riga har sori qo‘ymish ***tog‘ dog‘*** (II -299 -g‘.)

Men men-u ko‘hi g‘animkim tog‘ tiyg‘i basdurur,

G‘am sipohi harbig‘a istar esa Farhod tiyg‘. (II-301 -g‘.)

Zulfiya FAYZULLAYEVA,
O‘zJOKU o‘qituvchisi,
erkin tadqiqotchi

PUBLITSISTNING TIL BIRLIKLARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya: publitsist tilining o‘ziga xos xususiyatlari nazariy muammolari, ijodkor publitsistikasi, unga ta’sir etuvchi til birliklari, til va uslub masalasi publitsist Saydi Umirov asarlari misolida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *leksik-semantik vositalar, individual uslub, tasvir, obrazlilik, leksik-frazeologik sinonimlar, publitsistik uslub, arxaik shakl, okkazional so‘z.*

Аннотация: теоретические проблемы публицистического языка, творческой журналистики, влияющих на нее языковых единиц, вопрос языка и стиля изучались на примере произведений журналиста Сайди Умирова.

Ключевые слова: *лексико-семантический инструментарий, индивидуальный стиль, образ, образность, лексико-фразеологические синонимы, публицистический стиль, архаичная форма, окказиональное слово.*

Annotation: theoretical problems of journalistic language, creative journalism, linguistic units influencing it, the issue of language and style were studied using the example of the works of journalist Saidi Umirov.

Key words: *lexico-semantic tools, individual style, image, imagery, lexico-phraseological synonyms, journalistic style, archaic form, occasional word.*

Asar tilini o‘rganish yozuvchining badiiy mahoratini tadqiq qilish bilan bog‘liqdir.Badiiy mahorat tushunchasi til va badiiy uslub mahoratidir. Yozuvchining so‘z tanlash va qo‘llash san’ati, uning tasviriy vositalardan foydalanish mahorati darajasi asar tilini o‘rganishning asosini tashkil qiladi. Negaki, badiiy til vositasi asarda asosiy fikr, tushunchani ifodalabgina qolmay, balki badiiy asarning obrazliligini ham ta’minlaydi.

Tilning nozik imkoniyatlari, uning qudrati shu tilning lug‘aviy birliklari orqali yuzaga chiqishi bevosita ijodkor individual uslubiga bog‘liq.

Leksik-semantik vositalar tilning badiiy, publitsistik uslubini belgilaydi. Tasvirlash vositalarining estetik vazifa bajarishi publitsistik uslub tilining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Chunki u publitsistik matnda ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardandir.S.Umirov publitsistikasi tili haqida so‘z borar ekan, muallif hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishda, isbotlashda, o‘quvchini bunga ishontirishda, his-tuyg‘ulariga ta’sir etishda ko‘chma ma’noli so‘zlarga, ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli so‘zlarga, emotsional bo‘yoqdor so‘zlarga, barqaror birikmalarga ham murojaat qiladi.

Nutqqa obrazlilik, ekpressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar orasida o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda ishlatish metaforadir. Ushbu kengaygan metaforaga mansub misolda til boyliklaridan ustalik bilan foydalana olgani matnning ta’sirli chiqishini ta’minlagan:

Kamsuqum, xokisor, qoramag‘iz, mahzun tabassumli Muhammad Yusufning turgan bitgani she’r edi, uning *vujuddan so‘z yog‘ilib, har mo‘yidan nazm to‘kilib turardi*. [2;245]

O‘xshatishlar eng qadimgi tasviriy vositalar sifatida badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Bu usul so‘z ustasining kuzatuvchan, ziyrak nigohi mahsuli sifatida yuzaga keladi. *Yaxshi she’r singari*, yaxshi hikoya darhol tilga tushadi, o‘ziga xos voqea bo‘ladi. [1;319]

Ulug‘vor ishlar, azim qurilishlar qiyinchilik, mashaqqatlarsiz, xamirdan qil sug‘urganday bitmaydi, paxta, g‘alla xirmonlari o‘z-o‘zidan yuksalib qolmaydi, albatta.[1;19]

Ochiq kitob yanglig‘ “O‘zbekiston” mehmonxonasiga qo‘ngan sayyohlar tanishishni, odatda, Amir Temur xiyobonidan boshlashadi. [2;239]

Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’noning yorqin aks etishini ko‘rishimiz mumkin. Kontekstda qo‘llangan kitobxonga tanish so‘zdan foydalanilgani orqali ham tasvirning emotsional-ekspressivligi ta’minlangan. “Orzigul Ergasheva degan ayol jahon adabiyotidan o‘qigan asarlarini bir-bir sanab, shoirlar she’rlarini yoddan jaranglatib aytib, bulbulday *sayrab* ketganiga hayron-lol qoldik”.[1;368]

“Bilsa – hazil, bilmasa – chin maqomidagi mayin, beozor, birda yumshoq, birda qattiq yumor, she’r, g‘azallari, dostonlari, dramalari, maqolalari aro sochilib yotganday tuyulsa ham, aslida maqsadni, g‘oyani birlashtirib, uzvlarni “*yelimlab*” turadi.” [1;270]

Jurnalistika bilan publitsistikani past-baland qirlar, tepaliklar, tog‘larga mengzash joiz bo‘lsa, *publitsistika tog‘ning baland cho‘qqisi*, cho‘qqini esa birdan zabt etish mushkul, *cho‘qqiga jurnalistika pillapoyalaridan zahmat chekib, qiyinchiliklarini yengib, tajriba to‘plab, malaka, mahorat oshirib chiqib boriladi*. [1;385]

“*Mashrab Boboyev qaysi janrda qalam tebratmasin yaxshi yozdi, miqti – puxta yozdi, nazmi, nasri, dramaturgiyasi, publitsistikasi, tarjimalari bunga dalil.*

Asarlarining eng muhim fazilatlari: hayotiyligi, tabiiyligi, samimiyligi, ortiqcha bezak va hashamdorlikdan xoliligi". [1;252]

O‘zbek tilining izohli lug‘atida miqti so‘zi sergo‘sht, ammo pishiq, deb insonga nisbatan ko‘rsatilgan. Bu yerda insonga xos bo‘lgan xususiyat asarlarga nisbatan qo‘llangan. Bu so‘z orqali ijodkorning o‘ziga xos jihatlarini ko‘ra bilgan, uning originalligini ta’minlagan.

Muallif asarlarida fikr, his-tuyg‘ularini aniq ifodalashi uchun leksik-frazeologik sinonimlarni birga qo‘llaydiki, natijada so‘zdagi ifoda, iboradagi ma’no qirrasi ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi:

Ulug‘vor ishlar, azim qurilishlar *qiyinchilik, mashaqqatlarsiz, xamirdan qil sug‘urganday* bitmaydi, paxta, g‘alla xirmonlari o‘z o‘zidan yuksalib qolmaydi, albatta.

Shuningdek, publitsist frazeologik birliklardan ham o‘rinli foydalanganki, iboraga xos konnotativ ma’no yana ham kuchliroq ifodalangan, tasvirning aniqligi va ifodaliligini ta’minlashga xizmat qilgan: *Ko‘rib ko‘rmaslikka solib ketishi, oyoqqa turishi, ayrim odamlarning tanobi tortib qo‘yilishi, o‘zini chetga tortadiganlar, tesha tegmagan, o‘q o‘tmas, suvga cho‘kmas, burnidan ip o‘tkazib* kabilar shular jumlasidandir.

S.Umirov bir qator maqollardan ham foydalangan. Ularning estetik funksiyasi ham bevosita asar qahramonining o‘ziga xosligini ko‘rsatishga qaratilgan. "*O‘g‘ri bo‘l, qaroqchi bo‘l, insof bilan bo‘l*, degan gap bor". [2;260]

"*Tish bergan Xudo rizqini ham beradi*". [2;261]

"O‘qigan – o‘zar, o‘qimagan – to‘zar" – gap nima haqda ketayotgani o‘z o‘zidan anglashilib turibdi". [1;367]

"Ot aylanib qozig‘ini topadi, degan naql bor". [1;394]

Ota-onalarimiz bejiz aytishmagan: "Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-tarozu".

Ba’zan maqollarning arxaik shakllaridan ham foydalanilgan. "O‘zga yurtda sulton bo‘lgandan o‘z yurtingda *ulton* bo‘l". [1;365]"*Sirti* yaltiroq, ichi qaltiroq bahaybat imperiyaning so‘nggi davrlari". [2;165]

Sarlavha qo‘yishda ham maqollardan o‘rinli foydalangan, "Shoxiga ursang, tuyog‘i zirqiraydi".

"Changi va dong‘i chiqqan yolg‘iz ot" sarlavhasida maqol poetik sintaktik talab bilan stilistik jihatdan o‘zgartirilgan. Ammo uning mantiqiy, asosi, emotsional-ekspressiv jihatlari to‘liq saqlangan.

"Yaxshilik yo‘lini tut, birovga yomonlik sog‘inma, doving yurishganda havolanib ketma, g‘am-tashvishli kunlarda bosiq, bardoshli bo‘l, degan o‘giti doim yodimda turadi". [1;111]Ushbu matnda muayyan maqsad bilan qo‘llanilgan didaktema orqali pand-nasihat berish, muammoli vaziyatga ko‘maklashish, to‘g‘ri yo‘lni topishda keltirilgan misoldan ibrat olishga da’vat qilish ma’nosini yuklagan.

Saydi Umirov uslubi o‘ziga xos.Xafa bo‘lmoq ma’nosini anglatuvchi *ozurda* so‘zining qo‘llanishi kitobiy-badiiy uslubga xos.Ammo ularning har biri o‘z stilistik o‘rniga ega – biri ikkinchisining o‘rnini bosa olmasligi mumkin. Ranjimoqning o‘rnida *ozurda* variantidan foydalanish bilan so‘zning ekspressivlik xususiyati ortgan.

"Yetarli baho olmaganiga *ozurda* bo‘ldim". [2;264]

"Gaplashdim, tabrikladim, *ozurda* bo‘ldim". [2;271]

"Ustoz kitobning asosiy qismini yozdi, men bu ishda domlaga baqamti bo‘ldim". [1;365] Baqamti ravishi yuzma-yuz, ro‘baro‘ ma’nosini ifodalaydi. Bu gapda esa yordamchi ma’nosiga to‘g‘ri kelgan.

Ba’zan esa so‘zlashuv uslubidagi so‘zlardan o‘rinli foydalangan: "Ko‘ngil xohishi, qalb amri bilan yozgan ma’qulroq, *emin-erkin* fikrlaysan, tabiiy, samimiy, ishonchliroq chiqadi". [5;23]

Badiiy asarning xalqchilligini ta’minlashda sheva so‘zlari (dialektizmlar) ijodkor nutqining individualligini ta’minlagan: Safsata sotuvchi faylasuf Shodining amalda *bodi* (O‘TILda *ko‘chma ma’noda maqtanchoq, manman*; Samarqand shevasida *olifta*) ...ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Saydi Umirov qaysi kasb egalari haqida maqola yozmasin, kasb-hunarni ifodalovchi atamalardan foydalanadi. Rustam Qosimjonov haqida yozgan maqolasida shaxmat o‘yini bosqichlarini ifodalovchi so‘zlarni qo‘llaydi. "Bu orada kunlarni tunlarga ulab, muttasil ishlab, izlanib, bilimi, mahoratini oshirib bordi, yuzlab, minglab martalar taxtaga donalar tikkandir, *debyut, mittelshpil, endshpil* sirlarini o‘rgangandir, mashhur grossmeysterlarning kitoblarini, sharhlarini o‘qib, o‘yinlarini ko‘rib chiqqandir". [2;204]

Yoki maxsus industrial, iqtisodiy zonalar faoliyati haqida maqola, ocherklar yozib kelish uchun Navoiy viloyatiga ijodiy safarda bo‘lganida, o‘ziga xos kasb-hunar so‘zlarini keltiradi: "Maxsus omborda mufta, troynik, fitinglar, katta-kichik, uzun-qisqa, oppoq, silliq quvurlar jo‘natish uchun taxt qilib qo‘yilgan". [2;76] Bu esa publitsistning avval sohadan xabardor bo‘lib, keyingina u haqda ishonchli ma’lumotlarni yetkazishidan darak beradi.

Lingvistikadaxiazmhodisasiadabiyotshunoslikdagi tardi aks san’atiga to‘g‘ri keladi: "Rustam Qosimjonov *qanchalik mashhur bo‘lsa, shunchalik kamtar, qancha kamtar bo‘lsa, shuncha mashhur*". [2;206]

"*Fakt fikrni, fikr faktni* istisno etmasligi, ularning mustahkam aloqadorligi, bir-birini taqozo etishi ma’lum, bu ko‘rsatma publitsistikada alohida ahamiyat kasb etadi". [2;158]

Parafrazalardan ham o‘ziga xos tarzda foydalanadi: "Bugungi kunda Sharifa Salimova bir qator she’riy, publitsistik kitoblar o‘qib, o‘nlab maqola, suhbatlar muallifi, radioeshittirish, teleko‘rsatuvlar qahramoni, respublikamiz taniqli ayollaridan, *she’riyatimiz malikalaridan biri*". [1;331]

Allyuziv birliklardan foydalangan, bu Sharqda talmeh san'atiga yaqin. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir. "Buyuk shoirlarimiz Navoiy, Bobur, Mashrab, ulug' allomalar Beruniy, Koshg'ariy, Zamaxshariylar, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari, qo'shiqlar, maqol, matallar, xalq og'zaki ijodining noyob durdonalari avval boshdan yodimizga keladi". [1;267]

"Fonendoskopini ko'kragiga, qorniga qo'yib, ikki uchini ikki qulog'iga tiqib eshitayotgan mehribon, ko'zoynakli Aybolit amakisiga jovdiragancha najot kutib qarab turadi".[2;230] Ma'lumki, Aybolit Korney Chukovskiy asarlaridagi davolovchi ertak qahramoni.

"Sifatdosh shakli hozirgi o'zbek tilida cheklangan holda -gusi, -ajak affikslari bilan ham yasaladi"[1;267]: "Uch zabardast, nurli siymo – Mirzo Bobur, Abdulhamid Cho'lpon, Muhammad Yusuf dovrug'i uzoq-uzoqlarga ket*gusi*, adabiyotimiz nafasini avlodlar osha elt*gusi*, minglab, millionlab she'riyat shaydolarining qalblarini zabt et*gusi*". [2;244]

Xatarli so'zini *xatarnok* shaklida ham qo'llaydi.

Ijodkor tafakkurini aks ettiruvchi ijodiy yasalma ifodalilik va ekspressivlikni ta'minlovchi vosita sifatida ham yuzaga chiqadi. Aynan shu jihati bilan o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. "Okkazionalizmlar. Mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizmlardir" Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zME, 2002. – 74-b. Okkazional so'z o'zi ishtirok etgan matndagi muhim bo'lak bo'lib, u shu matndagi asosiy fikrni ifodalashda, unga originallik berish maqsadida yaratiladi. S.Umirov maqolalarida ham Dahshatullo, sachratqi, qitiqdor, suxanshunos kabi okkazional so'zlar uchraydi:

O'tkir Hoshimov ko'p yillardan beri "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" nomi ostida hikmatli so'zlar, qayroqi gaplar, fikr *sachratqilari*, mitti hikoyalar e'lon qilib keldi.

"Munaqqid dostondan didli rassom polotnosi uchun tayyor manzara bo'la oladigan jonli, jozibador, *qitiqdor* tasvirlarni takror san'atidan foydalangan". [1;365] "*Suxanshunos*, o'qimishli emasmi, odamlarning tilida, tilining uchida turgan gaplarni topardi". [2;260]

"Shatranj taxtasida u "*Dahshatullo*" bo'lib ketardi". [2;275]

Publitsist "*Tikonli xushbo'y* atirgul" maqolasida oksyumorondan foydalangan. Maqola parodiyanavis T.Adashboyevning to'plami haqida bo'lib, muallif mohirona yozilgan satira va yumorga boy bo'lgan parodiyalarni tikanli xushbo'y atirgulga o'xshatadi. Bunday qo'llash tilshunoslikda okkazionalizm yoki okkazional qo'llanish (noodatiylik, noodatiy qo'llanish) sifatida ham baholanishi mumkin. Oksyumoron qarama-qarshilik asosiga qurilgan o'ziga xos timsollar yaratishga xizmat qiladi. Bunda, albatta, g'ayriodatiylik bir oz kuchli bo'ladi. Oksyumoronda bir so'z ikkinchisiga asosan aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi.

S.Umirov takror va juft so'zlardan unumli foydalangan: "Faqat ahyon-ahyonda ko'nglini topishga, xotirasini qitiqlashga muvaffaq bo'lgan kishilarga ochilib-yayrab suhbat berishadi. Bunday hurmatli-e'zozli kishilarning matbuotda biror maqolasini o'qish, efir, ekranda suhbatini eshitish maroqli, hafsala qilib yirikroq esdaliklar, esselar yozishsa-ku o'qish gashtli". [1;392.393]

"Hali to'plami chiqmay turib aksariyat she'rlaridan talabalar, muxlislar xabar topgan, bir-birlariga yetkazgan, ba'zi munaqqidlar nazariga ham tushib ulgurgan edi".[1;328]

"Ilgari maysa qoplangan, *yakkam-dukkam* daraxtlar band etib turgan old-orqa sahnlarda shunday alomat, kiroyi inshoot qad ko'taribdi". [1;118] Kitob sha'niga qancha-qancha kitob, maqolalar bitilgan, maqollar, hikmatlar to'qilgan. [1;365]

"Bu inson umri davomida *qancha* kuy yaratgani, *qanchasi* o'ziniki, *qanchasi* xalqniki, birovlarniki bo'lib ketgani bilan ishi yo'q, eng muhimi, kuy, ashula odamlarga yoqsa, kayfiyatini ko'tarsa bo'lgani ekan". [1;147]

Keltirilgan misollarda yozuvchi birikmalarni gap tarkibida takrorlash orqali ularni personaj fikrini to'ldirish hamda emotsionallik xususiyatlarini ochib berish vositasiga aylantirgan.

O'zakdosh so'zlardan ham foydalanganligini ko'ramiz:

"Va bu o'zgarish, yangiliklar fotojurnalistika, uning janrlari taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi: foto*xabar*, fotoreportaj..."[1;384, 385]

Hasan chopsonlar *xushxabar*ni tez yetkazishgani afsonadir, lekin o'rgatilgan kabutarlar qanotiga xat qistirib uchirishlarga ishonsa bo'ladi. [1;368]

"Bizda jahon adabiyotidan yaxshi *xabardor* olim, ijodkorlar, turli soha mutaxassislari ancha, keyingi yillarda ular soni tobora ko'payib boryapti".[1;314]

"Biz *bexabar*, shifoxonada davolanib chiqqan taniqli ijodkor va sayyoh ertasi kuniyoq "safar bar vatan"ni qo'msab qolibdi".[1;131]

So'z va iboralar, timsol va tashbehlarni qo'llashda S.Umirov lisoniy va uslubiy jihatdan betakror publitsist ekanligini ko'rsatadi.

Ijodkor asar yaratishda tilning kommunikativ va estetik vazifalarini yuzaga chiqaruvchi ekspressiv vositalar, so'zlarning obrazli ifodasi hamda tilning tasviriy vositalaridan keng va o'rinli foydalangan.

S.Umirov qo'llagan til birliklari tahlil-tadqiq etilishi o'zbek tilining semantik-stilistik imkoniyatlari cheksiz

ekanligini, ularning yuzaga chiqishi esa til iste'molchilarining, aniqrog'i, so'z ustalarining iste'dodi va ijodiy mahoratiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сайди Умиров. Сеҳрли ва меҳрли сўз. − Т.: "BODOMZOR INVEST" nashriyoti, 2017.
2. Сайди Умиров. Дорилфунунлар тақдиримда. − Т.: "ШАРҚ" НМАК, 2008.
3.Rahmatullayev Sh.Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) – Toshkent: "Universitet", 2006.177-b.
4.Сайди Умиров. Адабиёт – фидойилар билан барҳаёт. *"Ёшлик" журнали, 2019- йил, 7-сон.*

Gulrux BEKBAYEVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

"EZGULIK" KONSEPTINING BADIIY MATNDAGI PRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya:"Avesto" uzoq asrlar davomida insonlarga ilm-ma'rifat o'rgatish va odob-axloq fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. "Avesto"da afsonaviy fikrlar bilan birga insonlarning hayotiy tajribalari ham o'z aksini topgan. Bu muqaddas kitob uzoq asrlarning tarixi va rivojlanishini, iqtisodiy, ijtimoiy holatini, madaniyati, tili, yozuvi, xalq og'zaki ijodining manbasi sifatida ham muhimdir. Ayniqsa, unda asosiy e'tibor ezgulik g'oyalariga qaratilganligi bilan kishini hayratda qoldiradi.

Kalit so'zlar: *madaniyat, til, yozuv, xalq og'zaki ijodi, ezgulik konsepti.*

Аннотация: "Авеста" служит долгие века для обучения людей науке и просвещению и формирования нравственных качеств. В "Авесте" наряду с мифическими мыслями отражается и жизненный опыт людей. Эта Библия также важна как источник истории и развития, экономического, социального статуса, культуры, языка, письменности, устного народного творчества на протяжении многих веков. Он особенно поражает тем, что в нем основное внимание уделяется идеям добра.

Ключевые слова: *культура, язык, письменность, устное творчество, понятие добра.*

Annotation: "Avesta" has been serving for many centuries to teach people science and enlightenment and the formation of moral qualities. Along with mythical thoughts, the Avesta reflects the life experience of people. This Bible is also important as a source of history and development, economic, social status, culture, language, writing, and oral folk art for many centuries. It is particularly striking in that it focuses on the ideas of goodness.

Keywords: *culture, language, writing, oral creativity, the concept of goodness.*

"Avesto" Eron tillari guruhidagi tillarning qadimgi yodgorliklaridandir. Unda insonlarning orzu-umidlari, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi munosabatlar diqqatga sazovordir.

Kitobning asosiy mazmuni insonlarning Xudoga murojaat etib iltijo qilishlariga bag'ishlangan. Xudodan tinchlik, chorva mollari, yaylov, sug'orish maydonlarini tilaganlar. Kitobda Axuramazda xudolik qiyofasidan chiqib adolatli shoh qiyofasiga o'tishi tasvirlangan. U adabiy yodgorlik sifatida insonlarning ma'naviy qiyofasini jiddiy tasvirlagan. "Avesto"da mehnatsevarlik, insonparvarlik, botirlik, jasurlik, va tozalik, moddiy to'kin-sochinlik uchun kurash haqida so'z boradi.

Zardushtiylar umrining tub ma'nosi ezgu amal, ezgu so'z va ezgu fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi, eng avvalo, adolatli turmush tarzi hisoblangan. Yovuzlik bilan kurashda ezgulikka yordam berish lozim: yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, va'daga vafo qilish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish.

Zardushtiylikning ehtiromga sazovor xudolari Ahuramazda, Mitra va Anaxitadir. Ahuramazda zardushtiylarning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblanadi. Mitra – Quyosh va yorug'lik xudosi, dehqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, farovonlik va mol-davlat homiysidir. Mitra Ahuramazda va odamlar o'rtasida bosh vositachi bo'lgan. Mitra o'spirin jangchi qiyofasida tasvirlangan. O'tli chaqmoqlar yordamida u yovuzlik va o'lim xudosi bo'lmish Ahriman bilan jang qiladi. Zardushtiylar yomg'irdan keyin hosil bo'ladigan kamalakka Mitraning o'q uzayotgan yoyi deb sig'inganlar. Anaxita zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi

hisoblangan. Zardushtiylik dini ta’limoti insoniyatning “Ezgulik va Yovuzlik” haqidagi qarashlari takomiliga katta ta’sir ko‘rsatdi.

O‘z mazmuni, mohiyatiga ko‘ra yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g‘oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas “Avesto” olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi. “Avesto” kitobi miloddan avvalgi so‘nggi ming yillik boshlari va o‘rtalarida hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi, xo‘jalik mashg‘uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari-yu marosimlari haqida ma’lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir.

Modomiki, “Avesto” ona tariximizning muhim tarkibini tashkil etar ekan, bu noyob manba qachon, qayerda, kim tomonidan yaratilgan, degan savol ko‘pchilikni qiziqtiradi. Tarixiy manbalarni chuqur o‘rganish, eng avvalo, “Avesto”da tilga olingan asosli jug‘rofiy hududlar, yurtlar nomlarini, aholining mashg‘ulot turlarini, urf-odatlarini, dafn marosimlarini sinchiklab o‘rganish asnosida olimlar bu buyuk ta’limotning haqiqiy Vatani O‘rta Osiyo o‘lkasi, uning Xorazm vohasi ekanligini isbotlagan.

“Avesto”dagi bosh ma’buda – ezgulik, yorug‘lik, yaxshilik, baxt-iqbol xudosi Ahuramazda bilan yomonlik, yovuzlik, qorong‘ulik, razolat timsoli – Ahriman o‘rtasidagi doimiy murosasiz kurash g‘oyasi zardushtiylik (otashparastlik) dinining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Zardusht payg‘ambar sifatida Ahuramazda tilidan vahiy qilingan muqaddas kalomlarni, nasihatlar va oyatlarni xalqqa, odamlarga yetkazishga da'vat etkuvchidir. Zero, Zardusht har bir masalada fikr yuritganda, Ahuramazda nomini tilga oladi, unga murojaat etadi. Bir o‘rinda u bunday xabar beradi: “Biz Ahuramazdani ulug‘laymiz, u chorvani, suvni va o‘simlikni, yorug‘likni va yerni yaratgan ...”.

“Avesto”da moddiy dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havoni bulg‘ash, olovga tupirish eng og‘ir gunoh sanaladi. “Avesto” avvalgi dinlarda rasm bo‘lgan insonlarni qurbonlik qilishni qat'iyan man etadi va ularning daxlsizligini himoya qiladi. Zardushtiylar dinida ta'kidlanadiki, odamzod yashashga haqli bo‘lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo‘q.

Zardushtiylik dinida olov muqaddaslashtirilgan bo‘lib, u insonning baxt-u saodati ramzi sifatida ulug‘langan. Shu bois, ajdodlarimizning ko‘plab to’y-tomoshalari, xursandchilik marosimlari olov yoqish, olovning atrofida keng davra qurish bilan bog‘liq holda o‘tkazilgan. Bu odatlarning ba’zilari hozirgacha ham saqlanib qolgan. Shaharlar, aholi manzilgohlarining eng gavjum joylarida maxsus qurilgan otashkadalar bo‘lib, ular doimo ziyoratchilar bilan to‘la bo‘lgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko‘ra, doimiy farog‘atli hayot inson uchun uzoq notanish hayoliy jannatda emas, balki insonlar yashaydigan shu tiriklik dunyosida bo‘ladi. Bu maqsad, marraga yetish uchun esa odamlar juda ko‘p murakkab va jiddiy sinovlardan o‘tishlari lozimdir.

Shunday qilib, muqaddas “Avesto” kitobi buyuk o‘tmishdoshlarimizning keng qamrovli hayot tarzini, umrboqiy urf-odatlari, ta'lim-tarbiyasi, boshqaruv tizimini o‘rganishimizda muhim dasturilamal manba bo‘lib xizmat qiladi. Dinda umumbashariy g‘oyalarning chuqur aks etganligi sababli, bu asar keng hududlar bo‘ylab yoyilib, Sharq-u G‘arbda e’tirof etilib, turli xalqlarning ma'naviy yuksalishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatgan.

Hozirgi mustaqillik sharoitida ham bu ta’limot g‘oyalari o‘z ta'sirchan ahamiyatini ko‘rsatib, asl ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri sifatida xalqimiz ruhiyatini boyitib borishga xizmat qilmoqda

AVESTO, Ovasto (parfiyoncha: apastak — matn; ko‘pincha “Zend-Avesto”, ya’ni “Tafsir qilingan matn” deb ataladi) — zardushtiylikning muqaddas kitoblari to‘plami. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Avesto O‘rta Osiyoda, xususan Xorazmda miloddan avvalgi 1-mingyillikning 1-yarmida vujudga kelgan. Avestoda keltirilgan geografik ma’lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Xudo yaratgan o‘lkalar sanab o‘tilar ekan, boyligi va ko‘rkamligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (Sug‘d), Marg‘iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo‘lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. Avestodagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo‘lgan. Avesto uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma’lumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2-mingyillik oxiri — 1-mingyillik boshiga oid bo‘lib, og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelgan. Keyingi asrlarda Avesto tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va hokazolar qo‘shilib borgan. Avestoni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming mol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. U Persepolada saqlangan. Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Arshakiylardan Vologes I davri (51—78) da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Sosoniylar davri (3-7-asr) da yaxlit kitob holiga keltirilgan. Avesto 21 nask (qism)dan iborat bo‘lgan. Avesto hajmi katta kitob bo‘lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli — “Kichik Avesto” (Xurdak Avesto) yaratilgan. Arablar Eronni zabt etgach (7-asr) zardushtiy ruhoniylarining bir qismi Hindistonga

ko‘chib o‘tgan. Ularning avlodlari (parslar) Bombay shahrida o‘z jamoalarida hozirgacha Avestoning asl nusxasini saqlab keladi. Fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron zardushtiylar jamoasida yashab, Avesto tilini va yozuvini o’rganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771). Avestoning bu nusxasi 27 jilddan iborat bo‘lib, asarning yettidan bir qismidir. U Yasna, Vispered, Vendidad, Gatlar va Yashtlar nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o‘z ichiga oladi. Avestoda bayon etilgan g‘oyalarga ko‘ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya’ni yorug‘lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to‘xtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda yer, o‘simlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramaynu Ahuramazdaga qarshi to‘xtovsiz kurashadi, ammo uni yengishga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o‘zgarishlar qaysi kuchning g‘alaba qilishiga bog‘liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o‘zaro kurashidan iborat. Cheksiz, abadiy fazo va vaqt ham ikki qarama-qarshi qismdan: yaxshilik va Ahuramazda hukmron bo‘lgan abadiy yorug‘lik bilan yomonlik va Ahriman hukmron bo‘lgan abadiy zulmatdan tashkil topadi. Avesto ta’limotiga ko‘ra, birinchi inson Govamard (ho‘kiz-odam; forscha Qayumars) bo‘lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o‘lim bo‘lmagan, Ahuramazda doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekamu ko‘st, Baxtiyor yashagan. 900 yil o‘tgach shoh Yima g‘ururga berilib, man etilgan sigir go‘shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anhramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko‘taradi. Olamni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo‘rg‘on (var) qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtirgan. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, zardusht diniga ko’ra atrofidagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan (yaxshilik va yomonlik) o‘rtasidagi kurash davri bo‘lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g‘alaba qilib, ezgulik saltanati barqaror bo‘ladi, o‘lganlar tiriladi.

Xullas, “Avesto”ning axloqiy-falsafiy mohiyati “Ezgu fikr”, “Ezgu so‘z” va “Ezgu amal” kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada) da o‘z ifodasini topadi. Zardushtiylarning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so‘zlari shu 3 ibora bilan boshlanadi. Avesto o‘zbek, umuman O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma’naviy madaniyatlarini o‘rganishda muhim va yagona manba.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берестнев Г.И. Иконичность добра и зла //Вопросы языкознания. –М.: Наука, 1999. - с. 99-113.
2. Верещагин Е.М. Об относительности мирской этической нормы. //Логический анализ языка: Языки этики. – М.: Языки русской культуры, 2000. - с. 235-245.
3. Гак В.Г. Актантная структура грехов и добродетелей. //Логический анализ языка: Языки этики. – М.: Языки русской культуры, 2000. - с. 90-96.
4. Герасимова И.А. Деонтическая логика и когнитивные установки. //Логический анализ языка: Языки этики. – М.: Языки русской культуры, 2000. - с. 7-16.
5. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т.1. – М.: Гос. изд-во иностр. и нац. словарей, 1955. - 700 с.
6. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии. № 1. 2001. С. 35-47.
7. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. - 477 с.
8. Кубрякова Е.С. О современном понимании термина «концепт» в лингвистике и культурологии. // Reality, Language and Mind: An International Book of Research Reports. Issue 2. Tambov: Tambov University Press, 2002. - p. 5-15
9. Кубрякова Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. С. 141-172.

Zulayxo NISHANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german fakulteti, ispan tili amaliy
fanlar kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
Elektron pochta manzili: zulaykhonishanova@gmail.com

ISPAN TILINI O'RGANISH JARAYONIDA MADANIYATNING ROLI: LINGVISTIK VA ANTROPOLOGIK ASOSLAR

Annotatsiya: ispan tilini o'rganish jarayonida madaniyatning roli va ahamiyati lingvistik va antropologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinadi. Til, faqatgina kommunikatsiya vositasi bo'lib qolmasdan, balki madaniy identifikatsiya va ijtimoiy aloqalar o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Ispan tilining grammatik strukturalari, leksik birliklari va fonetik xususiyatlari, madaniy kontekstga bog'liq ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Antropologik jihatdan, til orqali madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar ifodalanadi, bu esa til o'rganayotgan shaxslarning madaniy kontekstni tushunishi uchun zarurdir. Ushbu tadqiqotda, ispan tilini o'rganish jarayonida madaniyatning integratsiyalashuvi va uning ta'siri ko'rsatiladi, shuningdek, til o'rganish metodologiyalarida madaniy elementlarni hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Natijada, ispan tilini o'rganish jarayoni yanada samarali bo'lishi uchun madaniy kontekstni inobatga olishning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *ispan tili va madaniyati, lingvistika, antropologiya, til o'rganish, madaniy kontekst, grammatik strukturalar, leksik birliklar, urf-odat va an'analar.*

Annotation: the role and importance of culture in the process of learning the Spanish language is deeply analyzed from a linguistic and anthropological point of view. Language is not only a means of communication, but also plays an important role in establishing cultural identity and social relations. Grammatical structures, lexical units and phonetic features of the Spanish language are formed and developed depending on the cultural context. Anthropologically, language expresses cultural values, customs, and traditions, which are necessary for language learners to understand the cultural context. In this study, the integration of culture and its influence in the process of learning Spanish are shown, and the need to consider cultural elements in language learning methodologies is also emphasized. As a result, the importance of taking the cultural context into account is revealed in order to make the process of learning Spanish more effective.

Keywords: *spanish language and culture, linguistics, anthropology, language learning, cultural context, grammatical structures, lexical units, customs and traditions.*

Аннотация: роль и значение культуры в процессе изучения испанского языка глубоко анализируются с лингвистической и антропологической точки зрения. Язык является не только средством общения, но также играет важную роль в установлении культурной идентичности и социальных отношений. Грамматические конструкции, лексические единицы и фонетические особенности испанского языка формируются и развиваются в зависимости от культурного контекста. Антропологически язык выражает культурные ценности, обычаи и традиции, которые необходимы изучающим язык для понимания культурного контекста. В данном исследовании показана интеграция культуры и ее влияние в процессе изучения испанского языка, а также подчеркивается необходимость учета культурных элементов в методиках изучения языка. В результате раскрывается важность учета культурного контекста, чтобы сделать процесс изучения испанского языка более эффективным.

Ключевые слова: *испанский язык и культура, лингвистика, антропология, изучение языка, культурный контекст, грамматические конструкции, лексические единицы, обычаи и традиции.*

Kirish. Ispan tili dunyoda eng ko'p gapiriladigan tillardan biridir va bu tilni o'rganish jarayoni ko'plab insonlar uchun qiziqarli va foydali tajriba hisoblanadi. Ammo, ispan tilini o'rganish faqatgina grammatik qoidalar va so'z boyligini o'zlashtirishdan iborat emas. Madaniyat, til o'rganish jarayonida muhim rol o'ynaydi va bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi. Ispan tili o'rganish jarayonida madaniyatning roli haqida olib borilayotgan tadqiqotlar, til o'rganish jarayonida madaniyatning ahamiyatini va uning lingvistik va antropologik asoslarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

E.Coryell tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, biror bir xorijiy tilini o'rganayotgan kattalar uchun onlayn til kurslarida til o'rganish va ishlab chiqarishdagi munosabatlar o'rganilgan [Elizabeth Coryell, 2009]. Ushbu tadqiqot, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni tushunish uchun ijtimoiy tarmoq yondashuvini qo'llaydi. Bilingvizmni o'rganish jarayonida ijtimoiy aloqalar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlari tahlil qilinadi, bu esa til o'rganishning makro va mikro ko'rinishlarini ochib beradi.

Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘langan tushunchalardir. Har bir til o‘z madaniyatini aks ettiradi, bu esa uning nutqiy va muloqot uslubiga ta’sir qiladi. Ispan tilida gapirish, faqat so‘zlarni to‘g‘ri tanlashdan iborat emas, balki ispan madaniyatining an’analari, urf-odatlari va qadriyatlarini tushunishni ham talab etadi. Misol uchun, ispan tilida salomlashish usullari, suhbat davomida foydalaniladigan ifodalar va hatto hazillar ham madaniy kontekstga bog‘liqdir[Anorbayeva, S. 2021]. Ispan tilini o‘rganayotgan shaxslar uchun madaniy kontekstni tushunish juda muhimdir. Madaniyatni bilish orqali o‘quvchilar muloqot qilishda yanada erkinlikka ega bo‘lishadi. Masalan, ispan tilida “Cómo estás?” (Qalaysiz?) degan savolni berishda, bu ifoda nafaqat sog‘liqni so‘rashni anglatadi, balki suhbatdosh bilan yaqinlikni ham ifodalaydi. Shunday qilib, madaniyatni bilish orqali o‘quvchilar suhbatlarda yanada tabiiy va samimiy bo‘lishlari mumkin.

“L1 madaniyatini L2 madaniyatini o‘rganishda qo‘llash: ZPD ramkasi” [Taha, 2012] nomli maqolasida, til o‘rganish jarayonida mahalliy madaniyatning ahamiyatini ta’kidlanadi. U, til o‘rganish jarayonida madaniyatning o‘rni va uning til o‘rganishdagi ta’sirini o‘rganadi. Bu yerda, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, o‘rganish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Taha, yangi tilni o‘rganish uchun uning madaniy kontekstini to‘liq tushunish zarurligini ko‘rsatadi.

Madaniyat va til o‘rganish o‘rtasidagi bog‘lanish shuningdek, shaxsning madaniy identitetiga ham ta’sir qiladi. Ispan tilini o‘rganayotgan shaxslar, ispan madaniyati bilan tanishib, o‘zlarining madaniy identitetlarini kengaytiradilar. Bu jarayon, nafaqat tilni o‘zlashtirishda, balki boshqa xalqlar bilan muloqotda ham yordam beradi. O‘z madaniyatini bilgan inson, boshqa madaniyatlarni tushunishga va ularga hurmat bilan qarashga tayyor bo‘ladi [R.X.Niyozmetova, 2022]

N.R.Urbina tomonidan olib borilgan tadqiqot esa madaniy aloqa xabardorligini til sinflarida tatbiq etish orqali madaniyatlararo muloqotni oshirishga qaratilgan [Nayid Rodríguez Urbina, 2018]. Bu tadqiqot, madaniyat va til o‘rganish o‘rtasidagi aloqani yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. U, madaniyatni til o‘rganish jarayoniga kiritish orqali yangi strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa, talabalarni global xabardorlik va madaniy tushunishni oshirishga yordam beradi.

Ushbu maqolalar birgalikda, ispan tilini o‘rganish jarayonida madaniyatning roli va uning til o‘rganishdagi ta’sirini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Har bir tadqiqot, til o‘rganish jarayonida madaniyatning ahamiyatini va uning lingvistik va antropologik asoslarini yoritadi, bu esa til o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Asosiy qism. J.E.Coryell tomonidan yozilgan “Sociocultural connections, language learning anxiety, and communities of practice: insights and perceptions of the adult online Spanish learner” maqolasi, ispan tilini o‘rganish jarayonida madaniyatning rolini tushunish uchun muhim nazariy va amaliy asoslar taqdim etadi. Bunda yangi bir tilni o‘rganayotgan kattalar orasida til o‘rganishdagi munosabatlar uchun interpretiv paradigma taklif etadi. Bu yondashuv, til o‘rganish jarayonida madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada, til o‘rganish jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning roli va madaniy amaliyotlar, masalan, til tanlovi va kod almashinuvi kabi tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Coryell, ijtimoiy tarmoqlar nazariyasi orqali, ikki tillilikni tushunishda shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv, til munosabatlarini va madaniy amaliyotlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi [Elizabeth Coryell, 2009].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, geografik yaqinlik, immigrant aholi oqimlari va katta ikki tilli populyatsiyalar kabi omillar, ispan tilining turli xil shakllarini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Bu omillar, ikkinchi va uchinchi avlod ispan tilida so‘zlashuvchi kishilarning ikki tillilik darajasini saqlab qolishiga yordam beradi, shuningdek, tilni o‘rganish jarayonida norasmiy til o‘rganish mexanizmlarini taqdim etadi. Coryellning tadqiqoti, til o‘rganish jarayonida madaniyatning roli va ijtimoiy aloqalar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni ochib berishga yordam beradi. Maqolada keltirilgan nazariyalar va tahlillar, ispan tilini o‘rganish jarayonida madaniyat va ijtimoiy kontekstning ahamiyatini kuchaytiradi, bu esa til o‘rganishning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

A.Tahaning “Using L1 Culture to Acquire L2 Culture: ZPD framework” maqolasi, madaniyat va til o‘rganish jarayonidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi. Muallif, milliy madaniyatning til o‘rganish jarayonida qanday rol o‘ynashi va yangi madaniyatni o‘zlashtirishda qanday yordam berishi haqida fikr yuritadi. Taha til va madaniyat o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ta’kidlaydi va bu ikki elementning bir-biriga ta’sirini ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi [Taha, 2012].

Til o‘rganish jarayoni faqatgina tilning lingvistik jihatlarini o‘rganish bilan cheklanmaydi, balki maqsadli til madaniyatini ham o‘zlashtirishni talab qiladi. Tahaning fikricha, milliy madaniyatni til o‘rganish jarayonida qo‘llash, yangi madaniyatni o‘zlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik, o‘quvchilarga madaniy farqlar va o‘xshashliklarni tushunishga yordam beradi va bu jarayon til o‘rganish tajribasini boyitadi. Shuningdek, “Sapir va Whorf gipotezasi” til va fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqurlashtiradi. Bu nazariyaga ko‘ra, til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar yangi til orqali yangi

fikrlash usullarini o‘zlashtiradilar. Bu esa, madaniyatni tushunish va qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Tahaning fikriga ko‘ra, agar o‘quvchilar yangi tilni o‘rganish jarayonida faqat tilning grammatik va leksik jihatlariga e’tibor bersalar, ular maqsadli til madaniyatini to‘g‘ri tushunmasliklari mumkin, buning natijasi esa tilni kamchiliklar bilan o‘zlashtirishga olib keladi. Shu bilan birga, maqolada madaniyatning til o‘rganish jarayonidagi o‘rni haqida muhim xulosalar chiqariladi. Tahaning taklif etgan yangi ramkasi, o‘quvchilarning milliy madaniyatdan foydalanish orqali yangi madaniyatni o‘zlashtirishning ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Bu, til o‘rganish jarayonida madaniyatning o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi va o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

“The implementation of intercultural communication awareness in the language classroom to increase communication across cultures: a mixed method case study” [Nayid Rodríguez Urbina, 2018] maqolasi madaniyat va til o‘rganish jarayonidagi o‘zaro aloqa va madaniy tushuncha o‘rtasidagi aloqani o‘rganadi. Muallif, madaniyatni ingliz tilini o‘rganish darslarida qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligini tahlil qiladi va bu jarayonda madaniyatning o‘rni haqida muhim fikrlarni taqdim etadi.

R.Urbinaning tadqiqoti, madaniyatni o‘rganish jarayonida kengaytirilgan yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi. Bunda ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish darslarida madaniyatni o‘zaro aloqalar bilan bog‘lash uchun yangi strategiyalarni qo‘llash haqida fikrlar mavjud. Bu o‘z navbatida, talabalar orasida madaniy tushuncha va global ongni rivojlantirishga yordam beradi. Muallif madaniyatni o‘rganish jarayonida tanqidiy yondashuvni qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi, chunki bu holat talabalar orasida madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Xulosa. Ispan tilini o‘rganish jarayonida madaniyatning roli haqida olib borilgan tadqiqotlar, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib berishga qaratilgan. [Elizabeth Coryell, 2009] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, meros tilini o‘rganayotgan kattalar uchun onlayn ispan tili kurslaridagi til o‘rganish va ishlab chiqarishdagi munosabatlar o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoq yondashuvi orqali til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi, bu esa til ishlab chiqarishning makro va mikro ko'rinishlarini ochib beradi [Elizabeth Coryell, 2009].

Amjad Tahaning “L1 madaniyatini L2 madaniyatini o'rganishda qo'llash: ZPD ramkasi” maqolasida, til o‘rganish jarayonida mahalliy madaniyatning ahamiyati ta’kidlanadi. Tahaning fikricha, ona madaniyatni o‘rganish jarayonida qo‘llash, yangi madaniyatni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o‘zaro bog‘liqlik, o‘quvchilarga madaniy farqlar va o‘xshashliklarni tushunishga yordam beradi, bu esa til o‘rganish tajribasini boyitadi. Tahaning tadqiqoti til o‘rganish jarayoni faqatgina tilning lingvistik jihatlarini o‘rganish bilan cheklanmasligini, balki maqsadli til madaniyatini ham o‘zlashtirishni talab qilishini ko‘rsatadi.

[Nayid Rodríguez Urbina, 2018] tomonidan olib borilgan tadqiqot esa madaniyatni til sinflarida tatbiq etish orqali madaniyatlararo muloqotni oshirishga qaratilgan. U madaniyatni o‘rganish jarayonida kengaytirilgan yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi va Kolumbiyadagi EFL darslarida madaniyatni o‘zaro aloqalar bilan bog‘lash uchun yangi strategiyalarni qo‘llash haqida fikrlar bildiradi. Bu talabalar orasida madaniy tushuncha va global ongni rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotlar birgalikda ispan tilini o‘rganish jarayonida madaniyatning roli va uning til o‘rganishdagi ta’sirini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Har bir tadqiqot til o‘rganish jarayonida madaniyatning ahamiyatini va uning lingvistik va antropologik asoslarini yoritadi, bu esa til o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Ispan tilini o‘rganish jarayoni faqatgina lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat emas. Madaniyatning roli ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ispan tilini o‘rganayotgan shaxslar uchun madaniy kontekstni bilish, muloqotda yanada erkinlikka ega bo‘lish va madaniy identitetni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli til o‘rganish jarayonida madaniyatni inobatga olish zarurdir. Bu nafaqat tilni o‘zlashtirishni osonlashtiradi, balki global jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot qilishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anastasiya Aleksandrovna Tkacheva “Ispan tilini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar va dramatizatsiyani innovatsion didaktik vosita sifatida qo‘llash.” Текст научной статьи по специальности «СМИ (медиа) и массовые коммуникации»
2. Anorbayeva, S. (2021). Ispan tili misolida tarjimaga o‘qitishni tashkil etishning tashkiliy-metodik ta’minoti. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(6).извлечено от https://history.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/2001
3. Elizabeth Coryell, J. (2009). Sociocultural connections, language learning anxiety, and communities of practice: insights and perceptions of the adult online Spanish learner. [PDF]
4. Nayid Rodríguez Urbina, D. (2018). The implementation of intercultural communication awareness in the

language classroom to increase communication across cultures: a mixed method case study /. [PDF]
5. R.X.Niyozmetova “ENFOQUE INTEGRADOR EN LA EDUCACION LITERARIA”.p-29.
6. Taha, A. (2012). Using L1 Culture to Acquire L2 Culture: ZPD framework. [PDF]

Dilorom XURRAMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDAGI TAQLID SO‘ZLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: til muloqot vositasidir.Insonlar til vositasidan boshqalar bilan munosabatlar o‘rnatish va o‘zaro ma’lumot almashish uchun foydalanish bilan bir qatorda, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va ularni bir-birlariga anglatish uchun foydalanadilar.Ayni vaqtda his-tuyg‘ularni, biron kimsa yoki narsaning tovushini yoki holatini yanada aniq, nozik va samaraliroq ifodalashda aynan taqlid so‘zlar kerak bo‘ladi.
Kalit so‘zlar: *taqlid so‘zlar, holatga taqlid so‘zlar, sodda taqlid so‘zlar, juft taqlid so‘zlar, takroriy taqlid so‘zlar.*
Annotation: language is a means of communication. In addition to using language to establish relationships with others and exchange information, people also use it to express their feelings and convey them to each other. At the same time, it is precisely imitative words that are needed to express feelings, the sound or state of a person or thing more accurately, delicately and effectively.
Key words: *imitative words; imitative words for a situation; simple imitative words; paired imitative words; repeated imitative words.*
Аннотация: язык — это средство общения. Помимо использования языка для установления отношений с другими людьми и обмена информацией, люди также используют его для выражения своих чувств и передачи их друг другу. В то же время именно подражательные слова нужны для более точного, деликатного и эффективного выражения чувств, звука или состояния человека или вещи.
Ключевые слова: *подражательные слова; подражательные слова для ситуации; простые подражательные слова; парные подражательные слова; повторяющиеся подражательные слова.*

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek va koreys tilshunos olimlar tomonidan taqlid so‘zlarni alohida-alohida til sifatida ichki xususiyatlarni o‘rganish masalalariga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilib kelingan. Shular orasidan, R. Qo‘ng‘urovning “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” (1966), N. Matyakubovaning “Taqlid so‘zlarning tasnifi” (19.12.2020.), N. Toshmurodova tomonidan yozilgan “Undov, taqlid, modal so‘zlarni o‘qitish usullari” (2018), R. Sayfullayeva va boshqalar tomonidan yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2009) kabi ilmiy adabiyotlar o‘zbek tilidagi holatga taqlid so‘zlari bo‘yicha foydalanilgan asosiy manba hisoblandi. Koreys tilida taqlid so‘zlar masalasiga qaratilgan 호평 (Hopyeong) , 김홍매 (Hongmae Kim), Wada, Kotoba kabilarning ilmiy ishlari va koreys tilidagi taqlid so‘zlarini turli jahon tillari bilan qiyoslash va solishtirish uslubidagi tadqiqotlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Tabiatdagi harakat va holat shakllari qancha ko‘p bo‘lsa, ularni ifodalovchi holatga taqlid so‘zlar va ularning shakllari ham shunchalik xilma-xil bo‘ladi. Bunday taqlid so‘zlar esa harakat-holat yoki yorug‘lik obrazining tezligi, bir yoki birdan ortiq bo‘lganligi, takrorlanganligi yoki davomliligini bildiradi [1.78]. Shu kabi xususiyatlariga qarab holatga taqlid so‘zlari uch xil strukturaviy turlarga bo‘linadi: ***1. sodda taqlid so‘zlar: lip, duv, yalt, milt.***

Sodda taqlid so‘zlar asosan, etmoq, demoq yordamchi fe’llari bilan birikib keladi.Ba’zan esa qilmoq yordamchi fe’li bilan ham birikadi.Holatga taqlid so‘zlarning bunday turiga asosan, bir bo‘g‘inli ya’ni CVC (undosh+unli+undosh), CVCC (undosh+unli+undosh+undosh) [2.144] tipidagi taqlid so‘zlar kiradi: duv, yalt.

R. Qo‘ng‘urov o‘zining “O‘zbek tilidagi tasviriy so‘zlar” nomli ishida “tub ya’ni CVC (undosh+unli+undosh) holda qo‘llangan taqlid so‘zlar sodda taqlid so‘zlarning CVCC (undosh+unli+undosh+undosh) tipiga nisbatan ma’lum darajada kuchsiz, bo‘lgan hodisani bildiradi: lip < yalt, yarq kabi [3.79]” degan fikrni aytib o‘tadi.

- *lip* (etmoq): bir on ichida, tez va yengil harakatni bildiradi [4];
- *yalt* (etmoq/qilmoq): birdan, bir on ichida yuz bergan chaqnash, yaltirash harakatini bildiradi [5];
- *yarq* (etmoq): birdan yuz bergan yorug‘lik aksini bildiradi [6].

2. takroriy taqlid so‘zlar: a) oddiy takror: lip-lip, lov-lov, zir-zir, shart-shart, yalt-yalt, milt-milt; b) kuchaytiruvchi element olgan takror: guppa-guppa

Holatga taqlid so‘zlar takrorlanganida harakat obrazini bir necha marta, bir xilda, bir tekisda tak-

rorlanganligini, davomlilikni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, takroriy taqlid so‘zlar miqdor, kuchaytirish kabi hodisalarni ko‘rsatishi ham mumkin. Bu xususiyatlari bilan ular sodda taqlid so‘zlardan farq qiladi.

Takroriy taqlid so‘zlar tuzilish tomondan ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

a) Oddiy takror. Bunda ma’lum hodisaning bir tekisda takrorlanganligi ifodalanadi: *lip-lip, lov-lov, zir-zir, dik-dik, duv-duv, gir- gir* kabi.

b) Kuchaytiruvchi element olgan takror. Bir xil harakat obrazini kuchaytirib ko‘rsatish, undagi tezlikni ta’kidlash uchun takrorning qismlariga kuchaytiruvchi element ***a*** orttiriladi: Gupp+**a** - gupp+**a**

Guppa-guppa *yog‘ar qor,*
Go‘yo ko‘kda ini bor.
Tomlar oppoq, yer oppoq
Shox-novdalar arg‘imchoq

Bir xil takrorlangan taqlid so‘zlarning ba’zi birlarining qismlarini odatda alohida-alohida qo‘llab bo‘lmaydi.Ular ma’lum takroriy holdagina ma’no anglatadi: bij-bij, g‘ij-g‘ij, dag‘-dag‘, qalt-qalt kabi.

Go‘zal navro‘z faslida
Ochiladi ***g‘ij-g‘ij*** *gul*. (**g‘ij-g‘ij** : nihoyatda ko‘p, sanog‘iga yetib bo‘lmaydigan darajada [7])

Takroriy taqlid so‘zlarning bir qismini yordamchi yoki mustaqil fe’llar bilan yakka holda ham qo‘llash mumkin:

Shaftolimiz pushti gul,
Duv guvlashib uchdi gul.
Keling laylak uchganda,
Shaftolimiz pishganda! [8] (Nurulloh Oston)

3. **juft taqlid so‘zlar:** yalt-yult, qaldir-quldur, shaldur-shuldur, alang-jalang, apil-tapil, chirting-pirting, pildir-pis.

O‘zbek tilshunosligida tasviriy (taqlid) so‘zlarni o‘rganish borasida ayniqsa R. Qo‘ng‘urovning xizmatlari katta. R. Qo‘ng‘urovning 1966-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” nomli monografiyasida ko‘pincha juft taqlid so‘zlarga badiiy adabiyotda, og‘zaki nutqda tabiatdagi predmetlarning harakat-holat obrazidagi har xilllikni ko‘rsatish maqsadida murojaat qilinishini aytib o‘tgan [9.88].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida juft taqlid so‘zlar o‘zlarining formalari va ifodalagan ma’nolariga qarab takroriy taqlid so‘zlardan farq qiladi.Juft taqlid so‘zlar bir hodisaning turli xil o‘zgarib turishini, birgina obrazli harakatning goh kuchayib, goh pasayishi, ba’zan esa goh yaqinlashish, goh uzoqlashish kabi holatlarni ifodalaydi.Bu holat esa, juft taqlid so‘zlar qismlaridan birining tarkibidagi unli yoki undosh tovushning o‘zgarishi, ba’zan ikkinchi komponentga bir undosh orttirilishi orqali yuz beradi: shaldur-shuldur, qaldir-quldur, yalt-yult, alang-jalang, apil-tapil, apir-shapir, chirting-pirting kabi.

Koreys tilidagi holatiga taqlid so‘zlarning morfologik xususiyatlaridan eng ko‘zga ko‘ringan tomoni ko‘pincha takroriy(반복형 *[banbokhyong])* shaklda qo‘llanilishidir. O‘zbek tilida taqlid so‘zlar tuzilishi jihatdan 3 turga bo‘linsa, koreys tilidagi taqlid so‘zlar esa takrorlanishi yoki takrorlanmasligiga qarab (단독형 *[tantokhyong],* 반복형 [*panpokhyong*])sodda va takroriy shaklga bo‘linadi [10.13].

1. Sodda taqlid so‘z

Bir morfemadan tashkil topgan taqlid so‘zlarga sodda taqlid so‘zlar deyiladi.Ya’ni u qo‘shimcha qo‘shilmagan va fe’l o‘zagining hosilasi bo‘lmagan taqlid so‘zlarni anglatadi. Bo‘g‘in soniga ko‘ra, aksariyat hollarda bir (꽉[kkvak]- qattiq, bor kuch bilan , 딱[ddak]- taq etmoq (ikki narsa to‘qnashganda chiqadigan ovoz)), ikki(반짝 [panchchak]-yarq etmoq (biror narsadan yorug‘lik chiqib keyin so‘nish holati),힐끔 [hilggm]- bildirmasdan ko‘z tashlab qo‘yish), uch bo‘g‘inli(빙그레 [pinggire]-yengil kulib jilmaygandagi holat, 싱그레 [shing-geure] – ko‘z va og‘izning sekin qimirlatib kulish holati) va undan ko‘proq bo‘g‘inli shakllari uchraydi. Bunday taqlid so‘zlar, gap tarkibida mustaqillikka ega bo‘lib, asosi bundan ortiq bo‘linmaydigan eng kichik birlik hisoblanadi [11.8]

2. Takroriy taqlid so‘z. Ikki yoki undan ortiq gram-

Namunalar	Taqlid so‘zning struktur tasnifi	Taqlid so‘zning ma’nosi
개울가에 올챙이 한마리 [gaeulga-e olchaeng-i hanmari] *(ko‘l bo‘yida bir itbaliq)* 꼬물꼬물 헤엄치다. [kkomulkkomul heeomchida] *(bilq-bilq suzadi)*	1 bo‘g‘inli sodda taqlid so‘z (쑥)	쑥: 앞으로 나아가거나 앞에 불쑥 나타나는 모양 (old tomonga siljib chiqish yoki old tomonda birdan paydo bo‘lish ko‘rinishini)

뒷다리가 **쑥** 앞다리가 **쑥** [twitdariga ssug apdariga ssug] (*orqa oyoq shap old oyoq shap*) 팔딱팔딱 개구리 됐네. [palttagpalttag gaeguri dwaettne] (*Qurbaqa bo'ldi*)		
겁 많은 악어 누나악어 [geob manh-eun ag-eo nunaag-eo] (qo'rqoq tumsoq opa tumsoq) 여기 ***힐끔***~ 저기 ***힐끔***~ [yeogi hilkkeum~ jeogi hilkkeum~] (bu yerga ko'z tashlar u yerga ko'z tashlar)	2 bo'g'inli sodda taqlid so'zlar (힐끔)	거볍게 곁눈질하여 슬쩍 한 번 쳐다보는 모양 (yengil tarzda yon tomonga qarash qilib, (bildirmasdan, boshni burmasdan) bir marta qarab qo'yish holati.)
아무리 좋은 일이 있어도 그녀는 ***빙그레*** 미소만 지을 뿐 크게 웃는 일이 없었다 (har qanday yaxshi ish bo'lsa ham u faqat yengil jilmayadi, baland kulmagan)	3 bo'g'inli sodda taqlid so'zlar	입을 약간 벌리고 소리 없이 부드럽게 웃는 모양 (og'izni biroz ochib va ovoz chiqarmagan holda mayin tabassum qilish)

matik morfemalardan hosil bo'lgan taqlid so'zga takroriy(반복형) taqlid so'z deyiladi [12.12-13]. So'zdagi asosning takrorlanish tuzilishiga qarab, taqlid so'zning takroriy (반복형) shakli (동음 반복형, 유음 반복형, 부분 반복형 kabi) uch turga bo'linadi.

Koreys tilida ilmiy ish olib borgan tilshunos 배영 (Baeyong) o'zining "한국어 학습자를 위한 의성어·의태어 지도 방안 연구 중·고급 학습자를 중심으로" (Koreys tilini o'rganuvchilar uchun taqlid so'zlarni o'rgatish usullari bo'yicha tadqiqot, (o'rta va yuqori darajadagi o'quvchilar uchun) deb nomlangan ilmiy ishida "Taqlid so'zlarning asosini takrorlash orqali hosil bo'lgan taqlid so'zlarga 동음 반복형 [dong-eum banboghyeong] (*omofonik yoki bir xil tovushli takror*) deyiladi. Bunday takroriy taqlid so'zlar asosdagi bo'g'inlar soniga ko'ra, aksariyat hollarda bir(꼭꼭, 꽁꽁, 쨍쨍, 꽉꽉), ikki(껑충껑충, 가득가득, 꾸벅꾸벅, 부들부들, 아득아득), uch(간드랑간드랑, 만지작만지작, 꼼지락꼼지락) bo'g'inli va undan ko'proq bo'g'inli shakllari ham uchraydi" [13.36] degan fikrni aytib o'tadi.

Mavjud tovushli takror (유음 반복형)[*yueum banboghyeong*]. Mavjud tovushli takror (유음 반복형) turi, taqlid so'z asosidagi o'xshash shaklli, ko'pincha ikki qism(bo'g'in)ning takrorlanishi orqali hosil bo'ladi. Takrorlanuvchi so'zning ayrim qismlarigina o'zgarganligiga qarab, (모음 교체 반복형 자음 교체 반복형 , 음절 교체 반복형) unli tovush almashgan takror, undosh tovush almashgan takror, va bo'g'in almashgan takror kabi shakllarga bo'linadi: - unli tovush almashgan takror (모음 교체 반복형: 싱숭생숭, 티격태격, 삐죽빼죽, 실룩샐룩); - undosh tovush almashgan takror (자음 교체 반복형: 아기자기,아롱다롱, 오순도순, 울퉁불퉁); - bo'g'in almashgan takror (음절 교체 반복형: 허둥지둥, 헤실바실, 허겁지겁, 어슷비슷).

Qisman takror (부분 반복형). Taqlid so'z o'zagidagi bir qismining qisman takrorlanishiga, 부분 반복형

ya’ni qisman takroriy shakl(스르르, 반드르르, 야드르르, 어둠침침, 우르르, 우중충, 어정쩡, 사르르, 번지르르kabi) deyiladi.

솜사탕 아저씨 달콤하고 입에서 사르르 녹는 솜사탕 주세요. (Paxta holvachi amaki mazali va og‘izda **qorday mayin eriydigan** paxta holva bering.)

사르르: 눈이나 얼음 따위가 저절로 살살 녹는 모양 - qor yoki muz, shunga o‘xshash narsaning o‘z-o‘zidan asta-sekin erib ketishi.

Demak, koreys va o‘zbek tillarida taqlid so‘zlar boshqa tillarga nisbatan anchayin murakkab va anchayin turfaligi bilan bir qatorda ushbu maqola orqali koreys tilini o‘rganuvchi o‘quvchilar koreys tili va o‘zbek tili taqlid so‘zlari haqida qisqa bo‘lsa-da tushunchaga ega bo‘lishida yordam berishi mumkin. Ushbu maqola orqali o‘zbek va koreys tillarining taqlid so‘zlari qanchalik murakkab va bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rib, misollar orqali tushuntirib berish bizning pirovard maqsadimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar. –T.: Fan, 1966.
2. Dadaboyev X., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Tafakkur bo‘stoni, 2015.
3. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar. –T.: Fan,1966.
4. https://uz.wiktionary.org/wiki/lip
5. https://uz.wiktionary.org/wiki/yalt
6. https://www.youtube.com/yarq
7. https://uz.wiktionary.org/wiki/g%CA%BBij-g%CA%BBij
8. https://myfarzand.uz/bolalar-sherlar-toplami-kiril.html#tabiat
9. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar. –T.: Fan,1966.
10 김홍매. 한국어 학습자를 위한 의성·의태어 연구. 영남대학교 대학원 외국어로서의 한국어교육학과, 2015.
11. 와다 고토하. 한국어 의성어 의태어의 단어 형성. 서울대학교 대학원 국어국문학과, 2016.
12. 배영. 한국어 학습자를 위한 의성어·의태어 지도 방안 연구 중·고급 학습자를 중심으로. 제주대학교 대학원 국어국문학과, 2018.
13. 휜티미풍. 베트남어권 학습자를 위한 한국어 의성어 의태어 어휘 목록 선정 연구. 한성대학교 대학원 한국어문학과, 2022.

Shohista TOJIBOYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti
e-mail:shoxista0472@gmail.com

“INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIK” TUSHUNCHASINING MAZMUNI HAMDA TA’LIMDAGI O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqola ta’lim jarayonlarida “Informatsion-analitik kompetentlik” tushunchasining mazmuni hamda ta’limdagi o‘rni haqida bo‘lib, informatsion-analitik kompetentlik tushunchasining mazmun, mohiyati va ta’limdagi ahamiyati, foydali taraflari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, talabalarning til o‘rganish jarayonlarida axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kelayotgan axborotni tahlil qila olish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish muhimligi, shuningdek, ta’limda o‘quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta’lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o‘zlashtirilganlik darajasining oshishi, axborotlardan foydalanish ko‘lamining kengayishi, ta’lim samaradorligini belgilashga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *media, kompetensiya, axborot madaniyati, fake, viziual.*

Аннотация: в данной статье речь идет о содержании понятия «Информационно-аналитическая компетентность» в образовательных процессах и ее месте в образовании, освещается значение понятия «Информационно-аналитическая компетентность», ее значение в образовании, а также ее преимущества. Помимо этого, в процессе изучения языка важно развивать навыки анализа информации и было отмечено, что повышение уровня усвоения информации обучающимися, расширение сферы использования информации служит определению. эффективность образования

Ключевые слова: *медиа, компетентность, информационная культура, фейк, визуал.*

Annotation: this article is about the meaning of the concept of “Informational-analytical competence” in educational processes and its place in education, the meaning of the concept of informational-analytical competence, its importance in education, and its benefits are highlighted. In addition to this, it is important to develop the skills of information analysis in the process of language learning. and it was noted that the increase in the level of assimilation of information by learners, the expansion of the scope of information use serves to determine the effectiveness of education

Key words: *media, competence, information culture, fake, visual.*

Jahon sivilizatsiyasining axborot maydonida, jamiyatning har bir a’zosi, o‘zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda axborotlardan foydalanadi . Ya’ni jamiyatning har bir a’zosi axborot iste’molchisi hisoblanadi. Axborot iste’molchisi o‘z ehtiyojini qondirish (bilimlarni oshirish, ta’lim olish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs va shaxslar hisoblanishadi .

Ta’lim o‘quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta’lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o‘zlashtirilganlik darajasining oshishi, axborotlardan foydalanish ko‘lamining kengayishi ta’lim samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2017-yil 6-apreldagi 187-son Qaroriga ko‘ra tasdiqlangan.Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standartida kompetensiya “mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati” sifatida talqin etilgan. Bu bilan mamlakatimizda ta’lim jarayonlarida talabalarning axborotlar bilan ishlash madaniyatlarini rivojlantirish asosiy maqsad bilan qaraladi.Shu bois, dars mashg‘ulotlarida talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda mediasavodxonlik, analitik tahlil qila olish kompetensiyalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Tahlil jarayonida kompetensiya tushunchasiga izoh berib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

“Kompetensiya” atamasi fanda ilk bor XX asrning 50–60-yillarida qo‘llangan. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi . Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni bildiradi. Ko‘plab olimlar tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalariga berilgan ta’riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o‘zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya’ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi.

Ilmiy adabiyotlar va lug‘atlar tahlillariga ko‘ra lotincha “competere” (“layoqatli, munosib bo‘lmoq”) so‘zidan kelib chiqqan “kompetensiya” so‘zi shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasini anglatadi .

“Kompetensiya” tushunchasi ilk bor XX asrning 50-60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim N.Chomsky “Sintaktik strukturalar”, “Sintaksis nazariyasining aspektlari” nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatini amalga oshirish layoqati sifatida talqin etgan .

Shu bilan bir qatorda talabalarning til o‘rganish jarayonlarida axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kelayotgan axborotni tahlil qila olish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish muhimdir.

Axborot bilan ishlash – turli ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlaridan iborat. F.M.Qo‘chqorova tadqiqot ishlarida talabada axborotlarni qayta ishlash ong osti mexanizmlarini faollashtirish hamda dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish komponentlari bo‘yicha o‘quv materiallarini strukturalash va bloklarga ajratishga urg‘u bergan.

Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Demak, axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish jarayonida vujudga keladigan salbiy ta’sirlar, tajovuzlarga qarshi tura oladigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun uchun juda muhim hisoblanadi.

“Media” atamasi (lotincha – medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi.

XXI asrga kelib internetning mislsiz rivojlanishi tufayli “butun olam bir qadam”ga aylandi. Endilikda dunyoning bir burchagidan sodir bo‘lgan yangilik boshqa burchagiga bir necha soniyalarda yetib boryapti. Har kuni jahonda sanoqsiz voqea-hodisalar sodir bo‘ladi. Inson o‘zini o‘rab turgan borliqdagi turli signallar ta’sirini, hatto OAV orqali uzatilayotgan axborotlarning aksariyat qismini ham tabiiy qabul qiladi. OAV, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan har qanday axborotni ko‘pchilik to‘g‘ri, deb hisoblaydi. Hatto ba’zan o‘zini aldayotganini bilib turib ham bunga qarshilik ko‘rsatmaydi. Eng katta muammo ham ana shunda. To‘g‘ri, deb qabul qilgan axborotlar noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Bittagina soxta,

yolg‘on yoki uydirma axborot bir inson hayotini butkul izdan chiqarib yuborishi mumkin. Shuning uchun hozirgi sharoitda soxta, yolg‘on, uydirma axborotlar, ya’ni “feyk yangiliklar” masalasi ijtimoiy hayotning eng ko‘p muhokama qilinadigan dolzarb mavzularidan biriga aylandi.

Feyk– inglizcha “fake” so‘zning anologi bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikda ko‘pincha ikki xil: “trick”– quv, ayyor, aldov, yasama, soxta degan ma’nolarda qo‘llanadi, shu bilan birga ba’zan “swindle” – hazil, sho‘xlik, xushchaqchaqlik degan ma’nolarni ham ifoda etadi. Turli manbalarga murojaat qilganda “feyk” so‘zining yigirmadan ortiq istilohi borligiga guvoh bo‘ldik. Soxta, yolg‘on, qalbaki, haqiqiy emas, bo‘xton, aldoqchi, uydirma, noxolis, sun’iy, uyushtirilgan, ayyor, chalkash, qutqu, nayrang, ig‘vo, xiyla, chalg‘itish kabi so‘zlar ana shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2017-йил 6-апрелдаги 187-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 14 (774)-сон, 230-модда // www.lex.uz

2. Арипов А.Н. ва бошқалар. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. – Тошкент, 2004.30-б.

3. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараènларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиèти. Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун èзилган диссертация. – Тошкент, 2007.20-б.

4. Нарзиева Н.Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода.XV-Международная научно-практическая конференция. World science: problems and innovations. Мцнс «Наука и просвещение».30 ноября 2017.–Пенза, 2017.Часть 3. –С. 114.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2–жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриèти, 2008.396-б.

6. Chomsky, N. Syntactic Structures. Mouton, 1957, 117 p // Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, May 1965. – 261 p.

7. Мавлянов А., Жавлонов Ш.С., Абдалова С., Юсупова Л. Педагогик технология ва таълим жараèни сифатини бошқаришга оид айрим сўзларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: “Voris-nashriyot”, 2010. 7-б.

8. Қўчқорова Ф.М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралаштиришнинг дидактик параметрлари Пед.фан. фал.док.(PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018-йил.7-б.

Feruza JALOLOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
jalolovaferuza6@gmail.com)

PEDAGOG XODIMLARDA RAHBARLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARINING XALQARO TAJRIBASI

Annotatsiya: maqolada maktab boshqaruvining ta’lim sohasidagi ahamiyati, zamonaviy rahbarlarga qo‘yilayotgan talablar, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar va turli mamlakatlarda rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish dasturlarining mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *maktab boshqaruvi, zamonaviy rahbarlar, OECD tadqiqotlari, trening, professional rivojlantirish dasturlari.*

Аннотация: статье освещается значение школьного менеджмента в сфере образования, требования к современным лидерам, исследования, проводимые Организацией экономического сотрудничества и развития, а также характер программ развития лидерства в разных странах.

Ключевые слова: *школьное управление, современные лидеры, исследования ОЭСР, обучение, программы профессионального развития.*

Annotation: the article highlights the importance of school management in the field of education, requirements for modern leaders, research conducted by the Organization for Economic Cooperation and Development, and the nature of leadership development programs in different countries.

Key words: *school management, contemporary leaders, OECD research, training, professional development programs.*

Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim sohasining o‘rni va ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bu

sohadagi yangiliklar soni va xilma-xilligi rivojlanib borgani sari, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning ehtiyoj va talablari ham o'zgarib bormoqda. Ta'lim ishtirokchilarining munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda rahbarlarning o'rni beqiyos. Maktab boshqaruvi ta'lim sohasining xalqaro miqyosdagi eng muhim davlat siyosati kun tartibidagi masalaga aylandi.

Maktab rahbariyati o'qituvchilarning motivatsiyasi va qobiliyatlari, shuningdek, maktab sharoiti va muhitiga ta'sir etish orqali maktab natijalarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Samarali maktab boshqaruvi ta'lim samaradorligini va tengligini oshirish uchun zarurdir.

Zamonaviy rahbarlar yuqori malakaga ega bo'lishi, istiqbolni ko'ra olishi va samarali xo'jalik yuritishga imkon yaratuvchi iqtisodiy fikr yuritish, shaxsiy intizomga ega bo'lish, topshirilgan vazifaga javobgarlik hissi bilan yondashish, g'oyalarni to'plash, chiqishimli va ishbilarmon bo'lishi kerak.[1]

Hozirgi zamon fanida "rahbar", "lider" yoki "liderlik uslubi" va "rahbarlik uslubi" tushunchalarining nisbati yo'nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko'proq ahamiyat kasb etuvchi B.D. Pargin fikriga ko'ra, lider ma'lum bir guruhda shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, mikro muhitning elementi hisoblanadi, kutilmaganda vujudga keladi va uning holatining barqarorligi kamroq bo'lib, harakatlanishi guruhning kayfiyatiga bog'liq va u ko'proq guruhning faoliyatiga aloqador bo'lgan qarorlar qabul qiladi. Rahbar esa ijtimoiy tashkilot hisoblangan guruhlarda rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va makro muhitning elementi hisoblanadi. Rahbar holatining barqarorligi ko'proq bo'lib, u ma'lum bir tizimda bir necha marta ko'proq vakolatlarga, qaror qabul qilish, buyruq berish, topshiriqlar berish, talab qilish huquqlariga ega. Qaror qabul qilish jarayoni birmuncha murakkabroq bo'lib, ko'pgina va turli xil vaziyatlarni qamrab oladi hamda bu vaziyatlar faqatgina bitta guruhga tegishli bo'lmaydi. Rahbar ma'lum bir kengroq ijtimoiy tizimning kichik bir guruhida faoliyat ko'rsatsa-da, uning harakat doirasi keng hisoblanadi.

Mamlakatlar o'z ta'lim tizimlarini zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishga intilayotganda, maktablar va maktab rahbarlariga bo'lgan talablar o'zgarib bormoqda. Ko'plab mamlakatlar markazdan qochish yo'lini tanlab, maktablarga o'z qarorlarini qabul qilishda yanada mustaqil bo'lish imkoniyatini berishmoqda va ularni natijalar hamda oqibatlar uchun ko'proq mas'ul bo'lishlariga imkon yaratmoqda.

Ushbu tendensiyalar natijasida, OECD (Organisation for Economic Cooperation and Development, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlarida maktab rahbariyatining vazifasi tobora ko'proq talablarga ega bo'lishi zarurligi aniqlanib, bu talablar moliya va inson resurslarini boshqarish hamda ta'lim uchun rahbarlikni o'z ichiga oladi.

Yuqorida ta'kidlangan talablarni bajarish uchun unga layoqatli bo'lgan rahbarlarni tayyorlash lozim. Rahbarlikni rivojlantirishning turli bosqichlarini tahlil qilishda xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarini o'rganish muhim vazifalarni amalga oshirish uchun asosiy omil sanaladi.

Rahbarlikni rivojlantirishga karyeraviy nuqtai nazardan yondashilsa, xalqaro ekspertlar, "Professional rivojlanish faoliyatlari davomiy, karyeraga mos va bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydilar.[2] Professional rivojlanish maktab direktori yoki rahbarining karyera bosqichlariga mos ravishda shakllanadi va bu shaxsiy o'sish hamda professional ko'nikmalarni rivojlantirish uchun davom etayotgan, bir butun tajriba to'plamining bir qismidir.

Asosan, rahbarlik rivojlanishi o'qituvchilik darajasidan boshlanib, so'ngra direktorlikka nomzodlik va birinchi yil direktorligi sifatida davom etishi kerak. Davomiy professional rivojlanish rahbarning tajribasi asosini kengaytiradi va ulardan foydalanishga imkon beradi. Tajribaning ortishi va ish talablariga nisbatan yanada yetuk tushuncha shakllanadi. Davomiy imkoniyatlar yuqori malakali rahbarlarga o'z bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini yosh rahbarlarga o'tkazishga imkon berar ekan, o'zlari ham mentorlik va murabbiylik orqali yangi tushuncha va bilimlarga ega bo'lishadi.

Bir qator davlatlar rahbarlikni rivojlantirishni ta'minlashda global yondashuvni qabul qildilar, bu esa maktab rahbarligining davomiyligini ta'minlashni taqozo etadi. Shuning uchun direktorlarning turli ehtiyojlarini qondirishga harakat qilish orqali, professional rivojlanish amaliyotlarini kuchaytirishni maqsad qilishgan. Bular orasida Angliya, Shimoliy Irlandiya va Viktoriya (Avstraliya) maktab rahbarligini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar mavjud. Barcha mamlakatlar, amaliyot uchun maxsus malaka ishlab chiqish, rahbarlarni ularning boshlang'ich bosqichlarida qo'llab-quvvatlovchi yo'riqnomalar va maktab rahbarlari uchun yanada maqsadga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini taklif etish orqali ko'proq muvofiq ta'minotni ishlab chiqdilar. Shuningdek, bulardan tashqari, barcha rahbarlik guruhlarida direktor yoki o'rinbosarlardan tashqari boshqalar uchun o'qitish imkoniyatlarini o'z ichiga oluvchi kengroq doiralar mavjud. Ushbu mamlakatlar taqsimlangan rahbarlik tushunchasini qabul qilib, o'zlarining o'qitish imkoniyatlarini kengaytirishlari mumkin.

Quyida ba'zi mamalakatlarning rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish uchun ta'sis etilgan bosqichlarini o'rganib chiqamiz.

Angliyada rahbarlikni rivojlantirish strategiyasi o'z

ichiga beshta bosqichni jamlaydi. Har bir bosqichda boshqaruvchilar va boshqa maktab rahbarlari uchun tayyorgarlik, o‘qitish va qo‘shimcha treninglarga asoslangan turli rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Shimoliy Irlandiyada esa yangi va maqsadga erishmoqchi bo‘lgan rahbarlar, shuningdek, faol direktorlarga va menejerlarga treninglar taqdim etiladi.

Shotlandiyada ta’lim rahbarligini rivojlantirish dasturi tez-tez yangilanib turadi. Shu bois, Shotlandiya yaqinda rahbarlikni rivojlantirish dasturini yangi talablar bilan moslashtirishga kirishdi. Bu tizim rahbarlik jamoalarida ishtirok etayotganlar va yuqori darajadagi xodimlar uchun o‘qish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ta’lim rahbarlari uchun davomiy professional rivojlanish, maktablarni boshqarish tuzilmasi emas, balki professional rivojlanishni rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, to‘rtta keng daraja bo‘yicha professional rivojlanishni nazarda tutadi:

➢ Loyihaviy rahbarlik, kichik loyihalarni boshqarish mas’uliyatiga ega bo‘lgan yoki buni olishni xohlaydigan o‘qituvchilar uchun yaratilgan. Bu odatda, o‘z karyerasining dastlabki bosqichlarida bo‘lgan o‘qituvchilarni qamrab oladi va ularga o‘z rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, masalan, o‘quv dasturini rivojlantirish yoki o‘quvchilar o‘qishini qo‘llab-quvvatlash sohasida o‘zlarini sinab ko‘rishlari mumkin bo‘ladi.

➢ Jamoaviy rahbarlik, kichik loyihalarni boshqarish bilan bir qatorda, doimiy xodimlar jamoasini yoki ishchi guruhi, tashkilotlarni boshqarish mas’uliyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan. Bu aspirant va tasdiqlangan rahbar o‘qituvchilar uchun bo‘lib, ularning mas’uliyatlari asosan, o‘quv dasturi yoki turli sohalarda xodimlarga yo‘naltiruvchi vazifasini bajarish kabilarni o‘z ichiga oladi.

➢ Maktab rahbarligi, loyihalarni va jamoalarni boshqaruvchi xodimlar uchun, shuningdek, o‘quv muassasasining rahbarlik jihatlariga nisbatan umumiy mas’uliyatga ega bo‘lganlar uchun ta’sis etilgan. Bu yuqori rahbariyat jamoasiga a’zo bo‘lishni maqsad qilgan yoki bunday jamoalarning a’zolari bo‘lgan o‘qituvchilar yoki pedagog rahbarlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

➢ Strategik rahbarlik, loyihalar, jamoalar va maktab rahbarligi mas’uliyatlaridan tashqari, o‘quv muassasasining rahbarligiga umumiy mas’uliyatga ega bo‘lgan yoki mahalliy yoki milliy darajada strategik tashabbuslarni boshqarayotgan xodimlar uchun joriy etilgan. Bu xususan, direktorlar va Shotlandiya ta’limini yaxshilashda strategik roli bo‘lgan ta’lim xizmatida ishlovchi xodimlar uchun muhimdir.[3]

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish uchun turli bosqichlarni bosib o‘tish, bu borada davlat tomonidan ular uchun turli maxsus dasturlar yaratish, treninglar tashkil etish lozimligi ma’lum bo‘ladi. Bundan tashqari, har qanday dastur, treninglarga ishtirokchilarni jalb etishda ularning qiziqishlari, lavozimlari, shaxsiy xususiyatlari va ish jarayonidagi intellektual salohiyatlarini ham hisobga olgan holda jalb etish samarali natija olishga xizmat qiladi.

“Menejment qoidalariga rioya qilib ishlayotgan maktab rahbarlari bugungi ta’lim sohasidagi islohotlarni his etish bilan birga boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etib, kuchli instruktiv yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o‘qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o‘qib-o‘rganish, o‘rgatish uchun zaruriy muhit, o‘quvchilar va sinfni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar. Mazkur jarayonlarda boshqaruv madaniyatiga ega bo‘lishlik ham talab qilinishi nojoiz emas, chunki bu ma’muriy ijtimoiy va rahbarning psixologik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi professional va ishchanlik sifatli sintezdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova D.S. “Menejment nazariyasi”. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2011. 122-bet.
2. Devos, G., N. Engels, A. Aeltermann, D. Bouckenooghe and G. Hotton (2005), Het Welbevinden en Functioneren van Directies Basisonderwijs, OBPWO-project 03.06.
3. Beatriz Pont, Deborah Nusche, Hunter Moorman, “Improving School Leadership” VOLUME 1: POLICY AND PRACTICE, – FRANCE:. “OECD PUBLICATIONS”, 2008. 113p

Shoxidaxon BOTIROVA,
Andijon Davlat Pedagogika instituti
Tasviriy san'at fan o'qituvchisi
Email: shokhidakhonbotirova1224@gmail.com

AKVARELIST MANZARACHI RASSOMLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada akvarel va manzara haqida qisqa tushunchalar berilgan. Hamda akvarelda manzara ishlagan buyuk rassomlardan bir nechtasi haqida ma'lumotlar va ularning asarlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *akvarel, manzara, rassomlar, asarlar.*

Аннотация: эта статья дает краткое представление о акварели и пейзаже.А также информация о нескольких великих художниках, работавших над пейзажами акварелью, и образцы их работ.

Ключевые слова: *акварель, пейзаж, художники, работы.*

Annotation: this article provides brief insights into watercolor and landscape. Also in the watercolor are references to several of the great painters with whom the landscape worked, as well as examples of their works.

Key words: *watercolor, landscape, artists, works.*

Kirish. Akvarel (frans. aquarelle, asli lotincha aqua — suv) — rassomlik san'atida ishlatiladigan bo'yoq (suvda oson eriydi) va shu bo'yoq bilan bajarilgan rang-tasvir asari.Akvarelning o'ziga xos xususiyati bo'yoqning tiniq, rangning sofligidir, rang-tasvirida oq bo'yoq ishlatilmaydi – oq qog'oz bo'yoq vazifasini bajaradi, bo'yog'i qog'oz sirtiga yupqa qatlam bo'lib yotadi, bu qatlam nurni yaxshi o'tkazadi. Shuning uchun rang-tasviri yuzasi silliq bo'lmagan oq qog'ozga ishlanadi, bo'yog'ida rasm ishlanganda rangsurtmalar, rang qatlamlari xususiyati hisobga olinishi kerak, qadimdan ma'lum bo'lgan.Akvarel bo'yoqlari juda ham qadimiy bo'lib, ehtimol Yevropaning paleolit davridagi g'or rasmlariga tegishlidir.Misr davridan beri, ayniqsa Yevropa o'rta asrlarida qo'lyozma rasmlari uchun foydalanilgan.Biroq kelib chiqishi, uning badiiy vosita sifatida uzluksiz tarixi Uyg'onish davridan paydo bo'ldi. Shimoliy Uyg'onish davri nemis rassomi Albrecht Dyurer (1471-1528) bir nechta ajoyib botanika, yovvoyi tabiat va landshaft akvarellarini chizgan, odatda akvarelning eng qadimgi vakillaridan biri hisoblanadi. Dyurer Uyg'onish davrining bir qismi sifatida Germaniyada akvarel bo'yoqlarining muhim maktabiga Hans Bol (1534-1593) rahbarlik qilgan [1]

Annotation: the two objectives I intend to address in this paper are: to review the literature on cultural terms and the main typologies and classifications proposed for them, and to demonstrate the main methodological strategies in the translation process. It creates many translation difficulties in the process of translating realities or cultural terms. This article also presents the results obtained in a study based on the translation of text fragments based on cultural aspects. Establishments translators are needed in many areas of global contacts, and proficiency in translation is very useful in the practical work of graduates of language departments and departments both in state or cultural organizations and private commercial companies. Consequently, learning these skills should to be given serious attention in the complex process of teaching a foreign language.

Key words: *processes, foundation, objective, culture, translation, literary, terms, classification, foreign.*

Аннотация: в этой статье я намерен решить две задачи: проанализировать литературу по культурным терминам и предложенным для них основным типологиям и классификациям, а также продемонстрировать основные методологические стратегии в процессе перевода. Это создает множество трудностей перевода в процессе перевода реалий или культурных терминов. В данной статье также представлены результаты, полученные в исследовании, основанном на переводе фрагментов текста с учетом культурологического аспекта. Переводчики учреждений необходимы во многих сферах глобальных контактов, а владение переводческим языком очень полезно в практической работе выпускникам языковых факультетов и кафедр как в государственных или культурных организациях, так и в частных коммерческих компаниях. Следовательно, освоению этих навыков необходимо уделять серьезное внимание в сложном процессе обучения иностранному языку.

Ключевые слова: *процессы, основа, цель, культура, перевод, литература, термины, классификация, зарубежная.*

Annotatsiya: ushbu maqolada men ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan ikkita maqsad: madaniy atamalar bo‘yicha adabiyotlar va ular uchun taklif qilingan asosiy tipologiyalar va tasniflarni ko‘rib chiqish va tarjima jarayonida asosiy metodologik strategiyalarni namoyish qilish. Bu voqelikni yoki madaniy atamalarni tarjima qilish jarayonida ko‘plab tarjima qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada, shuningdek, madaniy jihatlarga asoslangan matn parchalarini tarjima qilish asosida tadqiqotda olingan natijalar taqdim etilgan. Tashkilotlar tarjimonlari global aloqalarning ko‘plab sohalarida zarur bo‘lib, tarjima mahorati davlat yoki madaniyat tashkilotlari va xususiy tijorat kompaniyalaridagi til bo‘limlari va bo‘limlari bitiruvchilarining amaliy ishlarida juda foydali. Binobarin, chet tilini o‘qitishning murakkab jarayonida ushbu ko‘nikmalarni o‘rganishga jiddiy e’tibor berish kerak.

Kalit so‘zlar: *jarayonlar, asos, maqsad, madaniyat, tarjima, adabiy, atamalar, tasnifi, xorijiy.*

Coaching foreign languages involves a collective approach, when in the education process attention to all theoretical aspects of a particular language, its phonetics, vocabulary, grammatical structure, etc. This gives student’s versatile information in the field of a foreign language. But in the process of learning it is necessary to pay important attention and applied skills, what is called “mastery” of the language. In the middle of these skills is the ability to express one's thoughts in a foreign language orally or in writing, the ability to communicate freely with native speakers of one language or another. A special place among the practical skills of foreign language proficiency takes translation skills.

The group of translation type is very important for its education. It is obvious that the preparation method specialists written translation differs from methods training oral translators. Yes, and within written translation to the translation of literary texts, for example, scientific articles or commercial contracts have very different requirements, which, of course, must also be taken into account in the process of learning. Good and bad translation.

The difficulties of assessing the quality of translation seem to us to be very significant, since only by defining the criteria for recognizing a translation as successful or unsuccessful, it is possible to go further and develop norms, by which any translator should be guided in his work and which, therefore, must be taught in future translators. The requirements of the adequacy and equivalence of the translation require the translator to comply with certain norms, without which it is impossible to achieve a high-quality translation. First of all, the adequacy of the translation implies observance by the translator of the norms of speech of the TL. After all, the communicative effect can be achieved only if when recipients perceive the text of the translation as corresponding to the norms of their language.

Materials and methods

Gradation score, the translator's compliance with this norm can vary significantly depending on the type of translation that we we're dealing. Clearly, in written translation, it will be much stricter than in oral (especially simultaneously). Many scholars agree with the fact that language is an expression of culture and the individuality of its bearers, and therefore deeply explored the cultural terms, as well as problems associated with their translation, when there is no equivalence between two languages and cultures. Now, period is widespread and is often used to refer to objects, customs, habits and other cultural and material aspects that have an impact on the formation certain language.

Investigative control of the results of oral translation comes in the process of its sounding with the ability to navigate on the perception of the recipient and make adjustments in the course of further work. When translating in the classroom, students learn text analysis in the process of listening (professional perception of the original message), developing the skill of quickly transition from the stage of perception of the original to the creation of a sound translation text, as well as professional rhetorical skills and the ability to quickly and productively switch from one language to another.

Results and discussion

Based on statement within the framework of status-role relations in modern society can be divided into the following types institutional discourse: political, economic, diplomatic, pedagogical, medical, legal, linguistic, etc. It is proposed to single out the institutional discourse on two grounds: goals and participants of communication. So, for example, the purpose of economic discourse may be business correspondence, negotiating, drawing up business plans, etc. Participants institutional discourse are representatives of society, "agents" and "clients" are the people who address them.

A term is a word or phrase that has a special, strictly defined value in a particular field of science and technology. The conceptual content of the word "term" varies in the collective consciousness of representatives of different scientific disciplines. Linguists often understand the term as a borrowed word, since it is strong different from native language units. Sociologists consider the term any special word. Economics think that most of the words associated with their activities should be considered as terms.

The most frequently mentioned properties are: terminological vocabulary: unambiguity, accuracy, brevity, consistency, stylistic neutrality, lack of modal and stylistic function, indifference to context, lack of synonyms and homonyms within the same terminological system, etc. Many scientists, as noted above, believe that the term indifferent to the context: "The principle of the independence of the term from the context rather means the requirement that the term is always the same understood by representatives of one profession, so that its unambiguous the interpretation was provided by the system of scientific concepts, and not by the lexico-semantic system of the language.

A distinctive feature of the professionally oriented translation of medical texts is subject content special, related to the field of medicine, texts. Saturate them special terminology and scientific concepts creates difficulties lexical character. The main feature of the translation of medical texts is accuracy of information transfer. Translation of economic texts requires from the translator not only excellent knowledge of the language, but also the availability special knowledge of medicine theory and understanding of the features special terminology. Medical terminology, like any other, has its own terms. A term is an emotionally neutral word (phrase) that conveys the name exactly a certain concept related to a particular field of science and techniques, or denoting specific objects and concepts by which operated by specialists in a particular field of science and technology. Should conclusion: we translate the concepts denoted by one or another term. Terminological vocabulary allows you to most accurately express the content of this subject and provides a correct understanding source material.

Consequently, practical course and written and oral translation based on the translatological classification of types texts turn out to be built in a uniform way: starting learning from primary cognitive texts and mastering work technologies with neutral language means reflecting the cognitive information in the text, written or oral, on the subsequent stage we work with texts containing mixed types information, and mastering technologies for working with other, non-neutral other linguistic means reflecting the emotional, operational rational, aesthetic information, moving on to complex types of texts in which the author's principle is manifested very clearly and which require in translation the effective application of the most various translation technologies.

REFERENCES

1. Абрамова И.Е., Шерехова О.М. Обучение диалогу и полилогу на английском языке студентов-нелингвистов // Высшее образование в России. – 2020. Т. 29. № 6. – С. 102-110.
2. Багдасарова Э.В. Этимологические особенности медицинского термина в английском языке // Научный альманах. № 8 (10). – 2015. http://ucom.ru/doc/na.2015.08.1591.pdf.
3. Buranova Dilafruz. To Teach or Not to Teach English for Medical Students. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(3). p.907.Awla, H. A. (2014). Learning styles and their relation to teaching styles. International Journal of Language and Linguistics, 2(3), 241-245.
4. Davletyarova N.I. - Difficulties in teaching English spelling. USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTION (2022) p.69. https://doi.org/10.5281/zenodo.7375780 https://virtualconferences.press/
5. Alekseeva I.S. Text and translation. – 2008. 20-25 p.
6. Alekseeva I.S. Introduction to translation studies. – 2004. 15-25 p.

Sabokhon SHARIPOVA
senior lecturer, Department of English,
Namangan State University, Uzbekistan
Gmail:sabohatsharipova2375@gmail.com

LINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC FACTORS IN NEOLOGISMS AND THEIR USE IN MEDIA DISCOURSE

Annotation: this articlethe use of neologisms in modern mass media reflects the active process of language and speech change, the vocabulary reflects the desire of people to communicate faster and accelerates the change of language rhythm and words, which requires the study of the dynamics of language based on neologisms.

Keywords: *neologisms, media text, dynamics of the linguistic picture of the world, borrowed words.*

Аннотация: в данной статье показано, что употребление неологизмов в современных средствах массовой информации отражает активный процесс языковых и речевых изменений, лексика отражает стремление людей быстрее общаться и ускоряет изменение языкового ритма и слов, что на основе неологизмов раскрывает и требует изучения динамику языка.

Ключевые слова: *неологизмы, медиатекст, динамика языковой картины мира, заимствованные слова.*

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy ommaviy axborot vositalarida neologizmlardan foydalanish til va nutqni o'zgartirishning faol jarayonini aks ettiradi, lug'at odamlarning tezroq muloqot qilish istagini aks ettiradi va til ritmi va so'zlarning o'zgarishini tezlashtiradi, bu esa neologizmlar asosida tilning dinamikasini o'rganishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: *neologizmlar, media matn, dunyoning lingvistik rasmining dinamikasi, o’zlashtirilgan so’zlar.*

INTRODUCTION

Today, the relevance of studying neologisms is determined by the number and frequency of their use, new words appear that enrich the language. Different languages contain about 3000 new words called neologisms every year. Along with information technology, new words inevitably enter the vocabulary of languages. Digital learning resources, multimedia tools and Internet resources reflect the neological activity of word use. The vocabulary of mass media texts reflects the most mobile stylistic subsystem of the literary language, dynamically reflects all the innovations that arise due to various information.

The purpose of the research is to determine the reasons for the appearance of new words, to analyze the positive and negative consequences of their use in modern media texts, to establish the pragmatic component of the meaning of new formations that reflect the goal of the communicator.

This fact shows that the English-language mass media play a central role in information transmission, which determines the relevance of the use of various neologisms and idioms in the mass media. In this regard, it is intended to solve the problem of using neologisms and borrowed words in mass media texts.

MATERIALS AND METHODS

The research is based on the materials of mass media texts. The basis for inclusion in the corpus of neonominations under study was the active identification of words in mass media texts and their absence in modern dictionaries of neologisms. Continuous selection method, methods of collection, systematization and generalization, semantic analysis, contextual analysis, interpretation analysis method, lexical news description method were used.

RESULTS AND DISCUSSION

Mass media have a great influence on modern life, as well as on the perception and evaluation of the surrounding reality. A media phenomenon is more than a medium, a communication channel or even a mass communication practice. It is important to note that it may not be seen simply as a field of communication, mass media is institutionalized in social diversity. It can be assumed that it is new and completely unique, influencing society at the level of specificity, forming the field of mediation and, accordingly, changing sociality in one way or another.

To better understand the role of mass communication, it is necessary to name the functions of mass media, because these functions are fundamental in understanding the concept of "media".

Most of these innovations have not been officially recorded in dictionaries yet, but they are widely used and included in everyday communication between native speakers.Therefore, it is important to consider the concepts of "Neologism" and "borrowing".

Due to their widespread use, neologisms are quickly adopted as everyday words in social networks around the world. Currently, social networks have a significant impact on everyone, because they improve and accelerate communication, strengthen relationships and stimulate business development.

Neologisms can be defined as a set of new words that are different from those in the dictionary. When it

comes to new word formation, word formation occurs through different types of morphological processes. People's desire to communicate faster accelerates the change of language rhythm and words. Thus, neologisms continue to appear and expand the vocabulary of the language.

In addition, neologisms represent something new in every language because they are created almost every day and expand rapidly in the lexicon. They generally rely on traditional word-formation processes such as affixation, stemming and stative phrases.

During the research, it became clear in recent years, neologisms derived from the vocabulary of usage (terms, professionalisms, slang) are used more often in modern mass media texts. At the same time, terms and professionalism are often defined when they enter media texts. Let's look at examples of such neologisms and borrowing words in modern media texts.

"New normal" (eng. new normal). The professional term means "the state of the economy after fundamental changes", for example: "According to experts, the "new norm" is not used for chapters of the past years and negativity that was relevant in the previous reality "completely or "q does"

"Tiktoker" (eng. TikTok). This word means "a blogger who makes short videos and posts them on the TikTok app", for example: "He was a normal person, now he's already a TikToker".

Mining-center-Mining center. This word is used in the sense of "a cryptocurrency production center using the power of computer equipment", for example: "Minenergo predlojilo mnogokratno uvelichit tarify dlya mining-tsentrov".

Influencer. (ing. influencer). This word is used in the sense of "a person whose opinion is important to many people, an opinion leader", for example: "The Association of Bloggers and Agencies has created a blacklist of influencers".

"Fake-Fake" this word is used in the sense of "false, unreliable, falsified, something that is presented as real, reliable for the purpose of misleading". Example: "The Ministry of Justice explained the difference between "fakes" and "discrediting" of the army.

In addition to the first group of neologisms, international protologisms are also frequently used in media texts in 2023. Let's look at their examples.

1.Infodemics (eng.infodemics). Meaning: "spreading false information with the aim of creating a stressful situation by rumours, fakes, exaggerating or denying the situation". Example: "Infodemia and information hygiene: the working group discussed the problem of fake news".

2.Lockdown-prohibition (eng. Lockdown). Meaning: "quarantine, shutdown of enterprises and introduction of strict self-isolation regime". Example: "Small lockdown: Villagers were locked in their homes on June 1 due to the European summit".

Thus, a new lexicon of mass media texts is formed by borrowing words from another language or is formed on the basis of appropriated forms.

CONCLUSION

Based on the research, we can conclude that the appearance of neologisms and borrowed words in modern media texts is based on three reasons: fashion, influence of foreign languages and social environment. On the one hand, the use of neologisms and borrowed words in mass media texts is a positive phenomenon that indicates integration into a globalized society. On the other hand, excessive use of neologisms in media texts without proper explanation of their meaning leads to misunderstanding of the material. Not all readers understand the meaning of the neologism used in the text. In particular, this situation often applies to representatives of the older generation who do not know a foreign language.

Arguably, it is important to maintain a balance in the use of various new verbal tools in modern media texts.

LIST OF REFERENCES USED:

1. Smith, A. (2019). The Evolution of Language in Media: Neologisms and Cultural Influence. Oxford University Press.

2. Martinez, L. & Huang, T. (2020). "Extralinguistic Motivations Behind the Popularity of Internet Neologisms." Journal of Media Linguistics, 14(3), 245-262.

3. Johnson, R. (2021). "From Vernacular to Viral: Neologisms in Digital Media." Media Discourse Studies Quarterly, 9(2), 33-47.

4. Petrov, I. (2018.Sociolinguistic Dynamics of Neologisms: The Role of Extralinguistic Contexts. Cambridge Scholars Publishing.

5. Ahmed, S. & Clarke, B. (2022). "Hashtag Linguistics: Neologisms and Their Function in Social Media Movements." Digital Communication Review*, 11(1), 112-130.

6. Fischer, M. (2020). Language Trends in Modern Journalism: The Role of Neologisms. Routledge.

7. López, C. (2023). "Semantic Shifts and Extralinguistic Influences: Neologisms in Post-COVID Media." Global Linguistic Studies, 7(4), 58-74.

8. Taylor, H. (2017). "Neologisms and the Visual Semiotics of Media." International Journal of Semiotic Studies, 5(3), 67-89.

Sojida NAJIYEVA,
SamDChTI Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

KREDIT-MODUL TA’LIM TIZIMINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada yosh avlodni o‘qitish kelajakda barkamol inson, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash kabi murakkab masalalarni hal qilish pedagogning g‘oyaviy e’tiqodi, kasbiy mahorati, bilimdonligi, madaniyatiga bog‘liq ekanligi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *pedagog, kasb, shaxs, ta’lim, modul, kredit, tizim, o‘quv, fikr, kelajak, mutaxassis.*

Annotation: this article talks about the fact that the education of the younger generation depends on the ideological beliefs, professionalism, erudition, culture of the educator to solve such complex issues as the future upbringing as a harmonious person, an independent thinking person.

Key words: *pedagogue, profession, person, education, module, credit, system, training, opinion, future, specialist.*

Аннотация: в данной статье речь пойдет о том, что от идейных убеждений, профессионального мастерства, эрудиции, культуры педагога зависит решение таких сложных вопросов, как воспитание подрастающего поколения в будущем как гармоничного человека, самостоятельной мыслящей личности.

Ключевые слова: *педагог, профессия, человек, образование, модуль, кредит, система, подготовка, мысль, будущее, эксперт.*

Pedagogning kasbiy va shaxsiy fazilatlari ham pedagogika sohasida ishlash uchun zarur bo‘lib, ular oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shartidir. Kredit-modul tizimi talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, muvaffaqiyatli ta’lim uchun zarur irodani tarbiyalash, va albatta, faol mustaqil izlanuvchanlik faoliyatini ta’minlaydi, chunki talaba o‘quv materialini faoliyati davomida o‘zlashtirgan ta’lim samarali ta’lim hisoblanadi. Faqat shundagina ta’lim talabaning bilimni ongli qabul qilish va mustahkam o‘zlashtirishiga va uni rivojlantirishiga yo‘l ochadi. Yaxshi mutaxassis bo‘lishi uchun ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Yosh avlodni o‘qitish kelajakda barkamol inson, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash kabi murakkab masalalarni hal qilish pedagogning g‘oyaviy e’tiqodi, kasbiy mahorati, bilimdonligi, madaniyatiga bog‘liq.

Pedagog talabaning qobiliyatlarini namoyon qilishning barcha vositalariga rioya qilishi va ularni sharoitiga qarab qo‘llashi kerak. Talaba mutaxassis bo‘lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha diplomga ega bo‘lishi uchun kreditlarni yig‘ib borishi lozim. To‘plangan kredit talabaga butun umr davomida o‘zining malakasini oshirib borishga xizmat qiladi.

Bu esa bevosita talabalardagi umumiy madaniyatini yuksaltirish, ularni ijtimoiy hayotga, yuqori darajadagi axloqiy, mehnat madaniyatiga, vatanparvarlik xislatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalash bilan bog‘liqligini ham alohida ta’kidlash lozim. Ilmli ijodkor talabalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ta’lim sohasida, qolaversa, boshqa sohalarda ham rivojlanish jadal sur’atda yuqorilab boraveradi.

Jamiyatga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunda ustozlar oldida turgan vazifalardan biri sanaladi. Davlatning yuksalib rivojlanishi ilmli, bilimli insonlarning ilmiy salohiyatiga bog‘liq. Shuni inobatga olgan holda, eng avval ijodkor qobiliyatli talabalarni aniqlay olishimiz kerak. Buning uchun iqtidorli talabalarning qobiliyatini, mahoratini, ijodkorligini maksimum darajada namoyon etishlari uchun ularga sharoitni yaratish ham lozim bo‘ladi.

Talabalar kelajakdagi bizni faoliyatimizni davom ettiruvchi kasb egalari sanaladi. Shu bois pedagoglar zimmasida yoshlar qalbiga ilm urug‘ini ekish va parvarish qilish vazifasi yuklatilgan. Talabalar faoliyatidagi ijodkorlik va mahoratni shakllantirish ustozlar zimmasidagi vazifalardan biri. Demak, zamonaviy pedagog talaba o‘quvchiga ta’sir etishi, uning istaklarini, e’tiqodini qiziqish va imkoniyatlarini shakllantira bilish kerak. Shunday ekan, zamonaviy maktab va oliy maktablarga yuksak ma’lumotli, faol izlanuvchan, ustoz-pedagog kerakligi hech birimizga sir emas. Bunday pedagoglar ijodkor talabalar safini kengaytiradi. Ilm-fan rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Kredit-modul tizimi asosida talabalar ijodiy faoliyatini shakllantirishning didaktik tizimini yaratish mazmuni quydagicha bayon qilish mumkin:

Tashkil etish - didaktik jarayonni aniq mezonlar asosida tartibga solish, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun unga zarur shaklni berish.

Shakl (yunoncha, forma - tashqi ko‘rinishi, qobig‘i) o‘quv jarayonining mavjudligini ta’minlovchi usul, uning ichki mantig‘i, mohiyati va mazmuni qobig‘idir. Shakl talabalarning soni, ta’lim o‘rni hamda vaqti, uni amalga oshirish tartibi va shu kabilarga bog‘liq bo‘ladi.

Metod (yunoncha metodos - yo‘li, usuli) - ta’lim maqsadi va vazifasiga erishish (uni amalga amalga

oshirish) yo‘li.

Vosita o‘quv jarayonini predmetli ta’minlash (pedagogning nutqi, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rsatmali qurollar, sinfdagi jihozlar, texnik vositalar, o‘quv qurollari va boshqalar vosita hisoblanadi).

Natija (ta’lim mahsuli) - ta’lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o‘quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta’limni tashkil etish metodikasi ta’lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o‘z ifodasini topgan:

– ta’limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;

– ta’limda onglilik va ijodiy faollik;

– ta’limda ko‘rgazmalilik;

– ta’limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);

– ta’limning tushunarliligi;

– guruhli va individual ta’lim birligi;

– ta’limning talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;

– oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;

– pedagogik hamkorlik.

Kredit-modul o‘qitishda zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

– fanning ilg‘or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

– darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;

– talabalarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– talabalar anglab yetadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish;

– ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, talabalarning rivojlanish darajasiga tayanish;

– shaxsning har tomonlama rivojlanishini motivatsiyalash va faollashtirish;

– o‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;

– pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

– zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;

– mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

– har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Kredit-modul o‘qitish tizimida ham har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo‘naltiriladi: o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish.

Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi. Shuning uchun kredit-modul tizimidan foydalanish masalasi, ta’kidlash joizki, ushbu texnologiyadan uzib olingan va o‘qituvchiga amaliy mashg‘ulotni jonlantirish imkonini beradigan alohida metodlar sifatida emas, aynan ijodkorlik, texnologiya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ijodkorlik ishlab chiqarishning har bir sohasida, fanda, san’atda va boshqalarda alohida ajratilgan. Ijodkorlik turlari shaxsning ijodiy faoliyati (ixtirochi, ishlab chiqarish tashkilotchisi, olim, rassom, o‘qituvchi va b. lar ijodi) xususiyatiga qarab belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyoqulov N.H. Pedagogicheskaya texnologiya. –Toshkent:Aloqachi, 2009-148- b
2. Avlyaqulov N.X., Musaeva N.N.Pedagogik texnologiya.–Toshkent: ChomponNMIU, 2012.208- b
3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T., 2007. – 183 b.
4. Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 35-bet
5. Usmonov B.Sh. Xabibullaev R.A.Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini Kredit-modul tizimida tashkil qilish. –Toshkent: Tafakkur, 2020.120- b.
6. Xo‘jaev B.Q., Olimov Sh.Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Buxoro: Yoqub Dovud, 2004. 164-b.
7. Yo‘ldoshev J.G’. Ta’lim yangilanish yo‘lida. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. 207- b
8. O‘rinov Voxid O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Muassasalarida ECTS Kredit-Modul Tizimi – Toshkent: Tafakkur, 220- 64- b.
9. O‘rinov V., Sultonov M., Umarov A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tashkilotlarida ECTS Kredit-modul tizimi: Asosiy tushuncha va qoidalar – Toshkent: Ma’naviyat, 220- 96- b.

Farxod TASHPULATOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati”
kafedrasi mudiri, professori
tashpulatov.fa@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-4317-3046
TDIU professori A.Muxametov taqrizi asosida

TALABA YOSHLARGA YUGURIB KELIB UZUNLIKKA SAKRASH TEXNIKASI VA TAKTIKASINI O‘RGATISH

Annotatsiya: ushbu maqolada yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasi bo‘yicha yozilgan ushbu maqola yosh sportchilarga bu sport turini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan asosiy texnika va taktikalarni o‘rgatishga qaratilgan. Maqolada uzunlikka sakrashning muhim bosqichlari — yugurib kelish, turtinish, havodagi harakat, va qo‘nish — batafsil tushuntiriladi.Har bir bosqichning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijani qanday oshirishi haqida ma’lumotlar beriladi. Shu bilan birga, sportchilarning kuch va tezlikni to‘g‘ri ishlatishi, muvozanatni saqlashi va xavfsiz qo‘nish texnikasini egallashlari uchun tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: *depsinish, uzunlikka sakrash texnikasi, uch hatlab sakrash*

Annotation: this article focuses on the essential techniques and tactics required for mastering the long jump, specifically for young athletes. It provides a comprehensive overview of the key stages of the jump, including the approach run, take-off, flight, and landing, with a detailed explanation of how each phase contributes to achieving optimal performance. The article emphasizes the importance of proper technique in maximizing distance, while also highlighting the need for physical conditioning, balance, and mental preparation. It offers practical recommendations for coaches and athletes to improve their skills in long jump and outlines effective training methods. The content serves as a valuable resource for both beginners and experienced athletes aiming to enhance their jumping abilities.

Key words: *take-off, Long Jump Technique, Triple Jump*

Аннотация: эта статья посвящена важнейшим техникам и тактикам, необходимым для освоения прыжка в длину, особенно для молодых спортсменов. Она предоставляет всесторонний обзор ключевых этапов прыжка, включая разбег, отталкивание, полет и приземление, с подробным объяснением того, как каждый этап способствует достижению максимальных результатов. В статье подчеркивается важность правильной техники для увеличения дистанции, а также внимание к физической подготовке, балансу и психологической настройке. В статье предлагаются практические рекомендации для тренеров и спортсменов по улучшению их навыков в прыжке в длину и эффективным методам тренировки. Этот материал является ценным ресурсом как для начинающих, так и для опытных спортсменов, стремящихся улучшить свои способности в прыжке.

Ключевые слова: *отталкивание, Техника прыжка в длину, Тройной прыжок*

Kirish. Yugurib kelib uzunlikka sakrash — eng mashhur va qiziqarli sport turlaridan biri bo‘lib, u nafaqat kuch, balki muvozanat va texnikani ham talab etadi. Ushbu sport turi yillar davomida rivojlanib, sportchilar orasida katta qiziqish uyg‘otdi.Uzunlikka sakrashda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilar, avvalo, to‘g‘ri texnikani o‘zlashtirishlari zarur.Bu esa, o‘z navbatida, sportchilarni nafaqat barchasiga, balki o‘zlarining individual xususiyatlariga qarab moslashtirilgan dasturlar yordamida tayyorlashni talab qiladi.

Yugurib kelib uzunlikka sakrashda to‘g‘ri yondashuv, sportchining umumiy jismoniy holatini yaxshilash bilan birga, natijalarini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada biz uzunlikka sakrashning asosiy bosqichlarini va ularga oid taktikalarni ko‘rib chiqamiz. Maqolaning maqsadi, yosh sportchilarga uzunlikka sakrash texnikasini o‘rganishda yordam berish va o‘qituvchilar, murabbiylar va sportchilar uchun zarur bo‘lgan amaliy tavsiyalarni taqdim etishdir.

Uzunlikka sakrashning muhim tarkibiy qismlaridan biri — yugurish bosqichi.Sportchilar yugurishda maksimal tezlikka erishishlari zarur, bu esa ularning sakrash masofasini oshiradi. Ammo yugurish bosqichi faqat tezlikka emas, balki barqarorlik va to‘g‘ri texnikaga ham asoslanishi kerak. Turtinish va havodagi harakatlar ham sportchining natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun bu jarayonlarning har biriga alohida e’tibor berilishi lozim.

Shuningdek, maqolada ushbu sport turida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan boshqa omillar, masalan, psixologik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik va texnik ko‘nikmalar haqida ham ma’lumotlar taqdim etiladi.

Metodlar.Maqolada uzunlikka sakrash texnikasini o‘rganish uchun kuzatuvlar va tajribalar o‘tkazilgan. Sportchilarning yugurish tezligi, turtinish burchagi va havodagi holati o‘rganilgan. Metodlar orasida sportchilarga turli texnikalarni o‘rgatish, videotahlil qilish

va har bir bosqichni puxta baholash kiradi. Treninglarda sakrash masofalari, tezlik va texnikaning to‘g‘riligini o‘lchash uchun maxsus asboblar va usullar qo‘llanilgan.

Natijalar.Olingan natijalar, yosh sportchilarning uzunlikka sakrash texnikasini yaxshilashda texnikani to‘g‘ri o‘zlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatdi. Turtinish va havodagi harakatlar asosiy rol o‘ynadi, chunki ular sakrash masofasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sportchilar orasida to‘g‘ri texnikani qo‘llash orqali sakrashda yuqori samaradorlik ko‘rsatganlar soni oshdi. Ularning natijalari tezlik, kuch va muvozanatni to‘g‘ri birlashtirishga asoslangan holda yaxshilandi.

Muhokama. Yoshlar uchun yugurib kelib uzunlikka sakrash mashqlari o‘ziga xos jismoniy va ruhiy foydalarni beradi. Ushbu sport turi nafaqat sog‘liqni mustahkamlashga yordam beradi, balki yosh sportchilarning muvozanat, kuch va moslashuvchanligini ham rivojlantiradi. Yugurib kelib sakrash mashqlari orqali talabalar o‘zining tezlik va kuch ishlatish qobiliyatini rivojlantirib, yuqori natijalarga erishishadi, chunki bu sakrashning asosiy qismi bo‘lib, eng yuqori samarani ta’minlaydi.

Shuningdek, uzunlikka sakrash texnikasi yosh sportchilar uchun koordinatsiyani yaxshilaydi, oyoq kuchini oshiradi va o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi. Bu mashqlar ular uchun kuchli tayyorgarlik sifatida ham xizmat qiladi, chunki uzunlikka sakrash davomida yugurish va sakrashni to‘g‘ri muvofiqlashtirish zarur. Ushbu sport turi orqali yoshlar qiyinchiliklarga bardosh berish, kuchlarini ratsional sarflash va o‘z oldilariga maqsad qo‘yish qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

Talaba yoshlarga yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasi haqida to‘liq tushuncha berish, ularga muvaffaqiyatli sakrash texnikasini egallashda katta yordam beradi. Yugurib kelib uzunlikka sakrashda asosiy texnika uchta bosqichga bo‘linadi: yugurib kelish, kuch bilan turtinish, va qo‘nish. Quyida ushbu bosqichlarning har biri haqida ma’lumot keltirilgan:

Yugurib kelib uzoqqa sakrash texnikasi

Yugurib kelish-ugurish bosqichi sakrashning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun muhim ahamiyatga ega.Yugurish davomida sportchi maksimal tezlikka erishishi kerak, lekin bu tezlik barqaror bo‘lishi va oxirgi qadamda kuch bilan turtinishga imkon berishi lozim.

Turtinish – bu bosqichda sportchi bir oyog‘i bilan kuchli turtinib, o‘zini havoga ko‘taradi.To‘g‘ri turtinish sakrash masofasini oshirishga yordam beradi. Bu bosqichda tanani to‘g‘ri pozitsiyada ushlab turish muhim bo‘lib, oyoqlarni yuqoriga ko‘tarish va tananing oldinga qarab harakatlanishi zarur.

Qo‘nish-sportchi sakrash oxirida yerga qo‘nganida qo‘llar va oyoqlarni iloji boricha oldinga cho‘zishga harakat qiladi.To‘g‘ri qo‘nish texnikasi qo‘ngandan keyin tananing barqarorligini ta’minlashga yordam beradi va jarohat olish xavfini kamaytiradi.

Yugurib kelib uzunlikka sakrash taktikasi

Yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasi o‘z ichiga bir qancha asosiy taktikalarni oladi. Ushbu taktikalardan to‘g‘ri foydalanish talabalar uchun optimal natijaga erishishga yordam beradi. Quyida umumiy yondashuvlar va taktikalar haqida batafsil ma’lumot berilgan:

Yugurish bosqichi-yugurish bosqichi muvaffaqiyatli sakrashning poydevori hisoblanadi.Yugurish tezligi va uni qanday nazorat qilish sportchining sakrashdagi balandlik va masofasiga katta ta’sir qiladi. Bosqichlar asta-sekin boshlanib, oxirgi qadamgacha tezlanishi lozim, lekin nazoratdan chiqmasligi kerak.Yugurishning so‘nggi bosqichida kuchli turtinishga tayyorgarlik ko‘rish uchun optimal masofani belgilash muhimdir.

Kuch bilan turtinish-ushbu bosqichda sportchi eng kuchli turtinishni amalga oshiradi. Turtinish qadamida tananing balandlikka ko‘tarilishi va barqarorlikni saqlash uchun tizzalar eng yuqori holatda bo‘lishi kerak.Sportchi tananing old qismiga qaratilgan harakatni saqlashi kerak, bu esa unga havoda uzoqroq masofani egallash imkoniyatini beradi.

Havodagi harakat – havoda harakatlanish davomida sportchi muvozanatni saqlab turishi lozim.Buning uchun sakrash davomida oyoqlar va qo‘llarni oldinga cho‘zish va tananing markazini barqaror ushlab turish muhimdir. Sportchi havoda to‘g‘ri holatda qolish uchun qo‘llar bilan tanani muvozanatlashtirishi kerak.

Qo‘nish bosqichi - qo‘nishda sportchi tanasini iloji boricha oldinga qarab egib, oyoqlarni to‘g‘ri qo‘yishga harakat qiladi. Bu jarayon jarohatlanish xavfini kamaytiradi va samarali qo‘nish imkonini beradi. Qo‘ngandan so‘ng, oyoqlarni tuproqqa to‘g‘ri qo‘yish va tananing oldinga siljishini saqlash kerak.

Yugurib kelib uzunlikka sakrashning: “oyoqlarni bukib”, “ko’krak kerib”, “qaychi” usullari mavjud.Bularning eng ko‘p qo‘llaniladigani “qaychi” usulidir. Uzunlikka sakrashda yuqori natijaga erishish asosan yugurib kelish natijasida hosil bo‘lgan tezlikka bog‘liq. Depsinishda hosil bo‘lgan tezlikka bog‘liq. Depsinish paytida yugurib kelish tezligi qanchalik yuqori bo‘lsa va depsinish qanchalik tez bajarilsa, boshlang‘ich uchib chiqish tezligi shuncha yuqori bo‘lib, shunchalik uzoqqa sakraladi.Uzoqqa sakrash sakrovchini fazodagi uchishdagi turg‘unligiga, yerga tushayotgandagi harakatlarini qanchalik to‘g‘ri bo‘lishiga ham bog‘liqdir.

Uch hatlab sakrash – yugurib kelishda va uchta ketma–ket sakrashdan iboratdir.

1. Bir oyoqdan yana shu oyoqning o‘ziga tushish (“sapchish”dan iborat).

2. Depsinish oyoqqa yana depsinib silkinch oyoqqa tushish (“qadam”dan iborat).

3. Silkinch oyoqda depsinib ikki oyoqda yerga tushish (“sakrash”dan iborat).

Sakrovchining tezligi “sapchish” va “qadam” oxirida oyoqni yerga qo‘yish vaqtida pasayadi. Tezlik qancha tez tormozlansa, “qadam” va “sakrash” uzoqligi shuncha kamayadi. Yugurib kelib balandlikka sakrashning “Hatlab o’tish”, “To’lqin”, “Perekat”, “Perekidnoy”, “Fosberi-flop” usullari mavjud.Usullaridan “Perekidnoy”

va “Fosbyuri-flop” eng afzalidir.Yugurib kelib langarcho‘p bilan sakrashning yengil atletik sakrashdan farqi – uning ko‘chma tayanch – langarcho‘p bilan bajarilishidir. U yugurib kelishdan, langarcho‘pni yerga tirash va depsinishdan, osilishdan, langarcho‘pda sakrovchining ko‘tarilashidan plankani aylanib o‘tish va yerga tushishdan iborat.Bu sakrash fazasining hammasi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir ritmda bajariladi. Sakrash natijasi sakrovchining yuqoriga ko‘tarilishi tezligiga va langarcho‘pni qanchalik yuqoriga ko‘tarilish tezligiga, uning bo‘yicha, texnika elementlarining barchasini aniq bajarilishiga, shuningdek, langarcho‘pning egiluvchanligiga tarangligiga bog‘liqdir.

Xulosa. Ushbu maqola yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasini o‘rganishga qaratilgan.Uzunlikka sakrash muvaffaqiyatini oshirish uchun to‘g‘ri texnikalarni o‘zlashtirish juda muhimdir.Maqolada sportchilarning muvaffaqiyatli natijalarga erishishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy bosqichlar — yugurish, turtinish, havodagi harakat va qo‘nish — batafsil muhokama qilinadi. Har bir bosqichda sportchilarning qanday tayyorgarlik ko‘rishi, kuch va tezlikdan qanday foydalanganlari, shuningdek, muvozanatni qanday saqlashlari haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Sportchilar uchun tavsiya etilgan yondashuvlar va metodlar, ular orqali o‘z sakrash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Maqolada taqdim etilgan tavsiyalar nafaqat yosh sportchilar, balki ularning murabbiylari va o‘qituvchilari uchun ham foydali bo‘lishi kutilmoqda. Maqola o‘quvchilarga uzunlikka sakrash texnikasini o‘rganishda yordam berish va ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida yozilgan.

Yugurib kelib uzunlikka sakrashda muvaffaqiyatga erishish uchun to‘g‘ri yondashuv va strategiyalarni qo‘llash, sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini mukammallashtirishga yordam beradi va natijada ularga o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatini yaratadi.

Maqolada keltirilgan fikrlar va tavsiyalar sportchilarni nafaqat texnik jihatdan, balki psixologik tayyorgarlik nuqtayi nazaridan ham tayyorlashga qaratilgan. Bu esa sportchilarni raqobatbardosh muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://worldathletics.org/;
2. https://coachingyoungathletes.com/;
3. https://tyiu.uz/elibrary/books/20230323101453.pdf;

Nuriddin SANGIROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrasi mudiri, professor
Sangirov84@mayli.com
https://orcid.org/0009-0003-7270-3995

TDIU professori A.Muxametov taqrizi asosida

TALABA-YOSHLARGA VOLEYBOL TEXNIKASI VA TAKTIKASINI O‘RGATISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqola yoshlarga voleybol texnikasi va taktikasi bo‘yicha bilim berishda interaktiv trening texnologiyalarining ahamiyatini tahlil qiladi. Virtual reallik, video tahlil, sensor va kuzatuv qurilmalari kabi zamonaviy texnologiyalar o‘yinchilarning individual ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali murabbiylar mashg‘ulotlarni samarali boshqarishi, o‘yinchilar esa o‘z natijalarini kuzatishi mumkin. Ushbu usullar voleybol o‘rgatishda o‘yinchilarni tezkor qaror qabul qilishga va real o‘yin sharoitlarida mustahkamlanishga tayyorlaydi, bu esa ularning o‘yin sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: *voleybol texnikasi, o‘yin rejalari, taktik bilimlar va interaktiv trening texnologiyalari.*

Аннотатция: в этой статье анализируется важность использования интерактивных тренировочных технологий для обучения молодых игроков техникам и тактикам волейбола. Современные технологии, такие как виртуальная реальность, видет и сенсорные устройства, помогают развивать индивидуальные навыки игроков. Также мобильные приложения и онлайн-платформы позволяют тренерам эффективно управлять тренировочным процессом, а игроки могут отслеживать свои достижения. Эти методы помогают игрокам принимать быстрые решения и укрепляют их навыки в реальных игровых ситуациях, значительно улучшая их общую производительность.

Ключевые слова: *волейбольные техники, игровые планы, тактические знания и интерактивные тренировочные технологии*

Annotation: this article analyzes the importance of interactive training technologies in teaching volleyball techniques and tactics to young players. Modern technologies such as virtual reality, video analysis, and sensor devices help develop individual skills of players. Additionally, mobile applications and online platforms allow coaches to manage training sessions effectively, while players can track their progress. These methods prepare players to make quick decisions and strengthen their abilities in real-game situations, significantly improving their overall performance.

Key words: *volleyball techniques, game plans, tactical knowledge, and interactive training technologies*

Kirish. Talaba yoshlarga voleybol texnikasi va taktikalarini o‘rgatish usullarini takomillashtirish muhim sport va ta’lim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarga sport ko‘nikmalarini o‘rgatish bilan birga, ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Quyida talaba yoshlarga voleybol texnikasi va taktikasini samarali o‘rgatish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan usullar hamda ilmiy adabiyotlardan namunaviy havolalar bilan tanishamiz.

Yoshlarga individual texnikani o‘rgatish. Voleybol texnikasi asoslarini o‘rganish sportchining kelgusi muvaffaqiyati uchun zarurdir. O‘yinchilarni to‘g‘ri texnikaga asoslangan harakatlarni o‘zlashtirishga o‘rgatish, masalan, to‘pni tutish va o‘tkazish usullarini takomillashtirish ularning voleybol mahoratini rivojlantiradi.

Yoshlarga voleybol bo‘yicha individual texnikani o‘rgatish murabbiylikning muhim jihatlaridan biridir. Bu o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga, texnikani to‘g‘ri o‘zlashtirishga va o‘yinda ishonchli harakat qilishga yordam beradi. Individual texnikaga urg‘u berish orqali murabbiylar yoshlarga mustahkam poydevor yaratadi, bu esa kelgusida jamoaviy o‘yinlarda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarurdir.

Yoshlarga voleybolning asosiy texnikalarini o‘rgatishdan boshlash lozim, masalan, to‘pni to‘g‘ri ushlash, pas berish, qabul qilish va zarba berish. Bu harakatlar o‘yin davomida muhim rol o‘ynaydi va ularni to‘g‘ri bajarish o‘yin natijasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Murabbiylar bu texnikalarni har bir o‘yinchiga moslashtirib o‘rgatish orqali ular uchun qulay va samarali bo‘lishini ta’minlashlari kerak.

Har bir texnika to‘g‘ri tayanch holatini talab qiladi. Masalan, zarba berishda tizzalar egilgan, orqa to‘g‘ri va qo‘llar to‘pga tayyor bo‘lishi kerak. Talabalarni to‘g‘ri holatda turishga o‘rgatish ularning muvozanatini saqlashga va to‘pni aniq boshqarishga yordam beradi. Mashg‘ulotlar davomida murabbiylar ularga zarur bo‘lgan holatlarni ko‘rsatishi va bu holatlarning afzalliklarini tushuntirib berishi lozim.

Yoshlarga voleybol texnikasini o‘rgatishda takrorlash juda muhim. Takroriy mashqlar orqali o‘quvchilar o‘z harakatlarini yanada puxtalashtiradi va ular o‘yinda tabiiy ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Murabbiylar har bir o‘yinchining texnikasini kuzatib borishi va zarur bo‘lganda ularni yo‘naltirib, xatolarini tuzatishi kerak.

Yoshlarga texnikani o‘rganish jarayonida murabbiylarning ularni qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishi muhimdir. Har bir harakatni kuzatib, ularga tahliliy fikr va qayta aloqa berish orqali o‘quvchilar o‘z xatolarini anglab, ularga yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muvaffaqiyatli harakatlar uchun ijobiy baho berish ham motivatsiyani oshiradi va o‘quvchilarda o‘ziga ishonch uyg‘otadi.

Har bir o‘quvchining kuchli va zaif tomonlari bo‘lishi mumkin, shuning uchun murabbiylar mashg‘ulotlarni o‘yinchining individual ehtiyojlariga moslashtirishlari kerak. Masalan, kimdir pas berishni yaxshiroq o‘zlashtirgan bo‘lsa, boshqasi zarbaga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin. Shu tarzda, har bir o‘yinchiga mos uslubda mashg‘ulotlar o‘tkazish ularning voleybol texnikasini to‘g‘ri o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Yoshlarga individual texnikani o‘rgatish o‘yin ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. To‘g‘ri o‘rgatish orqali ular kelgusidagi jamoaviy o‘yinlarda yanada muvaffaqiyatli ishtirok etishlari va o‘z qobiliyatlarini yuqori darajaga olib chiqishlari mumkin.

Metodlar. Tadqiqotda voleybol texnikasi va taktikasini rivojlantirish uchun interaktiv trening texnologiyalari, jumladan, virtual reallik, video tahlil, sensor qurilmalar va mobil ilovalar qo‘llanildi. Ushbu metodlar yosh o‘yinchilarga real o‘yin vaziyatlarida mashg‘ulotlar o‘tkazish va o‘z faoliyatlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar. Interaktiv texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘yinchilarning texnik ko‘nikmalari va taktikalik qarorlar qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshiladi. O‘yinchilar o‘yin vaziyatlarini yaxshiroq tushunib, o‘yinda tezkor qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyatli bo‘ldilar. Murabbiylardan olingan fikr-mulohazalar ushbu texnologiyalarning individual ko‘rsatkichlarni va jamoaviy ishlashni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqladi.

Muhokama. Voleybol taktikalari, jumladan, o‘yin davomida hujum va himoya harakatlarini amalga oshirishda o‘zaro kelishuv, sportchilarga jamoa bo‘lib ishlashni o‘rgatadi. Shu maqsadda mashg‘ulotlarda voleybol o‘yinining turli xil strategiyalarini, masalan, hujum kombinatsiyalarini o‘rgatish lozim.

Yoshlarga voleybol bo‘yicha taktik bilim va o‘yin rejalarini o‘rgatish ularning jamoaviy o‘yinda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun muhimdir. Asosiy taktikalarni tushuntirish, o‘yin rejalarini tuzish va kombinatsiyalarni o‘rgatish orqali o‘yinchilar tezkor qaror qabul qilish va samarali harakat qilishni o‘rganadi. Muloqotni rivojlantirish, mashg‘ulotlarda o‘yinga asoslangan vaziyatlarni yaratish va raqiblarni

tahlil qilish yoshlarga o‘z o‘yinlarini yaxshilashga yordam beradi. Shu tariqa, ular o‘z texnikalarini mustahkamlaydi va jamoa ichida ishonchli o‘yin ko‘rsatishga tayyorlanadi.

Talabalarga mashg‘ulotlar jarayonida video tahlil usullarini qo‘llash samarali hisoblanadi. Murabbiylar voleybol texnikasi va taktikasini tushuntirish uchun o‘yinlardan olingan videolar yordamida sportchilarning o‘z harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul yordamida o‘quvchilar o‘z xatolarini o‘rganib, takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘yinga asoslangan mashg‘ulotlar o‘tkazish. Talaba yoshlarga voleybol texnikasi va taktikasi o‘rgatishda o‘yinga asoslangan mashg‘ulotlar samarali bo‘lib, sportchilar o‘zlarini haqiqiy o‘yin vaziyatida his qilishadi. O‘yin davomida murabbiylar taktika va harakatlar haqida tezkor fikrlar bildirish orqali sportchilarga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yinga asoslangan mashg‘ulotlar o‘yinchilarni haqiqiy o‘yin sharoitlarida o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, ularning texnik va taktik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar o‘yinchilarning qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi, ular turli o‘yin vaziyatlarida o‘zini qanday tutish kerakligini yaxshiroq tushunadi. Quyida o‘yinga asoslangan mashg‘ulotlar haqida qisqacha ma’lumot va ularning asosiy foydalari haqida tavsiyalar keltirilgan:

Murabbiylar o‘yin davomida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni mashg‘ulotlarda takrorlab, o‘yinchilarni bu holatlarga tayyorlaydi. Masalan, hujum va himoya vaziyatlari, blok qo‘yish yoki xizmat ko‘rsatishda tezkor qaror qabul qilishga e’tibor qaratiladi.

O‘yinchilarga mashg‘ulot davomida taktika va strategiyalarni o‘zlashtirish imkoniyati beriladi. Bu usul o‘yinchilarni jamoa sifatida hamkorlikda ishlashga va raqib harakatlariga moslashishga o‘rgatadi. Misol uchun, “5-1” va “6-2” kabi hujum va himoya tizimlarini qo‘llash orqali jamoaviy harakat qilish muhimligi o‘rgatiladi.

Jamoa ichida yaxshi muloqot va hamkorlik o‘yin muvaffaqiyatining asosiy omili hisoblanadi. O‘yinchilar o‘zaro gaplashib, kerakli vaziyatda bir-birlariga ko‘maklashib, qarorlarni tezroq va samaraliroq qabul qilishga o‘rgatiladi.

Murabbiylar mashg‘ulotlardan so‘ng o‘yin vaziyatlarini video yoki o‘yin qaydlaridan foydalanib tahlil qilishadi. Bu o‘yinchilarga o‘z xatolarini anglab olishga va keyingi mashg‘ulotlarda ularni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, raqiblarning taktikalarini o‘rganish orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash mumkin.

Interaktiv trening texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rgatish jarayonini interaktiv qilish orqali o‘quvchilarni qiziqtirish mumkin. Masalan, virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida sportchilar voleybol texnikasi va taktikalarini yanada samarali o‘zlashtirishlari mumkin.

Voleybol o‘yinchilari uchun interaktiv trening texnologiyalari, ya’ni raqamli va texnologik vositalar yordamida o‘qitish usullari, o‘yinchilarni zamonaviy sharoitda samarali tayyorlashga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘yinchilarning texnika va taktika bilimlarini oshirish, ularda tezkorlik, muloqot va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Virtual reallik texnologiyalari o‘yinchilarni haqiqiy o‘yin sharoitlariga yaqin vaziyatlarga jalb qiladi. Misol uchun, VR ko‘zoynaklari yordamida o‘yinchilar turli vaziyatlarni amalda sinab ko‘rishi va zarbalar, pozitsiyalash kabi texnik elementlarni takomillashtirishi mumkin. Bu usul real o‘yin vaziyatlarini xavfsiz va samarali tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Video tahlil texnologiyasi murabbiylar va o‘yinchilar uchun o‘yinlar va mashg‘ulotlar davomida qilingan harakatlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Video tahlil orqali murabbiylar o‘yinchilarning harakatlaridagi xatolarni ko‘rsatib, ularga qayta aloqa beradi. Bu o‘yinchilarga o‘zlarini yaxshiroq tushunish va xatolarini tuzatish imkonini beradi.

Interaktiv platformalar orqali o‘yinchilar murabbiylardan real vaqt rejimida maslahat va ko‘rsatmalar olishi, hamda mashg‘ulotni qayta ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, murabbiylar onlayn platformalarda o‘yin vaziyatlarini qayta yaratishi va o‘yinchilar bilan muhokama qilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘yinchilarga mustaqil o‘qitish uchun masofadan turib topshiriqlar berish ham mumkin.

Sensor texnologiyalari va kuzatuv moslamalari yordamida o‘yinchilarning harakatlari, tezkorligi, kuchi va zarba kuchi kabi ko‘rsatkichlar o‘lchanadi. Ushbu texnologiyalar o‘yinchilarning rivojlanishini nazorat qilishda va ularning kamchiliklarini aniqlashda katta yordam beradi. Bu usul orqali har bir o‘yinchi uchun individual trening rejasi yaratish mumkin.

Mobil ilovalar va trening dasturlari orqali o‘yinchilar o‘z o‘quv jarayonlarini mustaqil ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, murabbiylar o‘yinchilar uchun maxsus ilovalar orqali topshiriqlar va maqsadlar belgilashi, o‘yinchilar esa natijalarni yozib borish va o‘z ko‘rsatkichlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa. Talaba yoshlarga voleybol texnikasi va taktikalarini o‘rgatish jarayonini takomillashtirish uchun murabbiylar yangi uslublardan foydalangan holda individual va jamoaviy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini samarali o‘tkazishlari lozim. Ilmiy va texnologik yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘rgatish jarayonini yanada sifatli qilish mumkin. Bu yo‘nalishdagi o‘qitish va trening usullari yosh sportchilarni jismoniy rivojlanish va sport sohasida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Interaktiv trening texnologiyalari yoshlarga voleybol

texnikasi va taktikalarini o‘rganishda katta yordam beradi. VR va simulyatsiyalar orqali real o‘yin sharoitlarini yaratish, video tahlil yordamida o‘z harakatlarini tahlil qilish, sensor va kuzatuv qurilmalari bilan natijalarni o‘lchash kabi usullar o‘yinchilarning individual ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, onlayn platformalar va mobil ilovalar o‘yinchilarga mashg‘ulotlarni yanada mustaqil boshqarish imkonini beradi. Shu tarzda, interaktiv trening texnologiyalari zamonaviy va samarali o‘quv jarayonini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Manesh, P., & Ardiansyah, R. (2019). Effective Training Techniques in Volleyball: Improving Players' Skills Through Consistent Practice. International Journal of Sports Science, 34(2), 45–56;
2. Roberts, M., & Taylor, H. (2021). The Role of Strategy and Tactics in Team Sports: A Comprehensive Study in Volleyball Training. Sports Coaching Review, 56(4), 123-134;
3. Wilson, K., & Marks, L. (2020). The Impact of Video Analysis in Volleyball Training: Enhancing Self-Reflection and Skill Acquisition. Journal of Sports Technology, 12(3), 202-214;
4. Anderson, T., & Blackwood, D. (2018). Game-Based Learning in Volleyball Coaching: How Match Simulations Improve Tactical Understanding. Journal of Physical Education and Sport Pedagogy, 10(2), 78-90;
5. Perez, R., & Gonzales, A. (2022). Using Virtual Reality in Sports Training: A New Frontier in Volleyball Coaching. Advances in Sports Science, 39(5), 301-315;

Axmad MUXAMETOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrasi professori
muxametov1984@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-5008-1178
TDIU professori F.Karimov taqrizi asosida

JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNI SOG‘LOMLASHTIRISH MASHG‘ULOTLARIDA YUKLAMALARNI ME’YORLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqola jismoniy tarbiya va ommaviy sportda yuklamalarni me’yorlashtirishning ilmiy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada yuklamalar tushunchasi, turlari va fiziologik asoslari keltirilgan bo‘lib, bu jarayon sportchilarni tayyorlashda samarali yondashuvni ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, yuklamalarni me’yorlashtirish amaliyoti mashg‘ulotlarni rejalashtirish, nazorat qilish va natijalarni baholashni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon sportchilarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashga, charchash va jarohatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Maqola, yuklamalarni me’yorlashtirishning sog‘lomlashtirish faoliyatidagi ahamiyatini ta’kidlaydi va sportchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.
Kalit so‘zlar: *ommaviy sport, yuklamalar, me’yorlashtirish, ruhiy va jismoniy salomatlik.*
Аннотация: данная статья посвящена исследованию научных и практических аспектов модуляции нагрузки в физическом воспитании и массовом спорте. В статье рассматриваются понятие нагрузки, ее виды и физиологические основы, подчеркивая, как этот процесс способствует эффективной подготовке спортсменов. Также рассматриваются практические аспекты модуляции нагрузки, включая планирование тренировок, контроль и оценку результатов. Правильная модуляция нагрузки помогает улучшить физическое и психоэмоциональное состояние спортсменов, предотвращает усталость и травмы, а также повышает общую эффективность. В статье подчеркивается важность модуляции нагрузки в оздоровительных мероприятиях и ее роль в подготовке спортсменов к будущим достижениям.
Ключевые слова: *массовый спорт, нагрузка, модуляция, психическое и физическое здоровье.*
Annotation: this article is dedicated to the study of the scientific and practical aspects of load modulation in physical education and mass sports. The article discusses the concept of load, its types, and physiological foundations, highlighting how this process ensures effective training of athletes. The practical aspects of load modulation, including planning workouts, monitoring, and evaluating results, are also examined. The proper modulation of loads helps improve athletes' physical and mental condition, prevents fatigue and injuries, and enhances overall performance. The article emphasizes the importance of load modulation in health promotion activities and its role in preparing athletes for future success.
Key words: *mass sports, load, modulation, mental and physical health*

Kirish. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport sog‘lomlashtirish faoliyatining muhim qismi bo‘lib, u insonlarning jismoniy va ruhiy salomatligini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Yuklamalarni me’yorlashtirish (tizimli yuklamalar) – bu jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida yuklamalarni boshqarish va nazorat qilish jarayonidir. Ushbu maqolada yuklamalarni me’yorlashtirishning ilmiy-metodik asoslari, uning ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport zamonaviy hayotda sog‘lomlashtirish faoliyatining muhim komponentlari sifatida ajralib turadi. Ular nafaqat jismoniy sog‘liqni saqlash, balki ruhiy va ijtimoiy salomatlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Jismoniy faollik, inson organizmining barcha tizimlarida, xususan, yurak-qon tomir, mushak-skelet va nerv tizimlarida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Buning natijasida, insonning jismoniy va ruhiy salomatligi yaxshilanadi, stress darajasi pasayadi va umumiy farovonlik oshadi.

Ommaviy sport va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jamoatchilikni jismoniy faollikka jalb qilishda, sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilishda va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi sog‘lomlashtirish faoliyatining muhim qismidir va uning samaradorligini oshirish uchun yuklamalarni me’yorlashtirish jarayoni zarurdir. Yuklamalarni me’yorlashtirish, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida yuklamalarni to‘g‘ri belgilash va boshqarish, sportchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga, ularning charchamasliklariga va jarohatlardan himoya qilishga yordam beradi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada jismoniy tarbiya va ommaviy sportda yuklamalarni me’yorlashtirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi, bu esa sog‘lomlashtirish faoliyatini samarali amalga oshirishda yordam beradi.

Metod (Method). Maqolada ommaviy sportda yuklamalarni metorlashtirish jarayonining ilmiy-metodik asoslari o‘rganildi. Tadqiqotda jismoniy mashg‘ulotlar davomida yuklamalar miqdori va intensivligi sportchilarning sog‘lig'ini saqlash va ularning muvaffaqiyatlarini oshirish uchun qanday modellashtirilishi kerakligi tahlil qilindi. Amaliyotda sportchilarni individual tarzda baholash, ularning jismoniy holatini nazorat qilish va yuklamalarni moslashtirish usullari qo‘llanildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘g‘ri me’yorlashtirilgan yuklamalar sportchilarning jismoniy salomatligini yaxshilashga va ruhiy holatini tiklashga yordam beradi. Mashg‘ulotlarda individual yondashuvni qo‘llash, jarohatlarni kamaytirish va charchoqni oldini olishda samarali natijalar beradi. Yuklamalarni optimallashtirish nafaqat sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini, balki ularning ruhiy salomatligini ham yaxshilaydi.

Muhokama. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida yuklama – bu jismoniy faoliyat davomida inson tanasiga tushadigan jismoniy, ruhiy va psixologik bosimdir. Yuklama sifatida jismoniy faoliyatning intensivligi, davomiyligi, tezligi va takrorlanishlari ko‘rib chiqiladi. Bu yuklamalarni me’yorlashtirish jarayoni, maqsadga muvofiq ravishda, sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan.

Yuklamalarni me’yorlashtirish jarayonida quyidagi ilmiy asoslar mavjud:

birinchidan, individual yondashuv – har bir sportchining individual xususiyatlari va jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab yuklamalar belgilanishi kerak. Bunda, sportchini yuklamalarga tayyorlash jarayonida uning sog‘ligi, jismoniy holati va maqsadlari hisobga olinadi.

ikkinchidan, yuklama va tiklanish – jismoniy yuklama vaqtida organizmda yuzaga keladigan o‘zgarishlar va tiklanish jarayonlari o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish muhimdir. Yuklamalar orasidagi tiklanish vaqtini to‘g‘ri belgilash, sportchilarni charchamasliklari uchun zarurdir.

uchinchidan, nazorat va tahlil – mashg‘ulotlar jarayonida sportchilarning jismoniy holati va yuklamalarini nazorat qilish, ularni tahlil qilish va kerakli o‘zgarishlar kiritish zarur. Buning uchun zamonaviy o‘lchov vositalari va metodikalar qo‘llaniladi.

Yuklamalarni me’yorlashtirish jismoniy tarbiya va sport sohasida muhim nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon, sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish va sport faoliyatining samaradorligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, yuklama tushunchasi va turlarini tahlil qilish o‘rinli. Yuklama – bu jismoniy mashg‘ulotlar davomida sportchining organizmiga ta’sir etuvchi jismoniy va ruhiy bosimdir. Yuklamalar turlari, masalan, intensivlik, davomiylik, takrorlanishlar va mashg‘ulotlar o‘rtasidagi vaqt ko‘rsatkichlariga ko‘ra tasniflanadi. Har bir yuklama turi o‘zining natijaviy ko‘rsatkichlari va sportchilar uchun zaruriy afzalliklari bilan ajralib turadi.

Fiziologik asoslariga nazar soladigan bo‘lsak, yuklamalarni me’yorlashtirish jarayonida organizmning fiziologik javoblari, masalan, yurak urish tezligi, qondagi kislorod miqdori va mushaklarning holati o‘rganiladi. Bu ma’lumotlar yordamida sportchilarni tayyorlashda yuklamalarni to‘g‘ri belgilash mumkin.

Me’yorlashtirish nazariyalariga ko‘ra, turli nazariyalar, masalan, superkompensatsiya nazariyasi va adaptatsiya nazariyasi, yuklamalarni me’yorlashtirish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ushbu nazariyalar sportchining yuklamalarga qanday javob berishini va ularni qachon takrorlash zarurligini belgilashda muhim ahamiyatga

ega.

Amaliy jihatlariga nazar soladigan bo‘lsak, mashg‘ulotlarni rejalashtirish– amaliyotda yuklamalarni me’yorlashtirishning asosiy vazifalaridan biri – sport mashg‘ulotlarini rejalashtirishdir. Sportchilar uchun individual dasturlar tuzish, ularning jismoniy holatini hisobga olgan holda, yuklamalarni belgilash va navbatma-navbat o‘zgartirish zarur. Bu jarayonda zamonaviy metodikalar va vositalardan foydalanish muhimdir. Shuningdek, nazorat va tahlil- mashg‘ulotlar davomida sportchilarni nazorat qilish va yuklamalarni tahlil qilish, ularning jismoniy holati va qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar, kelgusi mashg‘ulotlar uchun zaruriy o‘zgarishlarni kiritish va sportchilarni charchatmaslik maqsadida yuklamalarni moslashtirishga yordam beradi.

Maqsad va natijalarni belgilash: yuklamalarni me’yorlashtirish jarayonida maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish uchun natijalarni baholash muhimdir. Bu jarayon, sportchilarning o‘z qobiliyatlarini yaxshilashlariga, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishlariga va muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Yuklamalarni me’yorlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari, jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali faoliyat yuritishni ta’minlash uchun zarurdir. Bu jarayon, individual yondashuv, nazorat va tahlil qilish, shuningdek, maqsadlar belgilash kabi muhim komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv orqali sportchilar o‘z jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, sog‘lom hayot tarzini rivojlantirish va muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ommaviy sportda yuklamalarni me’yorlashtirish

Ommaviy sportda yuklamalarni me’yorlashtirish, jamoaviy faoliyatni rag‘batlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan. Ommaviy sportning asosiy maqsadi – keng jamoatchilikni jismoniy faollikka jalb qilishdir. Bu jarayonda muhim omil:

birinchidan, jamoaviy motivatsiya – sportchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish va jamoaviy ruhni kuchaytirish. Jamoaviy mashg‘ulotlar o‘zaro munosabatlarni yaxshilaydi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi.

ikkinchidan, tadbirlar tashkil etish – ommaviy sport tadbirlari, musobaqalar va festivallar orqali jamoatchilikni faol qatnashishga rag‘batlantirish. Ushbu tadbirlar jismoniy faollik darajasini oshirish va sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilishda muhimdir.

Xulosa. Yuklamalarni me’yorlashtirish jismoniy tarbiya va ommaviy sport faoliyatining asosiy komponentlaridan biridir. Bu jarayon individual yondashuv, tiklanish jarayonlari va nazorat tizimiga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Ommaviy sportda yuklamalarni me’yorlashtirish sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga va jamoatchilikni jismoniy faollikka jalb qilishga qaratilgan. Ushbu ilmiy-metodik asoslar sport faoliyatining samaradorligini oshirishda va jismoniy salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va ommaviy sportda yuklamalarni me’yorlashtirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilindi. Yuklamalarni me’yorlashtirish jarayoni, sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va sog‘lomlashtirish faoliyatining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatlar, yuklamalarning turli turlari va ularning fiziologik asoslari, sportchilar uchun individual tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Amaliy jihatlar esa yuklamalarni to‘g‘ri rejalashtirish, nazorat qilish va natijalarni baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa sportchilarning maqsadlariga erishishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, sportchilarni charchatmaslik va jarohatlarning oldini olish maqsadida, yuklamalarni moslashtirishga imkon beradi.

Umuman olganda, yuklamalarni me’yorlashtirish nafaqat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, balki umumiy sog‘liqni saqlash va farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Bunday kompleks yondashuv, sportchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatlariga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi va sog‘lom hayot tarzini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shokirov, S. (2020). Ommaviy sport va sog‘lomlashtirish faoliyatida metodik yondashuvlar. Sport va Salomatlik, 12(3), 45-52.

2. Isroilov, A. (2021). Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish: nazariy va amaliy jihatlar. Oliy ta’lim va innovatsiyalar, 5(1), 78-85.

3. Rasulov, D. (2019). Sportchilarda yuklamalarni me’yorlashtirish. Jismoniy tarbiya va sport fanlari, 8(2), 33-40.

Faxriddin KARIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrasi professori
muxametov1984@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-8542-6374
TDIU professori A.Muxametov taqrizi asosida

O‘RTA YOSHDAGILARNING JISMONIY SIFATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA SOG‘LOMLASHTIRUVCHI MASHQLAR JAMLANMASINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya: ushbu maqolada mashqlar jamlamasining asosiy komponentlari, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqishda e’tiborga olinadigan jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *aerobik mashqlar, kuchaytirish mashqlari, muvozanatni oshirish mashqlari.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные компоненты комплекса упражнений, включая аэробные упражнения, силовые тренировки и упражнения для улучшения баланса, а также выделяются ключевые аспекты, которые следует учитывать при разработке оздоровительного комплекса упражнений.

Ключевые слова: *аэробные упражнения, силовые тренировки, упражнения для улучшения баланса.*

Annotation: this article discusses the main components of an exercise regimen, including aerobic exercises, strength training, and balance-enhancing exercises, and highlights the key considerations when developing a health-improving exercise program.

Key words: *aerobic exercises, strength training, balance-enhancing exercises*

Kirish. O‘rta yoshdagilar uchun jismoniy faollikni oshirish sog‘liqni saqlash, hayot sifatini yaxshilash va umumiy farovonlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagi kishilar, odatda, tanadagi tabiiy jarayonlar tufayli muskullar kuchining pasayishi, harakatchanlikning kamayishi va ortiqcha vazn yig‘ilishi kabi o‘zgarishlarni boshdan kechirishadi. Shu sababli sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqishda ularning jismoniy xususiyatlari, individual imkoniyatlari va sog‘liq holatini inobatga olish zarur.

O‘rta yoshdagilar jismoniy faoliyat va sog‘liqni saqlash masalalarida muhim o‘rin tutadi. Ushbu yosh guruhidagi shaxslar, odatda, 40-60 yosh oralig‘ida bo‘lib, jismoniy faollik darajasi ko‘pincha pasayadi. Bunday holat, o‘z navbatida, turli xil sog‘liq muammolari, masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va ortiqcha vazn kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘rta yoshdagi shaxslar uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqish ularning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, umumiy farovonlikni ta’minlash va hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mashqlar orqali jismoniy sifatlarni yaxshilash va sog‘liqni saqlash, nafaqat tananing funksional imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi, balki ruhiy holatni mustahkamlash, stressni kamaytirish va yuqori energiya darajasini saqlashga ham ko‘maklashadi. O‘rta yoshdagi insonlar uchun jismoniy faoliyatning ahamiyati nafaqat sportga bo‘lgan qiziqish bilan bog‘liq, balki o‘z-o‘zini sog‘lomlashtirish va uzoq muddatli salomatlikka erishish uchun zarurdir.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada o‘rta yoshdagilarni hisobga olgan holda sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqish, ularning jismoniy sifatlari, sog‘liq holati va individual ehtiyojlari inobatga olinishi kerakligi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Metodlar. Ushbu maqolada sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar sifatida aerobik mashqlar, kuchaytirish mashqlari va muvozanatni oshirish mashqlari keltirilgan. Har bir usulning samaradorligi va mashqlarni bajarish texnikasi batafsil yoritilgan.

Natijalar. Maqola natijalari, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasining har bir komponentining jismoniy holatni yaxshilashda qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Aerobik mashqlar yurak va qon-tomir tizimini mustahkamlaydi, kuchaytirish mashqlari mushaklarni kuchaytiradi, muvozanat mashqlari esa tananing barqarorligini oshiradi.

Muhokama. Yurak-qon tomir tizimini kuchaytiruvchi mashqlar eng asosiy mashqlardan bo‘lib, o‘rta yoshdagi shaxslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida yurishni oladigan bo‘lsak, har kuni kamida 30 daqiqa davomida tez yurish yurak va qon tomir tizimini mustahkamlaydi. Bu mashqlar past intensivlikda bo‘lib, tanani qiyinchiliksiz faollashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari veloergometrda mashq qilish ham juda foydali hisoblanib, veloergometr o‘rta yoshdagilar uchun xavfsiz va samarali mashg‘ulot vositasi bo‘lib, uning yordamida yurak-qon tomir tizimi va oyoq mushaklari ishlatiladi. Shuningdek, yengil yugurish-haftada ikki-uch marta 10-20 daqiqa davomida yengil yugurish tanani sog‘lomlashtirishda yordam beradi. Shuningdek, bu mashq suyak va bo‘g‘imlarni mustahkamlashga ko‘maklashadi.

O‘rta yoshdagi shaxslar uchun kuch mashqlari ham muhim ahamiyat kasb etib, qo‘l va oyoq mushaklari

uchun mashqlar: arqon bilan tortish, gantel bilan mashq qilish yoki o‘z vazningiz bilan skameykada mashq qilish muskullar kuchini saqlab qolishga yordam beradi. Bunday mashqlar suyak zichligini oshirishda ham foydali.

Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, tayanch va bel mushaklarini mustahkamlash- o‘rta yoshdagilar uchun tananing asosiy tayanch mushaklarini mustahkamlash muhim, chunki ular tana vaznini taqsimlash va muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Plank pozitsiyasida mashqlar, pastga tortish yoki tana vazniga mos og‘irliklarni ko‘tarish mashqlari tavsiya etiladi.

O‘rta yoshdagi shaxslar uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasi bir nechta asosiy komponentlardan iborat bo‘lib, ularning har biri jismoniy sifatlarni yaxshilash va umumiy salomatlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu komponentlar quyidagilardir:

Aerobik mashqlar – aerobik mashqlar yurak-qon tomir tizimini kuchaytirishga yordam beradi. Ular nafas olishni yaxshilaydi va qon aylanishini tezlashtiradi. O‘rta yoshdagi shaxslar uchun yurish, yugurish, suzish yoki velosipedda yurish kabi aerobik faoliyatlar tavsiya etiladi. Bunday mashqlar haftada kamida 150 daqiqa davomida amalga oshirilishi kerak.

Kuchaytirish mashqlari – mushak kuchini oshirish uchun kuchaytirish mashqlari muhim ahamiyatga ega. O‘rta yoshdagi insonlarda mushak massasining kamayishi ko‘rinadi, shuning uchun bu mashqlar (masalan, og‘irliklar ko‘tarish yoki o‘z og‘irliklari bilan bajariladigan mashqlar) haftada 2-3 marta amalga oshirilishi kerak.

Moslashuvchanlik mashqlari – moslashuvchanlikni oshirish uchun cho‘zilish va tayanch mashqlari zarur. Bu mashqlar mushaklar va bo‘g‘imlarning harakatchanligini oshiradi, shuningdek, jarohatlardan saqlanishga yordam beradi. O‘rta yoshdagi shaxslar uchun yoga yoki pilates kabi mashg‘ulotlar tavsiya etiladi.

Muvozanat mashqlari – muvozanatni yaxshilash uchun o‘z-o‘zini ushlab turish va muvozanatni saqlash mashqlari juda muhimdir. Bu turdagi mashqlar, masalan, bitta oyoq ustida turish yoki muvozanat taxtasida ishlash kabi faoliyatlar, o‘rta yoshdagi insonlarning qulayligini oshiradi va tushish xavfini kamaytiradi.

Qayta tiklanish mashqlari – jismoniy faoliyatdan so‘ng qayta tiklanish uchun mos keluvchi mashqlar muhimdir. Ular mushaklarni bo‘shashtiradi va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi. Bunday mashqlar oson cho‘zish va tinchlanish mashqlaridan iborat bo‘lishi mumkin.

Ushbu komponentlar birgalikda o‘rta yoshdagi shaxslar uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini tashkil etadi va jismoniy faoliyatni samarali ravishda oshirishga yordam beradi.

Egiluvchanlik va harakatchanlikni oshirish mashqlari. Stretching (cho‘zilish mashqlari) – har kunlik stretching mashqlari mushaklarning elastikligini saqlash va harakat doirasini oshirish uchun juda muhimdir. Ayniqsa, pastki bel, son, orqa va bo‘yin mushaklari uchun cho‘zilish mashqlari o‘rta yoshdagi kishilarda jarohatlar oldini olishda samarali.

Yoga va pilates – ushbu mashg‘ulotlar nafaqat mushaklarni elastik qiladi, balki bo‘g‘imlar harakatini yaxshilaydi va umumiy tananing muvozanatini oshiradi. Yoga va pilates muvozanatni oshirish bilan birga stressni kamaytirishga yordam beradi.

Diafragmatik nafas olish o‘rta yoshdagi shaxslarning jismoniy faoliyatini oshirib, nafasni chuqur olib chiqarish orqali yurak-qon tomir tizimini yaxshilash va stressni kamaytirish mumkin. Bu mashqlar, ayniqsa, stress darajasini pasaytiradi va umumiy ruhiy holatni yaxshilaydi. Bunga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, meditatsiya va nafasni nazorat qilish texnikalari – stress va xavotirni boshqarishda meditatsiya va chuqur nafas olish mashqlari katta yordam beradi. Bu nafas olish texnikalari ko‘krak qafasidagi mushaklar va diafragma mushaklarini mustahkamlashda ham foydali.

Shuningdek, muvozanatni oshirish mashqlari kishining jismoniy faoliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb eytadi. Bir oyoqda turish jarayoni hisoblanib, bunday oddiy mashq tana muvozanatini yaxshilashda samarali. Har bir oyoqda 30 soniya davomida turish va asta-sekin vaqtni oshirish orqali muvozanatni oshirish mumkin.

Tiz cho‘kish va sakrash mashqlari – tiz cho‘kish va yengil sakrash mashqlari bo‘g‘imlar muvozanatini mustahkamlaydi va oyoq kuchini oshiradi. Bu mashqlar bo‘g‘imlar va mushaklar harakatchanligini oshirishda foydali.

Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqishda e’tiborga olinadigan jihatlar. Sog‘liqni nazorat qilish eng muhim jihatlardan hisoblanib, o‘rta yoshdagi kishilar uchun mashqlar jamlamasini ishlab chiqishda ularning sog‘liq holati hisobga olinishi zarur. Ular jismoniy mashg‘ulotlarni ortiqcha yuklamasdan va asta-sekin intensivlikni oshirib borishlari kerak. Mashg‘ulotlar muntazamligi ham muhim ahamiyat kasb etib, jismoniy faollik natijalari muntazam mashg‘ulotlarda sezilarli bo‘ladi. Haftada kamida uch-to‘rt marta jismoniy mashg‘ulotlarga vaqt ajratish tavsiya etiladi. Individual yondashuv ham sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqishda e’tiborga olinadigan jihatlardan hisoblanadi. Har bir kishi individual fiziologik va jismoniy xususiyatlarga ega bo‘lgani uchun, mashg‘ulot dasturini shaxsiy ehtiyojlarga mos ravishda tuzish lozim.

Xulosa. O‘rta yoshdagi kishilar uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlar dasturini ishlab chiqish ularning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Jismoniy mashg‘ulotlar orqali muskullar kuchini saqlab qolish, harakatchanlikni oshirish, stressni kamaytirish va muvozanatni yaxshilashga erishiladi. Shu bilan birga, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini muntazam ravishda bajargan holda ular sog‘lom va faol hayot tarzini saqlab qolishlari mumkin.

O‘rta yoshdagilar uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlar jamlamasini ishlab chiqish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Aerobik, kuchaytirish, moslashuvchanlik, muvozanat va qayta tiklanish mashqlarining birlashishi, jismoniy faollik darajasini oshirishga, mushak kuchini mustahkamlashga, harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirishga va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi. O‘rta yoshdagi shaxslar uchun bu mashqlar, nafaqat sog‘liqni yaxshilash, balki umumiy hayot sifatini oshirish, stressni kamaytirish va ruhiy holatni mustahkamlashda ham katta rol o‘ynaydi.

Shuningdek, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar orqali o‘rta yoshdagi shaxslar nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham faol bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Natijada, sog‘lom va faol turmush tarzini saqlab qolish uchun har bir inson o‘ziga mos mashqlar jamlamasini ishlab chiqishi va unga amal qilishi zarur. O‘rta yoshdagi shaxslar uchun jismoniy faollikni saqlash, nafaqat sog‘liqni ta’minlash, balki qiziqarli va mazmunli hayot kechirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, jismoniy tayyorgarlik dasturlari individual ehtiyojlar, jismoniy imkoniyatlar va sog‘liq holati hisobga olingan holda yaratilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, o‘rta yoshdagilarning jismoniy sifatlarini oshirish, hayot sifatini yaxshilash va umr davomiyligini uzaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). (2020). Physical Activity and Older Adults. Retrieved from https://www.who.int;
2. American Heart Association (AHA). (n.d.). Exercise and Physical Activity for Middle-Aged Adults. Retrieved from https://www.heart.org;
3. American College of Sports Medicine. (2013). ACSM’s Guidelines for Exercise Testing and Prescription. Philadelphia, PA: Lippincott Williams & Wilkins;
4. National Institute on Aging. (n.d.). Exercise and Physical Activity for Older Adults. Retrieved from https://www.nia.nih.gov;
5. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). (2021). Physical Activity Basics. Retrieved from https://www.cdc.gov/physicalactivity/basics/index.htm.

Leyla SEYDALIYEVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Tibbiy biologik fanlar kafedrasi dotsenti
Nurxon XUSHVAKOV,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Tibbiy biologik fanlar kafedrasi dotsent v.b
Sabohon ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Tibbiy biologik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

OMMAVIY SPORT TURLARIDA JISMONIY MASHQLARNING SOG‘LOMLASHTIRUVCHI TA’SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada ommaviy sport turlarida jismoniy mashqlarning inson salomatligiga bo‘lgan sog‘lomlashtiruvchi ta’siri tahlil qilinadi. Yurak-tomir tizimi, mushak va suyaklar, shuningdek, ruhiy salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan mashqlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, ommaviy sportning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va stressni kamaytirishdagi roli ilmiy asoslangan ma'lumotlar bilan yoritilgan. Maqolada xalqaro va mahalliy statistik ma’lumotlar keltirilgan holda, sportning sog‘lom jamiyatni shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ommaviy sport, jismoniy mashqlar, sog‘lomlashtiruvchi ta’sir, ruhiy salomatlik, yurak-tomir tizimi, sog‘lom turmush tarzi, stressni kamaytirish, jamoaviy sport, ijtimoiy foyda, yoshlar tarbiyasi.*

Annotation: this article analyzes the health-improving effect of physical exercises in mass sports on human health. Detailed information is provided on exercises that have positive effects on the cardiovascular system, muscles and bones, as well as mental health. Also, the social importance of mass sports in society, its place in the education of the young generation and its role in reducing stress are covered with scientifically based information. The article reveals the role of sports in the formation of a healthy society, citing international and local statistical data.

Key words: *mass sports, exercise, health effects, mental health, cardiovascular system, healthy lifestyle, stress reduction, team sports, social benefits, youth education.*

Аннотация: в статье анализируется оздоровительное влияние физических упражнений в массовых видах спорта на здоровье человека. Подробно представлена информация об упражнениях, оказывающих положительное влияние на сердечно-сосудистую систему, мышцы и кости, а также психическое здоровье. Также научно обоснованной информацией освещены социальная значимость массового спорта в обществе, его место в воспитании молодого поколения и роль в снижении стресса.В статье раскрывается роль спорта в формировании здорового общества, приводятся международные и отечественные статистические данные.

Ключевые слова:*массовый спорт, физические упражнения, воздействие на здоровье, психическое здоровье, сердечно-сосудистая система, здоровый образ жизни, снижение стресса, командные виды спорта, социальные льготы, воспитание молодежи.*

Kirish. Insonning salomatligi nafaqat uning shaxsiy farovonligi, balki butun jamiyatning taraqqiyoti va rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda urbanizatsiya va texnologiyalarning tezkor rivoji natijasida jismoniy faoliyatning kamayishi global muammo sifatida qaralmoqda. Shu sababli, jismoniy mashqlar va sport turlarini ommalashtirish inson salomatligini saqlash va mustahkamlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ommaviy sport turlari, xususan, yugurish, suzish, futbol, velosiped sporti va aerobika, nafaqat jismoniy holatni yaxshilaydi, balki ruhiy salomatlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada ommaviy sport turlarida jismoniy mashqlarning sog'lomlashtiruvchi ta'siri tahlil qilinadi.

Dastlab ommaviy sport turlari va ularning xususiyatlariga to'xtalib o'tsak.

Ommaviy sport turlari – bu keng ommaga mo'ljallangan va maxsus professional tayyorgarlikni talab qilmaydigan jismoniy mashqlar va o'yinlar yig'indisidir.Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Yurish va yugurish – Har bir yoshdagi inson bajara oladigan eng sodda va samarali mashqlar. Bu faoliyat qon aylanishini yaxshilaydi va ortiqcha vazndan xalos bo'lishga yordam beradi.

Suzish – Tana mushaklarini bir me'yorda rivojlantiruvchi va bo'g'imlarga minimal yuk tushiruvchi sport turi.

Sport o'yinlari – Futbol, voleybol, basketbol kabi o'yinlar jamoaviylikni rivojlantiradi va jismoniy faollikni oshiradi.

Gimnastika va aerobika – Moslashuvchanlikni oshirib, umumiy sog'liqni mustahkamlaydi. Bu mashqlar ayollar orasida juda mashhur.

Ushbu ommaviy sport turlari natijasida qilinadigan mashqlar inson organizmining turli jihatlariga foydali ta'sir ko'rsatadi va ularni muntazam amalga oshirish sog'lom turmush tarzining asosiy qismi hisoblanadi.

1. Jismoniy mashqlarning organizmga ijobiy ta'siri

Yurak-tomir tizimiga ta'siri

Yurak-tomir tizimi inson organizmining asosiy funksiyalarini ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yurakni doimiy ravishda mashq qilish, masalan, yugurish yoki suzish bilan shug'ullanish, yurakning ish faoliyatini yaxshilaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, haftada 150 daqiqa aerobik faoliyat gipertoniyani oldini olishda samarali hisoblanadi.

Mushak va suyak tizimining rivoji

Jismoniy mashqlar mushaklar va suyaklarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.Ayniqsa, bolalar va qariyalar uchun bu mashqlar suyaklarning zichligini saqlash va osteoporozni oldini olishga yordam beradi.Velosiped sporti yoki suzish kabi past ta'sirli mashg'ulotlar bo'g'imlarga yuklanishni kamaytirib, ularni mustahkamlaydi.

Modda almashinuvi va vaznni nazorat qilish

Ommaviy sport turlarida ishtirok etish moddalar almashinuvini tezlashtiradi va energiya iste'molini oshiradi.Bu ortiqcha vazn muammosining oldini olishga xizmat qiladi.Masalan, o'rtacha intensivlikdagi yugurish bir soatda taxminan 500-600 kaloriya yo'qotishga yordam beradi.

2. Ruhiy salomatlik va sportning stressga qarshi roli

Stressni kamaytirish va depressiyaga qarshi ta'sir

Zamonaviy hayot sur'ati stress darajasini oshiradi, bu esa ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi.Sport mashg'ulotlari davomida organizmda endorfin ishlab chiqarilishi ortadi, bu esa kayfiyatni ko'taradi va stressni kamaytiradi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haftasiga uch marta jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchi insonlar depressiyaga kamroq uchraydi.

Kognitiv qobiliyatlarni yaxshilash

Jismoniy faoliyat nafaqat tanani, balki miyani ham mustahkamlaydi. Ommaviy sport turlari orqali inson diqqatni jamlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini yaxshilaydi.

Uyqu sifatini yaxshilash

Uyqu muammolari zamonaviy jamiyatda keng

tarqalgan. Tadqiqotlar jismoniy mashqlar melatonin ishlab chiqarishni rag‘batlantirishi, bu esa uyquning sifatini yaxshilashini ko‘rsatgan.

3. Ommaviy sport turlarining ijtimoiy foydalari

Ijtimoiy muloqot va integratsiya

Jamoaviy sport turlari, masalan, futbol yoki voleybol, insonlarni birlashtirishda muhim vositadir. Sport jamiyatda jamoaviylik va birdamlikni shakllantiradi, turli yoshdagi va millatlardagi odamlarni birlashtiradi.

Yosh avlod tarbiyasida sportning o‘rni

Sport tadbirlari orqali yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb qilish ularni zararli odatlardan uzoqlashtirishga yordam beradi. Misol uchun, O‘zbekistonda yoshlar orasida ommaviy yugurish marafonlari va sport musobaqalari sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mahalliy va global miqyosdagi sport festivallari

Ommaviy sport tadbirlari nafaqat individual ishtirokchilar, balki butun jamiyat uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Misol uchun, xalqaro marafonlar nafaqat sportchilarni, balki sport ixlosmandlarini ham birlashtiradi.

4. Sportning kasalliklarni oldini olishdagi roli

Ommaviy sport turlari turli kasalliklarning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi.

Ortiqcha vazndan xalos bo‘lish – Doimiy harakat kaloriya sarfini oshiradi va vaznni nazorat qilishga yordam beradi.

Yurak kasalliklari xavfini kamaytirish – Yugurish va suzish kabi mashqlar qon tomirlarining elastikligini oshiradi va xolesterin miqdorini kamaytiradi.

Mushak-skelet tizimini mustahkamlash – Osteoporoz va artrit kabi kasalliklarning oldini olishda sportning o‘rni katta.

5. Statistik tahlillar va ilmiy dalillar

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra:

Haftasiga kamida 150 daqiqa jismoniy faoliyat yurak xastaliklari xavfini 30% ga kamaytiradi.

Jismoniy faol bo‘lmagan shaxslarning 23% i yurak-qon tomir kasalliklariga moyil.

O‘zbekiston misolida esa, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid davlat dasturlari bu boradagi faoliyatni kengaytirishga qaratilgan.

Jismoniy mashqlar inson organizmiga ko‘plab foydali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirlar ilmiy tadqiqotlar bilan isbotlangan va quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

Jismoniy mashqlarning yurak-qon tomir tizimiga ta’siri

Qon aylanishini yaxshilash

Yurak – inson tanasining asosiy motoridir. Jismoniy mashqlar yurak mushaklarini mustahkamlaydi, qon aylanish tizimining samaradorligini oshiradi va qon tomirlarining elastikligini saqlab qoladi. Bu esa insult va infarkt xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Xolesterin miqdorini nazorat qilish

Faol hayot tarzi “yomon” xolesterin (LDL) miqdorini kamaytirib, “yaxshi” xolesterin (HDL) darajasini oshiradi.Bu esa qon tomirlarini tiqilib qolishidan himoya qiladi.

Bolalar va yoshlar uchun sportning foydalari quyidagilar:

1. Intizom va qat’iyatni rivojlantirish

Yoshlar sport orqali o‘z maqsadlariga erishish uchun intizomli va mashaqqatli mehnat qilishni o‘rganadilar. Bu fazilatlar nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham ularga foyda keltiradi.

2. Jismoniy o‘sish va rivojlanish

Sport bolalar va o‘smirlarning suyaklari, mushaklari va bo‘g‘imlarini kuchaytiradi. Jismoniy mashqlar ularning immun tizimini mustahkamlaydi va sog‘lom o‘sishni ta’minlaydi.

Xulosa.Ommaviy sport turlarida jismoniy mashqlar insonning sog‘lom hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan vosita bo‘lib, jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar nafaqat organizmning ichki tizimlarini mustahkamlaydi, balki stressni kamaytirib, hayot sifatini yaxshilaydi. Shu sababli, sportni ommalashtirish orqali sog‘lom jamiyatni shakllantirish barcha davlatlarning ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO).Physical Activity Guidelines.
2. Cooper, K. H. (1982).Aerobics Program for Total Well-Being.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan qarorlari.
4. Sog‘liqni saqlash vazirligi statistik ma’lumotlari 2024.

Maxmud BABAYAROV,
SamDU mustaqil tadqiqotchisi,
f.f.f.d.(PhD)

Mehrinoz TOSHBOLTAYEVA,
Filologiya fakulteti 1- kurs talabasi

SPORT SOHASIDA PERIFRAZA VOSITASIDA MADANIY AXBOROT YETKAZISH

Annotatsiya: maqolada o‘tmishda ota-bobolarim sevib shug‘ullanib kelgan sport turlari haqida bayon etilgan. O‘zbekiston Mustaqillikdan so‘ng sport sohasidagi olib borgan siyosati mavzusida so‘z ochilgan. Bundan tashqari Parij Olimpia-2024 dagi vatandoshlarimizning yutuqlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga maqolada sportga oid perifrazalar va o‘zbek tilining boyishi haqida fikrlar yoritilgan. Maqolada shuningdek, perifrazalarning milliy sport madaniyati va tarixi bilan bog‘liqligini va ularning jamiyatdagi ahamiyatini o‘rganishni maqsad qiladi. Sportchilarning obrazlari va qahramonliklari perifrazalar orqali tarannum qilinadi, bu esa xalqning sportga bo‘lgan munosabatini va milliy identitetni shakllantirishga yordam beradi. Natijada, lingvomadaniy kontekstda sport sohasidagi perifrazalarning ahamiyati va foydasi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *“Charm to‘p ustasi”-Bahodir Jalolov,”Yashil maydon malikalari”- futbolchi qizlar Diyora Habibullayeva, “Charm qo‘lqop ustasi”- Ruslan Chagayev,”Kuragi yerga tegmaganlar”-Muhammadqodir Abdullayev, lingvomadaniy, Parij-2024*

Аннотация: в статье рассказывается о видах спорта, которыми с удовольствием занимались наши предки. Обсуждается политика Узбекистана в спортивной сфере после обретения независимости. Кроме того, упоминаются достижения наших соотечественников на Олимпиаде в Париже - 2024. Также в статье освещены перифразы, связанные со спортом, и их вклад в обогащение узбекского языка. Статья также ставит целью изучение связи перифраз с национальной спортивной культурой и историей, а также их значимости в обществе. Образы и героизм спортсменов прославляются через перифразы, что помогает формировать отношение народа к спорту и национальную идентичность. В результате выявляется значение и польза перифраз в области спорта в лингвокультурном контексте.

Ключевые слова: *«Мастер кожаного мяча» – Баходир Джалолов, «Королевы зелёного поля» – футболистки Диёра Хабибуллоева, «Мастер кожаных перчаток» – Руслан Чагаев, «Непобеждённые» – Мухаммадкадир Абдуллаев, лингвокультурный, Париж-2024.*

Annotation:the article describes the sports that my parents loved to play in the past. The topic of the policy of Uzbekistan in the field of sports after independence was discussed. In addition, the achievements of our compatriots in Paris Olympia-2024 were shown. At the same time, the article covers the periphrasis about sports and the enrichment of the Uzbek language. The article also aims to study the connection between paraphrases and national sports culture and history, as well as their significance in society. The images and heroism of athletes are celebrated through paraphrases, which help shape the public’s attitude toward sports and foster national identity. As a result, the importance and benefits of paraphrases in the field of sports are identified within a linguocultural context.

Key words: *“Leather ball master” - Bahadir Jalolov, “Queens of the green field” - female soccer player Diyora Habibullayeva, “Leather glove master” - Ruslan Chagayev, “Those who did not touch the barren land” - Muhammadkadir Abdullayev, lingvomadaniy, Paris-2024*

Perifraza — bu bir fikrni yoki ma’noni boshqa ibora yordamida qayta ifodalash vositasi bo‘lib, u til madaniyatining muhim bir qismidir[1]. Madaniy xususiyatlar kontekstida perifrazalar milliy ong va o‘zlikni aks ettiradi. Har bir xalqning madaniy merosi, turmush tarzi, dunyoqarashi o‘zining badiiy adabiyoti, folklori va gapirish odatlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, jamoaviylik, mehnatsevarlik yoki matonat kabi qadriyatlar turli xalqlarda o‘zlari uchun xos perifrazalar orqali tarannum etilgan. Sport qadriyatlari, jumladan, g‘alaba, jamoaviylik, kuchlilik, sabr-toqat kabi tushunchalar, ko‘pincha perifrazalar orqali madaniy kontekstda o‘ziga xos ma’nolar kasb etadi. Bu iboralar

xalqning sportga bo‘lgan munosabatini va undan qaysi qadriyatlarni ko‘rishini ifodalaydi[5]. Masalan, sportdagi ”qattiq bellashuv” degan tushuncha turli tillarda turlicha perifrazalanishi mumkin: ayrim madaniyatlarda bu bellashuv “yaroqsiz qilish” kabi qattiq ta’sirli, boshqalarida esa “chidam va harakat” kabi muloyimroq iboralar bilan ifodalanadi. Madaniy qiymatga ega sport qadriyatlarini o‘zbek tilida perifrazalar orqali ifodalashga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. **“Qo‘li og‘ir”** — bu perifraza sportda, ayniqsa, kurash yoki boks kabi jismoniy sport turlarida g‘alabalarga erishuvchi insonni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu yerda “og‘ir qo‘lli” deganda, kuchli, harakatlari ta’sirchan bo‘lgan sportchi nazarda tutiladi. Ushbu ibora qo‘yilgan zarba kuchliligini va jismoniy quvvatni madaniy qadriyat sifatida ifodalaydi.

2. **“Yigitlik” yoki ”polvonlik”** — bu iboralar sportda jasorat va kuchni ifodalovchi qadriyatlardan biri bo‘lib, ular orqali kurashchilarning va boshqa sportchilarning irodasi va matonati ta’riflanadi. O‘zbekistondagi milliy sport turlari, xususan kurashda “yigitlik” buyuk qadriyat sanaladi va u sportchilarning jasorat va adolatparvarlik kabi xususiyatlarini ifodalaydi.

3. **“Kurash maydonida yuksalgan qahramon”** — bu perifraza sportda jismoniy va ma’naviy quvvat bilan buyuk g‘alabalarga erishgan insonlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ushbu ibora, kurash maydonida qozonilgan g‘alaba orqali erishilgan madaniy qadriyatlarni alohida ta’kidlaydi.

4. **“Sherday yigit”** — o‘zbek tilida sportda kuch-quvvati va jasorati bilan ajralib turgan sportchi uchun qo‘llaniladigan perifrazalardan biri.Bu ibora milliy qadriyat sifatida sportchilarning irodasini va jasoratli harakatlarini tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

Har bir xalqning milliy sporti — bu o‘ziga xos madaniy ramz hisoblanadi. Masalan, qo‘shimcha sport turlari orqali xalqning kurashga bo‘lgan ehtirosi yoki erkinlikka intilishi perifrazlar orqali chuqur ma’noga ega bo’lishi mumkin. O‘zbekistondagi “kurash” milliy sport turi perifrazalarda ko‘pincha kurashuvchi xalq sifatida ifodalanadi va bu ramziy ahamiyat kasb etgan. Milliy sport turlari xalqning ma’naviy va jismoniy rivojlanishi hamda jamoaviylik qadriyatlarini targ‘ib qiladi[3].

Milliy qahramonlar va sportchilar, ayniqsa sportda ulkan g‘alabalarga erishgan shaxslar, madaniy rivojlanishning muhim ramzlari sifatida perifrazalar orqali yoritiladi. Bunday perifrazalar ularning shaxsiy xususiyatlari, kuch-quvvati, barqarorligi va jasoratini o‘zgartirib, xalq uchun ifodali qahramonlarga aylantiradi. Masalan, **“Sarkarda”** — bu perifraza, milliy sportchilardan biri, jamoa yetakchisi va g‘alabaga erishishda asosiy rolni o‘ynagan insonni ta’riflash uchun ishlatiladi. Masalan, “Sarkarda futbolchi” deb aytilishini, u jamoasini g‘alabaga olib chiqishda katta hissa qo‘shganini ko‘rsatadi. **“Temir yurak”** — bu ibora, sportchilarning qahramonligini, matonatini va mo‘tabarligini ifodalaydi. Ushbu perifraza, masalan, “Uning temir yuragi bilan kurashdagi harakatlari juda ta’sirchan” deb aytilganda, sportchining irodasi va g‘ayratini ta’kidlaydi. **“Vatan parvozi”** — milliy sportchi yoki jamoa g‘alabasini ifodalaydi. Bu perifraza, masalan, “Uning Vatan parvozi bilan olib borgan kurashi barcha uchun misol bo‘ldi” deb aytilganda, sportchining Vatan uchun xizmatini va g‘alabasini ko‘rsatadi. O‘zbek millati tarixiga nazar solsak, ota-bobolarimiz sportning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatganlarining guvohi bo‘lamiz. Ular kurash tushishda, o‘q- yoy otishda, qilichbozlikda, ot poygasida juda peshqadam bo‘lganlar.

Masalan: “Alpomish” dostonidagi Alpomish ot poygasida, o‘q- yoy otishda, kurashda tengi yo‘q pahlavon bo‘lgan...

Amir Temur bobomiz, Jaloliddin Manguberdilar-u, Sobir Rahimovlarning sport sohasidagi bilimlari tahsinga sazovorligi hammamizga ma’lum va mashhurdir.

Ayniqsa, sportga qiziqish va e’tibor O‘zbekiston Mustaqilligidan so‘ng yanada rivojlandi. O‘zbekiston hukumati sportga oid qator qaror va farmonlar chiqardiki, natijada, o‘sib kelayotgan yoshlar sportning u yoki bu sohasida katta g‘alabalarni qo‘lga kiritdilar va kiritmoqdalar. Bu holat tilshunosligimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi, tilimizda yangi perifrazalar paydo bo‘la boshladi va biz uni kundalik hayotimizda ishlatib kelmoqdamiz.

Misol: Futbol- xalqimiz sevgan sport turlaridan. Futbol ishqibozlari afsonaviy furbolchi **“futbol qiroli”** Pelega havas qilib, futbol maydonida **“millionlar o‘yini”** muxlisiga aylandilar. **“Yolg‘iz chavandoz”** laqabini olgan braziliyalik futbolchi Pele 1969-yil 19-noyabrda “Santos” klubi a’zosi sifatida raqib darvozasiga minginchi golni kiritdi va xalq uni futbolda inqilob yasagan “kashshof” deb e’tirof etishadi. Braziliyada 19- noyabr har yili **“Pele kuni”** sport bayrami sifatida nishonlanadi. Butun dunyo Peledan ruhlanib, katta futbol dargohiga kirib keldilar. Hatto xotin- qizlar ham bu futbolchidan ruhlanib xotin- qizlar futbol jamoasini tashkil qildilar.

Misol: Xoup Solo- AQSH terma jamoasi darvozaboni, 2 karra Olimpia, 2 karra Jahon chempioni bo‘lish sharafiga ega bo‘ldi. **“Yashil maydon malikalari”**dan yana biri Diyora Habibullayeva yurtdoshimizdir. U “Bunyodkor” jamoasi yarim himoyachisi, 23 ta goli bilan to‘pararlar ro‘yxatini boshqarib kelayotgan **“charm to‘p ustasi”**dir.

O‘zbekiston yoshlari kundan-kun sport bayrog‘ini baland ko‘tarmoqdalarki, biz bundan faxrlanamiz. **“Charm qo‘lqop ustalari”** Murodjon Madaliyev, Bahodir Jalolov, Shohjahon Ergashov, Shaxram G‘iyosov, Qudratilla Abduqahhorov, Azizbek Abdug‘ofurovlar millatimiz g‘ururidirlar.

“Aql gimnastikasi” egalari haqida gap ketganda ko‘hna tarix ko‘z oldimizga gavdalanadi. Ne- ne buyuk shoh va sarkardalar bu o‘yinni o‘ynamagan deysiz?! Qadimda bu o‘yin “shatranj” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bugun bog‘cha bolasidan boshlab kattalar-

gacha shaxmat bilan shug‘ullanadi. Aqlini charxlaydi. O‘zbekistonning umidli **“aql gimnastikachilari”**dan Jahongir Vohidov Olimpia oltin medali sohibi, Nodir Abdusattorov kumush, Yoqubboyev esa bronza medali sohibi bo‘ldilar.

Prezident telefon orqali “qora va oq taxtaning qahramonlari”ni tabriklab, shunday dedi: “Tariximizda juda katta iz qoldirdingiz va o‘zbek millati nimalarga qodir ekanligini yana bir marta namoyon etdingiz. Men juda xursandman. Kayfiyatimga kayfiyat qo‘shildi.Butun xalqimiz sizlarni olqishlamoqda. O‘zbekistonda bugun katta bayram”.

Prezident 2026-yilgi shaxmat Olimpiadasida mezbonlik qilishini aytib, **“yosh shatranji”**ga omadlar tiladi.

Kurashning nashidasini totimagan o‘zbek xonadoni bo‘lmasa kerak. Ayniqsa, Parij-2024 Olimpia o‘yinlari o‘zbek **“kuragi yerga tegmagan”**lar uchun ancha sharafli keldi.

Milliy Olimpia qo‘mitasi Parij-2024 yozgi Olimpia o‘yinlarida O‘zbekiston delegatsiyasi hisobida 8 ta oltin medal qayd etildi deb xabar beradi. Sakkizinchi medalga Razanbek Jalolov mualliflik qildi. U 74 kilogramm vazn toifasida ishtirok etgan **“maydon bahodiri”** chempionlik baxsida yaponiyalik Daichi Takataniyni mag‘lubiyatga uchratishga muvaffaq bo‘ldi.

Milliy qahramonlar va sportchilar, ayniqsa sportda ulkan g‘alabalarga erishgan shaxslar, madaniy rivojlanishning muhim ramzlari sifatida perifrazalar orqali yoritiladi. Bunday perifrazalar ularning shaxsiy xususiyatlari, kuch-quvvati, barqarorligi va jasoratini o‘zgartirib, xalq uchun ifodali qahramonlarga aylantiradi. Masalan, **“Sarkarda”** — bu perifraza, milliy sportchilardan biri, jamoa yetakchisi va g‘alabaga erishishda asosiy rolni o‘ynagan insonni ta’riflash uchun ishlatiladi. Masalan, “Sarkarda futbolchi” deb aytilishini, u jamoasini g‘alabaga olib chiqishda katta hissa qo‘shganini ko‘rsatadi. **“Temir yurak”** — bu ibora, sportchilarning qahramonligini, matonatini va mo‘tabarligini ifodalaydi. Ushbu perifraza, masalan, “Uning temir yuragi bilan kurashdagi harakatlari juda ta’sirchan” deb aytilganda, sportchining irodasi va g‘ayratini ta’kidlaydi. **“Vatan parvozi”** — milliy sportchi yoki jamoa g‘alabasini ifodalaydi. Bu perifraza, masalan, “Uning Vatan parvozi bilan olib borgan kurashi barcha uchun misol bo‘ldi” deb aytilganda, sportchining Vatan uchun xizmatini va g‘alabasini ko‘rsatadi. **“Chapar”** — kurashchilar uchun ishlatiladigan perifraza bo‘lib, ularning jismoniy tayyorgarligi va kurashdagi ustaligini ifodalaydi. “U chapar kurashchi” degan ibora, uning kurashdagi yuqori mahoratini va sabr-toqatini ta’riflaydi. **“Boks sheri”** — bokschilar uchun mo‘ljallangan perifraza bo‘lib, ularning jismoniy kuchini va kurash maydonidagi qobiliyatlarini ta’riflaydi. ”Uning boks sheri bo‘lishini barcha e’tirof etdi” degan ibora, uning o‘z ishidagi yuqori .

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston 1991- yilda Mustaqillikka erishgandan so‘ng sport sohasiga alohida e’tibor qaratdi. Uning xalqaro doiradagi obro‘si osha bordi. 1993- yil O‘zbekiston Xalqaro Olimpia qo‘mitasi a’zoligiga qabul qilindi. 1996- yil Toshkentda “ Olimpia shon- shuhrat” muzeyi tashkil qilindi. 1998- yilda Toshkentda milliy sportimiz bo‘lgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi tuzildi. Oradan bir yil o‘tib esa poytaxtimizda kurash bo‘yicha, ya’ni **“kuragi yerga tegmaganlar”**ning Jahon chempionati bo‘ldi va unda Muhammadqodir Abdullayev Sidney Olimpiadasida 2000- yil oltin medal sohibi bo‘ldi. U tarixda ilk **“o‘zbek changalzor yo‘lbarsi”** deb nom oldi. 2000- yilda mamlakatimizda uch bo‘g‘inli- “Umid nihollari” , “Barkamol avlod” va “Universiada” sport o‘yinlariga asos solindi. Ta’kidlab o‘tish lozimki, bunday turdagi musobaqalar dunyoning kamdan-kam mamlakatlarida o‘tkaziladi. Mana shundan ham yurtimizda bolalar va yoshlar sportiga e’tibor qay darajada ekanligini bilib olsak bo‘ladi.

Xalqimiz sevimli sportchisini o‘zi sevgan atama bilan eslaydi va har bir chiqishini intizorlik bilan kutadi.

Misol: Rustam Qosimjonov desak, xalq uni **“shaxmat qiroli”** deydi. Erkin kurashchimiz Artur Taymazovni esa **“maydon sheri”** deb olqishlaydi. Bokschimiz Ruslan Chagayevni esa **“charm qo‘lqop yo‘lbarsi”** desa, Mirjalol Qosimovni **“millionlar o‘yini shohi”** deb hurmat bilan tilga oladi. Og‘ir atletikachimiz Ruslan Nuriddinovni **“zamon pahlavon Mahmudi”** yoki **“maydon yo‘lbarsi”** deyishadi. Hasanboy Do‘stmatovni esa **“kichkina qirol”** deb ta’riflashlarini guvohi bo‘lganmiz.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligi,ayniqsa, lug‘atimiz kun sayin yangi so‘z va perifrazalar hisobida boyib bormoqda. Misol: **“qora tulpor sohibi”** (chavandoz), **“kuragi yerga tegmaganlar”** (polvon), **“charm qo‘lqop sheri”** (bokschi), **“maydon sheri”** (kurashchi), **“millionlar o‘yini shohi”** (futbolchi), **“zamon Pahlavon Mahmudi”** (o‘g‘ir atletikachi) yoki **“maydon yo‘lbarsi”, “kichkina qirol”** (X. Do‘stmatov), **“yolg‘iz chavandoz”, “maydon kashshofi”** (Pele), sport bayrami Braziliyada 19- noyabr har yili **“Pele kuni”** kabilar yangi perifrazalardir. **“Yashil maydon malikalari”** (futbolchi qizlar), **“charm to‘p ustasi”** (futbolchi), **“charm qo‘lqop ustalari”** (bokschi), **“aql gimnastikachilari”** (shaxmatchi), **“oq va qora taxta qahramonlari”** (shaxmatchi), **“yosh shatranjchi”** (yosh shaxmatchi), **“kuragi yer o‘pmagan”** (kurashchi polvon), **“eng yaxshi o‘yinchi”, “eng yaxshi to‘p ko‘taruvchi”, “eng yaxshi hujumchi “** perifrazalari esa futbol va volleybol sportchilarini olqishlab aytiladigan so‘zlardir.

Demak, ona tilimiz yangiliklar yaratilar ekan, yangi so‘zlar hisobida boyib, rivojlanib boraveradi. Ammo har bir yangi perifrazani ishlatishda hushyor bo‘lish kerak. O‘zbek tilida o‘sha so‘z mavjud bo‘lsa-yu, biz uni to‘ppa-to‘g‘ri chet tili so‘zidan olib ishlatsak, ona tilimizga xiyonat qilgan bo‘lamiz. Chunki Alisher Navoiy bobomiz “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarida o‘zbek tilining fors –

tojik tilidan ustunligini, “yig‘lamoq” fe’li misolida yuzga yaqin sinonimlarini isbotlab bergan. Hazrat Navoiy qalami ila dunyoni zabt etgan bo‘lsa, hozirgi O‘zbekiston o‘ziga xos va mos sporti bilan dunyoni lol qoldirmoqda. O‘zbekiston-ona Vatanim. Sen bundan-da yuksaklarga parvoz et.O‘zbekiston kelajagi, yoshlarning qo‘lidadir...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авазов Б. Ўзбек тилидаги перифразалар: назарий ва амалий аспектлар. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий Университети.2015.250-бет.

2. Айтбоев Д. Ўзбек тилидаги перифразаларнинг мотивлашуви ва лексикографик талқини: филол. фан. номзоди автореферат. – Тошкент, 2007.23-б.

3. Умиров И.Э. Ўзбек тили парафразалари: филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1996.

4. Лисовская Е.Т. Именные перифразы в современном английском языке и их текстовый статус: дисс…кандидата филол…наук. – Минск, 1984. – 198 с.

5. Маслубов, Р. Перифразалар ва уларнинг тилшуносликдаги аҳамияти. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Адабиётлари, 2019.175- бет

6. Сиривля М.А. Перифраз как экспрессивное средство языка газеты: семантико- прагматический аспект: автореф…кандидата филол…наук. – Челябинск, 2007. – 23 с

7. Сулаймонов А. Спорт ва маданият: ўзаро таъсир. –Тошкент: Фан ва технологиялар, 2018. 180-бет.

8. Туницкая Е.Л. Перифразирование в лингвопрагматическом аспекте на материале французского дискурса: автореферат дисс… докт…филол. наук. – Москва, 2010. – 44 с.

9. Тошматов, М. Тил ва маданият: лингвистик таҳлиллар. – Тошкент, Иқтисодий университет. 2020. 300-бет.

10. Турниёзов Ш. Перифразалар деривацион хусусиятлари ҳақида айрим мулоҳазалар.Хорижий филология. – Самарқанд, 2005.№3.36-37- бет.

11. Узбекова, Ш. Маданий қадриятлар ва ихтисослашган тиллар. Тошкент: Адабиёт нашриёти, 2017.220-бет.

12. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1993. №4.29- 35-бет.

Rokiya MAVLYANOVA,
Alfraganus universiteti
Pedagogika va psixologiya
Kafedrasi o’qituvchisi

TA’LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limotlari va qarashlarida tarbiyaning ma’naviy-axloqiy negizlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, tarbiya, ijtimoiy ong, hadis, ensiklopediya, oliyjanoblik, fidoiylik, rivojlanish, mehnatsevarlik, hikmat, bilim, ma’naviy yuksalish.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются духовно-нравственные основы образования в педагогических учениях и взглядах восточных мыслителей.

Ключевые слова: *образование, воспитание, общественное сознание, хадисы, энциклопедия, благородство, самоотверженность, развитие, трудолюбие, мудрость, знания, духовный рост.*

Annotation: this article discusses the spiritual and moral foundations of education in the pedagogical teachings and views of Eastern thinkers.

Key words: *education, upbringing, social consciousness, hadith, encyclopedia, nobility, dedication, development, hard work, wisdom, knowledge, spiritual growth.*

Tarbiya - ijtimoiy ong ko‘rinishlaridan hisoblanib, shaxsda halollik, poklik, burch, vijdon, oliyjanoblik, fidoiylik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Tarbiya insonlarning o‘ziga, oilasiga, yaqinlariga, do‘st-u yorlariga, atrofdagilariga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan xulq-atvor me’yorlarining majmuasidir. Tarbiya qadimdan ongimizga, qalbimizga singib kelgan, millatimizning o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradigan, o‘zbek oilalarining boshqa millat oilalaridan ajratib turadigan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan sifatlardan biri sanaladi.

Tarbiya keng qamrovli tushuncha sifatida inson faoliyatining hamma jabhalariga ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiya barcha

soha – ishlab chiqarish, turmush, oila, bo‘sh vaqtda ham kishilar xulq-atvorini, insoniy munosabatlarini tartibga soladi. Tarbiya ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farq qilib, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy vazifalarni bajaradi.

Pedagogik ensiklopediyada “tarbiya” tushunchasi quyidagicha talqin qilingan [1]: Tarbiya shaxsda ma’lum jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Shu bilan bir o‘rinda, tarbiya – bu kelajak avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan umuminsoniy hamda ijtimoiy tajribani ta’lim oluvchilarga ya’ni o‘quvchi va talabalarga tizimli berib borish jarayonidir.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, tarbiya tushunchasi pedagogik-psixologik kontekstlarda tor va keng ma’noda qo‘llaniladi. Tor ma’nodagi “tarbiya” subyekt tomonidan shaxsda muayyan qarashlar, tasavvurlar, me’yorlar, tushunchalar va boshqa shu kabilarni qaror toptirish maqsadida yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Bunda tarbiyaviy ta’sir jarayonining reja asosida olib borilishi va aniq maqsadga qaratilganiga urg‘u beriladi.

Keng ma’nodagi “tarbiya” tushunchasida esa insonning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy aloqalarning butun boshli tizimi nazarda tutiladi. Fikrimizcha, o‘quvchilarni jamiyat a’zosi sifatida shakllantirishga qaratilgan tarbiyani ijtimoiylashtirishning eng samarali vositasi deyilsa, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Bu borada, ya’ni tarbiyaning shaxs shakllanishiga ta’siri, ajdodlarimizning uning ijtimoiylashuvidagi o‘rniga oid qator qimmatli fikrlari hanuz o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shu nuqtayi nazardan IX-XII asrlarda ijod qilgan Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlaridan foydalanish katta pedagogik ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga asoslangan holda nazariy ma’lumotlarni mohiyatan o‘rganish va tajriba-sinov ishlarimizda ularga tayanishga e’tibor qaratdik. Shuningdek, ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, yosh avlod tarbiyasiga oid g‘oyalaridan foydalanmasdan turib, Vatanga sadoqatli, xalqi va yurtining ravnaqini o‘ylaydigan yuksak fazilatli yoshlarni shakllantirib bo‘lmaydi.

XI asrda ijod qilgan Sharq mutafakkirlaridan biri Yusuf Xos Xojibning komil insonni shakllantirish hamda farzand tarbiyasi haqidagi g‘oyalari, qarashlari ilmiy-ma’rifiy fikrlari tarbiyaviy ta’sir amaliyotini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” she’riy asarida uning hayoti va faoliyati, o‘sha davr voqealari hamda ajdodlardan qolgan bebaho pedagogik qadriyat namunalari aks etgan [2].

Tarbiya masalasida so‘z borar ekan Imom al-Buxoriyning buyuk merosiga to‘xtalmay, u haqida so‘zlamay ketishning imkoni yo‘q. Imom al-Buxoriy boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan. Durdona asarlaridan biri “Sahihi Buxoriy” asari bo‘lib, Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo‘ldi, o‘sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta’limotida Qur’ondan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Boy ma’naviy va tarbiyaviy meros qancha davrlar o‘tsa ham farzand tarbiyasida eng samarali, eng ta’sirli va eng sevimli asardir. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o‘zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan. Hazrat Umar raziyallohu anhu bunday deganlar: “Boshliq bo‘lmasingizdan avval ilmni chuqur o‘rganing! Rasulullo sollallohu alayhi va sallamning sahobalari yoshlari ulg‘ayganda ham ilm o‘rganganlar”.

Yosh avlodni tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning o‘gitlari, pand-u nasihatlari, hadis-u rivoyatlari katta ahamiyatga ega. Imom al-Buxoriyning hikmatli xazinalaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining “Tarbiya” darsini o‘rgatish, sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan unumli foydalanish, o‘quvchilarning axloqiy-estetik qarashlarini yanada rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda ham Imom Muhammad al-Buxoriyning nafaqat diniy, balki ijtimoiy, iqtisodiy, tarbiyaviy, estetik, ma’naviy, ma’rifiy tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalari alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek, odob va tarbiya, insonparvarlik, xalqsevarlik, ota-onani e’zozlash, adolatparvarlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik, yoshlarni o‘zlaridan katta kishilarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilishga oid yondashuvlari bugungi kunda muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida baholanadi. Sharq mutafakkirlari o‘zlarining asarlarida tarbiyaning bir nechta turlari haqida fikr yuritganlar. Ular – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, mulk tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, tejamkorlik tarbiyasi kabilar. Ularning fikricha, bolalarga tarbiyani ona qornidayoq berish kerak. Tarbiya ishida ota-onalar, mahalla fidoiylari, tarbiyachilar, o‘qituvchi-murabbiylar, jamiyat a’zolari hamda hukumat vakillari ham mas’ul ekanliklarini ta’kidlaydilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, tarbiya alohida xususiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy ish hisoblanadi, har bir xalqning taraqqiyoti, davlatlarning qudratli bo‘lishi kelajak avlodlar tarbiyasiga bog‘liq, deyish mumkin. Shuningdek, Abu Nasr ibn Iroqning fikrlari e’tiborga loyiq [3]. Uning fikricha, har tomonlama tarbiyalanganlik insonga xos xususiyat bo‘lib, yer yuzida uning oliy mavjudot ekanligini namoyon qiladi. Tarbiyali kishi yomon rasm-rusmlarni yo‘qotib, halollik, rostgo‘ylik, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni o‘z hayotiga joriy etadi. Bunday darajaga yetishish uchun esa, inson avvalo, o‘zini o‘zi anglab yetishi kerak. Tarbiyaviy manbalarda ilgari surilgan g‘oyalar mag‘zini chaqqan bo‘lishi muhimdir.

Ma’lumki, aksariyat oilalarda farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashish, manbalarda berilgan

qoidalarni tushuntiradigan va albatta, bu jarayonda shaxsiy namuna ko‘rsatiladigan muhit yaratilmagan. Kattalar ta’siri orqali e’tiqod munosabatlarini o‘rganish imkoniyati yetarli bo‘lmagan bolalar maktabda, xususan, “Tarbiya” va boshqa fanlarda taqdim etiladigan tarbiyaga oid ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishlari mumkin. Aynan mana shu vaziyat ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasidagi mas’uliyatni kuchaytiradi.

Markaziy Osiyoda tarbiya metodlarining rivojlanish tarixi o‘rganilganda, ta’limda turli usullarning amaliyotda qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino “Tadbir al-ma’nozil” asarida yosh bolalarni tug‘ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma’lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. U bolalarni individual ravishda bilim berishdan ko‘ra jamoaviy tartibda o‘qitishni afzal biladi va shunday deb yozadi: “Talabalar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. Talabalar birga bo‘lganlarida doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z tarbiyasi, nutqini rivojlantiradilar”.

Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash muammolari Yan Amos Komenskiyning qarashlarida ham alohida o‘rin tutgan. U shaxsning borlig’ini o‘rganishga yordam beruvchi sezgi organlari bilish jarayonlarida yetakchi o‘rinni egallashini ta’kidlagan.

K.D.Ushinskiy o‘z ilmiy tadqiqotlarida tarbiyani fikrlash hamda iroda sifatlarini rivojlantirishdan iborat faoliyat, deb tushuntirganligini ko‘rishimiz mumkin. Bilim oluvchilarda tarbiyaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonida ishonch va qat’iyatni tarkib toptirish zaruratini ta’kidlab o‘tadi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Pedagogika” ensiklopediya. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2015.
2. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. G‘ofur G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent, 1971 y
3. Ал-Беруни Абу Райхан. Книга об индийских рашиках. Пер. и прим Б.А.Розенфельда. В кн.: Из истории науки и техники в странах Востока. Вып.3, 1963.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya, – T.: “Sharq”, 2010, Б.241



Musharraf SULTANOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrasi o‘qituvchisi
musharrafsultonova96@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-6620-472X
TDIU professorii F.Tashpulatov taqrizi asosida

BADIIY GIMNASTIKA MASHQLARI YORDAMIDA TALABA QIZLARNI EGILUVCHANLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada qizlar uchun badiiy gimnastikaning jismoniy va ruhiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi. Badiiy gimnastika qizlarning egiluvchanligini oshirishda, kuch va koordinatsiyani rivojlantirishda samarali bo‘lib, bu sport turi muvozanat, jismoniy chidamlilik va tanani boshqarish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, badiiy gimnastika qizlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, stressni kamaytiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Maqolada badiiy gimnastikaning qizlarning sog‘lom turmush tarzi va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy gimnastika, egiluvchanlik, jismoniy rivojlanish, muvozanat, koordinatsiya, qizlar uchun sport, o‘ziga ishonch, stressni kamaytirish, ijtimoiy ko‘nikmalar, shaxsiy rivojlanish*

Annotation: this article discusses the contribution of artistic gymnastics to the physical and mental development of girls. Artistic gymnastics is effective in improving flexibility, strength, and coordination while enhancing balance and body control. This sport helps increase self-confidence, reduce stress, and improve social skills. The article provides a detailed exploration of how artistic gymnastics influences girls' healthy lifestyles and personal growth.

Key words: *artistic gymnastics, flexibility, physical development, balance, coordination, sports for girls*

Аннотация: в данной статье рассматривается вклад художественной гимнастики в физическое и психическое развитие девочек. Художественная гимнастика эффективно улучшает гибкость, силу и координацию, а также способствует улучшению баланса и контроля над телом. Этот вид спорта помогает повысить уверенность в себе, снизить уровень стресса и развить социальные навыки. В статье подробно объясняется, как художественная гимнастика влияет на здоровый образ жизни девочек и их личностное развитие.

Ключевые слова: *художественная гимнастика, гибкость, физическое развитие, баланс, координация, спорт для девочек*

Kirish. Badiiy gimnastika, jismoniy tarbiya va sport sohalarida eng talab qilinadigan va qiziqarli yo‘nalishlardan biridir. Bu sport turi nafaqat jismoniy kuchni, balki egiluvchanlikni, muvozanatni va nazoratni rivojlantirishga qaratilgan. Talaba qizlar orasida badiiy gimnastika mashqlari yordamida egiluvchanlikni oshirish nafaqat jismoniy holatni yaxshilaydi, balki ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham oshiradi.

Metodlar. Maqolada badiiy gimnastikaning qizlar uchun foydalari va mashqlari haqida so‘z yuritilgan. Tadqiqot davomida, badiiy gimnastikaning jismoniy rivojlanishga ta’siri o‘rganildi. Metodlar sifatida, badiiy gimnastika mashqlarining samaradorligini aniqlash uchun tajribalar, mashq turlari (stretching, muvozanat, koordinatsiya va kuch mashqlari) va ishtirokchilarning kuzatishlari qo‘llanildi. Qizlar egiluvchanligini oshirish uchun mashqlarni muntazam bajarish va ularning fiziologik natijalarini tahlil qilish asosiy metod bo‘ldi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, badiiy gimnastika mashqlari qizlarning egiluvchanligini, muvozanatini va kuchini sezilarli darajada oshiradi. Mashqlarni muntazam bajarish o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va ijtimoiy faollikni yaxshilaydi. Shuningdek, stressni kamaytirish va ruhiy salomatlikni yaxshilashda badiiy gimnastika o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Bularning barchasi, qizlarning jismoniy va ruhiy holatining yaxshilanishiga olib keldi.

Muhokama. Egiluvchanlik — bu tana harakatlarining sifatidir.Bu jismoniy faoliyatda zarur bo‘lib, sportchilar uchun muhim rol o‘ynaydi. Egiluvchanlikni rivojlantirish qizlar uchun bir necha foydali jihatlarga ega.

Birinchidan, jarohatlarni oldini olish- egiluvchanlik muskul va suyaklarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa jarohatlarning oldini olishda muhimdir.

Ikkinchidan, jismoniy ko‘rsatkichlarni yaxshilash – egiluvchanlikni oshirish muskul kuchi va kuchlanishining yaxshilanishiga olib keladi.

Uchinchidan, emotsional farovonlik-gimnastika mashqlari qizlar uchun stressni kamaytirishga va ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Egiluvchanlik, jismoniy faoliyat va sportda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa qizlar uchun bir qator foydali jihatlarni taqdim etadi. Bu maqolada qizlar uchun egiluvchanlikning ahamiyatini tahlil qilamiz va uning turli sohalardagi foydalarini ko‘rib chiqamiz.

Egiluvchanlik qizlarning jismoniy salomatligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.Egiluvchan bo‘lgan tanada mushaklar va suyaklar yaxshi rivojlanadi. Bu jarayon jarohat olish xavfini kamaytiradi va jismoniy faollikni oshiradi. Egiluvchanlik mushaklarning to‘g‘ri ishlashini ta’minlab, tananing harakatlaridagi erkinlikni oshiradi.

O‘smirlik davrida qizlarning organizmi jiddiy o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Egiluvchanlikni oshirish ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Bu mushaklarning to‘g‘ri rivojlanishiga va o‘sish jarayonida ularning sog‘lom holatini saqlashga yordam beradi.

Egiluvchanlik qizlarning muvozanat va koordinatsiyasini rivojlantirishda ham muhimdir. Badiiy gimnastika yoki raqs kabi sport turlari egiluvchanlikni oshirish bilan birga, muvozanatni va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar hayotning boshqa sohalarida ham foydali bo‘ladi.

Egiluvchanlik mashqlari orqali qizlar o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishi mumkin.Jismoniy faoliyatdagi muvaffaqiyatlar, masalan, yangi harakatlarni o‘zlashtirish, qizlarning o‘z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishiga yordam beradi. Bu ruhiy salomatlikni yaxshilaydi va ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etishga yordam beradi.

Jismoniy mashqlar, jumladan, egiluvchanlikni oshirishga qaratilgan mashqlar, stressni kamaytiradi. Bu harakatlar endorfin ishlab chiqarishni rag‘batlantirib, kayfiyatni yaxshilaydi va asab tizimining holatini yaxshilaydi. O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirgan holda, qizlar stressni yengishning yanada samarali usullarini topadilar.

Egiluvchanlik mashqlari qizlarni ijtimoiy hayotga jalb qiladi.Guruhda yoki jamoada faoliyat yuritish, sport musobaqalarida qatnashish, yangi do‘stlar orttirishga va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.Bu jarayon o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashda ham muhimdir.

Egiluvchanlikning yuqori darajasi qizlarning hayot sifatini oshiradi. Qizlar o‘z tanalarini erkin harakatlantirishi, og‘riqsiz va qulay holatda bo‘lishi imkonini beradi. Bu ularga sport va boshqa jismoniy faoliyatlardan zavq olishga yordam beradi, shuningdek, kundalik hayotda faolroq ishtirok etishlariga imkon beradi.

Qizlar uchun egiluvchanlik jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlikda muhim rol o‘ynaydi. Egiluvchanlikni rivojlantirish nafaqat jismoniy holatni yaxshilaydi, balki o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy faollikni rag‘batlantiradi. Shu sababli, badiiy gimnastika va egiluvchanlikka qaratilgan mashg‘ulotlarni qizlar hayotiga kiritish zarur.

Badiiy Gimnastika Mashqlari

Badiiy gimnastika mashqlari yordamida egiluvchanlikni oshirish uchun bir qancha asosiy mashqlarni kiritish mumkin.

Birinchidan, stretching-egilish mashqlari — bu egiluvchanlikni oshirish uchun eng muhim bo‘lgan mashqlardir. Qizlar uchun quyidagi egilish mashqlarini tavsiya etish mumkin:

Ikkinchidan, yerdan yengil cho‘zish: qizlar yerdan

o‘tirib, oyoqlarini oldinga cho‘zib, qo‘llarini oyoqlarga yetkazishga harakat qilishlari kerak.

Uchinchidan, dizlarni cho‘zish-qizlar turli pozitsiyalarda dizlarini cho‘zishlari, bu esa ularning oyoq mushaklarini kuchaytiradi.

Balans mashqlari ham talaba qizlar uchun juda muhim hisoblanib, badiiy gimnastikada balansni yaxshilash uchun: bir oyoqda turish-qizlar bir oyoqda turish va boshqa oyoqni yuqoriga ko‘tarishlari kerak, bu ularning muvozanatini rivojlantiradi. Shuningdek, yirtqich pozitsiya-qizlar ko‘tarilgan oyoqlar bilan yirtqich pozitsiyada qolishlari kerak, bu esa muvozanatni oshiradi.

Bundan tashqari, dinamik mashqlar – harakat qilishga asoslangan mashqlar: burpee-bu mashq qizlarning kuchini oshiradi va ularni faol holatda ushlab turadi. Jumper Squats –bu mashqlar qizlarning oyoq mushaklarini rivojlantiradi va ularning egiluvchanligini oshiradi.

Badiiy gimnastika — bu muvozanat, egiluvchanlik, kuch va koordinatsiyani rivojlantirishga qaratilgan estetik sport turi. Qizlar uchun badiiy gimnastika mashqlari nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada qizlar uchun badiiy gimnastika mashqlarining ahamiyati va foydalari haqida ma’lumot beramiz.

Badiiy gimnastika jismoniy rivojlanish uchun juda foydali. Bu sport turi qizlarning kuchini, egiluvchanligini va muvozanatini oshirishga yordam beradi. Badiiy gimnastika mashqlari tana mushaklarini mustahkamlash va tananing barcha qismlarini birlashtirishda samarali.

Badiiy gimnastika qizlarga muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirishda yordam beradi. Bunday ko‘nikmalar kundalik hayotda ham foydali bo‘lib, jismoniy faoliyatda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Badiiy gimnastika qizlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Muvaffaqiyatli bajarilgan harakatlar va musobaqalarda qatnashish qizlarning ruhiy holatini yaxshilaydi va ularni maqsadlarga erishishga undaydi.

Jismoniy faoliyat, jumladan, badiiy gimnastika, stressni kamaytiradi va kayfiyatni yaxshilaydi. Qizlar ushbu mashqlar orqali energiyalarini yo‘naltirib, ruhiy va jismoniy yuklamalardan xalos bo‘lishlari mumkin.Badiiy gimnastikada guruh mashg‘ulotlari va musobaqalar qatnashchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Yangi do‘stlar orttirish va jamoa bilan ishlash qizlarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Egiluvchanlikni oshirish uchun har qanday badiiy gimnastika dasturi stretch mashqlari bilan boshlanadi. Ushbu mashqlar mushaklarni cho‘zish va ularning egiluvchanligini oshirishga qaratilgan.

Ovozli va ovozsiz harakatlar, jumladan, aylanma harakatlar, sakrashlar va burilishlar, badiiy gimnastikaning asosiy qismini tashkil qiladi. Ushbu harakatlar qizlarning kuchini va koordinatsiyasini oshirishda yordam beradi.Muvozanatni oshirish uchun maxsus mashqlar, masalan, bir oyoqda turish yoki yog‘och yoki skameykada harakat qilish, o‘rganiladi. Bu qizlarning muvozanatini kuchaytiradi.

Badiiy gimnastikada qaytish va sakrashlar qizlarning kuchini va muvozanatini sinovdan o‘tkazadi. Ushbu harakatlar orqali qizlar o‘zlarini yanada erkin his qiladilar va harakatlarni boshqarishni o‘rganadilar. Badiiy gimnastikaning estetik tomoni, ya’ni raqs va ifoda qilish, qizlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu, shuningdek, musiqani tushunish va uning ritmi bilan harakat qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Qizlar uchun badiiy gimnastika mashqlari jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Ular salomatlikni yaxshilash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, stressni kamaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Badiiy gimnastika nafaqat jismoniy faoliyat, balki qizlarning shaxsiy rivojlanishi uchun ham muhimdir.

Mashqlarni o‘tkazish rejasi

Badiiy gimnastika mashqlarini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun reja tuzish zarur.Mashqlar haftada 3-4 marta o‘tkazilishi mumkin. Har bir mashg‘ulotda quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Birinchidan, isitish (10-15 daqiqa): qizlar mushaklarini va qo‘llarini isitish uchun yengil harakatlar bajarishlari kerak. Asosiy mashqlar (30-40 daqiqa): yuqorida keltirilgan egilish, balans va dinamik mashqlarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, sovuq qilish (10 daqiqa)-mashg‘ulot oxirida qizlar uchun yengil cho‘zish va dam olish kabilardan iborat.

Xulosa.Badiiy gimnastika mashqlari yordamida talaba qizlarni egiluvchanligini oshirish, ularning jismoniy salomatligini va ruhiy holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mashqlar nafaqat jismoniy kuchni, balki o‘ziga bo‘lgan ishonchni ham oshiradi. Qizlarni badiiy gimnastika bilan shug‘ullanishga undash va kerakli mashqlarni o‘rganishga yordam berish, ularga kelajakda katta foyda keltiradi.

Badiiy gimnastika qizlar uchun jismoniy va ruhiy rivojlanishni ta’minlovchi muhim sport turi hisoblanadi. Ushbu mashqlar nafaqat egiluvchanlikni oshirish, balki muvozanat, kuch va koordinatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Badiiy gimnastika orqali qizlar o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, stressni kamaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mashqlar, shuningdek, jismoniy salomatlikni yaxshilash va estetik qobiliyatlarni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada, badiiy gimnastika qizlar uchun nafaqat jismoniy faollik, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7573600/;
2. Li, J., et al. (2019). "The Role of Flexibility in Preventing Injuries in Female Athletes."Journal of Sports Science;
3. Robinson, L. E., et al. (2021). "Flexibility and Muscular Development in Adolescents." Physical Education and Sport Pedagogy;
4. Karp, J. R. (2018). "Confidence Building through Physical Activity: A Study on Female Athletes." International Journal of Sports Psychology;
5. McCullough, K. R., et al. (2020). "Social Benefits of Group Sports Participation among Young Women." Journal of Sport and Social Issues;
6. https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/1759720X20951107;
7. Robinson, L. E., et al.(2021)."Flexibility and Muscular Development in Adolescents."Physical Education and Sport Pedagogy;
8. https://www.researchgate.net/publication/332490353_The_Effect_of_Stretching_on_Sports_Performance;

Munisa TOSHBOYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
munisatoshboyeva12345@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-7005-0511
TDIU professori A.Muxametov taqrizi asosida

PARADZYUDODA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARGA TEZKOR O‘RGATISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada paradyudo sportchilarining texnik-taktik harakatlarni tez o‘rganishi nega muhim ekanligi, taktik tayyorgarlikning ahamiyati va sportchi natijalariga ta’siri, texnik-taktik mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilish: dastur tuzishda mos keluvchi usullarni tanlash tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: *Xalqaro Judo Federatsiyasi, Xalqaro Paralimpiya Qo‘mitasi, Paraolimpia*
Annotation: this article analyzes the importance of quickly learning technical-tactical actions by para-judo athletes, the significance of tactical preparation, and its impact on athletes' performance results. It also discusses the diversification of technical-tactical training: choosing appropriate methods for program development.
Key words: *international Judo Federation, International Paralympic Committee, Paraolympics*
Аннотация: в данной статье рассматривается важность быстрого освоения технико-тактических действий парадзюдоистами, значение тактической подготовки и влияние этого на результаты спортсменов. Также проводится анализ диверсификации технико-тактических тренировок: выбор подходящих методов для разработки программы.
Ключевые слова: *Международная Федерация дзюдо, Международный Паралимпийский Комитет, Паралимпийские игры.*

Kirish. Paradzyudo – bu dzyudo sporti asosida nogironligi bo‘lgan sportchilar uchun moslashtirilgan sport turi. Ushbu sport turi xalqaro miqyosda tan olingan bo‘lib, uning maqsadi jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarga jismoniy va ruhiy sog‘lomlikni ta’minlash, ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlash va sport orqali ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Paradzyudo bilan shug‘ullanish sportchilarga o‘ziga ishonchni oshirish, mushaklar kuchini rivojlantirish va koordinatsiya qobiliyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Paradzyudo bo‘yicha musobaqalar Paralimpiyaga ham kiritilgan, bunda sportchilar ko‘rish imkoniyatining darajasi bo‘yicha turli toifalarga ajratiladi va har bir turda maxsus qoidalar qo‘llaniladi.

Paradzyudo o‘zining shakllanishi va rivojlanishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Ushbu sport turi 1988-yilda ko‘zi ojiz sportchilar uchun xalqaro sport musobaqalariga kirib kelgan va jismoniy imkoniyatlari cheklangan sportchilar o‘rtasida judo bilan shug‘ullanish imkoniyatini kengaytirgan. 2004- yilda esa Afina

shahrida bo‘lib o‘tgan Yozgi Paralimpiya o‘yinlaridan boshlab, paradzyudo rasmiy ravishda Paralimpik sport turlariga kiritildi. Paradzyudo sohasida xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro Judo Federatsiyasi (IJF) va Xalqaro Paralimpiya Qo‘mitasi (IPC) muhim rol o‘ynaydi. Bu tashkilotlar qoidalarni ishlab chiqish, musobaqalarni tashkil etish va sportchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faoliyat yuritib kelmoqda.

Paradzyudo nafaqat jismoniy imkoniyatlari cheklangan sportchilarga sport bilan shug‘ullanish imkonini beradi, balki ularning ruhiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Bugungi kunda paradzyudo butun dunyoda keng ommalashgan bo‘lib, turli musobaqalar, jumladan, milliy va xalqaro turnirlar orqali ham rivojlanmoqda. Bu musobaqalar sportchilar uchun o‘z mahoratlarini namoyish qilish va boshqa davlatlardan kelgan sportchilar bilan tajriba almashish imkonini yaratadi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda para-judo sportchilarining texnik-taktik tayyorgarlik jarayonlarini chuqur tahlil qilish usuli qo‘llanilgan.Ular uchun texnik ko‘nikmalarni va musobaqada taktik qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga qaratilgan turli tayyorgarlik dasturlari va yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu usullarning natijalarga ta’siri baholangan.

Natijalar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, texnik va taktik komponentlarni o‘z ichiga olgan diversifikatsiyalangan tayyorgarlik dasturi para-judo sportchilarining natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Texnik-taktik harakatlarni tezda o‘zlashtirish orqali sportchilar musobaqalarda samarali javob berish imkoniyatiga ega bo‘lib, Paraolimpiya musobaqalarida yaxshi natijalarga erishmoqdalar.

Muhokama. Paradyudo sportchilarining texnik va taktik harakatlarni tez o‘rganishi ularning muvaffaqiyatga erishishida muhim omildir. Paradyudo, ayniqsa ko‘rish imkoniyati cheklangan sportchilar uchun moslashtirilgan sport turi bo‘lib, sportchilar raqibni sezish va tushunishga asoslangan turli xil harakatlarni amalga oshirishlari kerak. Tezkor texnik va taktik tayyorgarlik sportchilarga raqib harakatlarini oldindan bilish, o‘z harakatlarini tezkor rejalashtirish va moslashishga yordam beradi.

Shuningdek, paradzyudo texnikalarini tez o‘zlashtirish sportchilarga xavfsiz mashg‘ulot o‘tkazish va jarohatlardan saqlanishga ko‘maklashadi. Qolaversa, bu ularning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirib, musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatlarini ko‘paytiradi. Tezkor o‘rganish paradzyudo sportchilariga maxsus strategiyalarni ishlab chiqishga va raqiblarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradi, bu esa ularga taktik ustunlik beradi.

Paradzyudo sportida texnik va taktik tayyorgarlik sportchilarning musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishida muhim rol o‘ynaydi. Texnik tayyorgarlik sportchilarga to‘g‘ri usullarni o‘rgatadi, jumladan, yiqitish (tushirish), ushlash va nazorat texnikalari kabi muhim elementlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu tayyorgarlik jarayoni ko‘zi ojiz yoki ko‘rish imkoniyati cheklangan sportchilar uchun moslashtirilgan bo‘lib, ularning taktil sezgirligini oshirish va raqib harakatlarini his qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Taktik tayyorgarlik esa sportchilarni raqibga nisbatan ustunlikka ega bo‘lish strategiyalari bilan tanishtiradi. Masalan, raqib harakatlarini oldindan bilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o‘z harakatlarini shu ma’lumotlar asosida moslashtirish kabi taktikalar o‘rgatiladi. Bu tayyorgarlik nafaqat jismoniy balki aqliy va psixologik mashg‘ulotlarni ham o‘z ichiga oladi. Sportchilar o‘z texnik va taktik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali raqiblarini tushunish va raqobatbardosh ustunlikka erishishda yaxshiroq natijaga erishadilar.

Paradzyudo sportida texnik tayyorgarlik har bir sportchi uchun juda muhim sanaladi.Texnik tayyorgarlik sportchilarni dushman bilan kurashda zaruriy harakatlar, usullar va pozitsiyalarni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Paradzyudo bo‘yicha texnik tayyorgarlikda sportchilar muvozanatni saqlash, dushmanni sezish va uni tezkor ravishda reaksiyaga kelish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa sportchilarning dushman harakatlarini oldindan sezishga, harakatlarga aniqlik kiritishga va xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi.

Paradzyudo texnikasini yaxshi o‘zlashtirgan sportchilar harakatlarini tez va aniq bajarishga muvaffaq bo‘lishadi. Ayniqsa, ko‘rish qobiliyati cheklangan sportchilar uchun texnikaga asoslangan harakatlar va usullarni o‘zlashtirish ularning raqibga qarshi raqobatbardoshligini oshiradi.To‘g‘ri texnikani o‘zlashtirish sportchilarni jarohatlanishdan himoya qiladi. Paradzyudo texnikasi asoslarini o‘rganish jarayonida dushmanning harakatlarini oldindan sezish va bunga mos javob berish uchun tayyorgarlik zarur, bu esa sportchilarni jarohatlardan himoya qiladi.

Texnik jihatdan yaxshi tayyorlangan sportchi o‘ziga nisbatan ishonchliroq bo‘ladi. Bu ishonch musobaqalarda muvaffaqiyatga erishishga ham yordam beradi, chunki sportchi raqib bilan kurashda o‘zini erkin va xavfsiz his qiladi.Paradzyudo sportida texnik tayyorgarlik sportchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. Raqibning harakatlariga mos ravishda texnikalardan foydalanish orqali sportchilar ustunlikka erishadi va muvaffaqiyatga osonlik bilan yetadi.

Texnik tayyorgarlik paradzyudo sportida nafaqat jismoniy kuch va harakatlarni nazorat qilishda, balki sportchilarning strategik fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Taktik tayyorgarlikning ahamiyati va sportchi natijalariga ta’siri

Paradzyudoda taktik tayyorgarlik sportchining musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo‘lgan asosiy jihatlardan biridir. Paradzyudo sportchilarining ko‘rish qobiliyati cheklanganligi sababli, ularning dushman harakatlarini his qilish, oldindan sezish va unga qarshi to‘g‘ri javob berish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir.Shu sababli, taktik tayyorgarlik nafaqat jismoniy, balki aqliy tayyorgarlikni ham o‘z ichiga oladi.

Taktik tayyorgarlikning asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, dushmanni o‘rganish va oldindan taxmin qilish – taktik tayyorgarlik sportchilarga raqiblarining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam beradi. Bu esa raqibning har bir harakatini oldindan taxmin qilish va unga mos ravishda javob berish imkonini yaratadi.Masalan, dushmanning asosiy uslublariga qarshi strategiyalar ishlab chiqish orqali sportchilar o‘z ustunliklarini oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, moslashuvchanlik va qaror qabul qilish – musobaqalarda sportchilar bir necha taktikalarga ega bo‘lishi kerak, chunki har bir raqibning uslubi va harakatlari har xil bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, taktik tayyorgarlik sportchilarni vaziyatga moslashishga va tezkor qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bu moslashuvchanlik ularga musobaqalarda yuksak natijalar ko‘rsatishga yordam beradi.

Uchinchidan, psixologik ustunlik – taktik jihatdan yaxshi tayyorlangan sportchi o‘ziga nisbatan ishonchliroq bo‘ladi.Bu ishonch musobaqalar davomida raqib ustidan psixologik ustunlikni saqlashga imkon beradi. Raqiblarning harakatlarini tushunish va ularga qarshi aniq strategiyalar qo‘llash sportchilar uchun ruhiy jihatdan qulay sharoit yaratadi.

To‘rtinchidan, natijalarga ta’siri – paradzyudo sportida taktika yaxshi o‘zlashtirilsa, sportchilar dushmanlarini yengish uchun o‘z harakatlarini aniq bajaradi.Natijada, musobaqalarda yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritish imkoniyatlari oshadi.Yaxshi taktik tayyorgarlik yuksak natijalarni qo‘lga kiritishda muhim rol o‘ynaydi va sportchilarni texnik va jismoniy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Paradzyudoda yaxshi taktik tayyorgarlik sportchining muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tayyorgarlik har bir kurash holatida muvofiqlashtirilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi va musobaqalarda yuksak natijalar ko‘rsatish imkoniyatini oshiradi.

Texnik-taktik mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilish: dastur tuzishda mos keluvchi usullarni tanlash

Paradzyudoda texnik va taktik mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilish sportchilarning har tomonlama rivojlanishiga va moslashuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda har bir sportchining jismoniy va psixologik xususiyatlariga mos mashg‘ulot usullarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Texnik va taktik mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilish nafaqat sportchilarning raqibga qarshi turish qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularning o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq anglashlariga ham imkon yaratadi.

Texnik-taktik mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilishda qo‘llaniladigan usullar:

Birinchidan, vaziyatli mashg‘ulotlar (situatsion treninglar) – bu mashg‘ulotlar sportchilarga raqibga qarshi turish va o‘sha paytdagi vaziyatga mos ravishda qaror qabul qilishni o‘rgatadi.Raqibning turli xil uslublariga qarshi harakat qilish va turli vaziyatlarda qanday taktikani qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar beriladi. Bu turdagi mashg‘ulotlar sportchilarning refleks va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, maxsus texnik mashg‘ulotlar – paradzyudo sportchilari uchun muayyan texnikalarni mukammallashtirish zarur.Ushbu uslub sportchilarni asosiy usullarni yaxshiroq o‘zlashtirishga va bu usullardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi. Masalan, chayqalish, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish va kuchni to‘g‘ri taqsimlash kabi usullar sportchilarni jang davomida raqibning hujumlariga samarali qarshi turishga yordam beradi.

Uchinchidan, takroriy va analitik mashg‘ulotlar – bu mashg‘ulot usullari sportchilarga taktikalarni qayta-qayta takrorlash va turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Takroriy mashg‘ulotlar orqali sportchilar ma’lum bir harakatni refleks darajasiga olib chiqish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa ularga amaliy janglarda ko‘proq yordam beradi. Analitik mashg‘ulotlar esa sportchilarga harakatlarni ko‘rib chiqish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, psixologik tayyorgarlik – texnik va taktik diversifikatsiya faqat jismoniy mashg‘ulotlar bilan cheklanib qolmasdan, psixologik tayyorgarlikni ham o‘z ichiga olishi kerak.Sportchilar ruhiy tayyorgarlik orqali dushmanning psixologik hujumlariga qarshi turishni, o‘zlarida ishonchni oshirishni va zo‘riqish darajasini kamaytirishni o‘rganadilar.

Beshinchidan, jamoaviy va individual mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish – har bir sportchi o‘z imkoniyatlari va uslublariga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli jamoaviy mashg‘ulotlar orqali sportchilar o‘zaro tajriba almashishlari va yangi strategiyalarni o‘rganishlari mumkin, individual mashg‘ulotlar esa har bir sportchining shaxsiy uslubini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Oltinchidan, ko‘rish qobiliyatini o‘zgartirish mashg‘ulotlari – paradzyudo sportchilarining ko‘rish qobiliyati cheklanganligi sababli, ularning dushmanni sezish va uning harakatlarini his qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar muhimdir. Bu mashg‘ulotlarda sportchilar dushmanning harakatlarini ko‘rmasdan ham anglashni va unga qarshi to‘g‘ri javob berishni o‘rganadilar.

Xulosa. Texnik va taktik mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilish paradzyudo sportchilari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu usullar sportchilarni har tomonlama rivojlantirish va har bir jangda samarali natijalarga erishish imkonini oshiradi.Diversifikatsiya qilingan mashg‘ulotlar sportchilarning janglarda raqobatbardoshligini oshirib, ularni murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Judo Federation. (n.d.). Importance of Technical Training in Judo for Athletes with Disabilities. Retrieved from https://www.ijf.org;
2. British Judo Association. (n.d.). Benefits of Fast Technique Acquisition in Adaptive Judo. Retrieved from https://www.britishjudo.org.uk;
3. USA Judo. (n.d.). Technical and Tactical Preparation for Visually Impaired Judoka. Retrieved from https://www.usajudo.com;
4. Paralympic.org. (n.d.). Training for Adaptive Judo Athletes. Retrieved from https://www.paralympic.org;

Axror DJABBAROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati”
kafedrasi o‘qituvchisi
strongmans315@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-0872-3009
TDIU professori F.Tashpulatov taqrizi asosida

BIOMEXANIK TAHLIL ASOSIDA YADRO ITQITISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: ushbu maqola yadro itqitish sport texnikasini biomexanik tahlil asosida takomillashtirish samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada yadro itqitish jarayonida biomexanik tahlilning ahamiyati, individual tayyorgarlik, texnik ko‘nikmalarni oshirish, psixologik tayyorgarlik va zamonaviy texnologiyalar kabi muhim omillar ko‘rib chiqiladi. Har bir omil sportchilar harakatlarining aniq va samarali bajarilishiga, shuningdek, ularning umumiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan. Biomexanik tahlil yordamida sportchilar o‘z harakatlarini tahlil qilib, natijalarini oshirish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Shu bilan birga, maqola psixologik tayyorgarlikning sportchilarning muvaffaqiyatiga ta’sirini ham o‘z ichiga oladi, bu esa raqobatbardosh muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *yadro itqitish, og‘ir to‘p, sport texnikasi*

Annotation: this article explores the effectiveness of improving javelin throwing techniques based on biomechanical analysis. It discusses the crucial factors influencing performance, including the role of biomechanics, individual training, technical skills enhancement, psychological preparation, and the use of modern technologies. The application of biomechanical analysis allows athletes to optimize their movements, improve energy distribution, and increase performance. Psychological factors and personalized training plans also play a significant role in maximizing athletic success. The article offers a comprehensive approach to improving sports techniques and emphasizes the importance of technological innovations in sports science.

Key words: *javelin throwing, heavy ball, sports technique*

Аннотация: эта статья исследует эффективность улучшения техники метания копья на основе биомеханического анализа. В ней рассматриваются важнейшие факторы, влияющие на результаты, такие как роль биомеханики, индивидуальная подготовка, улучшение технических навыков, психологическая подготовка и использование современных технологий. Применение биомеханического анализа позволяет спортсменам оптимизировать свои движения, улучшить распределение энергии и повысить результативность. Психологические факторы и персонализированные тренировочные планы также играют важную роль в максимизации спортивного успеха. Статья предлагает комплексный подход к улучшению спортивной техники и подчеркивает значимость технологических инноваций в спортивной науке.

Ключевые слова: *метание копья, тяжелый мяч, спортивная техника*

Kirish. Yadro itqitish sporti kuch va texnika talab qiladigan jismoniy faoliyat hisoblanadi, unda sportchilar o‘z imkoniyatlari chegarasida og‘ir to‘pni iloji boricha uzoqqa uloqtirishga intilishadi. Ushbu sport texnikasini takomillashtirish uchun biomexanik tahlil juda muhimdir. Biomexanik yondashuv sportchilarning harakatlarini batafsil tahlil qilib, samaradorlikni oshirish uchun optimal usullarni aniqlash imkonini beradi.Biomexanika sportchilarning mushak harakati, tana holati, kuch tarqalishi va energiya tejamkorligini yaxshilash uchun texnikani moslashtirishda yordam beradi.

Yadro itqitish, zamonaviy sport turlaridan biri bo‘lib, u kuch, texnika va taktikani birlashtiradigan jismoniy faoliyatdir. Ushbu sportda sportchi og‘ir to‘pni iloji boricha uzoqqa uloqtirishi kerak, bu esa muayyan jismoniy qobiliyatlar va texnik ko‘nikmalarni talab qiladi. Yadro itqitish sportining muvaffaqiyati asosan, sportchining mushak kuchi, jismoniy holati va texnikasi bilan bog‘liq bo‘lib, har bir harakatda maksimal natijaga erishish uchun samarali yo‘llarni izlash zarur.

Biomexanika sportda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, harakatlarning mexanik jihatlarini o‘rganadi. Bu ilmiy yondashuv, jismoniy faoliyat jarayonida kuchlar, harakatlar va energiya tarqatilishi haqida chuqur tushuncha berish bilan birga, sportchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini yaratadi. Yadro itqitishdagi biomexanik tahlillar sportchilarning harakatlarini aniq o‘rganishga imkon beradi, bu esa ularning o‘z qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Biomexanik tahlil yordamida, sportchilar o‘z harakatlarini optimallashtirish orqali jarayonning har bir bosqichida energiya va kuchni qanday tejash kerakligini bilib oladilar.

Yadro itqitish sporti davomida mushaklarning to‘g‘ri ishlatilishi, kuchning to‘g‘ri tarqatilishi va texnik jihatlar juda muhimdir.Shuningdek, har bir sportchi o‘zining individual xususiyatlariga mos keladigan texnikani o‘rganishi lozim.Bu yondashuvlar, o‘z navbatida, sportchining muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi, natijada natijalar yaxshilanadi. Biomexanik tahlilning yadro itqitish texnikasini takomillashtirishdagi ahamiyati katta bo‘lib, bu jarayon sportchilarni ko‘proq muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi.

Ushbu maqolada biomexanik tahlil asosida yadro itqitish sport texnikasini takomillashtirish samaradorligi haqida batafsil muhokama qilinadi.Maqola biomexanik tahlilning sportchilar uchun ahamiyatini, texnikani takomillashtirish jarayonidagi o‘rnini va yadro itqitish sportidagi yangi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, sportchilarning imkoniyatlarini yaxshilash uchun zamonaviy metod va strategiyalarni keltirishga harakat qilinadi.

Metodlar. Yadro itqitish va og‘ir to‘p texnikalarini o‘rganish biomexanik tahlil va amaliyot asosida amalga oshirildi. Sportchilarning harakatlari harakatni qayd etish tizimlari va biomexanik sensorlar yordamida kuzatilib, ular tomonidan qo‘llaniladigan burchaklar, tezliklar va kuchlar baholandi. Shuningdek, texnik ko‘nikmalarni, kuchni va moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan tayyorgarlik dasturlari amalga oshirildi. Psixologik tayyorgarlik va fikr bildiruvchi mexanizmlar ham metodga kiritildi, bu esa sportchilarning ruhiy holatini yaxshilashga yordam berdi.

Natijalar. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, biomexanik tahlil sportchilarning texnikasini sezilarli darajada yaxshiladi, energiyaning samarali uzatilishi va jarohat olish xavfini kamaytirdi. Maqsadli tayyorgarlikni olgan sportchilar musobaqada natijalarini va texnikani yaxshiladi. Psixologik tayyorgarlik ham diqqatni jamlash va ishlash vaqtida xavotirni kamaytirishga yordam berdi. Umuman olganda, biomexanik tahlil, texnik mashqlar va ruhiy tayyorgarlikning uyg‘unligi sportchilarning natijalarini va texnikasini aniq yaxshilashga olib keldi.

Muhokama. Biomexanik tahlil sportchilarning tanasidagi harakatlarning aniqligi, kuch taqsimoti va har bir qadamdagi texnik jihatlarini o‘rganadi. Ushbu tahlil orqali mushaklar, bo‘g‘inlar va skelet harakatlari aniqlanib, sportchining yadroni uloqtirish paytidagi holatini optimallashtirish imkoniyati yaratadi. Misol uchun, harakat davomida oyoqlar va tos sohasidagi kuchni to‘g‘ri ishlatish, tana og‘irligini optimal taqsimlash va qo‘lni maksimal balandlikda ko‘tarish yadro itqitish masofasini sezilarli darajada oshiradi.

Biomexanik tahlil yadro itqitish sportida sportchilarning harakatlarini o‘rganish va yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.Ushbu tahlil, sportchilarning mushak kuchi, harakat koordinatsiyasi va tana holatlari kabi jihatlarni tahlil qilib, ularning natijalarini optimallashtirishga yordam beradi. Biomexanik yondashuv yordamida sportchilarning harakatlaridagi mexanik prinsiplar va energiya tarqatilishi yanada chuqurroq o‘rganiladi.

Biomexanik tahlil harakatlarni batafsil o‘rganishga imkon beradi.Bu jarayonda videoyozuvlar va sensorlar yordamida sportchilarning harakatlari tahlil qilinadi. Olingan ma’lumotlar yordamida sportchilar o‘z texnikalarini va harakatlarining aniqligini yaxshilashlari mumkin. Misol uchun, yadro itqitishda oyoq va qo‘l harakatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash orqali, sportchining natijasi sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Biomexanika, kuch va energiya tarqatilishi haqida aniq tushuncha beradi. Yadro itqitishda kuch to‘g‘ri tarqatilishi sportchining muvaffaqiyatini belgilaydi. Biomexanik tahlil orqali kuchning har bir harakatda qanday tarqatilishini o‘rganish, sportchiga energiyani optimal darajada ishlatishga yordam beradi.Bu, o‘z navbatida, natijalarni yaxshilashga olib keladi.

Biomexanik tahlil yordamida sportchilar o‘z harakatlarini samarali qilishlari mumkin.Sportchilarning

tana holatini to‘g‘ri tanlash, harakatni aniq bajarish va energiyani tejash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu jarayonda biomexanik tahlil natijalari asosida individual tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqiladi, bu esa sportchilarni yanada muvaffaqiyatli qiladi.

Shu bilan birga, biomexanik tahlil sportchilarga o‘z kuch va imkoniyatlarini aniqlashda yordam beradi, bu esa ularning natijalarini yaxshilash va sport texnikasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv, sportchilarni yanada kuchli va samarali bo‘lishga undaydi, natijada ularning maqsadlariga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Yadro itqitish texnikasini takomillashtirish omillari

Tahlillar sportchining oyoq va qo‘l mushaklari orqali kuch tarqatishini yaxshilashni ta’minlaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich holatdagi kuchlanish va chiqish tezligi sport natijalarini sezilarli darajada oshirish uchun juda muhim hisoblanadi. Yadroni uloqtirishda tana pozitsiyasining to‘g‘ri tanlanishi, sportchining kuchni to‘g‘ri uzatishini ta’minlaydi. Biomexanik tahlil yordamida optimal pozitsiyani aniqlash orqali sportchilar o‘z kuchlarini maksimal darajada ishlatishlari va natijalarni yaxshilashlari mumkin. Biomexanik tahlillar sportchilarga harakatlar koordinatsiyasi va tezligini yaxshilashda yordam beradi. Masalan, har bir harakatni moslashtirib, energiyani tejash va maksimal masofaga itqitish imkoniyatini yaratadi.

Yadro itqitish texnikasini takomillashtirish sportchilar uchun yuqori natijalarga erishish va jismoniy qobiliyatlarni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunga bir necha omillar ta’sir qiladi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Yadro itqitish texnikasining takomillashtirilishi biomexanik tahlil asosida amalga oshiriladi.Sportchilar harakatlarining mexanik jihatlari o‘rganilib, kuch va energiyaning qanday taqsimlanishi aniqlanadi. Bu jarayon orqali sportchilar o‘z harakatlaridagi noaniqliklarni bartaraf etish va maksimal natijaga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Har bir sportchi o‘zining jismoniy xususiyatlariga mos ravishda tayyorlanishi zarur.Yadro itqitish texnikasini takomillashtirishda individual tayyorgarlik dasturlari, mushak kuchini oshirish va maqsadga muvofiq rejalashtirish muhim rol o‘ynaydi. Masalan, kuch va moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar sportchilar uchun foydali bo‘ladi.

Texnik ko‘nikmalarni takomillashtirish yadro itqitishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir. Sportchilar yuqori aniqlik, to‘g‘ri harakat va kuchni optimallashtirishni o‘rganishlari kerak. Ushbu ko‘nikmalarni o‘rganishda murabbiylar va tajribali sportchilar bilan maslahatlashish, videoyozuvlar va biomexanik tahlil yordamida harakatlarni tahlil qilish muhimdir.

Psixologik tayyorgarlik ham yadro itqitish texnikasini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Sportchilarning motivatsiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va stressni boshqarish usullari ularning muvaffaqiyatini belgilaydi. Psixologik tayyorgarlik dasturlari sportchilarni raqobatbardosh muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun tayyorlashda yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sensorlar va biomexanik tahlil dasturlari yordamida sportchilarning harakatlari yanada samarali o‘rganilishi mumkin.Bu yangi texnologiyalar sportchilarga o‘z texnikalarini yanada takomillashtirishda yordam beradi, chunki ular o‘z harakatlaridagi kuchlarni va energiya sarfini aniq ko‘ra olishadi.

Yadro itqitish texnikasini takomillashtirish omillari birgalikda sportchilarning yuqori natijalarga erishishida va ularning jismoniy qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular individual yondashuv, texnikani takomillashtirish, psixologik tayyorgarlik va innovatsion texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Biomexanik tahlil yordamida yadro itqitish texnikasini takomillashtirish sportchining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv sportchilarga harakatlarining aniqligini, kuch tarqalishini, va tana pozitsiyasini moslashtirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, biomexanik tahlil yordamida individual tayyorgarlik dasturlarini yaratish ham sport natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Yadro itqitish texnikasini takomillashtirish sportchilarning muvaffaqiyatlarini oshirishda va ularning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Biomexanik tahlil, individual tayyorgarlik, texnik ko‘nikmalarni oshirish, psixologik tayyorgarlik va zamonaviy texnologiyalar yadro itqitish jarayonida samarali bo‘lishi uchun muhim omillar hisoblanadi. Ushbu omillar sportchilarning kuch va energiya sarfini optimallashtirish, harakatlarining aniq va samarali bajarilishi, shuningdek, psixologik jihatlarni hisobga olish orqali ularning umumiy sport ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, yadro itqitishda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilarga o‘zlarining harakatlarini o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatini taqdim etish zarur. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar, masalan, biomexanik sensorlar va analitik dasturlar yordamida sportchilarning harakatlari yaxshilanadi va natijalarini oshirishga imkon yaratadi. Bularning barchasi sportchilarni raqobatbardosh muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi va ularning karyeralarini davom ettirish uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.trackandfieldcoach.com/blog/throwing-biomechanics;

2.https://byjus.com/question-answer/what-are-the-importance-of-biomechanics-in-sports/;
3.https://www.physio pedia.com/Biomechanics_In_Sport#:~:text=Biomechanics%20in%20sport%20incorporates%20a,the%20mechanics%20of%20human%20movement.;
4. https://worldathletics.org/disciplines/throws/shot-put;
5. https://throwjavelin.com/mastering-the-art-of-javelin-throw-technique-a-comprehensive-guide/;
6. Psychological Factors in Sport Performance;

Ilxam SAHANIYAZOV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi assistent o‘qituvchisi

HUJUM TAKTIK HARAKATLARINI AMALGA OSHIRISHDA YOSH FUTBOLCHILAR JISMONIY HOLATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada 16-17 yoshdagi futbolchilarning musobaqa davomida hujumlarining turli xil holatlari o‘rganilib, keng yoritib berilgan. Bunda hujumlarni markaz va qanotlarda amalga oshirish nisbati, hujumlarni xavfli harakatlarida zarba berish holatlari keltirilgan. Bundan tashqari, hujum harakatlarini amalga oshirishda futbolchilar tomonidan amalga oshiriladigan kombinatsiyalardagi o‘yinchilarning ishtiroki ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *hujumlar soni, hujum taktik harakati, darvozaga berilgan zarbalar, hujumda ishtirok etuvchilar soni.*

Annotation: in the article, various cases of attacking 16-17-year-old players during the competition are studied and widely covered. The proportion of attacks in the center and flanks, cases of strikes in dangerous movements of attacks are given here. In addition, the participation of the players in the combinations performed by the players during the execution of offensive actions is revealed.

Key words: *number of attacks, tactical action of attack, shots on goal, number of participants in attack.*

Аннотация: в статье изучены и широко освещены различные случаи нападения на игроков 16-17 лет во время соревнований. Здесь приведены пропорции атак в центре и на флангах, случаи ударов в опасных движениях атак. Кроме того, выявляется участие игроков в комбинациях, выполняемых игроками при выполнении наступательных действий.

Ключевые слова: *количество атак, тактическое действие нападения, удары по воротам, количество участников атаки.*

Dolzarbligi. Biz barcha hujum uyushtirishda xalqaro maydonlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishmaganlarini ko‘pgina mualliflar (1,2) ta’kidlashgan. Futbol murabbiylarining fikrlaricha, mag‘lubiyatlarimizning sababi, bu futbolchilarimizning hujum uyushtirish harakatlarini sust va noaniq bajarishlarida jismoniy tayyorgarlik yuqori emasligida deb ta’kidlashyapti. Murabbiylar o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida tezkor hujum uyushtirish mahoratini uyushtirishga qaratilgan mashqlarni shug‘ullanuvchi bolalarning yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlaridan qat’iy nazar qo‘llaydilar. Shuni hisobga olganda futbolchilarimiz bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun anchagina ishlashlariga to‘g‘ri keladi.

Futbolchilarning himoya zonasidan hujum uyushtirish, jamoani g‘alabaga yetaklaydi. Lekin butun harakatlar jamoa futbolchilardan tezligi, texnik-taktik harakatlarni amalga oshirib hujumni yakunlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh futbolchilarning to‘pni o‘rta va uzoq masofaga, sherigini harakat qilish yo‘liga oshirib berishi muhim rol o‘ynaydi. Bunday hujumning asosiy maqsadi, to‘pni raqib zonasiga himoya zonasidan tezda yetkazib berib, darvoza yonida xavfli harakatlarni uyushtirib, darvozaga gol urishdan iborat. Shuning uchun futbolchilarning hujum qilishga qaratilgan mavzusi ko‘pgina mutaxassis va murabbiylar (3,4) diqqatida hisoblandi. Bundan tashqari, hozirgi kunda bunday hujumlarga qancha soniya vaqt ketishi, qancha odam ishtirok etishi va darvozaga zarba berish va boshqa harakatlari dolzarb mavzulardan biri hisoblaniladi.

Ishning maqsadi. O‘zbekiston chempionatida

ishtirok etayotgan oliy toifadagi jamoa futbolchilarining musobaqa sharoitida tez hujum uyushtirishda harakatlarini tahlil qilish.

Ishning vazifalari:

- o‘yin davomidagi hujum, taktik harakatlarini amalga oshirishdagi harakatlarini soni va samaradorligini tahlil qilish;
- hujum harakatlarini amalga oshirishda hujum va himoya taktik harakatlarida futbolchilarning turli shiddatlarida harakatlanishlarini taqqoslash.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi: Biz tomonimizdan yosh futbolchilarning hujum taktik harakatlarini turli holatlari o‘yin davomida kuzatildi. Bu kuzatishlarda ko‘p futbolchilarni qanot va markazdan uyushtirilgan hujumlardagi xavfli ko‘rinishlarni yuzaga keltirgan vaziyatlarni (darvoza yaqinidagi) futbol akademiyalarning 16-17 yoshdagi jamoa futbolchilari orqali aniqlandi. QQR (Qoraqalpog‘iston Respublikasi), Xorazm va Buxoro futbol akademiyalarining futbolchilar hujum faoliyatlarini ko‘rib chiqdik. Jamoaning har biri 10 o‘yin davomida olingan ma’lumotlarni o‘rtacha ( ) bir o‘yin davomida tahlil qildik. Yuqorida ta’kidlanganidek, pedagogik kuzatishlarda QQR futbol akademiya shug‘ullanuvchilari 86 marotaba hujum uyushtirilganligini, shulardan 49,6 marotabasi qanotdan uyushtirilganligini, samaradorlik ko‘rsatkichi 25,8% tashkil etsa (hujumlar darvozaga zarba bilan yakunlangan holatlar), markazdan uyushtirilgan harakatlardan 34,7 marotabasidan 16,7% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etdi. Buxoro maktabida shug‘ullanuvchi yoshlar harakatlariga keladigan bo‘lsak, qanotdan 47,5 marotaba hujumdan 25,5% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etsa, markazdan uyushtirilgan 30 marotaba hujumdan 17,3% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etsa, Xorazm maktabi tarbiyalanuvchilari qanotidan 48,2 marotaba hujumdan 23,7% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etsa, markazdan uyushtirilgan 32,6 marotaba hujumdan 18,7% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etadi. Bulardan xulosa qiladigan bo‘lsak, markazlardan uyushtiriladigan hujum harakatlari qanotdan amalga oshiriladigan harakatlar soni va samaradorligining ko‘rsatkichlari yuqoriligini aniqladik. (1-jadval)

1-jadval

16-17 yoshdagi futbolchilarning o‘yindagi xavfli hujum uyushtirish harakatlari

Jamoa	Hujum uyushtirishdagi maydon qismlari (raqib darvozasi oldida)											
	Qanotdan				Markazdan				Jami			
	Jami	+	-	*SK%*	*Jami*	+	-	*SK%*	*Jami*	+	-	*SK%*
QQR	49,6	12,8	36,8	25,8	34,7	5,8	28,9	16,7	84,3	18,6	65,7	22,1
Buxoro	47,5	12,1	35,4	25,5	30	5,2	24,8	17,3	77,5	17,3	60,2	22,3
Xorazm	48,2	11,4	36,8	23,7	32,6	6,1	26,5	18,7	80,8	17,5	63,3	21,7

Keltirib o‘tilgan natijalardan kelib chiqib, biz o‘quv-mashg‘ulot jarayonida bu kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan vositalardan foydalangan holda olib borish kerak deb bilamiz. Bunda o‘quv-mashg‘ulot jarayonida faqatgina qanot orqali uyushtiriladigan hujumlarga ixtisoslashtirilgan mashqlar to‘plamini emas balki, hozirgi kundan xavfli ko‘rinish olayotgan markazlarda uyushtiriladigan hujum taktik harakatlar muhim bo‘ladigan mashqlarga ham ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Biz 2-jadvalda keltirilgan hujum uyushtirish harakatlariga oid ma’lumotlarni to‘liq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, QQR futbol akademiyada shug‘ullanuvchi 16-17 yoshdagi futbolchilar bir o‘yin davomida 84,4 marotaba hujum uyushtirsalar (xavfli hujumlar nazarda), shulardan 25,9 marotabasi xavfli hujumlarni (darvozaga zarba berish bilan yakunlashga harakat qilish) tashkil etadi. Bu hujumlardan darvozalarga 18,6 marotaba zarba yo‘llanishini va 10,8 marotabasi noaniq hamda 7,8 marotabasi aniq darvoza tomon yetib kelishini kuzatsak, samaradorlik ko‘rsatkichi 41,9%, nuqsonlari 58,1% tashkil qiladi. O‘yin davomida Buxoro maktabida shug‘ullanuvchi yosh futbolchilar harakatlarida 77,5 marotaba hujumlardan 55,9 (74%) marotabasi xavfsiz hujumlarni 21,6 (27,9%) marotabasi xavfli hujumlarni tashkil etgan.

2-jadval

16-17 yoshli futbolchilar uchrashuvlardagi hujumlari va darvozaga yo‘llangan zarbalar.

	O‘yin davomidagi hujumlar					Darvozaga yo‘naltirilgan zarbalar					
	Havsiz hujumlar	Foiz (%)	O‘rta xavfli	Foiz (%)	Jami hujumlar	To‘g‘ri zarbalar	Foiz (%)	Noto‘g‘ri zarbalar	Foiz (%)	Xamma zarbalar	Foiz (%)
QQR	58,5	69,3	25,9	30,7	84,4	7,8	41,9	10,8	58,1	18,6	100
Buxoro	55,9	72,1	21,6	27,9	77,5	6,4	40,3	9,5	59,7	15,9	100
Xorazm	60,1	74,4	20,7	25,6	80,8	6,3	36,0	11,2	64,0	17,5	100

3-jadvalda yosh futbolchilarning hujum uyushtirish jarayonida futbolchilarning turli kombinatsiyalarda ishtirok etishlari e’tiborimizni tortdi. Bir o‘yin davomida ikki futbolchi hujum uyushtirish harakatlarida QQR maktabidagi shug‘ullanuvchi yoshlar 31,1 (36,8%), Buxoro maktabidagi yoshlar 29,4 (37,9%) marotaba harakatlarini va Xorazm maktabida esa, 30,2 (37.4%) marotaba harakatlarini tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalardan, jamoalar hujum uyushtirishda asosan 2 o‘yinchi bo‘lib amalga oshirishlari ko‘zga tashlandi.

O‘yindagi 3 futbolchi ishtirokidagi hujum uyushtirish harakatlarida, QQR maktabida shug‘ullanuvchi futbolchilarning harakatlarini soni 25,2 (29,9%), Buxoro futbolchilari o‘yin davomida 23,4 (30.2%) va Xorazm maktabi 23,5 (29,1%) marotabani tashkil etdi. O‘yin davomida 4 futbolchi ishtirokidagi hujumlarda QQR futbolchilari, ya’ni bir o‘yin davomida 12,3 (14,6%), Buxoro futbolchilarning harakatlari 9,5 (12,3%) va Xorazm maktabi 12,4 (15,3%) marotabani tashkil etdi. 5 futbolchi ishtirokidagi harakatlarni oladigan bo‘lsak, QQR futbolchilar 8,9 (10,5%), Buxoro futbolchilari 8,3 (10,7%) va Xorazm 7,8 (9,7%) marotabani tashkil etganligini aniqladik. 6 futbolchi ishtirokidagi harakatlarga keladigan bo‘lsak, QQR maktab yoshlarining harakatlari 6,9 (8,2%), Buxoro maktab tarbiyalanuvchilari 6,9 (8,9%) va Xorazm 6,5 (8,5%) marotabani tashkil etganligini kuzatdik.

3-jadval

16-17 yoshli futbol jamoalarimizning guruhli hujum harakatlari ko‘rinishi.(X=8)

Kombinatsiyalarda ishtirok etuvchi o‘yinchilar soni		2	3	4	5	6	7	Jami
QQR	Kombinatsiya soni	31,1	25,2	12,3	8,9	6,8	-	84,4
	Foiz %	36,8	29,9	14,6	10,5	8,2	0	100
Buxoro	Kombinatsiya soni	29,4	23,4	9,5	8,3	6,9	-	77,5
	Foiz %	37,9	30,2	12,3	10,7	8,9	0	100
Xorazm	Kombinatsiya soni	30,2	23,5	12,4	7,8	6,5	-	80,8
	Foiz %	37,4	29,1	15,3	9,7	8,5	0	100

O‘yin davomida 7 va 8 futbolchi ishtirokidagi harakatlarni oladigan bo‘lsak, o‘yin davomida kuzatilmaganligini, bu bizning futbolchilarimiz 7 va 8 futbolchi ishtirokidagi hujumlar uyushtirmasliklarini bildiradi. O‘yin davomida 16-17 yoshdagilarni kuzatishlardan shuni ko‘rsak bo‘ladiki, 7-8 futbolchi ishtirokidagi hujumlar yosh futbolchilarda amalga oshirmasliklari, 5-6 futbolchi ishtirokidagi hujumlar kam amalga oshirishlarini kuzatsak, o‘yin davomida 2 futbolchi ishtirokida harakatlar ko‘proq amalga oshirishlari aniqlandi.

Amaliy tavsiyalar. Hujum taktik harakatlarni amalga oshirishda dastavval, futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga e’tibor qaratilishi lozim. Barcha taktik kombinatsiyalarni amalga oshirishda jismoniy tayyorgarlik bilan birgalikda olib borish samara beradi. Murabbiylar mashg‘ulotlarda tavsiya etilgan

mashqlar o‘yindan kelib chiqqan holda, o‘yinda amalga oshiriladigan vaziyatlar asosida tanlab olinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Murabbiylar tomonidan tanlangan mashqlar o‘yinga xos bo‘lishini, o‘yinchilarning texnik mahorat evaziga taktik harakatlarni tanlashlarini tavsiya etamiz. O‘yin davomida aniqlangan kamchiliklar asosida tanlangan mashqlar ham biz joriy etgan futbolchilarga ijobiy ta’sir etishiga ishonamiz.

Xulosa. Hujum harakatlarini yuqori saviyada amalga oshirishda murabbiylari taktik va jismoniy tayyorgarliklarni birga qo‘shgan holda olib borishlari o‘yin vaziyatida vujudga keladigan holatlarni oson va tezda hal etishiga yordam beradi. Bundan tashqari olingan natijalardan xulosa qiladigan bo‘lsak, markazdan uyushtiriladigan hujum harakatlariga qaraganda, qanotlardan uyushtiriladigan hujum harakatlarining soni va samaradorlik ko‘rsatkichlari yuqoriligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Безъязычный Б.И. Формирование ударных движений по показателям целевой точности у юных спортсменов 12-16 лет (на примере футбола): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. — Харьков, 1991. С.156
2. Годик М.А., Черепанов П.П., Галеев Р.З. Интегральная оценка атакующих действий. //Футбол: Ежегодник. –1984. /Сост. С.А.Савин, А.С.Соловьёв. Редкол.: К.И.Бесков и др. –М.: Физкультура и спорт, 1984. –С.7-11.
3. Золотарёв А.П., Шамардин А.И. Структура основных компонентов соревновательной деятельности юных футболистов: Учебно-методическое пособие. /Под ред. Н.Д.Васильева. – Волгоград: ВГИФК, 1993. –С.33
4. Исеев Ш.Т. Анализ атакующих действия футболистов высокой квалификации/ Журнал. «Фан спортга» №1, 2004. –С.45-47

Tokhira ISLAMOVA,
Tashkent State University of Economics
Senior teacher of
“Teaching foreign languages”department

EDUCATIONAL TECHNOLOGIES ARE CREATING NEW OPPORTUNITIES IN TEACHING

Annotation: educational technology is a crucial component of student training. In other words, educational technology represents a modern approach to teaching, utilizing methods and tools that enhance the quality of the educational process. The article is discussed the use of educational technologies in the teaching process.

Key words: *educational technologies, education, teaching, enhancement, student, teacher.*

Аннотация: образовательные технологии являются важнейшим компонентом обучения студентов. Другими словами, образовательные технологии представляют собой современный подход к обучению, использующий методы и инструменты, которые повышают качество образовательного процесса. В статье обсуждается использование образовательных технологий в процессе обучения.

Ключевые слова: *образовательные технологии, образование, обучение, улучшение, студент, учитель.*

Annotatsiya: ta’lim texnologiyasi talabalarni o‘qitishning hal qiluvchi qismi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim texnologiyasi ta’lim jarayonining sifatini oshiradigan usul va vositalardan foydalangan holda o‘qitishga zamonaviy yondashuvni anglatadi. Maqolada o‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyalari, ta’lim, o‘qitish, takomillashtirish, talaba, o‘qituvchi.*

Introduction

Educational technology has become an essential component of the teaching and learning process in today's age. The traditional role of the teacher in the classroom is being altered by technology in the educational field. The current educational system has undergone numerous changes due to the introduction of new educational technology. It is starting to have a greater impact on the realm of education. Interactive technologies have changed how teaching and learning occur fundamentally. As technology progresses, it is utilized to aid learners of various ages in educational pursuits. Technologies are playing a role in transforming the educational landscape. Educational technologies offer considerable advantages in the instruction of different subjects. Nonetheless, enhancing the communicative competence of students in higher education continues to be a difficult task. An all-encompassing method to the subject matter can improve the learning experience, as genuine resources allow students to practice reading and speaking efficiently, thus equipping them for their future careers. Developing students' abilities, it is important to encourage open dialogue and teach fundamental concepts relevant to different life situations. It is essential to acknowledge that students have varying capabilities to understand the complexities of subjects. Consequently, educators need to discover effective strategies to involve the whole class, an issue that continues to be debated today. Creative teaching techniques and resources are essential for improving the learning experience, fostering interaction, inventiveness and the efficient application of modern educational technologies, which are important for teachers.

Gulbahor KULDASHEVA,
Alfraganus universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

The efficient utilization of technology in education has transformed education and has generated additional educational possibilities. Educational technologies have benefited both teachers and students, with teachers learning to incorporate technology in their classrooms and students becoming more engaged in learning with technology. The integration of technology in education has eliminated barriers, allowing for real-time collaboration between teachers and students through advanced technologies. We must ensure that teachers use technology as a tool to enhance the learning experience, rather than as a substitute for teachers. Heavy reliance on technology hinders the structured educational process. Modern educational technology aids in both teaching and learning. Conventional teaching methods frequently display distinct traits; for instance, the application of a pen or pencil differs significantly regarding the integration of educational technology. The reasoning behind emphasizing technology in education is the access it provides to students. It allows for the development of new opportunities that would otherwise be impossible. When students face difficulties, they frequently work together with their groupmates in their online settings. By granting access to technology, we enhance the possibilities for creative learning experiences. The integration of cutting-edge educational technologies with contemporary information technologies offers vast possibilities for society. Currently, the ongoing reform and enhancement of the nation's continuous education system, which is progressing towards independent development, has resulted in a level of state policy that encourages the adoption of advanced pedagogical and information technologies, thereby boosting educational effectiveness. Educational technologies are utilized for instruction across all sectors of the nation's complete education system. To discuss about usage of educational technologies, the first, let's look at the definition.

Educational technologies – it is the strategic creation of opportunities to fulfill ideal educational roles in the specified or current setting. “We need technology in every classroom and in every student and teacher’s hand,” says education technology pioneer David Warlick, “because it is the pen and paper of our time, and it is the lens through which we experience much of our world.”

Technology is a teaching method that utilizes technological tools to educate and investigate the best strategies for achieving learning goals. Each lesson showcases the teacher's experienced, proficient application of modern teaching technologies. It is hard to envision education without technology, and there are many reasons for creating new technologies.

A key definition of educational technology emphasizes the theory and practice of employing new technology to create and enact innovative methods for learning and enhancing student success. Beneath all the advanced tools and flashy digital features are the educators who have the expertise — and the motivation — to utilize these new technologies to broaden their students' educational horizons. Students benefit from increased chances for personalized learning, enhanced collaborative environments, and

innovative methods like “flipped learning,” where they first encounter the subject matter outside of class allowing in-class time to focus on enhancing comprehension through discussions and working on problems with groupmates. For educators aiming to influence this field, obtaining a master in educational technology is certainly about acquiring new tools, techniques and methodologies, but it also involves grasping the foundational frameworks needed to achieve the best possible results. In contrast, "pedagogical technology" pertains to the educational processes and phenomena utilized in the domain of educational technology. Educators who have a comprehensive grasp of teaching and learning techniques, processes are considered to have educational knowledge. Teachers with strong pedagogical knowledge understand how students develop their knowledge and abilities, establish mental habits, and foster a passion for learning. Teaching effectively with technology presents challenges. Employing educational technologies for teaching various subjects is a method to guarantee that particular objectives are achieved through design. These activities directly relate to pinpointing the primary issues confronting the worldwide scientific community and the ways to address them. In this context, the existing challenges related to the deployment of educational technologies will be highlighted. Moreover, it is time to continue progressing in this area. Enhancements in teaching methods render the topic more relevant, even though certain elements of vocational training do not translate effectively into educational practice. Today, numerous methodologists and educators seek to instruct students that it ensures the accomplishment of goals. However, it is impossible to embrace the concepts, as technology isn't the key to successful education, but educational technologies are key factors of improving the teaching process. Therefore, the objective of the educational process involving modern technologies that is the teacher, who acts as the guide or will be the main facilitator of success. As the managers of the system, teachers should be prioritized regarding new technology and information-communication technology (ICT) mainstreaming. Consequently, the teacher's professional expertise and teaching skills are essential for delivering a constructive or unbiased reaction to numerous current relevant matters in the educational process. Specific plans should be developed and executed in every sector, textbooks, workbooks, curricula and lectures that should be available on electronic media and contemporary pedagogical and information technologies that should be extensively available in both scientific and methodological work alongside teaching and learning processes, sufficient to fulfill essential roles such as communication networks linking educational organizations.

In conclusion, the main tool used in the teaching process is educational technology. Effective technology-enhanced teaching requires ongoing development, maintenance and revision. The adaptation of learners or students, along with modifying the dimensions and shape of educational materials, is all connected to educational technology. The aim of education and training is educational technology, a teaching approach that incorporates scientific and technological advancements. It relies on the diagnostic aims and encompasses the creation and improvement of educational materials, methods and resources.

Used literatures:

1. I.O. Biletska, A.F. Paladieva, H.D. Avchinnikova, Y.Y. Kazak. The use of modern technologies by foreign language teachers: developing digital skills. Linguistics and Culture Review, 5 (S2) (2021), pp. 16-27

2. N. Janssen “Technological and pedagogical support for pre-service teachers’ lesson planning” published online/ 10, 2019. Technology, Pedagogy and Education: Vol 27, № 5

3. J.Lathan. https://onlinedegrees.sandiego.edu/what-is-educational-technology-definition-examples-impact/

4. https://armyandnavyacademy.org/blog/technology-is-transforming-classroom-teaching-and-learning/

Zilola TURDIYEVA,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, ona til va adabiyot fani o‘qituvchisi.
Greencard 1983@gmail com

N.ESHONQULNING “TUN PANJARALARI” QISSASIDA PSIXOLOGIZM MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada iste’dodli yozuvchi Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasidagi ruhiyat talqini haqida so‘z boradi. Inson ruhiy olamini teran tahlil qilgan yozuvchi – tun obraziga o‘zgacha ma’no yuklaydi. Tun – metamorfoza sifatida borliq va yo‘qlik orasidagi chegara deb biladi yozuvchi. Bu borliqqa o‘zining asl g‘oyalarini ramziy shaklda singdirib yuboradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek adabiyoti, falsafiy-psixologik talqin, “Tun panjaralari” qissasi , badiiy psixologizm, tasvir ekzistensiyasi, metamorfozalar, poetika.*

Аннотация: в данной статье говорится об трактовке духа в рассказе «Ночные ограды» талантливого писателя Назара Эшангула. Писатель, глубоко проанализировавший духовный мир человека, придает образу ночи особое значение. Писатель видит ночь как метаморфозу, границу между существованием и небытием. Он воплощает в жизнь свои оригинальные идеи в символической форме.

Ключевые слова: *узбекская литература, философско-психологическая интерпретация, повесть «Ночные бары», художественная психология, существование образа, метаморфозы, поэтика.*

Annotation: this article talks about the interpretation of the spirit in the short story "Night Fences" by the talented writer Nazar Eshanqul. The writer, who has deeply analyzed the human spiritual world, assigns a special meaning to the image of the night. The writer sees night as a metamorphosis, the boundary between existence and non-existence. It instills its original ideas into existence in a symbolic form.

Key words: *Uzbek literature, philosophical-psychological interpretation, the story "Night bars", artistic psychology, image existence, metamorphoses, poetics.*

Kirish. Har qanday badiiy asarda xarakter, ramz va obrazlilikni ta’minlashda, syujet va kompozisiyani mustahkamlashda badiiy psixologizmning o‘rni nihoyatda kengdir. XX asr psixonalitika fani boshqa, yondosh sohalar kabi juda tez suratlarda rivojlandi. Birinchi jahon urushi va undan keyingi davrlar adabiy hodisasi sifatida tan olingan F.Kafka, A.Kamyu, M.Prust, E.Xeminguey singari jahon klassik yozuvchilari ana shu tamoyilga amal qilib, inson ruhiyatining nechog‘li murakkab, ko‘p qirrali ekanligini o‘zlari yaratgan asarlari bilan falsafiy-psixologik talqinda qayta idrok etishga erishdilar. Shuni qayd etish lozimki, mana shu adiblarning har biri yaratgan asarlari o‘zbek adabiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgani ayni haqiqatdir.

Asosiy qism. Insoniyat yetib kelgan manzilu makonlar, ularning zabt etgan cho‘qqilari, taqdir ajoyibotlari-yu, iztiroblari hamisha o‘sha talqinni idrok etishga jazm qilgan yozuvchilar asarlarida unitilmas obida bo‘lib qoldi [1] . Shunday ekan, o‘zining bir-biridan go‘zal asarlari bilan shuhrat qozongan N.Eshonqul poetikasida badiiy psixologizm alohida o‘rin egallaydi.

Prof. H.Umurov bu haqda shunday yozadi: “Ko‘rinadiki, psixologik tahlil qonuniy badiiy hodisa bo‘lib (N.G.Chernishevskiy), ijodiy talantning kamoloti darajasini, uning ta’sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir. Bu belgi yozuvchini inson qalbidek keng va sirli, ko‘p qirrali va bepoyon olamning bilimdoni va bu olamning sir-asrorini ochib beruvchi kashfiyotchisi ekanligini namoyon qiluvchi kuch-qudratga ega. Shuning uchun ham, inson psixologiyasi (demakki, uning ichki dunyosi, kechinmalari)ni tasvirlovchi san’atkor, o‘zini har qanday kishining ruhiy holatida tasavvur eta olishi, uning qalb va qiyofasini ko‘rsata bilishi kerak”. Haqiqatdan ham, prof. H.Umurov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, inson ruhiyatini tasvirlashda, syujet va kompozision butunlikni ijro qilishda, marom va tasvirni quyuqlashtirishda psixologik usul o‘zining nechog‘li muhim ekanligini taqozo etadi. N.Eshonqul har bir asarida,u hikoya yoki qissa, roman janrida yozilishidan qat’ian birinchi psixologik tasvir chegarasini aniqlab oladi. Xususan, adibning “Tun panjaralari” qissasida yozuvchi (roviy) nutqi bilan qahramon nutqi uyg‘unlashib, polifonik tafakkur yo‘sinini namoyon qiladi. Qissa haqida mulohaza yuritgan prof.Q.Yo‘ldoshev: “Nazar Eshonqul o‘tgan yili “Tun panjaralari” qissasini e’lon qildi. Nazar adabiyotimizga o‘zgacha ohang, o‘zgacha insoniy munosabatlar tizimini olib kirgan. Uning ifoda tarzida qandaydir zalvor, qamrovli miqyos mavjudki, bu hol adabiyotda inson taqdiriga yengil yondoshib bo‘lmasligini esga solib turadi. O‘quvchini jiddiy taqdirlar bilan uchrashishga tayyorlaydi . Binobarin, N.Eshonqulning juda ko‘pchilik hikoyalari-yu, qissalarida G‘arb adabiy an’analarini puxtalik bilan sintezilasiya qilganning guvohi bo‘lamiz. Adib ayni paytda, o‘sha G‘arb badiiy tafakkuriga xos tasvir ekzistensiyasini ustalik bilan o‘zlashtiradi hamda o‘zbek milliy (Qashqadaryo) dasht koloritini matnda isbotini beradi [2]. Mavjud qoliplarni, streotiplarni

semiotik metaforalar bilan yanada jonlantiradi:

“Dahshat! Dunyodagi hech narsadan hayratlanmay qo‘yish dahshat!

Agar sen sig‘inib, e’tiqod qo‘yib kelgan narsang bir kuni puch va soxta bo‘lib chiqsa, bu – dahshat! Unda hayotda mazmun qolmaydi. Nimaga qo‘lurma, hammasi tanazzuldan darakchi bo‘lib tuyulaveradi, hamma narsadan ko‘ngling soviydi. Eng mudhishi – hamma narsaning yasama jimjima ekanligini anglaysan, ko‘z oldingdagi jamiki mo‘jiza ko‘zboylag‘ichning makriday bo‘lib qoladi. Sen bu yolg‘on va soxta narsalardan qochib, o‘zingni tun qo‘yniga, xilvatlarga yashirasan.

Ba’zan men xayolimda boshqa bir dunyoning suvratini chizaman. Bu dunyo allanechuk sirli, mo‘jizali bo‘lib ko‘rinadi. Bu dunyodagilar oq tulpor haqidagi, hech qachon yetishib bo‘lmaydigan oppoq libosli qiz haqidagi va boshqa ertaklarga xuddi ertalab tong otishiga ishonganday ishonishadi. Bu dunyoda hech qachon zulm ham, zo‘rlik ham, yolg‘izlik ham bo‘lmaydi. Odamlari favqulodda jo‘shqin, sodda, samimiy, har bir fikrga hurmat va ehtirom bilan qarovchi kishilar bo‘ladi. Xuddi Aloviddinning sehrli chirog‘iday, mo‘jiza ular uchun odatiy voqyeaga o‘xshaydi” .

Ramzlar tilida voqyelikni uch o‘lchamli olam bilan ifodalarkan, yozuvchi o‘z qahramonidan bu dunyo va uning hoyu havaslarini ayro tasavvur ham qilolmaydi. Ruhiy bo‘shliq qahramonni jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Dahshatli manzaralar – hechdir unga. Demak, badiiylik modusi metamorfozalarni yangilash bilan ham belgilanadi. Sig‘inib kelgan qarashlar bir lahzada kunpayakun bo‘lsa, undan qo‘rqinchli narsaning o‘zi yo‘q deya nola qiladi. Sirli mo‘jiza qarshisida tizginsiz o‘ylar iskanjasida ezilarkan, qahramonning botiniy olamini chulg‘ab olgan qo‘rquvdan ham hayiqmaydi. Faqat unga taskin beruvchi habib bo‘lsa, bas! Shuning oromini ham unutgan ShAXSning psixologik holati o‘quvchini ham o‘ylashga undaydi. Asar turli metaforalar shaklida har xil voqyelik birlashmasidan iborat. U o‘zining mavjudligini isbotlashga tutinadi. Biroq jamiyat tutumlari qahramonga bir dam imkon bermaydi. Ana shu imkonsizlik qarshisida qahramon Allohga ham murojaat qiladi. Mana shu o‘rinda ruhiy tahlilning bevosita yuzaga chiqishi har bir ziyolini tashvishlantiradi. Yozuvchi o‘zini tarbiya qilarkan, tafakkur bilan oldinga qarab o‘sadi. Bu o‘sish-o‘zsharishlarga boshqalarning ham qo‘shilishini chin dildan istashlik g‘oyasi turibdi. Bu g‘oyani o‘zining ong va shuurida qayta ishlaydi. Sintezlaydi, tahlil qiladi.

Tadqiqotchi M.Boboxonov shunday ta’kidlaydi: “Inson ichki hayotini badiiy o‘zlashtirishning vositalari juda boy va rang-barang. Bular uni o‘rab turgan muhitdan olgan taassurotlari tasviri ham, qahramon ruhiyatidagi kechinmalarni lo‘nda ifodalash ham, qahramon o‘ylarining mufassal xarakteristikasi ham, personajning ichki monologlari ham, eng so‘nggida, insondagi g‘ayrishuuriylikni aniqlaydigan tush va gallyusinasiyadan tortib, ruhiyat puchmoqlarida yashirinib yotgan qorong‘u holatlarning tasviriyam bo‘lishi mumkin. “O‘tkan kunlar”dagi Otabekning tush ko‘rishi, “Ulug‘bek xazinasi”dagi padarkush Abdulatifning tushi, “Ot kishnagan oqshom” qissasidagi Ziyodulla kalning tushi, “Yozning yolg‘iz yodgori”dagi Nasibbekning qotili – Sattorning o‘z-o‘zi bilan gaplashishi holatlarini eslash kifoya” . Darhaqiqat, dunyo yozuvchilarining juda ko‘pchiligida qahramon ruhiyatiga o‘ta sinchkovlik bilan yondashish holati kuzatiladi[3]. Negaki, inson ichki olamini rassomdek tasvirlash, obrazli gavdalantirish yozuvchi ijodiy kredosining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shu maqsadda olib qaraydigan bo‘lsak, inson ruhiyati doimo o‘zining murakkab qirraliligi bilan ajralib turadi. Shu maqsadda, insoniyat yetib kelgan har qanday san’at namunasi o‘zining tarixiy ildizlari bilan chambarchas tutashadi. A.Qodiriy va Cho‘lpon an’analari keyinchalik Oybek, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev va M.M.Do‘st kabi yozuvchilarda davom etdi. Qalbining botiniy shuuri adiblarni yanada murakkab ifodalarni kashf qilishga yetakladi. Bular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. N.Eshonqul ham o‘z ijodida ayni masalaga kuchli hissiyot bilan yondoshadi. Nafaqat tasvirda balki uni to‘g‘ri tanlov qilishda ham kuzatiladi.

Prof. D.To‘rayev haqli ravishda ta’kidlaganidek: “Adabiyotshunos M.Baxtining kuzatishicha, avtor pozisiyasini aniqlashga yordam beruvchi g‘oya monologik tipdagi asarlarda uch xil funksiyani ado etadi: birinchidan, u borliqni ko‘rish-tushinishning naq o‘zi va ifodalash prinsipi, ya’ni asardagi barcha elementlarning yagona mafkuraviy ruhda bo‘lishi prinsipi, ikkinchidan, g‘oya tasvirlangan materialning biron-bir darajadagi yaqqol yoki ongli natijasi tarzida berilishi mumkin, nihoyat, pozisiyasida bevosita ifodalana oladi” . Ko‘rinadiki, N.Eshonqul – badiiyyatida monologik nutq yetakchilik qiladi. U o‘zining botinidagi ruhiy kechinmalarini o‘quvchi bilan – to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti orqali amalga oshiradi. Asarda yozuvchi yana qanday burilishlar qilmoqchi, syujet vaqtini to‘xtatib qo‘yib, lirik kechinmaga e’tibor qaratadimi, bilish qiyin. Kuchli tragik kayfiyat ham yozuvchiga o‘ta murakkab vaziyatlarni ham tuhfa qiladi. Biz “Tun panjaralari” qissasidagi yozuvchi kayfiyatini anglaganimizda ayni shu jihatlarni nazardan qochirmaymiz. Tun – Nazar Eshonqul uchun iltijo makoni! U tun kirgandagina jamiyat va odamlar bilan tillashadi. U ayriliq, topishlaru yo‘qotishlarini – tun tilsimiga, panjarasiga muhrlaydi. Ayni paytda, Allohga murojaat ham qiladi. Qorong‘ulikdan yorug‘lik axtargan adib, inson psixikasini tunning bag‘rida juda katta depressiya bilan sinovdan o‘tkazadi. Natijada, o‘quvchi beixtiyor tun bilan yolg‘iz qolgisi, unga yukingisi keladi:

“Azob tugagan joyda faoliyatsizlik boshlanadi: xudbinlik, xiyonat, loqaydlik boshlanadi. Yo‘q, bundaylarni ko‘rishga ko‘zim yo‘q. Yo ular odamlarni

hech qachon sevmagan yoki odamlar ularni sevishmagan. Odamzodga bu so‘zlardan ham ortiqroq falokat yo‘q. Bularning qalbi minglab ana shunday so‘zlar bilan qurshab olingan. Tanalariga mana shunday qo‘lansa so‘zlar uya qurgan. Ularga qarshi biron narsa deb ko‘r-chi, bu qushlar birdan och qarg‘alar kabi chog‘illab, senga tashlanishadi. Sen hech qachon bu so‘zlarning ustidan zafar qozonolmaysan: yo‘q, ko‘rishga ko‘zim yo‘q [4]. Bunday kishilar insoniyatning dushmani. Bular yuzlab, minglab qalblarning ko‘zlarini so‘qir qilib qo‘yadilar. Bu so‘zlarning ostida loqayd va befahm yashashga yashirin xitob bor”.

Mana shu parchaga e’tibor beraylik: yozuvchi juda chuqur falsafiy-psixologik tarang vaziyatni tahlil va tadqiq qilmoqda. Jamiyatdagi katta-kichik ishlarning mohiyatini bir parchada ko‘rsatib, metafora bilan bezamoqda. Odamzodning tabiatiga kirgan yovuzlik bilan ezgulikni muqoyasa qilmoqda [5]. Qaysi tomon mag‘lub? Qaysi tomon muzaffar? Ayni shu jihatlar yozuvchini chuqur o‘ylantirmoqda. Azobning tugashidan har qanday razil ishlarning boshlanishiga ishora qilinganini har qanday kitobxon og‘riqlar bilan qabul qiladi. Yozuvchi tun metamorfozasini badiiylik modusi sifatida baholab, uning inson faoliyatining ajralmas bir qismi deya ta’riflaydi.

Xulosa. Umuman, N.Eshonqul “Tun panjaralari” qissasida – yashashning mantig‘ini juda ko‘plab omillar bilan izohlaydi. O‘tmish va kelajak orasidagi parda tunning bag‘rida qoimdir. Ayni paytda, yozuvchining asl qarargohi – tun! Bu tundan ulug‘ maqsadni, Yaratganning olam va odamga bergan inja sirlarini anglash bosqichi deb hisoblaydi. Shu o‘rinda, ta’kidlash lozim, tunning ozodlikka ochilgan darichasidan boqarkan, yozuvchi o‘z ijodiy konsepsiyasini favqulodda mohirlik bilan idroklaydi. Bu idrok zamirida yozuvchi yanada asl haqiqatlarni o‘quvchiga metafora negizida tortiq qiladi. Qissadan hissa shuki, adabiyot insonning og‘riqlaridir degan xulosaga kelishi ayni haqiqatdir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Umurov H. I. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: “Fan”, 2007. – B. -7.
2.Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T., “Yangi asr avlodi”. 2006. –B.-43.
3.Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissa va hikoyalar. –T., “Sharq”. 2008. –B.170- 171.
4.Boboxonov M. O‘zbek qissalarida badiiy psixologizm. Monografiya. –T., “Bayoz”. 2014. –B.-28.
5.To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat masalasi. –T., Universitet. 2001. –B.- 42.

Shohista TOHIRJONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman - german filologiyasi fakulteti
Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: @Shohista7700

TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARIDAN BIRI: PSIXOLINGVISTIKADA TADQIQOT OLIB BORISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada psixolingvistikadagi asosiy muammolar va tadqiqot kamchiliklarini o‘rganiladi, chunki u zamonaviy lingvistik tadqiqotlar bilan kesishadi. Tilni o‘zlashtirish, tushunish va ishlab chiqarishni ta’minlaydigan psixologik va neyrobiologik jarayonlarni o‘rganuvchi psixolingvistika zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarga tatbiq etilganda o‘ziga xos muammolarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar metodologik cheklovlar, fanlararo integratsiya va rivojlanayotgan kognitiv modellarning ta’sirini o‘z ichiga oladi. Standartlashtirilgan eksperimental asoslarning yo‘qligi, tilni qayta ishlash bo‘yicha tadqiqotlardagi madaniy qarama-qarshiliklar, nazariy tilshunoslikni psixolingvistik ma’lumotlar bilan bog‘lashdagi qiyinchiliklar kabi asosiy masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, zamonaviy tilshunoslik, tadqiqot muammolari, fanlararo integratsiya, eksperimental asoslar, til tadqiqotida madaniy tarafkashlik.*

Annotation: this article explores key issues and research gaps in psycholinguistics as it intersects with contemporary linguistic research. Psycholinguistics, which studies the psychological and neurobiological processes that underlie language acquisition, comprehension, and production, faces unique challenges when applied to modern linguistics. These challenges include methodological limitations, interdisciplinary integration, and the impact of evolving cognitive models. Key issues such as the lack of standardized experimental frameworks, cultural differences in language processing research, and difficulties in connecting theoretical linguistics with psycholinguistic data are analyzed.

Key words: *psycholinguistics, modern linguistics, research problems, interdisciplinary integration, experimental foundations, cultural bias in language research.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются ключевые проблемы и пробелы в исследованиях психолингвистики, поскольку она пересекается с современными лингвистическими исследованиями. Психолингвистика, изучающая психологические и нейробиологические процессы, лежащие в основе овладения, понимания и производства языка, сталкивается с уникальными проблемами в применении к современной лингвистике. Эти проблемы включают методологические ограничения, междисциплинарную интеграцию и влияние развивающихся когнитивных моделей. Анализируются такие ключевые проблемы, как отсутствие стандартизированных экспериментальных рамок, культурные различия в исследованиях языковой обработки и трудности в соединении теоретической лингвистики с психолингвистическими данными.

Ключевые слова: *психолингвистика, современная лингвистика, проблемы исследования, междисциплинарная интеграция, экспериментальные основы, культурная предвзятость в исследованиях языка.*

Til asosidagi psixologik jarayonlarni o‘rganuvchi psixolingvistika so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq, bu sohada tadqiqot olib borish hali ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Psixolingvistika – bu psixologiya va tilshunoslikni birlashtirgan fanlararo soha bo‘lib, til miyada qanday qayta ishlanishi, uning qanday o‘zlashtirilishi va fikrga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Zamonaviy tilshunoslik rivojlanib borar ekan, psixolingvistik tadqiqotlar uning rivojlanishi va qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladigan bir qancha muammolarga duch keladi. Ushbu muammolarni tushunish sohani rivojlantirish va metodologiyani takomillashtirish uchun juda muhimdir. Psixolingvistika bo‘yicha, xususan, zamonaviy lingvistik yo‘nalishlar kontekstida tadqiqot olib borish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Psixolingvistika tabiatan psixologiya va tilshunoslik tushunchalarini birlashtirib, tadqiqotchilardan ikkala sohada ham tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi. Hisoblash tilshunosligi yoki sotsiolingvistika kabi zamonaviy lingvistik yondashuvlar integratsiyani murakkablashtiradi, chunki bu sohalar psixologik yondashuvlar bilan uzviy mos kelmasligi mumkin bo‘lgan usullar va nazariyalarni kiritadi.

Psixolingvistikadagi an’anaviy tadqiqot usullari, masalan, lezyon tadqiqotlari, cheklovlarga ega. Biroq, neyroimaging texnikasi kabi zamonaviy yutuqlar real vaqt rejimida xatti-harakatlarni tahlil qilish va miya faoliyatini tekshirish imkonini berib, tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu yutuqlarga qaramay, neyroimaging ma’lumotlarini talqin qilish miya funksiyalarining murakkabligi va o‘lchovlarning bilvosita tabiati tufayli qiyin bo‘lib qolmoqda.

Keng qamrovli psixolingvistik tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan katta hajmdagi ma'lumotlar to‘siq bo‘lishi mumkin. Masalan, psixolingvistik tadqiqotlarning bibliometrik tahlili sohaning hozirgi holatini baholash uchun zarur bo‘lgan keng qamrovli hujjatlar va resurslarni ta’kidlab, katta ma'lumotlar to‘plamini boshqarish va tahlil qilishdagi qiyinchiliklarni ko‘rsatdi.

Psixolingvistik tadqiqotlar ko‘pincha eksperimental dizaynga tayanadi, ular kognitiv jarayonlarni qo‘lga kiritish uchun aniq va ba’zan invaziv o‘lchash vositalarini talab qiladi. Zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarda bu usullar kompyuter yoki sotsiolingvistika kabi sohalarda keng tarqalgan bo‘lib, qo‘llaniladigan korpusga asoslangan yoki kuzatish usullariga zid kelishi mumkin, bu esa tegishli tadqiqot usullarini tanlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

Zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlar tobora ko‘proq til xilma-xilligi va madaniyatlararo omillarni ko‘rib chiqmoqda. Biroq, madaniy jihatdan xolis yoki tillar bo‘ylab umumlashtirilishi mumkin bo‘lgan eksperimentlarni loyihalash qiyin bo‘lib qolmoqda. Lingvistik tuzilmalar, me’yorlar va kognitiv talqinlar turli tillarda sezilarli darajada farqlanadi, bu standartlashtirilgan o‘lchovlar va eksperimental nazoratni yaratishni murakkablashtiradi.

Tilni qayta ishlashda kontseptualizatsiya bosqichi ayniqsa qiyin va o‘rganish qiyin. Psixolingvistik tadqiqotlar tilni shakllantirish va tushunishni tushunishda muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, tushunchalar qanday shakllanganligi va lingvistik ifodaga tayyorlanishining dastlabki bosqichlari asosan sirli bo‘lib qolmoqda.

Psixolingvistika, ayniqsa, zamonaviy texnologik yutuqlar bilan sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, tadqiqotchilar kognitiv jarayonlarning murakkabligi, uslubiy cheklovlar va fanlararo hamkorlik zarurati bilan bog‘liq muammolarga duch kelishda davom etmoqdalar. Ushbu muammolarni hal qilish til va ong o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishimizni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Psixolingvistika tabiatan psixologiya, tilshunoslik, nevrologiya va kognitiv fanlardan olingan tushunchalarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu fanlararo tabiat tadqiqot ishlarini murakkablashtirishi mumkin, chunki u turli metodologiyalar va nazariy asoslarga ega bo‘lgan sohalar bo‘ylab hamkorlikni talab qiladi.

Mashinani o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash modellarining yuksalishi psixolingvistikaga yangi vositalar va usullarni kiritadi. Biroq, bu yutuqlar ko‘pincha yuqori hisoblash ko‘nikmalarini va algoritmlarni tushunishni talab qiladi, bu an'anaviy lingvistik yoki psixologik treningning bir qismi bo‘lmasligi mumkin. Bu muayyan usullardan foydalanish imkoniyatini cheklashi va texnologik jihatdan ilg‘or fanlar bilan hamkorlikni murakkablashtirishi mumkin.

Psixolingvistik tadqiqotlar onlayn platformalar yoki raqamli qurilmalar orqali ma'lumotlardan tobora ko‘proq foydalanmoqda, bu esa axloqiy tashvishlarni keltirib chiqaradi. Ishtirokchilarning shaxsiy hayotini himoya qilish va roziligini olish zarurati, ayniqsa nozik

psixologik ma’lumotlar bilan ishlashda murakkablashadi va zamonaviy lingvistik tadqiqotlar ko‘pincha modellarni o‘rgatish uchun katta ma'lumotlar to‘plamini qidiradi, bu esa ma’lumotlar maxfiyligi va tadqiqot talablari o‘rtasida keskinlikni keltirib chiqaradi.

Tilshunoslikdagi ba’zi zamonaviy yondashuvlar, masalan, poststrukturalizm yoki tanqidiy nutq tahlili, universallik yoki tug‘ma til tuzilmalari haqidagi an’anaviy psixolingvistik taxminlarni shubha ostiga qo‘yadi. Bu nazariy ishqalanishga olib kelishi mumkin, chunki psixolingvistika o‘zining asosiy tamoyillariga qarshi turuvchi istiqbollarni to‘liq o‘z ichiga olmaydi, bu esa fanlararo ishni yanada qiyinlashtiradi.

Zamonaviy psixolingvistika ko‘pincha boshqariladigan, laboratoriyaga asoslangan sharoitlarda olib boriladi, bu esa haqiqiy dunyo tilidan foydalanishni to‘g‘ri aks ettirmasligi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar yoki ko‘p tilli muhitlar kabi turli kontekstlarda tabiiy tilni o‘rganish tilshunoslikning ko‘plab zamonaviy yo‘nalishlari uchun muhim, ammo psixolingvistik tajribalarda takrorlash qiyin.

Ushbu muammolarni hal qilish ko‘pincha fanlararo hamkorlikni, ilg‘or tadqiqot usullarini qo‘llashni va turli lingvistik, madaniy va texnologik omillarni hisobga olish uchun nazariy asoslarda moslashuvchanlikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminovich, T. J. . . (2024). MODERN DIRECTIONS AND CURRENT PROBLEMS OF LINGUISTICS. International Journal of Formal Education, 3(3),25–27. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2274.
2. cyberleninka.ru/article/n/tilshunoslik-zamonaviy-yonalishlar-hamda-ular-xususida-tahlil-va-muammolar.
3. Kholod, A. (2019). The Problems of Psycholinguistic Research Methodology and Quantum Approach. PSYCHOLINGUISTICS, 25(2), 338-370. https://doi.org/10.31470/2309-1797-2019-25-2-338-370
4. Tadjibaeva, Adila. (2023). Challenges in psycholinguistic research of the Uzbek language: a comprehensive review. Общество и инновации. 4. 280-289. 10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp280-289.
5. Tsynk S.V., Kuzmina M.K. ABOUT THE ORIGINS AND PROBLEMS OF MODERN PSYCHOLINGUISTICS // МНИЖ. 2021. №9-3 (111). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/about-the-origins-and-problems-of-modern-psycholinguistics

Gulbahor KULDASHEVA,
Alfraganus universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

ZO‘RAVONLIKDAN JABRLANGAN AYOLLAR UCHUN MUHOFAZA VA YORDAM XIZMATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada ayol kishining oilada muntazam zo‘ravonlikka duch kelishi, uning hayotini xavf ostida qoldirilishi va buning oqibatida kelib chiqadigan asoratlar haqida fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish usullari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, ayol, zo‘ravonlik, tazyiq, xo‘rlanish, ta’sir, oqibat, ruhiyat, asab, ajralish, fojea.*

Аннотация: в статье размышляется о том, что женщина регулярно сталкивается с насилием в семье, подвергающим ее жизнь опасности, и возникающими в результате осложнениями. При этом раскрыты методы защиты и помощи женщинам, ставшим жертвами насилия.

Ключевые слова: *семья, женщина, насилие, давление, унижение, воздействие, последствие, психика, нерв, развод, трагедия.*

Annotation: the article deals with issues where women are regularly subjected to domestic violence, the threat to her life and the results of their consequences. Also, ways to protect and help women suffering from violence are identified.

Key words: *family, woman, violence, pressure, humiliation, influence, consequences, psyche, nerves, divorce, tragedy.*

Ayollarga ehtirom ko‘rsatish – bu insoniylik va madaniyat belgisi hisoblanadi. Qadimdan ayollarga e’tibor bildirish, ularning huquqlari, qadr-qimmatini tan olish, ularning mehnati va salohiyatiga hurmat ko‘rsatish muhim sanalgan. Bunday ehtirom ko‘rsatish nafaqat ayollarga, balki jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Ayollarni qadrlash, hurmat qilish, ularni e’zozlash milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda ana shu azaliy qadriyatlarni tushunmaydigan, hayotimizning mazmuni bo‘lgan nozik xilqat vakillariga

zo‘ravonlik, tazyiq o‘tkazib, haq-huquqlarini oyoqosti qiladiganlar uchramoqda.

Yurtimizda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko‘p yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir. Bunday choralar, xususan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tomonidan uzoq vaqt davomida tavsiya qilib kelingan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorni qabul qildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston aholisi 1-yanvar 2024-yil holatiga ko‘ra, 36,8 mln kishini tashkil etdi. O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 36 799 800 kishini tashkil etdi. Statistika agentligi 2023-yilgi demografik ko‘rsatkichlarning e’lon qilinishiga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda doimiy aholi soni 36 799 800 kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 18 525 000 kishini, ayollar soni 18 274 800 kishini, shahar aholisi soni 18 768 500 kishini, qishloq aholisi soni 18 031 300 kishini tashkil etdi. Bu haqda prezident huzuridagi Statistika agentligi xabar qildi. O‘tkazilgan tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, Toshkent shahrida 11 ta tuman bo‘lsa, ushbu tumanlarda yashovchi ayollarimizning soni 1,35 milliontani tashkil etadi. Oilalar soni esa 2,8 million atrofida. Viloyatdan kelib yashayotganlarni statistika qilib beradigan bo‘lsak, Toshkent shahrining aholisi 3 mlndan oshadi. Ularning deyarli teng yarmi ayollarni tashkil etyapti.

Bunday fojeali holatlarni hamda oilada xotin-qizlarimizni zo‘ravonlikdan jabr ko‘rmasliklari uchun birinchi navbatda, qizlarimizning ta’lim olishiga e’tibor qaratish kerak. Xalqimizda “qiz bola birovning xasmi” degan gap bor. Uni faqat ovqat pishirish, tikish-bichish va mehmon kutishga o‘rgatishdan tashqari hayotga tayyorlash, kelajakda his-tuyg‘ularini boshqara oladigan, o‘ziga ishonadigan va mustahkam oyoqda turadigan bo‘lmog‘i lozim. Qo‘lida hunari bor ayol erta hayotida biror noxushlik ro‘y berganida ham o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi. Hatto 2-3 nafar farzandi bo‘lsa ham, o‘z yo‘lini topa oladi.

O‘zbekistonda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari uchun statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish bo‘yicha elektron jurnal ishlab chiqilgan. Pandemiya sharoitida dunyo bo‘ylab xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ko‘paygani qayd etilgan. Bunday vaziyatda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarni reabilitatsiya qilish institutlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2020-yilning avgust oyidan boshlab shelterlarning har bir mintaqaviy bo‘limi zo‘ravonlik qurbonlarining murojaatlaridan kelib chiqib to‘ldiriladi. Har oy oxirida markazlar yangilangan ma’lumotlarni respublika reabilitatsiya markaziga yuboradi. Shu tariqa, gender masalalari bo‘yicha aniq ma’lumotlar to‘planadi.

Hozirgacha musulmon ayoliga nisbatan uning turmush o‘rtog‘i yoki ish joyida rahbar tomonidan, shuningdek, boshqa joylarda amalga oshiriladigan harakatlar, shunchaki “tabiiy holat”dek qabul qilib kelingan. Bu narsaga hech kim zo‘ravonlik sifatida qaramagan. Qolaversa, ayollarning o‘zlarida ham ushbu holatlarga nisbatan ko‘nikish hosil qilinganligi ma’lum bo‘ldi.. Deylik, turmush o‘rtog‘i unga qo‘l ko‘tardimi, qaynona kelinga xizmatkordek munosabatda bo‘ldimi, demak bu shunday bo‘lishi kerak. Axir u oila boshlig‘i bo‘lganligi sababli bunday qilishga haqli. Ya’ni ayol itoatkor mavjudot sifatida bu narsalarning barchasini hazm qilaverganligi aniqlanildi.

Bu borada hatto O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatiga tashrifi davomida Qiziltepa tumanining “Malikobod” mahallasida nuroniy onaxonlar bilan suhbatlashdi va suhbat davomida bo‘lajak qaynonalarga va shunday maqomga ega ayollarga maslahat berdi. “Agar biz ayollarning mavqeini yaxshilasak, jamiyatdagi ahvol o‘zgaradi. Kelin kim? Kelin — bizning qizimiz. Biz mana shu qizimiz uchun yaxshi sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Qaynonalar kelinni qizim, deb atashlarini xohlayman. Axir ularning ham qizlari bir kun kelin bo‘ladi. Sizlar nima uchun aksariyat hollarda yosh ayollar kerakli shart-sharoitlarni topa olmaydilar, deya savol berishingiz mumkin: chunki qaynonasidan yaxshi gap eshitmaydi, eri yomon muomala qiladi. Natijada er-xotin ajrashadi, qaynona esa oradan olti oy o‘tib uyga yangi kelin olib keladi. Bu

bizlar uchun uyat bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham men bu mavzuni ko‘tardim, balki endi odamlarga tushunarli bo‘lar”, – degan prezident.

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash joizki, barcha rivojlangan davlatlarda har bir oilaning o‘z psixologi, huquqshunosi bo‘ladi, ammo bizda bu ish yo‘lga qo‘yilmagan. Agar oilaviy poliklinika hamda mahallalar qoshida xotin-qizlarga bepul psixologik va huquqiy maslahatlar berish xizmati yo‘lga qo‘yilganda, oilada sodir bo‘layotgan bir qancha muammolarni, jumladan, zo‘ravonliklarning oldini olishga sabab bo‘lar edi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda psixologik markazlar hamda maxsus saytlar va telegram kanallari mavjud, lekin bepul xizmat ko‘rsatish ishlari hali yetarli darajada yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кулдашева Г.Д.Ўзбекистонда оилада зўравонликдан жабр кўрган хотин-қизларга хизмат кўрсатиш фаолиятининг ташкил этилганлик ҳолати. “Замонавий ижтимоий психология: анъаналар ва истиқболлар” II -халқаро илмий-амалий анжумани. Жиззах, 30 -октябрь 2024- йил, б. 268.
2. Дадеко, А. Ищите помощи: [О домашнем насилии в отношении женщин и методах борьбы с ним] / А. Дадеко // Крестьянка. 2004.- №3. С.148-149.
3. Пулатова, Ш.А. Зўравонликдан жабрланганлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва зўравонликнинг олдини олиш. Услубий қўлланма – Тошкент: Бактриа пресс, 2020. 56.
4. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021- yildagi SQ-297-IV-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23- avgustda ma’qullangan.
6. https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/27/demographics/.

Gulnoza TULYAGANOVA,
“Alfraganus”universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

SHAXSNING INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya: maqola shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning rivojlanish tarixiga bag‘ishlanadi. Unda asosiy e’tibor shaxs o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tushunchasining yuzaga kelish tarixi, rivojlanish bosqichlari xususida atroflicha ma’lumotlar tahlil qilingan. Ayniqsa, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning shaxs irodaviy sohasi, o‘zini o‘zi anglash tizimi, o‘zini o‘zi hurmat qilish, o‘zining shaxsiy va subyektiv xususiyatlari bilan aloqadorligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *shaxs, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, iroda, irodaviy akt, o‘zini o‘zi hurmat qilish, o‘zini o‘zi anglash, shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlar.*

Аннотация: статуа посвуашена истории развитиуа реализасии человеком своего индивидуального потенсиала. Основное внимание уделуаетсуа истории возникновениуа конsепsии самореализасии личности, анализу подробной информасии об етапах развитиц. В частности, раскріваетсуа свуаз реализасии своего потенsиала с волевой сферой личности, системой самосознаниуа, самоосенки, его личностними и субектівними характеристиками.

Ключевые слова: *личность, самореализасиуа, волуа, произвольний акт, самоосенка, самосознание, личностние характеристики, потребности.*

Annotation: the article is devoted to the history of the development of the individual to realize his potential. It focuses on the history of the emergence of the concept of self-realization of the individual, the analysis of detailed information about the stages of development. In particular, the connection of the realization of one's potential with the volitional sphere of the individual, the system of self-awareness, self-esteem, his personal and subjective characteristics is revealed.

Keywords: *personality, self-realization, will, voluntary act, self-esteem, self-awareness, personal characteristics, needs.*

O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish muammosi tadqiqot obyekti sifatida XIX-XX asrlarda paydo bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, o‘z individual imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishning o‘rganilishi murakkab bo‘lgan psixologik muammo

sifatida talqin qilindi. Dastlab mazkur tushuncha avstraliyalik psixiatr va psixolog A.Adler tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u ilmiy tadqiqot predmeti doirasigacha ko‘tarilgan. Shunday bo‘lsa-da, dastlabki bu boradagi ma’lumotlar I.Kant, A.Shopengauer, D.Nisshe va boshqa faylasuf olimlarning izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin .

1. Psixologik xususiyatlar: Bu guruhga shu kabilar kiradi: Temperament, kompaniyaga moslashuvchanlik, hissiyotlar va kechinmalar. Ular shaxsiyatning asosiy qirralarini tashkil etadi.

2. Jismoniy harakatlar: Bunga insonning jismoniy ko‘rinishi, kuchi, sabr-toqati va sog‘ligi kiradi. Jismoniy holat insonning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

3. Intellektual xususiyatlar: Ular qobiliyatlar orqali ifodalanadi, masalan, ayrim insonlar matematikada, boshqalar esa san’atda iqtidorli bo‘lishi mumkin. Intellektual rivojlanish har bir shaxsning kelajagini belgilaydi.

4. Ijtimoiy xususiyatlar: Insonlarni bir-biridan ajratadigan ijtimoiy rol va vazifalar, o‘zaro munosabatlarni belgilovchi xususiyatlardir. Bu xususiyatlar shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi.

I.Kant o‘z tadqiqotlarida inson bir vaqtning o‘zida barcha bo‘layotgan hodisalardan ozod va qaram ekanligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Biz dunyoni hayotimiz boshida beriladigan chizmalar asosida o‘rganamiz – inson ozod, lekin biz “ichimizdagi holatlarning xususiyatini” emas, faqatgina ongimiz uchun tushunarli bo‘lgan holatlarni anglashimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, inson mavjudligining asosiy fenomenlaridan biri bu o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdir. Uning mavjudligini iroda kuchi ta’minlab turadi. Iroda kuchining tashuvchisi inson hisoblanadi. U funksiyalashishi mobaynida boshqa mavjudotlarning erkinligini o‘ziga bo‘ysundirishga, chegaralashga yoki yo‘q qilishga urinadi. Agar biz irodani yaxlit fenomen sifatida qabul qilsak, iroda oxir-oqibatda o‘zini yo‘q qilishga intiladi. “Biz insonlarning o‘y-holatlari va orzu-istaklariga e’tibor beradigan bo‘lsak, har joyda “Men” ga duch kelamiz…. U orqali barcha narsalar sodir bo‘ladi…. Ba’zi hollarda “Dunyoda haqiqiy yaxshi fazilat mavjudligidan shubhalanib qolamiz” .

Ta’kidlashimiz mumkinki, inson uchun birinchi o‘rinda yashashga bo‘lgan xohish turadi – hayotga bo‘lgan iroda bo‘lsa, u o‘z “ Men” ini saqlab qolish maqsadida butun dunyoni yo‘q qilib yuborishga tayyor turadi. Inson tabiatdan o‘zini o‘ylashga moyil – egoist va “iroda bir qator individlar orasida o‘z tanasining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydi. Egoizm sababli u xuddi shu irodani inkor etadi” .

Inson o‘zi bilan kurashishi va o‘zini yengish orqali boshqalarni emas, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida kelajakka ta’sir qiladi. Ularga insonning subyektiv va shaxsiy xususiyatlari kiradi hamda ular shaxs bo‘lib, rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

XX asrlarda o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish fenomeni falsafa fanidan psixologiya sohasiga o‘tib ketadi. Bu birinchi marta A.Adlerning nazariyasida o‘z ifodasini topgan. Uning asosiy g‘oyalaridan biri jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lgan inson o‘zida noto‘liqlik hissini shakllantiradi va bu hisni ustunlikka intilishi, shaxsiy xususiyatlarini kuchaytirish orqali bartaraf etishga harakat qiladi. Bunday intilishi tug‘ma bo‘ladi, lekin o‘z shaxsiy imkoniyatini amalga oshirish uchun uni tarbiyalab, rivojlanishining noaniq va mavhum bosqichida, ya’ni bolalik davridan hayotiy maqsad vaqt o‘tishi bilan uni tashkillashtiradigan va unga ma’no beradigan motivasiyaning manbaiga – kuchga aylanadi. Bu hammaga xos bo‘ladigan fundamental motiv hisoblanadi. Ustunlikka intilishning o‘zi, maqsad sifatida pozitiv konstruktiv shu bilan birga, negativ destruktiv yo‘nalishiga ega bo‘lishi mumkin. Negativ yo‘nalish boshqalarning hisobiga ustunlikka erishadiganlarga qarshi kurashadigan insonlarga adaptatsiya jarayoni yomon kechadigan sust xarakterli insonlarda bo‘ladi. Moslashish jarayoni yaxshi kechadigan insonlar aksincha, intilishlarini boshqa insonlarni farovonliklarga chorlovchi ijobiy munosabatlarga qaratadi. Yuqoriga intilish juda katta energiya sarflashini talab qiladi, lekin natijada bu intilishning amalga oshirishi oqibatida insonning bosimi pasayishidan ko‘ra ortib ketadi. Yuqoriroqqa intilishi alohida individ hisoblangan insonlarga balki jamiyatning a’zosi bo‘lgan shaxsga ham tegishlidir. A.Adler o‘zining “Nevrotik xarakter haqida”gi kitobida u sog‘lom va normal insonda ustunlikka intilish va o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoni haqida ta’kidlaydi. Shu tarzda nevrotik o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida o‘zining “Men” iga asosiy e’tiborini qaratadi. Normal inson birinchi o‘ringa tashqi qiyinchiliklarni bartaraf etishni qo‘yadi, real muammolarni, hayotiy vazifalarda oxir-oqibat o‘zini o‘zi rivojlantirishga olib keladi. Psixologiya fanining keyingi rivojlanishida o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonining tahlili yanada ommalashdi. Aynan bu davrda Kurt Levinning izlanishlarini ta’kidlab o‘tish lozim. Mazkur davrda shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish fenomeni ko‘plab tayziqlarga uchraydi. Kurt Levinning “Fazoviy zarurat maydoni” nazariyasi shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xosdir. Maydon deb u shaxs mavjud bo‘lgan tashqi psixologik muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat “fazoviy maydonni” vujudga keltiradi. Uning chegarasidan chiqish bosimni vujudga keltiradi.

Shaxsning individual xususiyatlari bir necha omillarga bog‘liq:

- Genetika: Ota-onalardan meros qilib olingan genetik xususiyatlar shaxsiyatni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

- Muhit: Insonning tarbiyalangan muhiti, oilaviy an’analar va ijtimoiy sharoitlar shaxsning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

- Tajribalar: Hayotiy tajribalar va hodisalar shaxsiyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday tajribalar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin.

Ma'lumki, inson xulq-atvorining asosiy qo'zg'atuvchilari uning ehtiyojlari hisoblanadi. U ehtiyojlarni ikkita turga ajratadi: kvazi ehtiyojlari (ularning har birini qondirishi mumkin) va haqiqiy (kasbiy ehtiyoj, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoj va boshqalar). Analogik tarzda maqsadlar ham ikkita turga ajratilgan "real" va "ideal". K.Levin ta'kidlaganidek, muammoli vaziyatda insonda bir necha turli xil maqsadlar paydo bo'ladi va uning asosiy vazifasi ulardan birini tanlashdan iborat. Mazkur tanlovga "shaxsning imkoniyatlar darajasi" kiradi, u vazminli madaniy, individual va boshqa omillar oqibatida o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, K.Levin va uning shogirdlari yuqorida ko'rsatilgan fenomenlar yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. Aynan shunday tarzda o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning asosiy qarama-qarshiliklari shakllangan: "Qarama-qarshiliklarning asosiy darajasi, tendensiyalar o'rtasidagi nomutanosiblik oqibatida yuksak maqsadlarni o'rnatish bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, hayot ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etishni boshqaradi, degan tasavvurlarni o'z ichiga oladi"

Shaxs o'ziga yanada balandroq, qiyinroq maqsadlarni qo'yishi orqali ularning amalga oshishidan katta maqsadlarda qoniqish va kichik maqsadlarni qo'lga kiritadi. Maqsadlarning muvaffaqiyatli bo'lishi bilan bir qatorda inson o'ziga adekvat maqsadlarni qo'yadi. Boshqa insonlar bo'lsa, o'z individual imkoniyatlaridan past bo'lgan maqsadlarni qo'yadi.

Keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki, shaxs o'z individual imkoniyatlarining shakllanishi tarixi falsafa fani doirasida tahlil qilingan. Keyinchalik psixologiya fani doirasidagi tadqiqotlar salmog'ining ortishi shaxs individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish masalasiga nisbatan o'ziga xos yondashuvni ilgari surishiga olib keldi.

Shaxsning individual xususiyatlari uning ijtimoiy hayotidagi o'rni va faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ular rivojlantirilishi va mustahkamlanishi kerak. Buning uchun shaxsning o'zini anglashi, o'z o'zini tarbiyalashi va shaxsiy rivojlanishga intilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Петровскаya Л. «Самоутверждение: пути истинние и ложние: беседа психолога» – М.: «Знание», 1987 г. 64 с.
2. «Практикум по психодиагностике» Под ред. А.А. Бодалева, И.М. Карлинскаya «Московский университет», 1998г. стр.123-130.
3. «Психологиуа» / словар Под обsh. ред. А.В. Петровского, М.Г. YАрошевского. – М.: «политиздат», 1990г.
4. Д. Рейнустер «Ето в ваших силах» – М.: «Прогресс», 1992г. 244 стр.
5. Солсо Р.Л. «Когнитивнаya психологиуа» – М.: «Тривола», 1996г. 600 с.
6. Е.Г.Соколова «Проективние методі исследованиуа личности» – М.:«Московский университет», 1980г. 176 с.

Abdulhaq ABDULHAYEV,
Alfraganus Universiteti
"Pedagogika va psixologiya" o'qituvchisi

O'SMIRLAR VA OTA-ONA O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Annotatsiya: o'smirlik davri – inson hayotida eng murakkab bosqichlardan biri. Bu davrda jismoniy, ruhiy va psixologik o'zgarishlar kuchayadi, shaxsiylik shakllanadi, mustaqillik istagi kuchayadi. O'smirlar o'zlarini kattalar kabi his qiladilar, lekin ular hali ham ko'plab qarorlar qabul qilishda tajriba va mas'uliyat yetishmasligini his etadilar. Bularning barchasi ota-onalar bilan aloqada qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu maqolada o'smirlar va ota-onalar o'rtasidagi muammolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar va ularni yengish yo'llari haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: *o'smirlik, muloqot, "sen-xabar" uslubi, "men-xabar" uslubi, inqiroz.*

Annotation: adolescence is one of the most challenging stages in a person's life. During this period, physical, mental, and psychological changes intensify, individuality forms, and the desire for independence grows. Adolescents begin to feel like adults, yet they often lack the experience and responsibility needed to make many decisions. These factors can lead to difficulties in relationships with parents. This article discusses the main factors causing issues between adolescents and parents, as well as ways to overcome them.

Key words: *adolescence, communication, "you-know" style, "I-know" style, crisis.*

Аннотация: подростковый возраст — один из самых сложных этапов в жизни человека. В этот период усиливаются физические, психические и психологические изменения, формируется индивидуальность, усиливается стремление к независимости. Подростки начинают ощущать себя взрослыми, но при этом часто испытывают недостаток опыта и ответственности при принятии множества решений. Все эти факторы могут вызвать трудности в отношениях с родителями. В данной статье рассматриваются основные факторы, вызывающие проблемы между подростками и родителями, а также пути их решения

Ключевые слова:*подростковый возраст, общение, стиль «знаешь», стиль «я знаю», кризис.*

“Bola bilan muloqot qilish san’atidan-da murakkab san’at yo‘qdir”, deb yozgandi mashhur polshalik pediatr va pedagog Yanush Korchak. Bolalar bilan ota-onaning, umuman, kattalarning muloqoti va munosabati, ayniqsa, bolalar o‘smirlik yoshiga yetganda o‘ta murakkablashadi, muloqotning nozik qirralari ko‘payadi. Pedagoglar va psixologlar, sotsiologlar va fiziologlar, psixiatrlar va huquqshunoslar – barcha bir ovozdan o‘smirlik davri inson hayotidagi murakkab va inqirozli davr ekanini tan oladilar.

O‘smirlar o‘zlarini kattalar qatoriga qo‘yishni istaydilar va shu sababli mustaqil qarorlar qabul qilishga moyildirlar. Biroq, ota-onalar ko‘pincha bolalarining xavfsizligi va farovonligi uchun ularning hayotiga ko‘proq aralashadi, natijada o‘smir va ota-ona o‘rtasida tushunmovchilik kelib chiqadi. O‘smirlar ota-onalarining ularni nazorat qilishi yoki ularning shaxsiy hayotiga aralashishini “erkinlikni cheklash” sifatida qabul qilishlari mumkin.

O‘smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo‘yadigan sabablar juda ko‘p (bolalarning jinsiy yetilishi, ularda kattalik hissining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi va h.). Bunday sabablarning tahliliga bag‘ishlab qator maqolalar, risolalar yozish mumkin. Biroq farzandining “tilini topa olmayotgan”, u bilan psixologik aloqa o‘rnatishga qiynalayotgan har bir ota-onani farzandidagi o‘zgarishlarning sabablaridan ko‘ra shunday vaziyatlarda qanday yo‘l tutish kerakligi, nima qilish mumkinligi ko‘proq qiziqtiradi. Shu tufayli ushbu maqolada asosiy urg‘u o‘smir yoshdagi bolalar va ota-onalarning o‘rtasidagi psixologik aloqani, muloqotni yaxshilash uchun nimalar qilish maqsadga muvofiqligiga qaratildi. Maqolada farzand tarbiyasida qo‘l keladigan tayyor “retseptlar” yo‘q, unda barcha vaziyatlarga birdek mos keluvchi tavsiyalar ham uchramaydi. Maqoladan ota-onalarga farzandi bilan qanday muloqot qilishni o‘rgatish niyati ham ko‘zlanmaydi. Zero, har bir oilada bu borada o‘ziga xos tajriba, an’ana va qoidalar borligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Maqoladan ko‘zlangan bosh maqsad – mutaxassislarning amaliy tavsiyalarini (ko‘rsatmalarini emas, aynan tavsiyalarini) o‘quvchiga yetkazish, uni jonli mushohada va mulohazaga undashdir.

Avvalo, shunga e’tibor qaratish kerakki, o‘smirlik yoshida ona-onaning bola ko‘z o‘ngidagi mavqeyi bir muncha pasayadi. Maktabgacha yosh davrida, kichik maktab yoshida ota-onasini eng kuchli, aqlli va chiroyli, deb hisoblaydigan bolalar o‘smirlik yoshiga yetib, aslida ularning ota-onalarida ham talay kamchiliklar borligini payqay boshlashadi. Umuman, bu davrda tengdoshlar mavqeyi oshib, kattalarga nisbatan tanqidchan munosabat kuchayadi.

O‘smir bola hamda ota-ona o‘rtasidagi nizo va tushunmovchilikdan butunlay holi bo‘lgan biror oilani topib bo‘lmaydi. Ammo tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, juda jiddiy nizolar 15-20% oilalardagina ro‘y beradi. O‘rtadagi nizolarga qaramay ko‘pchilik o‘smirlarda ota-onaga ishonch, hurmat yuqori darajada saqlanib qoladi, o‘smir ota-onaning maqtovlarini hamda e’tiroflarini juda yuqori darajada qadrlaydi. Mana shunday qadrni, hurmatni, munosabatlardagi iliqlikni saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun psixolog mutaxassislarning ota-ona hamda farzand o‘rtasidagi psixologik aloqani yaxshilash maqsadiga xizmat qiluvchi ushbu tavsiyalariga quloq tutish ayni muddao bo‘lardi:

1.Ota-ona farzandining xulq-atvori yuzasidan o‘zining munosabatini bildirmoqchi bo‘lganda, “Sen-xabar” uslubidan emas, “Men-xabar” uslubidan foydalangani ma’qul. Bu degani “Sen kecha aytganimni qilib qo‘ymapsan”, “Sen nega doim odamni javratasan”, “Sen qayerdan topding bu qiliqni” kabi mulohazalar o‘rniga “Men kecha aytganimni qilib qo‘ymaganingdan biroz ranjidim”, “Men hech tushunmayman nega odamni javrataverasan”, “Men bilmadim, bu qiliqni qayerdan topding” kabi mulohazalarni ishlatish kerak. Zero bu bolaga bo‘lgan hurmat va ishonchni namoyon etadi, o‘rtadagi qarama-qarshilikni anchagina susaytiradi.

2.Ota-ona bolaning biror fikrini ma’qullamoqchi bo‘lganda, shunchaki “ha” yoki “mayli” deb aytishdan ko‘ra quyidagi turdagi mulohazalardan foydalangani ma’qul: “Agar sen shunday qilishni xohlayotgan bo‘lsang...”, “Mayli, sen aytganday bo‘lsin”, “ Sening bunday qilishinga men qarshi emasman”, “ Buni men emas, sen hal etasan-ku”. Zotan, bu ota-ona bolaga mustaqil shaxs sifatida ishonayotganini, uning shaxsiy mustaqilligini tan olayotganini ko‘rsatadi.

3.Ota-ona farzandiga nimanidir ta’qiqlamoqchi bo‘lganda, quyidagi mulohazalarni berilgan ketma-ketlikda bildiradigan bo‘lsa, bola ta’qiqni unchalik og‘ir qabul qilmaydi:

a)ota-ona bolada muayyan istak paydo bo‘lgani o‘rinli ekanini tan oladi – “Biz bugun kinoga borging kelayotganini yaxshi tushunayapmiz”;

b)ota-ona bolaning biror harakati bo‘yicha ta’qiqni aniq belgilaydi – “Lekin biz senga ruxsat bera olmaymiz, chunki ertaga maktabga tayyorlab borishing kerak bo‘lgan darslaring ko‘p”;

v)ota-ona bolaga o‘z istagini boshqa holatda amalga oshirish imkoniyati bo‘lishi to‘g‘risida aytadi – “Shanba kuni esa bo‘sh vaqting ko‘proq bo‘ladi, ehtimol shu kuni borish to‘g‘ri bo‘lar”;

g)ota-ona bolaga oilada hukm suruvchi tartib-qoidalardan norozilik bildirishi uchun yordam berib yuboradi – “Shubhasiz, sen bunday ta’qiqlar bo‘lmasligini xohlarding”, “Albatta, hozir ruxsat bermayotganimiz senga yoqmayapti”, “Balki, biz umuman noto‘g‘ri qilyapmiz, deb hisoblayotgan bo‘lsang ajab emas”.

Eng muhimi, aytilayotgan ta’qiqlar bola sha’nini kamsitmaydigan shaklda bildirilishi kerak: “Ish kunlari kinoga borilmaydi” degandan ko‘ra, “O‘zing yaxshi bilasan, ish kunlari kinoga borib, boshqa muhim ishlar qolib ketishi mumkin”, deb aytgan ma’qul.

4.Ota-ona bola ulg‘ayib borgan sayin oilaviy muhokamada uning ovozi ham asta-sekin ko‘p narsalarni hal etadigan darajaga yetishi uchun sharoit yaratishi kerak. Turli muammolarni muhokama qilishda, bahslarda ota-ona o‘zining nohaqligini tan olishdan qo‘rqmasligi lozim. Bordi-yu o‘rtada nizo vujudga kelsa, ota-ona birinchi bo‘lib, yarashish tomon qadam tashlashi maqsadga muvofiq. Bunda ota-ona o‘z fikrlarini “Kechirasan, men seni yaxshi tushunmadim, shekilli. Biroz qizishib, ayrim keraksiz narsalarni ham aytib yuborganga o‘xshayman. Hozir men biroz shoshganimni bilayapman. Seni tushunishni juda-juda xohlayman. Qani kel bir boshidan katta odamlardek gaplashib olamiz” degan so‘zlar bilan boshlagani ma’qul.

O‘smirlar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarda muammolar tabiiy holat, chunki bu davrda o‘smirlar o‘zlarini kattalarday his qilishni boshlashadi, lekin ular hali ham ota-onalarining qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj. Shu sababli, o‘zaro ishonchli, ochiq va samimiy muloqot, sabr-toqat va bir-birini tushunishga intilish orqali bu muammolarni yengish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, bola bilan muloqotda ota-onadan haqiqiy ijodkorlik, egiluvchan munosabat, tog‘dek bardosh talab qilinadi. Mana shu hislatlar tugab borayotganda, chidashga boshqa majol qolmayotganday bo‘lib tuyila boshlaganda, ota-ona o‘smir bolalar o‘z kundaliklari va insholarida ko‘pincha “baxt – bu seni kimdir tushunishi” deb yozishlarini eslasinlar. Farzand bilan aloqani, erkin va samimiy muloqotni yo‘qotish farzandning o‘zini yo‘qotish bilan barobarligini eslasinlar. Shak-shubhasiz, mana shular eslanganda, bu haqda o‘y surilganda bir zumda ancha yemirilib qolgan bordosh tog‘i yonida yana o‘nta shunday tog‘ qad rostlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Le Shan E. Kogda vash rebenok svodit vas s uma: Per. s angl. – M.:Pedagogika, 1990. – 272 s.
2.Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya: Uchebnik dlya studentov vыsshix i srednix spesialnыx uchebnыx zavedeniy/ Pod red. I.V.Dubrovinoy. 2-ye izdanie. – M.: TS «Sfera», 1998. – 528 s.
3.Populyarnaya psixologiya dlya roditeley/ Pod red. A.A.Bodaleva. – M.: Pedagogika, 1989. – 256 s.
4.Tarxova L. V zone osobogo riska. – M.: Znanie, 1997. – 192 s.

Xolida UBAYDULLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti
tayanch doktoranti

YURIDIK DISKURSNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. ushbu maqolada dunyo va o‘zbek tilshunosligida diskurs, yuridik diskurs, individual til xususiyatlarini tahlil qilish, sharhlash qobiliyati, tilshunoslik va psixologiyada matn va og‘zaki nutq bilan yanada samarali ishlash, ularning ma’nosi va kontekstini tushunish, shuningdek, muallif yoki ma’ruzachining individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradigan tadqiqotlar amalga oshirilganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *antropolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmatik yondashuv, diskurs, yuridik diskurs, tahlil va talqin nazariyasi, omonim so‘zlar, subyekt, huquqiy ong.*

Аннотация. в данной статье дискурс, юридический дискурс, умение анализировать и интерпретировать отдельные особенности языка в мировом и узбекском языкознании, более эффективно работать с текстом и устной речью в лингвистике и психологии, понимать их смысл и контекст, а также. автором или предполагается, что были проведены исследования, позволяющие учесть индивидуальные особенности говорящего.

Ключевые слова: *антрополингвистика, когнитивная лингвистика, прагматический подход, дискурс, юридический дискурс, теория анализа и интерпретации, омонимы, субъект, правосознание.*

Annotation. in this article, discourse, legal discourse, the ability to analyze and interpret individual language features in world and Uzbek linguistics, to work more effectively with text and oral speech in linguistics and psychology, to understand their meaning and context, as well as the author or it is thought that researches have been carried out that allow to take into account the individual characteristics of the speaker.

Key words: *anthropolinguistics, cognitive linguistics, pragmatic approach, discourse, legal discourse, theory of analysis and interpretation, homonyms, subject, legal consciousness.*

Jahon tilshunosligida lisoniy birliklarni har tomonlama o‘rganish,ularning antropolingvistik tahlili, tilshunoslikda kognitiv va pragmatik yondashuvlarning yuksalishiga olib keldi. Ushbu yondashuvlarni o‘rganish natijasida lingvistikada ham diskurs nazariyasi paydo bo‘ldi.1952-yilda amerikalik olim Z.Harris “Diskurs-bir vaziyatda bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan vujudga keltiriladigan og‘zaki yoki yozma gaplar yig‘indisi” deb ta’kidlagan edi.[1;16] Shunga ko`ra, nutqiy faoliyat nazariyasida ikki jihat ajralib turadi: diskursni yaratish

yoki yuzaga keltirish (o‘ylash, rejalashtirish, gapirish, yozish) va diskursni tushunish (tinglash, yozma matnni idrok etish, tahlil qilish, talqin qilish).

Diskurs deganda, tilning o‘ziga xos mental itetini,shuningdek,tegishli mafkurani ifodalash uchun maxsus ishlatilishi tushuniladi. Bu tilning ba’zi parametrlarining faollashishiga olib keladi va oxir-oqibat maxsus grammatika va maxsus leksik qoidalarni talab qiladi. Ushbu barcha til materiallarini diskurs deb ham atash mumkin. Diskursning misoli sifatida, bu holatda real lisoniy shaxsning modeli sifatida ishlaydigan badiiy asardagi har qanday personaj iboralarining yig‘indisini keltirish mumkin.

Yuridik diskursda subyektning lisoniy maqomini ifodalovchi, lingvistik vositalarni o‘rganishning dolzarbligim, odamlarning muloqotini tushunish va rivojlantirish, tilshunoslik va psixolingvistika sohasidagi ilmiy bilimlarni boyitish, shuningdek, matn va og‘zaki nutqni tahlil qilish, sharhlash samaradorligini oshirish bilan dolzarblik kasb etadi.

Tilshunoslik va psixolingvistikasida xususiy diskursning individualligini ta’minlovchi lingvistik vositalarni o‘rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar mavjud. Lingvistikada shaxs nutqining sotsiolingvistik, psixolingvistik, lisoniy, ijtimoiy mansublik va boshqa xususiyatlarini o‘rganishga; muallif matni individualligini shakllantirishga ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqotlar; psixolingvistika sohasidagi leksik va grammatik boylikni o‘rganish, jargon, sheva va boshqa vositalarni qo‘llash orqali shaxsning individual xususiyatlari va lingvistik xatti-harakatlarining individualligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga; ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik omillarning so‘zlovchining individual lingvistik xususiyatlariga ta’sirini tahlil qiluvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar; til vositalarini idrok etish, tushunish va talqin qilish xususiyatlarini bilish jarayonlarining individualligi nuqtayi nazaridan tadqiq qiluvchi kognitiv tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar amaliy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, yuridik diskurs ehtiyotkorlik bilan jiddiy izlanishni talab qiladi, chunki uning dominantasi - yuridik hujjatlar matni - jamiyatning ijtimoiy-huquqiy rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Yuridik atamalarni talqin qilish nuqtayi nazaridan yuridik diskursni o‘rganish hozirgi kunda katta ahamiyatga ega, chunki ba’zi leksik birliklarning tushunchaviy hajmi noadekvat tarzda tuzilgan. Odatda ilmiy emas, balki atamalarni oddiy (ko‘p ma’noli) tushunish va talqin qilish ustunlik qiladi, bu esa yuridik hujjatlar, qonunlar, kodekslar moddalari va boshqalarni ishlab chiqishda qabul qilinishi mumkin emas. Huquq va yurisprudensiya sohasidagi talqin muammosi, bir tomondan, ilmiy fikrlash namunalariga xos xususiyatlarni saqlab qolsa, boshqa tomondan, inson faoliyatining ushbu professional sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini oladi. Shuning uchun ham, yuridik diskursni talqin qilish metodologiyasi faqat mazkur holatni hisobga olgan holda tuzilishi mumkin. Ushbu sohadagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuridik ong va yuridik matn o‘rtasidagi chegarani belgilash juda mushkul sanaladi, chunki idrok advokatning kasbiy faoliyatidan ustunlik qiladi. Shu bois, huquq matnini to‘liq tushunish va to‘g‘ri talqin qilish uchun yuridik diskursni asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan yuridik matnni talqin qilish muammosini ko‘rib chiqish lozimdir.

Matn, birinchi navbatda, yuzaki va chuqur, mualliflik va o‘quvchi ma’nolarining ko‘pligini anglatadi. Ma’no va mazmunlar ko‘pligi talqin qiluvchi funksiyaning harakati, matn to‘qilgan elementlarning ko‘p ma’noligi tufayli yuzaga keladi. Yuridik matn ham bu ma’nodan istisno emas, chunki unga semantikaning polisemiyasi va omonimiyasi xosdir, bu qonun matnini aniq va to‘g‘ri talqin qilishning imkonsizligini keltirib chiqaradi va o‘z navbatida, oddiy til tashuvchisi tomonidan yuridik matnni tushunishda qiyinchiliklarga olib keladi. Masalan, oddiy fuqaro yuridik shaxs, operatsion boshqaruv, xo‘jalik yurituvchi va boshqa shu kabi yuridik atamalarni tushunishda qiynaladi va faqat atamani to‘g‘ri talqin qilish yoki izohlash, uni tushunishga yordam beradi. Tadqiqotimizda yuridik diskursni talqin qilish nafaqat voqelikni professional tushunish tartibi, balki yuridik hujjatlarni (shartnomalar, hujjatlar, qonunlar va boshqalar) amaliy talqin qilish texnikalar majmui sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Talqin faoliyati-bu yuridik diskursda muloqotning ma’nosini tushunishdir, bundan tashqari, u yuridik til va diskursni tizimli tahlil qilishga ko‘maklashadi.

Yuridik matnlarni tahlil qilishning o‘ziga xos tartib-taomillari, shuningdek, ularni yaratish tarixi va shartlarini rekonstruksiya qilish, yuridik diskursni talqin qilishning muhim jihatini tashkil etadi. Bunda huquq matnlarining talqini psixologik, tarixiy va filologik talqin sifatida tushuniladi. Aynan shu bois, talqin jarayoni asosan yuridik diskursning leksik va semantik xususiyatlarini va uni talqin qilishning professional usullarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu borada gap yuridik diskursda mavjud bo‘lgan subyektlarni tushunish va o‘zaro tushunish haqida ketadi. Shu munosabat bilan, bu holda grammatik, uslubiy va tipologik talqinlar shaklida mavjud bo‘lgan lingvistik tushunish, asosiy kategoriya hisoblanadi. Ushbu turdagi talqinlar yuridik matnda mavjud bo‘lgan alohida til voqeliklarining sintaktik qoidalari va leksik ma’nolarini bilish mahoratini yuzaga chiqaradi. Yuridik matnni talqin qilishning umumiy nazariyasini yaratish tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, amaliy vazifalar va faoliyatning huquqiy talqin faoliyati sifatidagi tabiati haqidagi nazariy tasavvurlar bilan bog‘liq. Gumanitar fanlar bunday faktni anglash, ayni holda yuridik

matnni nafaqat voqelikni professional anglash tartibi, balki subyektning olam haqidagi bilimlari shakli sifatida talqin qilishni tushunishga yaqin borgan. Yana bir jihat ko‘proq metodologik xususiyatga ega, chunki u mavhum-nazariy shaklda til ishtirokida olam va uning alohida qismlari manzarasining ba’zi modelli – strukturaviy tasavvurini yaratishga imkon beradi. Ushbu jihat subyektning huquqiy qoidalarini tushunish, tashqi tomondan kelib chiqadigan huquqshunoslik bilimlarini tahlil va sintez qilish, shu bilan birga, individual talqinlarni yaratish qobiliyatiga ta’sir qiladi va shuning uchun ularning lingvistik formulalarining xususiyatlarini ochib beradi. Aytish mumkinki, yuridik diskursni talqin qilish ilmiy va nazariy xususiyatga ega va professional huquqiy ongning, voqelikka nazariy ta’sir qilish usuli hisoblanadi. O‘zbek yuridik terminologiyasida umumiy foydalaniladigan so‘zlarning katta ulushi qayd etilgan bo‘lsa-da, ularni uning afzalligi deb hisoblash mumkin emas.

Yuridik hujjatlar matni yuridik diskursning asosiy tarkibiy qismidir. Maqolamizda u barcha yuridik matnlar majmuasi sifatida tushuniladi. Matn nafaqat axborot ta’sir etuvchi funksiyani bajaradi, balki matn muallifining ijtimoiy-pragmatik pozitsiyasini ham ochib beradi. Yuridik diskursning ishtirokchilari, bir tomondan, muallif (professional advokat) va boshqa tomondan retsipientdir. Birinchisi, huquqshunoslikning mohiyatini ifoda etadigan axborot xabarini yaratadi, ikkinchisi xabarni qabul qiladi va talqin etadi. Yuridik matn ilmiy matn bilan ham, rasmiy matn bilan ham o‘xshash xususiyatlarga ega, chunki u kognitiv va retseptiv funksiyalarni bajaradi. Bunday kommunikativ vazifaga qonunlar, shu jumladan, asosiy qonun (Konstitutsiya), shuningdek, barcha qonun osti hujjatlar kiradi. Ular bir mamlakat doirasidagi jamiyatdagi odamlarning munosabatlarini tartibga soladi. Yuridik matnlarning manbayi bu jamiyat tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu matnlarni yaratishdir. Ammo mazmuni bo‘yicha qonunlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ular shu tipologik xususiyatlariga ko‘ra matn sifatida bir xil.

Yuridik matnga xos bo‘lgan vositalar majmuasi ma’lumotni qabul qiluvchi (retsipiyent)ga, ya’ni mamlakatning har qanday katta yoshli fuqarosiga to‘liq yetkazishni ta’minlaydi. Biroq mamlakat fuqarosi har qanday qonunni tushunish (talqin qilish) uchun mutaxassisning yordamiga muhtoj. “Yuridik matn maxsus yuridik terminologik tizimni ifodalaydi. Yuridik lug‘atning kognitiv-derivativ va ijtimoiy mohiyati uning tarkibiy qismlarini ma’lum modellarga ko‘ra tasniflash mumkin bo‘lgan konseptual semantik bloklarni shakllantirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi”.[3;26]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, qonun hujjatlarida maxsus yuridik atamalar juda ko‘p emas. Ular maxsus tushunchalarni belgilash uchun va faqat huquqshunoslikda qo‘llaniladi. Qoida tariqasida, qonun chiqaruvchi tomonidan umumiy adabiy tilda tegishli tushunchaga mos so‘z bo‘lmaganida maxsus yuridik atama yaratilardi. Shakldosh so‘zlarni tashkil etuvchi differensial xususiyatlarda juda ko‘p farqlar mavjud va bu atamani aniq tushunishni qiyinlashtiradi.Yuridik terminologiya tushunchalarning noaniqligi bilan ajralib turadi, bu filologlarning qonun loyihalariga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligini keltirib chiqaradi, zero, yangi atamalar o‘zbek tilining talablari va qoidalariga muvofiq bo‘lishi kerak. Ilmiy muloqotning samaradorligi, huquqshunoslikdagi ilmiy bilimlarni turli tadqiqot va amaliyot sohalaridan adekvat talqin qilishni va ularning har birida mavjud bo‘lgan bilimlarni qayta ishlash tartibini aniq taqdim etishni talab qiladi. Yuridik matnni tushunishning talqiniy tamoyili metodologik asos bo‘lishi mumkin, degan fikr kelajakda huquqshunoslikda talqinni ilmiy yuridik nazariyaning metatili sifatida yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Степко М.Л. Речевые средства выражения инвективных смыслов в жанре комментария публицистического дискурса : на материале современного английского языка: диссертация ... кандидата филологических наук : 10.02.19 / Степко Мирослава Львовна; [Место защиты: Адыг. гос. ун-т]. – Майкоп, 2008. – 195 с. РГБ ОД, 61:08-10/396

2. Одилова Г. К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти Автореф. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2020. – Б.80

3.Буянова Л.Ю. Когнитивно-семантический и социальный потенциал языка правотворчества и правоприменения: лексикографическая прак-тика.Краснодар: КубГУ, 2003. С.24¬33.

Muxlisa SHERALIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

YOSHLAR ORASIDA SLENGLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar doirasida slenglardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar, ularning nutqda ishlatilishining sabablari, shuningdek ushbu so‘zning tavsifi va qisqacha etimologiyasi keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada sleng, jargon kabi til hodisalariga qarshi kurashish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *yoshlar slengi, kasbiy slenglar, psixologik himoya, slenglashgan til.*

Аннотация: в данной статье будут рассмотрены проблемы, связанные с употреблением сленга в молодежной среде, причины их употребления в речи, а также описание и краткая этимология этого слова. Также в данной статье рассматривается вопрос борьбы с такими языковыми явлениями, как сленг, жаргон.

Ключевые слова: *молодежный сленг, профессиональный сленг, психологическая защита, сленгизированный язык.*

Annotation: this article will consider the problems associated with the use of slang among young people, the reasons for their use in speech, as well as a description and brief etymology of this word. This article also discusses the issue of combating such linguistic phenomena as slang, jargon.

Key words: *youth slang, professional slang, psychological protection, slangized language.*

Mamlakatimizda norasmiy yoshlar uyushmalari va ularning til xususiyatlari puxta o‘rganilmaganligi ushbu mavzuning dolzarbligini aniqlab beradi. Ma’lum bir yoshda, ayniqsa o‘spirinlik paytida har birimiz bu muammoga duch kelamiz. Ammo vaqt o‘tib kattalarda adabiy og‘zaki til shakllanadi.

Yoshlar, hamda talabalarning muhitida jargonlarni qo‘llanilishi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, psixolingvistika kabi sohalarning bir qator ilmiy bilimlariga murojaat qilishga undaydi.[1]

Sleng foyda yoki faqat zarar keltirishini aniq tushunish uchun uning psixolingvistik xususiyatlarini ko‘rib chiqish kerak.

Tildan foydalanib odamlar shu tilda so‘zlashuvchilar bilan munosabatlar qurishadi, muloqot qilishadi. So‘zlashuvning o‘zaro aloqasi muloqotning ajralmas xususiyatidir. M. Roloff aloqa jarayonining psixologiyasini o‘rganib, qoniqarli va qoniqarsiz aloqa jarayonini tavsiflovchi ijtimoiy almashinuv nazariyasini ishlab chiqdi. Ijtimoiy almashinuv nazariyasiga ko‘ra, aloqa jarayonida odamlar pul almashinuvi jarayonidagi kabi o‘zaro manfaat tamoyilidan kelib chiqib bir-birlari bilan aloqa qilishga harakat qilishadi. Masalan, agar suhbat davomida ishtirokchilardan biri boshqasiga iltifot ko‘rsatsa, unda qoida tariqasida, bu vaziyatda javob iltifoti kutiladi. Bundan tashqari, muloqotda ijobiy natijaga erishish uchun ular o‘rtasidagi vaqt oralig‘i nisbatan kichik bo‘lishi kerak. Muloqot ishtirokchilaridan biri qanday ohangda, qanday so‘zlar bilan, qanday pauzalar bilan, qanday yuz ifodalari bilan gaplashishi aloqa jarayonining muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Agar suhbatdoshlardan biri uchun muvaffaqiyatli muloqotga erishish muhim bo‘lmasa, u aloqa almashinuvi umuman amalga oshirilmasligi uchun aloqadan qochish strategiyasiga murojaat qilishi mumkin.

Ijtimoiy almashinuv nazariyasiga muvofiq, foydalanilgan lug‘atning stilistik xususiyatlari ham muloqotga ma’lum darajada ta’sir qiladi. Aloqa ishtirokchisi sleng so‘zlar va iboralardan foydalanib, sherigi ham o‘z nutqida sleng so‘zlardan foydalanishini kutadi. Aks holda, aloqa ishtirokchilari ijtimoiy jihatdan teng emasligi ma’lum bo‘ladi va aloqa almashinuvi amalga oshirilmaydi. Shunday qilib, ijtimoiy almashinuv nazariyasiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq suhbat ishtirokchilarining aloqa jarayonida slenglardan tez-tez foydalanishga aloqa jarayoni uchun o‘zaro manfaatli almashinuvning o‘ziga xos xususiyati sifatida qaralishi mumkin. [4]

Shuningdek, aloqa moslashuvi nazariyasi ham yoshlar slengi va uning vazifasini tushinish va ta’riflash uchun juda foydali. Aloqa moslashuvi nazariyasini ta’riflash uchun misol keltiramiz. Masalan, Farg‘ona vodiysidan Toshkent shahriga borib, 2-3 hafta yashab kelgan odamning tilida toshkentcha aksent paydo bo‘ladi. Boshqa shaharga birinchi marta borishiga qaramay, bevosita nafaqat tilda, balki boshqa jabhalarda ham odamlar bir-biriga moslashadilar. Bitta o‘yin maydonchasida o‘ynaydigan, bitta to‘garakka qatnaydigan bolalarning o‘xshash xatti-harakatlari, katta yoshdagi odamlardagi sog‘ligidan shikoyat qilish holatining o‘xshashligi, bitta yerda ishlaydigan xodimlarning o‘xshash hobbilari buning yaqqol misoli bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Aloqa moslashuvi nazariyasi, yoshlarning nutqiy moslashuv jarayonida o‘z nutqida sleng so‘zlar va iboralardan keng foydalanish sabablarini tushunishga imkon beradi. Boshqa tomondan, aloqa moslashuvi nazariyasi nima uchun yoshlar, ayniqsa, ijtimoiy tajribasi va o‘ziga ishonchi kam bo‘lgan o‘smirlar

suhbatdoshlarning kommunikativ baholash jarayonida kamroq moslashuvchan ekanligini tushuntirishga yordam beradi. Ularning ishonchsizligi yoshlar nutqi me'yorlarini to'liq va so'zsiz qabul qilishda aks etadi. [7]

Ma'lumki, yoshlar norasmiy uyushmalar va guruhlarda yig'ilishga moyil. Ushbu kichik jamoalardagi lingvistik xatti-harakatlar sotsiolingvist L. Milroy tomonidan taklif etilgan "Guruhdagi muloqot nazariyasi" (network communication) doirasida tasvirlangan. Milroy guruh ichidagi aloqalar bo'yicha ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni o'z nazariyasining asosi qilib oldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, guruh rasmiy yoki norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar, uning a'zolarini guruh ichidagi me'yorlarga bo'ysunishga majbur qiladigan maxsus mexanizm mavjud. Guruh a'zosining sodiqlik darajasi uning guruh me'yorlari va qadriyatlariga bo'lgan munosabati bilan bevosita bog'liqdir. [3]

Ba'zi guruhlar, masalan, masonlar yoki Sitsiliya mafiyasi, xatti-harakatlar normasi sifatida o'z a'zolaridan qat'iy maxfiylikni saqlashni talab qilishdi. Maxfiylik rejimini buzganligi uchun masonlar lodjasidan chiqarib tashlangan. Sitsiliya mafiyasi sir oshkor qilingan taqdirda, ko'pincha guruh a'zosini o'ldirgan. [5]

Zamonaviy yoshlar guruhlarida muayyan xatti-harakatlar normalari ham amal qiladi. Punktlar va metallchilar guruhlari o'z a'zolaridan ma'lum bir kiyim shaklini, ma'lum bir uslubdagi soch turmagini talab qiladilar va kiyim-kechak va xulq-atvor me'yorlariga bo'ysunmaydigan yoshlar va qizlarni "o'zlaridan" deb hisoblamaydilar. Odatda guruh a'zosi tomonidan guruh normasining, shu jumladan lingvistik xulq-atvor normalarining buzilishi uning maqomining pasayishiga yoki guruhdan chiqarilishiga olib keladi. Shunday qilib, Guruhdagi muloqot nazariyasi guruh normalari mexanizmi hamda sleng so'zlar va iboralarning keng tarqalish sabablarini tushunishga yordam beradi.

Yoshlar guruhidagi lingvistik xatti-harakatlar guruhga to'liq a'zo bo'lish mezonlaridan biridir. Guruhdagi muloqotda lingvistik me'yorlarga rioya qilish yoki ularga rioya qilmaslik ekstra lingvistik me'yorlariga rioya qilish yoki buzishga o'xshaydi. U yoki bu guruh a'zolari o'zini qanchalik haqiqiy guruh a'zosi deb hisoblasa, shunchalik guruhning ichki lingvistik normalariga amal qiladi.

Masalan, Detroyt shaxrining biror bir guruhga kirmaydigan yoshlarining nutqida ma'lum bir guruh a'zolarining nutqida kuzatilmaydigan fonetik belgilar aniqlangan. [2]

Sotsiolingvistlar, shuningdek, guruh a'zolarining, xususan, guruh lideri va oddiy ishtirokchilarining alohida lingvistik xatti-harakatlari xususiyatlariga ham e'tibor qaratishgan. Lingvistik jihatdan nutqida fonetik, leksik yoki grammatik standartdan sezilarli og'ish, guruh a'zolari orasida sleng yoki jargon leksik birliklarini faol tarqatganlar guruh lideri qilib tayinlanadi.

Albatta, har qanday jamiyatda nafaqat guruh liderlari, balki ijtimoiy tadqiqotlarda autsayderlar deb ataladiganlar ham bor. Autsayderlar odatda yolg'iz bo'lib, tengqurlarining qiziqishlariga befarq hamda ularga qo'shilib ketishga harakat qilmaydilar yoki qo'shila olmaydilar. Lingvistik jihatdan esa ular tengdoshlaridan sleng so'z va iboralar va sleng sintaksisiga juda kam murojaat qilishlari bilan ajralib turadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova M.Kh. Psycholinguistic features of jargon words. Journal of innovations in pedagogy and psychology, 2020 Journal of innovations in pedagogy and psychology 2020. pp. 522-531
2. Eckert P. Linguistic Variation as Social Practice. The Linguistic Construction of Identity in Belten High. Malden, MA: Blackwell, 2000.
3. Milroy L. Language and Social Networks. Oxford: Basil Blackwell, 1980.
4. Roloff M. Interpersonal Communication. The Social Exchange Approach. Newbury Park, CA: Sage, 1981.
5. Schenirer S. La Parlata del Dire e Non Dire: origins, Symbolism and Meaning in the Language of the Sicilian Mafia. Auckland, NZ: University of Auckland, 1998.
6. Street R., Giles H. Speech accommodation theory: a social cognitive approach to language and speech behavior. In M.E. Roloff and C.R. Bereger (Eds.), Social Cognition and Communication, Newbury Park, CA: Sage, 1982: 193 226.
7. Williams A., Giles H. Intergenerational conversations. Young adults' retrospective accounts. Human Communication Research, 1996, 23: 220 – 250.
8. Бондалетов В. Д. Социальная лингвистика: Учеб. пос. - М.: Просвещение, 1987. - С.160.
9. Вишняков А.И., Киреева Н.В. // Психологические особенности сленговых отношений в этнокультурном и возрастном аспекте // Фундаментальные исследования. 2013. №6-1.-С.174-178.

Musharraf ABDULXAYEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning yozma nutqni rivojlantirish usullari haqida. Yozma nutqning ahamiyati, uning samarali usullarini va ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llarini muhokama qilamiz. Yozma nutqni rivojlantirish o'qituvchilar va talabalar uchun zaruriy ko'nikmalarni shakllantiradi va ma'lumotlarni aniq va mantiqiy tarzda ifodalash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *yozma nutq, rivojlanish usullari, o'qituvchilar, talabalar, mantiqiy ifoda, ma'lumot, ko'nikmalar, yozuv uslubi, amaliyot, tahlil*

Аннотация: данная статья посвящена способам развития письменной речи. Мы обсудим важность письменной речи, ее эффективные методы и способы их применения на практике. Развитие письменной речи формирует у учителей и учащихся необходимые навыки, позволяет четко и логично излагать информацию.

Ключевые слова: *письменная речь, методы развития, преподаватели, учащиеся, логическое выражение, информация, навыки, стиль письма, практика, анализ.*

Annotation: this article is about ways to develop written speech. We will discuss the importance of written speech, its effective methods and ways to put them into practice. The development of written speech forms necessary skills for teachers and students and allows to express information clearly and logically.

Key words: *written speech, development methods, teachers, students, logical expression, information, skills, writing style, practice, analysis*

Yozma nutq zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. O'z fikrlarini yozma ravishda ifodalash qobiliyati talabalarga akademik muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Yozma nutq nafaqat bilimni oshirish, balki professional sohada muvaffaqiyatga erishishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yozma nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usullar va ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Yozma nutqni rivojlantirish usullari

Yozma nutqni rivojlantirish uchun bir qancha usullar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

Reja tuzish: yozma nutqning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash, masalan, kirish, asosiy qism va xulosa. Reja tuzish talabalar yozuvlarini tartibli va lo'nda holda yozishga yordam beradi. Bu usul matnni yozish jarayonida mantiqiy oqimni ta'minlaydi.

Tahlil qilish: o'qilgan matnni tahlil qilish va uning muhim jihatlarini ajratib olish yozma nutqni yanada kuchaytiradi. Talabalar o'z matnlarini boshqa mualliflar bilan taqqoslab, ularning yozuv uslublaridan foydalangan holda o'z uslubini shakllantirishlari mumkin.

Praktika: muntazam yozuv mashqlari orqali ko'nikmalarni oshirish. Har kuni o'z fikrlarini qisqa yozuvlar orqali ifodalash talabalar uchun yozma nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarga o'z fikrlarini tez va aniq ifodalashga yordam beradi.

O'qish: turli janr va mavzulardagi adabiyotlarni o'qish orqali yozuv uslubini kengaytirish. Talabalar yangicha so'zlar va iboralarni o'zlashtirish, ularni o'z yozuvlarida ishlatishni o'rganadilar. O'qish orqali yangi fikrlarni shakllantirish va o'z yozuvlariga yangi g'oyalar qo'shish mumkin.

Fikr almashish: do'stlar yoki o'qituvchilar bilan fikr almashish, fikrlarni aniq ifodalashga yordam beradi. Guruh muhokamalari yoki yozma ishlarni birgalikda ko'rib chiqish orqali o'zaro fikr almashish foydali.

Kreativ yozuv: yozma nutqni rivojlantirishda kreativ yozuv usullari muhim rol o'ynaydi. Talabalarga hikoyalar, she'rlar yoki qisqa asarlar yozish topshirig'i berish, ularning ijodkorligini oshiradi. Kreativ yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish orqali talabalar o'z ifodalarini yanada boy va rang-barang qiladilar.

O'z fikrini asoslash: yozma nutqda fikrlarni asoslash juda muhimdir. Talabalar yozgan fikrlarini aniq dalillar yoki misollar bilan ta'minlashni o'rganishlari kerak. Bu, o'z navbatida, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Fikrni bildira olish: yozgan ishlarini o'qituvchilardan yoki guruhdoshlaridan baholashni so'rash, talabalar uchun foydalidir. Yozilgan ishlar yuzasidan fikrlar olish ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlar o'z yozuvlarini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Yozuv klublari yoki guruhlari: yozuv klublari yoki guruhlari yaratish, talabalar o'rtasida fikr almashish va qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantiradi. Ushbu guruhlar doirasida muntazam ravishda yozish mashg'ulotlari o'tkazish, talabalar uchun motivatsiya va ijodkorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

Onlayn resurslardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar onlayn resurslardan foydalanib, yozma nutq ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Veb-saytlar, video darslar va interaktiv platformalar orqali ularga yozuv uslublarini o'rganish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

O'qituvchilarning roli: o'qituvchilar yozma nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar. Ular talabalarni motivatsiya qilish, yozish usullarini o'rgatish va ularning

yozma ishlarini baholash orqali yordam berishlari lozim. Yozma nutq mashg‘ulotlarida o‘qituvchilarning yo‘nalishlari va tavsiyalari talabalar uchun muhimdir.

Turli formatlarda yozish: talabalar turli formatlarda, masalan, maqolalar, amaliyot bo‘yicha hisobotlar yoki rasmiy xatlar yozishni o‘rganishlari kerak. Har bir formatning o‘ziga xos talab va uslublari mavjud. Bu esa ularning yozma nutq ko‘nikmalarini kengaytiradi.

O‘qituvchilar yozma nutqni rivojlantirish uchun muayyan yozma nutq mashqlarini qo‘llashlari kerak. Masalan, talabalar uchun esselar, tadqiqot hisobotlari va hikoya yozish bo‘yicha topshiriqlar berish juda samarali usul hisoblanadi. O‘qituvchilar yozma nutq bo‘yicha seminarlar tashkil etishlari, bu esa talabalarning ko‘nikmalarini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, onlayn platformalarda yozma nutq bo‘yicha kurslar o‘tkazish, talabalarga qiziqarli va interaktiv tarzda yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Onlayn resurslar yordamida talabalarning yozma nutqini baholash va takomillashtirish mumkin.

Yozma nutqni rivojlantirish usullari ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu usullar nafaqat yozuv ko‘nikmalarini, balki mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham oshiradi. Talabalar o‘z yozma nutqini rivojlantirish uchun yuqoridagi usullarni qo‘llash orqali muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Kelajakda bu ko‘nikmalar talabalarning kelgusi hayotida ham ulkan ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki yozma nutq bugungi kunda jamiyatda muvaffaqiyatning va o‘z kasbining yetuk mutaxasisi bo‘lishidagi asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kohler, T. (2018). Developing Writing Skills: A Guide for Students. New York: Academic Press.

Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. New York: Pearson Education.

Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). Understanding by Design. Alexandria, VA: ASCD.

Flower, L., & Hayes, J. R. (1981). “A Cognitive Process Theory of Writing.” College Composition and Communication, 32(4), 365-387.

Graham, S., & Perin, D. (2007). “A Meta-Analysis of Writing Instruction for Students in Grades 4-12.” Journal of Educational Psychology, 99(3), 445-476.

Raymond, J. (2019). Creative Writing for Dummies. Hoboken, NJ: Wiley.

Hyland, K. (2003). Genre and Second Language Writing. Ann Arbor: University of Michigan Press.

Purdue University Online Writing Lab (OWL). (n.d.). Retrieved from https://owl.purdue.edu/

Kellogg, R. T. (2008). “Training Writing Skills: A Cognitive Developmental Perspective.” Journal of Writing Research, 1(1), 1-26.

Silva, T. (1993). “Toward an Understanding of the Interlanguage Writing of ESL Students.” TESOL Quarterly, 27(4), 657-677.

Dilafro‘z ZIYADULLAYEVA,
CHDPU o‘qituvchisi

VATAN VA MILLAT OBRAZI – YOZUVCHI BADIIY NIYATI SIFATIDA

Annotatsiya:maqolada Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi” qissasida “vatan” va “millat obrazining tasvirlanishida muallif badiiy niyatining ifodalanishi tahlil etilgan. Bunda tarixiy shaxs va badiiy to‘qima obrazlarlarning muallif niyatini ochib berishiga xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Vatan, millat, badiiy niyat, tarix, haqqoniylik, qadriyat, qissa, ma’naviyat, ajdod, avlod*

Аннотация: в статье анализируется выражение художественного замысла автора в изображении образа “Родины” и “нации” в рассказе Хуршида Даврона “Сахибкиран внук". В нем подчеркивается, что историческая личность и художественная ткань служат для раскрытия авторского замысла персонажей.

Ключевые слова: *родина. нация. художественный замысел, история, правдивость, ценность, повествование, духовность, предок, поколение.*

Annotation:the article analyzes the expression of mualific artistic intention in the description of the image of the “homeland” and “nation” in the story “The Holy grandson " of Khurshid Davron. It highlights the fact that the historical person and the Badi tissue serve to reveal the mualific intention of the images.

Key words: *homeland. nation. artistic intention, history, truthfulness, value, short story, spirituality, ancestor, generation*

So‘nggi yillarda jahonda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar nafaqat inson onggi, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham ta’sir qilmoqda. Globallashuv vaqtida o‘z tarixiga, o‘z qadriyatlariga ega millat ommaviy madaniyatga ko‘r-ko‘rona ergashib ketavermaydi. Zero Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Milliy tarixni milliy ruh

bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ahamiyati bo‘lmaydi.Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” (Sh.Mirziyoyev: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak”. Aniq.uz sayti)

Prezidentimizning bu fikrlaridan ham bilishimiz mumkinki xalq o‘zligini,o‘z qadriyatlarini, tarixini bilsa, ajdodlari haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lsagina yot fikrlarga ishonib, unga ergashib ketavermaydi.

Inson ma’naviyatini yuksaltirishda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Yuqorida ta’kidlaganimiz, ommaviy madaniyat zararidan himoyalanishimizda ajdodlarga munosib avlod bo‘lishimizda adabiyot bizga ko‘makchidir. Zero muayyan ijodkor o‘z millatining, davrining farzandi o‘laroq qalam tebratar ekan , o‘z xalqi dardiga, ijtimoiy muammolariga yechim topishni, xalq saodati uchun yonib yozishni bosh ijodiy konsepsiyasi sifatida tanlashi lozim. Ana shunday jonkuyarmijodkorlardan biri Xurshid Davrondir

Shoir ijodini tahlil qilganimizda mavzu ko‘lami kengligi, obrazlar berakrorligi janrlar xilma-xilligi, tarix haqiqatini yoritish maqsadi jihatidan boshqa ijodkorlardan farq qilishini kuzatamiz. Masalan, adib ijodida Vatanga bo‘lgan muhabbat, ajdodlar ruhiga bo‘lgan hurmat, o‘z yurti tarixidan faxrlanish, umuminsoniylik mavzularini badiiy ifodalashga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni uchratamiz.

Xurshid Davron 90-yillardan e’tiboran ko‘proq nasrda ijod eta boshladi. Buni birinchidan, ijodkor barcha adabiy tur janrlarida baravar qalam tebrata olish salohiyati, ikkinchidan, nasr va dramaturgiya imkoniyatlaridan ham foydalanish istagi, qolaversa, ba’zi mavzular lirikaga sig‘masligi kabi jihatlar nuqtai nazaridan asoslash mumkin.Bu jihatlar umumiy bir nuqtada, ya’ni yozuvchi badiiy niyati degan tushuncha atrofida birlashadi. Ijodkorning tasavvur olami hamda badiiy niyati shu qadar kengki, bu niyat o‘z-o‘zidan badiiy asar janrini ham tayin etishda ishtirok etadi. D.Quronov o‘zining “Adabiyotshunoslikka kirish” nomli ilmiy kitobida muallif niyati tushunchasini ijodiy niyatga bog‘laydi. Ya’ni muallifning dunyo moddiyatlarini o‘ziga xos uslubda idrok etishi hamda ularni qog‘ozga tushirishi ijodiy niyatning ijrosidir .

(D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. 2019).

Xurshid Davron ijodiy konsepsiyasining markazida tarixga xolis yondashish vositasida Vatan va millat obrazini o‘ziga xos tarzda ifodalash niyati turadi. Uning asarlarida bu so‘zlar bot-bot takrorlanmaydi, lekin har bir satr, misra zamirida o‘zbekning o‘zligi, bu kunga qadar bosib o‘tgan yo‘li, xaqsizlik va zulmlar asrida ham dinini, o‘zligini saqlab qola olgan ajdodlar va qadriyatlar timsoli bo‘y ko‘rsatib turaveradi. Bu zaruriyat ayniqsa, mamlakatimiz endi mustaqillikka erishgan kunlarda dolzarb masala o‘laroq kun tartibiga ko‘tarilgan edi. Abdulla Qodiriyning “oltin qoida”siga ko‘ra, ijodkor “moziyga qaytib ish ko‘rdi”, bu “qaytish”lar sirasida millat eshitmagan, tuymagan haqiqatlar gavhari bilan adabiyotni boyitdi.

“Sohibqiron nabirasi” qissasi faqatgina tarixning ma’lum davrini ochib berish uchun yozilgan asar emas, balki barcha xalqlar tarxida ro‘y bergan, insoniyatga taalluqli bo‘lgan o‘nlab masala-yu muammolarni o‘z ichiga qamrab olgan falsafiy asardir. Asarda “Vatan”, “Millat” tushunchalarining birinchi planda olinishi, podshoh va zurriyodlari, toj-u taxt masalasi, aristokratlar va qora xalq munosabati, madaniyat,san’atga e’tibor kabi eskirmas masalalarni muallif badiiyat chechagiga o‘rab kitobxonga taqdim etadi.

“Sohibqiron xira ko‘zlarini amir Shohmalikka tikib, dona-dona qilib aytdi:

- Ulug‘bek Mirzoni senga topshirg‘onimni minba’d unutma...sen aning otalig‘isan... Undan boxabar bo‘l!

Yana bir damdan keyin Amir Temur ikki safdoshiga qattiq tikildi:

- Bilaman valiaxdlik Shohruxga bo‘lsin, deysiz!... Ammo valiaxdlik to‘ng‘ich o‘g‘il xonadonida bo‘lsun demaganmi ota-bobolar?!

Shohmalik!... Nuriddin!... Boxabar bo‘ling! Mabodo vasiyatimga xilof ishlar ro‘y bersa, yo‘l qo‘ymangiz! Vasiyatimni buzg‘on kim bo‘lmasun, o‘g‘limmi, nabirammi jazolangiz! Illo ,shunday qilmasangiz, barchangiz nes-nobudlik komiga tortilgaysiz! Bu so‘zlarim yodingizda bo‘lsin!”(X.Davron “Sohibqiron nabirasi”)

Qissadan keltirilgan yuqoridagi parchadan ham bilishimiz mumkinki, Jahongir uchun ona yurtiga bo‘lgan muhabbati cheksiz, uni hech bir narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki biz yuqorida o‘lim to‘shagida yotgan Jahongirning o‘zini emas farzand va nevaralari haqida qayg‘urishini, har birining kelajagi haqida otaliqlariga nasihat qilganini ko‘ramiz, bundan ko‘rinib turibdiki u jigarbandlarini jonidan ortiq ko‘rgan. Ammo Vatanini, xalqini barchasidan ortiqroq sevganini muallif jonli,ishonarli qilib tasvirlagan.Bu bilan adib o‘zining badiiy niyatini asarda to‘laqonli ochib bergan. Vatan tarixini eski qo‘lyozmalar, arxiv materiallari asosida o‘rganish asnosida, uning naqadar qadimiy va shonli tuproq ekanini, bu zaminda aqlu salohiyati bilan dunyo tamadduniga hissa qo‘shgan yuzlab olimlar bilan tanishdi va natijada MILLAT va VATAN obrazini ana shu jihatlarini yoritgan holda ifodalash niyatini dastur-ul amal qilib tanladi. Adib “Vatan” deganda, avvalo, odamlarni o‘tgan ajdodlari va bugungi kun kishilari, kelgusi avlodlarni nazarda tutadi.Chunki Vatan faqat tuproqdan iborat emas. Vatan barcha ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan barcha narsalarni qamrab oladi. Har bir kishi uchun xalqi ham Vatandir”

(A.Ulug‘ov. Qalb qandili: adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. Toshkent. Akademnashr. 2013).

Muallifning ushbu tarixiy qissasi haqqoniy voqelik fonida yaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchi tarixiy fakt va yozuvchining ijod mahoratini bir nafasda his qila oladi. Chunki asardagi barcha tarixiy haqiqatlar yozuvchining badiiy tafakkurida charxlanib, o‘tkir qalamida sayqallanib, badiiy rang berilib o‘quvchining faqatgina tafakkuriga emas, qalbining tub-tubiga yetib borib, uni cheksiz xayolot dunyosiga yetaklay oladigan tarzda yaratilgan deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak” 19.01.2021. Aniq.uz sayti
2. A.Ulug‘ov. Qalb qandili:adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. – Toshkent: akademnashr, 2013.
3. X.Davron. Sohibqiron nabirasi. – Toshkent, 1995.
4. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2019.

Farhod QIYOMOV,
SHDPI o‘qituvchisi

SA’DIY SHEROZIY—SHARQ ADABIYOTINING YIRIK VAKILI

Annotatsiya: maqolada Shayx Sa’diyning “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari bilan keng shuhrat qozongani, hamda uning ulug’ shoir va adib ekanligi xususida ma’lumotlar yoritib berilgan.
Kalit so’zlari: *“Bo‘ston” va “Guliston” she’riy asar , nasriy-axloqiy, Sharq, G’arb, fors-tojik, Eron, adabiyot.*
Аннотация: в статье освещены сведения о том, что шейх Саади получил широкую известность благодаря произведениям «Бостон» и «Гюлистан» и что он является великим поэтом и писателем.
Ключевые слова: *поэтическое произведение «Бостон» и «Гулистан», прозао-этическое, Восток, Запад, персидско-таджикское, Иран, литература.*
Annotation: in the article, the information about the fact that Sheikh Saadi gained wide fame with the works "Boston" and "Gulistan" and that he is a great poet and writer is highlighted.
Key words: *"Boston" and "Gulistan" poetic work, prose-ethical, East, West, Persian-Tajik, Iran, literature.*

Xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikning barqaror bo‘lishi mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarga bog‘liqdir. Mamlakatlar o‘rtasida aloqalar kuchli bo‘lsa, tinchlik barqaror bo‘ladi. O‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikning rivojida adabiyotning xizmati katta bo‘lgan.

Biz o‘zbek adabiyoti tarixini, adabiyotini o‘rganar ekanmiz, boy madaniy-adabiy an’analarga ega bo‘lgan xalqimizning Sharqdagi ko‘pgina qo‘shni-qardosh xalqlar bilan yaqin aloqada bo‘lib kelganliklarini ko‘ramiz. Turli etnik qatlamlarga mansubliklaridan qat’iy nazar o‘zbek, tojik, ozarbayjon va Sharqdagi qator boshqa xalqlar asrlar davomida deyarli bir-xil siyosiy-ijtimoiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo‘rlikka qarshi birgalashib bosh ko‘targanlar. Bu xalqlar o‘rtasidagi madaniy-adabiy aloqalar shu zaminda paydo bo‘lgan va rivojlangan.

Sharq xalqlari o‘rtalaridagi munosabatlar qardoshlik, vafodorlik asoslariga qurilgan bo‘lib, bu xalqlarning bir-biriga yaqinlashuvi, o‘rtada jonli mushtarak bir madaniyat yaratishga yordam berib keldi. Xonlar, beklar o‘rtasida butun o‘rta asr davomida hukmron bo‘lib kelgan qonli urushlar, nifoqlar xalqning ma’naviy jipsligiga rahna sololmadi.

O‘zbek adabiyotining Sharqdagi ko‘pgina adabiyotlar bilan yaqinligi o‘zaro munosabatlar tarixida hamisha muhim jarayon sifatida ko’zga tashlanadi. O‘rta Osiyo va Eronda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelgan davrdan boshlab fors-tojik tilidagi adabiyot keng ko‘lamda taraqqiy qildi.

Fors-tojik tili o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot taqozosiga ko‘ra dastlab somoniylar, keyinchalik g‘aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar ta’siri ostida bo‘lgan keng territoriyada katta mavqega ega bo‘ldi. Natijada faqat tojiklarning o‘zlarigina emas, o‘zbek, ozarbayjon, turkman, hatto hind adabiyoti namoyandalari ham o‘z asarlarini shu tilda yaratdilar. Bu davr fors-tojik tilidagi adabiyot taraqqiyotida o‘zbek, ozarbayjon va boshqa xalqlarning ham hissasi mavjud.

Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy fors-tojik mumtoz adabiyotining ulug‘ namoyondalaridan biridir.

Sa’diy umrining ko’p qismini sayohatlarda o’tkazgan, ko’p xalqlar, millatu elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo’lgan Sa’diy ko’rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g’oyat shirali, ta’sirchan musajja’ nasriy jumlalar va she’riy baytlar bilan ziynatlab, o’ziga xos hikoyatlar to’plamini yaratgan. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlari ham, yengil hazil-mutoyiba, lutfu nuktadonligi ham, his-tuyg’ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Sa’diy asarlari pandu nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan...

“Bo‘ston” asari bilan shuhrat qozongan Sa’diyni Fors viloyatining hokimi Abubakr ibn Sa’diy Zangiy o‘z saroyiga taklif qildi. Sa’diy unga bag‘ishlab bir necha qasida yozadi, ammo saroyga bormaydi.

Chunki u:

“Ba dast ohaki tafta kardan xamir,

Beh az dast bar sina peshi amir”

(O‘tdek ohakni qo‘l bilan qorib xamir qilmoq, amir oldida qo‘lni ko‘ksiga qovushtirib turishdan yaxshiroq) deb hisoblar edi.

Sa’diy butun kuch-qudratini badiiy ijodga bag‘ishladi, hayot tajribalarini, safar taassurotlarini, orzu armonlarini badiiy asarlarida mujassamlantirdi.

Sa’diy ulug‘ shoir va adibdir. Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa’diyning mavqeyi juda baland. U birinchi bo‘lib g‘azal formasini mustaqil janr darajasiga ko‘tardi. Uning “Kulliyot”iga to‘rt devon kiritilgan. O‘n to‘rtinchi asr boshlarida “Besutun” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Sa’diy, ayniqsa, “Bo‘ston” , “Guliston” asarlari hamda g‘azallari bilan keng shuhrat qozongan. “Bo‘ston” she’riy axloqiy-ta’limiy asar bo‘lib, o‘n bobga bo‘lingan. Sa’diy bu asarida axloqiy-ta’limiy qarashlarini ibratli kichik hikoyalarga va didaktik lirik she’rlarga mujassamlantiradi.

“Guliston” nasriy axloqiy-ta’limiy asar bo‘lib, sakkiz bobga bo‘lingan.

Sa’diy har bir bobda shu masalalarga muvofiq kichik hajmli ibratli hikoyalar keltiradi, she’riy parchalarda yoki hikmatli so‘zlarda “qissadan hissa” chiqariladi.

Sa’diy Sheroziy o‘z ijodiyoti bilan Sharq va G‘arb xalqlari adabiyotiga samarali ta’sir etdi. Uning “Guliston”idan ilhomlangan Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” asarini, Majididdin Xofiy “Xoriston” va Habib Kaoniy Sheroziy “Pareshon” asarlarini yaratdilar.

Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Furqat va Avloniy kabi o‘zbek yozuvchilari Sa’diyni ustoz san’atkor sifatida ta’riflaydilar, undan o‘rganadilar va ayrim g‘azallariga nazira va taxmislar bitganlar.

Volter, Lafonten va Gyote kabi mashhur Yevropa yozuvchilari ham Sa’diy ijodi bilan tanishib, undan ma’lum darajada bahramand bo‘lganlar.

Fors-tojik adabiyoti klassiklari Rudakiy, Firdavsiy, Hofiz, Sa’diy kabi ijodkorlar dunyo miqyosida tanilib, boshqa xalqlar adabiyotiga ham katta ta’sir o‘tkazgan. Nemis shoiri Gyote Sa’diyni “...juda mahsuldor va fayzli, hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir...”, - deb hisoblagan. Fransuz yozuvchisi Volter “Guliston”dan xabardor bo‘lgan va ba’zi she’rlaridan foydalangan. Sa’diy she’rlari nemis, fransuz, rus tillariga tarjima qilingan.

Sa’diyning “Guliston” asari Sharq mamlakatlarida maktablarda asosiy qo‘llanma bo‘lgan. Sa’diyning “Guliston” asarining Sayfi Saroyi(1390-1391-yillarda), Ogahiy(XIX asrning ikkinchi yarmida), Murodxo‘ja domla Solihxo‘ja o‘g‘li(1909-yilda) tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi bu asarning mamlakatimizda ma’lum va mashhur bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Bugungi kun adabiyotini o’tmish adabiy merosisiz tasavvur etib bo’lmaydi. O’tmish adabiyotining mazmunan barkamol, shaklan yetuk durdonalari keyingi adabiy taraqqiyot uchun har doim muhim manba bo’lib hisoblanadi. Xalqchillik, insonparvarlik, hayotiylik ruhida yaratilgan mumtoz asarlarning bugungi kun uchun ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa’diy Sheroziy she’riyatidan. –Toshkent. 1976.
2. Sa’diy. Guliston.- Toshkent.1968.
3. Sa’diy. Bo‘ston. -Toshkent. 1970.
4. Shomuhammedov Sh. Bir dasta gul, “Guliston” kitobiga so‘z boshi. –T.1968.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. I jild. –Toshkent. 1972.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. II jild.–Toshkent. 1978.

Najibullo SAYFULLAYEV
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
sayfullayevnajibullo@gmail.com

Shahnoza MIRZAYEVA
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
mirzayevashahnoza401@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada iboralarning tilimizda ishlatilishi, shakli va ma’nosi, semantik va leksik xususiyatlari, tilimizning bo‘yoqdorligiga ta’siri, iboralar tilning murakkab birligi ekanligi, variantlashish xususiyatining borligi, ijtimoiy muhitga ta’siri, milliy qadriyatlarimizdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Shuningdek, iboralarning tilimiz so‘zlashuvida dialektik birliklar kabi ta’sir qilishi haqida, frazeologik lug‘atlar to‘g‘risidagi qonunlar, davlat tilini rivojlantirish uchun frazalarning muhim o‘rni va iboralar gaplarning ham o‘rnida kela olishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ibora, frazeologiya, leksema, morfema, til, lug‘at, so‘zlashuv, birikma, so‘z birikmasi, misol, o‘zbek tili, omonomiya, sinonomiya, ifoda plani, mazmun plani, ko‘p ma’nolilik.*

Аннотация: в данной статье говорится об употреблении словосочетаний в нашем языке, их форме и значении, семантических и лексических особенностях, их влиянии на красочность нашего языка, о том, что словосочетания являются сложной единицей языка, о влиянии наличия вариаций. на социальную среду и их место в наших национальных ценностях. Также обсуждается влияние словосочетаний в речи нашего языка как диалектических единиц, законы фразеологических словарей, важная роль словосочетаний для развития государственного языка, то, что словосочетания могут заменять предложениюю

Ключевые слова: *словосочетание, фразеология, лексема, морфема, язык, словарь, просторечие, сочетание, словосочетание, пример, узбекский язык, омонимия, синономия, план выражения, план содержания, многозначность*

Abstract: this article talks about the use of phrases in our language, their form and meaning, semantic and lexical features, their influence on the colorfulness of our language, the fact that phrases are a complex unit of the language, the effect of the presence of variation on the social environment, and their place in our national values. Also, the effect of phrases in the speech of our language as dialectical units, the laws of phraseological dictionaries, the important role of phrases for the development of the state language, and the fact that phrases can take the place of sentences are discussed.

Key words: *phrase, phraseology, lexeme, morpheme, language, dictionary, colloquialism, combination, word combination, example, Uzbek language, homonymy, synonomy, expression plan, content plan, ambiguity.*

Kirish. O‘zbek tili juda boy tillardan biri hisoblanadi, chunki bu tilda omonim, sinonim va antonim so‘zlar anchagina. Bundan tashqari, Alisher Navoiy bobomiz ham o‘zbek tilining imkoniyatlarini o‘z asarlarida juda chiroyli va aniq qilib yozib ketgandir. Ayniqsa “Muhokammat ul-lug‘atayn” asarida juda chiroyli izohlari bilan tushuntirib ketilgan. Bunga misol qilib birgina “yig‘lamoq” fe’lining o‘ndan ortiq varianti keltirilgan. Boshqa tillarda bitta yoki ikkitadan oshmasligi aytilgan. Bundan tashqari, yana o‘zbek tilining boyishiga sheva, jargon va argonlar bilan birga frazeologik birikmalar ham o‘z hissasini qo‘shgan va qo‘shib kelmoqda.

Til aloqa-munosabat, hissiy-ta’sir, to‘plash vazifalari bilan bir qatorda, sohalarda axborot berish, odamlar o‘rtasidagi yaqinlikni ta’minlash, qadriyat asosida tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Tilning antroposentrik tadqiqida mental ong, tafakkur, idrok, madaniyat munosabatlari muhim o‘rin tutadi. Frazeologizmlar ko‘chma ma’noga asoslangan lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Frazeologik ma’no asrlar davomida til egasining insoniy ongi, idrokiga bog‘langan holda shakllanib, sayqallanib boradi. Frazeologizmlar milliy tilning barcha ijtimoiy vazifalarini, milliy qadriyatlarini qamrab oluvchi til birliklaridir. Ularni to‘plash, saqlab qolish, iste’mol doirasini kengaytirish, milliy til taraqqiyotining takomillashtirish omillaridan biridir. Til xususiyatlarini o‘zlashtirishda frazeologik lug‘atlarning o‘rni katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi”da ko‘pgina ishlar amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi. Bularga misol qilib O‘zbek tili frazeologik lug‘atini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu lug‘at ijodkorlar, tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, o‘quvchilar, keng doiradagi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, 5198 ta frazeologiya birlik izohini o‘z ichiga olgan.

O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati o‘zbek tilining tushunchalarini ta’sirchan aks ettirish imkoniyatini, olam manzarasini tafakkur va idrok orqali anglashni namoyon etadi. Ushbu lug‘at o‘zbek tilidagi barqaror birikmalar va frazeologizmlarning mental ma’lumotlarini to‘plash hamda ifodalash xususiyatlarini aks ettiradi.

Biz bilamizki, til shakl va mazmun yaxlitligidan tashkil topadi. Tilda shakl deganda, odatda, tilning materiyasi- tovush nazarda tutiladi. Tovush tomoni “tilning ifoda plani’’deb ham ataladi. Tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. Shuning uchun talaffuz shakli va yozuv shakli farqlanadi. Til hodisasi ko‘pincha yozuvda aks ettiriladi, shu sababli yozuv asosiy shakldagidek tuyuladi. Asli, til - tovush tili, yozuv shu tovush tilini grafik ifodalash sistemasi. Masalan, kitob so‘zining shakli, ya’ni ifoda plani k, i, t, o, b harflari orqali ifodalanadigan ana shu tovushlarning xuddi shunday tizimiga va tartibiga teng. Faqatgina shakl til birligi bo‘lolmaydi. Til birligi bo‘lishi uchun ma’lum bir shaklga ma’lum bir ma’no-mazmun biriktirilgan bo‘lishi lozim. Bunday ma’no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma’noni biror shakl nutqning o‘zida ifoda etmaydi, balki bunday ma’no biror shaklga tilda, til bosqichida biriktirilgan bo‘ladi, nutq shuni yuzaga chiqarib beradi. Kitob so‘zi Kitobni zavq bilan o‘qidim gapida “ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan bosma (qadim qo‘lyozma ham) asar” ma’nosini anglatadi. Demak, ma’lum shakl va ma’lum bir ma’no birgalikda til birligini tashkil qiladi.[2:8]

Ibora murakkab til birligi hisoblanib, kamida ikkita mustaqil turkum leksemalaridan, ya’ni so‘zlardan tarkib topadi. Shunga ko‘ra iboraning ifoda plani sifatida leksemalar va ularni bog‘lash uchun xizmat qiladigan morfemalar nazarda tutiladi. Iboraning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisi bo‘lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi ma’no bo‘lishi sababli iboralarda go‘yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida aloqadorlik sezilmaydi. Ma’lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko‘chma ma’noga frazeologik ma’no deyiladi.

Frazeologik ma’no o‘ziga xos semantik taraqqiyot jarayonini aks ettiradi. Bunda nafaqat frazeologik ma’no, balki leksema semantikasiga oid ma’no taraqqiyotini ham kuzatish mumkin.

Frazeologiyalarda omonomiya tushunchasi ham mavjuddir. Tuzilish shakli bir xil, lekin boshqa alohida ma’nolarni bildiradigan frazeologik birliklar omonim iboralar deb ataladi. Tilimizda omonim xarakterga ega so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qilsa-da, omonim iboralar kamchilikni tashkil qiladi.

So‘z bermoq I “va’da bermoq’’: Bu ishni qayta qilmaslikka so‘z berdi.

So‘z bermoq II “gapirishga ruxsat bermoq’’: Keyin, Toshkentdan kelgan mehmonga so‘z berildi.

Qo‘l ko‘tarmoq I “ovoz bermoq’’: Endi qo‘l ko‘tarishingiz mumkin.

Qo‘l ko‘tarmoq II “urmoq’’: Umrim mobaynida birinchi marta qo‘l ko‘tarishim edi.

Sinonim iboralar shaklan turli xil, ammo ma’no jihatidan bir xil bo‘lgan frazeologik birliklardir:

yaxshi ko‘rmoq – ko‘ngil bermoq

yer bilan yakson qilmoq – kulini ko‘kka sovurmoq

Qarama-qarshi ma’no ifodalovchi frazeologik birliklar, antonim iboralar deyiladi: ko‘ngli joyiga tushdi – yuragiga g‘ulg‘ula tushdi; yuzi yorug‘ bo‘lmoq - yuzi shuvut bo‘lmoq.

Variantlashish sababli bir ibora boshqa iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos bo‘lgan lug‘aviy ma’no birligi saqlanadi. Bunga misol; ko‘ngli toza-yuragi toza, daryodan bir tomchi – daryodan tomchi. Yuqorida ko‘rib turganimizdek, frazalar variantlari bilan kelganda ularning ma’nolarida hech qanday o‘zgarishlar yuz bermadi, faqatgina shaklida o‘zgarish sodir bo‘ldi.

Xulosa. Inson so‘zlayotganida gaplarning ma’noli, mazmunli chiqishi uchun frazalardan foydalansa, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Chunki frazalar bir necha gaplarni ham bitta jumlada aks ettira oladi. Biz kimgadir nisbatan ish ko‘rgan iborasini ishlatadigan bo‘lsak, uning tag ma’nosida hayotda yashab yaxshi, yomonni farqiga boradigan, tajribali inson ko‘z oldimizga keladi.

Biz ham o‘z nutqimiz go‘zal bo‘lishini xohlasak ko‘p kitob o‘qiylik, izlanishdan to‘xtamay harakat qilaylik. Zero “Kelajak yoshlar qo‘lida’’ deb bekorga aytilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyeva B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva

D.N. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili’’. Darslik. –Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020
2. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmanova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyeva. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati’’. – Toshkent, 2022
3. Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili’’. Darslik. –Toshkent: “Universitet”, 2006
4. Shoabdurahmanov Sh. Asqarova M, Hojiyev M, Rasulov I, Doniyorov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili’’. Darslik, I qism. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980
5. Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili’’. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1992

Sadoqat ERGASHOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

IJODKORNING RAMZ QO‘LLASH MAHORATI

Annotatsiya: mazkur maqolada iste’dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida qo‘llangan ramzlar badiiyati hamda ijodkorning ramz qo‘llash mahorati haqida so‘z boradi. Maqola mavzusi ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslangan holda misollar vositasida ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: *ramz, ijodkor mahorati, ko‘chma ma’nodagi so‘zlar, obraz, ramziylik.*
Аннотация: в данной статье рассказывается об искусстве рифмы, используемой в творчестве талантливого поэта Эшкабила Шукура, и мастерстве художника в использовании символов. Тема статьи поясняется с помощью примеров, основанных на научных и теоретических представлениях.
Ключевые слова: *символ, творческое мастерство, образные слова, образ, символика.*
Annotation: this article discusses the art of symbols used in the work of the talented poet Eshqobil Shukur and the artist's skill in using symbols. The topic of the article is explained using examples based on scientific and theoretical ideas.
Keywords: *symbol, artist's skill, figurative words, image, symbolism.*

Haqiqiy she’rni ramzlarsiz tasavvur etish qiyin. Ijodkor ifoda etmoqchi bo‘lgan fikrni ramzlar asosida ko‘chma ma’nodagi so‘zlar yordamida ochib beradi. O‘z o‘rnida topib qo‘llangan ramzlar asarning faqat bezagi hisoblanmaydi. Ular orqali so‘zlarning ortiqcha “isrof” idan saqlanadi, “Ramz obrazning mohiyatini oydinlashtiradi, shaklan yorqinlashtiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, hissiy ta’sirchanligini kuchaytiradi” .

Ramziylikda so‘zni anglash va his qilish bilan bir qatorda ko‘zda tutilgan ishorani anglash ham muhimdir. Avvalo, ramz o‘zi nima? Uning she’r tarkibidagi vazifasi nimalardan iborat?

Adabiyotshunos To‘ra Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” darsligida ramzga quyidagicha ta‘rif beradi: “Ramz (arab. رمز — imo-ishorat) — tasvir obyektining mohiyatini ma’lum bir nuqtayi nazardan shartli ifodalovchi so‘z yoxud predmet. Ramzlar xalqaro atamashunoslikda simvol (yunon. symbolon — shartli belgi) deb yuritiladi” .

“Bunda so‘z o‘z ma’nosidan ko‘chadi va muayyan narsa yoki hodisaning majoziy, ramziy yoxud istioraviy timsoliga aylanadi. Ulkan shoir A. Oripovning “To‘ti” she’ridagi bulbul va to‘ti obrazlari fikrimizning tasdig‘idir. She’rdagi bulbul — ona tilining ramziy ifodasi”.

Demak, ramzlar ma’lum bir matnda ijodkorning ko‘zlagan maqsadini to‘liq ochib berish uchun xizmat qiladigan, o‘z va ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan badiiy tafakkur mevasidir.

Ta’kidlash joizki, ko‘chimning allegoriya deb ataluvchi turi ham mavjud. Ba‘zi manbalarda majoz deb ham yuritiladi. “Badiiy adabiyotda so‘z-allegoriyalar ko‘proq an’anaviy tarzda qo‘llanadi”. Demak, uni an’anaviy ramz turidan farqlashimiz kerak, ular o‘rtasida aniq chegara qo‘yilmas ekan turli bahslar kelib chiqishi tabiiy. Masalan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinflari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligida va adabiyotshunos T. Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” darsligida simvol, ya‘ni ramzning bir ko‘rinishi sifatida izohlanadi. Biz bu fikrlarga qo‘shilmagan

holda aytishimiz mumkinki, ramzni hosil qilgan so‘zlar o‘z va ko‘chma ma’nosini saqlagan bo‘ladi. Ularni faqat kontekstda boshqa so‘zlar bilan yondosh holda ko‘chma ma’noda uchratishimiz mumkin. Badiiy nutqdan tashqarida o‘z ma‘nosini ifodalashga xizmat qiladi.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati” da ramz “Ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi deb ta’riflanadi . Haqiqatdan ham ramz majoz (allegoriya)ga yaqin hodisa hisoblanib, ba’zida har ikkisi bir xil degan qarashlar mavjud. Lekin ta’kidlab o‘tganimizdek, ramz matnda ham o‘z ma’noda, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Allegoriyada esa turg‘unlik ustuvor. Masalan, “bo‘ri” – vahshiylik, “eshak” – farosatsizlik, “bedana” – qo‘nimsizlik, “buqalamun” – beqarorlik, “musicha” – ojizlik, “chayon” – zararkunandalik tarzida…

Adabiyot tarixidan to hozirgacha yaratilayotgan asarlar tadqiqi jarayonida ko‘rishimiz mumkinki, ba’zi ramzlar asarlararo “ko‘chib yuradi”. Bu hodisani turg‘unlik bilan adashtirmaslik joiz.

Masalan, gul obrazi. Mumtoz adabiyotdan tortib bugungi kundagi modern she’riyatda ham ramz sifatida uchratamiz. Ammo ayni bir ma’noga ixtisoslashmagani uchun allegoriya bo‘la olmaydi. Ta’kidlaganimizdek, allegoriyalarda ma’noviy turg‘unlik mavjud. Ramzdan asosiy farqi ham shunda.

Masalan:

*Kechalar ul **gul** chekar ermish qadah, ey tong yeli,*

Voqif o‘l, holimni aytur chog‘da maxmur o‘lmasun.

Navoiyning “O‘lmasun” radifli g‘azalidan olingan ushbu baytda an’anaviy gul ramzini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda gul yor, ma’shuqa ramziy ma’nosini ifodalamoqda.

Eshqobil Shukur ijodida qo‘llangan ramzlarni shartli ravishda ikkiga tasnif qilish mumkin:

1. *An’anaviy ramzlar*
2. *Individual ramzlar*

Individual ramzlar deyilganda oldin adabiyotda mavjud bo‘lmagan va eng asosiysi ijodkor mahorati, o‘ziga xos badiiy tafakkurini ko‘rsatib berish uchun xizmat qiluvchi, ma’lum ijodkor tomonidan “kashf etilgan” ramz tushuniladi.

Dastlab, shoirning 4 banddan iborat, to‘rtlik shaklda yozilgan “Ko‘nglimni...” she’ri tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Birinchi band:

Ko‘nglimni toshga yordim,
Toshlar sindi-ya chil-chil.
Suv ichgali ko‘zimga
Qushlar qo‘ndiya bir-bir.

To‘rtlikdagi ko‘ngil—shoir iztirob-u dardlari, tosh—bu yerda og‘irlik ma’nosiga ishora bor, ya’ni og‘ir tabiatli inson ramzi. Ko‘rinadiki har ikkisi ham an’anaviy ramz. Lekin oxirgi misrada lirik qahramonning “ko‘zlariga suv ichgali qo‘ngan” qushlar—individual ramz hisoblanib, o‘zgalar holatidan qat’iy nazar o‘z manfaatlarini ustun ko‘ruvchi insonlar ramzidir. Ular uchun shoirning iztirobli ko‘z yoshlarining ahamiyati yo‘q, chanqog‘ini qondirsa bo‘lgani. Bu kabi go‘zal ramz shoirning o‘ziga xos badiiy tafakkur sohibi ekanligidan darak beradi.

Shoirning yana bir she’ri “Tinchlik xususida nutq” da tog‘ ramziy obrazini mahorat bilan qo‘llaydi. Bilamizki, tog‘-salobat, sabr-matonat, ulug‘vorlik ma’nolarida azaldan mavjud. Demak, tog‘ ramzi pir-u ustozlar, suyanchiq insonlar, ota-ona ma’nosida qo‘llanilsa, ayni muddaodir.

She’rning beshinchi bandida yuqoridagi ma’nolar ustuvorligining guvohi bo‘lamiz:

Yomg‘irlar shig‘alab yog‘ar bag‘rimga,
Tog‘larim yuzidan o‘par samolar.
Qachonlar xomtalash bo‘lgan yerimda,
Keza boshlaydilar ulug‘ siymolar.

Eshqobil Shukurning “Zo‘raki qahqaha” she’rida ham individul ramzni ko‘rishimiz mumkin:

Gullar, nega kulmaysiz,
Yozing g‘amgin ko‘ngilni,
Arilar topib kelar,
Qochib qolgan qotilni…

Ushbu to‘rtlikdagi ari ramziy obrazi – kuyunchak insonlar obrazini yaratishda mohirlik bilan qo‘llanilgan. Arilar chumolilar kabi tinib-tinchimaydigan mehnatkash jonzotlardir.

Guvohi bo‘lganimizdek she’rda qo‘llangan ohoriy ramzlar silsilasi shoir iste’dodining darajasi va o‘ziga xos individuallik xususiyatini belgilab berishga xizmat qilgan. Ijodkor – so‘z odami. Quruvchi o‘z mahoratini shakllar yordamida ko‘rsatib beradi, so‘z odamlari iste’dodi esa yaratgan badiiy ramzlari va she’rning boshqa unsurlari vositasida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари талабалари (бакалавр босқичи) учун дарслик. Масъул муҳаррир С.Мамажонов. 2-нашр, қайта ишланган ва тўлдирилган. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. Б. 337. (www.ziyouz.com kutubxonasi).
2. Б.Саримсоқов. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: “Bookmany print”, 2022. 37 б.
3. Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari / D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 287

–bet.
4. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri – T.: “Sharq”, 2017. 309-bet.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. Б. 244.
6. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-olmasun-alisher-navoiy-gazallariga-sharhlar.html
7. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т., Шарқ, 2002. Б 9.

Nigora RAHIMOVA,
O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti
katta o‘qituvchisi

JAROHATNI DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN DORIVOR O‘SIMLIKLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA SEMANTIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: dorivor o‘simliklarning lotincha nomlari ma’nolari va ularning terapevtik ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishning afzalliklari orasida dorivor o‘simliklarning lotincha nomlarining tibbiyot fanining turli sohalari - farmatsevtika bilan bog‘liqligi kiradi.
Kalit so‘zlar: *dorivor o‘simliklar nomlari, kelib chiqishi, semantika, lingvostatistika, lotin tili, ingliz tili, o‘zbek tili.*
Annotation: researchers have always been interested in the names of medicinal plants in Uzbek and English languages. This topic is becoming interesting and relevant for translators. In this article, we considered the historical-etymological and linguostatistical analysis of medicinal plant names in Uzbek and English.
Key words: *names of medicinal plants, origin, semantics, linguistic statistics, Latin language, English language, Uzbek language*
Аннотация: исследователей всегда интересовали названия лекарственных растений на узбекском и английском языках. Эта тема становится интересной и актуальной для переводчиков. В данной статье мы рассмотрели историко-этимологический и лингвостатистический анализ названий лекарственных растений на узбекском и английском языках.
Ключевые слова: *названия лекарственных растений, происхождение, семантика, лингвистическая статистика, латинский язык, английский язык, узбекский язык.*

Kirish. Tirik til o‘z so‘zlovchilari dunyosida mavjud bo‘lib, uni dunyo haqidagi bilimlarni hisobga olmasdan o‘rganish tirik tilni o‘lik tilga aylantiradi, ya’ni odamni bu tildan aloqa vositasi sifatida foydalanish imkoniyatidan mahrum qiladi. Insonni o‘rab turgan o‘simlik dunyosi uning mavjudligining eng muhim sharti bo‘lib, qadim zamonlardan beri odamlar bir-biriga o‘simliklar, ularning shifobaxsh xususiyatlari, o‘sish joylari, kundalik hayotda va dehqonchilikda foydalanish usullari haqida ma’lumot berib kelgan. Ushbu konseptual sohaning leksik tarkibi har qanday til lug‘atining muhim qismini tashkil qiladi. O‘simlik nomlari til tizimini lingvistik tadqiqotlar doirasida qiziqarli materialni ifodalaydi.

Olimlar ushbu muammoning turli tomonlarini ko‘rib chiqadigan ko‘plab ishlar mavjud: botanika nomenklaturasi o‘rganiladi, o‘simliklar nomlari bo‘yicha materiallar tizimlashtiriladi, turli til tizimlaridagi fitonimlarning qiyosiy, tipologik tadqiqotlari olib boriladi [1]. Tilda mavjud nominativ birliklardan yangi nomlar yasaladigan ikkilamchi nominatsiyaning lingvistik texnikasi so‘z yasashda ham, ingliz va o‘zbek tillarining leksik sohasida ham keng qo‘llaniladi. Shunday qilib, ko‘pincha ekzotik o‘simlikni nomzod qilib ko‘rsatishda, shunga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan boshqa o‘simlikning nomi ishlatiladi. Bundan tashqari, metafora va metonimiyani qayta fikrlashning asosiy usullari sifatida aytib o‘tish mumkin emas. Nomlangan obyektning nomlash uchun muhim bo‘lgan belgilari va uning ikkilamchi belgi funksiyasida qo‘llaniladigan so‘zning denotativ belgilarining kesishishi yangi og‘zaki belgilashning ichki shakli deb ataladigan shaklni tashkil qiladi. Bu ingliz va rus tillari bilan bir qatorda, xususan, o‘zbek tillariga ham taalluqlidir. “O‘simlik” tushunchasiga murojaat qilish mushtariylarning so‘z boyligini boyitishga olib keladi, ilmiy adabiyotlar va lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ularga nisbatan mehr-oqibatli munosabatni shakllantiradi, o‘z ona yurtining tili, tarixi va madaniyati, shuningdek, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga hissa qo‘shadi [4]. Dorivor o‘simliklardan foydalanishning mashhurligi, shuningdek, dorivor o‘simliklar sintetik kelib chiqadigan

dori-darmonlarga ega bo‘lmagan bir qator afzalliklarga ega bo‘lganligi sababli oshdi. Masalan, sintetik yo‘l bilan olingan biologik faol moddalar farmakologik ta’sirida ularning tabiiy analoglaridan juda past bo‘ladi. Bunday holda, afzallik "tirik laboratoriya", ya’ni o‘simlik bilan qoladi [3].

Dorivor o‘simliklarning yana bir afzalligi ularning past toksikligi, murakkab ta’siri va sezilarli nojo‘ya ta’sirlarsiz uzoq muddatli foydalanish imkoniyatidir. Bundan tashqari, sintetik kelib chiqadigan dori vositalariga haddan tashqari qaramlik "giyohvandlik kasalligi" deb ataladigan narsaga olib keldi – sintetik kelib chiqadigan dori vositalarini nazoratsiz qo‘llash natijasida yuzaga keladigan asoratlar, allergik reaksiyalar [2]. Dorivor o‘simliklarning aholi o‘rtasida ommalashib borishi munosabati bilan dorivor o‘simliklarning nafaqat inglizcha, balki lotincha nomlarini ham, ularning terapevtik ta’sirini ham aniq bilish bo‘lajak mutaxassislar uchun dolzarb va zarur bo‘lib bormoqda [1]. Dorivor o‘simliklarning lotincha nomlari ma’nolari va ularning terapevtik ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishning afzalliklari orasida dorivor o‘simliklarning lotincha nomlarining tibbiyot fanining turli sohalari – farmatsevtika bilan bog‘liqligi kiradi (chunki dorivor o‘simliklarning lotincha nomlari ularning kimyoviy tarkibini aks ettirishi mumkin), anatomiya (dorivor o‘simlikning lotincha nomi, uning terapevtik ta’sirining muayyan anatomik shakllanishga tegishliligini ko‘rsatishi mumkin), klinika (dorivor o‘simlikning lotincha nomi, uning tegishliligini muayyan kasallik yoki alomatlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin).

Amalga oshirilgan tadqiqotning yangiligi dorivor o‘simliklarning lotincha nomlarini ularning tarkibiga kiradigan semantik elementlarning leksik ma’nolari va o‘simliklarning terapevtik ta’siriga muvofiq tizimlashtirishdadir. Dorivor o‘simliklar – odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar — giyohlar [5].

Natijalar va muhokama. O‘simlikning leksik-semantik guruhi integral tizim sifatida lug‘atni tavsiflashda tizimdagi elementlarning o‘zaro ta’sirining qonuniyatlarini tahlil qilishni hisobga olgan holda tilning rivojlanish va ishlash mexanizmlari haqida eng aniq va obyektiv fikrni beradi. Leksik-semantik guruh – bu nutqning bir qismidagi so‘zlar sinfi bo‘lib, ular o‘z ma’nolarida juda umumiy integral semantik komponent yoki komponentlar va tipik aniqlovchi differensial komponentlarga ega. Tilshunoslikda leksik-semantik guruhning tuzilishi o‘zak (markaz) va periferiyani aniqlash asosida ko‘rib chiqiladi. Asosiy qism eng keng tarqalgan va keng tarqalgan belgilashlarni o‘z ichiga oladi va periferiya eng kam tarqalgan leksik-semantik guruhdan iborat. Turli leksik-semantik guruhlarni o‘rganish va tavsiflash hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. "O‘simlik" tushunchasini ifodalovchi leksik birliklarni tahlil qilib, biz ular adabiy tilning botanika nomenklaturasi lug‘ati va so‘zlashuv, dialekt nominatsiyalari kabi o‘ziga xos xususiyatlarga ega degan xulosaga keldik. Bu leksik birliklar guruhi ancha murakkab tuzilishga ega.

Xulosa. Shunday qilib, turli xil frazeologik iboralar, xususan, "o‘simlik" tushunchasi bilan qayta o‘ylangan holda, tilni tushunish kuchayadi va nutq madaniyati yaxshilanadi. "O‘simlik" tushunchasi bilan frazeologik birliklarni o‘rganish ko‘p jihatdan xalqlar madaniyati va hayotini tushunishga yordam beradi, hozirgi o‘zbek va ingliz tillarining frazeologik birliklari qanchalik xilma-xil va ifodali ekanligini aniq tasavvur qilish mumkin va ular bir-biridan farq qiladi. Ushbu tillarning majoziy vositalarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari bizga lingvistik birliklarning birligi va o‘ziga xosligini ko‘rishga yordam berdi, chunki bu tasvirlarning o‘zaro munosabati tilshunoslikdagi juda qiziq hodisadir.

Qiyosiy motivologiya zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi bir til yoki turli tillardagi so‘zlar uchun motivatsiyaning umumiyligi va o‘ziga xosligidir. Qiyosiy motivologiyaning obyekti – taqqoslanadigan tillardagi so‘zlarning motivatsiyasi, predmeti – taqqoslanadigan tillardagi so‘zlarning turli jihatlardagi motivatsiyasi fenomenining umumiyligi va o‘ziga xosligi: ontologik-uslubiy, tavsifiy-qiyosiy, leksikografik, funksional, lingvomadaniy. Taqqoslangan tillarning dorivor o‘simliklari nomlari uchun motivatsiyaning umumiyligi va o‘ziga xosligi ularning leksik-semantik guruhga – nutqning bir qismidagi so‘zlarning katta guruhiga kiritilganligini hisobga olgan holda ko‘rib chiqilishi kerak, bitta so‘z bilan birlashtirilgan – ma’nosi guruhning boshqa so‘zlari ma’nosiga to‘liq kiritilgan va ba’zi kontekstlarda boshqa so‘zlar o‘rnini bosa oladigan aniqlovchi yoki to‘liq iboradir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A., Gulyamov M., & Mishin O. (2023). Semantic characteristics of names of medicinal plants in languages of different systems (based on Russian, English and Uzbek languages). Bulletin of Udmurt University. Series "History and Philology", (1), 147-153.

2. Komilov I. The phenomenon of medicine in the cultural horizon: the theoretical basis of analysis and ethno-cultural specification. Tomsk: IAA SB RAS Publishers, 2022.

3. Mirjonov N. N. (2022). SHIFOBAXSH O‘SIMLIK NOMLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. Scientific progress, 3 (2), 214-223.

4. Maznev N. I. Encyclopedia of medicinal plants. 3rd ed., corr. and add. Moscow. Martin. 2022.
5. Раздорская О.В. (2018). Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках. Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, (4 (81)), 184-187.

Sayyora HOJIYEVA
BuxDU filologiya fakulteti
adabiyotshunoslik yo'nalishi
2-bosqich magistri

ANVAR OBIDJON ASARLARIDA XALQONA RUH TASVIRI

Anotatsiya: ushbu maqolada folklore janrlarining, namunalarining stilizatsiyasi xususida to'xtalgan. Anvar Obidjonning "Jiqqa" hikoyasi, "dahshatli meshpolvon" qissasi, "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan", "Alamazon va uning piyodalari" asarlari tarkibida uchraydigan oddiy va analitik folklorizm namunalari tahlilga olingan.

Kalit so'zlar: *folklor, yozma adabiyot, stilizatsiya, bolalar adabiyoti, xalq qo'shiqlari, marosim folklori, oddiy folklorizm, analitik folklorizm, kelin salom*

Anotation: This article consists of the stylization of folklore genres and examples. Examples of typical and analytical folklorism found in the composition of Anvar Obidjon's works: such as "Jikqa", "Dashhatli Meshpolvan", "Mottivoymisan, Mittivoymisan", "Alamazon and his footmen" were analyzed.

Key words: *folklore, written literature, stylization, children's literature, folk songs, ritual folklore, typical folklore, analytical folklore.*

Folklor xalq orzu-armonlarining ifodachisi o'laroq nafaqat mumtoz adabiyotda, balki bolalar yozma adabiyotida ham o'z o'rniga ega. Yozma adabiyotda bir qator ijodkorlar o'z asarlarida folklordan turli maqsadlarda foydalanadilar. Jumladan, bolalar adabiyotining o'tkir qalam sohibi Anvar Obidjon ham bolalarda ona vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, mardlik kabi sifatlarni shakllantirish maqsadida asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangan. Ayniqsa, "Jiqqa" hikoyasidan olingan misolda buni yaqqol kuzatishimiz mumkin.

– O'zi zindonda, dumi osmonda. Nima?

– Sholg'om! – deydi mehmon.

Topishmoqning javobi tezdayoq topilganidan jahllangan O'g'iloy peshanasini tirishtiradi. Tumtayib turib, ikkinchi topishmoqni aytadi:

– Kichkina mehmon – nafsi yomon. Nima?

Mehmonning: "Menimcha-a, bu pashsha bo'lsa kerak", deganini eshitib, ko'ngli yana g'ashlanadi. Endi uchinchi topishmoqqa gal keladi:

– Akasi achchiq, ukasi sassiq. Nima?

Mehmon bu safar o'ylanganicha turib qoladi. Uning o'ylanishi qancha uzoqqa cho'zilsa, O'g'iloyning bahri-dili shuncha ochilib boraveradi. Birpas o'tib: "Iy! Topolmadingizmi? Topolmasangiz, shahar bering. Qaysi shaharni berasiz?" – deb qiqirlaydi. Mehmon: "Ha, bo'pti, Marg'ilonni berdim", degach, yayrab jaqillashga tushadi:

– Siz ketaverdingiz, ketaverdingiz, yo'lda chuqur uchrab "shalop" etib balchiqqa yiqildingiz. Men ketaverdim, ketaverdim, yo'lda chuqur uchrab, "jarang" etib oltinlarga yiqildim. O'sha oltinlarga Marg'ilonni sotib oldim. Marg'ilonning taxtida o'tirib, "Akasi achchiq, ukasi sassiq" nimaligini aytsam, u – piyoz bilan sarimsoqpiyoz. Xi-xi-xi, xi-xi-xi.

"Jiqqa" hikoyasidan olingan ushbu parchada xalq paremik ijodi namunasi sanalgan topishmoq janri keltirilgan: "O'zi zindonda, dumi osmonda"(sholg'om), "Kichkina mehmon-nafsi yomon" (pashsha), "Akasi achchiq, ukasi sassiq"(sarimsoqpiyoz). Bilamizki, bolalarni topqirlikka, tezkorlikka, hozirjavoblikka undovchi janr topishmoqdir. Hikoyaning qiziqarliligini, o'qishliligini ta'minlash uchun yozuvchi aynan shu janrni qo'llagan.

Folklor asarlaridan ta'sirlanish, undagi obraz, motivlardan foydalanish, folklorga xos ohang va janrlarda ijod qilish Anvar Obidjon asarlarining xalqchilligini ta'minlabgina qolmay, balki uning badiiy qimmatini ham oshirgan. Shu bilan birga asarlarida xalq maqollari, xalqona iboralar yordamida turli so'z o'yinlarini hosil qilish, folklorga xos badiiy tasvir vositalaridan foydalanish adibning o'ziga xos uslubi va mahoratini namoyon qilgan. Oddiy va analitik folklorizm ko'rinishidagi folklor namunalarini mohirona qo'llash adib asarlarining jozibadorligini va qiziqarliligini ta'minlagan.

Folklor materiallaridan har tomonlama unumli foydalanish iste'dodiga ega bo'lgan ijodkorimiz Anvar

Obidjon asarlarida juda ko’p o’rinlarda maqollar, iboralar va matallarni qo’llaydi. Jumladan,

Quvonchim qulog’imdan toshgudek
Yaxshi gap bilan itning og’zidan suyakni olish mumkin
Kalning ko’ngli taroq tusabdi
Ko’rpangga qarab oyoq uzat

Qo’rqqan oldin musht ko’tarar kabi maqol va iboralar asar ohangdorligini, xalqchilligini oshirishga xizmat qilgan.

Xalq qo’shiqlari “o’ta milliy, tarixiy, badiiy-estetik hodisa” sanaladi. Ular millatning bitmas-tuganmas boyligidir. Qo’shiqlar juda qadim zamonlardan yaratilib, kuylanib kelinmoqda, shu bilan birga xalq she’riyatining qadimiy, an’anaviy, ommaviy turi hisoblanib, insonga doimiy hamroh, ma’naviy turmushda ko’makchi, milliy marosimlarning betakrorligini ta’minlovchi badiiy hodisa sanaladi. Qo’shiqning bir nechta turlari bo’lib, yozma adabiyotda , asosan, mavsumiy, oilaviy-maishiy va lirik qo’shiqlar stilizatsiya qilingan she’rlarni uchratish mumkin. Fikrimizni Anvar Obidjon asarlaridan olingan misollar asosida dalillaymiz.

“Dahshatli Meshpolvon” qissasi bosh qahramoni Meshpolvonning og’zidan tushmaydigan, har gal ishi yurishib qolganda xirgoyi qiladigan mashhur xalq qo’shiqlaridan biri:

Olma yedim baqalog’idan,
Gilos yedim chaqalog’idan,
Anjir yedim yapalog’idan,
Bog’bon buvaning shapalog’idan…

Ushbu xalq qo’shig’ining stilizatsiyasi orqali muallif qahramon xarakteriga xos bo’lgan samimiylik va jo’shqinlik kayfiyatini ko’rsatib bergan.

Bundan tashqari, asarda xalq marosimi bilan bog’liq qo’shiqlar ham o’rin olgan bo’lib, ularda xalqona ruh ufurib turadi. Quyida keltirilgan parcha ham xalqimizning azaliy urf-odatlaridan biri bo’lmish “Kelin salom” marosimi bilan bog’liq analitik folklorizmni yuzaga chiqargan.

Nos chekishga berilgan,
Kampiriga kerilgan,
Salom-salom, kelin salom,
Qaynatasiga bir salom.
Sirini to’yda ochayin,
Qozon-tovoqqa xo’jayin,
Salom-salom, yana salom,
Qaynanasiga bir salom
Qimmat ro’mol o’ragan,
Saqichni qarzga so’ragan,
Salom-salom, kelin salom,
Qayinsingillarga salom.

Joyni tepadan talashgan,
Oshtovoqni yalashgan,
Salom-salom, kelin salom,
Mehmonlarga bir salom.

Bilamizki, marosim folklori o’zbek xalqining ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo’lib kelayotgan hayotining ajralmas bir bo’lagidir. Ularsiz hayotimizni tasavvur etish qiyin, albatta. Shuning uchun bu kabi qo’shiqlar nafaqat xalq og’zaki ijodida, balki yozma adabiyotimizda ham yashab kelmoqda.

Bolalar adabiyotining eng sermahsul janrlaridan biri ertakdir. Anvar obidjon ijodida ham folklor ertaklariga xos janriy xususiyatlar, obrazlar va ertaklardagi motivlarga murojaat ko’plab uchraydi. Xususan, “Alamazon va uning piyodalari” qissasida Zimistonsaroyga kirib qolgan Alamazon va Eshmat borayotgan yo’llari tobora torayib jipslashib qolganini ko’rib, yoshligida buvisidan eshitgan Ali Bobo haqidagi ertak qo’qqis yodiga tushib, ikki-uch qadam ortga tisariladi-da: “Sim-sim och eshigingni!”- deb qichqiradi. Bilamizki, ertaklar xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida quriladi. Sehrli so’zlar orqali mo’jizalar yuz berishi ko’pchilik xalq ertaklaridagi an’anaviy motivlardan sanaladi. Bu o’rinda esa yozuvchi xalq ertaklaridan aynan parcha keltirish orqali analitik folklorizmni hosil qilgan. Yoki asar qahramonlari Alamazon va Eshmatning xazina izlab uzoq yo’lga chiqishlari xalq ertaklariga xos bo’lgan safar motivi bo’lsa, ularning xazinanani qo’lga kiritish yo’lidagi turli mashaqqatlari esa sujet stilizatsiyasining ko’rinishidir.

Shunday qilib, folklor namunalarining stilizatsiyasi orqali Anvar Obidjon o’z asarlarida xalqning ruhiyati, an’analari va qadriyatlarini aks ettirishga intildi. Bu esa o’quvchiga o’zbek xalqining boy tarixini va madaniyatini his qilish imkonini beradi, abatta.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jabbor Eshonqul.Folklor:obraz va talqin. Qarshi: Nasaf, 1999.
2. Sarimsoqov B. Folklor va yozma adabiyot munosabatlariga doir izlanishlar//O’zbek tili va adabiyoti.-1976.-№5.
3. Oxunjon Safarov. O’zbek xalq og’zaki ijodi.-Toshkent,2010.
4. Laylo Sharipova. XX asrning 70-80-yillari o’zbek she’riyatida folklorizm.-Toshkent, 2011.
5. Anvar Obidjon.Alamazon va uning piyodalari.-Sharq,2019.

O. F. ACHILOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti

MULOQOT MATNIDA MAQOLLARNI FAOLLASHTIRUVCHI OMILLAR (o‘zbek va yapon tili misolida)

Annotatsiya: maqolada buyruq mazmunidagi yapon maqollarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda tayaniladigan omillar va imperativ maqollarda muqobil tarjima usullari haqida fikr yuritilgan. Tarjima jarayonida tarjimon mahoratini shakllantirishga turtki beradigan va tarjima tabiiyligini ta’minlovchi omillarga to‘xtalingan. Shuningdek, maqollarda imperativlikning ahamiyati haqida fikr keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *buyruq, muqobilsizlik, imperativlik, paremiya, maqol, nutq, tarjima, mahorat, muqobillik.*

Аннотация: в статье обсуждаются факторы, на которые опираются переводы повелительных японских пословиц на узбекский язык, и альтернативные методы перевода повелительных пословиц. В процессе перевода обсуждаются факторы, способствующие формированию навыков переводчика и обеспечивающие естественность перевода. Также пословицы дают представление о важности повелительного наклонения.

Ключевые слова: *альтернатива, безальтернативность, императив, паремия, пословица, команда, речь, перевод, умение.*

Annotation: in this article, the factors relied on in the translation of imperative Japanese proverbs into Uzbek language and alternative translation methods for imperative proverbs are discussed. In the process of translation, the factors that encourage the formation of the translator's skills and ensure the naturalness of the translation are discussed. Also, proverbs give an idea about the importance of imperativeness.

Key words: *alternative, non-alternative, imperative, paremia, proverb, command, speech, translation, skill.*

Kirish. Maqollarda ma’lum ish-harakat buyruq-istak shaklida ifodalansa - di, harakatni bajarishi lozim bo‘lgan subyekt hamda nazarda tutilgan obyektning qachon va qayerda bajarilishi lozim ekanligi haqidagi ma’lumot aniq ko‘rsatilmaydi. Chunki imperativ maqollarda ishora qilinayotgan ish-harakatni bajaruvchi shaxsni va u bajaradigan harakat nimadan iborat ekanligini aniqlashdan ko‘ra, ushbu faoliyat vositasida tinglovchi o‘z harakat yo‘nalishini aniqlab olishi muhim hisoblanadi. Masalan, “Gap bilan shoshma, ish bilan shosh” [5:89] maqolida ishora qilinayotgan “ish”ning bajarilish zamoni va makoni haqida aniqlik kiritib bo‘lmaydi, ammo maqolda ishora qilinayotgan “ish”ni istalgan vaqtda bajarish maqbul harakatlardan ekanligini tushunish va uni tezda amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini anglash mushkul emas. Boshqacha qilib aytganda, vaziyat yuzaga keladigan vaqt uchun aniq chegara mavjud bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Harakatga undovchi maqollar tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shart mayli asosida buyruqning faollashish holatlari ko‘p uchrashini kuzatish mumkin. Masalan, “Boshliq bo‘lsang, boshli bo‘l” yoki “Aqling bo‘lsa, oqilga ergash, aqling bo‘lmasa – naqlga” kabi maqollar tarkbida shart maylida ifodalangan “bo‘lsang”, “bo‘lsa” va “bo‘lmasa” so‘zlari bajarilishi nazarda tutilayotgan harakat uchun belgilangan aniq muddat yoki joyni anglash imkonini bermaydi va harakat ijrosi vaqt bilan chegaralanmaydi [1:123].

Shuningdek, yapon xalq maqollaridan 「人を呪わば穴二つ。」[8:98] “Birovni azoblash niyating bo‘lsa, o‘zingga ham chuqur qazi” maqolini tahlilga tortadigan bo‘lsak, kishi kimgadir ozor berish maqsadida unga qabr qazisa, buning uchun u, albatta, jazolanishi va o‘z qabrini ham qazishga majbur bo‘lishi haqida saboq olish mukin.

Ravshanki, bu turdagi maqollarda ergash gapda ko‘rsatilgan predikatni bajarish maqsadga muvofiq bo‘lib, avval aytib o‘tganimizdek, maqollarda buyruq beruvchi shaxs va ish-harakatning predmeti belgilanmaydi va nutqda umumiylikka urg‘u berilishi kabi xususiyatlar bilan imperativ maqollar buyruq gaplar bilan zidlanishi kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, buyruq gaplar tarkibida adresat va adresant, ya’ni buyruq beruvchi va uning ijrochisining mavjudligi hamda so‘zlovchi nazarda tutayotgan harakat ijrosi uchun belgilangan makon va vaqt konkretlashtirilgan bo‘lib, ushbu harakat ijrosi aniq muddat asosida amalga oshirilishi lozim.

Natijalar. Imperativ shaklga ega bo‘lgan maqollarning semantik xususiyati shundan iboratki, ular aksariyat hollarda shaxsni ma’lum bir harakatni amalga oshirish yoki uni bajarmaslik ma’nosida nutqda faollashadi. Ushbu xususiyat imperativ maqollarni semantik jihatdan imperativ gaplar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, “Yomonga sir aytma, yurtga yoyar” yoki “Yomonga qiz tugul, tuz ham berma” kabi jamiyatga axloqiy saboq berish mazmunidagi maqollar “Yomonga siringni aytma, yurtga yoyadi” yoki “Yomonga qizing tugul, tuzingni ham berma” tarzida imperativ mazmundagi darak gap shaklida dialogik nutqda voqelanishi ham mumkin. Biroq, maqollarda buyruqni bildiruvchi shaxs yoki buyruq ijrosini ta’minlovchi subyekt aniq elementlar asosida ko‘rsatilmaydi. Aksincha, buyruq gaplar takibida esa ushbu holat konkretlashtirilishi bilan tafovutlanadi.

Umuman olganda, imperativ maqollar ajdodlarning

hayotiy tajribalari asosida yartilgan bo‘lib, qaltis vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topishi uchun avlodga saboq berish xususiyatiga ega bo‘lgan yo‘riqnoma sifatida qaraladi va bunda harakat ijrosini bajarish yoki uni rad etish tinglovchi ixtiyorida bo‘ladi. Shuningdek, maqollar tarkibida ishora qilinayotgan imperativ mazmun fe’lning majhul nisbatida faollashish holati deyarli kuzatilmasdan, ushbu holat asosan buyruq mazmunidagi jumlalarga xos bo‘ladi. Maqollar har qanday ko‘rinishda ham har qanday jamiyatda kishilarga hayotiy saboq va xolis pand-nasihat berishda tayaniladigan eng ishonchli manba sifatida qabul qilingan. Xususan, kishilarning nojo‘ya harakatlari yoki noxush vaziyatlarni tanqid qilish, ularni ma’lum bir xavf-xatardan ogoh etish hamda yashash uchun ruhlantirish kabi holatlarda ishonchli vosita sifatida ishlatilgan. Masalan, “Kerilma g‘oz, hunaring oz” yoki “Maqtanma g‘oz, hunaring oz” maqolida bevosita imperativlikning mavjudligi nutq intensiyasining muloqotdoshni harakat ijrosini ta’minlashdan ko‘ra, uning maqtanchoq xulqini keskin tanqid qilishga ko‘proq yo‘naltirilganligini ifodalasa, “Ilon o‘z egriligini bilmas, tuyaning bo‘ynini egri der” maqolida esa inson o‘zi sodir etgan xato-kamchiliklarni his etmasdan, atrofdagi kishilarni tanqid qilishi va ularni azmayish qilishi kabi noxush vaziyatlarda qo‘llaniladi.

Muhokama. Shu o‘rinda, yapon xalq mentalitetidan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, suhbatdosh o‘z manfaati uchun atrofdagilarni harakatga undashi yoki ularga nisbatan bevosita imperativ mazmundagi iboralarga murojaat qilishi nomaqbul harakatlardan bo‘lib, ushbu holat maqollar uchun istisno hisoblanadi. Chunki, maqollarda undalayotgan harakatdan erishiladigan natija so‘zlovchi manfaati uchun emas, aksincha, ushbu harakat ijrochisi bo‘lgan shaxs uchun foydali bo‘lib, tinglovchi tomonidan ijobiy mazmunda qabul qilinadi. Masalan, 「老いては子に従え。」“Keksayganda bolangga ergash” maqoli shunday maqollar sirasiga kirsa,「明日のために心配するな。」[9:76] “Ertangi kundan g‘am yema” imperativ maqollar kishini ko‘ngil xotirjamligi va hayotga umid bog‘lab, ruhlantirish holatlarida qo‘llaniladi.

Shuningdek, 「念には念を入れよ。」“Ehtiyot ustiga ehtiyot” kabi kishini xushyorlikka chorlash maqsadida yaratilgan imperativ maqollar guruhini ham ko‘plab uchratish mumkin. Bu mavzuda o‘zbek tilida “Ehtiyoting bo‘lsa, ehtiyojing bo‘lmas” yoki “Devor shohid so‘zingga, ehtiyot bo‘l o‘zingga” kabi maqollarni tahlilga tortish mumkin.

Maqollar aniq bir shaxsga emas, balki jamiyatda har bir kishiga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Ularda aks ettirilgan xabar, o‘git yoki saboq ma’lum bir shaxning emas, balki butun bir jamiyatning tavsiyasi sifatida izohlanadi. Maqollarda fikr lo‘nda va to‘liq tugallangan holatda qamrab olingani bois, muloqotdoshni bevosita tanqid qilish yoki uni ma’lum bir harakatga undash jarayonida imperativ maqollarga tayanish samarali usullardan hisoblanadi.

Maqollar dastlab kishilarning shaxsiy hayotiy tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, keyinchalik jamiyatda keng tarqalganligi ma’lum. Maqollar asosan hikmatli fikrlar jamlanmasi bo‘lgani bois, dono fikrlarni ifodalash uchun nutqda keng qo‘llaniladi. Ayonki, donolik va hikmatlarga tayanib ish tutish o‘z navbatida har bir xalqning o‘z e’tiqodlari bilan uzviy bog‘liqdir [4:65]. Boshqacha aytganda, hikmatlar majmui bo‘lgan maqollar kishilarning kundalik tashvishlari, sog‘lom fikr va yaxshi xulq-atvoriga oid etik, estetika va diniy ta’limotlar to‘plami hamdir. Bunday hikmatli iboralardan tarkib topgan maqollar zamirida kishilarning hayoti davomida sodir bo‘ladigan turli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishi va donolik bilan xulosa chiqarishga undashga ishora qiluvchi mazmun mujassamdir.

Xulosa. Yapon jamiyati va o‘zbek jamiyati o‘rtasida tabiat va vaqtni qadrlash, oilaviy va dunyoviy munosabatlar hamda kishilarni birdamlikka undash kabi tushunchalar haqidagi g‘oyalarida katta tafovutni uchratish mumkin. Ushbu holat o‘z navbatida har ikkala xalq paremiyalariga ham bevosita ta’sir o‘tkazishi shubhasiz.

Umuman olganda, biz qiyoslanayotgan o‘zbek va yapon maqollari va ularning yaralishi tarixi hamda ilgari surilayotgan g‘oyalar tahlili jarayonida har ikkala jamiyatning o‘zini namoyon qilish uslubiga oid ajoyib o‘xshashliklar va o‘zgacha tafovutli jihatlarning guvohi bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абакумова О.Б. Пословицы в языке, сознании и коммуникации. - СПб: Издательский дом «Алеф - Пресс», 2012.
2. Алпатов В. М. Япония. Язык и общество. - М.: Наука, 1988.
3. Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. - Челябинск: 2018.
4. Пермяков. Г.Л.Пословицы и поговорки народов Востока. -М: 1979.
5. Тўра Мирзаев, Асқар Мусоқулов, Баҳодир Саримсоқов. Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа аксиядорлик корапанияси Бош таҳририяти, 2005.
6. Абе Кейко（ 阿部佳子）疑問命令文について：関連性理論の立場から//人間文化研究科年報、№ 16. - 奈良女子大学. 2000 .
7. Исикава Микико (石川美紀子)「命令に関する試論ー語用論的条件と構文的条件との関係から ー」- 2002.
8. Мацуги Шигеру（松木茂）「ミニことわざ辞典」東京： 1993.

Ории Эйжи（折井英治）「暮らしの中のことわざ辞典」 東京： 1962

Сабина ЮЛДАШЕВА,
преподаватель Коканского государственного педагогического института

СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ АДВЕРБИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: в данной статье рассматривается семантическая классификация деепричастных фразеологизмов в русском языке и семантическая классификация дополнительных фразеологизмов в русском языке с использованием метода компонентного анализа.

Ключевые слова: *адвербиальные фразеологизмы, семема, фразема, лексема, план выражения, план содержания.*

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tilida adverbial fraseologik biriklarning semantik tasnifi hamda komponentli tahlil usulini qo'llash orqali rus tilidagi qo'shimcha frazeologik birliklarni semantik tasniflash haqida so`z boradi.

Kalit so‘zlar: *ergash gapli frazeologik birliklar, semema, frazema, leksema, ifoda rejasi, mazmun rejasi.*

Annotation: this article deals with the semantic classification of adverbial phraseological units in the Russian language and the semantic classification of additional phraseological units in the Russian language using the method of component analysis.

Key words: *adverbial phraseological units, sememe, phraseme, lexeme, expression plan, content plan.*

Наречные фразеологические единицы русского языка нуждаются в дополнительном изучении, а следствием недостаточного внимания лингвистов к наречной фразеологии является включение наречных фразеологизмов в состав глагольных, это касается единиц русского языка со словами-сопроводителями: в три ручья (плакать), до седьмого пота (трудиться) и т. п. Об успешных попытках изучения различными методами и приемами семантики АФЕ (адвербиальных фразеологических единиц) русского языка свидетельствуют имеющиеся статьи и монографии. В них АФЕ исследуются не только в области русского языка, но и в сравнении с фразеологическими системами других языков, относящихся преимущественно к индоевропейской семье. В ранних работах семантические группы, выделяемые среди АФЕ, устанавливались на основе семантических разрядов наречных лексем (Л.В. Орлова, А.В. Жуков, А.И. Молотков, О.П. Иванова, А.Д. Зиньков и др.), в более поздних работах данные единицы уже рассматриваются в составе какой-нибудь конкретной ФСГ (фразео-семантической группы), где они составляют ее значительную часть: «степень», «время», «количество», «предельность» (Л.А. Мизяева, С.В. Столбунова, Р.А. Семергей, С.И. Кравцова, Б. Штефан и др.). Особо следует остановиться на диссертации К.Т. Мирзаевой. В ее исследовании изучение синтагматических свойств, рассматриваемых ФЕ (фразеологических единиц) проводится на материале русского языка. По характеру значения она ФЕ с качественно обстоятельственной семантикой делит на следующие группы: 1) со значением образа действия; 2) со значением собственно качественной характеристики действия (состояния); 3) со значением, характеризующим эмоциональное отношение к выполняемому действию. Каждая из названных групп делится, в свою очередь, на подгруппы, объединенные общим элементом значения. Внутри каждой из них определяются структурные типы ФЕ [1]. Анализ литературы по данной проблеме показал, что с точки зрения семантики АФЕ в русском языке во всей своей совокупности и целостности изучены еще недостаточно.

АФЕ, как словарные единицы языка, имеют много общего с идентифицирующими их словами. Но при внимательном сравнении выражаемых ими значений обнаружится, что они имеют и существенные различие. Такой отличительной чертой является то, что в смысловой структуре АФЕ как бы сосуществуют две семы, одна их которых является носителем вещественного, материального значения, а другая только выражает дополнительный, добавочный оттенок значения типа: «очень», «совершенно», «абсолютно», «весьма», «крайне», «чрезвычайно», которые могут лишь указывать на высшую, крайнюю степень проявляемого признака, действия, заложенного в ее основной смыслоразличительной семе[2].

Сравним: быстро (обычное) – во все лопатки / сломя голову (очень быстро) или мало (обычное) – кот наплакал /с гулькин нос (очень мало). С точки зрения внутреннего содержания ФЕ, относящиеся к разряду наречных, состоят минимум из трех элементов: семы вещественного содержания, категориальной семы, усилительной семы. Причем, последняя лишь усиливает выражаемое

данным ФЕ значение, заключенное в ее семе вещественного содержания, которая выполняет также смыслоразличительную функцию, а усилительная сема служит для обобщенного наименования данного фразеологограмматического разряда. Например, у таких АФЕ: через пень колоду, испокон веков, пощучьему велению – усилительный оттенок значения особо во фразеологических словарях не отмечается. Но если более пристально рассмотреть их смысловую структуру, то обнаружится, что и в этих ФЕ наличествует усилительная сема[4].

